

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**Z.T.NISHANOVA, N.G.KAMILOVA,
D.U.ABDULLAYEVA, M.X.XOLNAZAROVA**

**RIVOJLANISH
PSIXOLOGIYASL
PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan 5110900 — Pedagogika va psixologiya ta‘lim
yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

«O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti
TOSHKENT - 2018

UO‘K 37.015.3(075.8)

KBK 88.4

N 69

Nishanova, Z.T.

Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. — Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati* nashriyoti, 2018. — 600 b.

UO‘K 37.015.3(075.8)

KBK 88.4

Darslikda rivojlanish va pedagogik psixologiyaning predmeti, metodlari, bo‘limlari, ta’lim, tarbiya va o‘qituvchi psixologiyasi haqida so‘z yuritiladi. Unda chaqaloqlik davridan qarilik davrigacha shaxsning psixologik rivojlanish xususiyatlari aks ettirilgan. Ta’lim psixologiyasiga bag‘ishlangan bobda o‘quv faoliyatining psixologik mohiyati, bilimlarni o‘zlashtirishning psixologik komponentlari, ta’limning noan’anaviy usullari, mustaqil tafakkurni rivojlantirish, ta’lim jarayonini boshqarish haqida bayon etiladi. Tarbiya psixologiyasi bobida tarbiyaning samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar, o‘qituvchi psixologiyasi bobida, pedagogik qobiliyatlar, o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar haqida fikr yuritiladi. Darslik pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabalari, magistrlar, o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchi-tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

N.S.Safoyev — TDPU professori, psixol.f.d.

A.Shamshetova — O‘zDJTU dotsenti, psixol.f.n.

Psixologiya fanlari doktori, professor **Z.T.NISHANOVA** tahriri ostida

ISBN 978-9943-5488-7-9

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodni tarbiyalaydigan o‘qituvchilarga, ertaga o‘rnimizga keladigan kadrlarga bog‘liqdir. Kadrlar tayyorlash masalasiga Respublikamizning Birinchi Prezidenti katta e‘tibor berganliklarini, ularning quyidagi fikrlaridan bilib olishimiz mumkin: «Biz oldimizga qanday vazifa qo‘ymaylik, qanday muammolarni yechish zarurati tug‘ilmasin, gap oxir-oqibat baribir kadrlarga yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz mamlakatimiz kelajagi o‘rnimizga kim kelishiga yoki boshqacha qilib aytganda qanday kadrlar tayyorlashimizga bog‘liq». Barcha qonun va qarorlar orasida «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» alohida o‘rin tutadi va unga milliy g‘oyaning bir qismi sifatida qaraladi.

Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e‘tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Ma‘naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o‘z-o‘zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi. Har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalash, ularga ta‘lim berish ishlarini esa o‘qituvchilar amalga oshiradilar. Shuning uchun bo‘lg‘usi psixologlar hozirgi pedagogika oliy o‘quv yurti talabalari rivojlanish psixologiyasi, pedagogik psixologiya fanlarini chuqur bilishlari maqsadga muvofiq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 8-oktyabrdagi F-4724-son farmoyishi bilan tashkil qilingan ishchi guruh tomonidan oliy ta‘lim tizimidagi holatni o‘rganish natijalariga ko‘ra, 2017—2021-yillarda Oliy ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi bo‘yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta‘minlash va xorij adabiyotlari asosida darslarni innovatsion shakllarda olib borish haqidagi fikrlariga muvofiq ushbu darslik tayyorlandi.

Darslik ijodiy guruh tomonidan tayyorlangan. Darslikning I, II, IV, VI, VIII, XIII boblari psixologiya fanlari nomzodi, dotsent N.G. Kamilova tomonidan, III, V, IX—XII psixologiya fanlari nomzodi, dotsent M. Xolnazarova tomonidan, VII, XIV—XVIII boblari katta o‘qituvchi D.U. Abdullayeva tomonidan, XIX—XXIII boblari psixologiya fanlari doktori, professor Z.T.Nishanova tomonidan tayyorlangan.

I BOB. YOSH PSIXOLOGIYASINING PREDMETI, VAZIFALARI

Reja:

1. Yosh psixologiyasi fanining predmeti.
2. Yosh psixologiyasi fanining nazariy va amaliy vazifalari.
3. Psixik rivojlanish determinatsiyasi muammosi.
4. Yosh psixologiyasining asosiy tushunchalari.

Mavzu o'quv maqsadi:

Ta'limiy: bo'lajak psixologlar tomonidan yosh psixologiyasi fanining predmeti, vazifalari, bo'limlari haqidagi bilimlarning o'zlashtirilishini tashkil etish.

Tarbiyaviy: bo'lajak psixologlar tomonidan yosh psixologiyasi fanining predmeti, vazifalari, bo'limlari haqida bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: mavzuning ta'limiy va tarbiyaviy o'quv maqsadlari asosida talabalar dunyoqarashini kengaytirish.

Tayanch tushunchalar: predmet, obyekt, vazifa, determinatsiya, rivojlanish, yosh psixologiyasi, psixologik yosh.

1.1. Yosh psixologiyasining predmeti

Hozirgi davrda mamlakatimizda, shu jumladan xalq maorifi tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar o'qituvchilar, barcha pedagoglar oldiga o'quvchining bilimlarni yuksak darajada o'zlashtirishi; o'quvchilar mustaqil tafakkurini, ular aktivligini rivojlantirish; ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash; ularning tafakkur, muloqot, o'qish, mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi murakkab va mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun faqat pedagogika fanining nazariy asoslarini, har bir o'qituvchi predmetni o'qitish metodikasini, maktab o'quvchilarining fiziologiyasi asoslari, maktab o'quvchilari gigiyenasi asoslarinigina bilish emas, balki ma'lum darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lish lozim.

Har bir pedagog ma'lum darajada psixolog ham bo'lishi talab etiladi, chunki ular har biri faqat o'ziga xos bo'lgan, turli yoshdagi, turli individual xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ish olib boradi.

Har bir bola faqat o'ziga xos bilish faoliyati, iroda, xarakter, xulq-atvor xususiyatlariga ega. Maktabdagi ta'lim-tarbiya berish jarayonida mana shu xususiyatlarni bilish va shunga asoslanib ularga individual munosabatda bo'lish lozim. Mana shularni hisobga olgandagina, har bir pedagog o'zining asosiy vazifasi, ya'ni yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish ishini muvaffaqiyatli amalga oshiradi.

Shuning uchun ham psixologiya fanining alohida sohalari bo'lmish yosh va pedagogik psixologiya asoslarini chuqur bilish har bir pedagog uchun muhim hisoblanadi.

Psixologiya fanining bir qator tarmoqlari, sohalari mavjud. Ular orasida yosh psixologiyasi alohida ahamiyatga ega. Yosh psixologiyasi psixik rivojlanish, shuningdek, bolalik, o'smirlik, o'spirinlik, yetuklik va qarilik davrida shaxs taraqqiyotining xususiyatlarini o'rganadi. Juda ko'p fundamental tadqiqotlar o'tkazilganligiga qaramay, bugungi kunda inson psixikasini uning butun hayotiy yo'li bosqichlarida rivojlanish xususiyatlarini yaxlit holda tavsiflashga erishilmagan.

Yosh psixologiyasi har bir yosh davrining qaytarilmas xususiyatlarini, yillar o'tgan sari, asta-sekinlik bilan bola qanday qilib inson bo'lib shakllanishi, shaxs sifatida o'zini ijtimoiy munosabatlarda namoyon qilishi, kasb tanlashi, muloqot jarayonida o'zining erk, huquq va majburiyatlariga intilishi, qanday qilib sevishi, ishonchli do'st bo'lib tarkib topishi, o'zi va boshqalar uchun mas'uliyatni his qilishi kabi jihatlarni tadqiq etadi.

Bilimlarning har bir sohasi o'ziga xos nomlanishga ega. Lekin ba'zi bir bilimlar sohasi bir necha nom bilan ham atalishi mumkin. Masalan, yosh psixologiyasini boshqacha qilib, rivojlanish psixologiyasi deb nomlash mumkin. Ammo bu yerda ayнан bitta yoki bir-biriga mazmun jihatdan juda yaqin bo'lgan

bilimlar sohasi koʻzda tutiladi va inson xulq-atvori, psixik rivojlanishning yosh xususiyatlari toʻgʻrisida fikr yuritilmoqda. Rus psixologi R.S.Nemov asarlarida ular sinonim sifatida qoʻllaniladi.

Yosh psixologiyasining oʻrganish obyekti — ontogenezdagi normal, sogʻlom insonning oʻzgarishi va rivojlanishidir.

Yosh psixologiyasining predmeti — rivojlanishning yosh davrlari, bir yosh davridan keyingisiga oʻtishning sabablari, mexanizmlari, ontogenezdagi psixik rivojlanish, yoʻnalishlari, tempi, tendensiyalari va umumiy qonuniyatlaridir.

Yosh psixologiyasi turli xil yosh davrlarining psixologik xususiyatlariga eʼtibor beradi. Rivojlanish psixologiyasi — inson psixologiyasining yosh jihatdan qayta tuzilishi qonunlari haqidagi bilimlar sohasi. Yosh psixologiyasini rivojlanishdan tashqarida, oʻzgarimas deb qarash mumkin emas. Xuddi shunday, rivojlanishni yosh xususiyatlarini ajratib koʻrsatmasdan tasavvur qilib boʻlmaydi.

Yosh psixologiyasining bir qator muammolarini ajratib koʻrsatish mumkin.

1. Inson psixik xususiyatlari va xulq-atvori rivojlanishining organizm va muhitga bogʻliqligi muammosi.
2. Insonning rivojlanishiga stixiyali taʼlim va tashkil etilgan taʼlimning taʼsiri muammosi.
3. Layoqat va qobiliyatlarning oʻzaro munosabati muammosi.

Bir tomondan psixik rivojlanish organizmga, yaʼni inson organizmining anatomik-fiziologik tuzilishiga bogʻliq. Nerv sistemasi va miyaning insoniy tuzilishi uni ong egasi, nutq va yuqori darajadagi intellekt sohibi sifatida rivojlanishiga imkon beradi. Nasliy yoʻl bilan yoki jiddiy kasallik oqibatida yuzaga keluvchi organizm anatomik-fiziologik holatidagi buzilishlar psixik taraqqiyotga taʼsir etishi va rivojlanishdan orqada qolishga olib kelishi mumkin. Bolaning miyasi yetilib boʻlmaguncha unda ver-

bal nutqni va u bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlarni shakllantirish mumkin emas.

Ikkinchi tomondan, organizmning psixik rivojlanishi muhitga ham bog‘liq. Chunki psixik taraqqiyotga ta‘lim-tarbiyaning ta‘siri juda beqiyos. Biroq, psixik taraqqiyotning u yoki bu bosqichida bu omillardan qaysi biri ko‘proq ta‘sir etishini aniq aytish qiyin.

Stixiyali ta‘lim-tarbiya maxsus ta‘limiy maqsadlarsiz, hech qanday dasturlarsiz, insonning jamiyatda boshqa kishilar bilan munosabatlari natijasida amalga oshadigan ta‘lim-tarbiya. Tashkil etilgan ta‘lim-tarbiya esa maqsadga qaratilgan holda maxsus ta‘limiy tizimda olib boriladigan ta‘lim-tarbiyadir.

Shak-shubhasiz, inson stixiyali va tashkil etilgan ta‘sirotlar ostida psixologik jihatdan taraqqiy etadi, lekin ulardan qay biri inson xulq-atvoriga kuchliroq ta‘sir etishi masalasi muammoligicha qolmoqda.

Keyingi muammo — layoqat va qobiliyatlarning o‘zaro munosabati masalasidir. Bolaning qobiliyatlari rivojlanishiga ta‘sir etuvchi layoqatlarning o‘zi nima? Layoqatlar tarkibi faqat organizmning nasliy xususiyatlari bilan bog‘liqmi yoki uning tarkibiga insonning orttirilgan xulq-atvor va psixik xususiyatlarini ham kiritish mumkinmi? Bola qobiliyatlarining taraqqiyoti ko‘proq mavjud layoqatlarga bog‘liqmi yoki unga to‘g‘ri tashkil etilgan ta‘lim-tarbiyaning ta‘siri kuchliroqmi? kabi savollar hanuzgacha to‘la-to‘kis o‘z yechimini topmagan.

Yosh psixologiyasi psixika va xulq-atvorda bir yosh davridan ikkinchisiga o‘tishda yuzaga keladigan miqdoriy hamda sifatiiy o‘zgarishlarni o‘rganadi. Odatda bu o‘zgarishlar hayotning muayyan bosqichlarini, bir necha oydan (go‘daklik davri) to bir qancha yillarni (katta yosh davrida) qamrab oladi. Ushbu o‘zgarishlar «doimiy ta‘sir etib turuvchi* omillar — biologik yetilish hamda inson organizmining psixofiziologik holati, uning insonga xos bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar tizimida tutgan o‘rni, intellektual hamda shaxs rivojlanishida erishgan darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Psixika va xulq-atvorda yuzaga keladigan bu turdagi yoshga xos o'zgarishlar evolutsion o'zgarishlar deb ataladi. Evolutsion o'zgarishlarda miqdoriy va sifatiy qayta qurishlar nisbatan sekinlik bilan amalga oshadi.

Nisbatan qisqa vaqt oralighda jadal yuz beradigan chuqur o'zgarishlarni revolutsion o'zgarishlar deb atash mumkin. Revolutsion o'zgarishlar odatda bir yosh davrining tugallanishi, ikkinchi yosh davrining boshlanishi arafasida ro'y berib, yosh taraqqiyotining inqirozlari bilan bog'liq bo'ladi. Yosh taraqqiyotidagi inqirozlar va ular bilan bog'liq bo'lgan psixika va xulq-atvorda ro'y beradigan revolutsion qayta (qurishlar) tuzilishlar yoshni davrlarga ajratishning asoslaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Rivojlanish belgilaridan biri bo'lgan yana bir turdagi o'zgarishlar aniq bir ijtimoiy vaziyatning ta'siri bilan bog'liq bo'lib, ularni situatsion (ya'ni vaziyat bilan bog'liq bo'lgan) o'zgarishlar deb atash mumkin. Bunday o'zgarishlar inson xulq-atvori va psixikasida tashkil etilgan yoki maxsus tashkil etilmagan ta'lim-tarbiya ta'sirida vujudga keladi.

Evolutsion va revolutsion o'zgarishlar odatda barqaror hamda qaytarilmas bo'lib, sistematik mustahkamlashni talab qilmaydi. Situatsion o'zgarishlar beqaror, o'zgaruvchan, ularni mashqlar orqali mustahkamlash talab qilinadi. Evolutsion va revolutsion o'zgarishlar inson psixologiyasini shaxs sifatida qayta o'zgartirsa, situatsion o'zgarishlarda xulq-atvorning ba'zi ko'rinishlari, bilim, malaka va ko'nikmalar hosil bo'ladi.

Yosh psixologiyasining predmeti — inson psixikasining yosh jihatdan taraqqiyoti, psixik jarayonlar hamda inson shaxsi xislatlarining ontogenezini o'rganishdan iborat.

Yosh psixologiyasi o'z navbatida bir qancha sohalarga bo'linadi. Bular:

1. Bolalar psixologiyasi.
2. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologiyasi.
3. O'smir psixologiyasi.
4. Ilk o'spirinlik yoshi psixologiyasi.

5. Katta yoshdagilar psixologiyasi.
6. Gerontopsixologiya (qarilik) psixologiyasi.



1-rasm. Yosh psixologiyasi bo'limlari.

1.2. Yosh psixologiyasining nazariy va amaliy vazifalari

Yosh psixologiyasining umumiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) psixik jarayonlarning, bilimlarni o'zlashtirishning yosh imkoniyatlarini tadqiq qilish;
- 2) shaxs rivojlanishining muhim omillarini o'rganish;
- 3) psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini hamda bosqichlarini tadqiq etish;
- 4) har bir yoshning psixologik va individual xususiyatlarini o'rganish.

Yosh psixologiyasining asoslarini bilmay turib, ta'lim-tarbiyaning hech qanday nazariy hamda amaliy masalalarini muvaffaqi-

Yosh psixologiyasining **nazariy vazifalari**:

— insonning butun hayot yo‘li davomida psixik taraqqiyoti manbalari, mexanizmlari va harakatga keltiruvchi kuchlarini o‘rganish;

— ontogenezda psixik rivojlanishni davrlashtirish;

— psixik jarayonlar kechishining yosh xususiyatlarini va qonuniyatlarini o‘rganish;

— turli yosh davrlarida bilimlarni o‘zlashtirish, turli faoliyatlarni amalga oshirish qonuniyatlari, xususiyatlari va imkoniyatlarini aniqlash;

— turli yosh bosqichlarida shaxs rivojlanishini tadqiq qilish.

Yosh psixologiyasining **amaliy vazifalari**:

— psixik funksiyalarning yosh normalarini aniqlash, insonning ijodiy potensialini va psixologik zaxiralarini ishga tushirish;

— bolalarning ruhiy salomatligini va psixik taraqqiyotning kechishini tizimli nazorat qilish xizmatini tashkil etish, ota-onalarga muammoli vaziyatlarda yordam ko‘rsatish;

— yosh va klinik diagnostika;

— inson hayotining inqirozli davrlarida yordam ko‘rsatish, psixologik qo‘llab-quvvatlash funksiyasini bajarish;

— uzluksiz ta‘lim tizimida o‘quv jarayonini optimal tashkil etish.

Ta‘lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri, ilmiy asosda tashkil qilish uchun ta‘lim jarayonining o‘ziga xos psixologik qonuniyatlarini, ya‘ni bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini, ko‘nikma va malakalarni, faol, mustaqil hamda ijobiy tafakkur jarayonlarini tarkib toptirishni yaxshi bilish lozim bo‘ladi. Psixolog **L.S.Vigotskiy** ko‘rsatib o‘tganidek, ular ma‘lum hodisalarga nisbatan o‘zlarining kundalik hayotdagi oddiy tushunishlari bo‘ladi. Bu esa ilmiy tushunchalarning tarkib topishiga ma‘lum darajada ta‘sir qiladi. Bundan keyin, tushunchalarni tarkib toptirishda hissiy negizga qay darajada tayanish lozimligini, qaysi paytda ko‘rgazmalilikdan va yakka hodisalardan qutulib, mavhumlik hamda umumiylikka o‘tish maqsadga muvofiqligini bilish kerak. Ko‘rgazmali tayanchdan barvaqt voz kechish ham ana shu bosqichda sun‘iy ravishda

to'xtab qolish ham bir xil xatodir. Shuning bilan birga ko'rib va eshitib idrok qilish xususiyatlarini hamda ularning o'zaro munosabat xarakterini bilish kerak. O'tilgan materiallarni qanday yo'l bilan psixologik jihatdan samarali qilib mustahkamlash mumkin? O'quvchiga savolni qanday berish mumkin: umumiy qilibmi yoki konkret shakldami? Bir xil savollarni beraverish to'g'rimi? Yordamchi savollarning roli qanday? (Psixologiyada shu narsa ma'lumki, javob beriladigan savolning ifodalanishiga ham bog'liq bo'ladi.)

Pedagogik psixologiyani bilish tarbiya ishlarida ham zarurdir. Shaxs tarkib topishi jarayonining psixologik qonuniyatlarini, jumladan, axloqiy odatlar va ishonch-e'tiqod tarkib topishining qonuniyatlarini bilmay turib, to'g'ri tarbiya berish mumkin emas.

Ma'lum yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta'lim va tarbiya berib bo'lmaydi. Bolaning har bir yoshi o'z qiyinchiliklariga ega bo'ladi va o'ziga nisbatan maxsus munosabatda bo'lishni talab qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarga nisbatan psixologik jihatdan to'g'ri keladigan va yaroqli bo'lgan narsa, ko'pincha o'smirlarga nisbatan yaroqsiz va xato bo'lishi mumkin. Biroq o'qituvchi, tarbiyachi shunchaki ma'lum yoshdagi o'quvchi bilan emas, balki konkret bir o'quvchi bilan, individual shaxs bilan ishlaydi. O'quvchining bilishi mutlaqo zarur bo'lgan individual farqlar bitta yosh doirasida nihoyat darajada katta bo'ladi. Ta'lim va tarbiya jarayonida individual munosabatda bo'lishning sharti o'quvchining psixologik xususiyatlarini har tomonlama va chuqur bilishdan iboratdir. Bu narsa o'quvchining ruhiy dunyosidan xabardor bo'la bilishni, psixologik jihatdan to'g'ri kuzatish tashkil qila bilishni va tabiiy eksperiment uyushtirishni bilishni taqozo qiladi.

Mana shu yuqorida ko'rsatilgan qonuniyatlarning hammasini bilish o'z-o'zicha hali ta'lim-tarbiya ishlarida muvaffaqiyatning garovi bo'la olmaydi. Lekin juda ko'p xatolarning oldini olish imkonini beradi, chunki bu qonuniyatlar o'qituvchini ko'r-ko'ro-

na harakat qilish zaruratidan qutqaradi. Demak, pedagogik psixologiyaning mohiyatini bilish har bir pedagogga ta'lim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish uchun zarur.

Yosh va pedagogik psixologiyaning birligi yosh va pedagogik psixologiya o'rganadigan obyektning umumiyligidadir. Bu ikkala fanning o'rganish obyekti — bolalar, o'smir va o'spirinlar bo'lib, yosh psixologiyasi ularni yosh taraqqiyoti bo'yicha o'rgansa, pedagogik psixologiya tarbiyalanuvchi yoki ta'lim oluvchi sifatida, ya'ni pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida biror maqsadga qaratilgan ta'siri sifatida o'rganadi.

Ma'lumki, muayyan yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta'lim va tarbiya berib bo'lmaydi. Bolaning har bir yoshi o'z qiyinchiliklariga ega bo'ladi va o'ziga nisbatan maxsus munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida individual munosabatda bo'lishning sharti o'quvchining psixologik xususiyatlarini har tomonlama va chuqur bilishdan iborat. Bu esa o'quvchining psixik dunyosidan yaxshi xabardor bo'lishni, psixologik jihatdan kuzatishni to'g'ri tashkil qila olishni va tabiiy eksperiment uyushtirishni bilishni taqozo qiladi.

Pedagogik psixologiya ham, yosh psixologiyasi ham umumiy psixologik qonuniyatlarni ochib beradigan psixik jarayonlarni, psixik holatlarni va shaxsning individual psixologik xususiyatlarini o'rganadigan fan — umumiy psixologiyaga asoslanadi.

Lekin yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya pedagogik jarayonni tashkil qilish uchun tayyor retsept yoki tavsiyanomalar berishni da'vo qilmaydi. Yosh va pedagogik psixologiyaning materiallari va xulosalaridan ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil qilishda foydalaniladi. Bu haqda rus pedagogi K.D. Ushinskiy ham ta'kidlab o'tgan edi:

«Biz pedagoglarga unday yoki bunday qilinglar deb aytmaymiz, ammo biz ularga o'zingiz boshqarmoqchi bo'lgan psixik hodisalarning qonunlarini o'rganing va bu qonunlarga amal qi-

ling hamda ularni tatbiq qilmoqchi bo'lgan sharoitlarini hisobga olib ish qiling, deb aytamiz».

1.3. Psixik rivojlanish determinatsiyasi muammosi

Bolalarning psixik jihatdan o'sishida ta'lim va tarbiya g'oyatda muhim ahamiyatga ega ekanligi XIX asrlarning o'rtalaridan tobora ko'p ta'kidlanib boshlandi. Bolalar psixikasining o'sishi bilan ta'lim va tarbiyaning o'zaro munosabati haqidagi masalalarni hal etishga urinayotgan nazariyalar hozir ko'p topiladi. Hozirgi pedagogika va psixologiyada shu masalaga doir uch xil nazariya bor. Ulardan birida ta'lim-tarbiya va taraqqiyot jarayonlari bir-biridan mustaqil mavjuddir, degan g'oya olg'a suriladi. Ikkinchi nazariyada ta'lim-tarbiya ayni vaqtda taraqqiyotdir, ya'ni ta'lim bilan taraqqiyotning o'rtasida asos e'tibori bilan sezilarli tafovut yo'qdir, deb da'vo qilinadi. Nihoyat, uchinchi xil nazariya bo'yicha ta'lim-tarbiya va taraqqiyot jarayonlari, garchi boshqa-boshqa jarayonlar bo'lsa ham, bir-biriga mos kelar va bir-biriga ta'sir o'tkazar ekan.

Ta'lim va psixik o'sish bir-biridan mustaqildir, degan nazariyaning namoyandalari ta'lim va psixik o'sishni bir-biriga duch kelmaydigan ikkita parallel jarayon deb hisoblaydilar. Bu nazariyaning namoyandalari aqliy qobiliyatni aniqlash uchun dastlabki testlarni vujudga keltirgan edilar (Bine va Simon). Bu namoyandalar va ularning hozirgi izdoshlari aqliy qobiliyat «tug'ma» bo'lib, unga ta'lim ham, muhit ham ta'sir etmaydi, degan fikrga asoslanadilar. Ta'lim va psixik taraqqiyot bir-biridan mustaqil, degan nazariya amalda ta'lim-tarbiya ishlarining hammasini bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olmasdan tuzishga olib keldi.

Ta'lim va psixik o'sish bir-biriga mos keladigan nazariyaning namoyandalari (amerikalik psixologlar Djeym, Torndayk va ingliz psixologi Makdugalljning da'vo qilishicha:

- 1) ikkala jarayon bir-biriga yaqin va parallel holda boradi — ta'lim-tarbiya bilan psixik o'sish qadam-baqadam boradi;
- 2) ta'lim va psixik o'sish bir vaqtda amalga oshadi. Bu nazariya ikki jarayonni aralashtirib, bir-biriga tenglashtirib qo'ya-

di. Bu ta'lim jarayoni o'rganilsa, psixik o'sish jarayoni ham o'rganilgan bo'ladi, degan xulosaga olib keladi. Bu nazariya bir tomonlama nazariya bo'lib, butun e'tiborni bilish faoliyatiga qaratadi-yu, bola shaxsining hissiyoti va irodasini e'tiborga olmaydi. Odam ongining roli, inson shaxsini tarkib toptiruvchi ijtimoiy hayot va amaliyotning roli kamsitiladi yoki inkor qilinadi.

Ta'lim-tarbiya va psixik rivojlanish garchi har xil jarayon bo'lsa-da, bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladigan jarayonlardir, degan uchinchi nazariyaning namoyandasi — Koffkadir. Bu nazariya dastlabki ikki nazariyani birlashtirishga urinadi, nerv sistemasining yetilishi va o'qitish jarayonlarining o'zaro bog'lanishini va bir-biriga ta'sir etishini aniqlamoqchi bo'ladi. Nerv sistemasining yetilish jarayoni bolani o'qishga tayyorlaydi va o'qiy oladigan qilib qo'yadi, deb e'tirof etadi. O'qitish esa, o'z navbatida, nerv sistemasining yetilish jarayonini kuchaytiradi va oldinga suradi, deydi. Bu nazariya ikki jarayonning bir qadar o'zaro bog'langanligini ta'kidlashi bilan oldinga qarab bir qadam qo'yadi. Ammo bu o'zaro bog'lanishni abstrakt ravishda, ijtimoiy tarixiy hayot sharoitining ta'siridan tashqari, bolalarga ta'lim-tarbiya berish ta'siridan tashqarida tan oladi.

Bu nazariyalarning hammasi bolalar kamolotining hal qiluvchi tomonini ko'rmaydi, ya'ni bolalar psixikasining tarbiya va aktiv faoliyat jarayonida tarkib topishini payqaydi.

Demak, psixologiyadagi muhim masalalardan biri taraqqiyot bilan ta'limning o'zaro munosabati haqidagi, ya'ni ta'lim o'z orqasidan rivojlanishni ergashtirib boradimi yoki aksincha, rivojlanishga moslashib, sust ravishda uning orqasidan boradimi? degan masaladir.

Ta'lim va taraqqiyotning o'zaro munosabati qanday baholanishiga qarab, bu masalada 2 nuqtayi nazarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Nemis psixologi V.Shtern ta'lim psixik taraqqiyotning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni ilgari suradi.

Uning ta'kidlashicha, bola tomonidan narsalar bilan tanishish va ularni bilib olish o'z-o'zidan amalga oshadi, ta'lim esa mustaqil, avtonom ravishda amalga oshadigan taraqqiyotga moslashadi («Personalistik psixologiya» konsepsiyasini yaratgan, ya'ni shaxsning yaxlitligi, psixik va fizik birliklarga bo'linmasligi to'g'risidagi nazariya).

Bunga qarama-qarshi fikrni rus psixologi L.S.Vigotskiy bildiradi. U bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchi roli haqidagi qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi. Uning fikricha, ta'lim taraqqiyotdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtiradi.

Birinchi fikrga binoan, ta'lim uchun imkoniyat yetguncha, aqliy jihatdan yetilish jarayoni kelguncha, passiv ravishda kutib turish lozim.

Ta'lim yetakchilik rolini bajaradi. Ikkala jarayon bir-biri bilan bog'liq: rivojlanish va ta'lim parallel tarzda sodir bo'ladigan ikki jarayon emas, ular bir butun jarayondir, deb ta'kidlaydilar. Ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga stimuly — turtki beradi, rivojlanishni o'z orqasidan ergashtirib boradi. Lekin rivojlanishga stimuly bo'lish bilan bir vaqtda ta'lim o'zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan taraqqiyot darajasining xususiyatlarini hisobga oladi.

Shuningdek, L.S.Vigotskiyning taraqqiyotni ikki zonasi haqidagi g'oyasi ham rivojlanish jarayonini boshqarish uchun katta ahamiyat kasb etadi. L.S.Vigotskiy bola taraqqiyotining ikki zonasini ajratib ko'rsatadi:

1. Aktual taraqqiyot zonasi.
2. Yaqin kelajak taraqqiyot zonasi.

Agar bola biror ishni kattalar yordami bilan bajara olsa, bu uning yaqin rivojlanish darajasi, zonasidan dalolat beradi. Yaqin kelajak zonasi bizga bolaning ertangi kunini, rivojlanishining dinamik holatini aniqlashga yordam beradi.

Agar bola topshiriqni mustaqil ravishda bajara olsa, bu uning aktual taraqqiyot zonasini ko'rsatadi. Shu bilan birga L.S.Vigots-

kiy ta'lim-tarbiya jarayonida bir tomondan, bolaga kuchi yetmaydigan, uning aktual rivojlanish darajasi va yaqin imkoniyatlariga to'g'ri kelmaydigan talablar qo'yimaslik kerakligini ta'kidlaydi. Boshqa tomondan esa, o'qituvchi bugun bola kattalar yordami bilan, ertaga esa mustaqil tarzda bajara olishini bilsa, bola taraqqiyotini jamiyat talablariga mos ravishda, maqsadga muvofiq tarzda takomillashtirib borishi mumkin.

1.4. Yosh psixologiyasining asosiy tushunchalari

Yosh psixologiyasining asosiy tushunchasi «rivojlanish» tushunchasidir. Rivojlanish — bu bir holatdan boshqa murakkabrog'iga o'tish, eski holatdan yangi sifat bosqichiga o'tish, oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga o'tish jarayonidir. Psixikaning rivojlanishi — psixik jarayonlarning miqdor, sifat va tuzilishi bo'yicha qayta o'zgarishlarda namoyon bo'ladigan vaqt bo'yicha qonuniy o'zgarishidir. O'sish — rivojlanish jarayonining miqdor jihati. Rivojlanishning o'sishdan asosiy farqi quyidagicha: o'sish miqdor o'zgarishlariga, rivojlanish esa yangi tuzilmalar, mexanizmlar, jarayonlar, strukturalarning paydo bo'lishida namoyon bo'ladigan sifat o'zgarishlariga taalluqlidir.

Rivojlanish va yetilish tushunchalarini ham bir-biridan farqlash zarur. Bir qator yosh psixologiyasidagi xorijiy nazariyalar uchun yetilish — rivojlanishning muhim omili, u yoki bu yutuqlarning sababidir. Zamonaviy rus rivojlanish psixologiyasida yetilish markaziy nerv sistemasi va boshqa organizm sistemasida ketma-ket yosh o'zgarishlarining psixofiziologik jarayoni, psixik funksiyalarning vujudga kelishi va amalga oshishi uchun sharoitning ta'minlanishi sifatida qaraladi. Kamolot, yetuklik tushunchalari bilan yosh davrlari psixologiyasining asosiy tamoyillaridan biri — geteroxron rivojlanishga bog'liq. U inson shart-sharoit, ijtimoiy muhit, individual xususiyatlar ta'sirida turli yosh davrlarida yetuklikka erishishni tavsiflaydi. Bu esa turli yosh davrlari o'zining betakror psixofiziologik tuzilishidan

darak beradi va shu yosh davrini psixologik imkoniyatlari potensialini belgilaydi.

Rivojlanish jarayonining psixologiya va pedagogika uchun zarur bo'lgan xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan. Ular quyidagilar:

— sifat jihatdan o'zgarish va yanada mukammalroq bosqichga ko'tarilish;

— rivojlanishni qaytara olmaslik (rivojlanish ro'y bergandan so'ng, avval mavjud bo'lgan narsa-hodisalarni to'laligicha ortga qaytarishning iloji yo'qligi);

— progress va regress elementlarining umumlashmasi (bir sohadagi progressiv rivojlanish, boshqa bir sohadagi regress yuz berishi mumkinligini bildiradi);

— notekis rivojlanish (sifat o'zgarishlarining tezkor o'zgarishi, miqdor o'zgarishi bilan almashadi);

— zigzagsimon rivojlanish (yangilanishlarning paydo bo'lganida, natijalar oldingi holatlarga qaraganda, sifat jihatdan yaxshi natija bermasligi. Masalan, bola emaklashdan tik turib yurishga o'tgan davrda, sekin harakatlanadi va jarohatlar olishi mumkinligi ham kuzatiladi);

— rivojlanish darajalaridan bosqichlariga o'tish (yangilanishlar paydo bo'lganda, avval o'zlashtirilgan ko'nikmalar yo'qolib ketmaydi, balki yangilanishlar uchun asos sifatida saqlab qolindi);

— barqarorlik ko'rsatkichi.

Psixologik rivojlanishning asosiy uch turi mavjud: filogenetik, ontogenetik va funksional.

Filogenez psixikasi — insoniyat tarixida insonning psixik shakllanishi va biologik evolutsiyasi.

Ontogenez psixikasi — individning butun umri davomida psixologik tuzilishining shakllanishi.

Funksional rivojlanish psixikasi — psixologik funksiyalar, yangilanishlar, yangi intellektual, perseptiv, mnemik, aqliy funksiyalarning paydo bo'lishi. Bu ontogenetik taraqqiyotning bir qismi hisoblanadi.

Psixik rivojlanishning yuqoridagilardan tashqari me'yoriy va individual rivojlanish shakllari ham mavjud. Me'yoriy rivojlanish shu yosh davridagi insonlarga xos bo'lgan o'zgarishlarni tavsiflaydi. Aksariyat hollarda me'yor borasida, psixologik va shaxs rivojlanishining yuqori darajasi deb qaraladi. Individual rivojlanish shaxsning alohida xususiyatlarining vujudga kelishini anglatadi.

Psixologiyaning asosiy tushunchalaridan biri — psixologik yosh-dir. U individning ontogenezdagi obyektiv, tarixiy va xronologik jihatlarini belgilaydi.

Shunday qilib, ushbu bobda psixologiyaning tarmoqlaridan biri bo'lgan yosh psixologiyasining predmeti, obyekti, umumiy, nazariy va amaliy vazifalari, psixik taraqqiyot determinatsiyasi hamda fanning asosiy tushunchalari bo'lmish, rivojlanish va psixologik yosh tushunchalariga to'xtalib o'tdik.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Yosh psixologiyasi nimani o'rganadi?
2. Yosh psixologiyasining nazariy va amaliy vazifalari nimalardan iborat?
3. Yosh va pedagogik psixologiyaning birligi nimada namoyon bo'ladi?
4. Yosh psixologiyasining asosiy tushunchalarini keltiring.
5. Psixik taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Yosh psixologiyasining o'rganish obyekti —
 - a) sifat jihatdan o'zgarish va yanada mukammalroq bosqichga ko'tarilish;
 - b) rivojlanishni qaytara olmaslik (rivojlanish ro'y bergandan so'ng, avval mavjud bo'lgan narsa va hodisalarni to'laligicha ortga qaytarishning iloji yo'qligi);
 - *c) ontogenezda normal, sog'lom insonning o'zgarishi va rivojlanishidir;

d) bolalar va qariyalar.

2. Yosh psixologiyasining predmeti —

a) narsa va hodisalarning ongimizga ta'sir etib, bir butun holda aks etishini o'rganadi;

*b) rivojlanishning yosh davrlari, bir yosh davridan keyingisiga o'tishning sabablari, mexanizmlari, ontogenezda psixik rivojlanish, yo'nalishlari, tempi, tendensiyalari va umumiy qonuniyatlari;

c) hayvon va inson psixikasini qiyoslab o'rganadi;

d) ta'lim-tarbiya jarayonida bir tomondan, bolaga kuchi yetmaydigan, uning aktual rivojlanish darajasi va yaqin imkoniyatlariga to'g'ri kelmaydigan talablar qo'ymaslik kerakligi.

3. VShtern tomonidan ilgari surilgan psixik rivojlanish haqidagi ta'limotning bosh g'oyasi qanday?

a) psixik rivojlanishda irsiy omil hal qiluvchi ahamiyatga ega;

b) psixik rivojlanishda ijtimoiy omil hal qiluvchi ahamiyatga ega;

c) psixik rivojlanishda shaxs faolligi hal qiluvchi ahamiyatga ega;

d) psixik rivojlanishda irsiy va ijtimoiy omilning o'zaro yaqinlashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

4. Taraqqiyotning eng yaqin zonasi bola amalga oshiradigan qanday amallardan tashkil topadi?

a) mustaqil bajara oladigan amallar;

b) umuman bajara olmaydigan amallar;

*c) kattalar yordamida bajara oladigan amallar;

d) bajarishni xohlamaydigan amallar.

5. Yosh psixologiyasining asosiy tushunchalari....

a) psixika, stimuly;

b) ong, yosh;

*c) rivojlanish, psixologik yosh;

d) individuallik, shaxs.

3x4 oranayzerini toidiring

Mavzuning asosiy mazmunini ochib berishga yordam beradi va «3x4» texnologiyasi orqali talabalarni mavzu yuzasidan tushuncha, tasavvurlari aniqlanadi.

Yosh psixologiyasi — bu

2-o'quv topshiriq

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F — fikringizni bayon eting.

S — fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.

M — ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring.

U — fikringizni umumlashtiring.

1-guruh

Savol	Yosh psixologiyasi va umumiy psixologiya o'rtasidagi aloqadorlik mavjud deb o'ylaysizmi?
F — fikringizni bayon eting	
S — fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M — ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U — fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Yosh psixologiyasi va pedagogika fanining o'rtasida aloqadorlik
F — fikringizni bayon eting	
S — fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M — ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U — fikringizni umumlashtiring	

II BOB. YOSH PSIXOLOGIYASINING TADQIQOT METODLARI

Reja:

1. Kuzatish va eksperiment yosh psixologiyasining asosiy metodi sifatida.
2. Tasdiqlovchi va shakllantiruvchi tadqiqot strategiyalari.
3. Tadqiqotning yordamchi metodlari.
4. Empirik tadqiqotlarni tashkil qilish sxemasi.

Mavzu o'quv maqsadi:

Ta'limiy: bo'lajak psixologlar tomonidan yosh psixologiyasi-ning tadqiqot metodlari haqidagi bilimlarni o'zlashtirilishini tashkil etish.

Tarbiyaviy: bo'lajak psixologlar tomonidan yosh psixologiyasi fanining tadqiqot metodlari haqida bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: mavzuning ta'limiy va tarbiyaviy o'quv maqsadlari asosida talabalar dunyoqarashini kengaytirish.

Tayanch tushunchalar: kuzatish, eksperiment, test, anketa, sotsiometriya, faoliyat natijalarini ohganish, longityud metod, ko'ndalangiga kesim metodi.

2.1. Kuzatish va eksperiment yosh psixologiyasining asosiy metodi sifatida

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga individual yondashish uchun ularning individual-psixologik xususiyatlarini, o'quvchilar shaxsining o'ziga xosligini bilish, o'rganish zarur. «Agar pedagogika odamni har jihatdan tarbiyalamoqchi bo'lsa, u oldin o'sha odamni ham har jihatdan bilib olishi kerak», — deb yozgan edi K.D. Ushinskiy.

Shuning uchun har bir o'qituvchi o'quvchilarni o'rganish usullari bilan qurollanishi shart. Demak, yosh va pedagogik psixologiya asoslarini bilish har bir fan o'qituvchisi, har bir pedagog uchun muhim ahamiyatga ega.

Har bir fanning o'rganish metodlari bo'lgani kabi, yosh va pedagogik psixologiya ham psixologiya fanining alohida bo'limlari sifatida

o'z tadqiqot metodlariga ega. Yosh va pedagogik psixologiyaning

metodlari faqat nazariy, ilmiy tadqiqot ishlari uchungina emas, balki kundalik, amaliy vazifalarni hal qilish uchun ham zarur.

Rus psixologi B.G. Ananyev bo'yicha tadqiqot metodlari 4 guruhga bo'linadi:

I. Tashkiliy metodlar: taqqoslash, longityud va kompleks metodlari kiradi. Taqqoslash — umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, pato-psixologiya va defektologiyada keng qo'llaniladi. Yosh va pedagogik psixologiyada o'rganilayotgan psixik jarayonlarning dinamikasini aniqlash uchun qo'llaniladi. Longityud — (uzluksiz) uzoq vaqt davomida ayni bir xil kishilar o'rganiladi. Kompleks — psixologik tadqiqotlar boshqa fanlar metodlari ishtirokida o'tkaziladi (shaxsning jismoniy, fiziologik, psixik va ijtimoiy taraqqiyoti aniqlanadi).

II. Empirik metodlar: kuzatish va o'z-o'zini kuzatish; eksperimental psixodiagnostika metodlari (test, anketa, suhbat, sotsiometriya, intervyu); faoliyat natijalarini tahlil qilish; biografiya metodlari.

III. Ma'lumotlarni qayta ishlash metodlari: miqdoriy (statistika) va psixologik yoki sifatli tahlil turlariga bo'linadi.

IV. Sharhlash metodlari: genetik va donalash metodlari. Genetik metodda taraqqiyotdagi bosqich, pog'onalar, inqiroz holatlari ajratib ko'rsatiladi (vertikal aloqa). Donalash metodida esa shaxsning barcha xarakteristikalarini o'rtasidagi «gorizontal» aloqalar aniqlanadi.

Yosh va pedagogik psixologiya metodlari

Bu metodlardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Kuzatish — psixik xususiyatlarni uzoq vaqt davomida, rejalili, biror maqsad asosida o'rganish. Kuzatish — universal metod bo'lib, turli vaziyatlarda ishlatiladi. Ilmiy kuzatish hayotiy (ilmiy bo'lmagan) kuzatishdan tubdan farq qiladi. Hayotiy kuzatish

larga bog‘liq bo‘ladi. Kuzatish ilmiy bo‘lishi shu bilan bir qatorda psixologik-pedagogik kuzatish bo‘lishi uchun bir qancha talablarga amal qilishi lozim:

Asosiy metodlar			
Kuzatish Psixologik holatlarning sabablarini ilmiy tarzda tushuntirib beruvchi tadqiqot metodi.		Eksperiment Psixologik ma'umotlarni aniqlashga qaratilgan sharoitlarni yaratish maqsadida tadqiqotchining tekshiriluvchi faoliyatlariga faol aralashuvi	
Hayotiy kuzatish ma'umotlarini qayd etish bilanigina cheklanib, tasodifiy xarakterga ega.	Ilmiy kuzatish ma'lumotlarni qayd qilishdan ularning ichki mohiyatini tushuntirib berishga o'tish, uning zaruriy sharti — aniq reja va natijalarni maxsus kundalik yoki bayonnomalarda qayd etishdir.	Laboratoriya eksperimenti maxsus yaratilgan sharoitlarda, maxsus (apparaturalar) asbob uskunalarda yordamida o'tkaziladi. Tekshiriluvchi xatti-harakatlari ko'rsatma orqali belgilanadi.	Tabiiy eksperiment oddiy hayotiy sharoitlarda o'tkazilib, turli yosh davrlarida bilish imkoniyatlarini o'rganish uchun qo'laniladi.
		Psixologik-pedagogik eksperiment	
		Aniqlovchi	Shakllantiruvchi Nazorat
Yordamchi metodlar			
Faoliyat mahsulini tahlil qilish Tarjimai hol metodi		Sotsiometriya Anketa Suhbat Egizaklar metodi Test	

2-rasm. Yosh va pedagogik psixologiya metodlari.

1. Maqsadga yo'nalganlik. Umuman o'quvchini emas, balki uning shaxsiy sifatлари konkret namoyon bo'lishini turli vaziyatlarda va faoliyatning har xil turlarida — o'yin, o'qish, mehnat, muloqot jarayonida kuzatish.

2. Reja. Kuzatishni boshlashdan oldin muayyan vazifalar belgilanishi (nimani kuzatish), reja tuzilishi (vaqti va vositalari), ko'rsatkichlarni aniqlab olishi (nimani qayd etish), bo'lishi mumkin bo'lgan xatolar va ularni oldini olish yo'llari, taxmin qilinayotgan natijalarni o'ylab olishi lozim. Bunda kuzatilayotgan xususiyat aniq belgilanishi lozim (ular ko'p bo'lmasligi zarur). Kuzatishdan maqsad xulq-atvordagi topilgan kamchiliklarni to'g'rilash yo'llarini ishlab chiqish bo'lmog'i lozim.

3. Mustaqillik. Kuzatish yo'l-yo'lakay qilinishi lozim bo'lgan emas, balki mustaqil ravishda o'tkazilishi kerak bo'lgan vazifa bo'lmog'i lozim.

4. Tabiiylik. Psixologik-pedagogik kuzatish o'quvchilar uchun tabiiy sharoitlarda o'tkazilishi lozim. U o'qituvchining ishtirokisiz o'tkazilishi zarurki, o'quvchi kuzatilayotganini sezmasin.

5. Tizimlilik. Kuzatish o'qituvchining xohishi bilan emas, balki doimiy reja asosida, tizimli ravishda yoki rejalashtirilgan ma'lum oraliqdan so'ng o'tkazilishi zarur.

6. Obyektivlik. Kuzatish jarayonida o'z taxminlarini emas, obyektiv fakt, harakat, o'quvchilar xulq-atvorining obyektiv xususiyatlarini qayd etish va shu asosda xulosa chiqarish lozim.

7. Qayd etish. Olingan barcha ma'lumotlar ma'lum tizimda qayd etilishi lozim. Olingan natijalar kuzatish jarayonida yoki uni o'tkazilgandan so'ng darhol qayd qilinishi kerak.

Biroq kuzatish metodining kamchiliklari ham mavjud. Bular:

1. Tekshiruvchining passiv holatni egallaganligi.
2. Qayd etishdagi xatolar.
3. Qaytarish imkonining yo'qligi.
4. Natijalarni tahlil qilishdagi subyektivizm.

Kuzatish metodining ijobiy tomoni shundaki, eksperimental ravishda ohganish imkoni bo'lmagan faoliyatni analiz qilish, o'quvchi

xulq-atvorini tabiiy sharoitda o'rganish imkoniyati mavjud.

Kuzatish pedagogik amaliyotda qo'llaniladigan asosiy metodlardan biridir. Kuzatish intervallari yoshga bog'liq bolishi kerak.

Tug'lgandan 2-3 oygacha - har kuni;

2—3 oydan 1 yoshgacha — har hafta;

Ilk bolalik, ya'ni 1—3 yoshda — har oyda;

3 yoshdan 6—7 yoshgacha — yarim yilda 1 marta;

7—11 yoshda — 1 yilda 1 marta kuzatish o'tkazilishi zarur.

Eksperiment metodi. Eksperiment metodi tabiiy va laboratoriya eksperimenti turlariga bo'linadi. Bu metod psixik holatni ta'riflashgagina emas, balki ularni tushuntirib berishga ham imkon beradi.

Kuzatishdan farqli o'laroq, psixologik eksperiment tadqiqotchining sinalayotgan faoliyatga faol aralashuvi mumkinligini nazarda tutadi. Jumladan, psixologik fakt aniq namoyon bo'lishiga, uning tadqiqotchi xohlagan yo'nalish bo'yicha o'zgartirilishiga, har jihatdan tadqiq qilish uchun bir necha martalab takrorlanishiga imkon beradigan shart-sharoitni yaratadi.

Laboratoriya eksperimentining xarakterli belgisi faqat uning laboratoriya sharoitlarida maxsus psixologik asbob-uskunalar yordamida o'tkazishlarida va sinaluvchining xatti-harakatlari yo'l-yo'riqqa binoan sodir bo'lishi bilangina emas, balki sinalayotganligini biladigan sinaluvchi (garchi, odatda, sinalayotgan kishi eksperimentning mohiyati nimadan iboratligini, konkret nimani va nima maqsadda tadqiq qilinayotganligini bilmasa ham) kishining munosabati bilan ham belgilanadi. Laboratoriya eksperimenti yordamida diqqatning xossalari, idrok, xotira va boshqalarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish mumkin. Hozirgi paytda laboratoriya eksperimentini ko'pincha shunday tarzda o'tkazishadiki, unda odam odatdagi sharoitlarda bajarishi mumkin bo'lgan faoliyatning ba'zi psixologik jihatlari modellashtirilib o'tkaziladi. Jumladan, eksperimentda anchaqagina hissiy zo'r qilish

vaziyati modellashtirilib, uning jarayonida sinaluvchi, masalan, kasbi-kori uchuvchi bo'lgan kishi anglanilgan yechimlar qabul qilishi mumkin. Yuksak darajadagi uyg'unlikni taqozo etadigan murakkab harakatlar qilishi, asboblardagi ko'rsatkichlarga munosabat bildirishi va hokazolar belgilab qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Tabiiy eksperiment (birinchi marta 1910-yilda A.F. Lazurskiy taklif etgan) mo'ljallanganiga ko'ra, eksperiment o'tkazilayotganini biladigan sinaluvchida hosil bo'ladigan zo'riqishga yo'l qo'ymasligi va tadqiqotni odatdagi, tabiiy sharoitlarga (dars, suhbat, o'yin, uy vazifalarini bajarish va boshqalar) ko'chirishi lozim.

Masalan, materialni yodlashning samaradorligi uni uzoq vaqt xotirada saqlab qolish to'g'risidagi ko'rsatmaga bog'liqligini tadqiq qilish tabiiy eksperimentga misol bo'la oladi. O'quvchilardan bir guruhi o'rganilishi lozim bo'lgan material bilan tanishtirildi va ushbu material yuzasidan ertasiga so'ralishini aytadi. Boshqa bir guruhda esa o'quv materiali xuddi shunday tarzda o'tilib bo'lgach, o'quvchilarga o'tilgan dars bir haftadan so'ng so'ralishi aytiladi. Haqiqatda esa har ikkala guruhda ham o'quvchilardan ikki haftadan keyin so'ralgan. Ana shu tabiiy eksperiment jarayonida materialni uzoq vaqt xotirada saqlab qolishga mo'ljallangan yo'l-yo'riqning afzalliklari aniqlanadi.

2.2. Tasdiqlovchi va shakllantiruvchi tadqiqot strategiyalari

Psixologik-pedagogik tadqiqot vazifalarini bajaradigan tabiiy eksperiment psixologik-pedagogik eksperiment deb ataladi. Har xil yosh bosqichlarida o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini o'rganishda, o'quvchi shaxsini shakllantirishning konkret yo'llarini aniqlashda uning roli benihoya kattadir. Psixologik-pedagogik eksperiment uch qismdan iborat. Aniqlovchi, shakllantiruvchi, nazorat eksperimentlari. Aniqlovchi (tasdiqlovchi) eksperimentda sinaluvchilardagi biror psixik jarayonning rivojlanish darajasi aniqlanadi. Masalan, boladagi xotiraning rivojlanish darajasi «Meyli» testi yordamida aniqlanishi mumkin. Shakllantiruvchi eksperimentda aniqlangan psixik jarayon me'yordan orqada

bo'lsa, uni rivojlantirish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi. Misolga qaytsak, xotirani rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi. Nazorat tajribalarida shakllantiruvchi ta'sirning samaradorligini aniqlash uchun diagnostik metod yana bir mar-ta takroran o'tkaziladi. «Meyli» testi yana bir bora o'tkazilib, maxsus matematik-statistik metodlar yordamida shakllantiruvchi ta'sirning samaradorligi aniqlanadi.

2.3. Tadqiqotning yordamchi metodlari

Anketa — savollar yordamida psixologik axborot to'plashning metodik usulidir. Bunda savollar mantiqan bir-biri bilan bog'langan bo'lib, tadqiqotning maqsadiga mos keladi. Anketa yordamida o'qituvchi o'quvchilar shaxsiy sifatlarini aniqlash uchun material to'playdi.

Taklif etiladigan savollarga qarab, anketalar mazmun, funksiyasi, shakli bo'yicha turli xil bo'lishi mumkin.

Mazmun bo'yicha anketa:

1. Faktlar («Sening bo'sh vaqtingdagi mashg'uloting, «Uy joy sharoitingni ta'rifla»).

2. Atrofdagi kishilar, hodisalar xarakteristikasini («O'quv-ishlab chiqarish korxonasida ish formasi boshqacha bo'lishi kerak deb hisoblaysanmi?», «Ko'pchilik bolalar o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solmay o'qishlarining sababi nimada deb o'ylaysan?»).

3. O'quvchining niyatlarini ifodalashi mumkin («Oliy o'quv yurtiga kirasanmi?», «Yozgi oromgohga borasanmi?»).

Savollar bajaradigan funksiyasiga ko'ra anketa o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) Filtrovchi-savollar. M.: agar o'qituvchini oliygohga kirishni xohlovchilar qiziqтира, anketada quyidagicha savollar taklif etiladi: «Sening yoqtiradigan predmeting?». Bunga faqat oliygohga kirmoqchi bo'lgan o'quvchilargina javob beradilar.

b) Tekshiruvchi yoki nazorat qiluvchi savollar. Ularning asosiy funksiyasi — ma'lumotning to'g'riligini tekshirish.

Shakli bo'yicha anketalar:

a) ochiq — bunda to‘g‘ri savollar o‘z xohishiga qarab, erkin javob berish mumkin;

b) yopiq — bunda savollarga tayyor javob berilgan bo‘lib, o‘quvchi ulardan birini tanlashi lozim.

Anketa savollariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Savollar aniq, tushunarli, sodda va konkret bo‘lishi lozim.
2. Anketaning boshida oson savollar, keyin qiyin, undan keyin eng murakkablari, nihoyasida yana oson savollar berilishi lozim.
3. Bitta xususiyatni aniqlashga bir necha savollar, nazorat qiluvchi savollar berilishi lozim.

Anketa metodining ijobiy tomoni:

- 1) ommaviy o‘rganish imkoniyati;
- 2) informatsiya to‘plash tezligi;
- 3) ma‘lumotlarni analiz qilishda matematik metodlardan keng foydalanish imkoniyati;
- 4) og‘zaki formada javob olish qiyin bo‘lgan savollarga javob olish imkoni;
- 5) bir necha tadqiqotlar natijasini taqqoslash imkoni;
- 6) natijalarni qayd etishning qulay usuli.

Shuni ham nazarda tutish lozimki, anketa metodi shaxs xususiyatlarining barcha sohalarini to‘la o‘rganish imkonini bermaydi, o‘quvchilar turlicha javob berganlari tufayli ularni klassifikatsiya qilishda qiyinchiliklar uchraydi, javoblarning obyektivligi yuqori emas, chunki o‘quvchilar bunga vijdonan yondashmasliklari mumkin.

Quyida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning kommunikativ (muloqotchanlik) xususiyatlarini aniqlash uchun mo‘ljallangan anketa tavsiya qilinadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar shaxsi kommunikativ xususiyatlarini baholash anketasi.

Ushbu anketa o‘quvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar uchun mo‘ljallangan. Bunda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlari hamda kommunikativ xususiyatleri ekspert baholanadi.

Anketa yordamida baholanadigan shaxs xususiyatlari va ular-
ja mos keluvchi savol raqamlari.

Baholanadigan shaxs xususiyatlari	Anketadagi xususiyatlarga mos keluvchi savollar
Muloqotchanlik	2,3,4
Tashkilotchanlik qobiliyati	5
Atrofdagilar bilan o‘zaro munosabat	6
Altruizm	7
Empatiya	8
Agressivlik	9
Himoyasizlik	10
Arazgo‘ylik	11
Adolatlilik	12
To‘g‘riso‘zlik	13
Itifotlilik	14
Itoatkorlik	15
Mustaqillik	16
Qafiylik	17
Mehnatsevarlik	18
O‘ziga ishonch	19

Anketa matni

1. Bolaning ismi, sharifi, familiyasi, tug‘ilgan yili.

2. Bolaning kattalar bilan muloqotchanligi:

A) yuqori;

B) o‘rtacha;

D) juda odamovi.

3. Bolalar bilan muloqotchanligi:

A) juda muloqotchan, ko‘pincha o‘zi yolg‘iz emas, boshqa bolalar bilan o‘ynashni yaxshi ko‘radi;

B) unchalik muloqotchan emas, ko‘pincha yolg‘iz o‘ynashni yoqtiradi;

D) ba’zida yolg‘iz, ba’zida bolalar bilan o‘ynashni yoqtiradi.

4. Agar o‘quvchi (bola) muloqotchan bo‘lsa,...

A) yosh jihatdan o‘zidan katta bolalar bilan;

B) tengdoshlari bilan;

D) o‘zidan kichik bolalar bilan o‘ynashni afzal ko‘radimi?

5. O‘yinda bola o‘zini qanday tutadi?

A) birgalikda o‘ynash uchun bolalarni uyushtira oladi, o‘yinda o‘ziga faqat yetakchilik rolini oladi;

B) o‘yinda yetakchilik, liderlik rolini ham, ikkinchi darajali rolni ham birdek bajaradi;

D) ko‘pincha o‘yinda boshqalarga bo‘ysungan holda o‘ziga ikkinchi darajali rolni oladi.

6. O‘quvchining boshqa bolalar bilan o‘zaro munosabati qanday?

A) do‘stlik o‘rnata oladi va o‘yinda bolalar bilan (nizo) kelishmovchiliklarga bormaydi.

B) ko‘pincha nizolar kelib chiqadi.

7. Boshqa bolalardan o‘yinchoqlarini qizg‘zanmaydimi?

A) bajonidil o‘rtoqlashadi;

B) ba’zida qizg‘anadi, ba’zida yo‘q;

D) qizg‘anadi.

8. Boshqalarga hamdard bo‘la oladimi?

A) agar nimadandir xafa bo‘lishayotganini ko‘rsa (sezsa), tinchlashtirishga, achinishga, yordam berishga harakat qilib, doimo hamdard bo‘ladi;

B) ba’zan;

D) hech qachon.

9. Boshqa bolalarni xafa qiladimi?

A) ko‘pincha xafa qiladi;

B) ba’zida xafa qiladi;

D) hech qachon xafa qilmaydi.

10. O‘quvchi kattalarga tez-tez shikoyat bilan murojaat qilib turadimi?

A) ko‘pincha;

B) ba’zida;

D) hech qachon.

11. O‘quvchi tez xafa bo‘ladimi?

A) juda tez;

- B) ba'zida;
 D) xafa bo'lmaydi.
12. O'quvchi (yoki farzandingiz) adolatlimi?
 A) doimo adolatli;
 B) ba'zida adolatli;
 D) ko'pincha adolatli emas.
13. O'quvchi doimo rost gapiradimi?
 A) doimo;
 B) ba'zida rost gapiradi, ba'zida esa yo'q;
 D) ko'pincha rost gapirmaydi, tez-tez yolg'onchilik qiladi.
14. O'quvchi doimo o'zini xushmuomala tutadimi?
 A) doimo;
 B) ba'zida;
 D) deyarli hech qachon xushmuomala emas.
15. O'quvchi doimo sizga quloq soladimi?
 A) doimo;
 B) ba'zi-ba'zida;
 D) deyarli hech qachon.
16. O'quvchiga mustaqillik xosmi?
 A) butunlay mustaqil, hamma narsani o'zi mustaqil bajarishni yoqtiradi;
 B) ba'zi-ba'zida;
 D) ko'pincha mustaqillikni namoyon qilmaydi va u uchun boshqalar bajarishini xohlaydi.
17. O'quvchiga qafiylik xosmi?
 A) doimo boshlagan ishini oxirigacha yetkazishga harakat qiladi;
 B) ba'zida qafiylik namoyon qiladi, ba'zida yo'q;
 D) odatda qo'l urgan ishini oxirigacha bajarmaydi.
18. O'quvchiga mehnatsevarlik xosmi?
 A) juda mehnatsevar, doimo topshirilgan ishni bajonidil bajarishga harakat qiladi;
 B) ba'zida ishlashni sevadi, ba'zida dangasalik qiladi;
 D) ko'pincha dangasalik qiladi.

19. O‘quvchi o‘ziga ishonadimi?

A) butunlay o‘ziga ishonadi;

B) ba'zida;

D) o‘ziga ishonmaydi.

Ushbu anketa bo‘yicha bolalarni baholashda, ekspert sifatida faqat ota-onalar emas, shu bilan birga tarbiyachilar, sinf rahbarlari hamda o‘quvchilar ham qatnashishlari shart.

Natijalar tahlili.

Anketa bo'yicha olingan ma'lumotlar quyidagicha baholanadi:

«A» javobi — 10 ball;

«B» javobi — 5 ball;

«D» javobi — 1 ball;

Barcha javoblar bo‘yicha natijalar yig‘indisi hisoblanib, 18 ga bo‘linadi va bola shaxsi kommunikativ xususiyatlari, shaxslararo munosabatlar rivojlanish darajasining o‘rtacha ko‘rsatkichlari baholanadi.

Agar ota-onalarning baholari o‘qituvchi va tarbiyachilar bilan mos kelsa, bolada baholanayotgan sifatlarning mavjudligi haqida xulosa hosil qilish mumkin. Agar 3 ta ekspertdan faqat 2 tasining baholari mos kelsa, bolada ushbu sifatlar yetarli darajada rivojlanganligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Agar ekspertlar baholari umuman bir-biriga to‘g‘ri kelmasa, bolalarda ushbu sifatlarning mavjud yoki mavjud emasligi haqida qo‘shimcha maxsus tekshiriluvsiz xulosa chiqarish mumkin emas.

Suhbat metodi. Suhbat — bevosita muloqot jarayonida o‘quvchi-

lar psixik xususiyatlarini aniqlash metodikasi bo‘lib, o‘qituvchi oldindan tayyorlab qo‘ygan savol asosida o‘zi uchun kerakli bo‘lgan informatsiyani olish imkoniga ega.

Suhbat metodikasi yordamida inson xarakteri xususiyatlari, xatti-harakati motivlari, hayotining turli tomonlariga uning bahosi, biografiyasining asosiy faktlari va unga bo‘lgan munosabatlarni aniqlash mumkin.

Suhbat metodi ma'lum qoidalarga asoslanishi lozim

1. Suhbat tasodifiy emas, rejali bo‘lishi kerak.
2. Suhbat boshida o‘quvchi qiziqadigan mavzuda gaplashish kerak.
3. Suhbat boshlanishida biografik xarakterdagi savollar berilmasligi kerak.
4. Savollar tushunarli, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda berilishi kerak.

Suhbat metodining ijobiy tomoni — o‘quvchi bilan bevosita muloqotda bo‘lish, uning reaksiyalarini hisobga olish imkoni, qo‘shimcha, to‘ldiruvchi savollar berilishi mumkinligidir. Shuni ham nazarda tutish kerakki, suhbatdan biz obyektiv fakt emas, balki kishining subyektiv fikrini olamiz.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi. O‘quvchilar yozgan in-

shoga qarab, o‘qituvchi uning adabiy qobiliyatini, so‘z boyligi, rivojlanish darajasi, obrazli tafakkuri haqida xulosa chiqarishi mumkin. Xuddi shuningdek, matematikadan yozma ish, chizmachilikdan topshiriq natijalariga qarab o‘quvchining individual psixik xususiyatlari, qobiliyatlari, mehnat malakalari haqida ma’lumot to‘plash mumkin.

Diagnostik metodlar. Bu metodlar shaxsning u yoki bu xususiyatlarini shunchaki ta’riflash emas, balki bu xususiyatlarni o‘rganish asosida sifat va miqdor jihatdan xarakteristika berish imkoniyatiga ega.

Diagnostika metodlariga turli xil testlar kiradi.

Test metodi yordamida kishining aqliy qobiliyatlari darajasi aniqlanadi, inson holati va ularning xususiyatlari belgilanadi, shaxsning strukturaviy sifatleri — o‘z-o‘zini baholash, emotsional barqarorlik, muammoga yengil kirisha olishi o‘rganiladi.

Test inglizcha (test) so‘zidan olingan bo‘lib, sinab ko‘rish, tekshirish ma’nosini bildiradi. Test tekshiruvchiga taqdim etiladigan topshiriqlar tizimi bo‘lib, uning natijasida standartlashtirilgan o‘lchov o‘tkaziladi. Test asosan individlar o‘rtasidagi farqlarni yoki turli sharoitlarda ular ko‘rsatadigan reaksiyalar o‘rtasidagi farqlarni o‘rganish uchun mo‘ljallangan.

Yosh va pedagogik psixologiyada test guruhlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini, guruhiy holatlarning namoyon bo'lish darajasini o'rganish uchun ham qo'llaniladi. Test guruhlarini ijtimoiy-psixologik xarakteristikalarini asosida differentsiatsiya qilish maqsadlariga xizmat qiladi.

Testning standartlashtirilishi vazifalar bajarilishini baholash va uni o'tkazishning bir xildagi jarayonlarini hosil qilishdan iborat. Bu esa test o'tkazilishi mo'ljallanayotgan, o'rganilishi talab qilinadigan katta sonli reprezentativ sinalluvchilarda (2—3 ming) testni o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Test standartlashtirilishi 2 bosqichda o'tkaziladi. 1-bosqichda testni qo'llash yo'riqnomasi shakllanadi: topshiriqlar tanlanadi, uni o'tkazish uchun ko'rsatmalar ishlab chiqiladi, sinalluvchiga beriladigan yo'riqнома tuziladi va testni o'tkazishning boshqa masalalari ko'rib chiqiladi. 2-bosqichda normalar aniqlanadi, ya'ni test natijalarini baholash uchun boshqa individlar yoki guruhlar natijalari bilan solishtirish uchun normalar tizimi belgilanadi.

Testning ishonchliligi — shu test qayta o'tkazilganda (aynan shu tekshiruvchilarda) olingan ma'lumotlarning bir-biri bilan mos kelishi. Ishonchlilikni baholashning asosiy ko'rsatkichi korrelyatsiya koeffitsienti.

Testning validligi — test qanday maqsadda yaratilgan bo'lsa, o'sha maqsad uchun qo'llaniladi.

Qo'llanilish sohasiga qarab:

1. Intellect testlari.
2. Maxsus qobiliyatlarni aniqlash va yutuqqa erishish testlari.
3. Shaxs xususiyatlarini aniqlash testlari.
4. Qiziqishlar, ustanovka, qadriyatlarini aniqlash testlari.
5. Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi uchun mo'ljallangan testlar farqlandi.

Masalan, shaxslararo munosabatlarni va shaxs sifatlarini diagnostika qilish uchun ko'pincha amerikalik psixolog T. Liri tomonidan yaratilgan metodika qo'llaniladi. Bu metodik so'rovnomasi

bo‘lib, 128 ta punktdan iborat. Sinaluvchi o‘zi va atrofida gilar da muayyan xislatlarning mavjudligini, shuningdek, o‘zida va sheriklarida bo‘lishini xohlaydigan sifatlarni ko‘rsatadi. Natijalar qayta ishlangach, tadqiqotchi sinaluvchining shaxsi, yo‘nalishini aniqlab va shu asosda shaxslararo o‘zaro ta’sirni prognoz qilishi mumkin.

Shunday qilib, testlar — bu maxsus metodlar bo‘lib, u yoki bu ijtimoiy psixologik hodisa qisqa muddat ichida tekshiriladi. Testlar asrimizning boshlarida kashf qilingan bo‘lib, ular 20—30 yillarda hayotga, amaliyotga shiddat bilan kirib keldi. Natijada maxsus soha — psixometrika yuzaga keldi. Testlarni qo‘llashning qulayligi shundaki, bir test yordamida ma’lum shaxsning u yoki bu xususiyatlarini bir necha marta, takroran sinab ko‘rish mumkin.

Proyektiv metodlar. Proyektiv metodlar test usullarining bir ko‘rinishi bo‘lib, ularda tekshiriluvchi uchun aniq ko‘rinishga ega bo‘lmagan noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharhlash topshirig‘i beriladi. Masalan, tekshiriluvchiga turlicha talqin qilish mumkin bo‘lgan rasmlar, tugallanmagan hikoyalar, biror aniq ko‘rinishi mavjud bo‘lmagan buyumlar berilishi va ularni tekshiriluvchi o‘zining hissiy kechinmalari, qiziqishlari, dunyoqarashi nuqtayi nazaridan baholashi kutiladi.

Proyektiv metodlar qatoriga Rorshaxning «Siyoh dog‘lari» testini kiritish mumkin (1921). Bu — 2 tomonlama simmetrik shaklda berilgan 10 xil siyoh dog‘laridan iborat bo‘lib, har bir dog‘ har xil bo‘yoqli fonda ko‘rsatiladi. Tekshiriluvchidan har bir «dog‘» nimaning shaklini eslatishi so‘raladi. Bunda: 2 ta dog‘ qizil rangli shtrixlar, 5 ta dog‘ kulrang — qora, 3 ta dog‘ — yorqin bo‘lmagan ranglarda beriladi.

Proyektiv metodikalardan yana biri tugallanmagan jumlarlar metodi. Ushbu metod yordamida guruh va shaxsiy ustanovkalar tekshiriluvchining atrofida gilar ga (o‘rtoqlari, o‘qituvchi, ota-onasi) munosabati xususiyatlari, shuningdek, o‘ziga va kela-jakka bo‘lgan munosabatlari ham o‘rganiladi. Shu maqsadda tek-

shiriluvchiga bir qancha tugallanmagan jumlar taklif qilinadi, ko'p o'ylamasdan gapni mantiqan oxiriga yetkazish talab qilindi. Masalan,

— mening har safar kayfiyatim buziladi, agar...

— men uchun eng muhim muammo, bu — ...

do st bu ...

— mening otam ba'zida ...

— men shunga intilamanki...

Proyektiv metodikalar turli-tuman. Ular bir-biridan tubdan farq qiladi. Biroq shuni nazarda tutish lozimki, proyektiv metodikani tavsiflash muayyan psixologik bilimlarni maxsus nazariy tayyorgarlikni va metodikani qo'llash bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lishni talab qiladi.

Sotsiometriya metodi. Sotsiometriya metodi birinchi bo'lib amerikalik psixolog Dj. Moreno tomonidan taklif etilgan. Bu metodning mohiyati shundan iboratki, inson u yoki bu ko'rsatkich bo'yicha guruh a'zolarini tanlaydi. Qilingan tanlashlar asosida kishining guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida tutgan o'rnini haqida xulosa qilinadi.

Demak, sotsiometriya metodi yordamida guruh a'zolari o'rtasidagi simpatiya yoki antipatiyani aniqlash mumkin. Sotsiometriya metodini operativ tarzda o'tkazish, uning natijalarini esa matematik qayta ishlash va grafik ravishda ifodalash mumkin.

Sotsiometriyani tadqiqot metodi sifatida tan olish bilan bir qatorda uning ba'zi kamchiliklarini ham ko'rsatib o'tish zarur. Asosiy kamchilik shundan iboratki, sotsiometriya metodi mavjud munosabatlar strukturasi sabablarini aniqlash imkonini bermaydi. Shuning uchun ham sotsiometriyadan olingan ma'lumotlar kuzatish, suhbat, psixologik-pedagogik eksperiment natijalari bilan to'ldirilishi lozim.


Sotsiometriya metodidan guruh, jamoa a'zolari o'zaro bir-birlarini yaxshi bilgan holatlardagina foydalanish mumkin. Bu metod yordamida shaxsning xizmat yuzasidan bo'ladigan va shaxsiy munosabatlardagi haqiqiy o'rnini aniqlash, birlamchi

guruhlar mavjud yoki mavjud emasligini topish, birlamchi guruhlarning paydo bo'lishi va tarqab ketishi sabablarini aniqlash mumkin.


Sotsiometriya metodining mohiyati shundan iboratki, tekshiriluvchiga birga qilinadigan ishlari yoki guruh a'zolarining ishlarini birgalikda bajarishga xohishlari to'g'risida savollar beriladi. Beriladigan savollar tanlash ko'rsatkichlari deyiladi. Kuchli va kuchsiz ko'rsatkichlar farqlanadi. Kuchlilar chuqur va barqaror munosabatlarni, kuchsizlari yuzaki va beqaror munosabatlarni aniqlash imkonini yaratadi. Masalan, «xizmatdoshlaringizdan qaysi biri bilan bitta brigadada ishlashni xohlardingiz?» degan savol bo'yicha aniqlangan ko'rsatkich kuchli ko'rsatkich hisoblanadi, chunki u uzoq vaqt davom etadigan, muhim munosabatlarga tegishli. «Kimni birga ekskursiyaga borishga taklif qilardingiz?» — kuchsiz ko'rsatkich, chunki u chuqur bo'lmagan va vaqtinchalik munosabatlarni belgilaydi. Kuchli va kuchsiz ko'rsatkichlar mazmuni jihatidan turlicha bo'lishi mumkin, lekin ulardagi umumiy narsa — natijalar, ya'ni sherik tanlash.

Tanlashlar soni cheksiz bo'lishi mumkin, biroq amaliyotning ko'rsatishicha, kishining guruhdagi holati va o'zaro munosabatlarni aniqlash uchun 3 ta kishi tanlash yetarli. Bunda sinaluvchidan, birinchi navbatda kimni tanlashi, agar 1 shaxs bilan imkon bo'lmasa 2-navbatda kimni tanlashi hamda ikkinchisini tanlash imkoni bo'lmasa, 3-navbatda kimni tanlashi haqida so'raladi.



Sherikni tanlash o'zaro va bir tomonlama bo'lishi mumkin. 1-holda $A \rightarrow B$ ni, $B \rightarrow A$ ni tanlaydi. Bu o'zaro bir-birini tanlash hisoblanadi. Tanlash bir tomonlama bo'lganda $A \rightarrow B$ ni, B esa D ni yoki E ni tanlaydi.



Tanlash bir tomonlama bo'lganda $A \rightarrow B$ ni, B esa D ni yoki E ni tanlaydi.



Guruh, jamoadagi o‘zaro munosabatlar grafik ravishda zanjir, uchburchak yoki yulduzcha shaklida ifodalanishi mumkin.



Bunday ifodalash a‘zosi unchalik ko‘p bo‘lmagan guruhlarda bo‘lishi mumkin. Agar guruh ko‘p sonli bo‘lsa, aylana shaklidagi sxemadan foydalanish lozim. Buning uchun 4 ta aylana chiziladi. Birinchi yoki markaziy aylanaga eng ko‘p tanlangan guruh a‘zosi-ning shartli belgisi qo‘yiladi. Markazdan keyingi, ya‘ni ikkinchi aylanaga 3 marta tanlangan o‘quvchilarning nomeri yoziladi, uchinchi aylana ichiga 1—2 marta tanlangan o‘quvchi, to‘rtinchi aylanaga tanlanmagan o‘quvchilarning shartli belgisi hamda aylanadan tashqariga rad etilgan o‘quvchilar nomeri yoziladi.

Bunda aylana 2 qismga ajratiladi va chap tomonga qizlar, o‘ng tomonga o‘g‘il bolalarning shartli belgilari joylashtirib chiqiladi. Qizlar doira, o‘g‘il bolalar esa uchburchak bilan ifodalana- di. Doira va uchburchaklar kim kimni tanlashiga qarab, strelkali chiziqlar bilan birlashtiriladi. Bu sxema sotsiogramma deb ataladi.

Agar guruhda 20 dan ortiq a‘zo bo‘lsa, bunday sxema tuzish qiyinroq bo‘ladi. Shuning uchun bunday hollarda matritsadan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Matritsa quyidagicha tuziladi. To'rtburchak yoki kvadrat chizilib, guruh a'zolarining soniga qarab katakchalarga bo'linadi. Chap tarafdin yuqoridan pastga va yuqoridan o'ng tarafga guruh a'zolarining shartli belgilari qo'yib chiqiladi. Guruh a'zolarining shartli belgilari o'quvchilar familiyasi yoki familiya bosh harfi, tekshiruvchilarning tartib nomerlari ham bo'lishi mumkin. Gorizontal chiziq bo'yicha qatorlarga tanlanayotgan o'quvchi, vertikaliga esa katakcha ichiga kimni tanlayotgani haqidagi ma'lumotlar yoziladi. Ijobiy tanlash «+» belgisi bilan, o'zaro bir-birini tanlash esa «+» belgisi bilan ifodalanadi.

Ma'lumki, kichik guruh yoki jamoalarda birlamchi guruhlar mavjud bo'lishi mumkin. Bu birlamchi guruhlar esa boshqa matritsada belgilanadi. Buning uchun yuqorida ko'rsatilganidek, to'rtburchak yoki kvadrat chizilib, matritsaning chap burchagidan pastdagi o'ng burchagiga qaratib diagonal chiziq o'tkaziladi. Bu chiziq kvadratning shu diagonal chizig'iga to'g'ri kelgan kataklari ustidan o'tadi. 1-matritsadan o'zaro tanlanishga ega bo'lgan istagan bir o'quvchi tanlab olinadi. Uning tartib raqamini va familiyasini matritsaning 1-qatoriga o'tkaziladi. Xuddi ana shu raqamni yuqoridagi 1-katakka qo'yiladi. So'ngra 1-matritsadan 1-qatorga yozilgan shaxs bilan o'zaro tanlanishda bo'lgan shaxslarni tanlab olinadi. Uning tartib raqami va familiyasi 2-qatorga yoziladi. Xuddi ana shu raqamni yuqoridan 2-ustunga yoziladi. Matritsaning shunga muvofiq keladigan kataklariga «+» belgisi yozib qo'yiladi. Matritsaning 1-qatoridagi o'quvchi bilan o'zaro tanlanishda bo'lgan guruhning navbatdagi a'zosini uning 1-matritsadagi raqamini saqlagan holda 3-qatorga yoziladi. Shu raqamni 3-ustunning yuqori qismiga ham qo'yiladi. Tegishli katakka «+» belgisi qo'yiladi. Shu tariqa 1-matritsadan tanlab olinadigan familiyalarni navbatdagi qatorga yoziladigan o'zaro tanlanishda bo'lgan birorta ham kishi qolmaguncha davom ettirish kerak. Boshqacha qilib aytganda, o'zaro tanlanishda bo'lgan kishilar doirasi yakunlanishi lozim. O'zaro bir-birini tanlamagan o'quvchilar matritsaning oxiriga

yoziyadi. Mikrogruh, ya'ni birlamchi gruh 2—5 kishidan iborat bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, sotsiometriya metodi obyektiv va aniq ma'lumotlar, ya'ni shaxsning gruh yoki jamoadagi real holatini aks ettiruvchi ma'lumotlar olishga imkon beradi hamda amaliy maqsadlarda foydalanilishi mumkin.

Sotsiometrik matritsa

No	Ismi-sharif (sinaluvchilar)	Abdullayeva	Vohidova	Daminova	Zokirova	Ikromov	Islomova	Qilingan tanlashlar
1.	Abdullayeva	X	3	1		2		
2.	Vohidova	1	X	2				
3.	Daminova		3	X		1		
4.	Zokirova		1	3	X			
5.	Ikromov					X		
6.	Islomova						X	
	Tanlashlar soni	1	3	3	0	2	0	

Natijalarga qarab, gruh a'zolarining qaysi biri eng ko'p tanlanganligini bilish mumkin. Eng ko'p tanlash olgan — lider hisoblanadi.

Sotsiometrik tadqiqotdan olingan natijalar (matritsa va sotsiogramma shaklidagi) sotsiometrik indekslar bilan to'ldiriladi. Bu indekslar gruhni miqdor jihatidan xarakterlab beradi. Shulardan biri — guruhij jipslik indeksi.

Psixologik tadqiqotlar natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlari

Tadqiqotdan olingan ma'lumotlarni (miqdoriy) tahlil qilish va tavsiflashga kirishishdan avval ularni umumlashtirish, bir tizimga solish va ixcham shaklga keltirish zarur. Buning uchun esa matematik statistika tushunchalarini albatta bilish va ular bilan ishlay olish talab qilinadi.

Odatda, o'lchov natijalarini aks ettiruvchi sonlar statistikada

ya'ni o'sib borish yoki kamayish tartibida joylashgan o'lchovlar variatsion qatorni tashkil qiladi. Variatsion qator tarkibida takrorlanadigan o'lchovlar soni chastota deyiladi.

Masalan, tadqiqotchi «Sening fikr va qarashlaring sinfdoshlaringniki bilan ko'pincha mos keladimi?» kabi anketa savoliga 36 o'quvchidan javob olingan deylik. Bunda 5 xil javob ko'zda tutilgan: «har doim», «ko'pincha», «ba'zida», «kamdan kam», «hech qachon». Agar har 1 javob varianti uchun son belgisi berilsa («har doim» — 5, «ko'pincha» — 4, «ba'zida» — 3, «kamdan kam» — 2, «hech qachon» — 1).

Hamda sonlarning kamayib borish tartibi bo'yicha bir qatorga joylashtirilsa, biz quyidagicha variatsion qatorga ega bo'lamiz:

55555444444444333333333322222211

Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash oson bo'lishi uchun jadval shakliga keltiramiz:


Anketa savollariga o'quvchilar bergan javoblaridan chastota

1-jadval

NQ	Variantlar	Chastota
1.	Har doim	6
2.	Ko'pincha	9
3.	Ba'zida	12
4.	Kamdan kam	7
5.	Hech qachon	2
	Jami	36

Chastota bo'yicha jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni grafik shakliga keltirish mumkin. Bunda grafik tuzish 2 yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin. Gorizontal chiziqqa variantlar, vertikal chiziqqa ular chastotasi joylashtirib, shtrix chiziq bilan birlashtir-sak, chastotalar poligoni egri chizig'iga ega bo'lamiz.

Tadqiqotdan olingan ma'lumotlarni statistik qayta ishlash uchun o'rtacha arifmetik qiymat, moda va medianani hisoblash zarur. O'rtacha arifmetik qiymat olingan natijalar yig'indisini topib, uni variatsion qator a'zolari soniga bo'lish orqali hisoblab chiqiladi:



3-rasm. Chastotalar poligoni.

$$\bar{x} = \frac{x_1 + x_2 + \dots + x_i + \dots + x_n}{N} \quad (1)$$

$$\bar{x} = \frac{1}{N} \sum_{i=1}^N x_i \quad (2)$$

Bunda \bar{x} — o‘rtacha arifmetik qiymat;

— variant ifodasi;

N — variatsion qator a‘zolari soni.

Agar variatsion qator orasidan ba‘zi variantlar takrorlansa, (1) formula quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\bar{x} = \frac{x_1 \cdot k_1 + x_2 \cdot k_2 + \dots + x_n \cdot k_n}{k_1 + k_2 + \dots + k_n} \quad (3)$$

Endi quyidagi variatsion qatorning o‘rtacha arifmetikini (3) formula yordamida hisoblab ko‘ramiz:

$$\bar{x} = \frac{-1 \cdot 2 + 4 \cdot 3 + 5 \cdot 2 + 7 \cdot 4 + 8 \cdot 1}{2 + 3 + 2 + 4 + 1} = \frac{60}{12} = 5$$

Agar o‘lchov tarkib shkalasida bajarilgan bo‘lsa, o‘rtacha arifmetik qiymatni topish mumkin emas. Bu holda mediana topiladi.

Mediana — bu variatsion qatorni teng 2 ga bo‘luvchi ifoda bo‘lib, uning yarmi chap, yarmi o‘ng tomonda joylashadi.

Mediananing o‘rni quyidagi formula bilan topiladi:

Mediana o'rnining (masalan, $2 \pm 1 = 3$) 2

Bunda N — qator a'zolari soni.

Agar olingan natija toq son bo'lsa, masalan, 12, 9, (7), 6, 2 bunda mediana 7 soniga teng, yoki 3-o'rin. Agar juft son bo'lsa, masalan, 5, 7, 11, 12 bunda mediana 2- va 3-ifodaning o'rtasi, ya'ni 4 ta 2,5 ga teng.

Nominal o'lchov o'tkazilganda moda topiladi. Moda — variatsion qatorda ko'proq uchraydigan ifoda.

Masalan, 3,3,3,4,5,5,5,9,10 variatsion qatorda 5 soni moda hisoblanadi, chunki u boshqalariga qaraganda ko'p (4 marta) uchrayapti. Demak, moda-chastotasi maksimal bo'lgan variant. Agar hamma ifoda bir xil chastotada uchrasa, unda ushbu variatsion qator modaga ega bo'lmaydi. Variatsion qator bimodallik ham bo'lishi mumkin. Masalan, 3,3,4,4,4,5,5,5,7,7,8,8,8,9 variatsion qatorda 5 va 8 moda bo'lib hisoblanadi.

Guruh ichidagi variatsiyalar bahosini o'lchash uchun variatsion qatorning boshqa xarakteristikalari — dispersiya va o'rtacha kvadrat og'ish (standart og'ish) hisoblab chiqiladi.

Bularni hisoblash turli tanlab olingan tekshiruvchilarda olingan natijalarni o'zaro bir-biri bilan taqqoslash imkonini beradi. Dispersiyani topish uchun oldindan quyidagicha jadval tuzib olinadi:

2-jadval

	Ko'rsatkich ifodasi	O'rtachadan og'ish	Kvadrat og'ish
1	1	1-2=-1	1
2	3	3-2=1	1
3	3	3-2=1	1
4	0	0-1=-1	1
5	4	4-2=2	4
6	1	1-2=-1	1
	$\sum x_i = 12$		$\sum (x_i - \bar{x})^2 = 12$
	$\frac{1}{N} \sum x_i^2 = 12$	$\frac{1}{N} \sum (x_i - \bar{x})^2 = 2,4$	

Dispersiya quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$cr^2 = \frac{1}{N} \sum (x_i - \bar{x})^2$$

Bunda, \bar{x} — variatsion qatorning o‘rtacha arifmetik qiymati;

x_j — har bir alohida variantning ifodasi;

N — variatsion qatordagi variantlar miqdori.

O‘rtacha kvadrat og‘ish dispersiyadan kvadrat ildiz chiqarish orqali aniqlanadigan va σ (sigma) bilan belgilanadi, u quyidagicha hisoblanadi:

Ilmiy taxmini statistik tekshirish.

Psixologik tadqiqotlarda matematik statistikasi qo‘llashning muhim tomonlaridan biri olingan natijalar statistik miqdorini aniqlash.

Masalan, tadqiqotchi o‘zining tadqiqotida guruhiy faoliyat samardorligini guruh rivojlanish darajasiga bog‘liqligini o‘rganmoqchi deylik. 2 ta guruh — yuqori rivojlanish darajasi va past rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan guruhlarda olingan 2 turdagi o‘lchovlar arifmetik qiymatni topishi mumkin.

3-jadval

Yuqori rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan guruh			Yuqori rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan guruh		
Faoliyat samardorligi ball hisobida		$(x_j - \bar{x}_1)$	Faoliyat samardorligi ball hisobida	$(x_i - \bar{x}_2)$	$(\%i - \bar{x}_2)$
5	-2	4	6	2	4
6	1	1	3	1	1
7	0	0	4	0	0
10	-3	9	5	-1	1
6	1	1	5	-1	1
8	-1	1	3	1	1
7	0	0	2	2	4

$X_j = 7$	$\sum_{i=1}^{k_i} (x_i - \bar{x}_i)^2 = 16$	$x_2 = 4$	$\sum_{i=1}^N (x_2 - X_i)^2 = 12$
$cr^2 = 2,67$	$= 1,63$	$cr^2 = 2$	$cr_2 = 1,41$

$$u, - \frac{\sum_{i=1}^k (x_i - \bar{x}_i)^2}{(k-i)}$$

$$* \sum_{i=1}^k (x_i - \bar{x}_i)^2 = 16 \quad 2,67;$$

$$= 7^2 = 49, 67^2 = 44,89;$$

$$CT_2 = 2,$$

$$O, = A/F = 1,41.$$

\bar{x}_1 va x_2 lar o'rtasida farq borligini, ya'ni guruh rivojlanish darajasi bilan guruhiy faoliyat o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini aniqlash uchun tadqiqotchi x_i — x_2 o'rtasidagi farqning statistik ishonchliligini topishi lozim. Buning uchun Studentning t kriteriysidan foydalaniladi.

$$t = \frac{x_2 - \bar{x}_1}{\sqrt{rn}}$$

Bu yerda \bar{x}_2 va \sim o'rtacha arifmetik qiymati;

$trij$ va $rrij$ — o'rtacha xato qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$= \frac{cr}{\sqrt{N}}$$

Bizning misolda 1-qator uchun xato quyidagiga teng:

$$m = \frac{\sigma_1}{\sqrt{N_1}} = \frac{1,63}{\sqrt{7}} = 0,62;$$

2-qator uchun

Shundan keyin, tadqiqotchi maxsus jadval orqali ishonchlik darajasini aniqlaydi. Psixologiya bo'yicha qilinadigan ishlar da asosan 5 foizli ($r=0.05$), 1 foizli ($r=0.01$) va mingdan bir foizli ($r=0.001$) ishonchlik darajasi qo'llaniladi. Agar t - kriteriya miqdori, masalan, 5 foizli ishonchlik darajasiga teng yoki undan kichik bo'lsa, o'rtacha qiymatlar o'rtachasi topilgan farq tasodifiy, ya'ni 100 tadan 5 holatga to'g'ri keladi ($p < 0,05$). Agar $p > 0,05$ (ya'ni tasodifiylik farq 5 foizdan katta) bo'lsa, farq unchalik katta emas. Ishonchlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, t -ko'rsatkichning miqdori shunchalik ahamiyatli bo'ladi.

Spirmen korrelyatsiya koeffitsienti:

$$r_s \frac{r-1}{n(n^2-1)}$$

r_s — korrelyatsiya koeffitsienti;

d — taqqoslanayotgan obyekt o'rni (rang) o'rtasidagi farq;

n — taqqoslanayotgan juftlik miqdori.

Korrelyatsiya koeffitsienti miqdori -1 dan +1 gacha oraliq chegaralaridan chetga chiqmaydi.

Agar korrelyatsiya koeffitsienti +1 ga yaqin bo'lsa, o'zgaruvchilar o'rtacha mustahkam to'g'ri aloqa mavjudligini bildiradi. Agar korrelyatsiya koeffitsienti -1 ga yaqin bo'lsa, o'zgaruvchilar o'rtasida teskari aloqa borligidan dalolat beradi. Agar korrelyatsiya koeffitsient 0 bo'lsa, aloqa mavjud emas.

Olingan miqdorning ishonchlilik darajasini aniqlash uchun Studentning t- kriteriysidan foydalaniladi:

$$- t_{jT-2}$$

t — studentning korrelyatsiya koeffitsienti ko‘rsatkichi; r - korrelyatsiya koeffitsienti miqdori; N - tanlovlar hajmi.

Korrelyatsiya (rang bo‘yicha) koeffitsientini hisoblanish.

Masalan, 2 ta ekspert 1 ta o‘quvchini 8 sifat bo‘yicha baholaydilar:

1. Qattiqqo‘llik.
2. Qat‘iylik.
3. Jahldorlik.
4. Mas‘uliyatsiz.
5. Ochiq ko‘ngil.
6. To‘g‘riso‘zlik.
7. Aqllilik.
8. G‘ayratlilik.

Bunda shu 8 xil sifat o‘rinlarga joylashtirib chiqiladi. 1-o‘rinda o‘quvchida eng ko‘p namoyon bo‘ladigan sifat, 8-o‘rinda eng kam namoyon bo‘ladigan sifat joylashtiriladi. Natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

Spirmen formulasidan foydalaniladi:

$$r=1 \frac{\sum_{j=1}^6 J^2}{n(n-1)}$$

$$\frac{n(n^2-1)}{8(8^* -1)} = 504$$

Student t-ko‘rsatkichidan foydalanib, ishonchlilik darajasini aniqlaymiz.

$$\frac{f_{-r} \sqrt{4N-2} \cdot 0,74 \cdot \sqrt{8} - 2 \cdot 1,81}{\sqrt{1-0,74^2}} = \frac{y/1-0,74^2}{0,67} = 2,71$$

4-jadval

Qatorga joylashtirish uchun ekspertlarga taklif qilingan sifatlar ro'yxati	Joylashtirilgan sifatlar qatori		O'rinlar (ranglar) o'rtasidagi farq	d
	1-ekspert	2-ekspert		
G'ayratlilik	1	2		1
Qattiqqo'llik	5	7	-1	4
Qat'iylik	6	3	-2	9
Jahldorlik	8	6	3	4
Mas'uliyatni his qilmaslik	7	8	2	1
Ochiq ko'ngillilik	3	4	-1	1
To'g'riso'zlik	4	5	1	1
Aqllilik	2	1	-1	1
			2	1

Qo'lga kiritilgan miqdor, ya'ni n_s — 0.74

2 ekspert baholari o'rtacha yuqori darajadagi to'g'ri aloqa mavjudligidan dalolat beradi. Bu esa bizga baholanayotgan o'quvchilarga berilgan (baholar) xarakteristikalarining obyektivligidan hamda ekspertlar baho ko'rsatkichlarining umumiyligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan matematik-statistik metodlar yordamida psixologik tadqiqot natijalari qayta ishlanadi.

2.4. Empirik tadqiqotlarni tashkil qilish sxemasi

Yosh va pedagogik psixologiyada tadqiqot o'tkazishning quyidagi 4 bosqichi ajratib ko'rsatiladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi.
2. Tadqiqot (eksperiment) bosqichi.
3. Ma'lumotlarni qayta ishlash bosqichi.
4. Ma'lumotlarni tushuntirib berish bosqichi.

Birinchi bosqich — tayyorgarlik bosqichi. Bunda har xil vositalar yordamida material o'rganiladi, dastlabki ma'lumotlar to'planadi (o'quv mashg'ulotlari va mehnat faoliyati chog'ida, turmushda, ataylab uyushtirilgan suhbatlar jarayonida kuzatuv-

dan foydalaniladi, ba'zan maxsus tanlangan savollar yozilgan anketalar qo'llaniladi, biografik ma'lumotlar aniqlanadi, anamnez to'planadi, ya'ni tadqiq qilinayotgan faktning hosil bo'lishiga qadar mavjud shart-sharoitlar ta'riflanadi va hokazolar).

Ikkinchi bosqich — xususan eksperimental bosqich bo'lib, tadqiqotning konkret metodikasi amal qiladi va o'z navbatida bu bosqich birin-ketin qo'llaniladigan qator bo'g'inlarga — eksperiment seriyalariga bo'linadi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichi — tadqiqot ma'lumotlarini sifat jihatidan qayta ishlashdir. U psixologiyaning matematik apparatini — dastlab ilgari surilgan farazning tasdig'i tarzida olingan xulosalarning haqqoniyligi haqida hukm chiqarish imkonini beradigan turli xildagi statistik usullar va ehtimollik nazariyasining asosiy qoidalarini qo'llanishni taqozo etadi.

Tadqiqotning to'rtinchi bosqichi olingan ma'lumotlarni izohlab berish, ularni psixologik nazariya asosida talqin qilish, farazning to'g'ri yoki noto'g'riligini uzil-kesil aniqlashdan iboratdir.

Psixologik tadqiqot bosqichlari

Tayyorgarlik bosqichi

I. Muammoning o'rganilganlik holatini tahlil qilish, vazifalarini belgilab olish, tadqiqotning ishchi farazini ilgari surish, metodikalar tanlash.

II. Xulosalar ishonchliligini ta'minlovchi ma'lumotlar to'plash. Buning uchun turli metodlar qo'llanilib, bir yoki bir necha bosqichlarda eksperiment o'tkaziladi.

III. Tadqiqot natijalarini miqdoriy qayta ishlash, o'rtacha qiymat, korrelyatsiya koeffitsientlarini aniqlash, graflklar va jadvallar, diagrammalar tuzish.

IV. Ma'lumotlarni tavsiflash (interpretatsiya qilish), xulosalar ishlab chiqish.

3-rasm. Psixologik tadqiqot bosqichlari.

1. Tadqiqotlarni tashkil qilish tekshiruvda qo'llaniladigan metod va metodikalarni tanlash hamda sinab ko'rishni (pilotaj

tekshiruv) o‘z ichiga oladi. Tadqiqotga tayyorgarlik jarayonida tekshiriluvchilar va ularning soni aniqlanadi.

Tadqiqot metodi — bu tadqiqotchini qiziqtirgan ma’lumotni qo‘lga kiritish yo‘li, vositasi.

Tadqiqot metodikasi — bu psixik jarayonlar va ularning xususiyatlari to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni qo‘lga kiritish uchun ishlatiladigan konkret usul va vositalar majmui.

2. Tadqiqot o‘tkazish joyi turli xil tashqi shovqinlardan xoli bo‘lishi, shu bilan birga sanitariya-gigiyena qoidalariga javob berishi lozim. Majbur qilmaydigan ish holati ta‘minlanishi kerak.

3. Tadqiqotning texnik ta‘minlanishi hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalarga mos tushishi kerak.

4. Sinaluvchilarni sifat jihatidan bir xil qilib tanlash zarur.

5. Tadqiqotchi tadqiqotning borishiga, uning barcha bosqichlarini o‘tkazishga ta’sir etadi (rejalashtirishdan, to xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishgacha).

6. Yo‘riqnoma yoki ko‘rsatma tadqiqot boshlanishidan oldin, tayyorgarlik bosqichida tuziladi. U aniq, qisqa va bir ma’noli bo‘lishi lozim.

7. Tadqiqot natijalari bayonnomalarda qayd etilib, u bir vaqtning o‘zida ham to‘la, ham maqsadga qaratilgan bo‘lishi kerak.

8. Tadqiqotdan olingan ma’lumotlar sifat va miqdor jihatdan analiz, sintez qilinishi, ya’ni qayta ishlanishi zarur.

Shunday qilib, ushbu bobda psixologiyaning asosiy va yordamchi metodlari, ularning batafsil sharhi hamda psixologik tadqiqotlarni o‘tkazish sxemasiga to‘xtalib o‘tdik.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Yosh psixologiyasining asosiy metodlari qaysilar?
2. Yosh psixologiyasining yordamchi metodlari qaysilar?
3. B.G.Ananyev psixologiya metodlarini qanday guruhlarga bo‘lgan?
4. Matematik statistik metodlar qanday hisoblanadi?
5. Tadqiqotlarni o‘tkazish bosqichlari haqida so‘zlab bering.

Mavzuni mustahkamlash uchun testlar:

1. Yosh psixologiyasida keng qoʻllanuvchi quyidagi metodlardan qaysilari tashkiliy metodlar jumlasiga kiradi?
 - a) kuzatish va eksperiment, sotsiometriya;
 - b) kompleks, longiyud, taqqoslash;
 - c) sotsiometriya va faoliyat mahsulini oʻrganish;
 - d) uzunasiga va koʻndalangiga kesim.
2. Yosh psixologiyasining asosiy metodlari qaysilar?
 - a) longiyud, koʻndalangiga kesim;
 - b) anketa, test;
 - *c) kuzatish, eksperiment;
 - d) sotsiometriya, suhbat.
3. Yosh psixologiyasining yordamchi metodlari qaysilar?
 - *a) test, anketa, suhbat, sotsiometriya, faoliyat natijalarini oʻrganish;
 - b) test, anketa, kuzatish, sotsiometriya, faoliyat natijalarini oʻrganish;
 - c) test, anketa, suhbat, eksperiment, faoliyat natijalarini oʻrganish;
 - d) test, anketa, korrelyatsiya, sotsiometriya, faoliyat natijalarini oʻrganish.
4. B.G. Ananyev psixologiya metodlarini qanday guruhlariga boʻlgan?
 - a) proyektiv, diagnostik, maʼlumotlarni qayta ishlash, sharhlash metodlari;
 - b) intellektual, korreksion, maʼlumotlarni qayta ishlash, sharhlash metodlari;
 - c) test, anketa, korrelyatsiya, sotsiometriya, faoliyat natijalarini oʻrganish metodlari;
 - *d) tashkiliy, empirik, maʼlumotlarni qayta ishlash, sharhlash metodlari.
5. Psixologik-pedagogik eksperiment quyidagi qismlardan iborat

III BOB. YOSH PSIXOLOGIYASINING SHAKLLANISH TARIXI

Reja:

1. Psixologiya fanlarining mustaqil sohasi sifatida yosh psixologiyasining shakllanishi.
2. Bolalar psixologiyasini tizimli o'rganishning boshlanishi.
3. XIX asr o'rtalari va XX asr boshlarida Rossiyada yosh psixologiyasining shakllanish tarixi.

Mavzu o'quv maqsadi:

Ta'limiy: bo'lajak psixologlar tomonidan yosh psixologiyasi fanining rivojlanish tarixi haqidagi bilimlarni o'zlashtirilishini tashkil etish.

Tarbiyaviy: bo'lajak psixologlar tomonidan yosh psixologiyasi fanining rivojlanish tarixi haqida bilim, malaka va ko'nikmalari asosida dunyoqarashini kengaytirish.

Rivojlantiruvchi: mavzuning ta'limiy va tarbiyaviy o'quv maqsadlari asosida talaba shaxsini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: yosh psixologiyasi, bolalar psixologiyasi, rivojlanish, ontogenez, filogenez.

3.1. Psixologiya fanlarining mustaqil sohasi sifatida yosh psixologiyasining shakllanishi

Yosh psixologiyasi alohida fan sifatida XIX asrning boshlarida vujudga kelgan bo'lishiga qaramay, uning mustaqil fan sifatida rivojlanishi va qaror topish yo'li ancha murakkab kechgandir.

O'tmishda ajdodlarimiz insonning psixologik qonuniyatlarini, muayyan ilmiy yo'nalishda o'rganmagan bo'lsalar-da, biroq allo-malarning qo'lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo'lishi, inson kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat deb aytdi. Forobiy mavjudotni bilish-

da ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishning eng yetuk mahsuli bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

O'qituvchi shaxsining psixologik xususiyatlari masalasida Abu Nasr Forobiy: «O'qituvchi aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur», «O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi», — deb ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ta'lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqeyi, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik zahirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg'unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta'kidlaydi.

Beruniy ta'lim jarayonining mohiyatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosida qurilgan o'qitish samarali bo'lishini uqtiradi. Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan.

O'rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining dohiysi Abu Ali ibn Sino inson ruhiyati, tana va qalbning birligi, inson organizmining tuzilishi, undagi nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma'lumotlari hozirga qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi. Abu Ali ibn

Sinoning fikricha: «...O‘qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo‘y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim».

Yusuf Xos Hojib ijodining bosh masalalaridan biri — komil insonni tarbiyalashdir. U o‘z asarlarida eng komil, jamiyatning o‘sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo‘lsa, shu asosda u o‘z tamoyillarini izchil bayon etadi. «Qutadg‘u bilig» («Saodatga yo‘llovchi bilim») asari ta‘lim va tarbiya, ma‘naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini o‘zida mujassamlashtirgan, axloq va odobga doir ma‘naviy manbadir.

Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Xirandnomai Iskandari», «Tuhfat-ul-axror» va boshqa asarlarida ilm-ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya, kasb-hunar o‘rganish, inson ijobiy fazilatlarini haqidagi fikrlari ifodalangan.

Ta‘lim va tarbiya jarayonida tarbiyachi va o‘qituvchi shaxsi eng muhim omil bo‘lganligi tufayli Nasriddin Tusiy «O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida» degan asarida shunday fikrlarni ifodalaydi: «O‘qituvchi munozaralarni olib borishni, rad etib bo‘lmaydigan darajada isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo‘lishi lozim... O‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo‘pol yoki qattiq bo‘lishi mumkin emas. Dars paytida o‘qituvchi o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin...».

Alisher Navoiyning «Xazoyin-ul-maoniy», «Mahbub-ul-qulub» va boshqa shu singari asarlarida yetuk, barkamol insonning axloqi, ma‘naviyati, o‘zgalarga munosabati, iste‘dodi va qobiliyati to‘g‘risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolatning qaror topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta‘kidlangan. Shu bilan birga o‘qituvchi mehnatini xolisona baholab: «Agar shogird podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi», deydiki, bu orqali ta‘lim

va tarbiya jarayonidagi o'qituvchi shaxsini markaziy shaxs sifatida ko'radi. Shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikr-mulohazalari alohida o'rin egallaydi.

Navoiy «Xamsa»sining har bir dostonida bukilmas iroda, qafiyatlilik, itoat, insonparvarlik tuyg'ulari, ijodiy xayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan. Shuningdek, bu borada Mahmud Qoshg'ariy, Ulug'bek, Naqshbandiy, Ogahiy singari buyuk Sharq mutafakkirlarining yoshlar tarbiyasiga, o'qituvchi, tarbiyachining jamiyatdagi o'rni, axloq-odob, fe'l-atvor, oilaviy hayot, shaxslararo munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayon etilganligini ta'kidlash mumkin.

3.2. Bolalar psixologiyasini tizimii o'rganishning boshlanishi

Yosh va pedagogik psixologiya fanning alohida tarmog'i sifatida o'zining kelib chiqish va rivojlanish tarixiga ega. Yosh va pedagogik psixologiya fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida tarkib topadi. Bunda taniqli rus pedagogi K.D. Ushinskiyning asarlari, ayniqsa uning «Inson tarbiya predmeti sifatida» nomli asari katta rol o'ynaydi.

Bundan tashqari Ch.Darvinning evolutsion g'oyalari ham yosh psixologiyasining taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Evolutsion ta'limot psixik taraqqiyot manbalari muammosiga e'tiborini qaratishga olib keladi.

XX asrning boshlariga kelib, umumiy psixologiyada o'tkaziladigan eksperimental tadqiqotlarni pedagogika sohasiga shundayligicha o'tkazish mumkin deb qaraldi. Ammo o'sha davrning umumiy psixologiya fani pedagogika uchun yetarli bilimlar boyligini bera olmas edi.

Psixik taraqqiyotning dastlabki konsepsiyalari Ch.Darvinning evolutsion ta'limoti, biogenetik qonun ta'sirida vujudga keldi. XIX asrda biologlar E.Gekkel va EMyuller tomonidan biogenetik qonun rekapitulatsiya (takrorlanish) tamomiliga asoslanib

kashf etildi. Unga ko‘ra organizmning individual taraqqiyoti o‘sha turning tarixiy taraqqiyotida aks etadi. Organizmning individual taraqqiyoti (ontogenez) o‘sha tur avlodlari tarixiy taraqqiyotini (filogenez) takrorlaydi. Rekapitulyatsiya tamoyili o‘z vaqtida psixologiyaning rivojlanishiga muhim ta‘sir ko‘rsatdi. Uning ta‘sirida amerikalik olim E.Xoll (1844—1924) bolalar psixik taraqqiyotining bir butun nazariyasini yaratdi.

E.Xoll AQSHda ta‘lim-tarbiya tizimini va maktablarni qayta tashkil etish bo‘yicha jamoatchilik talabiga ko‘ra bolalar psixikasini o‘rganishga kirishdi. Bunda u anketa, so‘rovnoma metodlaridan foydalandi. Olimni bolalar atrof-muhitni qanday tasavvur qilishi, turli vaziyatlarda o‘zlarini qanday his qilishlari, ularning dastlabki xotiralari qanday, ular boshqalarga qanday munosabatda bo‘lishi qiziqirdi. U bolalar o‘yinlari, qo‘rquvlari, nutqi, rasmlarini dastlabki odamlarniki bilan solishtirishga harakat qildi. Olingan materiallar asosida turli yoshdagi bolalarning psixik hayotini yuqorida ta‘kidlangan rekapitulyatsiya tamoyiliga asosan «qayta tuzishga» urinib ko‘rdi. E.Xoll aniq bir bola va ilgari yashagan insoniyat rivojlanishida o‘xshashlik borligini aniqladi. Masalan, bolalarning qum bilan o‘ynashini dastlabki odamning g‘orlarda yashab, ildizlarni to‘plashlariga o‘xshatdi. 5—12 yoshli bolalarning o‘yinlarini dastlabki odamlarning ovchilik instinktlariga o‘xshatdi; o‘smirlarning o‘yinlarini hind qabilalaridagi hayot tarziga o‘xshatdi. Xollning ta‘kidlashicha, psixik rivojlanish bosqichlarining ketma-ketligi genetik jihatdan ta‘minlangan.

Biologik omil, instinktlarning yetilishi xulq-atvor almashilishida asosiy determinatdir.

5-jadval

S. Xollning rekapitulyatsiya nazariyasi

Tadqiqotning asosiy predmeti	Bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlarini izlash
Tadqiqot metodlari	Anketa, dastlabki odamlar va bolalar rasmlarini taqqoslash, o‘yin va qo‘rquvlar tahlili

Asosiy tushunchalar	O‘yin, rekapitulyatsiya, ontogenez, filogenez, pedologiya
Asosiy g‘oyalari	Bola psixik taraqqiyotida insoniyat sotsiogenezi qisqacha takrorlanadi; genetik ketma-ketlikda bolalar xulq-atvori bosqichlari ajratilgan
Rivojlanish omillari	Biologik omil, instinktlarning yetilishi
Tanqid yo‘nalishi	Tadqiqot metodining introspeksiyaga yaqinligi, o‘xshashlikning yuzakiligi, afsonaviylik, haddan tashqari keng umumlashtirish
Afzalligi	Insoniyat taraqqiyotining individual va tarixiy taraqqiyoti muammosining qo‘yilishi — bolalar psixik taraqqiyoti haqida dastlabki mashg‘ur nazariyaning yaratilishi

Shuningdek, E.Xoll pedalogiya — bola haqidagi maxsus fan yaratish g‘oyasini ham ilgari surgan. Bunda bola haqidagi boshqa fanlarning ham bilimlari (pedagogika, tibbiyot, biologiya, sotsiologiya va b.) bir joyga to‘plashga harakat qilingan. E.Xoll nazariyasi dastlabki bolalar rivojlanishi konsepsiyasi sifatida mashhur bo‘ldi, boshqa tadqiqotchilarda ham keng qiziqish uyg‘otdi.

3.3. XIX asr o‘rtalari va XX asr boshlarida Rossiyada yosh psixologiyasining shakllanish tarixi

Rossiyada yosh va pedagogik psixologiyaning shakllanish tarixi XIX asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Rossiyada inqilobgacha bo‘lgan davrda madaniyat gumanizm, shaxs va bolaning ichki dunyosiga qiziqish g‘oyasiga asoslangan edi. Buni L.N.TOI-stoyning «Bolalik», «O‘smirlik», «O‘spirinlik» asarlarida ko‘rish mumkin. XIX asrning 60-yillarida siyosiy va iqtisodiy islohotlar natijasida madaniy va ilmiy sohalarga qiziqish ortdi hamda ularni rivojlantirishga ehtiyoj tug‘ildi. Rossiya psixologiyasining doimiy e‘tiborida shaxsning odob axloq me‘yorlari sohasining rivojlanishi turardi.

Bu davr olimlari N.I.Pirogov, K.D.Ushinskiy, P.D.Yurkevich, N.X.Vessel bola shaxsining o'rganilishi va rivojlanishini fanlararo kompleks (psixologik, fiziologik, tibbiy va boshqalar) tarzda o'rganish lozimligi muammosini ilgari surganlar. N.I.Pirogov birinchi bo'lib tarbiyaning amaliy emas, falsafiy ahamiyatga egaligi, inson ruhini tarbiyalash muhimligini e'tirof etgan. U bolalar psixologiyasini o'rganishni, tushunishni o'ziga xosligini o'rganish shartligini ta'kidlagan. Bolalik o'z qonunlariga ega va ularni hurmat qilish kerak: «Agar bolalar jamiyat qonun-qoidalarini buzish huquqiga ega bo'lmasalar, bizning ham o'z navbatida bolalar dunyosining qonunlarini buzishga haqqimiz yo'q». Shu orqali bolalar psixologiyasini o'rganish, bolalarning yoshga bog'liq xususiyatlari, ularni aniqlash, ta'sir etuvchi omillarni o'rganish muammosiga katta turtki bo'ldi.

Bu davrda yosh va pedagogik psixologiya o'rganilishi shart bo'lgan o'z muammosiga ega, mustaqil fan sifatida o'rganiladigan, ilmiy ahamiyat kasb etuvchi fan sifatida shakllandi. Uning muhim yo'nalishlariga: umumiy qonuniyatlarni o'rganish, bolalar rivojlanishining individual xususiyatlaridagi farqlar, bolalar tarbiyasidagi dastlabki shart-sharoitlar, bilish jarayonlari metodlarini ishlab chiqish, bolalar psixikasidagi o'ziga xosliklarni o'rganish kiradi.

XIX asrning 70—80-yillariga kelib, tadqiqotning ikki yo'nalishi: ota-onalarning o'z bolalarini kuzatishi (bolalar rivojlanishini kundaliklarga qayd etish) va olimlar tomonidan bolalar rivojlanishini (ma'lum bir dasturga tayanib) o'rganish vujudga keldi. Bolalarning psixologik va fiziologik rivojlanishi, aqliy mehnat qilishning zaruriy shart-sharoitlari va bilish faoliyatlari rivojlanishi, xulq-atvor me'yorlarining o'zlashtirilishi kabilar tadqiq etildi (P.F.Kapterev, P.F.Lesgaft, I.A.Sikorskiy, N.N.Lange kabilarining ishlarida kuzatiladi).

Bolalar rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'rganish jarayonida shaxsning bilish jarayonlari: xotira, diqqat, tafakkur, xayol va boshqalarning rivojlanishini o'rganishga yordam beruv-

chi ma'lumotlar to'plangan. Alohida ahamiyat bolalar psixikasi-ning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi nuqtaning rivojlanishiga berildi. Eng zarur ma'lumotlar bolalarning fiziologik rivojlanishini o'rganish natijasida yig'langan (LStarkov). O'g'il bolalar va qiz bolalarning psixologik xususiyatlari o'rtasidagi tafovutlarni aniqlashga harakat qilingan (K.V. Yedniskiy).

Bolalar psixikasini o'rganish o'zini o'zi kuzatish metodini inkor etib, yangi metodlardan foydalanishni taqozo etdi va psixologiya sohasiga eksperiment metodining kirib kelishiga stimuly bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida eksperiment metodidan foydalanishni birinchi bo'lib 1879-yilda I.A.Sikorskiy boshladi. Lekin undan foydalanish ilm-fan dunyosida yaxshi qarshi olinmadi. 1880-yillar o'rtalariga kelib psixologik laboratoriyalar joriy etilganidan so'ng, eksperiment metodi rus psixologiyasida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Fanning rivojlanishida genetik yondashuvning ahamiyati katta. P.F.Kapterevning fikricha, «Hozirgi zamonda rivojlanish tushunchasi fan miqyosida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Har bir sohada u yoki bu hodisalar rivojlanishi o'rganiladi, ularni kelib chiqishini o'rganmay turib, ma'lum voqea-hodisani chuqur o'rganib bo'lmaydi. Bolalar tarbiyasiga nisbatan ham xuddi shunday qarash mavjud. Bolalarga nisbatan samarali ta'sir ko'rsatish, imkoniyatlarini mustahkamlash uchun avvalo ularning rivojlanish tarixini yaxshi bilish zarur*.

Bolalar psixologiyasini bilish, uning kelib chiqishi va rivojlanishi shaxsni bilishda falsafiy savollarga javob topdi. Bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari borasida ma'lumotlar va aniq dalillar to'plangandan so'ng, bolalar rivojlanishining me'yorlari, umumiy qonuniyatlarini o'rganish savoli ilgari suriladi.

Bolalar rivojlanishining asosiy xususiyatlari haqida umumiy qoidalar shakllantirildi:

— Rivojlanish bosqichma-bosqich va izchil davom etadi. Umuman olganda, u o'z ichiga faqat olg'a borishni nazarda tu-

tadi. Ammo bir chiziqda ketmaydi, bu chiziqdan chetlanish va to'xtab qolishlar ham kuzatiladi.

— Jismoniy va ruhiy rivojlanish o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Bunday uzviy aloqadorlik aqliy, emotsional va irodaviy sifatlari o'rtasida ham kuzatiladi. To'g'ri tashkil etilgan tarbiya va ta'lim jarayonlari barkamol va har tomonlama rivojlanishga asos bo'ladi.

— Rivojlanish jarayonida muayyan tana a'zolari va psixologik faoliyatning ba'zi taraflari ishtirok etadi, ammo hammasi barobar emas va ishlash tezligi va tempi ham bir xil emas.

— Rivojlanish o'rta me'yorda kechadi, lekin turli sabablarga ko'ra tezlashib ketishi yoki aksincha sekinlashishi mumkin.

— Rivojlanish to'xtab qolib, kasallikka ham aylanishi mumkin.

— Bolalarning kelajakdagi rivojlanishi haqida erta prognoz qilish mumkin emas. Maxsus qobiliyatlar umumiy rivojlanishga tayangan bo'lishi lozim.

— Bolalar rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni soxtalashtirmaslik kerak, har bir yosh davriga o'z rivojlanish bosqichlarini bosib o'tish imkonini yaratish zarur.

Bolalarning umumiy rivojlanishi, sog'lom va kasal bolalarni parvarishlash uchun tavsiyalar, bolalarni oilada va maktabda tarbiyalash, jismoniy, aqliy, emotsional, irodaviy va ruhiy rivojlanish borasida ma'lumotlar beruvchi qo'llanmalar ishlab chiqildi.

XIX asrning oxiriga kelib psixologlar va pedagoglar o'z urinishlarini birlashtirib, amaliy maktab hayotiga tatbiq etdilar. «Birinchi (psixologlar) tadqiqot o'tkazish uchun ma'lumotlar yetarli bo'lmasa ham, tadqiqot o'tkazish uchun zarur bo'lgan nozik metodlarga ega; ikkinchi esa ma'lumotlar bazasiga egalar, lekin ularni to'liq anglash, tadqiq etish va baholash imkoniyatiga ega emaslar», — A.P. Nechayev ta'kidlagan va pedagog hamda psixologlarning hamkorlikdagi faoliyatini ma'qullagan.

XX asr boshlarida rus yosh va pedagogik psixologiyasi, butun dunyo psixologiya fanlari bilan yaqin aloqaga kirishdi. Rus

olimlari uzluksiz G'arb mamlakatlaridagi bo'layotgan yangiliklarni kuzatib va o'rganib bordilar, o'z eksperimental mahoratlarini xorij laboratoriyalarida oshirib bordilar, ko'pgina ilmiy ishlar rus tiliga tarjima qilindi va rus jurnallarida bosib chiqarildi. O'z navbatida rus psixologlarining tadqiqotlari, kuzatishlari xorij jurnallarida ham nashr etildi. Masalan, I.A. Sikorskiy, A.P. Nechayev va boshqalarning ishlari keng ommalashdi. Rus psixologlari butun dunyo olimlarini qiziqtirayotgan muammolar yuzasidan o'z izlanishlarini olib bordilar.

XX asr boshlarida yosh psixologiyasi fanining rivojlanishi muammosi ilmiy asoslarga tayangan holda olib borildi. Bu sohada tadqiqotlar rus pedagogik psixologiyasida yetakchi o'rinni egalladi. Bu muammoni o'rganishga turli soha mutaxassislari, eng kuchli nazariy bilim sohiblari, xususan, V.M.Bexterev, P.F.Lesgaft, LPPavlov va boshqalar. Muammoni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish uchun kuchli psixologlar jamoasi shakllandi. Ular qatoriga P.P. Blonskiy, P.F. Kapterev, A.F. Lazurskiy, N.N.Lange, A.P.Nechaev, S.L. Rubinshteyn, N.E. Rumyansev, I.A. Sikorskiy, G.I. Chelpanov va boshqalar.

Ularning tashabbusi bilan maxsus kadrlarni tayyorlovchi, ilmiy tadqiqot ishlari olib boruvchi ilmiy markazlar tashkil etildi. Jadal nazariy va amaliy, metodologik, ilmiy faoliyatlar olib borish ishlari boshlandi. Ba'zi ta'lim muassasalarida bolalar rivojlanishini o'rganishga yordam beruvchi laboratoriyalar, to'garaklar, alohida xonalar tashkil etildi.

Nashriyotchilik ishlariga asos solindi. XX asrda yosh va pedagogik psixologiya sohasida nashrlar soni ortdi. Bolalar va pedagogik psixologiya fanlariga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar va konferensiyalar tashkil etildi. Ilmiy va ijodiy izlanishlar natijasida nazariy va obyektiv metodikalar yordamida olingan amaliy ma'lumotlar to'plandi.

Yosh va pedagogik psixologiya fanlararo tizimda mustaqil fan sohasi bo'lib shakllandi va o'zining ilmiy tadqiqot metodlariga ega bo'ldi. Bir qator ilmiy tadqiqot metodlari shakllan-

tirildi. Kuzatish metodi natijasida olingan ma'lumotlar «kundalik»ka qayd etildi, bolaning rivojlanishini kuzatish borasida maxsus dastur va reja tuziladi. Eksperiment metodi amaliy empirik tadqiqotlarga asoslanadi. Tabiiy eksperiment aynan bolalar psixologiyasini o'rganish uchun mo'ljallangan (A.F.Lazurskiy). Test metodi ham keng muhokamaga qo'yildi va boshqa metodlarni ham ishlab chiqila boshladi. Bolalarning psixologik xususiyatlari haqida ularning chizgan rasmlari orqali ega bo'lish imkonini berdi.

Bu davrning asosiy tadqiqotlari yo'nalishlari — har tomonlama yetuk va barkamol shaxsni shakllanish bosqichlari va mutaxassislarni o'qitish tizimini takomillashtirishdan iborat edi.

XIX—XX asrlarda yosh psixologiyasi haqida olingan qisqacha ma'lumotlardan shuni anglash mumkinki, rus psixologiyasida rivojlanish muammosiga ilmiy va ijtimoiy tarafdin kuchli qiziqish mavjud bo'lgan.

Yosh avlodning ta'lim va tarbiya bilan bog'liq psixologik muammolari yirik olimlar, faylasuf va yozuvchilarni ham muntazam jalb etib kelgan. Dastlabki pedagogik-psixologik mazmundagi asarlar XVII—XVIII asrlarda diniy-axloqiy ta'limotlar zahirida yoritilgandir. Rossiyada psixologik tadqiqot namunalari Sharq va G'arb madaniyati ta'sirida inson ruhiyati bilan bog'liq turli asarlarda shakllanib kelgan. VNTatishev, A.N.Radishev, NTNovikov va boshqalarning asarlaridagi dastlabki qarashlari ham psixik taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari, psixik rivojlanishdagi tafovutlar bilan yo'g'rilgandir.

Rus tarixchisi VNTatishevning «Fanlar va bilim yurtlarining foydasi to'g'risida suhbat» kitobida fanlarning tasnifi, bilimlarning ahamiyati, til va nutqning mavqeyi, yosh davrlarining xususiyatlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.

A.N.Radishev birinchilar qatori bola psixik taraqqiyotini tabiiy-ilmiy yo'sinda asoslab berishga urindi. Uning «Peterburgdan Moskvaga sayohat» kitobi bu borada pedagogik-psixologik asarlar sirasidan munosib o'rin egallaydi. Yozuvchining fikricha, inson

tashqi muhit haqidagi taassurotlarini sezgilar orqali idrok etadi, shu yo'sinda uning tafakkuri, ulg'ayib shakllanadi.

N.I.Novikov bashariyat farovonligini ko'zlab, yoshlar va bolalar o'rtasida foydali bilimlarni keng targ'ibot etish uchun ularni o'ziga xos yo'sinda tarbiyalamoq zarur deb aytadi. Uning asarlarida insonning kamoloti uchun tafakkur, xotira, axloq, his-tuyg'u va taqlidchanlik alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Rossiyada yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining rivojlanish tarixida K.D.Ushinskiyning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, psixologiya fanining asosiy vazifasi tarbiyaning maqsadini aniqlashga, ta'lim-tarbiya natijalarini to'g'ri baholashga, shular asosida yangi metod va usullar yaratishga, pedagogik tajribani tahlil qilish va umumlashtirishda muhim o'rin tutadi. K.D.Ushinskiyning «Inson tarbiya predmetidir» asarida pedagogik ta'sir jarayoni hisoblangan insonning psixologik xususiyatlari, uning o'ziga xos tomonlari o'z aksini topgan.

Shuningdek, Rossiyada ilmiy psixologiyani rivojlantirishda N.F.Kapterev, N.A.Sikorskiy, A.R.Nechayev, A.F.Lazurskiy, RELesgaft, I.M.Sechenov, LRPavlov, RPBlonskiy singari olimlar bu borada o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

Ta'kidlash joizki, ayniqsa, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.R.Luriya, A.N Leontev, M.Ya.Basovlar tomonidan yaratilgan yangi ilmiy nazariyalar, chunonchi psixikaning madaniy-tarixiy rivojlanish va taraqqiyotning o'zaro munosabat nazariyasi, psixik taraqqiyotda faoliyatning mavqeyi singari ilmiy-nazariy qarashlari hozirgi kun yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining tayanch tushunchalaridandir.

O'tgan asrning o'rtalarida vujudga kelgan turli nazariyalar, qarashlar, o'quv faoliyati va ta'limning talqinlari (D.N.Bog'oyavlenskiy, N.A.Menchinskaya, P.Ya.Galperin, ZTKalmikova, N.F.Talizina, D.B.Elkonin WDavidov, L.V.Zankov, L.N.Landa, A.A.Lyublinskaya, N.V.Kuzmina va boshqalar) nafaqat pedagogik tajribani, balki psixologiya fanining bu tarmog'ini ilmiy-amaliy boyitishga asos bo'ldi.

Ayniqsa, soʻnggi yillarda oʻquv materialini oʻzlashtirishning mexanizmlari (S.L.Rubinshteyn, N.Kabanova-Meller, L.B.Itelson); xotira haqida (RLZinchenko, A.A.Smirnov, V.Ya. Lyaudis); tafakkur (N.F.Shemyakin, A.M.Matyushkin); idrok (Yu.B.Gippenreyter); bolalarda nutqning rivojlanishi (M.I.Lisina, A.A.Venger); shaxsning rivojlanishi (B.G.Ananev, L.I.Bojovich, V.S.Muxina); muloqot va nutq (V.A.Artemov, A.A.Leontev, V.A.Kan-Kalik); psixik rivojlanishning davrlari (P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, B.G.Ananev, A.V.Petrovskiy); oʻquvchilarning aqliy faoliyati va isteʼdod muammolari (A.A.Bodalev, N.S.Leytes, N.D.Levitov, V.A.Kruteskiy)ga bagʻishlangan qator ilmiy tadqiqotlar bu fanning yanada rivojlanishiga oʻzlarining munosib hissalarini qoʻshib kelmoqda.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari va AQSHda inson psixologik xususiyatlari bilan bogʻliq tajribalarga asoslangan ilmiy nazariya va yoʻnalishlar vujudga keldi. Odam psixik tabiatining turlicha talqin qilinishiga qaramay, bu nazariyalar maʼlum darajada yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning rivojlanishiga turtki boʻldilar. Bu borada E.Meyerman, S.Xoll, K.Byuler, E.Klapared, E.Dyrkgeym, P.Jane, J.Piaje, AVallon, Dj.Bruner va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini eʼtirof etish mumkin.

Fanning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonida unga taʼsir koʻrsatib kelgan barcha nazariyalar, ilmiy va amaliy maʼlumotlar, yoʻnalishlar hozirgi kunga qadar oʻzining ahamiyatini saqlab kelmoqda va fanning istiqbolida muhim ilmiy-nazariy manba hisoblanib qolishi, tabiiydir.

Amerikalik psixolog-olim S.Xoll har qanday bola oʻzining individual taraqqiyotida filogenezni ontogenezda takrorlaydi, shu bois bolalarga ibtidoiy instinktlarni ogʻriqsiz, yengil kechishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish zarur deb aytadi. S.Xoll oʻz tajribalari asosida boy ashyoviy dalillar toʻplab, bola haqida psixologik, fiziologik hamda pedagogik bilimlarning kompleks dasturini yaratish gʻoyasini olgʻa suradi.

Filogenez (yunoncha, phyle — qabila, genesis — kelib chiqish, paydo bo‘lish) — muayyan tirik mavjudot turining yerda hayot boshlanganidan keyingi evolutsion taraqqiyot jarayoni.

Shveysariyalik psixolog E.Klapared «Bola psixologiyasi va eksperimental pedagogika* asarida qiziqish, motiv, ehtiyojlarning metodologik asoslari, bolalar tafakkurining xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, o‘xshashlik va tafovutning bola ongida sodir etilishi to‘g‘risida mulohaza yuritadi.

Fransuz psixologi E.Dyurkgeym, ulg‘ayish kishilarning histuyg‘ularni o‘zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an‘ana, urf-odatlarini taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o‘rin tutishini uqtiradi.

Yana bir fransuz psixologi RJanening fikriga ko‘ra, inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq, zotan jamiyat va tabiat o‘rtasidagi turli aloqalar tizimining shakllanishi, insonning ulg‘ayishini belgilaydi. U aloqa sifatida xatti-harakatni tushunadi, bu esa kishining atrof-muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. PJanening ta‘kidlashicha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorligidagi faoliyatda o‘z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning muhim tamoyili hisoblanadi.

Amerikalik psixolog Dj.Bruner shaxsning tarkib topishi bilan ta‘lim o‘rtasida o‘zaro aloqa mavjudligini ta‘kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o‘qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi, deb uqtiradi.

Shuningdek, J. Piaje, EJbrndayk, DjUotson, F.Galton, A.Bine, A.Anastazi, TSimonlar ham bola psixik taraqqiyotida ta‘limning mavqeyini, ularning aqliy xususiyatlarini, dasturli ta‘lim, ko‘nikma va malakalarning ahamiyatini, mashqlarning o‘rnini ilmiy-amaliy asoslab berishda muhim o‘rin egallaydilar. Bu ta‘limotlar hozirgi kunda ham o‘zining ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ham yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim muammolariga doir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar psixolog olimlar tomonidan olib borilmoqda.

Respublikamizdagi yetakchi oliygohlarning kafedra va laboratoriyalarida yosh davrlari va ta'lim-tarbiyaning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish yuqori malakali mutaxassislar tomonidan maxsus texnikalar bilan jihozlangan sharoitlarda ilmiy tadqiqot ishlari samarali yo'lga qo'yilgan.

Mazkur muammolarning yechimi hozirgi zamon fanining metodologik tamoyillari asosida, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlarda bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning yutuqlari va g'oyalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan holda o'zining munosib o'rnini egallab bormoqda. Bu borada R.Ivanov, M.Vohidov, M.Davletshin, E.G'oziyev, R.Gaynutdinov, B.Qodirov, R.Sunnatova, A.Jabborov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin. Jumladan, o'quvchilarning texnik qobiliyatlari, o'quv motivlari, zamonaviy maktab o'quvchisining psixologik qiyofasi M.G.Davletshin va uning izdoshlari A.Jabborov, F.L.Haydarov, M.M.Mavlonovlar tomonidan, tafakkur va ta'limni boshqarish muammosi E.G.G'oziyevning tashabbusida, iste'dodli o'quvchilar va kasb tanlash muammosi B.R.Qodirov rahbarligida, bolalarning aqliy faoliyat muammosi R.I.Sunnatovalar tomonidan samarali olib borilmoqda.

Shu tariqa yosh psixologiyasi fani qator rivojlanish bosqichlaridan o'tib, bugungi darajasiga erishdi. Uning rivojlanishiga O'rta Osiyo allomalari, rus va chet el psixologlari munosib hissalarini qo'shdilar. Yuqorida aytilgan nazariyalar, amaliy va ilmiy ma'lumotlar, tadqiqotchilar yaratgan metodikalar o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Yosh psixologiyasi alohida predmet sifatida qaysi davrda vujudga kelgan?

2. «Pedagogika masalalarini va ular bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat». Ushbu so‘zlar qaysi allomaga tegishli?

3. Abu Nasr Forobiy o‘qituvchi shaxsiga qanday ta’rif bergan?

4. «...O‘qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo‘y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim». Bu so‘zlar kimning qalamiga mansub?

5. Buyuk alloma Yusuf Xos Hojibning inson kamoloti va ko‘mil inson tarbiyasiga bag‘ishlangan asari qaysi?

6. «Agar shogird podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi». Ushbu jumlar orqali Alisher Navoiy nima demoqchi?

7. Rossiyada yosh va pedagogik psixologiyaning shakllanish tarixi qaysi davrlarga borib taqaladi?

8. Bola shaxsining o‘rganilishi va rivojlanishini fanlararo kompleks (psixologik, fiziologik, tibbiy va boshqalar) tarzda o‘rganish lozimligi muammosini ilgari surgan olimlarni ko‘rsating.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Yosh psixologiyasi alohida predmet sifatida qaysi davrda vujudga kelgan?

- a) *XIX asrning boshlarida;
- b) XX asrning boshlarida;
- d) XIV asrning boshlarida;
- e) XIX asrning o‘rtalarida.

2. «Pedagogika masalalarini va ular bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat» ushbu so‘zlar qaysi allomaga tegishli?

- a) Abu Rayhon Beruniy;

b) *Abu Nasr Forobiy;

d) Abu Ali ibn Sino;

e) Alisher Navoiy.

3. Abu Nasr Forobiy o'qituvchi shaxsiga qanday ta'rif bergan?

a) *O'qituvchi aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur;

b) O'qituvchi bilimli bo'lishi zarur;

d) O'qituvchi dono bo'lishi lozim;

e) O'qituvchi chiroyli xulq-atvoriga ega bo'lishi lozim.

4. «...O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim». Ushbu so'zlar kimning qalamiga mansub?

a) Abu Rayhon Beruniy;

b) Abu Nasr Forobiy;

d) *Abu Ali ibn Sino;

e) Alisher Navoiy.

5. Buyuk alloma Yusuf Xos Hojibning inson kamoloti va ko'mil inson tarbiyasiga bag'ishlangan asari qaysi?

a) *«Qutadg'u bilig»;

b) «Bahoriston»;

d) «Tuhfat-ul-axror»;

e) «Mahbub-ul-qulub»;

f) «Fozil odamlar shahri».

IV BOB. XX ASRNING BOSHLARIDA BOLA RIVOJLANISH NAZARIYALARI

Reja:

1. Psixik rivojlanish omillari muammolarining qo‘yilishi.
2. Bolalar psixologiyasi predmeti.
3. Bola psixik rivojlanishining ijtimoiy va biologik omillari.

Mavzu o‘quv maqsadi:

Ta’limiy: bo‘lajak psixologlarda XX asrning boshlarida bola rivojlanish nazariyalari haqida ilmiy bilimlarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: bo‘lajak psixologlarga bola psixik rivojlanishining ijtimoiy va biologik omillari ahamiyatini singdirish.

Rivojlantiruvchi: mavzuning talimiy va tarbiyaviy o‘quv maqsadlari asosida talabalar dunyoqarashini kengaytirish.

Tayanch tushunchalar: genetik metod, genetik psixologiya.

4.1. Psixik rivojlanish omillari muammolarining qo‘yilishi

XX asrning birinchi 10-yilligida bola shaxsi rivojlanishi muammosi bilan shug‘ullangan psixologlar orasida eng yetakchilari sifatida A.Bine, E.Meyman, D.Syolli, E.Klaperd, VShtern, A.Gezell va boshqalarni kiritish mumkin. Ingliz olimi Dj.Syolli inson psixikasini shakllanishiga nisbatan assotsiativ yondashuv pozitsiyasidan qaragan. U aql his-tuyg‘u va irodani psixikaning asosiy tarkibiy qismi sifatida ajratib ko‘rsatgan. Uning izlanishlari bolalar tarbiyasi amaliyoti uchun bolalardagi birinchi assotsiatsiya va ularni yuzaga kelishining ketma-ketligi tarkibini aniqlashdan iborat edi.

M.Montessori Syollining izdoshi sifatida uning xulosalariga tayanib maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish jarayoni rivojlanish tizimini ishlab chiqdi. U bola shaxsini o‘rganishda ular rivojlanishining ichki impulslarini bilish va inobatga olish haqidagi tasavvurlaridan kelib chiqadi. Bolalarning bu davri hissiylik davri deb e’tirof etilib, bu vaqtda o‘zining moyilligi mavjud bo‘lgan bilimlarini o‘zlashtirishga imkon berishi kerak. M.Montessori turli xil his-tuyg‘u va harakatlarni mashq

qildirish orqali ularni sekin-asta anglashga murakkablashtirishga, mukammallashtirishga katta ahamiyat qaratgan. Natijada bu tafakkur jarayonining rivojlanishiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan Montessorining g'oyasi juda keng tarqaldi va hozirgi vaqtda Rossiyada bu tamoyillar bo'yicha bir nechta bolalar bog'chasi yoki guruhlarga qo'llanilgan.

Nemis psixologi va pedagogi E.Meyman ham bolalarning bilish jarayonlarini rivojlanishi muammolariga, shuningdek, ta'limning metodologik asoslarini ishlab chiqishga asosiy e'tiborini qaratgan. Meyman tomonidan davrlashtirishda 3 bosqichga, ya'ni fantastik sintez bosqichi, analiz bosqichi, fikriy sintez bosqichlariga ajratilgan.

E.Meyman laboratoriyasi qoshida tashkil etilgan eksperimental maktabda bolalarning ta'lim dasturlariga tayyorlik darajasini diagnostika qilish metodlari ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, ta'lim dasturlari va sinflarni shakllantirish mezonlari sinovdan o'tkazilgan (masalan, intellekt darajasi, qiziqishlari, o'qituvchi bilan hamkorlik bo'yicha).

Shveysariyalik psixolog E.Klapared Xollning rekapitulatsiya tasavvurlarini tanqid qilib chiqqan. Uning psixika filogenezi va ontogenezi umumiy mazmunga ega va bu rivojlanishning birinchi qatorini o'xshashligiga olib keladi, ammo ularni bir xil demaydi. Klaparedning o'ylashicha bola psixikasining rivojlanish bosqichlari instinktiv jihatdan aniqlanmagan, u qobiliyatlarni o'zida shakllantirish g'oyasini taqlid va o'yin mexanizmlari yordamida deb hisoblagan. Tashqi omillar rivojlanishga ta'sir etib, uni yo'nalishini aniqlaydi hamda tempini kuchaytiradi.

Psixik rivojlanishni Klapared tafakkur rivojlanishiga tenglashtirilgan va tafakkur tipining o'zgarishiga tayanib 4 bosqichga ajratgan. Birinchi bosqichda (2 yoshgacha) predmetlarning tashqi ko'rinishini eslab qolish idrokni shakllanishi sodir bo'ladi; 2-bosqichda (2 yoshdan 3 yoshgacha) nutqiy predmetlar nomlari o'zlashtiriladi. 3-bosqichda (3 yoshdan 7 yoshgacha) tafak-

kur bolaning umumiy aqliy qobiliyatlari 4-bosqichda (7 yoshdan 12 yoshgacha) maxsus qiziqishlar shakllanadi va individning individual moyilliklari ifodalanadi.

E.Meyman va E.Klapared ishlari bolalar yosh davrlari psixologiyasiga asos bo'ldi va uning predmetini aniqlab maxsus vazifa va muammolarni shakllantiradi. Bolalar psixologiyasi pedagogiya pedagogikani rivojlanishi, bolalar psixik rivojlanishini tadqiq etishning ishonchli metodlarini ishlab chiqilishini taqozo etdi.

Fransuz psixologi A.Bine bolalar psixologiyasida testologik va normativ yo'nalishlarning asoschisidir. Bine bolalarda tafakkur rivojlanishining darajalarini eksperimental tadqiq etdi. Ularning oldiga tushunchalarni aniqlash topshirighni qo'ygan holda («stul» nima, «ot» nima va boshqalar). Turli yoshdagi bolalarning javoblarini umumlashtirib, u 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalar tushunchalari rivojlanishining 3 bosqichini aniqladi: sanoq bosqichi, ta'riflash bosqichi va interpretatsiya bosqichi. Har bir bosqich ma'lum yosh bilan tenglashtirilgan va Bine intellektual rivojlanishni ma'lum normativlari mavjudligi haqida xulosa qildi.

Ta'lim vazirligi talabiga ko'ra Bine rivojlanishda normadan og'ishgan va shu tariqa yordamchi maktabda ta'lim olishga muhtoj bo'lgan bolalarni ajratib oluvchi metodni ishlab chiqdi. Keyinchalik u 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni intellektual rivojlanishning umumiy diagnostika qilish uchun testlar ishlab chiqdi. Har bir yosh davri uchun Bine murakkablik darajasi bo'yicha variatsiyalari bilan intellektual rivojlanishini turli tomonlarini tadqiq etuvchi topshiriqlarni tanlab oldi. Ularga so'z boyligini, sanoqni, xotirani, umumiy bilimini, makoniy mo'ljalga olishni, mantiqiy tafakkurni va boshqalarni tekshiruvchi topshiriqlar kiritilgan. Bine g'oyasiga ko'ra, topshiriqlar bu yoshdagi barcha bolalarga xos bo'lgan minimal malakaga yo'naltirilgan. Faqat shundagina teng diagnostik sharoitda tug'ma yuqori intellektual darajali bolalar, ya'ni qobiliyatli va tarbiyali bolalar bo'ladilar. Binining shogirdi T.Simon tomonidan tuzilgan maxsus shkala yordamida bolaning aqliy yoshi hisoblangan.

Keyinroq aniqroq diagnostika qilish uchun nemis psixologi VShtern intellekt koeffitsientini kiritishni taklif etdi. Bine intellekt darajasi tugʻma qobiliyat sifatida hayot mobaynida oʻzgarmaydi va turli topshiriqlarni bajarishga yoʻnaltirilgan. Intellektual norma 70 dan 130% koeffitsient deb hisoblangan. Shunga koʻra aqlan qoloq bolalar 70% dan past koʻrsatkichlarni olganlar, iqtidorlilar 130% dan yuqori koʻrsatkichni olganligini koʻrishimiz mumkin.

4.2. Bolalar psixologiyasi predmeti

Bolalar psixologiyasi fanining asosiy eʼtibori tugʻilganidan yetuklik davrigacha inson psixikasi va ongining qanday rivojlanishiga qaratilgan, yaʼni har bir shaxs uzoq bolalik davrini boshdan kechiradiki, bu davrda unda alohida psixik jarayon va xususiyatlar yuz beradi. Shuning uchun ham bu davrni fanda alohida ajratib oʻrganiladi va uni ontogenetik (tugʻilgandan ulgʻayguncha oʻsib yetilish davri) taraqqiyot yoʻli deyiladi.

Bolalar psixologiyasi bola psixikasining taraqqiyoti hamda shaxsiy xususiyatlarining yuzaga kelishiga taʼsir qiluvchi omillarni ham oʻrganadi. Bolalar psixologiyasi bu muammolarni hal qilishda mustaqil fan sifatida oʻziga xos vazifalarni hal etmogʻi lozim.

Bugungi kunda bolalar psixologiyasi fanining oldida bir qancha muhim nazariy va amaliy vazifalar turadi. Bolalar psixologiyasining nazariy vazifalari uning nazariy muammolarini yechishga qaratilgan. Jumladan, uning nazariy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Turli yoshdagi bolalarga xos boʻlgan psixologik xususiyatlarni, yaʼni bolalarning idrokiga, sezgi - tuygʻulariga, diqqatiga va xotirasiga, nutqi va tafakkuriga, xayoliga, irodasiga xos xususiyatlarni oʻrganish.

2. LPPavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi taʼlimoti asosida turli yoshdagi bolalar psixik jarayonlari xususiyatlarining nerv-fiziologik asoslarni oʻrganish.

3. Bolaning psixik taraqqiyotiga faol taʼsir qiluvchi omillarni aniqlab berish.

4. Turli yoshdagi bolalarning rivojlanishiga xos bo'lgan qonuniyatlarni o'rganish.

5. Bola shaxsiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rganish.

6. Bolani maktab ta'limiga tayyorlash.

7. Maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun bolaning aqliy jarayonlarini faollashtirish.

8. Ta'lim jarayonida bolaning mustaqil, ijodiy, faol tafakkurini shakllantirish.

9. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning maxsus qobiliyatlarini shakllantirish.

10. Ta'lim-tarbiya ishlarini psixologik mazmunini ochib berishdan iboratdir. Uning amaliy vazifalariga turli yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti xususiyatlariga doir bilimlarni tarbiyachilar, o'qituvchilar, ota-onalar, ya'ni jamoatchilar o'rtasida keng yoyishdan iborat. Bolalar psixologiyasining amaliy vazifasi — keng jamoatchilik bola ruhiy taraqqiyotiga, yoshlik xususiyatlari orasidagi farqlar va ularga individual munosabatda bo'lish yo'llariga doir, ruhiy taraqqiyot qonunlariga doir psixologik bilimlardan bahramand bo'lmoqlarini ta'minlashdan iborat. Jamoatchilikni psixologik bilimlardan xabardor qilish, ro'znoma va oynomalarga maqolalar yozish, radio va teleko'rsatuvlarda turli eshittirishlar tashkil qilish, ota-onalar bilan suhbatlashish, mahallalarda bola tarbiyasi haqida ma'ruza, suhbat va bahslar uyushtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish komil insonni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bola psixikasini o'rganishda tadqiqotchi bir qator tamoyillar — qoidalarga tayanishi, ularga rioya etishi lozim bo'ladi.

Bu qoidalar quyidagilardan iborat;

1. Obyektivlik tamoyili — bu tadqiqotchidan ma'lumotlar bilan ularning talqinini aralashtirib yubormaslikni talab qiladi. Masalan: mashg'ulot davomida «bola oynadan tashqariga qarayotgan edi», — deb aytilsa, bu muayyan hodisa haqidagi ma'lumot bo'lib hisoblanadi. Lekin, «bola e'tiborsiz», — deb aytish hodisa-

ning talqinidir. Hodisaning o‘zi bilan uning talqinini aralashtirib yubormaslik kerak, chunki yuqoridagi misolda ham bola oynaga qarab turgan bo‘lsa-da, tarbiyachining so‘zlariga katta e‘tibor berayotgan bo‘lishi mumkin.

2. Sababiylik tamoyili — bu bola shaxsi va ongida yangi sifat-larning hosil bo‘lishini ta‘minlovchi barcha shart-sharoit va omil-larni imkon qadar o‘rganishni talab qiladi. Masalan: mashg‘ulot davomida bola tez-tez oyna tarafga qaragan bo‘lsa, bu hodisaning iloji boricha sababini aniqlash kerak: ko‘chadagi biror narsa bola e‘tiborini o‘ziga tortdimi? Mashg‘ulotda bola charchab qoldimi? O‘tilayotgan material bolaga yaxshi tanishmi? va h.k.;

3. Sinchkovlik va muntazamlik tamoyili — bu bola psixika-sining shakllanish jarayoni, bunda psixolog va pedogoglar ta‘siri sinchkovlik bilan kuzatib borishni talab qiladi.

Ushbu tamoyillarga muvofiq oldindan:

a) tadqiqot joyi va bajariladigan ish mazmuni aniqlanishi kerak;

b) tadqiqotda o‘rganiladigan sinaluvchilar tanlanmasi tuzili-shi lozim;

d) tadqiqot qaysi vaqtda va qanday vaqt oralig‘ida o‘tkazilishi-ni belgilash zarur. Ushbu bandlar belgilangach, ulardan chetga chiqmaslik kerak, ya‘ni qandaydir subyektiv sabablar bilan sho-shilinch xulosalar chiqarmaslik, tadqiqotni bevaqt tugatish hol-lariga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Aks holda obyektivlik tamoyili bu-zilgan bo‘ladi.

Bolalar psixologiyasi fanining asosiy metodlaridan biri kuza-tish metodidir. Kuzatish metodi 2 ga bo‘linadi:

1) obyektiv; 2) subyektiv kuzatish metodi.

Bolalar psixologiyasida subyektiv, ya‘ni o‘z-o‘zini kuzatishdan foydalanilmaydi. Bolalar psixologiyasining asosiy metodlaridan biri subyektiv, ya‘ni bolalarni tashqaridan kuzatib o‘rganish metodidir. Obyektiv kuzatish metodi har doim ma‘lum maqsadga qaratilgan bo‘lib, uning yordamida kishilarning turli psixik jarayonlari ham-da shaxsiy psixologik xususiyatlari o‘rganiladi. Bunda tarbiyachi va tekshiruvchi psixolog bolalarning xulq-atvorlari va xatti-harakat-

larini ularning turli-tuman faoliyatlarida tabiiy sharoitda mavzuli tarzda kuzatadi. Obyektiv kuzatish metodi quyidagi qoidalarga asoslanib tashkil qilinishi kerak: 1) har qanday kuzatishning aniq maqsadi, rejasi bo'lishi kerak. Masalan: bolalar diqqatining barqarorligini yoki tafakkur bilan bog'liq bo'lgan analiz qila olish qobiliyatini kuzatish; 2) bola shaxsining yaxlitligi tamoyiliga asoslanib, ya'ni analitik-sintetik nuqtai nazardan kuzatish; 3) bolani jamoada va jamoa a'zosi sifatida o'rganish; 4) kuzatish tabiiy sharoitda olib borilar ekan, bolalar o'zlarining kuzatilayotilganlarini mutlaqo bilmasliklari kerak; 5) kuzatishdan yaxshi natijalar olish uchun, ularni turli sharoitlarda (shaxsning xislatlarini turli xilda namoyon bo'lishni nazarda tutib) tizimli tarzda kun sayin o'rganish kerak.

Kuzatish metodidan foydalanilganda bolalar turli o'yin faoliyatlari, didaktik mashg'ulotlar, mehnat faoliyatlarida xilma-xil psixik jarayonlarning va individual xususiyatning namoyon bo'lishini o'rganish mumkin.

Kuzatish metodi uzluksiz yoki faoliyatni tanlab vaqti-vaqti bilan o'tkazilishi mumkin. Bolalarni uzluksiz kuzatish metodi bilan o'rganilganda ularning barcha fe'l-atvorlari va xatti-harakatlari kundalik faoliyatlari davomida kompleks holda o'rganiladi. Uzluksiz kuzatish bir necha kun yoki bir necha oy davom etgandan so'ng to'plangan ma'lumotlar analiz qilinib, bolaga psixologik xarakteristika tuziladi, vaqti-vaqti bilan tanlab kuzatilganda bolaning barcha xulq-atvori va xatti-harakatlari emas, balki faqat ma'lum xatti-harakatlari (diqqati yoki xotirasi) bilan bog'liq bo'lgan tomonlari o'rganiladi.

Bolalar psixologiyasida kuzatish metodining alohida turli bolalar taraqqiyotini sermazmun qirralarini kuzatish va unda olingan dalillarni kundaliklarga yozib borib o'rganishdan iboratdir. Bola taraqqiyoti haqidagi birinchi kundalik XIX asrning ikkinchi yarmida Ch.Darvin tomonidan nashr etilgan. Undan so'ng N.A.Menchinskaya, V.S.Muxinalar bolalar psixik taraqqiyoti yuzasidan tizimli tarzda olib borgan o'z kundaliklarini nashr etganlar.

Bolalar psixologiyasida keng qoʻllaniladigan yana bir asosiy metod — eksperiment metodidir. Eksperiment metodi kuzatish metodiga nisbatan aktiv metod hisoblanadi. Eksperiment metodida u yoki bu psixik jarayonni qachon yuzaga kelishini kutib oʻtirmay, bu jarayonni eksperimentatorning oʻzi yuzaga keltiradi. Shuningdek, oʻrganilayotgan psixik jarayonni bolalarda bir necha marta takrorlab oʻrganish mumkin, yana qulay tomoni shundaki, bu metod kuzatish metodi singari koʻp vaqt talab qilmaydi. Eksperiment metodi 3 ga boʻlinadi: 1) laboratoriya eksperimenti, 2) tabiiy eksperiment; 3) pedagogik-psixologik eksperiment metodi. Laboratoriya eksperimenti maxsus tashkil qilingan laboratoriyalarda turli asboblardan yordami bilan oʻtiladi. Tabiiy eksperimentda biror psixik jarayon oʻrganilayotganda maxsus sharoit yuzaga keltiriladi. Bolalar psixologiyasida eksperimentning har ikkala turidan keng foydalaniladi. Biroq bu metodlardan bolalar psixologiyasida foydalanishning oʻziga xos tomoni shundaki, bogʻcha yoshidagi bolalar laboratoriya sharoitida oʻtkaziladigan eksperimentlar bilan tabiiy sharoitda oʻtkaziladigan eksperimentlarning farqiga bormaydilar.

Har ikkala holda ham, tajribalar vazifa tarzida emas, balki oʻyin tarzida oʻtkazilsa yaxshi natija beradi. Eksperiment metodidan guruhlarda oʻtkaziladigan mashgʻulotlar paytida keng foydalanish mumkin. Masalan: turli yoshdagi bogʻcha bolalar bilan oʻtkaziladigan didaktik mashgʻulotlarda tabiiy eksperiment metodini qoʻllash mumkin. Bunda bolalarga har xil hayvonlar, parandalar, mevalar, sabzavotlar tasvirlangan rasmlar kartochoqlarni aralash holda berib, ularni guruhlarga ajratish topshiriladi. Bolalar bu narsalarni qanday belgilariga qarab guruhlarga ajratishlarida ularning umumlashtirish xususiyatlarini oʻrganish mumkin. Odatda, guruh sharoitida oʻtkaziladigan bunday eksperimentni tabiiy eksperiment deb yuritiladi. Bolalar psixologiyasida tarkib toptiruvchi eksperiment metodidan ham foydalaniladi.

Bunda bolalarning u yoki bu xususiyati (psixologik xususiyati) tarkib toptiriladi va mustahkamlanadi. Masalan: bogʻcha yoshida-

gi bolalar ayni bir vaqtning o'zida butunni va uning tarkibiy qismlarini to'la idrok qila olmaydilar. Ular o'z diqqatlarini yoki bir butun narsaning o'ziga yoki uning bo'laklariga qarata olmaydilar.

Tarkib toptiruvchi eksperiment orqali bolalarni bir butun narsani uning qismlari bilan bir paytda idrok qilishga o'rgatiladi. Buning uchun bolalarga bir butun narsaning obrazini yarata olish mashq qildiriladi (turli geometrik figuralar — doira, kvadrat, kub foydalaniladi).

Pedagogik eksperiment orqali biron ta'lim-tarbiya metodining mahsuldorligi aniqlanadi. Masalan: biron tadqiqotchi bolalarni son-sanoqqa o'rgatishning qandaydir yangicha metodini ishlab chiqqan bo'lsa, uni pedagogik eksperiment metodi orqali sinab ko'radi. Buning uchun oldindan bog'cha ma'muriyati bilan kelishib 1 ta eksperimental va 1 ta nazorat guruhini belgilab oladi. Shundan so'ng tadqiqotchi eksperimental guruhda yangicha metod bilan elementar mavhum tasavvurlarni o'stirish mashg'ulotini o'tkazadi. Nazorat guruhida esa bu mashg'ulotlar odatdagi es-kicha metod bilan davom ettirilaveradi. 1—2 oydan so'ng har ikkala

guruhdagi bolalarning o'zlashtirishlari taqqoslab ko'riladi. Agarda eksperimental guruh bolalari yangicha metod bilan o'zlashtirishlari nazorat guruhdagi bolalarning o'zlashtirishlaridan anchagina samarali bo'lib chiqsa, bu metod boshqa hamma bog'chalarga ham tarqatiladi. Bordi-yu, agar natija nazorat guruhdagi bolalarning o'zlashtirishlaridan yomon, ya'ni past bo'lib chiqsa, yangicha metod bilan mashg'ulot o'tish darhol to'xtatiladi.

Bolalar psixologiyasida asosiy metodlardan tashqari yordamchi metodlardan ham keng foydalaniladi. Bolalar psixiologiyasining yordamchi metodlaridan - faoliyat mahsullarini o'rganish metodidir. Bolalar ham xuddi katta odamlar singari doim ma'lum faoliyat bilan mashg'ul bo'ladilar. Faoliyatlari jarayonida turli narsalarni, mashg'ulotlarni yuzaga keltiradilar. Ana shu narsalarda, mahsulotlarda bolalarning psixik jarayonlari va psixologik xususiyatlari o'z aksini topadi. Bog'cha yoshidagi bolalarning faoliyatlari — o'yin, rasm chizish, plastilin yoki loydan biron nar-

sa yasash, applikatsiya, qurish-yasash kabilardan iboratdir. Ana shu faoliyatlarining natijasiga qarab bolalarning mayl va istaklari, ehtiyoj va qiziqishlari, qobiliyat va layoqatlarini o'rganish mumkin. Masalan: bolalarning chizgan rasmlarida ular idrokining xususiyatlari va atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurlarini ko'rish mumkin. Shu sababli bu metoddan bolalar psixologiyasida keng foydalaniladi.

Bolalar psixologiyasida suhbat metodidan keng foydalaniladi. Bu metodni 5—6 yoshli bolalarga nisbatan qo'llash mumkin. Bunda bolalarga turli mavzularga doir savollar beriladi va ulardan og'zaki suhbatning mavzui va suhbat paytida bolalarga beriladigan savollar oldindan yaxshilab o'ylab olinadi. Suhbat jarayonida javoblarni yozib olib, keyinchalik javoblarni tahlil qilish mumkin. Suhbat metodini o'tkazishda quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

1. Suhbatning mavzusi va mazmuni bolalarning taraqqiyot darajalariga va yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.
2. Savollar rejali va maqsad asosida tuzilishi kerak.
3. Suhbat paytida «ha» yoki «yo'q» demay, to'liq javob olish kerak.
4. Suhbatni haddan tashqari cho'zib yubormaslik kerak.

Suhbat orqali bolalarning bilishlari, narsa va hodisalar haqida tasavvurlari, qiziqishlari va odamlar bilan bo'lgan munosabatlarini o'rganish mumkin.

Bolalar psixologiyasida so'nggi yillarda test metodi qo'llanila boshlandi. Test so'zi inglizcha bo'lib, o'lchash degan ma'noni bildiradi. Test metodi orqali bolalarning umumiy aqliy taraqqiyot darajalari va ayrim psixik jarayonlarining (tafakkur, xayol, xotira) qanchalik rivojlanganlik darajasi aniqlab taqqoslanadi. Test metodi yordami bilan bolalarning o'z yoshlariga nisbatan normal taraqqiy etganliklari yoki orqada qolganliklarini ham aniqlash mumkin. Qo'llaniladigan testlar orasida intellektual testlar deb (ataladigan) testlar katta ahamiyatga ega. Intellektual testlar — bolalarning umumiy aqliy taraqqiyot darajalari aniqlanadi.

Test vazifalari bolalarning o‘yin faoliyatlari bilan bog‘lansa, bolalar bunday vazifalarni bajon-u dil bajaradilar. Masalan: biron butun narsaning mayda bo‘laklarga ajratib tashlangan qismlarini birlashtirish, mayda bo‘lakchalardan murakkab va chiroyli ani-natsiyalar yasay olish, turli labirintli suratlardan to‘g‘ri yo‘lni to-pa bilish vazifalaridan foydalanish mumkin.

4.3. Bola psixik rivojlanishining ijtimoiy va biologik omillari

Bola psixik rivojlanishi va organizm yetilishining biologik omillari

Rivojlanishning biogenetik konsepsiyasi tarafdorlari shaxsning asosiy psixik xislatlari insonning hayotiy taqdirini belgilovchi uning tabiatini o‘ziga (biologik boshlanish) joylashtirilganligini taxmin qiladi. Ular intellekt, shaxsning amoral xislatlari va bosh-qalarni genetik dasturlashtirilgan, deb hisoblaydilar.

Biogenetik konsepsiyaning yuzaga kelish yo‘lida birinchi qa-dam Ch.Darvinning rivojlanish — genezis — muayyan qonunga bo‘ysunishi haqidagi nazariyasi bo‘ldi. Kelgusida har qanday yirik psixologik konsepsiya hamisha bolalar rivojlanishining qonunlari-ni izlash bilan bog‘liq bo‘ldi.

Nemis olimi E.Gekkel (1834—1919) va nemis fiziologi LMyul-ler (1801—1858) hayvon va inson ona qornidalik vaqtida filoge-nezning ushbu turida o‘tadigan bosqichlarni qisqacha takrorlaydi, degan biogenetik qonunni ta’rifladilar. Bu jarayon bolaning on-togenez rivojlanish jarayoniga o‘tkazilgan.

Mashhur rus fiziologi I.P.Pavlov (1849—1936) asosida shartli reflekslar yotadigan axloqning egallangan shakllari mavjudligini isbotladi. Bu inson rivojlanishi instinkt va o‘rganishning namoyon bolishiga olib kelishi to‘g‘risidagi nuqtayi nazarni dunyoga kel-(irdi. Nemis psixologi V.Keler (188—1967) insonga o‘xshash may-munlarda tajriba o‘tkazib ularda intellekt mavjudligini kashf qildi. Bu fakt psixika o‘z rivojlanishida uchta bosqichni o‘tashi haqida-gi nazariya asosiga joylashdi: 1) instinkt; 2) o‘rgatilish; 3) intellekt.

S Xollning cho‘irdi mashhur amerikalik psixolog A Gezell

sishmalar yordamida ularni psixik rivojlanishini longityud metodi orqali o'rganangan. Gezellni bola xulqi yosh o'tgan sari qanday o'zgarishi qiziqtirgan, u bolani harakat ko'nikmalaridan boshlab mashg'ulotlardagi talablarini intellektual qiziqishlarini ham inobatga olgan holda psixik faollikni aniq shakllarini yuzaga kelishini namunaviy vaqtinchalik grafigini tuzishni xohlagan.

Gezzel o'zining tadqiqot metodini biografik-laboratoriyaviy deb atagan. U tomonidan tashkil etilgan markazda laboratoriyada motorikani nutqni bolalarni ijtimoiy hamkorligini obyektiv ro'yxatga olish uchun maxsus apparatura qo'llanilgan bir tomonlama ko'rinadigan oyna ishlatilgan (gezzel oynasi). U kuzatuv sharoitlarini bola hayotining tabiiy sharoitlariga yaqinlashtirishga harakat qilgan. Maxsus jihozlangan eksperimental xonada bolaga mashg'ulotlar turini tanlash imkoni berilgan — qum yoki suv bilan o'ynash, taom tayyorlash harakatli o'yinlar (bir so'z yoki boshqa bolalar bilan). Diagnost va maslahatchilar faqatgina ota-onalarning ma'lumotiga tayanmasdan, bola xulqini xarakterli usullarini kuzatishlari mumkin edi.

Shuningdek, Gezell egizaklar rivojlanishini o'rganishda taqqoslash metodini qollagan, norma va patalogiyadagi rivojlanishni (masalan, ko'r bolalarda) o'rganangan. Natijada u chaqaloqning 3200 nafaridan iborat tuzilgan atlasni yaratdi, 16 yoshgacha bo'lgan bolalarning rivojlanish fenomenologiyasi to'liq yoritilgan motorika, xulq-atvor nutqqa nisbatan rivojlanish normalarining ko'rsatkichlari ajratib olingan. Gezellning testlar tizimi normativ yondashuv doirasi-

da bola psixik rivojlanishining amaliy diagnostikasini tuzdi.

Gezellning yetilish nazariyasiga asosan, optimal rivojlanishda tug'ma tendensiya mavjud.

Ijtimoiy rivojlanish harakat va psixik rivojlanish ma'lum ketma-ketlikda bir qator yosh bosqichlarini o'tadilar. Gezell aniqlagan bosqichlar rivojlanish tempi harakatlar o'sishi miqdori bilan farqlanadi. Gezell shakllantirgan rivojlanishning umumiy qonuniyatiga ko'ra, psixik rivojlanish tempi yuqori va yutuqlar ham ancha ahamiyatli hayotning birinchi davrlarida ulg'aygan sari

rivojlanish tezligi susayadi. Gezellning yosh rivojlanishini davrlashtirilishi bolalikni rivojlanish davrlariga o'sishning ichki tempini o'zgarish mezonini bo'yicha talab etadi. Tug'ildandan 1 yoshgacha xulqning eng yuqori o'sishi 1 yoshdan 3 yoshgacha o'rta va 3 yoshdan 18 yoshgacha rivojlanishning past tempi hisoblanadi. Gezellning ilmiy qiziqishlari markazida aynan ilk bolalik uch yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lgan. Gezell bolaning rivojlanishini organizmning yetilishini biologik omillariga asoslangan muhitga moslashish shakli sifatida ko'radi.

A. Gezellning yetilish nazariyasi

Tadqiqotning asosiy predmeti	Bola tug'ildandan butun yetilishigacha bo'lgan davrda psixik rivojlanishning tempi va tarkibi
Tadqiqot metodlari	Kuzatuv maxsus jihozlangan kino va fotoregistratsiyalar bilan, testlar, ota-onalar so'rovnomalari, longityud, egizaklarni rivojlanishini taqqoslash sog'lom va kasallarni
Asosiy tushunchalar	Yetilish, rivojlanish, xulq-atvor o'sishi, rivojlanishning ketma-ketligi, o'sish (rivojlanishning) tezligi
Asosiy g'oyalari	Nerv tizimini yetilishiga psixik rivojlanishning bog'liqligi, (uning barcha tarkibiy qismlari motorikadan shaxsgacha) psixik rivojlanishning tempini barqarorligi, bolalik mobaynida tempni pasayishi, rivojlanishni nazorat qilib borish zarurati
Rivojlanish omillari	Biologik omillar, genetik etilish
Qiymati	Psixologik tadqiqotlarni o'tkazish uchun yangi metodlar, metodikalar va jihozlarning kiritilganligi. Mustahkam empirik baza. Bolalik rivojlanishini fenomenologiyasini asosli va keng doirada tushuntirilishi, yetilish jarayonlarini muhimligiga diqqatni qaratish, motorika rivojlanishining me'yoriyligini yaratish
Tadqiqotning yo'nalganligi	Rivojlanishning biologik asosini aksentirlashtirish «empirik evolutsionizm* (L.S.Vigotskiy) normativlarni absolutlashtirish o'rta sinf bolalaridan olingan ma'lumotlarni qolgan barchasiga o'tkazish

Gezellning pozitsiyasini tanqid qilib, L.S.Vigotskiy uni «ultrabiologizm» va «empirik evolutsionizm» deb atagan, ijtimoiy butunlay biologikka singib ketganda bolalikdagi rivojlanishning butun jarayoni tabiat qonunlariga bo'ysunadi.

Ko'zga ko'ringan avstriyalik psixolog K.Byuler bir muddat Vyursburg maktabi doirasida ishlagan bo'lib, o'zining bolani psixik rivojlanish konsepsiyasini tuzdi. U rivojlanishning butun yo'lini maymundan to katta yoshli madaniyatli odamgacha ko'rsatishga harakat qilgan. Byuler bo'yicha tadqiqot vazifasi rivojlanishda doimiy asosiy tashqi ta'sirlarga bog'liq bo'lmagan qonuniyatlarni sof holda topish edi. Byulerning fikricha, bolalik rivojlanishining birinchi yillarini o'rganish uchun eksperimentning mos shakli zoopsixologiya sohasidan olinishi mumkin. K.Byuler bola rivojlanishidagi uch bosqich nazariyasi muallifi sifatida mashhur. Har bir bola o'z rivojlanishida hayvonlar harakatlari shakli evolutsiyasi bosqichlariga mos bosqichlarni bosib o'tadi, instinkt, o'rgatish, intellekt. U biologik omillarni asosiy deb ko'rsatib o'tadi. Byuler bolalikdagi rivojlanishni biologik jihatdan asoslanganligini qobiliyatlarini nasliylikini ta'kidlagan, lekin mashqlarsiz tabiiy qobiliyatlar to'liq ochilmaganligini aytib o'tgan.

Instinkt rivojlanishning quyi darajasi xulq usullarini nasliy fondi qo'llanilishga tayyor bo'lgan va faqatgina ma'lum stimullarga muhtoj bo'lgan. Odamda instinktlar noaniq-sust katta individual farqlarga ega bo'lgan. Bolada tayyor instinktlar to'plami baqirish, so'rish, yutish, himoya refleksi kabilar mavjud bo'ladi.

O'rgatish turli hayotiy vaziyatlarga moslashish imkonini beradi, maqtov va jazolashlarga yoki omad va omadsizliklarga tayyanadi. Byuler bo'yicha bolalar o'yini hayvonlardagi o'yinning tabiiy davomi shu bosqichda yuzaga keladi.

Rivojlanishning bir bosqichidan boshqasiga o'tishda emotsiyalar ham rivojlanadi. Shunga ko'ra, faoliyatning yakunidan boshigacha rohatlanishning almashinishi sodir bo'ladi. Harakat va emotsiyani evolutsion erta taqqoslanishi quyidagicha avval harakat, so'ng uning natijasida rohatlanish. So'ngra harakat-

dan funksional qoniqish bilan kechadi, ya'ni jarayonni o'zidan qoniqish va nihoyat qoniqish tasavvuri harakatning o'ziga o'tadi. Byuler uchun asosiysi tafakkurning psixik rivojlanishda ijodkorlik rolini o'rganish edi. Shunday qilib, u bolada nutqni uni yaratish kattalar bilan muloqot jarayonida bola tomonidan o'ylab topishi sifatida rivojlanish nazariyasini taklif qildi.

K.Byulerning 3 bosqichli nazariyasi

Tadqiqotning asosiy predmeti	Psixik rivojlanish qonuniyatlari, bola psixikasining rivojlanish bosqichlarini ajratish (instinkt, o'rgatish, intellekt)
Tadqiqot metodlari	Zoopsixologik eksperiment
Asosiy tushunchalar	Instinkt, o'rgatilgan bilish, intellekt, funksional qoniqish, rohatlantiruvchi qoniqish
Asosiy g'oyalar	Hayvonlar psixikasi evolutsiyasining qonuniyatlarini bola psixik rivojlanishga o'tkazish, bola psixikasini hayvonlar psixikasi va katta yoshli madaniyatli odam psixikasi o'rtasidagi bog'lovchi evolutsion jarayon sifatida ko'rish rivojlanishda emotsiyaning roli
Rivojlanish omillari	Preformizm, nasliy
Qiymati	Ekspirimentni bola rivojlanishini o'rganishda qo'llash, rivojlanish g'oyasi
Tadqiqotning yo'nalganligi	Biologik yondashuv odam rivojlanishining o'ziga xosligini rad etish ko'rmaslik, bola imkoniyatlarini pasaytirish

L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, Byulerning nazariy tuzilmalarida qadrlı biologik rivojlanishni umumiy sohasida psixik rivojlanishni rivojlanish va tendensiyalarini barcha g'oyalarini ko'rib chiqadi. Biroq ma'naviy hayotni butun to'liqligini biologik il-dizlaridan psixik funksiya va shakllarini yuzaga chiqarish katta miya o'zagi tuzilishi rivojlanishida normal bolaning muvaffaqiyatlari sabablarini topish. Byuler pozitsiyasini prinsipial chegara-

laydi, antidialektikka aylantiradi. Psixikani filogenez va ontogenezi biologik evolutsiya qonunlariga bir xil darajada bo'ysunadilar.

Amerikalik psixolog va sotsiolog Dj.Bolduin o'zining davrida nafaqat bilish, balki emotsional va shaxsiy rivojlanishlarni o'rganishga undagan. Ijtimoiy muhit tug'ma qobiliyatlar bilan bir qatorda uning tomonidan rivojlanishning muhim omili sifatida kiritilgan, chunki odamni normalari qadriyatlar va o'ziga bo'lgan bahosi tizimli jamiyat ichida sodir bo'ladi. Bolduin birinchilardan bo'lib, o'yinning ijtimoiy rolini keltirib o'tdi va uni ijtimoiylashuv vositasi sifatida ko'rgan. U odamni murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimidagi hayotga tayyorlashni keltirib o'tadi.

Bolduin bolalarning bilimi rivojlanish konsepsiyasiga asosladi. Uning ta'kidlashicha, bilishning rivojlanishi tug'ma harakatlar reflekslarini rivojlanishi bilan boshlanuvchi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. So'ngra nutqning rivojlanish bosqichi va bu jarayonni mantiqiy tafakkur bosqichi yakunlaydi. Bolduin tafakkur rivojlanishini maxsus mexanizmlarini ajratgan assimilyatsiya (muhit ta'sirini interorizatsiyasi). Bolduinning nazariyasi ni bu holatlari J.Piajening qarashlariga ta'sir etdi.

Bolalar rivojlanishidagi ikkita omil konvergensiya nazariyasi.

Konvergensiya nazariyasi, yoki uni yana **ikki omil** nazariyasi deb nomlaydilar, biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro munosabatini ko'rib chiquvchi differensial psixologik sohasi mutaxassisi, nemis psixologi V.Shtern (1975—1938) tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariyaning mohiyati shundan iboratki, bolaning psixik rivojlanishi nasl va muhit ta'siri ostida shakllanadigan jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Konvergensiya nazariyasining asosiy masalasi axloqning egallangan shakllari qanday yuzaga keladi va ularga nasliylik hamda atrof-muhitning qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishdan iborat.

Psixologiyada shu vaqtda ikkita nazariy konsepsiya mavjud bo'lgan: empirizm («inson» — toza doska») va nativizm (tug'ma g'oyalar mavjud). Shtern agar bu ikki qarama-qarshi nuqtayi nazarining mavjud bo'lishi uchun asos ber bo'lsa, unda haqiqatlar

ning birlashuvidan iboratligini taxmin qildi. U psixik rivojlanish tashqi sharoitlar bilan ichki ma'lumotlarning birlashuvidir, biroq yetakchi ahamiyat baribir tug'ma omil ortida qoladi, deb hisoblaydi. Bunga misol sifatida quyidagi fakt xizmat qilishi mumkin: atrof olam bolaga o'yin uchun material yetkazib beradi, uning qanday va qayerda o'ynashi esa o'yin instinktining tug'ma komponentlariga bog'liq bo'ladi.

VShtern rekapitulyatsiya konsepsiyasi tarafdori bo'lgan va bola go'daklikning birinchi oylarida sut emizuvchilar bosqichida bo'lishini: bu reflektorli va impulsiv axloq bilan tasdiqlanishi; hayotining ikkinchi yarim yilligida u predmetlarni tutib olish va taqlid sharofati bilan oliy sut emizuvchi (maymun)lar bosqichiga erishishi; kelgusida to'g'ri yurish va nutqni egallagach, insoniy holatning dastlabki pog'onasiga chiqishi; o'yin va ertaklarning birinchi besh yilida u ibtidoiy aholi pog'onasida turishi; yangi bosqich — maktabga borish — hiyla yuqori darajadagi ijtimoiy majburiyatlarni egallashi bilan bog'liq ekanini aytadi. Dastlabki maktab yillari antik va qadimgi dunyoning eng oddiy mazmuni bilan, o'rta sinflar — xristian madaniyati, yetuklik yillari esa — yangi vaqt madaniyati bilan bog'liq.

Rivojlanish konvergentsiyasining nazariyasi «olma olmadan yiroqqa tushmaydi» va «kim bilan bo'lsang, o'shandan orttirib olasan» degan mulohazalarni tasdiqlaydi. Ingliz psixologi G.Ayzenk (1916—1997) intellekt 80% ga naslning va 20% ga muhitning ta'siri bilan belgilanadi, deb hisoblaydi.

Avstriyalik psixolog Z.Freyd shaxsning asosi insonning ma'naviy hayotini instinktiv sohasi va jamiyat talablari o'rtasidagi nizodan iborat bo'lgan tuzilmaviy nazariyasini yaratdi. U har bir inson oqibatda «Boshqa Men» va «U» nazorati ostida turadigan tug'ma jinsiy mayl bilan tug'iladi, deb hisoblaydi. «U» — bu taqiqlar ta'siri ostida o'zidan «Men»ning kichkina bo'lagini ajratadigan ichki psixik instansiya. «Boshqa Men» — insoniy maylni cheklovchi instansiya. Demak, «Men»ga «U» va «Boshqa Men» bosim o'tkazadi. Bu rivojlanishning ikkita omili sxemasi.

Psixologlar egizaklarni kuzatgancha va olingan natijalarni taqqoslagancha rivojlanish jarayoniga biologik va ijtimoiy omillarning ta'sirini aniqlay oldilar. Bu usulni egizaklar usuli deb nomladilar. D.B.Elkonin ko'rsatdiki, metodologik nuqtayi nazardan egizaklar tadqiqotida jiddiy nuqson bor: nasliy fond muammolari aynanlik yoki aynan emaslik nuqtayi nazaridan, muhitli ta'sir muammosi esa hamisha aynanlik nuqtayi nazari-dan ko'rib chiqiladi. Biroq egizaklar tarbiyalanadigan bitta (bir xil) ijtimoiy muhit mavjud emas — bola muhitning qanday elementlari bilan o'zaro faol harakat qilishini, albatta, inobat-ga olish zarur. Shu sabab ishonchli natija olish uchun ikki no-ma'lumli tenglama bo'lgan vaziyatlarni tanlash kerak. Shundan xulosa kelib chiqadi, ushbu usul yordamida rivojlanish muam-molari emas, balki individual farqlar o'rganilishi mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Bolalar psixologiyasi predmeti.
2. Bolalar psixologiyasining metodlari.
3. Bolalar psixologiyasi fanida kuzatishning qanday turlari qo'llaniladi?
4. A.Gezzelning yetilish nazariyasida tadqiqot metodlari qaysilar?
5. K.Byulerning 3 bosqichli nazariyasida tadqiqot metodlari qaysilar?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Bola psixikasini o'rganishda tadqiqotchi tamoyillarga tayanishi lozim.
 - a) ong va faoliyatning birligi;
 - *b) obyektivlik, sababiylik, sinchkovlik va muntazamlik;
 - c) psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi, determinizm;
 - d) psixika rivojlanishining yosh me'yorlariga mosligi.
2. Bolalar psixologiyasi fanida kuzatish metodi turlari:
 - a) introspeksiya, tashqi;

b) ichki, dala sharoitida;

*c) obyektiv, subyektiv;

d) qo‘shilib kuzatish, sirtidan.

3. A.Gezzelning yetilish nazariyasida tadqiqot metodlari:

*a) kuzatuv maxsus jihozlangan kino va fotoregistratsiyalar bilan, testlar, ota-onalar so‘rovnomalari, longityud, egizaklarning rivojlanishini taqqoslash, sog‘lom va kasallarni;

b) kuzatish, suhbat, psixologik eksperiment, proyektiv metod;

c) faoliyat natijalarini o‘rganish, suhbat, psixologik eksperiment, proyektiv metod;

d) intellektual testlar, suhbat, psixologik eksperiment, proyektiv metod.

4. K.Byulerning 3 bosqichli nazariyasida tadqiqot metodlari:

a) kuzatuv maxsus jihozlangan kino va fotoregistratsiyalar bilan, testlar;

b) kuzatish, suhbat, psixologik eksperiment, proyektiv metod;

c) faoliyat natijalarini o‘rganish, suhbat, psixologik eksperiment, proyektiv metod;

*d) zoopsixologik eksperiment.

5. Bolalar rivojlanishidagi ikkita omil konvergentsiyasi nazariyasi asoschisi:

a) Levin;

b) Olport;

*c) Shtern;

d) Byuler.

V BOB. SHAXS RIVOJLANISHI SIFATIDA PSIXIK RIVOJLANISHNING PSIXOANALITIK YO‘NALISHI

Reja:

1. Z.Freydning klassik psixoanalizida psixik rivojlanish masalasi.
2. Bolalik psixoanalizi.
3. Hozirgi zamon psixoanalitikasi bolalarni tarbiyalash va rivojlanishi haqida.

Mavzu o‘quv maqsadi:

Ta’limiy: bo‘lajak psixologlar tomonidan psixoanaliz haqidagi bilimlarni o‘zlashtirilishini tashkil etish.

Tarbiyaviy: bo‘lajak psixologlar tomonidan psixoanaliz yo‘nalishining rivojlanish tarixi haqida bilim, malaka va ko‘nikmalari asosida dunyoqarashini kengaytirish.

Rivojlantiruvchi: mavzuning ta’limiy va tarbiyaviy o‘quv maqsadlari asosida talaba shaxsini rivojlantirish.


Tayanch tushunchalar: psixoanaliz, bolalar psixoanalizi, tushlar talqini, U, Men, Oliy Men, libido, ong osti holatlari, edip kompleks.

5.1. Z.Freydning klassik psixoanalizida psixik rivojlanish masalasi

Zigmund Freyd 1856-yilda Freyburgda, o‘sha paytdagi Avstriya Vengriya imperiyasining hozirgi kunda Chex respublikasiga taalluqli qismida tug‘ildi. U tibbiyotni Venada o‘rgandi va shu yerda Avstriyani natsistlar 1938-yilda anneksiya qilgunlariga qadar yashadi.

Yahudiy sifatida u vatanini tashlab ketishga majbur bo‘ldi va Londonga borib o‘rnashdi, o‘sha yerda 1939-yilda vafot etdi. Uzoq yillar davomida u bedavo saraton kasalligi bilan kurashib yashadi.

Uning eng mashhur asarlari quyidagilar: «Tushlarning ta’biri», «Psixoanalizga kirish bo‘yicha ma’ruzalar», «Lazzat tamoyili ortida», «Bir illyuziyaning kelajagi», «Madaniyatdan norozilik», «Musq va monoteizm»



Zigmund Freyd

Ontogenezda rivojlanish psixikasi tushunchasiga psixoanalitik yondashuv asoslari Z.Freyd tomonidan kiritilgan. Psixik rivojlanish psixoanalizida qiziqishlar, motivlar va tuyg'ular sohasini murakkablashishi jarayoni bilan shaxs rivojlanishi hamda uni tuzilishi va funksiyalarining takomillashishi bilan tenglashtiriladi.

Z.Freyd inson psixikasini 3 bosqichga, ya'ni psixik jarayonlarni prinsipial anglash imkoniyati mezonini bo'yicha ong, ongosti va ongsizlikka ajratadi. Uning ilmiy qiziqishlari birinchi navbatda jinsiy va agressiv qiziqishlarning majmuasiga qaratilgan. Aynan ongsizlik birinchi bo'lib jamiyatga qarshi turadi. Freyd shaxs rivojlanishini individni tashqi ijtimoiy dunyoga moslashishi sifatida kiritgan hamda unga begona, lekin juda ham zarur deb hisoblaydi.

Inson shaxsi Z.Freyd bo'yicha o'z tarkibiga tuzilmaviy tarkibiy qismlarni qamrab oladi:

U; Men; Oliy Men.

U (Id)-shaxsning primitiv yadrosi u tug'ma xarakterga ega, ongsizlik joylashgan va qoniqish tamoyiliga bo'ysunadi. Idda tug'ma impulsiv qiziqishlar mavjud (hayot instinkti Eros va o'lim instinkti Tanatos) va psixik rivojlanishni energetik asosini tashkil etadi.

Men (Ego) shaxsni ratsional va anglanuvchi qism. U biologik yetilishga ko'ra, hayotning 12 va 36 oylari orasida yuzaga keladi va reallik prinsipi bilan boshqariladi. Egoning vazifasi sodir bo'layot-

ganlarni tushuntirish va insonning xulqini shunday tuzish kerakki, uni instinktiv talablari qondirilishi, jamiyatning va ongning cheklavlari buzilmasligi kerak. Egoning hamkorligida individ va sotsium ohtasidagi nizo hayot mobaynida sustlashishi kerak.

Oliy Men (Super Ego) shaxsning tuzilmaviy tarkibi sifatida eng oxirida 3—6 yoshlar orasida shakllanadi. Super Ego insonning moslashishini ifodalaydi va bu jamiyatda qabul qilingan normalarga amal qilishini qattiq nazoratga oladi.

Id va Super Ego tarafidagi an'analar odatda nizoli xarakterga ega bo'lib, bu xavotirlanish, asabiylashishni keltirib chiqaradi. Bunga javoban Ego bir qator himoya mexanizmlarini yaratadi va qo'llaydi. Ular siqib chiqarish, ratsionallashtirish, sublimatsiya, proeksiya, regressiya va boshqalar.

Himoya mexanizmi atamasi 1894-yilda dastlab Z.Freyd tomonidan fanga kiritildi. Keyinchalik mazkur sohadagi tadqiqotlarning miqdorini ortib borishi natijasida uning amaliy va nazariy ahamiyati ham ortib bormoqda. Psixologik himoya — bu shaxsni salbiy kechinmalardan himoya qilishga yo'naltirilgan anglanmagan psixik jarayondir. Aynan psixologik himoya mexanizmlari qarshilik kohsatish jarayonlari asosida yotadi. Shaxsning himoya mexanizmlari uning psixikasida ilk bolalik davrida paydo bo'ldi va butun hayoti mobaynida davom etadi. Psixologik himoya mexanizmlari odamni yoqimsiz emotsional kechinmalardan himoya qiladi, psixologik qulaylik (komfort)ni saqlab berishga yordam beradi. Psixologik himoyaning funksional vazifasi va maqsadi, ongsizlikni instinktiv impulslari va tashqi ijtimoiy muhit talablarini o'zlashtirishi, oila va jamiyatning qoida va normalarini o'zlashtirish ohtasidagi ziddiyatlar bilan shartlangan, ya'ni shaxsni ichki nizolarini (xavotirlik, siqilish) yengillashtirishdan iborat. Psixologik himoya mexanizmlari bu nizolarni yengillashtiradi, inson xulq-atvorini himoya qiladi va uni moslashuvchanligi va psixikasini barqarorligini oshirgan holda boshqaradi.

Psixologik himoyalanganlikni ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida shaxsni barqarorlashtiruvchi maxsus boshqaruv tizimi

yuzaga chiqadi. Ular nizoni anglash bilan bogʻliq boʻlgan xavotir tuygʻularini bartaraf qilish yoki minimumgacha keltirishga yoʻnaltirilgan. Bu yondashuv bilan bogʻliq holda uning asosiy funksiyasi sifatida ong muhitini negativ shaxsni jarohatlovchi kechinmalardan «toʻsish» koʻrib chiqiladi.

Keng maʼnoda «psixologik himoya» atamasi psixologik diskomfortni bartaraf etish natijasida yuzaga keladigan negativizm kabi shaxs xislatlari faolligini chalkashtiruvchi «yolgʻonlar» paydo boʻlishi, shaxslararo munosabatlar tizimini oʻzgartiruvchi har qanday harakatlarni tushuntirishda qoʻllaniladi.

Tor maʼnoda esa psixologik himoya bir qator himoya mexanizmlarini funksiyalashuvi natijasida ong tarkibini oʻziga xos tarzda oʻzgarishiga olib keluvchi tushunchani anglaymiz. Ular tushkunlik, rad etish, proeksiya, identifikatsiya, regressiya, izolyatsiya, ratsionalizatsiya, konversiya va boshqalardir.

Bu himoya mexanizmlarining faoliyati insonning axborot-yoʻnalganlik harakatlari asosini va uning subyektiv, shaxsiy munosabatlar tizimini adekvatligini oshirmasdan uni mosligini hatto tushirishi ham mumkin.

Himoya mexanizmi — bu xatar yoki xavotir manbayini buzib koʻrish rad etish yoki qochish mumkin boʻlgan har qanday jarayon. Himoya mexanizmlari, shuningdek, bizning «Men»ligimizni idealashtirilgan obrazini tartibga solishga hamda oʻzimizni qabul qilishimiz qulay boʻlishi uchun yordam beradi. Zigmund Freyd birinchilardan boʻlib, himoyaning koʻp turlarini identifikatsiyalangan va bu mexanizmlar ongsiz tarzda harakat qilishini taxmin qilgan.

Himoya mexanizmlarini juda koʻp qoʻlovchi insonlar yaxshi moslashmay qoladilar, chunki ular emotsional energiyalarining koʻpini xavfni nazorat qilish va oʻzi haqidagi yolgʻon tasavvurlarini saqlab qolishga harakat qiladi. Shunga qaramay himoya mexanizmlarini foydasi mavjud. Ular koʻpincha xavfni yengib oʻtishga yordam beradi. Bizda xavfdan samarali qutulish va muammoga diqqatni qaratishga vaqt paydo boʻladi. Agar siz bizning aytganlarimizdan oʻzingizga taalluqliligini olgan boʻlsangiz, bu siz oʻzin-

gizni faqatgina himoya qilaverasiz degani emas. Avval ta'kidlaganimizdek, hamma ham himoya mexanizmlarini qo'llab turadi.

Himoya mexanizmlarining ikkita asosiy tavsifnomalari mavjud:

1. Reallikni rad etish yoki buzish.

2. Ongsiz darajadagi faoliyat.

Ko'pincha odamlar himoya mexanizmlarini bitta turini emas, balki ularni kompleks tarzda qo'llashni ma'qul ko'radilar. Bundan tashqari ko'pchilik insonlarda bitta mexanizmlarni boshqasidan afzal ko'rish moyilligida, ya'ni xuddi ularning qo'llanilishi odat tusiga aylangandek tuyuladi.

Psixologik himoya mexanizmlarining turlari:

1. Siqib chiqarish — bu yoqimsiz fikr, istak yoki tuyg'ularni ongsiz, beixtiyor ravishda chiqarib tashlash jarayoni. Z.Freyd motivatsion unutish orqali himoya mexanizmini to'liq ifodalab bergan. U simptomlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bu mexanizmning faoliyati xavotirlikni kamaytirish jarayonida yetarli bo'lmaganda hamda siqib chiqarilgan ma'lumotni buzilgan holda anglashga yordam beruvchi boshqa himoya mexanizmlari ishga tushadi. Ma'lumki, psixologiya fanida himoya mexanizmlarining ikkita kombinatsiyasi keng tarqalgandir:

A) siqib chiqarish+siljish. Bu kombinatsiya faollik reaksiyalarining yuzaga kelishiga yordam beradi. Siqib chiqarish va siljish mexanizmlari dushmanlikka qarshi himoyani ifodalaydi;

B) siqib chiqarish+konversiya — bu kombinatsiya isterik reaksiyalarning asosini tashkil qiladi.

Tushkunlik mexanizmining mohiyati — ongdan jarohatlovchi voqea mohiyati va u bilan bog'liq emotsiyalarni chiqarib tashlashdir. Tushkunlik qo'rquv emotsiyalarini ushlab turish uchun rivojlanadi. Ularning paydo bo'lishi o'zini ijobiy idrok qilish uchun noma'qul shuningdek, agressorga bog'liq bo'lib qoladi. Qo'rquv real stimulni unutish oqibatida qo'rquvni keltirib chiqaruvchi, shuningdek, u bilan bog'liq bo'lgan assotsiativ obyektlar, faktlar vaziyatlarning barchasi yig'iladi.

Regressiya. Muammoli vaziyatda avvalgi yoki bolalikdagi istak va harakatlarni qoniqish shakliga qaytishdir. Regressiya qisman to‘liq yoki simvolik bo‘lishi mumkin. Muammoni yordam so‘rash oqibatida hal qilish «regressiya» sinfiga shuningdek, «harakat faolligi» mexanizmiga kiradi. Shuningdek, xavotirlanishni kamayishini talab qilish mumkin bo‘lmagan istak orqali kelib chiqqan. Regressiv xulq-atvor ko‘p hollarda kattalar tomonidan taqdirlanadi hamda simbiotik emotsional munosabatlarni talab qiladi.

Proyeksiya — bu individ o‘zining ongli darajasida rad qiluvchi fikr, tuyg‘u, motiv va istaklarni boshqa shaxs yoki obyektga o‘tkazish mexanizmi. Mexanizm o‘zini va atrofdagilarni ular tomonidan emotsional rad etilishi sifatida qabul qilmaslik tuyg‘usini ushlab turish uchun rivojlanadi. Proyeksiya o‘zini qabul qilmaslik qo‘rquvi bilan kurashishni uddalay olish uchun boshqalarning rad etuvchi harakatiga nisbatan chaqirilgan. Proyeksiya atrofdagilarga ularni qabul qilmasliklarining ratsional asosi sifatida turli negativ sifatlarni ularning fonida o‘zini qabul qilish uchun yo‘naltirishdir. «Agar yomon odam meni rad etsa, demak men yaxshiman yoki yomon odamning fikri men uchun ahamiyatli emas».

Proyeksiyaning noaniq shakllarini kundalik hayotda uchratish mumkin. Ko‘pchiligimiz o‘z kamchiliklarimizga e‘tibor bermay, boshqalarda ularni osonlikcha sezamiz. Biz atrofdagilarni o‘z tashvishlarimizda ayblashga moyilmiz. Proyeksiya zararli bo‘lishi ham mumkin, chunki reallikni noto‘g‘ri anglashga olib keladi. Bu mexanizm ko‘pincha anglamaydigan va xafa bo‘luvchi shaxslarda namoyon bo‘ladi.

Introyeksiya — inson yoki obyektning simvolik internalizatsiyasi (o‘ziga kiritishi). Mexanizm harakati proeksiyaga qarama-qarshidir. Introyeksiya yordamida sevgi obyektlari va o‘zining shaxsi o‘rtasidagi farqlar bartaraf etiladi. Ba’zida boshqa odamlarga nisbatan jaxl yoki agressiya o‘rniga yo‘q qiluvchi tuyg‘ular, o‘zini o‘zi tanqid qilishga, o‘zini qadrlamaslikka aylanadi, chunki ayblanuvchida introeksiya sodir bo‘lgan. Bunday vaziyat ko‘pincha depressiya holatida kuzatiladi.

Ratsionallashtirish — aslida mumkin bo‘lmagan fikr, tuyg‘u, xulq-atvorlarini oqlashga ishonchli sabablarni topuvchi himoya mexanizmi. Ratsionallashtirish — psixologik himoyaning eng keng tarqalgan mexanizmi, chunki bizning xulq-atvorimiz ko‘plab omillar orqali aniqlanadi va biz uni o‘zimiz uchun ma‘qul bo‘lgan yo‘l bilan tushuntirganimizda ratsionallashtirgan bo‘lamiz. Ratsionallashtirishni ongsiz mexanizmini to‘qib chiqarilgan yolg‘on, firib yoki mug‘ombirlik bilan aralashtirib bo‘lmaydi.

Intellektualizatsiya — bu himoya mexanizmi emotsional his-tuyg‘u va kechinmalarni bartaraf etish maqsadida namoyon bo‘ladi. Intellektual zaxiralarni katta miqdorda qo‘llashni taqozo etadi.

Kompensatsiya yoki sublimatsiya bu real yoki hayotiy kamchiliklarni ongsiz tarzda bartaraf etish harakati. Kompensatorlar harakat universalidir, chunki statusini egallash deyarli barcha insonlarning istagidir. Kompensatsiya ijtimoiy yaroqli (ko‘zi ojizning musiqachiga aylanishi) va yaroqsiz (bo‘yi past insonni) agressivlik va hokimlikka intilishi bilan kompensatsiyalash, nogironlikni qo‘pollik va nizolashuvchanlik bilan kompensatsiyalash bo‘lishi mumkin. Shuningdek, to‘g‘ri kompensatsiya (yutuqsiz yutuqqa erishib bo‘lmaydigan sohada omadga intilish) va bivosita kompensatsiyaga (o‘zini o‘zi boshqa muhitda tasdiqlashga intilish) ajratiladi.

Reaktiv tuzilmalar himoya mexanizmini anglash uchun to‘g‘ri kelmaydigan mayl, istak va tuyg‘ularni, ayniqsa, jinsiy va agressiv ma‘no jihatdan unga qarama-qarshi mimosabat yoki harakatlarni rivojlantirish yoki urg‘u berish yo‘li bilan almashtiradi. Bu himoya mexanizmining rivojlanishi inson oliy ijtimoiy (axloqiy) qadriyatlarini o‘zlashtirishi bilan bog‘laydilar. Reaktiv tuzilish xursandchilik emotsiyalarini ushlab turish uchun qo‘llaniladi. Bu mexanizm harakatdagi qarama-qarshi ustanovkalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Shu jumladan, qarashlarning mustahkam belgilan-ganligi, uyatchanlik, muruvvat hamda rahmdillik va boshqalar.

Himoya ikki bosqich xarakterga ega. Avval mumkin bo‘lmagan istak siqib chiqariladi, so‘ng uning antitezasi kuchayadi. Masalan, haddan tashqari vasiylik rad etilganlik hissini, haddan

ziyod ijobiy va muloyim xulq dushmanlikni berkitishlari mumkin va boshqalar.

Reallikni rad etish bu anglanilgan vaziyatda ogʻriqli boʻladigan oʻy-fikr, tuygʻu, istak, talab yoki reallikni rad etuvchi mexanizm. Rad etish atrofdagilarning befarqligi va rad etilishini koʻrsatsalar, ularni qabul qiluvchi emotsiyalarni ushlab qolish maqsadida rivojlanadi, harakatlaridan xuddi muammolari yoʻqdek tuyuladi. Rad etish mexanizmining koʻp miqdori bolalar uchun xarakterlidir. Kattalar rad etish mexanizmini inqirozli vaziyatlarda qoʻllaydilar.

Siljish (oʻrmini almashtirish) — kuchliroq, kattaroq va ahamiyatliroq subyekt bilan nizoli vaziyat yuzaga kelganida oʻzining agressiya, jahl emotsiyalarini chiqarib tashlaganda bu xavfga aylanadi.

Bolalikdagi jinsiylik tushunchasiga yondashuvlar Freyd tomonidan XX asr boshida «Jinsiylik nazariyasi boʻyicha 3 ocherk» nomli asarida yoritilgan. U quyidagi fikrdan kelib chiqqan, inson baʼzi miqdordagi jinsiy energiya bilan tugʻiladi (libido), u maʼlum ketma-ketlikda tananing turli aʼzolariga koʻchadi.

- Freyd psixojinsiy bosqichlarni ochilishi ketma-ketligini organizmning yetilishiga koʻra, belgilangan (rivojlanishning biologik omillari) va bu bosqichlar universal va barcha insonlarga ularning madaniylik darajasiga qaramay xosdir. Z.Freydning yosh rivojlanishi davrlarini shaxsning psixojinsiy nazariyasi deb ataldi, chunki uning nazariyasini markazida jinsiy instinktlar turadi, bu keng maʼnoda qoniqish deyiladi.

Jinsiy rivojlanish bosqichlari. Psixologiya deb nomlangan ilm-fanning yangi sohasi falsafa va biologiya fanlari negizida rivojlangan. Vundt ham faylasuf, ham psixolog boʻlgan. Zigmund Freyd oʻzining shaxs nazariyasiga oid taʼsirli qarashlari bilan mashhur boʻlgan avstriyalik fizik hisoblanadi. Shvetsiyalik biolog Jan Piaje oʻtgan asrda bolalarni kuzatish sohasida yetakchilardan boʻlgan.

Zigmund Freyd fikriga koʻra, bolalik davrida hissiyotlarga koʻrsatilgan taʼsir, keyinchalik shaxsning oʻz-oʻzini anglashida namoyon boʻladi. Shundan boshlab 1920-yilda psixologiya «ruhiy

hayot» haqidagi fan sifatida vujudga keldi. Freyd nazariyasi gumanistik nazariyaga qarshi qaratilgan hisoblanadi. Freyd nazariyasi psixoseksual nazariya hisoblanadi, yoshni davrlarga boʻlishda ham u jinsiy ehtiyoj «libido»ga tayanadi.

- *1. Oral bosqich* tugʻilgandan 18 oygacha davom etadi. Psixojinsiy rivojlanishning boshlangʻich bosqichida asosiy qoniqish manbai asosiy organik talabni qoniqtirish bilan qoʻshiladi va koʻkrak bilan oziqlantirish bilan bogʻliq harakatlarni qoʻshadi: emish, tishlash va yutish.

- Oral bosqichda boshqa odamlarga munosabatiga nisbatan ustanovkalari shakllanadi, yaʼni tobelik, tayanch yoki mustaqillik, ishonch ustanovkalari va boshqalar. Ona bolasida jinsiy qiziqishlarni yuzaga keltiradi, uni sevishta oʻrgatadi. Aynan qoniqishning optimal darajasi (stimul) oral zonada (koʻkrakdan oziqlanish, emish) sogʻlom mustaqil katta hayot asoslarini yaratadi.

- Hayotning birinchi olti oyida onalik munosabatlarining chegarasi haddan ziyod yoki aksincha yetishmayotgan stimulyatsiya shaxsiy rivojlanishni buzadi, oral passivlik fiksatsiyasi sodir boʻladi. Bu shuni anglatadiki, katta odam atrofdagi dunyoga moslashish usullaridan biri sifatida ishonuvchanlik, nochorlikni namoyish etadi, oʻz harakatlarini chetdan maʼqullanishiga yordam sezadi. Haddan ziyod ota-ona mehri jinsiy yetilishni tezlashtiradi va bolani «erkatoy» tobe qilib qoʻyadi.

- Hayotni birinchi yilning ikkinchi yarmida tishlar chiqishi bilan asosiy eʼtibor tishlash va chaynashga qaratilganda oral bosqichni oral sadistik fazasi keladi. Oral sadistik fazasidagi katta odamda shunday xususiyatlarni keltirib chiqaradiki, janjalkashlik, boshqalarga haddan ziyod talabchanlik munosabati pessimizm.

- Ogʻiz qismi Freyd fikricha, odamning butun hayoti mobaynida muhim erogen zona boʻlib qoladi. Libidoni oral zonaga bogʻlanib qolishi baʼzida tishlash, saqish chaynash va shu kabilar namoyon boʻladi.

- *2. Anal bosqich.* Ochkoʻzlik, tirnoqlarning tishlanishi anal bosqichi Egoning yuzaga kelishi bilan bogʻliq boʻlib, 1—1,5 yosh-

dan 3 yoshgacha to‘g‘ri keladi. Anal erotika Freyd bo‘yicha ichakni yaxshi ajratib chiqarish funksiyalari bilan bog‘liq.

- Bu bosqichda ota-onalar farzandlarini hojatga o‘rgatadilar, ilk bora unga instiktiv rohatlanishdan voz kechishni talab qilib, hojatga o‘rgatish usullari kelajakda o‘zini nazorat qilish va o‘zini boshqarish shakllarini aniqlaydi.

- To‘g‘ri tarbiyaviy yondashuv bolaning holatiga diqqat qilishga bolalarni doimiy ichagini bo‘shatishni rag‘batlantirib turishga tayanadi. Ozodalikni emotsional qo‘llab-quvvatlash o‘zini o‘zi nazorat qilishni ifodalash sifatida Freyd bo‘yicha tartibli shaxsiy sog‘liq va hatto tafakkur egiluvchanligining shakllanishida uzoq muddatli ijobiy natijaga ega.

- Rivojlanishning salbiy variantida ota-onalar o‘zlarini had-dan ziyod qattiqqo‘l va talabchan tutadilar, ozodalikni iloji boricha erta talab qiladi. Bu noadekvat talablarga javoban bolalarda norozilik an‘analari yuzaga keladi. Bu fiksatsiyalangan reaksiyalar keyinchalik xulq-atvorning boshqa turiga ko‘chib o‘ziga yarasha shaxs tipini keltirib chiqaradi: anal ushlab turuvchi (o‘jar, qizg‘anchiq) yoki anal itarib chiqarib tashlovchi (xavotirli, impulsiv, buzilishga moyil).

- 3. *Fallik bosqich* (3—6 yosh) — psixojtimoiy rivojlanish bosqichi shaxsiy genetal zonalarini inobatga olgan holda. Psixojinsiy rivojlanishning faollik bosqichida bola ko‘pincha o‘z jinsiy organlarini o‘rganadi, bolalarni dunyoga kelishi va jinsiy munosabatlar bilan bog‘liq savollarga qiziqish uyg‘otadi.

- Aynan bu davrda har bir odamning individual rivojlanishida tarixiy nizo Edip kompleksi yuzaga keladi. O‘g‘il bolada onani egallash va otasini chetlashtirish istagi yuzaga keladi. Otasi bilan ongsiz raqobatga kirishib bola, u tomonidan jazoning qo‘llanilishidan qo‘rqadi.

- Bolaning ambivalent tuyg‘ulari (otaga nisbatan muhabbat) nafrat Edip kompleksi bilan kechuvchi 5—7 yosh oralig‘ida bar-taraf etiladi. O‘zini otasi bilan tenglashtirish (intonatsiya, xulq-at-vori qonlariga taqlid qilish, ma‘zur qaida ustunliklarini amal

lash) super Egoni yoki burchni, shaxsning tuzilmasini soʻnggi komponentini yuzaga keltiradi. Qizlarda Freyd yetakchi kompleks elektra kompleksni nazarda tutadi. Elektra kompleksini hal etish ham oʻzini onasi bilan tenglashtirib otasiga intilishni bosish bilan sodir boʻladi. Qiz onasi bilan oʻxshashligini kuchaytirib, otasiga simbolik yoʻlni egallaydi.

Z.Freydning psixoanalizi

Asosiy tadqiqot predmeti	Shaxs rivojlanishi
Tadqiqot metodlari	Klinik vaziyatlar tahlili, erkin assotsiatsiyalar metodi, tushunchalar tahlili
Asosiy tushunchalari	Psixika bosqichlari (ong, ongosti, ongsizlik) shaxs tuzilishi (Id, Ego, Super Ego) psixologik himoya mexanizmlari, jinsiy energiya (libido), jinsiy instinkt, hayot instinkti, oʻlim instinkti, psixojinsiy rivojlanish bosqichlari, erogen zonalar, qoniqish tamoyili, reallik tamoyili, edip kompleksi, elektra kompleksi, tenglashtirish
Asosiy gʻoyalar	Bola va tashqi dunyoni azaldan kelishmasligi individni ijtimoiy dunyoga moslashuvi sifatida shaxs rivojlanishi. Shaxsning psixojinsiy rivojlanishi. Shaxs rivojlanishi 1-5 yillikda jadal jinsiy yetilish tugashi bilan yakunlanadi. Shaxs rivojlanishi bosqichlari oʻzgarimas, biologik yeti-
Rivojlanish omillari	Ichki (biologik yetilish miqdorning oʻzgarishi va jinsiy energiyaning yoʻnalganligi) va tashqi (ijtimoiy jamiyatni ota-onalar bilan qoʻshilishi)
Afzalligi	Rivojlanishning dinamik konsepsiyasi, insonning ma'naviy dunyosini birligi, bolalikning ahamiyati, ota-ona ta'sirining muhimligi va doimiyligi koʻrsatilgan. Bo-
Kamchiligi	—afsonaviyligi; —tadqiqotning talab qilinayotgan shakliy metodlarining yoʻqligi; —statistik ma'lumotlarning yoʻqligi; — tekshirishning murakkabligi; — o'smirlik yoshi chegaralaridan tashqarida rivojlanish imkoniyatlariga qarashlarning pessimistligi.

- 7. *Latent bosqich* — jinsiy sokinlik 6—7 yoshdan 12 yoshga
- h.i <> smirlik yoshi boshlangungacha davom etadi. Asosiy energiya

kuchi o'qish, sport, bilishga intilish asosan o'zining jinsidagi teng- iloshlai i bilan do'stlashishga yo'naltiriladi. Freydning shaxs jinsiy 'hakllanishidagi bu uzilishining ahamiyatini oliy insoniy madaniyatni rivojlanishi uchun sharoit sifatida alohida ta'kidlaydi.

- 5. *Genetal bosqich* (12—18 yosh) - pubertat davrda biologik yetilish bilan asoslangan va psixojinsiy rivojlanishni yakunlovchi hosqich. Jinsiy va agressiv tuyg'ularning ko'payishi sodir bo'ladi hamda Edip kompleksi qaytadan yuzaga keladi. Autoerotizm yo'qoladi, uning o'rniga boshqa jinsiy obyektlarga qiziqish paydo bo'ladi. Normada o'smirlikda jamiyatda o'z o'rnini topish, turmush o'rtog'ini izlash, oilasini yaratish harakatlari bo'ladi.

- Bu bosqichning muhim vazifalaridan biri ota-ona qaramog'idan qutulishdir.

5.2. Bolalik psixoanalizi

Klassik psixoanaliz nuqtayi nazaridan bolalar bilan ish olib bosh qiyinchilik tug'dirgani uchun Freydning izdoshllari A.Freyd va M.KIyayn o'zlarining bolalar psixoterapiyasi variantlarini ishlab chiqdilar. A.Freyd (1895—1982) «Bolalarpsixoanaliziga kirish (1927),

«Bolalikdagi norma va patologiya» (1966) bolalar psixoanalizi asos-

larini bayon etdi. Psixolog bola xulq-atvoridagi qiyinchilik sababla- ini tushunish uchun nafaqat bola psixikasining ongsiz qatlamlariga kirishi, balki shaxsning barcha uch tarkibiy qismlari (Men, U, Oliy Mcn) haqida har tomonlama ma'lumotlarga ega bolishi, ularning tashqi dunyo bilan munosabatlari, psixologik himoya mexanizmlari va ularning shaxs rivojlanishidagi roli haqida bilishi zarur.

A.Freydning ta'kidlashicha, bolalar psixoanalizida birinchidan, kattalar bilan umumiy analitik metodlardan foydalanish mumkin emas: gipnoz, erkin assotsiatsiyalar, tushlar talqini, qarama-qarshiliklar ta'bili va ko'chirish. Ikkinchidan, u bolalar-

dan biri transformatsiyalar analizidir. Uning fikricha, kutilgan va namoyon qilingan emotsional reaksiyalarning mos kelmasligi bolada himoya mezanizmlari ishga tushganligidan dalolat beradi. Shunday qilib, bolaning Meniga kirish imkoniyati tughladi.

Ingliz psixoanalitiki M.Klyayn (1882—1960) bolalar psixoanali-

zini tashkil etishda o'z variantini ishlab chiqdi¹. Bunda u bolaning to'satdan o'yin faoliyatidagi faolligiga e'tibor qaratdi. A.Freyddan farqli ravishda M.Klyayn bolalarning ong ostiga to'g'ridan to'g'ri kirish mumkinligi haqidagi fikrni ilgari surdi. Uning fikricha, harakat nutqqa nisbatan bolaga ko'proq xos, erkin o'yin kattalardagi assotsiatsiyaga o'xshaydi; o'yin bosqichlari — bu kattalardagi assotsia-

tiv mahsulotning analogidir. Terapevt bolaga kichik o'yinchoqlar to'plamini, «butun dunyo kichiklashtirilgan» to'plamni taklif etadi va bir soat davomida bolaga erkin harakat qilish imkonini beradi.

5.3. Hozirgi zamon psixoanalitikasi bolalarni tarbiyalash va rivojlanishi haqida

Bolalar psixikasini psixoanaliz va o'yin texnikasi yordamida o'rganish ularning emotsional sohasi haqidagi tasavurlarni kengaytirdi. Bolalar psixoanalitiki Dj.Boulbi bolalarning emotsional rivojlanishiga e'tibor qaratdi^{1,2}. Uning bog'lanib qolish nazariyasi zamonaviy biologik va psixologik ma'lumotlar hamda rivojlanishning an'anaviy psixoanalitik tasavvurlarini birlashtirishga asoslangan.

Boulbining asosiy g'oyasi shundan iboratki, ona bolaga nafaqat dastlabki organik ehtiyojlarini qondirish uchun emas, muhimi ona bolaga bog'lanib qolish hissini yaratadi. Dastlabki oylarda bolaning yig'lashi, kulishlari onaning g'amxo'rligi, tashqi xavfsizligi, himoyalanganligidan darak beradi. Emotsional himoyalangan bolaning sog'lom psixik taraqqiyot va'llari oshib boradi. Ona

¹ Па3BMTae B ncnxoaHajiH3e / M.КЛИНН, С.Ан3еКе, /Jx.ПаHBepH, ILXaftMaHH. — M.: 2001.

² BoyjiOn /L>K. fleTHM — JHO6OBH H 3a6oTy // ИлХхоjiorHM па3BHТHs: XpecTOMaTHH.CII6., 2001. С.127—140

shi» psixik kasalliklar va shaxsiy muammolarning vujudga kelish xavfini oshiradi (masalan, depressiv holatlar).

Boulbining g'oyalari hayotga tatbiq etilib, 1950-yillardan kichik bolalarni kasalxonalarda onasidan ajratmaslik haqida qaror qabul qilinib, amalda joriy etildi.

E.Fromning bola tarbiyasida ota va onaning roli haqidagi fikrlari ham e'tiborga loyiq. Onaning bolaga muhabbati shartsiz zarur: bola borligi uchun yaxshi ko'riladi. Ona hayotga ishonishi va ortiqcha xavotirlanmasligi zarur, shundagina u bolaga xavfsizlik hissini uzatishi mumkin. Otaning muhabbati — shartli muhabbatdir, uni majburiyatlarni bajarib, tartibga rioya qilib, kutilmalarga mos harakat qilib qozonish mumkin.

Bolalar psixoanalizi ta'lim va ijtimoiy sohalarda ishni tashkil etishda, ota-onalar bilan ishlashda katta ta'sir ko'rsatadi. Uning asosida «xatar guruhi» bolalari uchun turli xil «ota-ona — bola» munosabatlarini tuzatish bo'yicha dasturlar tuzildi. Zamonaviy psixoterapiyaning maqsadlari juda keng sohalarda qo'llanilmoqda: nevroitik belgilarni yo'qotishdan, xavotirlanishni kamaytirish, aqliy faoliyatni tashkil etish o'zgarishlarigacha xulq-atvorni yaxshilashdan iborat.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Inson shaxsi Z.Freyd ta'rifi bo'yicha qanday tuzilmaviy tarkibga ega?

2. Oliy Men (Super Ego) shaxsning tuzilmaviy tarkibi sifatida qaysi davrda shakllanadi?

3. Himoya mexanizmi atamasi kim tomonidan fanga kiritildi?

4. «Bolalik davrida hissiyotlarga ko'rsatilgan ta'sir, keyinchalik shaxsning o'z-o'zini anglashida namoyon bo'ladi». Ushbu mulohaza kimga tegishli?

5. Psixologiya «ruhiy hayot» haqidagi fan sifatida qaysi davrda vujudga keldi?

6. Z.Freyd inson psixikasini necha turga bo'ladi?

7. Z.Freydning psixoanalizidagi tadqiqot metodlarini ko'rsating

8. Himoya mexanizmlarining asosiy tavsifnomalarini ko'rsating.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Inson shaxsi Z.Freyd ta'rifi bo'yicha qanday tuzilmaviy tarkibga ega?

- a) *U, Men, Oliy Men;
- b) U, Men;
- c) Men, U;
- d) Siz, Biz, U.

2. Oliy Men (Super Ego) shaxsning tuzilmaviy tarkibi sifatida qaysi davrda shakllanadi?

- a) 3—7 yoshlar orasida;
- b) *3—6 yoshlar orasida;
- c) 2—6 yoshlar orasida;
- d) 3—5 yoshlar orasida.

3. Himoya mexanizmi atamasi kim tomonidan fanga kiritildi?

- a) *1894-yilda Z.Freyd;
- b) 1880-yilda Z.Freyd;
- c) 1894-yilda N.X.Vessel;
- d) 1894-yilda P.D.Yurkevich.

4. «Bolalik davrida hissiyotlarga ko'rsatilgan ta'sir, keyinchalik

shaxsning o'z-o'zini anglashida namoyon bo'ladi». Ushbu mulohaza kimga tegishli?

- a) YKomenski;
- b) *Z.Freyd;
- c) N.X.Vessel;
- d) PDYurkevich.

5. Z.Freydning psixoanalizidagi tadqiqot metodlarini ko'rsating.

- a) erkin assotsiatsiyalar metodi, tushunchalar tahlili;
- b) *klinik vaziyatlar tahlili, erkin assotsiatsiyalar metodi, tushunchalar tahlili;

VI BOB. ERIKSONNING SHAXS RIVOJLANISHINI PSIXOIJTIMOY NAZARIYASI

Reja:

1. Eriksonning ego-psixologiyasi.
2. Erikson ishlarida tadqiqot metodlari.
3. Erikson nazariyasining asosiy tushunchalari.
4. Shaxs rivojlanishining psixoijtimoiy bosqichlari.

Mavzu o'quv maqsadi:

Ta'limiy: Talabalarga Erikson nazariyasi haqida bilim berish.

Tarbiyaviy: Bo'lg'usi psixologlarni Erikson nazariyasini tahlil qilishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Olingan nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliyotga yo'naltirish yo'llari bo'yicha ko'nikma-malakalarni rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: egopsixologiya, psixoijtimoiy nazariya, egotenglik.

6.1. Eriksonning ego-psixologiyasi

Amerikalik psixolog E.Erikson (1902—1994) ego-psixologiya yo'nalishining vakili sifatida mashhurdir. Erikson nazariyasi Anna Freyd nazariyasi kabi psixologik tahlil amaliyotidan keyin yuzaga keldi. E.Eriksonning o'zi tan olganiday, Yevropadan emigratsiya qilingach yashagan urushdan keyingi Amerikada kichik bolalardagi xavotirlilik, hindlardagi umidsizlik, urush veteranlaridagi sarosima, natsist (german fashist)laridagi shafqatsizlik kabi ko'rinishlarni tushuntirish va korreksiya qilish talab qilinadi. Bu barcha ko'rinishlarga psixoanalitik yondashuv nizo mavjudligini ko'rsatdi, Z.Freydning ishlari esa nevrotik nizolarni birmuncha o'rganilgan insoniy axloq aspekti qila oldi. Biroq E.Erikson sanab o'tilgan ommaviy ko'rinishlarni nevrozning faqat analogi deb hisoblamaydi. Uning fikriga ko'ra, insoniy «Men»ning asoslari jamiyatning ijtimoiy uyushtirilishida ildiz otadi.

E.Erikson «Men» va jamiyat munosabatlari haqidagi psixoanalitik konsepsiyani yaratdi. Shu bilan birgalikda, uning konsepsiyani yaratdi.

siyasi — bu bolalik konsepsiyasidir. Uzoq muddatli bolalikka ega bo‘lish aynan insonga xos. Bundan tashqari, jamiyatning rivojlanishi bolalikning uzayishiga olib keladi. «Uzoq davom etuvchi bolalik insonni texnik va intellektual mazmunda o‘z ishiga mohir odam qilib qo‘yadi, biroq u insonda butun umr hissiy yetilmaganlik izini qoldiradi*», — deb yozadi E.Erikson.



E.Erikson

E.Erikson shaxs tuzilmasini xuddi Z.Freyd kabi talqin qiladi. Agar kundalik hayotimizning qaysidir lahzasida, deb yozadi u, biz to‘xtab, o‘zimizdan, ayni daqiqada nimalarni orzu qilganimizni so‘rasak, unda bizni qator kutilmagan kashfiyotlar kutadi: biz taajjub bilan fahmlaymizki, bizning fikrlarimiz va tuyg‘ularimiz nisbiy muvozanat holatidan goh u, goh bu tomonga o‘zgarib, ikkilanishni sodir etadi. Bu holatdan bir tomonga og‘sak, bizning fikrlarimiz biz istagan narsaga nisbatan qator fantastik g‘oyalarni tug‘diradi; boshqa tomonga og‘gancha biz to‘satdan burch va majburiyatlar to‘g‘risidagi fikrlar hukmi ostida qolamiz, biz endi nimalarni istashimiz haqida emas, balki nimalar qilishimiz kerakligini o‘ylaymiz; uchinchi holat, bu chegaralar o‘rtasida go‘yoki «jonsiz nuqta», eslash qiyinroq. Bu yerda qayerdagi biz

o'zimizni kamroq anglagan joyimiz, E.Erikson fikriga ko'ra, biz hammasidan ko'ra ko'proq o'zligimizni anglaymiz, o'zimiz bo'lamiz. Shunday qilib, qachonki biz istasak — bu «U», qachonki biz majburmiz — bu «Boshqa Men», «jonsiz nuqta» esa — bu «Men». Bu ikki instansiyalar chegaralari o'rtasida doimiy ravishda muvozanatlashgancha «Men» odamga jadal istaklar va «vijdon kuchi bilan bostirilganlar» o'rtasida murosaga kelish imkonini beradigan himoya mexanizmlaridan foydalanadi.

6.2. Erikson ishlarida tadqiqot metodlari

Qator nashrlarda ta'kidlangani kabi E.Eriksonning ishlari psixikani tadqiq etishning yangi yo'li — o'zida tarixga psixologik tahlilni qo'llashni aks ettiruvchi psixologik-tarixiy usuldan darak beradi. E.Erikson bu usul yordamida Martin Lyuter, Maxatma Gandi, Bernard Shou, Tomas Djefferson va boshqa buyuk odamlarning tarjimaiy holini, shuningdek, zamondoshlari — kattalar va bolalarning hayotiy tarixini tahlil qildi. Psixologik-tarixiy usul shaxs psixologiyasiga bo'lganiday inson yashaydigan jamiyat xarakteriga ham barobar e'tiborni talab qiladi. E.Eriksonning asosiy vazifasi aniq madaniy muhitni inobatga olgan holda shaxs rivojlanishining psixologik-tarixiy nazariyasini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

E.Erikson klinik xarakterdagi tadqiqotlardan tashqari ikkita hind qabilasida bolalar tarbiyasini dala etnografik tadqiqotini o'tkazdi va ularni AQSHning shaharda yashovchi oilalardagi bola tarbiyasi bilan solishtirdi. Eslatib o'tilganidek, u har bir madaniyatda har bir ona yagona to'g'ri deb idrok etadigan onalikning o'ziga xos uslubi mavjudligini aniqladi.

Biroq E.Erikson ta'kidlaganidek, onalik uslubi bola mansub bo'lgan ijtimoiy guruh — uning qabilasi, sinf yoki tabaqasi kelajakda undan aynan nimani kutishi bilan belgilanadi. E.Erikson fikriga ko'ra, rivojlanishning har bir bosqichi o'zining, ushbu jamiyatga xos bo'lgan, shaxs oqlashi yoki oqlamasligi mumkin bo'lgan va shunda u yoxud jamiyatga qo'shiladi, yoxud jamiyat to-

monidan inkor etiladigan kutilmalarga javob beradi. E.Eriksonning bu mulohazalari uning konsepsiyasini ikkita birmuncha muhim tushunchalari asosiga joylashdi — «guruhli oʻxshashlik» va «egooʻxshashlik». Guruhli oʻxshashlik bolani hayotining birinchi yilidayoq tarbiyalash uni mazkur ijtimoiy guruhga kiritish, ushbu guruhga xos boʻlgan dunyoqarashni ishlab chiqishga yoʻnaltirishi sharofati bilan shakllanadi. Egooʻxshashlik guruhli oʻxshashlik bilan parallel tarzda shakllanadi va subyektda inson oʻsishi va rivojlanishi jarayonida sodir boʻladigan oʻzgarishlarga qaramay barqarorlik va oʻz «Meni»ning uzluksizligi tuygʻusini bunyod etadi.

Egooʻxshashlikning yoki boshqacha aytganda, shaxs bir butunligining shakllanishi insonning butun hayoti davomida davom etadi va qator bosqichlarni oʻtaydi, shu bilan birgalikda, Z.Freyd bosqichlari E.Erikson tomonidan inkor etilmaydi, balki murakkablashtiriladi va goʻyoki yangi tarixiy vaqt nuqtayi nazaridan qaytadan anglaniladi. Freyddan farqli ravishda egopsixologiyada asosiy eʼtibor hayotiy muammolarni hal qilishni anglash bilan bogʻliq boʻlgan normal sogʻlom shaxsning rivojlanishiga qaratiladi. Eriksonning shaxs rivojlanishi nazariyasi psixoijtimoiy deb ataladi, chunki uning markazida shaxsning ijtimoiy muhit bilan oʻzaro taʼsirda rivojlanishi yotadi.

Erikson anʼanaviy psixoanalitiklar foydalangan muammo-li bolalar bilan ishlashda aniq vaziyatni mazmunli tahlil qilish metodidan tashqari sogʻlom bolalarni longityud tadqiq etgan. U shuningdek, etnografik (krosmadaniyat) metodidan ham foydalangan: amerikalik indeyslar qabilalarida tarbiyalangan bolalar bilan zamonaviy texnologik Amerika jamiyatida tarbiya xususiyatlarini oʻrgangan. Bu unga shaxsning shakllanishida turli madaniyatlarning taʼsirini oʻrganish imkonini bergan. Shuningdek, u demokratik jamiyatda shaxs oʻz potensial imkoniyatlarini toʻliq namoyon etadigan sharoit va ijtimoiy rollar qatʼiy nazoratga olingan sharoitlarda individning identiklik yutuqlarini tahlil qilgan. Eriksonning Martin Lyuter yoki Maxatma Gandi kabi mashhur shaxslar hayotini oʻrganishga bagʻishlagan tad-

qiqotlari ham qiziqish uygʻotadi. Bunda Erikson inson hayotining asosiy mavzularini tarixiy voqea va hodisalar bilan bogʻlashga harakat qilgan hamda psixotarixiy metoddan foydalangan. Erikson inson hayoti jarayonida uch muhim jihat (somatik, shaxsiy va ijtimoiy)larning oʻzaro bogʻliqligini va birligini, faqatgina tahlil va oʻrganishning qulayligi uchungina ajratilishini koʻrsatib oʻtgan. Inson hamma davrlarda ham organizm, jamiyat aʼzosi va Ego (Men, shaxs) boʻlgan.

Erikson tomonidan shakllantirilgan Egoning rivojlanish nazariyasi individning butun hayot yoʻlini qamrab oladi, uni baʼzan shaxs hayot yoʻli konsepsiyasi deb atashadi.

6.3. Erikson nazariyasining asosiy tushunchalari

Eriksonning Ego rivojlanishi haqidagi tasavvurlari uning quyidagi asarlarida bayon etilgan». Bolalik va jamiyat» (1950), «Identiklik: oʻspirinlik inqirozi» (1968), «Identiklik va hayotiy sikl» (1979), «Yetuklik» (1979) va b. Yuqorida keltirilgan kitoblar nomlaridan ham koʻrinib turibdiki, Erikson konsepsiyasida asosiy tushuncha — identiklikdir. Shaxsiy identiklik— shaxsning yadrosi, yuragi» boʻlib, uni boshqalardan farqli ravishda faqat oʻziga oʻxshashligini tasdiqlaydigan individual xislatlar toʻplamidir¹. Ego identiklik— shaxsiy Menining barqarorligi, uzluksizligi, yaxlitligini subyektiv his qilishdir. Guruhiy identiklik— maʼlum ijtimoiy guruhga tegishlilikini his qilishdir. Egoidentiklik va guruhiy identiklik hayot davomida shakllanadi.

Eriksonning taʼkidlashicha, identiklik shakllanishida muhim mexanizmlardan biri ritualizatsiya — insonlar orasida maʼlumotlar almashishda, oʻzaro aloqaga kirishishda xulq-atvorning takrorlanuvchi shakllaridir. Ritualizatsiya — tugʻma asosga ega boʻlib, hayot davomida murakkablashib boyib boradi.

Erikson nazariyasining asosiy mohiyati shundan iboratki, har bir inson oʻz hayoti davomida sakkizta bosqichdan oʻtadi, har bir

¹ SpnKCOH 3. HeTCTBO n o6mecTBO. Cn6.2000.C.14.

bosqichda unga ijtimoiy talablar qo‘yiladi. Ijtimoiy rivojlanishda individ oldida turgan muammolar unga inqirozli vaziyatlarni tug‘diradi. Inqiroz — rivojlanishning o‘tish, burilish davri bo‘lib, inson unga nizoni qanday hal qilishni bilmaydigan, kuchli, moslashuvchan shaxs sifatida kirishi mumkin. Odamlar rivojlanish bosqichidagi qarama-qarshiliklarni turlicha muvaffaqiyat va har xil tezlikda bartaraf etadi — Erikson konsepsiyasining epigenetik tamoyili shundan iborat. Eriksonning ta’kidlashicha, avlodlarning ehtiyojlari va imkoniyatlari simmetrikdir, uning konsepsiyasida ularning o‘zaro bog‘liqligi aks ettirilgan.

6.4. Shaxs rivojlanishining psixosijtimoiy bosqichlari

E.Erikson o‘zining birinchi yirik va o‘ta mashhur ishida yozgandiki, shaxsiy individuallilikni o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmida XIX asr oxirida Z.Freyd vaqtidagi shahvoniyatga berilganlikni o‘rganish qanday bo‘lgan bo‘lsa, shunday strategik masala bo‘ldi. «Turli tarixiy davrlar, — deb yozadi u, — bizga insoniy shaxsning o‘z mohiyatiga ko‘ra ajralmas qismi yuzasidan turli jihatlarni vaqtga oid keskinlikda ko‘rish imkonini beradio.

6-jadvalda E.Erikson bo‘yicha shaxs hayotiy yo‘lining bosqichlari taqdim etilgan.

Hayotiy siklning har bir bosqichi uchun jamiyat tomonidan oldinga suriladigan maxsus vazifa xarakterlidir. Jamiyat hayotiy siklning turli bosqichlarida rivojlanish mazmunini ham belgilaydi. Biroq E.Eriksonga muvofiq vazifaning yechimi shaxsning psixologik harakatlantiruvchi rivojlanishda erishgan darajasi kabi u yashayotgan jamiyatning umumiy ma’naviy muhitiga ham bog‘liq.

Go‘daklik yoshining vazifasi — olamga asosli ishonchni shakllantirish, bir-biridan ajralganlik va begonalashish tuyg‘usini bartaraf etishdan iborat. Ilk yosh vazifalari — shaxsiy erkinligi va mustaqilligi uchun o‘z harakatlaridan kuchli shubhalanish va uyat tuyg‘usiga qarshi kurashdan iborat. O‘yinli yoshning vazifalari — faol tashabbusning va ayni vaqtda o‘z istaklari uchun aybdorlik

hamda axloqiy mas'uliyat hissini boshdan kechirishning rivojlanishi. Maktabda o'qish davrida yangi vazifa — o'z no'noqligi va foydasizligini anglashga qarshi turuvchi mehnatsevarlik va mehnat qurollari bilan muomala qila olish malakasining shakllanishi sodir bo'ladi. O'smirlilik va ilk o'spirinlik yoshida dastlabki yaxlit o'zini va olamdagi o'z o'rnini anglash vazifasi; bu vazifani hal qilishdagi salbiy qutb — shaxsiy «Men»ini («bir xillik diffuziyasi») tushunishda ishonchsizlik paydo bo'ladi. O'spinlikning oxiri va yetuklikning boshlanishidagi vazifalar — umr yo'ldoshini izlash va yolg'izlik tuyg'usini bartaraf etuvchi yaqin do'stona aloqalarni o'rnatishdan iborat.

Yetuklik davri vazifasi — insondagi ijodiy kuchning qoloqlik va turg'unlikka qarshi kurashuvi. Keksalik davri hayotdan ehtimoliy ixlosi qaytish va o'sib borayotgan umidsizlikka qarama-qarshi tarzda o'zi, o'z hayotiy yo'li to'g'risidagi yakuniy yaxlit tasavurning shakllanishi bilan xarakterlanadi.

E.Erikson bo'yicha bu har bir vazifaning yechimi ikkita oxirgi qutb o'rtasida muayyan dinamik nisbat o'rnatishga olib keladi. Shaxs rivojlanishi — bu rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tishda so'nmaydigan oxirgi imkoniyatlar kurashining natijasidir. Rivojlanishning yangi bosqichidagi bu kurash yangi, ancha dolzarb vazifalar yechimi bilan bostiriladi, biroq tugallanganlik hayotiy omadsizliklar davrida o'zi haqida eslatadi. Har bir bosqichda erishilgan muvozanatlar o'zida egotenglikning yangi shakllarini aks ettiradi va subyektni ancha keng ijtimoiy muhitga kirish imkonini ochadi. Bolani tarbiyalashda «salbiy» tuyg'ularning hamisha mavjudligi va butun hayot davomida «ijobiy» tuyg'ularga dinamik zid a'zo bo'lib xizmat qilishini unutmaslik zarur.

Egotenglikning bir shaklidan boshqasiga o'tish tenglik inqirozini uyg'otadi. E.Erikson bo'yicha inqirozlar — bu shaxsning kasalligi, nevrotik buzilishlar ko'rinishi emas, balki «progress (istiqlol) va regress (inqiroz), integratsiya va sustlik o'rtasidagi tanlov lahzalari», «aylanish punktlari»dir.

E. Erikson bo'yicha shaxs hayotiy yo'lining

Yosh	Rivojlanish natijasi	Rivojlanishning me'yoriy chizig'i	Rivojlanishning buzilgan chizigi
0—1 yosh; ona	Atrofdagi odamlarga ishonch-ishonchsizlik	Odamlarga ishonch: o'zaro muhabbat va ota-onalar va bolaning bog'langanlikni tan olishi, bolalarning muvoqot va boshqa hayotiy muhim ehtiyojlari qondirilishi.	Odamlarga ishonchsizlik: onaning bolaga yomon munosabati, inkor etishi, unga e'tiborsizligi, mehridan mahrum qilishi natijasi. Bo'iani ko'krakdan juda erta yoki keskin ajratish, uni hissiy ajratib qo'yish.
1-3 yosh; Ota-onalar	Muxtoriyat - tobeik	Mustaqillik, o'ziga ishonch: o'ziga mustaqil, biroq hali onasiga tobe sifatida qaraydi.	0 ziga shubha, uyatning gipertrofiyaga uchragan tuyg'usi: bola o'zining moslashmaganligini his qiladi, qobiliyatiga shubhalanadi, rivojlanishda elementar harakatga oid nialakalarning yetishmasligini his qiladi. Nutqi zaif rivojlangan o'zining atrofdagilardan tushkunlikka tushganini yashirish istagi rivojlangan.
Yosh	Rivojlanish natijasi	Rivojlanishning me'yoriy chizig'i	Rivojlanishning buzilgan chizigi
3-6 yosh; Ota-onalar, Aka-ukalar, Opa-singillar	Tashabbus, o'ziga ishonch — aybdorlik tuyg'usi	Faollik: jonli tasavvur, atrofdagi olamni faol o'rganish kattalargayo'qligi. taqlid qilish, axloqning roliga kirishish.	Passivlik: bo'shashganlik, tashabbusning boshqa bolalarga nisbatan hasadning infantil tuyg'usi, tushkunlik, jinsiy roli axloq belgilarining yo'qligi.

6—12 yosh; maktab, qo'shmilar, tanishlar	Mehnatsevatilik - to'laqonli emasiik tuyg'usi	Mehnatsevatilik: majburiyat va intilish tuyg'usi, To'laqonli emaslik tuyg'usi: mehnatga rivojlangan kommunikativ ko'oid susr nvojlangan ko'nikmalar, rru-nikmatar. O'z oldiga real vazifalarakakab topshurtlar, musobaqaga oid qo' /adi va hal qiladi, fantaziya va vaziyatlardan qochish, to'laqonli emaslik, o'yin larni instrumental va p redmet-halokatga mahkumlikning o'tkir tuyg'usi. li harakatlarni faol o'zlashtirishga Konformlilik, qullarga oid axloq, turli yo'naltirilganligi, masalaga ori-vazifalarni hal qilishda qilinadigan yentatsiya.
13-18 yosh; Tengdoshlari guruhi	Burdamlilik — rollarning aralashuvi	Hayotiy o'z-o'zini aniqlash: vaq-Rollarning almashinuvi: qorishish va tinchalil istiqboilar - kelajaknafataqat kelajak lo'g'risida, balki o'tmish rejalar, o'z-o'zini bilish: qandayhaqidagi flklar, vaqtincha istiqbollar bo'lish? Kim bo'lish? kabilarningqorishmasi. Ma'naviy kuchlarni o'z-rivojlanishi. O'zini faol izlash va o'zini bilishga jamlash. tashqi olam bilan turli rollarda eksoenmeni o'tkazish. munosabatlariga zarar yetkazish bilan Axloq shakllarida aniq gendero'zini anglashga bo'lgan kuchli yaqqol ifo-qutblanish. Tengdoshlari guruh-daiangan intilish. Jinsiy rolli qayd qilish. larida sardorlik va zaruriyat tu-Jinsiy rolli axloq shakllarining aralashib g'ilganida unga bo'ysunish.
Barvaqt ulg'ayish	Yaqinlik — izo-lyatsiya	Yaqinlik: qalb iliqliqi, tushunish, ishomish, o'zining bir qismini qo'rqmasdan boshqa insonga beta olish qobiliyati.
Ulg'ayganlik	Generativlik - stagnatsiya	Generativlik: maqsadga inti-luvchanlik, mahsuldorlik.
Yetilganlik	Barqarorlik — umidsizlik	Shaxs barqarorligi: hayotiy yo'l-ning lugallanganligi tuyg'usi, reja va maqsadlarni amalga oshirish, to'liqlik va barqarorlik.

Psixoanalitik amaliyot E.Eriksonni hayotiy tajribani o‘zlash-tirish bolaning dastlabki tanaga oid taassurotlari asosida amalga oshishiga ishontirdi. Aynan shuning uchun u «organ modusi» va «axloq modalligi» tushunchalariga katta ahamiyat berdi. «Organ modusi» tushunchasi Z.Freyd ortidan E.Erikson tomonidan jinsiy quvvatning to‘planish doirasi sifatida ta’riflandi. Rivojlanishning aniq bosqichida jinsiy quvvat bilan bog‘liq organ rivojlanishning muayyan modusini bunyodga keltiradi, ya’ni shaxsning ustunlik qiluvchi sifatining shakllanishiga olib keladi. Erogen zonalarga muvofiq tortish, tutib qolish, bostirib kirish va qo‘shilish moduslari mavjud. Bolalar tarbiyachida zonalar va ularning moduslari, deb ta’kidlaydi E.Erikson, bolaning ilk tanaga oid tajribasiga ahamiyat beruvchi har qanday madaniy tizimning diqqat markazida turadi. Z.Freyddan farqli ravishda E.Erikson uchun organ modusi — psixik rivojlanish uchun dastlabki nuqta, turtkigina, xolos. Qachonki jamiyat o‘zining shaxsiy institutlari (oila, maktab va boshqalar) orqali ushbu modusga alohida mazmun berarkan, uning ahamiyatini «begonalashuvi», organdan ajralish va axloq modalligiga aylanishi sodir bo‘ladi. Shunday qilib, moduslar orqali psixojinsiy va psixojitimoiy rivojlanish amalga oshiriladi.

Moduslarning tabiat aqli bilan shartlangan xususiyatlari shundan iboratki, ularning ishlashi uchun boshqa obyekt yoki inson zarur. Demak, bola hayotining dastlabki kunlarida «og‘zi orqali yashaydi va sevadi», ona esa «o‘z ko‘kragi orqali yashaydi va sevadi». Ovqatlantirish vaqtida bola hamkorlikning ilk tajribasini oladi: uning «og‘iz orqali olish» qobiliyati ona tomonidan javobga uchraydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, E.Erikson uchun oral zona emas, balki o‘zaro harakatning nafaqat «og‘iz orqali», balki butun «sensor zonalar orqali olish qobiliyati»dan iborat oral usuli muhim. E.Erikson uchun og‘iz — bolaning faqat uning rivojlanishidagi eng birinchi pog‘onasidagina olamga munosabati fokusidir. Organ modusi — «olish» o‘zining kelib chiqish zonasidan ajraladi va

boshqa sensor hissiyotlar (taktil, ko‘rish, eshitishga oid va boshqalar)ga tarqatiladi, buning natijasida axloqning psixik modalligi — «so‘rish» shakllanadi.

Z.Freyd kabi go‘daklik yoshining ikkinchi bosqichini E.Erikson tishlarning yorib chiqishi bilan bog‘laydi. Shu lahzadan boshlab, «so‘rish» qobiliyati ancha faol va yo‘naltirilgan bo‘ladi. U «tishlash» modusi bilan xarakterlanadi. Begonalashgancha modus o‘zida passiv olishni siqib chiqarib, bola faolligining barcha turlarida namoyon bo‘ladi. «Dastlab taassurotlarni o‘z-o‘zidan bo‘ladigan kabi ko‘rinishda qabul qilishga tayyor bo‘lgan ko‘zlar fokusni to‘g‘rilash, ajratish va ancha xira fondan obyektни «ushlab olish»ga, uni kuzatishga o‘rganadilar, — deb yozadi E.Erikson. — Shunga o‘xshab, quloqlar ahamiyatli tovushlarni tanishga, ularning tarqalishini cheklash va ularga yo‘nalish bo‘yicha izlovchi o‘girilishni boshqarishga, xuddi shunday qo‘llar ham maqsadli yo‘nalgan holda cho‘zilishga, panjalar esa «qattiq tutib olish»ga o‘rganadi». Modusning butun sensor zonalarga tarqalishi natijasida axloqning ijtimoiy modalliligi — «buyumlarni olish va tutib turish» shakllanadi. U qachonki bola o‘tirishni boshlaganida namoyon bo‘ladi. Barcha bu yutuqlar bolaning o‘zini alohida shaxs sifatida ajratishiga olib keladi.

Ego o‘xshashlikning bu birinchi shaklining rivojlanishi barcha keyingilari kabi rivojlanish inqirozi bilan birga boradi. Bola hayotining birinchi yili oxirida uning ko‘rsatkichlari: tishlarning yorib chiqishi, o‘zini alohida shaxs sifatida anglashning o‘sishi, onaning kasbiy mashg‘ulotlar va shaxsiy qiziqishlarga qaytishi natijasida «ona — bola» ikkiligining zaiflashuvi tufayli umumiy zo‘riqish. Bu inqiroz agar bola hayotining birinchi yilini oxirida bolaning olamga bo‘lgan asosli ishonchi va asosli ishonchsizligi o‘rtasidagi nisbat birinchisi foydasiga yuzaga kelsa, oson yengib o‘tiladi. Go‘dakda ijtimoiy ishonch belgilari yengil ovqatlantirish, chuqur uyqu, ichaklarning me‘yoriy ishlashida namoyon bo‘ladi. E.Erikson fikriga ko‘ra, dastlabki ijtimoiy yutuqlarga bolaning o‘ta xavotir yoki jahl qilmasdan onasini ko‘rinmay qolishiga im-

kon berishga tayyorlikni ham kiritish mumkin, chunki onaning mavjud bo'lishi bolaga ichki ishonch bo'lsa, uning yana paydo bo'lishi oldindan aytiladigan hodisa bo'ladi. Aynan shu doimiylik, uzluksizlik va tadrijiylik kichkina bolada shaxsiy tenglikning boshlang'ich tuyg'usini shakllantiradi.

Olamga ishonch va ishonchsizlik o'rtasidagi nisbat dinamikasi yoki E.Erikson so'zlari bilan aytganda, «dastlabki hayotiy tajribasidan chiqarilgan ishonch va umid miqdori», ovqatlantirish xususiyatlari bilan emas, balki bolani parvarishlash sifati, go'dakka g'amxo'rlikda namoyon bo'ladigan onalik mehri va nazokati bilan belgilanadi, bunda muhim shart onaning o'z harakatlariga ishonchi hisoblanadi. «Ona o'z bolasida o'zining madaniyatida mavjud bo'lgan hayotiy uslub doirasida unga butkul shaxsiy ishonchning qattiq tuyg'usi bilan bolaning ehtiyojlari haqida ta'sirchan g'amxo'rlikni o'zida birlashtiradigan murojaat turi bilan ishonch tuyg'usini bunyod etadi», — deb ta'kidlaydi E.Erikson.

E.Erikson turli madaniyatlarda «ishonchning turli sxemalari» va bola parvarishining turli an'analarini aniqladi. Bir xil madaniyatda ona hissiy jihatdan juda noziklikni namoyon etadi, go'dakni qachonki u yig'lab, qaysarlik qilganida yo'rgaklamay, ovqatlantiradi. Boshqa madaniyatda aksincha, tarang qilib siqib yo'rgaklanadi, bolaga «uning o'pkasi kuchli bo'lishi uchun» chinqirish va yig'lash-

ga qo'yib beriladi. Parvarishning bu usuli, E.Erikson fikriga ko'ra, rus madaniyatiga xos. Bu bilan, deydi E.Erikson, rus millatiga mansub odamlarning o'ziga xos ifodaliligi tushuntiriladi. Dehqon oilalarida qabul qilinganidek, tarang siqib yo'rgaklangan bola nigohlari orqali olam bilan aloqa qilishning asosiy usuliga ega. Bu an'analarda E.Erikson jamiyatning o'z a'zosini qanday ko'rishni istashi bilan chuqur aloqani aniqlaydi. Xullas, bitta hind qabilasida E.Erikson onaning qachonki bola uning ko'kragini tishlaganida, bolani kuchli yig'lashga yetgunicha boshiga urishini payqagan. Hindlar bunday usulni yaxshi ovchini tarbiyalashga ko'maklashadi, deb hisoblaydilar. Bu misollar E.Eriksonning insoniy mavjud kelliqlik yaratirishni bir-birini ta'ldirishi zaryu bo'lgan vaqta

jarayoniga bogʻliq ekanligi toʻgʻrisidagi fikrini yaqqol tasdiqlaydi: bu — tanani tarkibiy qismi boʻlgan organik tizimlarni (soma) icrarxik uyushtirishning biologik jarayoni; egosintez (psixika) vositasida individual tajribani uyushtiruvchi psixik jarayon; oʻzaro bogʻlangan odamlarni madaniy uyushtirishning ijtimoiy jarayoni (etos). Erikson har qanday insoniy turmush hodisalarni bir butunlikda tushunish uchun barcha shu uchta yondashuv zarur ekanini, ayniqsa, taʼkidlab oʻtadi.

Koʻpgina madaniyatlarda bolani muayyan vaqtda koʻkrakdan ajratish qabul qilingan. Maʼlum boʻlganiday, klassik psixoanalizda, bu hodisa oqibati butun umrga tatiydigan eng chuqur bolalar jarohatlaridan biri sifatida qaraladi. Biroq, E.Erikson bu hodisani bunchalik fojiviy baholamaydi. Uning fikriga koʻra, asosli ishonchni ovqatlantirishning boshqa shakllarida ham qoʻllab-quvvatlash mumkin. Agar bolani qoʻlga olsalar, uni tebratsalar, jilmaysalar, u bilan gaplashsalar, bolada bu bosqichning barcha ijtimoiy muvaffaqiyatlari shakllanadi. Bunda ota-onalar bolani majburlash va taqiqlash yoʻllari bilan boshqarmasliklari zarur, ular bolaga «oʻzlari u bilan hozir qilayotganlarida qandaydir qiymat borligiga chuqur va deyarli organik ishonch»ni bera olishlari lozim. Biroq hatto oʻta yoqimli holatlarda ham frus(ratsiyani chorlovchi taqiq va cheklovlardan qochib boʻlmaydi. Ular bolada rad etilganlik tuygʻusini qoldiradi va olamga asosli ishonchsizlik uchun asosni yuzaga keltiradi.

Shaxs rivojlanishining ikkinchi bosqichi E.Erikson fikriga koʻra bolaning oʻz avtonomligi va mustaqilligini shakllanishi hamda himoya qilishidan iborat. U bola yurishni boshlagan lahzadan boshlanadi. Bu bosqichda lazzat olish zonasi anus bilan bogʻliq. Anal (orqa teshikka oid) zona ikkita qarama-qarshi modusni yaratadi — tutib turish modusi va boʻshashish modusi. Jamiyat bolani tozalikka oʻrgatishga alohida ahamiyat berganicha bu moduslarning ustunlik qilishi, ularning oʻz organidan ajralishi va saqlash hamda yoʻq qilish kabi axloq modallariga aylanishi uchun sharoit yaratadi. Jamiyat tomonidan unga berilgan qiymat

«Sfinkterli nazorat» uchun kurash natijada oʻzini harakatga soluvchi imkoniyatlarini egallash, oʻzining yangi, avtonom «Men»ini tasdiqlash uchun kurashga aylanib boradi. Mustaqillikning oʻsib boruvchi tuygʻusi yuzaga kelgan olamga asosli ishonchga zarar yetkazmasligi zarur.

Ota-ona tomonidan nazorat bu tuygʻuni bolaning goʻyoki oʻzining yangi imkoniyatlari kuchini sinab koʻrayotgandek oʻsib boruvchi istaklari — talab qilish, oʻzlashtirish, parchalashni cheklash orqali saqlab qolish imkonini beradi.

«Tashqi qafiylik bolani hali mashq qilinmagan farqlash tuygʻusi, uning ehtiyotkorona tutib turish va qoʻyib yuborishga layoqatsizligi tomonidan potensial anarxiyadan muhofaza qiladi», — deb yozadi E.Erikson. Bu cheklovlar, oʻz navbatida, salbiy uyat va shubha tuygʻulari uchun asos yaratadi.

E.Erikson fikriga koʻra uyat tuygʻusining paydo boʻlishi oʻz-oʻzini anglashning yuzaga kelishi bilan bogʻliq, chunki uyat subyektning butkul hamma koʻrishi uchun qoʻyilganligi va uning oʻz holatini tushunishini koʻzda tutadi. «Uyatni his qilayotgan kimsa butun olamni uni koʻrmasligi, uning «yalangʻochligi»ni sezmasligiga majburlashni istagan boʻlardi, — deb yozadi E.Erikson, — u butun olamning koʻr boʻlishini istardi. Yoki, aksincha, oʻzi koʻrinmas boʻlib qolishni istaydi». Bolani yomon qiliqlari uchun jazolash va uyaltirish uni «olam nigohi unga qadalgan»ligi tuygʻusiga olib keladi. «Bola butun olamni unga qaramaslikka majburlashni istagan boʻlardi», biroq bu mumkin emas. Shuning uchun uning yomon qiliqlarini ijtimoiy maʼqullamaslik bolada «dunyoning ichki koʻzi» — oʻz xatolari uchun uyatni shakllantiradi. E.Erikson soʻzlariga koʻra «shubha uyatning ukasidir». Shubha shaxsiy tana old va orqa tomonlarga ega ekanini anglash bilan bogʻliq. Orqa bolaning oʻzini koʻrishi amalga oshmaydigan tomon va uning avtonomiyaga intilishini cheklashi mumkin boʻlgan butkul boshqa odamlarning irodasiga boʻysundirilgan. Ular bolaning oʻzigagina qoniqish va yengillik beradigan ichaklarning va-zifalarini «yomon» deydilar. Shu yerdan insonning kelgusidagi

hayotida orqada qoldiradiganlari shubha va irratsional qoʻrquv uchun asos boʻladi.

Mustaqillik tuygʻusining uyat va shubhaga qarshi kurashi boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish va oʻzining qatʻiy turishi, oʻz-oʻzini ifodalash erkinligi va uni cheklash qobiliyatlari oʻrtasida nisbat oʻrnatishga olib keladi. Bosqich oxirida bu qarama-qarshiliklar oʻrtasida harakatli muvozanat shakllanadi. U agar ota-onalar va yaqin kattalar bolani oʻta boshqargancha uning avtonomiyaga boʻlgan intilishini bostirganlarida ijobiy boʻladi. «Ijobiy oʻz-oʻzini baholashni saqlab qolishda oʻz-oʻzini nazorat qilish tuygʻusidan xayrixohlik va faxrning barqaror tuygʻusi; oʻz-oʻzini nazorat qilishning yoʻqolishi va begona tashqi nazoratdan barqaror shubhalanish va uyatga moyillik tugʻiladi», — deb taʼkidlaydi E.Erikson.

Bostirib kirish va kirishish moduslari shaxs rivojlanishining uchinchi — infantil-genital bosqichida axloqning yangi modaliligini yaratadi. «Borliqqa quvvatli koʻchib oʻtish vositasida, boshqalar tanasiga jisrnoniy hamla qilish vositasida, boshqa odamlarning qulogʻi va qalbiga tajovuzkor tovushlar vositasida, noma'lumga xos qiziquvchanlik vositasida bostirib kirish, E.Erikson taʼrifi boʻyicha shundayki, maktabgacha yoshdagi bola oʻz axloqiy reaksiyalarining bitta qutbda, boshqa qutblarida u atrof-dagilarga nisbatan taʼsirchan, tengdoshlari va kichkina bolalar bilan nozik va gʻamxoʻr munosabatlarni oʻrnatishga tayyordir». Z. Freydda bu bosqich fallik yoki Edip nomlanishini olgan. E.Erikson fikriga koʻra, bolaning oʻz genitalliyasiga qiziqishi, oʻzining jinsiy mansubligini anglashi va qarama-qarshi jinsdagi ota-onalar bilan munosabatda ota (ona) oʻrnini egallashga intilishi — bola rivojlanishining bu davrdagi xususiy lahzasidir. Bola zoʻr ishtiyoq bilan va faol atrof olamni oʻrganadi; tasavvurdagi, modellashtirilgan vaziyatlarni yaratgancha, oʻyinda, bola tengdoshlari bilan birgalikda «madaniyatning iqtisodiy etosi»ni, yaʼni ishlab chiqarish jarayonida odamlar oʻrtasidagi munosabatlar lizimini oʻzlashtiradi. Buning natijasida bolada kattalar bilan

birgalikda real faoliyatga kirishish, kichkinalik roldan chiqish istagi shakllanadi. Biroq kattalar bola uchun hamma narsaga qodir va aql bovar qilmaydigan bo‘lib qoladilar, ular uyaltirishlari va jazolashlari mumkin, qarama-qarshiliklarning bu tugunida faol tadbirkorlik va tashabbuskorlik sifatlari shakllanishi zarur.

Tashabbuskorlik tuyg‘usi, E.Erikson fikriga ko‘ra, barchaga baravar taalluqli xarakterga ega. «Tashabbuskorlik so‘zining o‘zi, — deb yozadi E.Erikson, — ko‘pchilik uchun amerikacha va tadbirkorlik alomatiga ega. Shunga qaramay, tashabbuskorlik har qanday harakatning zaruriy jihati hisoblanadi va tashabbuskorlik odamlarga hamma narsada — nima bilan shug‘ullansalar va nimani o‘rgansalar, mevalarni yig‘ishdan boshlab, erkin tadbirkorlik tizimi bilan tugagunga qadar zarurdir».

Bolaning tajovuzkor axloqi o‘z ortidan tashabbuskorlikning cheklanishi va aybdorlik hamda xavotirlilik tuyg‘usining paydo bo‘lishini boshlab keladi. Xullas, E.Erikson bo‘yicha axloqqa yangi ichki bosqichlar — vijdon va o‘z xayollari hamda harakatlari uchun axloqiy mas‘uliyat joylanadi. Rivojlanishning aynan shu bosqichlarida boshqa hech birida bo‘lmagandek, bola tez va zo‘r ishtiyoq bilan o‘qiydi. «U konstruksiyalash va rejalashtirish maqsadlari uchun boshqa bolalar bilan birgalikda harakatlaniishi, birlashishi mumkin va buni istaydi hamda u o‘z o‘qituvchisi bilan muloqotdan foyda olishga intiladi, shuningdek, har qanday ideal prototipdan o‘zib ketishga tayyor bo‘ladi», — deb ta’kidlaydi E.Erikson.

Shaxs rivojlanishining psixologik tahlil «latent davr», E.Erikson esa — «psixojinsiy moratoriya vaqti» deb ataydigan to‘rtinchi bosqichi bo‘lg‘usi katta odamning mehnatga oid faoliyatning texnik va ijtimoiy asoslariga o‘rganishi uchun infantil jinsiylikning muayyan mudroq bosganligi va genital yetukliknig kechikishi bilan xarakterlanadi. Maktab sistematik ko‘rinishda bolani bo‘lg‘usi mehnatga oid faoliyat to‘g‘risidagi bilimlarga jalb qiladi, maxsus uyushtirilgan shaklda «texnologik tarzda» madaniyat uzatadi, mehnatsevarlikni shakllantiradi. Bu bosqichda bola

o'qishni xush ko'radi va birmuncha fidokorlik bilan ushbu jamiyatga mos keladigan texnika turlariga o'qiydi.

Bu bosqichda bolaga solinadigan xavf — notenglik va to'laqonli emaslik tuyg'usidan iborat. E.Erikson fikriga ko'ra, «bola bu holatda qurollar olamida o'zining uquvsizligidan umidsizlikni boshidan kechiradi va o'zini o'rta darajasi yoki notenglikka maksimum inson sifatida ko'ra boshlaydi». Agar muvaffaqiyatli holatda ota va ona figurali, ularning bola uchun ahamiyatliligi ikkinchi planga o'tadi, o'zini maktab talablariga muvofiq emaslik tuyg'usi paydo bo'lganida oila yana bola uchun boshpana bo'ladi.

E.Erikson ta'kidlaydiki, rivojlanuvchi bola har bir bosqichda o'zi uchun hayotiy muhim bo'lgan shaxsiy asoslanganlik tuyg'usiga kelishi kerak va uni mas'uliyatsiz maqtov yoki muruvvatli ma'qullash qoniqtirmasligi zarur. Uning egotengligi o'zi erishgan yutuqlar hayotning mazkur madaniyat uchun ahamiyatli sohalarida namoyon bo'lishini tushungan taqdirdagina real kuchga ega bo'ladi.

Shaxs rivojlanishida beshinchi bosqich eng chuqur hayotiy inqirozni xarakterlaydi. Bolalik yakuniga yetdi. Bu katta hayotiy bosqichning yakuni egotenglikning dastlabki yaxlit shakllarining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Rivojlanishning uchta chizig'i bu inqirozga olib keladi: bu shiddatli jismoniy o'sish va jinsiy yetilish («fiziologik inqilob»); «boshqalar ko'z o'ngida men qanday ko'rinaman», «men o'zim bilan nimani aks ettiraman» kabi savollar bilan tashvishlanish; egallangan malakalar, individual qobiliyatlar va jamiyat talablariga javob beruvchi o'z kasbiy iste'dodini topish zaruriyati. Tenglikning o'smirlik inqirozida rivojlanishning barcha o'talgan kritik lahzalari yana ko'tariladi. O'smir endi barcha eski vazifalarni ongli tarzda va ichki ishonch bilan hal qilishi zarur, aynan shunday tanlov o'zi va jamiyat uchun ahamiyatli. Shunda olamga ijtimoiy ishonch, mustaqillik, tashabbuskorlik, o'zlashtirilgan malakalar shaxsning yangi yaxlitliligini yaratadi.

O'spirinlik yoshi — rivojlanishning tenglikni asosiy inqirozi to'g'ri keladigan birmuncha muhim davridir. Undan keyin «kat-

talarga oid tenglik»ni egallash, yoxud rivojlanishda to'xtalish, ya'ni «tenglik diffuziyasi» keladi.

Qachonki yosh inson jamiyatda o'z o'rnini topishga (sinab ko'rish va xatolar sodir etish yo'li bilan) intilganida o'spirinlik va kattalarga oid holat o'rtasida masofani E.Erikson «psixik moratoriy» deb nomladi. Bu inqirozning o'tkirlig ancha erta krizislar (ishonch, mustaqillik, faollik va boshqalar)ning yechilganlik darajasi bilan bo'lganiday, jamiyatning butun ma'naviy muhitiga ham bog'liq. Bartaraf etilmagan inqoroz tenglikning keskin diffuziyasi holatiga olib keladi, o'spirinlik yoshining ijtimoiy patologiyasi asosini tashkil etadi.

E.Erikson bo'yicha tenglik patologiyasi sindromi: infantil darajaga regressiya va imkoni boricha kattalik maqomini egallashni orqaga surish istagi; g'ira-shira, biroq barqaror xavotirlilik holati; izolatsiya va ma'naviy qashshoqlik tuyg'usi; doimiy ravishda hayotni o'zgartirish mumkin bo'lgan qandaydir holatda bo'lish; boshqa jinsdagi shaxs bilan shaxsan muloqotda bo'lish va hissiy ta'sir ko'rsatishga layoqatsizlikdan qo'rqish; barcha tan olingan jamoatchilik rollari — erkak va ayol rollariga qadar dushmanlik va nafrat hissi («uniseks»); amerikacha va barcha xorijiy irratsional ustunlikka nafrat («biz yo'q bo'lgan joyda hammasi yaxshi» tamoyili bo'yicha). So'nggi holatda salbiy tenglikka, o'z-o'zini tasdiqlashning yagona usuli sifatida «hech kimmiki bo'lish»ga intilish.

E.Eriksonning o'spirinlik davriga taalluqli bir necha muhim kuzatishlarini qayd qilamiz. Bu yoshda yuzaga keluvchi oshiqlik, E.Erikson fikri bo'yicha, dastlab jinsiy xarakter kasb etmaydi. «O'spirinlik oshiqligi ahamiyatli darajada dastlab kimdir — boshqa odamning noaniq obraziga shaxsiy proeksiyasi yo'li bilan o'z tengligini aniqlashga urinish va uni aks etgan hamda aniqlashtirilgan ko'rinishda o'z ko'zi bilan ko'rishdir, — deb hisoblaydi E.Erikson. — Mana nima uchun o'spirinlik oshiqligi ko'rinishi ko'p hollarda gap-so'zlarga sabab bo'ladi». Shaxs rivojlanishi mantig'i bo'yicha odamlarga muloqotda tanlovchanlik va ijtimoiy kelib chiqishi, didi yoki qobiliyatlari bilan farqlanuvchi

barcha «begonalar»ga nisbatan shafqatsizlik xosdir. «Ko‘pincha kostyumning maxsus qismlari yoki o‘ziga xos imo-ishoralar «o‘ziniki»ni «begonalar»dan ajratishga yordamlashuvchi belgi sifatida vaqtinchalik tanlanadi... bunday chidamsizlik qiyofasizlik va qorishmalardan farqli ravishda o‘z tengligini his qilishi uchun muhofaza hisoblanadi», — deb yozadi u.

Egotenglikning shakllanishi yosh insonga rivojlanishning oltinchi bosqichiga o‘tish imkonini beradi, bu bosqich mazmuni — umr yo‘ldoshini izlash, boshqalar bilan zich hamkorlik qilish istagi, o‘zining ijtimoiy guruhi a‘zolari bilan yaqin do‘stona aloqalarga intilishdan iborat. Yosh inson endi o‘zining «Men»ini yo‘qotish va qiyofasizlikdan cho‘chimaydi. Avvalgi bosqich yutuqlari ungan, deb yozadi E.Erikson, «o‘zining tengligini boshqalar bilan aralashtirishga tayyorlik va istash» imkonini beradi. Axloqning asosiy modalliligini to‘liq egallash atrofdagilar bilan yaqinlashishga intilish asosi bo‘lib xizmat qiladi. Endi rivojlanish mazmunini qandaydir organ modusi belgilamaydi, balki barcha ko‘rib chiqilgan moduslar yangi, oldingi bosqichda paydo bo‘lgan egotenglikning yaxlit mahsulotga bo‘ysunadi. Yosh inson yaqinlikka tayyor, u o‘zini aniq ijtimoiy guruhlarda boshqalar bilan hamkorlikka qodir, hatto agar bu kelishuvlarning ahamiyatli qurbon qilishni talab etsa-da, bunday guruhli mansublikka qat’iy amal qilish uchun yetarlicha yetuk kuchga ega.

Bu bosqichning xavfli tomoni shundaki, u o‘zida yolg‘izlik, to‘liq yaqinlikni talab qiluvchi aloqalardan qochishni aks ettiradi. Bunday buzilish, E.Erikson fikriga ko‘ra, «fe‘l-atvorning keskin muammolari»ga, psixologik buzilishlarga olib kelishi mumkin. Agar psixik moratoriy bu bosqichda ham davom etsa, unda yaqinlik tuyg‘usi o‘rniga masofa saqlash, o‘z «hududi»ga, o‘zining ichki olamiga hech kimni qo‘ymaslikka intilish yuzaga keladi. Bu intilishlar shaxsiy sifatarga — ajralib yashash va yolg‘izlik tuyg‘ulariga aylanishi mumkinligi xavfi bor.

Tenglikning bu salbiy tomonlarini yengib o‘tishga muhabbat yordam beradi. E.Erikson o‘spiritinga emas, ayniqsa, o‘smirga

emas, balki yosh insonga nisbatan «asl genitallik* to'g'risida gapirish mumkin, deb hisoblaydi. E. Erikson eslatib o'tadi, Freyding «genital muhabbat» farqlashini dalil qilib keltirgancha muhabbatni jinsiy qiziqish sifatida tushunilmasligi kerak. E. Erikson muhabbatning etuk tuyg'usi paydo bo'lganida va mehnatga oid faoliyatda hamkorlikning ijodiy muhiti o'rnatilganda rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tishga tayyorligini ko'rsatib o'tadi.

Yettinchi bosqich inson hayotiy yo'lining ulg'aygan bosqichida markaziy bosqich sifatida ko'rib chiqiladi. E. Erikson bo'yicha shaxs rivojlanishi uning butun hayoti davomida davom etadi. (Es-latib o'tamiz, Z. Freyd uchun «inson o'z bolaligining jamiyat tomonidan doimiy ravishda cheklovlarni his qiladigan o'zgarmas mahsuli bo'lib qoladi!») Shaxs rivojlanishi bolalar tomonidan o'zining boshqalarga kerakliligi subyektiv tuyg'usini tasdiqlaydigan ta'sir sharofati bilan davom etadi. Unumdorlik va natija (naslning davom etishi) bu bosqichda shaxsning asosiy tavsifnomasi sifatida yangi avlod tarbiyasi to'g'risidagi g'amxo'rlikda, mahsuldor mehnat faoliyati va ijodkorlikda ro'yobga chiqadi. Inson nimaiki qilsa, o'zining «Men»idan bir qismini qo'shadi va bu shaxsiy boyishga olib keladi. «Yetuk inson, - deb yozadi E. Erikson, — kerakli bo'lishga ehtiyojmand bo'ladi va yetuklik g'amxo'rlik qilish kerak bo'lgan o'z zurriyotlari tomonidan rahbarlik qilish va rag'batlantirishga muhtoj bo'ladi». Bunda gap faqat o'z bolalari to'g'risida borishi shart emas.

Aksincha, agar rivojlanishning noxush vaziyati yuzaga kelgan holatda qoloqlik va sustlik, shaxsiy ma'naviy qashshoqlikka olib keladigan o'ziga nihoyatda yuqori e'tiborni jamlash paydo bo'ladi. Bunday odamlar o'zlariga o'zlarining shaxsiy va yagona farzandi sifatida qaraydilar. Agar sharoit bunday tendensiyaga qulaylik tug'dirsa, unda shaxsning jismoniy va psixologik jihatdan nogironlashuvi boshlanadi. Agar oldingi bosqichlar oqimida kuchlar nisbati omadsiz tanlov foydasiga hal bo'lsa, demak u avvalgi bosqichlarning barcha bilan tayyorlangan.

Takrorlanmas individuallikning bo‘lagi joylangan boshqalar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ijodiy imkoniyat, buyumlar yaratish istagi o‘z-o‘zini yeb bitirish va shaxsiy inqirozga yuz tutishning ehtimoliy shakllanishini bartaraf etishga yordamlashadi.

Hayotiy yo‘ning sakkizinchi bosqichi egotenglikning yangi tugallangan shakllariga erishish bilan xarakterlanadi. Qay tarzdadir odamlar va buyumlarga nisbatan g‘amxo‘rlikni namoyon qilgan va hayotning ajralmas qismi bo‘lmish muvaffaqiyat hamda umidsizliklarga moslashgan, bolalar ota-onasi va buyumlar hamda g‘oyalar yaratuvchisida — faqat unda sekin-asta barcha yetti bosqich mahsuli — shaxs yaxlitligi aks etiladi. E.Erikson bunday qalbgga oid holatning bir necha tarkibiy qismlarini ta’kidlaydi: bu tartib va mazmunlilikka o‘zining sodiqligida o‘sib boruvchi shaxsiy ishonch; bu qanday baho evaziga erishilishidan qat’i nazar yashab o‘tgan hayotning ma’naviy mazmuni va jahon miqyosidagi tartibni boshdan kechirish kabi postnarsistik muhabbat; bu o‘z hayotiy yo‘lini yagona kerakli va almashtirishga muhtoj bo‘lmagan sifatida qabul qilish; bu yangi, oldingisidan farqli, o‘z ota-onasiga bo‘lgan muhabbat; bu o‘tgan vaqt tamoyillari va har xil turdagi faoliyatga ularning insoniy madaniyatda qay tarzda namoyon bo‘lishlariga ko‘ra ko‘ngil qo‘ygan munosabatdir. Bunday shaxs egasi alohida odamning hayoti faqat tarixning yagona bo‘lagi bilan yagona hayotiy siklning tasodifiy bir-biriga mos kelishi va bu fakt oldida o‘limning o‘z kuchini yo‘qotishini tushunadi. Donishmand hind, asl jentelmen va vijdonli dehqon bu shaxsiy bir butunlikning yakuniy holatini to‘liq darajada idrok etadi va uni bir-biridan bilib oladi.

Rivojlanishning bu bosqichida E.Erikson o‘lim oldida hayotga chetlashgan qiziqish sifatida ta’rif bergan oqillik vujudga keladi.

Aksincha, bu shaxsiy integratsiyaning yo‘qligi o‘lim qo‘rquviga olib keladi. Umidsizlik yuzaga keladi, shaxsiy yaxlitlikka boshqa yo‘llar bilan erishish niyatida hayotni yangidan boshlash uchun nihoyatda kam vaqt qolgan. Epigenez davomida asosiy vazifalarni hal qilishda ijobiy va salbiy tendensiyalarning kurashi natijasida

shaxsning asosiy «yaxshi fazilatları» shakllanadi. Biroq modomiki ijobiy tuyg‘ular doimo mavjud bo‘larkan va bir-biriga qarshi turarkan, unda «yaxshi fazilatlar» ham ikki qutbga ega bo‘ladi. Demak, asosli ishonch asosli ishonchsizlikka qarshi UMID - YIROQLASHISHni; uyat va shubhaga qarshi avtonomlik — IRODA — TASIRCHANLIKni; aybdorlikka qarshi tashabbuskorlik - MAQSADGA INTILUVCHANLIK - LOQAYDLIKni; shaxsiy to‘laqonli emaslikka qarshi mehnatsevarlik - KOMPETENTLILIK - INERSIYAni; tenglik diffuziyasiga qarshi tenglik - SADOQAT - VOZ KECHISHni; yolg‘izlikka qarshi yaqinlik — MUHABBAT — ODAMOVILIKni; o‘z-o‘zini yeb bitirishga qarshi natija — G‘AMXO‘RLIK — RAD ETISHni; hayotga qiziqishni yo‘qotishga qarshi egointegratsiya — OQILLIK - NAFRATni tug‘diradi.

E.Erikson Z.Freydning izdoshi. AQSHning 200 yilligiga bag‘ishlab nashr qilingan «Mashhur amerikaliklar lug‘ati»da u «Freyddan keyin psixoanalitik an‘anada ishlaganlar ichida ijodiy munosabatda birmuncha yorqin» shaxs sifatida tilga olingan.

D. N.Lyalikov ta‘kidlaganidek, E.Eriksonda birmuncha qadrlisi — bu uning ta‘limotidagi asosiy mag‘iz, ya‘ni shaxsiy va guruhli tenglik, psixik moratoriya tushunchalarini ishlab chiqqani, tenglikning o‘spirinlik inqirozi to‘g‘risidagi ta‘limotidir. E.Erikson o‘zini Freyd konsepsiyasini kengaytirgan, uning doirasidan chiqqan deb hisoblaydi.

Birinchidan, u urg‘uni «UNDAN» «MENGA» ko‘chirdi.

E. Erikson so‘zlari bo‘yicha uning «Bolalik va jamiyat» kitobi — «Men»ning jamiyatga munosabati to‘g‘risidagi psixoanalitik ishdir. E.Erikson anglanmagan motivatsiya g‘oyasini qabul qiladi, biroq o‘z tadqiqotlarini asosan ijtimoiylashuv jarayoniga bag‘ishlaydi. Ikkinchidan, E.Erikson bola rivojlanadigan yangi tizimni kiritadi. Z.Freyd uchun bu uchburchak: bola-ona-ota. E.Erikson rivojlanishni «Men» rivojlanadigan tarixiy reallikni ta‘kidlaganicha ijtimoiy munosabatlarning hiyla keng tizimida ko‘rib chiqadi. U oila a‘zolari va ijtimoiy-madaniy reallik o‘rtasidagi munosabatlar

dinamikasiga taalluqli. Uchinchidan, E.Erikson nazariyasi vaqt va uning o'zi mansub bo'lgan jamiyat talablariga javob beradi. E.Eriksonning maqsadi — psixologik hayoti inqirozlarni bartaraf etish uchun genetik imkoniyatlarni aniqlaydi. Agar Z.Freyd o'z ishlarini patologik rivojlanish etiologiyasiga bag'ishlagan bo'lsa, unda E.Erikson asosiy e'tiborni psixoanalitik nazariyaga yangi yo'nalish berganicha psixologik inqirozlarni muvaffaqiyatli hal qilish shartlarini o'rganishga jamladi.

E.Eriksonning konsepsiyasi shaxs hayotiy yo'lining epigenetik konsepsiyasi deb nomlanadi. Ma'lumki, epigenetik tamoyil embrional rivojlanishni o'rganishda foydalaniladi. Shu tamoyilga ko'ra barcha o'sayotgan narsa umumiy rejaga ega. Bu umumiy rejadan kelib chiqqancha, alohida qismlar rivojlanadi. Shu bilan birgalikda, ularning har biri imtiyozli rivojlanish uchun birmuncha yoqimli davrga ega. Barcha qism rivojlanib, funksional yaxlitlikni shakllantirmaguncha shunday davom etadi. Biologiyada epigenetik konsepsiyalar yangi shakl va tuzilmalarning yuzaga kelishida tashqi omillarning rolini ta'kidlaydi. E.Erikson nuqtayi nazari bilan bosqichlarning izchilligi — biologik yetilish natijasi, biroq rivojlanish mazmuni inson mansub bo'lgan jamiyat undan nimani kutishi bilan belgilanadi. E.Erikson bo'yicha har qanday odam, u qanday madaniyatga mansub bo'lmasin, bu barcha bosqichlarni o'tashi mumkin, hammasi uning hayoti qanday davomlilikka ega ekani bilan bog'liq.

Amalga oshirilgan ishlarni baholagancha E.Erikson uni davrlarga bo'lishni shaxs nazariyasi sifatida ko'rib chiqib bo'lmaydi. Uning fikriga ko'ra bu faqat bunday nazariya yaratishga kalit, xolos.

Erikson sxemasining diagonali (6-jadvalga qarang) shaxs rivojlanishi bosqichlarining ketma-ketligini ko'rsatadi, biroq uning shaxsiy so'zlari bo'yicha u tezlik va jadallikda variatsiya uchun bo'shliq qoldiradi.

«Epigenetik diagramma bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlar tizimini sanab o'tadi va garchi individual bosqichlar kam yoki

ko‘p izchillik bilan tadqiq etilgan yoxud kam yoki ko‘proq munosib tarzda nomlangan bo‘lsa-da, bizning diagrammamiz tadqiqotchiga ularni o‘rganish qachonki bosqichlarning bor tizimini yaxlit holda inobatga olganda maqsadga erishtirishini aytib beradi... Diagramma uning barcha bo‘sh kvadratlarini fikrlashga undaydi». Shunday qilib, E.Erikson so‘zlariga ko‘ra «epigenez sxemasi metodologiya va frazeologiya qismlarini kelgusida o‘rganish uchun ochiq qoldirganicha tafakkur va mulohaza qilishning global shaklini nazarda tutadi».

E.Erikson konsepsiyasining bayonini uning suyukli faylasufi Kerkegorning: «Hayot teskari tartibda tushunilishi mumkin, biroq uni boshidan yashash kerak», — degan so‘zlari bilan yakunlash mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Eriksonning egopsixologiyasining mohiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Erikson ishlarida asosiy tadqiqot metodlari.
3. Erikson nazariyasining asosiy tushunchalari nimalar?
4. Shaxs rivojlanishining psixoijtimoiy bosqichlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Erikson ishlarida asosiy tadqiqot metodlari qaysilar...
 - a) suhbat, kuzatish, eksperiment;
 - b) sotsiometriya, test, induksiya;
 - *c) longityud, psixotarixiy, etnografik;
 - d) faoliyat mahsullarini o‘rganish, proyektiv.
2. Erikson shaxs rivojlanishining psixoijtimoiy bosqichlarini nechaga bo‘lgan?
 - a) 2;
 - b) 4;
 - c) 6;
 - *d) 8.

3. Erikson nazariyasining asosiy tushunchalari nimalar?

a) adaptatsiya;

*b) identiklik;

c) izomorf;

d) illyuziya.

4. Ego identiklik — ...

*a) shaxsiy Menining barqarorligi, uzluksizligi, yaxlitligini subyektiv his qilishdir;

b) ichki kechinmalarni, boshdan kechirganlarni subyektiv his qilishdir;

c) har qanday odamning har qanday madaniyatga mansubligi;

d) «Men» rivojlanadigan tarixiy reakllikni ta'kidlaganicha ijtimoiy munosabatlarning hiyla keng tizimi.

5. Erikson konsepsiyasining epigenetik tamoyili...

a) shaxsiy Menining barqarorligi, uzluksizligi, yaxlitligini subyektiv his qilishdir;

b) ichki kechinmalarni, boshdan kechirganlarni subyektiv his qilishdir;

c) «Men» rivojlanadigan tarixiy reakllikni ta'kidlaganicha ijtimoiy munosabatlarning hiyla keng tizimi;

*d) odamlar rivojlanish bosqichidagi qarama-qarshiliklarni turlicha muvaffaqiyat va har xil tezlikda bartaraf etadi.

VII BOB. BOLANING PSIXIK RIVOJLANISHI XULQ-ATVOR QOIDALARINI O'RGANISH MUAMMOSI SIFATIDA: BIXEVORIZM

Reja:

1. Dj.Uotsonning bixevioristik nazariyasi.
2. Operant o'rganish.
3. B.Skinnerning radikal bixeviorizmi.

Mavzu o'quv maqsadi:

Ta'limiy: Talabalarga bixevioristik nazariya haqida bilim berish.

Tarbiyaviy: Bo'lg'usi psixologlarni bixevioristik nazariyani tahlil qilishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Olingan nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliyotga yo'naltirish yo'llari bo'yicha ko'nikma-malakalarni rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: bixeviorizm, stimul, reaksiya, neobixeviorizm, operant o'rganish, radikal bixeviorizmi.

7.1. Dj.Uotsonning bixevioristik nazariyasi

Bixeviorizmning asoschisi DJ.Uotson (1878—1938) psixologiya fanining bosh vazifasi xulqni tadqiq etishdan iborat deb tushunadi. U psixik hodisalardan mutlaqo voz kechib, xulqni ikki shaklga, ya'ni ichki va tashqiga ajratadi, ular o'zaro javoblar stimuli bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bixeviorizm uchun «xulq» asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi chetlab o'tilgandir.

Uotson «Bolani psixologik tarbiyalash» asarida bolani ruhan va jismonan sog'lom qilib tarbiyalash uchun nimalarga e'tibor qaratish zarurligi haqida to'xtalib o'tdi. Qat'iy kun tartibiga rioya qilish, turli stimullarning ta'siridan himoya qiladigan bolaning maxsus xonasi mavjudligi, bolaga nisbatan muhabbat va g'amxo'rlik ko'rsatishda me'yor bo'lishi zarurligini ta'kidladi. Uotson insonlarni tarbiyalashda muhitning ustuvor rolini ta'kidladi. Uning

da kimni bo‘lsa-da tarbiyalash mumkin: yoki bir xil xulq-atvorli bolalar qilib tarbiyalash mumkin, yoki har xil sohadagi insonlarni — vrach, sotuvchi, yoki o‘g‘ri qilib tarbiyalash mumkin.



Dj.Uotson

Klassik bixeviorizmning asosiy g‘oyasi quyidagilardan iborat: bola psixikasining rivojlanishi asosan atrof-muhitga bog‘liq. Bola taraqqiyotini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda stimullar va ular asosida paydo bo‘ladigan reaksiyalar o‘rtasida bog‘lanish hosil bo‘lishiga, o‘rganishga imkon beradigan yoki unga to‘sqinlik qiladigan sharoitlarni o‘rganishga e‘tibor qaratildi. Muhit bolani o‘rab turuvchi tevarak-atrof, aniq hayotiy vaziyatlardan iborat sharoit sifatida qaraldi; vaziyat turli stimullar to‘plamidan iborat bo‘lib, ular o‘z navbatida qo‘zg‘atuvchilar zanjiriga bo‘linadi. Tashqi muhit ta’sirlari bola xulq-atvori mazmunini va uning rivojlanish xarakterini belgilaydi.

Shunga qaramasdan, ba’zi bixevioristlar, jumladan E.Torndayk, E.Tblmen, K.Xall, D.Xebb kabilar xulq motivatsiyasiga muayyan darajada e‘tibor qilganlar.

Ular o‘zlarining izlanishlarida xulq motivatsiyasining «quyi darajalari»ni o‘rganib, kalamushlarda tajriba ishlarini olib borib, jonivorda ochlik, tashnalik va ularning turlicha darajalarini reaksiya tezligiga nisbatan namoyon bo‘lish xususiyati, har xil sha-

roitda motivatsiyaning kuchi to'g'risida muayyan qonuniyatlar ochishga intilganlar. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo'zg'atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar. Neobixevioristik nazariyalar yangi qo'zg'atuvchilar paydo bo'lishiga asoslangan bo'lib,

ular insonning organik ehtiyojlarini qoniqtirish bilan stimul natijasining uyg'unlashuvi tariqasida tahlil etiladi. Ularning ta'kidlashiga ko'ra, ikkilamchi qo'zg'atuvchilar organik qo'zg'atuvchilarning go'yoki qobig'iga o'xshaydi, xolos. Vilyam Makdugall (1871—938) motivatsiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan holatni asoslash uchun tug'ma instinktlar masala-

Dj.Uotsonning bixeviorizm konsepsiyasi

Asosiy tadqiqot predmeti	Tashqi kuzatish, xulq-atvorni o'rganish
Tadqiqot metodlari	Kuzatish, eksperimental o'rganish
Asosiy tushunchalar	Xulq-atvor, shartsiz reaksiya, shartsiz stimul, shartli reaksiya, shartli stimul
Asosiy g'oyalari	Xulq-atvorning tashqi ijtimoiy omil—stimulga bog'liqligi: asosiy sxema «stimulreaksiya». O'tmish tajriba, o'rganishning roli e'tirof etiladi: o'rganish = rivojlanish.
Rivojlanish omillari	Ijtimoiy omil, o'rganish
Afzalligi	Insonga ta'lim berishga nisbatan optimistik munosabat, muhit sharoitlariga e'tibor qaratilganligi
Kamchiligi	—xulq-atvorning ichki (psixologik) omillaridan voz kechish va to'liq rad etish; — barcha tirik organizmlar xulq-atvoridagi umumiylikni izlash; taraqqiyotda insonga xos bo'lgan o'ziga xoslikni rad etish; —inson haqida mexanistik tasavvur; — ta'limning passiv xarakteri — inson ta'sir obyekti sifatida; — haqiqat yangi paydo bo'lgan xulq-

Uning fikricha, tugʻma instinktlar ham insonlarga, ham hayvonlarga bir tekis taalluqli boʻlib, ular odamlarning motivida oldin 14 ta, keyinchalik esa 18 tagacha «asosiy instinktlar» sifatida hukm surishi mumkin.

7.2. Operant oʻrganish

Edvard Torndaykning psixologiya faniga qoʻshgan hissalaridan biri «odam shunchaki fikrlay oladigan boshqa bir jonivor» degan taʼkid edi. Edvard Torndayk oʻzining psixologiyadagi tizimini «Maqbul bixeviorizm» deb atagan. Uning fikricha, organizm xulq-atvori maʼlum bir adaptativ maqsadga yoʻnalgan. Bixeviorist boʻlgan Tolmen Kurt Levin tufayli geshtalt nazariyasiga qiziqib qoladi.

Klerk Xallning fikrlariga LPPavlov, Ch.Darvin, ETorndayk, ETolmenlar ishlari oʻz taʼsirini koʻrsatgan. Uning nazariyasi ushbu tadqiqotchilarning nazariyalari hamda Nyuton fizikasini siznetlashga urinish edi. U gipnoz bilan qiziqadi hamda 1933-yilda shu mavzuda kitob yozadi¹.

Haqiqatdan yangi xulq-atvorni egallash shartlarini eksperimental tadqiqi, shuningdek, oʻrgatish dinamikasi amerikalik psixolog E.Torndaykning diqqat markazida boʻlgan. E.Torndayk ishlarida hayvonlarda muammoli vaziyatlarni hal etish qonuniyatlari koʻproq oʻrganilgan. Hayvonlar mushuk, it, maymun maxsus yasalgan muammoli quti yoki labirintdan mustaqil ravishda chiqish yoʻlini topishlari kerak edi. Keyinchalik xuddi shunday tajribalarda sinaluvchi sifatida kichik yoshdagi bolalar ishtirok etgan. Labirint yoki eshikni ochish vazifasini hal etish usulini qidirishini namoyon qiluvchi murakkab, ichki sabab natijasida yuzaga kelgan bunday xulq-atvorni tahlil qilishida maʼlum bir reaksiyani yuzaga keltiruvchi stimulni ajratish qiyin. E.Torndayk maʼlumotlariga koʻra dastavval hayvonlar koʻplab tartibsiz hara-

¹ Sahakian, W.S. (1976) Kearsley, G. Drive Reduction. Theory. Retrived November 9, /2002 from <http://tip.Psychology.org/hull.html>

kat sinovlarni amalga oshirgan va tasodifan muvaffaqiyatga olib boradigan kerakli harakatlarni qilgan. Ushbu qutidan chiqishning keyingi harakatlarida xatolar soni kamayib unga sarflangan vaqt ham qisqargan. O'rgatish turi sinaluvchi odatda, xulq-atvorning turli variantlarini operantlarini harakat qilish anglamagan holda sinashi va ulardan ko'proq to'g'ri mos kelganini tanlab olishidir, bu operant asoslash nomini olgan. Intellektual vazifalarni hal etishda sinov va xatolar metodi inson va hayvonlar xulq-atvorini tavsiflovchi umumiy qonuniyat sifatida ko'rib chiqila boshlangan.

Torndayk o'rgatishning to'rtta asosiy qonunini ta'riflagan:

1. Takrorlash qonuni mashq qilish stimuli va reaksiya o'rtasidagi aloqa qanchalik tez-tez takrorlansa, shunchalik u tezroq mustahkamlanadi va mahkamlanadi.

2. Ta'sir effekt qonuni (qo'llab-quvvatlash). Reaksiyalarni o'rganishda qo'llab-quvvatlash bilan birga kuzatilganlardan ijobiy yoki salbiy biri mustahkamlanadi.

3. Tayyorlik hozirlik qonuni. Subyekt holati ochlik suvsizlik hissini his qilayotgan yangi reaksiyalarni ishlab chiqish uchun ahamiyatsiz emas.

4. Assotsiativ o'zgarish qonuni. Vaqt bilan chegaradoshlik bog'liqlik ahamiyatli muhim bilan assotsiatsiya qilishda bog'liq bo'lgan neytral stimuli ham kerakli xulq-atvorni yuzaga keltirib boshlaydi. Shuningdek, ETbrndayk tomonidan bolani o'rgatish muvaffaqiyatining qo'shimcha sharoiti stimuli va reaksiyani farqlashdagi yengillik hamda ular o'rtasidagi aloqani anglash ajratib ko'rsatilgan. Operant o'rgatish organizmining yuqori faolligida sodir bo'ladi, uning natijalari oqibatlari bilan nazorat qilinadi, aniqlanadi. Umumiy fikr shundaki, agar harakatlar ijobiy natijaga, muvaffaqiyatga olib kelsa, unda ular mustahkamlanib takrorlanadi. ETbrndayk tajribalaridagi labirint atrof-muhitning sodalashtirilgan modeli bo'lib xizmat qilgan. Labirint metodikasi haqiqatdan ham ma'lum bir doirada organizm va muhitning munosabatini modellashtiradi, ifodalaydi lekin juda tor, bir tomon-

lama chegaralangan bo‘ladi. Bu model doirasida aniqlangan qonuniyatlarni inson ijtimoiy xulq-atvoriga o‘tkazish juda qiyin.

7.3. B.Skinnerning radikal bixeviorizmi

B.F. Skinner bixevioristik nazariyaning yetakchisidir. Skinner boshqa zamondoshlariga nisbatan o‘z-o‘zini kuzatishga qarshi bo‘lgan. Shuningdek, u xulq-atvor shakllarini o‘rganishga hissa qo‘shgan.¹

Bixeviorizmning ko‘zga ko‘ringan nazariyotchisi Skinner (1904—1990) metodlar orqali insonning barcha xulq-atvorini bilish mumkinligini, chunki obyektiv ijtimoiy muhit determinallanganligini e‘tirof etgan. B.F.Skinner motivlar, maqsadlar, hissiyotlar, anglanmagan fikrlar va shu kabi psixik jarayonlar tushunchasini inkor etgan. Uning ta’kidlashicha, inson xulq-atvori deyarli uni qurshab turgan tashqi muhit ta’sirida butunlay shakllanadi. Ba’zida bunday yondashuvni invayronmentalizm (environment — muhit-atrof) deb ataydilar. B.F.Skinner fikriga ko‘ra, inson psixikasining qora qutisi empirik tadqiqotlardan chiqarib tashlanishi, bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan inson xulq-atvorini o‘rganishga, oxirgi hisobda inson harakatini aniqlab nazorat qiluvchi muhit omillarini o‘rganishga qaratilishi kerak. B.F.Skinner hayvonlar xulq-atvorini (kalamush, kabutar) eksperimental tahlili inson va hayvonlar uchun umumiy bo‘lgan xulq-atvor tomonlarini ochishga imkon beradi, deb hisoblangan. Xulq-atvorning umumiy qonuniyatiga tayanib ta’lim va tarbiyaning muhim amaliy psixologik-pedagogik vazifasini hal etish mumkin. Ijtimoiy muhit o‘zgarishlarini manipulatsiya qilib, ya’ni bog‘liq bo‘lmagan o‘zgarishlar individning xulq-atvor reaksiyalarini bog‘liq o‘zgaruvchilar taxmin qilish va nazorat qilish mumkin.

B.F.Skinner xulq-atvorning 2 ta asosiy turi mavjudligini e‘tirof etgan: respondent va operant. Biroq uning taxminicha, anglash

¹ David G. Myers «Psychology ninth edition in modules». NY, WORTH PUBLISHER-2010. 4-5pages.

mumkin bo‘lgan, birlamchi stimullar mavjud bo‘lmagan ichki sabablar natijasida vujudga kelgan harakatlar operant xulq-atvordir. Inson va hayvonlar uchun xulq-atvor natijasida yuzaga keluvchi voqea-hodisalar oqibatlar muhimdir. Oqibatga bog‘liq ravishda kelajakdagi xulq-atvorga nisbatan ma‘lum bir fikr shakllanadi. Operant xulq-atvor asta-sekin ixtiyoriy harakatni egallaydi. O‘rgatishning operant turi bo‘yicha insoniyat xulq-atvorining ko‘pgina shakllarining shakllanishi sodir bo‘ladi, ya‘ni kiyinishni bilish, kitob o‘qish odati, tajovuzkorlikni namoyon qilishdan tiyilish, g‘azabni jilovlash, tortinchoqlikni yengib o‘tish va boshqalar.

Pirovard ijobiy natijaga olib keladigan reaksiyani takrorlashga harakat qiladi. Shunday qilib, ko‘pgina oilalarda yig‘lashga operant o‘rgatishni kuzatish mumkin.

Hayqiriq va yig‘i bolaning jismoniy noqulaylikka nisbatan shartsiz reaksiyasi sifatida ota-onani bolaga yaqinlashib unga diqqatini qaratib, yordam berib, tinchlantirishga undaydi bunday g‘amxo‘rlik bola yig‘isi uchun kuchli ijobiy quvvat bo‘ladi va yig‘i ota-ona xulq-atvorini nazorat qilishning operant asoslangan omiliga aylanadi. Shu vaqtning o‘zida, salbiy natija yoki jazolashni yuzaga keltiruvchi reaksiyalarni takrorlanish ehtimoli kamayadi. Agar tanish kimsa sizning salomingizga javoban labini qisib tanimaslikka olsa, biz tezda u bilan salomlashishni bas qilamiz.

Qo‘llab-quvvatlash B.F.Skinner konsepsiyasining tayanch tushunchasidir. Qo‘llab-quvvatlash reaksiyani kuchaytirib uni hosil bo‘lish ehtimolini ko‘paytiradi. Bixevioral o‘rganishda qo‘llab-quvvatlashning ikki turi tan olingan birlamchi yoki shartsiz (suv, ozuqa, jinsiy munosabat), ikkilamchi yoki shartli (pul, boshqalar tomonidan e‘tibor, ota-ona, tengdoshlar va o‘qituvchilarning maqtovi, ma‘qullashlari). B.F.Skinnerning fikricha, ikkilamchi qo‘llab-quvvatlash stimullari avvalgi tajriba natijasida quvvatlovchiga aylanadi.

Ular ko‘pchilik odamlar uchun umumiy bo‘lib, ularning xulq-atvoriga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, B.F Skinner

ijobiy va salbiy qo‘llab-quvvatlovchini ajratib ko‘rsatgan. Ijobiy quvvatlovchi (quvvatlash) birgalikda reaksiyani kuchaytiradi. Salbiy quvvatlovchi (quvvatlash) ham faqatgina qo‘zg‘atuvchi stimullarni bartaraf qilish hisobiga (o‘rtoqlarning «kichkintoy» «onasini o‘g‘li» kabi mazaxlaridan qochib intilishga haqoratlovchi so‘z va iboralarni qo‘llashni boshlaydi). Xulq-atvor reaksiyasini kuchaytiradi. Shuningdek, xulq-atvor jazolash yordamida ham (o‘smirning onasi haqoratli so‘zlar uchun uni labiga urishi yoki cho‘ntak pulidan mahrum qilishi mumkin) nazorat qilishi mumkin.

Bunday oqibatga chek qo‘yish, xulq-atvor reaksiyasiga barham berish talab etiladi.

Zamonaviy jamiyatda jazolash texnikasi ko‘proq qo‘llaniladi, lekin B.F Skinner xulq-atvorning bunday nazorati samarasiz (faqat vaqtincha istalmagan xulq-atvorni to‘xtatib turadi) ekanligini va undan ham yomoni salbiy zararli ta’sirni (qo‘rquv, xavotirlanish o‘z-o‘ziga bahosining pasayishi, (asotsial) antiijtimoiy xulq-atvorning qo‘pol shakllari) yuzaga keltirishga harakat qilgan. B.F.Skinner ijobiy qo‘llab-quvvatlash (kutilmagan natijalarni rag‘batlantirish) kattalar xulq-atvorini shakllantirishning juda ham ishonchli usuli (metodi) ekanligini ta’kidlagan. Murakkab xulq-atvorga o‘rgatish holatida (masalan, xat yozish ko‘nikmasi, shaxslarao muloqot tartiblilikni hosil qilish) izchil yaqinlashish yoki shakllantirish metodidan foydalaniladi. Qadam-baqadam bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlash xulq-atvorni kutilgan yo‘nalishga o‘zgartirishga bir necha marotaba qo‘shiladi. O‘rgatishning boshqa tamoyili — qo‘llab-quvvatlashning beto‘xtovligidir. Bolani mustaqil tartibli ovqatlanishga o‘rgatishga muntazam qo‘llab-quvvatlanadi: boshida bola o‘rgatilganlarni tezda yodidan chiqarib qo‘ysa-da, uni ruhlantirish har bir harakatlardan faxrlanish, masalan, bola qo‘liga qoshiqni olib og‘ziga olib borish harakati uchun uni maqtash kerak. Kutilgan natijaga faqatgina asta-sekin yaqinlashish natijasida bolada kiyim-kechak va stol ozodaligiga hamda tartibligiga erishish mumkin. B.F. Skinnerning ta’kidlashicha, hatto verbal xulq-atvor yoki og‘zaki

nutq ham muvaffaqiyatli yoki izchil yaqinlashish orqali egallanadi. Lekin ko'pgina psixologlar operant asoslash tamoyilidan kelib chiqib tushuntirib bo'lmaydigan, ilk bolalik davrida nutqning bu qadar tez rivojlanishiga alohida urg'u berib, bunday tarzda tilni o'zlashtirish mumkinligiga mutlaqo qarshilar.

Insonning ijtimoiylashuvi muammosi B.F.Skinnerning «Erkinlik va qadr-qimmatning boshqa tarafi* (1971), «Jamiyat va bixeviorizm haqida fikr-mulohazalar» (1978) kitoblarida tahlil qilingan. B.F.Skinner ta'limotida bolaning rivojlanishi bu qo'llab-quvvatlash yo'nalishi bilan muvofiqlikda uni me'yoriy xulq-atvorga o'rgatishdir. Ilk bosqichlarda ijtimoiylashuv omillari va qo'llab-quvvatlash manbalari bo'lib, ota-ona hisoblanadi, keyinchalik, qo'llab-quvvatlash manbalarining soni ortadi: bular qo'ni-qo'shnilar, maktab, tengdoshlar fikridir. B.F.Skinner «Inson xulq-atvori uning hayoti davomida o'zgaradi va vaqti-vaqti bilan inqirozlar yuzaga keladi, degan fikrni qo'llab-quvvatlagan. Inqiroz holati muhitining shunday bir o'zgaralar ta'sirida yuzaga keladiki, unda individ xulq-atvor reaksiyalarining adekvat to'plamiga ega bo'lmaydi. Muhit bolaning xulq-atvorini doimiy, uzluksiz va ketma-ketlikda shakllantiradi, deb hisoblagani uchun bixeviorizmدا rivojlanishni yosh davrlarga ajratish (bo'lish) muammosi ko'rib chiqilmaydi. Rivojlanishni davrlashtirish muhitga bog'liq. Ushbu yosh davrida barcha bolalar uchun yagona rivojlanish qonuniyati mavjud emas: muhit qanday bo'lsa ushbu bolaning rivojlanish qonuniyati ham shunday bo'ladi. Gap faqat ma'lum bir ko'nikmani shakllantirish o'rgatish bosqichlarini belgilash imkonini beradigan (o'yinni rivojlanish bosqichlari yozishga yoki tennis o'ynashga o'rgatish) funksional davrlashtirishni yaratish haqida ketishi mumkin. O'rgatishning doimiy tajribasi boshqa psixologik maktablarda «Shaxs» deb nomlanuvchini yaratdi. Shaxs—bu insonning butun umri (hayoti) davomida egallagan tajribasidir. Insonning (noyobligi) o'ziga xosligi irsiyat tavsif va o'rgatishning individual repertuarini o'ziga xos uyg'unligi bi-

136

lan belgilanadi. Bunday tarzda psixik rivojlanish o'rgatish bilan tenglashtiriladi, ya'ni har qanday bilim, ko'nikma, malakani egallash bilan maxsus o'qitish sharoitlarida va tasodifiy yuzaga kelgan holatlarda bilishga o'rgangan.

B.F.Skinner g'oyalari juda keng amaliy ahamiyatini topdi. Muvaffaqiyatli izchil yaqinlashish strategiyasi va ijobiy qo'llab-quvvatlash texnikasi bixevioral treningining individ xulq-atvorini modifikatsiya qilish metodlari asosini tashkil qilgan. Ular taklifining aniq sohalari o'rtasida turli xil ko'rinishdagi qo'rquv xavotirlanish va «yopishqoq» (miyaga o'rnashib qoladigan) holatlarni yengib o'tish destruktiv xulq-atvorni o'zgartirish muloqot ko'nikmalariga o'rgatish, o'ziga ishonchni mashq qilish, gipertenziya, muskul zo'riqishlari, migren, xavotirni davolashda qayta aloqa bilan treninglar o'tkazish. Operant metodikalar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga, ruhiy kasalxona bemorlariga, qamoqxona mahbuslariga ham qo'llaniladi. «Jetonli taqdirlash», «Senzibilitatsiya va desensibilyatsiya», «to'xtatilgan vaqt» yoki «taym-aut» metodikalari keng mashhurlikka erishdi. Kompyuterdan foydalanilgan holda das-turlashtirilgan o'qitish B.F.Skinner tomonidan o'ylab chiqilgan tamoyillarga asoslanadi. Ko'pgina mutaxassislar «Xulq-atvor ko'rinishi texnologiyasi»ning samaradorligini tan oladilar, biroq bunda metodning mexanikligini rahbarning avtoritarizmiga moyilligini va rivojlanishning ichki omillarini (inson fikri, hissiyoti, qiziqishi) rad etilishini ta'kidlaydilar va bu metodni haddan ziyod keng qo'llash mumkin emasligi haqida ogohlantiriladi.

Mavzuni mustahkamlash uhun nazorat savollari:

1. Bixevioristik nazariyaning asosiy mohiyati.
2. Operant o'rganishning asosiy mazmuni nimalardan iborat?
3. B.Skinnerning radikal bixeviorizmining asosiy g'oyalari.
4. Bixevioristik nazariyaning afzalligi nimalardan iborat?
5. Bixevioristik nazariyaning kamchiligi nimalardan iborat?

Mavzuni mustahkamlash uhun test savollari:

1. Bixevioristik nazariyaning asoschisi kim?

- a) Torndayk;
- b) Xebb;
- *c) Uotson;
- d) Skinner.

2. Bixevioristik nazariyaning asosiy formulasi?

- a) S-G;
- b) S-S;
- c) S-U;
- *d) S-R.

3. Bixevioristik nazariyaning kamchiligi?

a) ayrim insonlarda olingan natijalarning barchaga tatbiq etilishi;

*b) hayvonlarda olingan natijalarning odamlarga tatbiq etilishi;

c) salbiy natija yoki jazolashni yuzaga keltiruvchi reaksiyalarning takrorlanish ehtimoli kamayadi;

d) intellektual vazifalarni hal etishda sinov va xatolar metodidan foydalanilgani.

4. Torndayk taklif etgan o'rgatishning to'rtta asosiy qonuni:

*a) takrorlash, ta'sir effekti, tayyorlik, assotsiativ o'zgarish qonuni

b) nisbiylik, ehtimol, adaptatsiya, assotsiativ o'zgarish qonuni

c) takrorlash, ta'sir effekti, o'qish, takrorlash qonuni

d) adaptatsiya, akkomadatsiya, sensibilizatsiya, tayyorlik qonuni.

5. B.F.Skinner konsepsiyasining tayanch tushunchasi ...

a) takrorlash;

b) adaptatsiya;

*c) qo'llab-quvvatlash;

d) reaksiya.

VIII BOB. IJTIMOIYLASHUV MUAMMOSI SIFATIDA BOLA PSIXIK RIVOJLANISHINING IJTIMOY O'RGANISH NAZARIYASI

Reja:

1. Ijtimoiy o'rganish ta'limotining markaziy muammosi sifatida ijtimoiylashuv.
2. Ijtimoiy o'qitish nazariyasining evolutsiyasi.
3. Kuzatish, taqlid qilish orqali o'rgatish fenomeni.
4. Bolalar rivojlanish taraqqiyotini o'rganishning diadik tamoyili.

Mavzu o'quv maqsadi:

Ta'limiy: Talabalarga ijtimoiy o'rganish nazariyasi haqida bilim berish.

Tarbiyaviy: Bo'lg'usi psixologlarni ijtimoiy o'rganish nazariyasini tahlil qilishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Olingan nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliyotga yo'naltirish yo'llari bo'yicha ko'nikma-malakalarni rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy o'rganish, ijtimoiylashuv, ijtimoiy tasavvurlar, shaxslararo moslik.

8.1. Ijtimoiy o'rganish ta'limotining markaziy muammosi sifatida ijtimoiylashuv

Amerikada XX asrning 30-yillari oxirida ijtimoiy o'rganishning kuchli psixologik yo'nalishi yuzaga kelgan. Individga xulq-atvor namunalari rollar, me'yorlar motivlar, kutuvlar, hayotiy qadriyatlar, emotsiyalarni o'tkazish orqali individning ijtimoiy xulq-atvorini hayotiy shakllantirishni ifodalash uchun N.Miller va D.Dollard tomonidan ijtimoiy o'rgatish atamasi kiritilgan edi. Ijtimoiylashuv — biologik mavjudot, go'dakning tamomila oila, guruh umuman olganda insoniyat jamiyatini to'laqonli a'zosiga asta-sekin aylanish jarayoni sifatida, yangi ijtimoiy xulq-atvorni egallash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Xulq-atvorning umumiy nazariyasi yulq-atvor namunalari qanday tarzda o'zlashtirilishi

ni va ularning namoyon bo'lishi o'zaro aloqada bo'lgan tashqi va ichki ta'sir manbalari tomonidan qanday tarzda doimo boshqarishini izohlashi kerak. Ushbu ilmiy yo'nalish vazifalarini uning nazariy yetakchisi Bandura shunday shakllantirgan. XX asrning ikkinchi yarmida Amerika psixologiyasini rivojlanishi uchun ijtimoiylashuv muammosini asosiy deb hisoblash mumkin. Jamiyat bolalarni umumqabul qilingan me'yoriy muammolar bilan muvofiqlikda o'zlarida tutishlariga undashda qo'llaydigan mexanizmlar ya'ni usullarni yetilishi esa uning bosh maqsadidir. Ijtimoiy o'qitish nazariyasi psixoanalizda (misol uchun antogonizm haqidagi dastlabki tezis, bola va jamiyatning qarama-qarshiligi) ba'zi bir holatlarni qabul qilib o'zlashtirgan va ularni o'rgatishning bixevioristik tamoyillari bilan bog'langan. Ijtimoiy o'qitish yo'nalishi nazariyasining butun bir spektridan iborat. O'qitishning aniq mexanizmlariga yondashuvlarda nazariya mualliflarining qarashlari farqlanadi, biroq ijtimoiy xulq-atvorga o'rgatish g'oyasi ahamiyatini butunlay qo'llab-quvvatlaydilar. Ijtimoiy o'qitish sohasida anchadan beri tadqiqotchilarning bir necha avlodi ishlab kelishmoqda. Bu avlodlar amerika psixologiyasining o'zida ajratib ko'rsatilgan.

8.2. Ijtimoiy o'qitish nazariyasining evolutsiyasi

Birinchi avlod (XX asrning 30—60-yillari) — N.Miller, D.Dollard, R.Sirs, B.Uovayting, B.Skinner, bu tadqiqotchilarni hali bixeviorizm ham ijtimoiy o'qitish nazariyasiga kiritadilar.

Ikkinchi avlod (60—70-yil) — A.Bandura, R.Uoters, S.Biju, Dj. Gevirt va boshqalar.

Uchinchi avlod (70-yildan boshlab) VXartup, E.Makkobi, Dj.Aronfrid, U. Branfenbrenner va boshqalar.

N.Miller va D.Dollard ijtimoiy o'qitish yo'nalishining birinchi namoyandalari bo'lib, bixevioral o'qitishning asosiy tamoyillarini psixoanalitik nazariyaning ba'zi holat va g'oyalari bilan to'ldirishga harakat qilganlar. Empirik asos sifatida ular ham bola va hayvonlar xulq-atvorining eksperimental o'rgatish ma'lumotlarini

ayniqsa nevrotilar xulq-atvoriga oid boy klinik ma'lumotlarni qo'llash mumkin deb hisoblaganlar. Eksperimental xulq-atvor-ga o'rgatishda boshqaning (modelning) harakatini kuzatishning ahamiyati ko'rsatilgan, bu yangi reaksiyani paydo boigunga qadar vaqtni qisqartirishda, sinov va xatolar sonining kamayishida ifodalaydi. Klassik bixeviorizm nazariyachilaridan farqli ravishda ijtimoiy o'qitish nazariyasi xulq-atvorda ichki motivatsiyaning rolini tan olib avvalo uning qo'zg'atuvchi funksiyasining muhimligini ta'kidlaydilar, ular organik ehtiyojlardan kelib chiquvchi (ochlik, suvsizlik, og'riq) birlamchi qo'zg'atuvchilarni jahl, ayb, harakatlarga ehtiyoj, qo'rquv, xavotirlanish ikkimlamchi qo'zg'atuvchilarni

ajratganlar. Psixoanalizda xulq-atvorning asosiy boshqaruvchisi qoniqish tamoyili ular tomonidan qo'llab-quvvatlash tamoyiliga (rag'batlantirish) o'zgartirilgan. Dastlab ijtimoiy o'rgatish nazariyasi qafiy obyektiv (pozitiv) empirik bilimlarni egallash metodlarini ishlab chiqishga yaqqol ifodalangan yo'nalganlik bilan salbiy va ijobiy falsafiy asosga qurilgan. Psixologik tadqiqot metodologiyasi rejalashtirishning puxtaligini ma'lumotlarni qayd etishning tizimligini bog'liq va bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilarni nazorat qilish va o'zlashtirishni miqdoriy baholashning mumkinligi talab qiladi. O'tgan asrning 40—50-yillarida manipulyativ laboratoriya eksperimenti tadqiqotning hukmron metodi bo'ldi.

Ijtimoiy o'rgatishda bolalik o'tib ketuvchi nevroz bilan qiyoslanganda xulq-atvor buzilishi va qayta yo'naltirish davri sifatiga tushunilgan. Bu tushunchalardan kelib chiqib, bolani ijtimoiylashtirishi uchun ota-onaning vazifasi quyidagilardan iborat bo'lgan: ovqatlantirish, tuvakka o'rgatish, bolada agressiyaning namoyon bo'lishi, uni jinsiy identifikatsiyasi va me'yoriy xulq-atvorning boshqa xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan yosh davriga oid muammolarni bartaraf qilish.

8.3. Kuzatish, taqlid qilish orqali o'rgatish fenomeni

Murakkab ijtimoiy xulq-atvorning egallanishini izohlash uchun onerant va respondent o'rgatish mexanizmlari yetarli emas

Javob topish jarayonida, birlamchi ahamiyatni o'rgatishning o'zi-ga xos tipi-vizual o'rgatishga yoki kuzatish yordamida o'rgatish-ga qarata boshlaganlar.


Albert Banduraning 1960-yillardagi erta ishlari bixeviorizm-da o'rganishning kognitiv modellari uchun ko'priklardan biri hi-soblanadi. Bunda kuzatish o'rganish jarayoni bo'lib, hech qanday o'quv faoliyatisiz amalga oshadi, kuzatilayotgan model esa hatto kuzatuvchi uchun taqlid manbayi bo'layotganini sezmasligi ham mumkin¹.

A. Bandura 1925-yilda o'rgatishning bunday usulini ijtimoiy kognitiv deb nomlagan. Kognitiv o'rgatish o'rgatilayotganning birmuncha katta faolligini nazarda tutadi, individ o'rgatiluvchi-ga aylanadi, deb ham aytish mumkin. U o'zining harakatlari oqi-batini kuzatadi, ulardan qay biri o'zining natijasiga ko'ra muvaf-faqiyatli, qay biri keraksiz yoki zararli ekanligini qayd qiladi va eslab qoladi. Bundan tashqari o'rgatish, biror-bir aktda harakatda to'g'ridan to'g'ri ishtirokni qat'iy majburiy talab qilmaydi, model xulq-atvorining kuzatuvchisi bo'lishni o'zi yetarlidir. Oqibatda xulq-atvor namunasi qaytadan ishlab chiqiladigan inson. Bu ho-latda inson boshqaning harakatlarini ko'zga ko'rinadigan oqibat-lariga tayanishi mumkin ma'lumot axborot olish va o'z xulq-at-ovorini kuzatishi xulq-atvorning ma'lum bir shakliga harakatning kognitiv obraziga bixevioral moyillikni yaratadi. Xulq-atvor mo-deliga amal qilish kodlangan axborot ma'lumotga tayangan hol-da sodir bo'ladi.

Aggressiyani moyillashtirish sharoitlarini o'rganish ijtimoiy o'rgatish nazariyasining tayanch mavzularidan biridir. Ijtimoiy-lashuv tushunchasi favqulotda keng va ko'p qirralidir, har bir madaniyatda jamiyatning tarkibiy a'zosini sifat va bilishga o'z ta-blari mavjud. Biroq, xulq-atvorning ba'zi ko'rinishlari ko'proq universal umumiy rol o'ynaydi? Bu o'zaro ijtimoiy protsial xulq-at-

¹ Bertrand Russell The history of westem philosophy. NEWYORK. 2010 .P. 696-700.

vor hamkorlik, o‘zaro yordam, altruistik xulq-atvor, agressiyaning maqbul shakllari hayotning bunday jihatlariga o‘rganish har qanday hamjamiyatda mutlaqo zarurdir.



Albert Bandura

A. Bandura bolalar va o‘spirinlardagi agressiyaning laboratoriya va dala tadqiqotlarini o‘tkazgan. Masalan, bir qator eksperimental tadqiqotlarda 4 yoshli bolalar guruhiga modellar uchun turli oqibatlariga olib keluvchi rag‘batlantirish yoki jazolash, zo‘ravon xulq-atvor namunalarini ifodalovchi filmlar namoyish etilgan. Katta yoshdagi odam ishirilgan rezinka qo‘g‘irchoqni mushtlari bilan urib, uning sha‘niga qo‘pol luqma tashlagan, so‘ngra uni taqdirlashgan, shirinlik bilan mehmon qilishgan yoki urishishgan, koyiganlar, filmdan so‘ng bolalarga filmda ishtirok etgan o‘yinchoqlarni mustaqil o‘ynash imkoniyati berilgan. Natija shuni ko‘rsatdiki, agressiv obrazli taqdirlangan odam modeli ishtirok etgan filmni ko‘rgan bolalarda agressiv xulq-atvor darajasi yuqori bo‘lgan. Manipulyativ eksperimental tadqiqotlar doirasida bola xulq-atvoriga tobe o‘zgaruvchi modelining turli xarakteristikalarini ta’siri mustaqil o‘zgaruvchi o‘rganilgan. Model xarakteristikasini turlarga tavsiflash jinsi, yoshi, etnik mansubligi obro‘-e’tibori hokimlik va pulga munosabati sinaluvchi kuza-

tuvchilarning xulq-atvor strategiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi bir qator omillarni aniqlash imkonini berdi.

Qo'llab-quvvatlash taqlid qilish asosida yuzaga kelgan xulq-atvorni saqlash uchun zarur. O'tmishdagi xulq-atvorni bevosita tashqi qo'llab-quvvatlash qo'zg'atuvchi va axborot funksiyasini bajaradi. A.Bandura bilvosita qo'llab-quvvatlash, ya'ni modelni rag'batlantirishni kuzatish va o'z-o'zini qo'llab-quvvatlashning o'z xulq-atvorini ijobiy baholash xuddi shunday ahamiyatini e'tirof etgan. Shunday qilib, Skinner talqini bo'yicha agar radikal keskin, qat'iy bixeviorizm, xulq-atvor stimullar termini va qo'llab-quvvatlovchi oqibatlar orqali tushuntirilishini tasdiqlasa, A.Bandura nuqtayi nazarida esa xulq-atvorning tashqi holatli omillarning o'zaro determinizmida, masalan, rag'batlantirish va jazolash va ichki kognitiv ketish, ong, idrok qilish, qabul qilish haqida gapirish lozim.

Modelni kuzatish qaysi xulq-atvor to'g'ri va u qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligi haqida xulosa qilish imkonini beradi, biroq ko'plab murakkab xulq-atvor aktlariga o'rgatishni tushuntirish uchun velosipedda yurish, xirurgik operatsiyalarni bajarish imitatsiya, taqlid qilish, o'xshatish mexanizmi yetarli emas. A.Bandura faqatgina kuzatuv orqali yangi xulq-atvor aktiga o'rganish mumkin emasligi haqidagi qarshilikni e'tirozni hisobga olgan. O'zining ijtimoiy o'rgatish nazariyasi nomli asarida u S-R chizmasiga qanday qilib modelning taqlidi subyektda yangi xulq-atvor aktini shakllanishiga olib kelishini tushuntirish uchun zarur bo'lgan 4 oraliq jarayonni kiritgan kuzatish orqali o'rgatish komponentlari diqqat jarayonlari, saqlab qolish, harakat ijrosi va motivatsiya quyidagilar bilan aniqlanadi:

— modelga diqqatni qaratish va tushunish anglash quyidagilar bilan aniqlanadi;

— model xususiyatlari ijtimoiy xarakteristika, obro'-e'tiborning namoyoh bo'lishi, kompetentlik, shaxsiy jozibadorlik;

— harakat namunasi xarakteristikalari funksional amaliy ahamiyati, yangiligi, zaruriyati;

— avvalgi qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq bo‘lgan kuzatuvchining o‘zini sensor qobiliyati perseptiv ustanovkasi va motivatsiyalari.

2. Modelning eslab qolib, saqlab qo‘yishi kognitiv tashkil etish, obrazli va verbal kodlashtirish yordamida amalga oshiriladi.

3. Motorli reproduktiv jarayonlar xotirada ramziy kodlashtirilgan ma‘lumotlarni, muvofiq bo‘lgan harakatlarga, real xulq-atvorga o‘tkazishni amalga oshiradi. Ushbu aniq muvozanatlashgan harakatlarga o‘rganish mumkin va zarur jismoniy qobiliyati, teskari aloqa aniqligi inobatga olinadi.

4. Motivatsion jarayonlar qo‘llab-quvvatlashni o‘zgarish xarakteri bilan bog‘liq bo‘lgan kuzatishdan real xulq-atvorda model ijrosiga o‘tish sodir bo‘lishini aniqlaydi, tashqi bilvosita o‘z-o‘zini qo‘llab-quvvatlash.

A. Bandura ijtimoiy kognitiv o‘rgatishni murakkablik darajasi bo‘yicha bir qancha turli ko‘rinishlarini tavsiflagan modelning oddiy taqlidi, imitatsiya, o‘xshatish, nusxa olish, ma‘lum bir harakatlarning o‘tkazilishini, uzatilishini ta‘minlaydi. Shirinlik bilan mehmon qilish, ko‘rishganda salomlashmoq, mavhum modellashtirish orqali kuzatuvchi o‘zining aniq namunalar doirasidan chetga chiquvchi xulq-atvorini tartibga soladi.

Mavhum abstrakt modellashtirish ongli tafakkurga asoslanadi, qachonki kuzatuvchi tashqi turli reaksiyalardan umumiy qirralarni ajratib olib, tamoyillarni aniqlaganda qoidalarni shakllantiradi. Bunday tarzda xulq-atvor nutqning ma‘lum bir uslubi tuzilishi mumkin mehribon, xayrixoh, muloqotchan yoki qaysar, agressiv, berahm inson bo‘lish ijtimoiy o‘rgatishni birmuncha darajada murakkab ko‘rinishi kreativ ijodiy modellashtirish ta‘sirning turli manbalarini innovatsion sintezi natijasi sifatida ijod elementlarini qamrab oladi. 1980-yillar o‘rtalaridan boshlab A. Bandura ko‘p e‘tiborini aynan rivojlanishning ichki omillariga qaratadi, o‘z-o‘zini baholash, nazorat qilish, muvaffaqiyat garchi modellashtirish uning ishlarini muhim mavzusi bo‘lib qolishda davom etsa-da, u shaxs shakllanishi va o‘zgarishini tushuntirish

uchun shaxs mahsuldorligining kognitiv mexanizmini taklif qilgan.

8.4. Bolalar rivojlanish taraqqiyotini o'rganishning diadik tamoyili

Ijtimoiy o'rgatish yo'nalishining boshqa vakili R.Sirs ota-ona va farzand munosabatlarini o'rgangan. R.Sirs ilk bolalik davridagi har bir bola xulq-atvorini ona va bola xulq-atvori birligini ifodalovchi o'ziga xos diadik birlik ichida keluvchi davr sifatida ko'rib chiqishni muhim deb hisoblagan. U bolaning rivojlanishiga ota-onaning ta'sirini amalga oshiruvchi vosita bo'lgan mexanizmni tushuntirish uchun o'rgatish nazariyasi doirasida psixo-analitik atamalarni yengish, regressiya, identifikatsiya qo'llagan. R.Sirs tomonidan bolaning rivojlanishida xulq-atvorning umumiy motivatsiyasi xarakteriga ko'ra farqlanuvchi uchta yoshga bog'liq faza ajratilgan. R.Sirs bo'yicha xulq-atvor shakllanishi motivatsiyasi hayoti davomida orttirilgan hosil bo'lgan ehtiyojlar—tobelik yoki qaramlik bevosita bog'liqlikda bo'ladi. Boshlang'ich fazada bola o'zining organik sezgisiga yuklangan va autik bo'lgan. Biologik ehtiyojlarni qondirilishi, ochlik va chanqovni qondirmoq, sovuqlik va og'riqdan xalos bo'lish onaning harakatlari bilan bolani bog'laydi, bu birinchi o'rgatish tajribasini tashkil etadi. Bunday tarzda onaga tobelik bog'liqlik tug'iladi. Bola ijtimoiylashuvni boshlanishi diadik o'zaro ta'sirni ortganligini unga kim g'amxo'rlik ko'rsatayotgan bo'lsa ular bilan birlamchi harakatini ko'rsatadi.

Maktabgacha tarbiya yoshida bolaga birmuncha darajada yetukroq xulq-atvorni shakllantirishga yordam berib, quvvatlashning asosiy vakili sifatida namoyon bo'luvchi ona-ota, oilaning boshqa a'zolari muhim ta'sir ko'rsatadi. Bola o'quvchi oila a'zolaridan kamroq darajada qaram bo'ladi. Shu o'rinda uni o'qituvchi tengqurlari do'stlaridan qaramligi ortadi. Tobe qaram xulq-atvorning xarakterli shakllari ilk bolalik davrida shakllanadi, ular ba'zan hayot davomida o'rganiladi, mustahkamlanadi va saqlab

qo‘yiladi. Ular orasida diqqat bilan qidirish, sening ish va yu-mushlaringda boshqa insonning ishtirokini ta‘minlashga intilish, yordam so‘rab murojaat qilish, silash, ushlab turish va fazoviy yonida bo‘lish yaqinlikka intilish va boshqalarni kiritish mum-kin. Juda kuchsiz qaramlik adekvat ijtimoiy xulq-atvorni shakl-lantirish uchun zarur bo‘lgan motivatsion bazalarni ta‘minlay ol-masa, juda kuchli qarshilik esa individni shaxsiy motivatsiyasiga o‘tishga, mustaqil, erkin bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi. Ota-onalar-ning bola bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lish uslubi rag‘batlantirish va ja-zolash nuqtayi nazari bilan uyg‘unlashgan, juda chuqur o‘ylan-gan bo‘lishi kerak.

Shuningdek, Dj.Gevirts yetuklik va go‘daklik yoshidagilar-ning ijtimoiy motivatsiyasi va qaramligini yuzaga kelish shart-larini o‘rgangan. Uning yondashuvini yangiligi shundaki, un-da bolaning xulq-atvori ota-ona xulq-atvoriga quvvatlovchi ta’sir manbasi sifatida talqin qilingan. Ota-ona rag‘batlantirish va ja-zolash tizimlarini qo‘llagan holda o‘z farzandining xulq-atvorini shakllantiradi, lekin bola hatto go‘dak chaqaloq ham jilmayish, kulish, yig‘lash vokalizatsiyani namoyish etib, ota-onasida tur-li xil ko‘rinishdagi xulq-atvorini shakllantirishi va nazorat qilishi mumkin. R.Sirsning ota-ona va farzand munosabatini asosi sifa-tidagi diadik tamoyili haqidagi g‘oyalari keyinchalik qayta ishlab chiqilgan. Ijtimoiy xulq-atvor har qanday xulq-atvorning umumiy qonuniyatlariga bo‘ysunadi, biroq muhitning stimulli qo‘zg‘atuv-chi, rag‘batlantiruvchi ta’siri boshqa odamlar xulq-atvori bilan asoslanadi. Dj.Gevirts aniq bir bola uchun u yoki bu stimullar-ning ta’sirchanligi xususidagi masalani alohida ta’kidlaydi. Bola-ning individual rivojlanishida aynan bir xil stimullar ham turli qo‘zg‘atuvchi kuchga ega bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy-motivatsion rolni bajarish uchun stimulyatsiya qo‘zg‘atuvchi rag‘bat ahami-yatli funksional bo‘lishi kerak. Muntazam ravishdagi tanbeh, pand-nasihat bolaning xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatmay qo‘yadi.

1. Bolaning psixologik tabiati haqidagi tasavvurlarning o‘zga-rishi. Shunday qilib, XX asrning ikkinchi yarmida amerika psixo-

logiyasida rivojlanish asta-sekin bolaning psixologik tabiati haqidagi tasavvurlarga o'zgaradi. Bola nafaqat o'z atrofidagilarning ta'sirini his qiluvchi, balki o'zi ham ularga ta'sir ko'rsatuvchi, ya'ni o'zaro aloqa bo'yicha hamkor subyekt sifatida faol mavjudot sifatida ko'rib chiqila boshlandi. Yangi yondashuvning ayrim jihatlari A.Bandura va Dj.Gevirts g'oyalarida ifodalandi, chunonchi, masalan, hayotning ilk bosqichlarini mustaqil ravishda kuzatish orqali o'rgatish haqiqiy amaliyligini, xulq-atvor harakatlari tuzilishida ichki kognitiv o'zgaruvchilarni ajratishni, ichki quvvatlovchi javoblar ahamiyatini e'tirof etgan XX asrning 70-yillari o'rtalariga kelib, psixika ontogenezini tadqiq qilish uchun ijtimoiy o'rgatish nazariyasi va manipulyativ eksperiment metodidagi asosiy qiyinchilik yo'nalishning o'zini ichida aniq bo'ldi:

— ma'lumotlar aniqligi va to'g'riligiga urinishda qidiruv eksperimentidan voz kechish yuz berdi, eksperimental metod o'z-o'zidan ma'lum bo'lgan faraz bilan laboratoriya testlariga muvofiqlashtirishdi;

— ko'pincha laboratoriya eksperimenti sun'iy xarakter kasb etgan real hayotiy muammolardan ajratib olingan va bolaning psixik rivojlanish jarayonlarini tushunish uchun yaroqsiz amaliyot talablariga javob bera olmaydi;

— tadqiqot natijalari yoshga bog'liq tafovutlar va kishilar xarakteristikalarini qayd etishni o'zida namoyon etgan, lekin ularning yordami bilan rivojlanish sabablarini va shartlarini aniqlab bo'lmagan — ko'p takrorlanuvchi empirik ma'lumotlarda tushunchani umumlashtiruvchilari kam sonli va kuchsiz edi;

— kattalar va bolalar, hayvonlar va insonlar psixik faoliyatining umumiy mexanizmlari mavjudligiga uqtirish insonning ontogenetik rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlarning haqiqiy imkoniyatlarini tizimli ravishda pasayishiga olib keldi.

Ma'lum qilinishicha, rivojlanish psixologiyasi «imkon qadar qisqa oraliq vaqt mobaynida qiziq bir inson bilan ajoyib o'zaro ta'sir vaziyatida bolaning g'alati xulq-atvori haqidagi fan» istehzoli bo'lish kerak emas deb uni U.Bronfenbrenner ta'riflagan.

Ushbu qarama-qarshiliklarni anglash rivojlanishning amerika psixologiyasida yangi tendensiya (g'oya) tabiiy tadqiqot g'oyasini tug'ilishiga bolaning psixik rivojlanishi tuzilishidagi aksentlar aralashuviga olib keladi. XX asrning 80-yillari boshida ilmiy tadqiqotning majburiy xarakteristikalaridan biri ekologik validlik talabi bo'lgan. Ekologik validlik kundalik hayotdagi vaziyatlar xususiyati sinaluvchilarni tadqiqot vaziyatda qurshab turuvchi shart-sharoitlar muvofiqligi sifatida muhokama qilinadi. Tadqiqotchining dolzarb shiori bolaning bilish jarayonlari va har qanday faolligini bu uning tabiiy maqsadga yo'naltirilgan faoliyatida qanday o'rin egallasa shunday ko'rinishda o'rganish kerak, eksperimental tadqiqot o'tkazishga yangi talablar ilgari surilgan edi: sinaluvchiga ko'rsatmani maishiy (kundalik) tilda taqdim qilish eksperimentator faolligini cheklash, sinaluvchini diqqat bilan kuzatishi va uning hal etish strategiyasini qayd qilib borish o'zgarishlarni aniqlash o'rgatuvchi eksperimental tadqiqotlar qo'llanilishidan voz kechish real hayotda aynan shu metod va mexanizmlar qo'llanilishiga kim kafolat beradi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv. Insoniyat taraqqiyotini tushunishga ekologik yondashuvda bu o'zgarishlar birmuncha darajada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. U.Bronfenbrenner, D.Kyun, DjVulvili, R.Makkol bolaning hayotini yaqin oilaviy qurshovdan boshlab, ijtimoiy, tarixiy kontekstgacha o'z ichiga oluvchi real sharoitlarida uning kundalik xulq-atvorini o'ziga xos xususiyatlarini diqqat bilan tadqiq qilish zaruriyatiga e'tiborini qarata-di. Analizga ekologik ahamiyatli o'zgaruvchilar sifatida bolaning barcha hayotiy jabhalari kiritiladi uy, oila, sinf, transport, ijtimoiy rollar va funksiyalar: qiz, opa, o'quvchi xulq-atvor faolligini xarakteristikasi davomiylik, zo'riqish. U.Bronfenbrennerning ekologik tizim modeli keng mashhurlikka ega bo'ldi. Ular tomondan bolaning rivojlanishi dinamik jarayon sifatida ko'rib chiqiladi, bir tomondan ko'p darajali hayotiy muhit o'sib ulg'ayuvchi individga ta'sir ko'rsatadi va boshqa tomondan uning o'zi faol ravishda uni qaytadan tuzadi. U.Bronfenbrenner bolaning

hayotiy muhitini to‘rt darajasini ajratgan. Hayotiy muhitning mikrodarajasi individni uning yaqin atrofidagilar bilan o‘zaro ta‘sirini oila, bog‘cha, xarakterli bo‘lgan mashg‘ulotlar va ijtimoiy rollarni o‘z ichiga oladi. Mezodaraja yoki mezotizim ikkita yoki undan ko‘p mikrotizimlar o‘rtasida rasmiy yoki norasmiy aloqalar yuzaga kelganda hosil bo‘ladi, masalan, oila va maktab oila va tengdoshlar guruhi o‘rtasida. Ekzodaraja individ tajribasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, lekin unga bilvosita ta‘sir ko‘rsatuvchi keng ijtimoiy muhitni qamrab oladi. Ota-onaning bandlik xarakteri, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, oilaviy axborot vositalarining roli va nihoyat makrodaraja yoki makrotizim qadriyatlar, an‘ana odatlar, qonunlar hukumat dasturlarining madaniy va tarixiy kontekstini hosil qiladi. LLBronfenbrennerning fikriga ko‘ra, bu barcha quyi darajalarga muhim ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqotchilarning ko‘proq e‘tiborini jalb qiladigan hayotiy yo‘l insonning rivojlanish g‘oyasini laboratoriyaning nazorat qilinuvchi sharoitlarida o‘rganib bo‘lmaydi. Nafaqat oldindan aytish mumkin bo‘lgan yoshga bog‘liq o‘zgarishlarni, balki har bir yoshga bog‘liq o‘zgarishlarni, balki har bir avlod uchun keng madaniy va tarixiy omillarni hisobga olishni talab qiladi. PBaltes 3 turdagi omillarni ajratgan. 1. Yoshga bog‘liq me‘yorlar. 2. Tarixiy me‘yoriy. 3. Me‘yoriy bo‘lmagan omillar. Yoshga bog‘liq me‘yoriy omillar bu aytish mumkin bo‘lgan yoshdagi o‘zgarishlarda biologik tishlarni yorib chiqishi, jinsiy yetilishi (menopauza va b.) va ijtimoiy (maktabga chiqish, harbiy xizmatga chaqiruv, nafaqaga chiqish va boshqalar) sodir bo‘ladi. Tarixiy me‘yoriy omillar — bu butun yosh davri kategoriyalariga (qatoriga) u yoki bu tarzda ta‘sir ko‘rsatadigan global (dolzarb) mashtabdagi tarixiy hodisalardir (urush, siyosiy va iqtisodiy tarzda o‘zgarishi, epidemiya). Me‘yoriy bo‘lmagan omillar — hayotning aniq bir vaqti bilan bog‘liq bo‘lmagan, lekin uni bazan keskin (birdan) o‘zgartirishga qodir bo‘lgan, shaxs hodisalarini aks ettiradi (kasallik, jarohat, muhim inson bilan uchrashuv ajrashish va boshqalar). Aslida vaziyat bundanda mu-

rakkab chunki, ajratilgan omillar ta'siri bir qator boshqa xususiyatlar, xususan jins, yosh, irq, ijtimoiy mansubligi. So'z inson hayot yo'liga bu omillarning murakkab qorishgan ta'siri haqida bermoqda.

Shunday qilib, biz inson psixik rivojlanishini aniqlovchi omillar muammosiga asosiy e'tiborni qaratib, O.Uotsonning klassik bexiviorizm nazariyasi, B.Skinnerning operant o'rgatish nazariyasi, A.Banduraning ijtimoiy kognitiv nazariyasi va U.Bronfenbrennerning ekologik tizim modeli misolida rivojlanish psixologiyasidagi xulq-atvor yondashuvi evolutsiyasini kuzatdik.

Mavzuni mustahkamlash uhun nazorat savollari:

1. Ijtimoiy o'rganish ta'limotining markaziy muammosi nima?
2. Ijtimoiy o'qitish nazariyasining evolutsiyasi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
3. Kuzatish, taqlid qilish orqali o'rgatish fenomenining mazmunini so'zlab bering.
4. Bolalar rivojlanishi taraqqiyotini o'rganishning diadik tamoyilining mohiyati nimadan iborat?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Ijtimoiy o'rgatish atamasi kim tomonidan kiritilgan?
 - a) *N.Miller va D.Dollard;
 - b) K.Levin va A.Maslou;
 - c) C.Rubinshteyn va N.Leontev
 - d) LPiaje va E.G'oziyev.
2. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi qachon va qayerda vujudga keldi?
 - a) *Amerikada XX asrning 30-yillari oxirida;
 - b) Fransiyada XX asrning 50-yillari oxirida;
 - c) Angliyada XX asrning 80-yillari oxirida;
 - d) Germaniyada XX asrning oxirida.
3. Ijtimoiy o'rganish yo'nalishi?

*a) individga xulq-atvor namunalari rollar, me'yorlar motivlar, kutuvlar, hayotiy qadriyatlar, emotsiyalarni o'tkazish orqali individning ijtimoiy xulq-atvorini hayotiy shakllantirishni nazarda tutadi;

b) muhit bolaning xulq-atvorini doimiy, uzluksiz va ketma-ketlikda shakllantiradi;

c) verbal xulq-atvor yoki og'zaki nutq ham muvaffaqiyatli yoki izchil yaqinlashish orqali egallanadi;

d) hayqiriq va yig'i bolaning jismoniy noqulaylikka nisbatan shartsiz reaksiyasi sifatida ota-onani bolaga yaqinlashib unga diqqatini qaratib, yordam berib, tinchlantirishga undaydi bunday g'amxo'rlik bola yig'isi uchun kuchli ijobiy quvvat bo'ladi va yig'i ota-ona xulq-atvorini nazorat qilishning operant asoslangan omiliga aylanadi.

4. Ilk bolalik davridagi har bir bola xulq-atvorini ona va bola xulq-atvori birligini ifodalovchi o'ziga xos diadik birlik ichida keluvchi davr sifatida ko'rib chiqishni muhim deb hisoblagan olim kim?

*a) R.Sirs;

b) K.Levin;

c) A.Maslou;

d) J.Piaje.

5. Ijtimoiy O'rganish ta'limotining yetakchisi kim?

a) A.Bandura;

b) J.Uotson;

c) A.Maslou;

d) J.Piaje.

IX BOB. PSIXIK RIVOJLANISH INTELLEKT SHAKLLANISHI SIFATIDA: J.PIAJE KONSEPSIYASI

Reja:

1. J.Piajening bola intellektual rivojlanishini tadqiq qilishini asosiy yoʻnalishlari.
2. J.Piajening intellekt operatsional taʼlimoti.
3. J.Piaje nazariyasining asosiy fikrlari tanqidi.

Mavzu oʻquv maqsadi:

Taʼlimiy: Talabalarga Piajening bola intellektual rivojlanishini tadqiq qilishining asosiy yoʻnalishlari haqida bilim berish.

Tarbiyaviy: Boʻlgʻusi psixologlarda kichik maktab yoshidagi bolalarni sevish, ular shaxsiga hurmat bilan qarash hislarini singdirish. Talabalarni kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarga samarali taʼlim-tarbiya berish uchun oʻz shaxsiy fazilatlarini tahlil qilishga oʻrgatish.

Rivojlantiruvchi: Olingan nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliyotga yoʻnaltirish yoʻllari boʻyicha koʻnikma-malakalarni rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: intellektual rivojlanish, egotsentrik nutq, akkomadatsiya, egoism, ichki nutq, operatsional taʼlimot.

9.1. J.Piajening bola intellektual rivojlanishini tadqiq qilishning asosiy yoʻnalishlari

J.Piaje (1896—1980) shvetsariyalik va fransuz psixologi boʻlib, u

52 ta kitob va 458 ta ilmiy maqolalar muallifi, Jeneva genetik psixologiya maktabining koʻzga koʻringan vakillaridan biridir. J.Piajening ilmiy ijodiyoti shu qadar turli xil koʻrinishdagi metodologik va nazariy bahs-munozaralar predmeti boʻlib qolishda davom etmoqda. J.Piaje tomonidan kashf etilgan fenomenlar esa eksperimental qayta tekshirilib chiqilmoqda. J.Piaje bolaning bilish faoliyati mexanizmlarini oʻrgangan. J.Piaje intellekt shakllanishini barcha boshqa psixik jarayonlar bogʻliq boʻlgan bolaning psixik rivojlanishini metodologik shakllanish sifati haqida tadqiq qilgan. J.Piaje bolaning

xususiyatlari bolada intellektni kelib chiqishi va rivojlanishi fundamental jismoniy hamda matematik tasavvur va tushunchalarni shakllanish usullari va yo‘llari obyekt, makon, vaqt, sabab, tasodif kabilar idrok, xotira, tasavvur, o‘yin, taqlid, nutq rivojlanishi va bilish jarayonida ularning vazifasi kabilarni o‘rgangan.



Jan Piaje

Ilmiy ijodinmg dastlabki bosqichlari. Jan Piaje bolalarning miyasi rivojlanishiga fizik olam ta’sir ko’rsatadi, deb hisoblagan bo’lsa, yosh davrlarini o‘rgangan rus psixologi Lev Vigostkiy (1895—1934) bolaning aql idroki rivojlanishiga ijtimoiy muhitning o‘rni kattaligiga urg‘u bergan. Piaje bolalarni yosh olimlar deb aytgan, Vigostkiy esa ularni yosh shogirdlar degan. Bunga ko‘ra ota-onalar yoki tarbiyachilar tomonidan bolalarga biror narsa o‘rgatilsa yoki yangi so‘zlar berilsa, ularni bolalar o‘zlashtirib idrokning yuqori bosqichlariga o‘tishlari mumkin. Nutq va ijtimoiy muhitning muhim qismlari o‘rgatilishi, aql-idrokka poydevor yaratib beradi.

J.Piaje tadqiqotlari bolaning tafakkuri va nutqi hamda uning mantiqi va dunyoqarashi haqidagi ta’limotini rivojlanishida butun davrni tashkil qilgan. Ular tarixiy ahamiyatga egaligi xususida

L.S.Vigotskiy IPiajening ilk ishlaridayoq yozgan edi. Eng muhimi shundan iboratki, IPiaje bola kattalarga nisbatan «esi pastligi» va kattalar intellekti bilan taqqoslaganda bolaning tafakkuri miqdoriy kamchlikka egaligi yondashuvidan voz kechib, bolalar tafakkurini sifat jihatdan o'ziga xosligini tadqiq qilish vazifasini birinchi bo'lib qo'ygan'. TSimon laboratoriyasida ishlayotib yosh IPiaje bolalar maktabgacha tarbiya yoshidagilar nutqiga ko'proq ahamiyat qaratgan, uni ayniqsa test savollariga javob berishidagi takrorlanuvchi xatolar qiziqtirgan bolalar bog'chasi sharoitida tadqiqot o'tkazilib, unda kuzatuvchilar erkin faoliyat (rasm chizish yasash yoki o'yin davomida bolalarning barcha aytgan fikrlari va bajaradigan harakatlarini tizimli ravishda qayd qilib borganlar. IPiaje taxminiga ko'ra, bolalar fikrlarini ikkita guruhga bo'lish mumkinligini ko'rsatadi. Suhbatdoshini javob qaytarishiga manfaatdorligi xarakterlanadi, uning vazifasi suhbatdoshga ta'sir ko'rsatish.

1. Ijtimoiylashgan nutq darajalari kategoriyalari axborot, tanqid, buyruq, iltimos, taqlid, savol, javob.

2. Egotsentrik nutq shakli bo'yicha bu fikrlar har xil bo'lishi mumkin takrorlash (exolaliya) monolog jamoaviy biroq umumiyliigi suhbatdoshining nuqtayi nazari qandayligi, uni tinglayotganligi bilan qiziqmay bola ayni damda nimani o'ylayotgan bo'lsa shu haqida o'z fikrini bildiradi. Egotsentrik nutq vazifasi ta'sirliroqdir «Suhbatlashishdan qoniqish» harakatlarni kuzatilishi va ritmliligi IPiaje bolaning erkin nutqida egotsentrik nutq hissasini o'lchab ko'rib, ilk yoshda egotsentrik nutq koeffitsienti yuqoriligini -75%, 6—7 yoshga kelib asta-sekin pasayishini aniqlagan. Ta'kidlarning oddiy to'qnashuvini emas, balki tomonlarning o'zaro tushunishi va tushuntirishga manfaatdorligi bilan kuzatiladigan nuqtayi nazarlar almashinuvini o'zida namoyon qiluvchi bahs-munozara faqatgina 7—8 yoshga kelib yuzaga keladi.

¹ 4 David G. Myers «Psychology ninth edition in modules». NY, WORTH PUBLISHER-2010. 185pages.

J.Piaje egotsentrik nutq faktlarida bolalar fikrini sifat jihatidan o'ziga xosligining muhim isbotini ko'rgan. J.Piaje fikriga ko'ra, kuzatish metodi intellektual testlar bolalar fikrini o'ziga xos xususiyatlarini ochishga qodir emas. Test tekshiruvni vazifani hal etishning pirovard natijasiga qayd etgan J.Piaje esa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tafakkurining ichki tuzilishiga cha kirib borishga harakat qilganini J.Piaje yangi metodni, klinik yoki suhbat metodini ishlab chiqqan. LPiajening klinik suhbat metodini bu bola bilan qayd qilingan me'yoriy savollar bilan chegaralanib qolmay erkin suhbatlashishidir. Eksperimentator va bolaning muloqotini mazmuni tabiat hodisalari tushlar, axloqiy me'yorlarga taalluqli bo'lgan. Kundalik hayotda bolalar o'zlari ko'pincha kattalarga beradigan savollardan iborat edi. «Osmonga quyosh qayerdan kelgan, nima uchun quyosh qulamaydi, u qanday turibdi, nima uchun quyosh porlaydi, nima uchun shamol esadi, shamol qanday qilib hosil bo'ladi, odamlar qanday qilib tush ko'radilar». Klinik metod bu puxta amalga oshiriladigan ma'lumotlarni aniqlash, nutq va aqliy rivojlanishning yoshga bog'liq kesimidir. Tadqiqotchi savollar berib, bolaning fikr-mulohazalarini tinglaydi. Bolaning har bir oldingi javobiga bog'liq bo'lgan qo'shimcha savollarni keyin beradi. U bola holatini nima aniqlashi uning bilish faoliyati tuzilishi qandayligini aniqlashni nazarda tutadi. Klinik suhbat davomida bola reaksiyasini noto'g'ri talqin qilish ayni damda kerakli bo'lgan savolni topa olmay gangib qolish yoki aksincha kutilayotgan javobni singdirish xavfi har doim mavjud bo'ladi. Klinik suhbat o'ziga xos so'rov qilish san'atini aks ettiradi.

J.Piajening dastlabki farazi go'dakning autizmdan kattalarning amaliy ijtimoiylashgan tafakkuriga o'tishini ta'minlovchi tafakkurning oraliq shakli egotsentrik tafakkurni aniqlanganligida edi. J.Piaje psixoanalizdan autistik va ijtimoiylashgan fikrlar farqini o'zlashtirib olgan. Autistik fikr xohishni, ehtiyojni qondirishga intilish bilan boshqariladigan individuallashtirilgan yo'nalmagan ongsizlikdir, u obrazlarda namoyon bo'ladi. Ijtimoiylashgan

ongli yo'nalgan fikr ijtimoiy bo'lib, anglangan ongli maqsadlar-ga intiladi, voqelikka uyg'unlashadi, tajriba va mantiq qonunlari-ga bo'ysunadi. Nutqda ifodalanadi, egotsentrik tafakkur — irsiy, funksional tuzilmaviy nuqtayi nazarlardan rivojlanishidagi oraliq shakldir. Bolalar tafakkurining asosiy o'ziga xos xususiyati sifa-tida egotsentrizm olam haqida faqatgina o'zining bevosita fikri-da turadi va boshqalarnikini hisobga olmaydi. J.Piaje tomonidan egotsentrizm bilishning anglanmagan tizimli illyuziyasining bir turi bolaning yashirin aqliy yondashuvi sifatida ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga egotsentrik tafakkur — tashqi olam ta'sirining murakkab belgisi, bu o'z manbalarida faol bilish yondashuvi, aql-ning boshlang'ich bilish markazidir. J.Piaje egotsentrizmni bola-lar tafakkurining barcha boshqa o'ziga xos xususiyatlarining aso-si, ildizi sifatida talqin qiladi, egotsentrizmni bevosita kuzatuvda aniqlab bo'lmaydi, u boshqa fenomenlar orqali namoyon bo'ladi. Ularning orasida bolalar tafakkurining xususiyatlari mavjud: rea-lizm, animizm, artifikalizm va realizm.

Realizm. Rivojlanishning ma'lum bir bosqichida bolalar pred-metlarni qanday bevosita idrok qilsalar, ana shunday talqin qiladilar. (Masalan, sayr davomida oy bolani kuzatib boradi), rea-lizm intellektual bo'ladi — shamol daraxt shoxlarini silaydi, pred-metning nomi predmetni o'zi kabi shu qadar aniq bo'ladiki, pred-met ko'rinishi ochiq-oydin va bola buyum haqida nimani bilsa barchasini qamrab oladi. Axloqiy realizm bola xatti-harakatlarida ichki maqsadni inobatga olmay u haqida faqat pirovard natija-ga qarab fikr yuritishida namoyon bo'ladi. Masalan, kim ko'proq piyola sindirgan bo'lsa ana shu ko'proq aybdor bo'ladi, ya'ni bit-tasi yordam berishni xohlab, tasodifan idishni qo'lidan tushirib yuborgan bo'lsa ikkinchisi, g'azablanib atayin idishlarni sindir-gani hisobga olinmaydi.

Animizm umumiy ruhlantirish, ong va hayot, his-tuyg'ular bilan buyumlarni taqsimlashni birinchi navbatda mustaqil ha-rakatlanuvchilarni, masalan, bulut, daryo, oy, avtomobil, ulov o'zida namoyon qiladi.

Artifikalizm tabiat hodisalarini inson faoliyati bilan taqqoslab tushunishdir. Barcha mavjudlik inson uchun yoki uning irodasiga ko‘ra inson tomonidan yaratilgan sifatida talqin etiladi, quyosh bizga yorug‘ bo‘lishi uchun, ko‘l kemalar suzishi uchun. J.Piaje tomonidan bolalar mantiqining o‘ziga xos xususiyatlari ajratilgan ro‘yxat orasida sinkretizm bolalar tasavvurining subyektivligi va dolzarb umumiyliigi, barcha bilan barchani bog‘lash fikri, tendensiyasi bir-biriga yaqin sifatida tafsilot, sabab va oqibatlarni idrok qilish;

— transduksiya umumiylikni chetlab xususiydan xususiylikka o‘tish;

— sintez va o‘z holatiga qobiliyatsizligi fikr-mulohazalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni mayjud emasligi;

— qarama-qarshilikka sezgir emaslik;

— o‘zini o‘zi kuzata olmaslik;

— anglashdagi qiyinchiliklar;

— tajriba uchun sir boy bermaslik bola tashqi ta'sirlar, tarbiyadan ayrim izolatsiya qilinmagan, lekin unda bu o‘zlashtirilgan va shakli o‘zgaragan.

Barcha bu xususiyatlar bola mantig‘ini belgilovchi kompleksni, kompleks asosida esa egotsentrik nutq va tafakkur yotadi. A.Binening uch aka-ukalar haqidagi vazifani hal etish jarayonida bolalarda egotsentrizmning yaqqol namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Shunday qilib, oilada uchta aka-uka Mitya, Vova, Sasha bo‘lsayu va Sashadan uning nechta akasi borligi so‘ralganda, u o‘zining ikkita akasini Mitya va Vova deb aytib, to‘g‘ri javob beradi. Keyin Mityada nechta ukasi borligi aniqlashtirilganda odatda olti-yetti yoshgacha bola yanglishadi. Bitta Vova deya javob berdi vaholanki, to‘g‘ri javob uchun u xayolan o‘rnini, pozitsiyasini o‘zgartirishi zarur edi, akasi Mitya o‘rnini egallashi kerak, buni esa u udalalay olmaydi.

Bolaning egotsentrik holatini yaqqol namunasi sifatida uch tog‘ maketi bilan bog‘liq bo‘lgan eksperiment xizmat qiladi. Bola uchta har xil rangdagi va qo‘shimcha farqlanuvchi belgilarda-

gi qorli cho‘qqi, uycha, daraxt tog‘ maketlari joylashtirilgan stol qarshisiga o‘tiradi. Boshqa tomonda qo‘g‘irchoqlar joylashtirilgan. Boladan (topshiriq variantlaridan birida) unga havola etilgan nusxalardan tog‘ ko‘rinishi tasvirini qo‘g‘irchoq ularni qanday ko‘rayotgan bo‘lsa, xuddi shunisini topish so‘ralgan, 6—7 yoshgacha bolalar o‘zlari nimalarni ko‘rsalar, u aks ettirilgan suratni tanlashga moyildirlar. J.Piaje «Egotsentrik illyuziyaning bu fenomenini boshqa nuqtayi nazarlar mavjudligi va ularni o‘ziniki bilan solishtirib bo‘lmasligi tasavvurlarning mavjud emasligi bilan tushuntirgan.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar pozitiyasi (holati) sifatida egotsentrizm ildizi nimadan iborat? J.Piaje ularni bolalar faoliyatining o‘ziga xos xarakterida (masalan, ota-onaning g‘amxo‘rliги bolaning barcha moddiy ehtiyojlarini oldindan bajarib qo‘yadi va u deyarli ziddiyatli narsalar bilan uchrashmaydi) bolani nisbatan kechroq ijtimoiylashuvida, ijtimoiy muhitga 7—8 yoshdan oldinroq moslashmasligida ko‘radi.

Egotsentrizmni bartaraf etish uchun subyekt sifatida o‘z «Men»ini anglash va obyektдан subyektни ajratish boshqalar bilan o‘z nuqtayi nazarini muvofiqlashtirishga o‘rganish zarur. Egotsentrizmni pasayishiga yangi bilim qo‘shilmasdan, balki oldingi yondashuv o‘zgarganligi bilan izohlanadi.

Kattalar bilan munosabat ko‘proq majbur qilish munosabatidir u bolani o‘z subyektivligini anglashiga olib kelmaydi. O‘zi haqidagi bilimlarni rivojlantirishi ijtimoiy o‘zaro ta’sirdan sodir bo‘ladi, bu munosabatda bolaning tengdoshlari bilan hamkorlik qilish juda muhimdir. Bunday tarzda asta-sekin bilish tendensiyasi markaziy ba’zi bir vazifalarni mahalliyga berilishi sodir bo‘lib ijtimoiylashgan fikr egotsentrizmni siqib chiqaradi va egotsentrik nutq yo‘qolib, yo‘q bo‘lib ketadi.

J.Piaje qarashlarini L.S.Vigotskiy tomonidan tanqidiy tahlili. J.Piajening egotsentrik nutq vazifasi va taqdiri haqidagi farazidan gumon qilib, L.S.Vigotskiy rus psixologiyasida birinchi bo‘lib bolalar egotsentrizm fenomenining nazariy tahlili va eksperi-

mental tadqiqini (oʻtkazgan) ochib bergan. L.S.Vigotskiy bolaning rivojlanishida egotsentrik nutqni yuzaga kelishi haqida oʻz farazini taklif qilgan. U egotsentrik nutqni «oʻzi uchun nutq» sifatida tashqi ijtimoiy nutqdan ichkiga oʻtish bosqichi sifatida talqin qilgan.

Bundan kelib chiqib ichki nutq rivojlanishining boshlangʻich shakli sifatida egotsentrik nutqning tuzilish shakli sifatida oʻziga xos xususiyatlari xarakterlidir: vaziyatda chetda boʻlgan atrof-dagilar uchun tushunarsizlik, qisqartirilganlik, tushirib qoldirishga moyillik, egotsentrik nutq kattalarning ichki nutqi bilan uni yaqinlashtiruvchi, juda muhim vazifani bajaradi: bola xulq-atvorini rejalashtirish, tashkillashtirish va boshqarish (funksiyasi) vazifasi.

L.S.Vigotskiy egotsentrik nutq vazifalarini bunday izohlanshini isbotlash uchun qator oʻziga xos eksperimental usullarni qoʻllagan. Masalan, bolalarning erkin faoliyati jarayoniga buzilishlar va qiyinchiliklarni kiritish maʼlum bir vaziyatni bolada kerakli qalam, qogʻoz boʻyoqni mavjud emasligi. Maʼlum boʻlishicha, qiyinchilik vaziyatida egotsentrik nutq koeffitsienti deyarli ikki martaga oshgan. Bola yuzaga kelgan vaziyatni anglashga harakat qilib oʻz-oʻzi bilan mulohaza yuritadi: «Qalam qayerda endi qizil rangda chizib suv bilan hoʻllayman (namlayman), u qorayadi va koʻk rangga oʻxshab qoladi». Singan qalam tramvay gʻildiragini toʻgʻri chizib tugatishga imkon bermasligi rasm sujetini oʻzgartirishga undaydi, keyin gap tramvayning ishdan chiqishi va uni sozlash haqida ketadi. Egotsentrik nutq funksiyasi xulq-atvorning murakkab uygʻunligidir (ritmligi) yanada keng maʼnoda murakkab vaziyatdan chiqish rejasini ishlab chiqish kelgusidagi xatti-harakatlarni fikrlash, rejalashtirish va boshqarish vositasidir. Shu oʻrinda bunday rol haqida LPiaje quyidagi fikrlarni bildirgan: bola oʻzining xatti-harakatlari xususida faqat ovoz chiqarib oʻylasaa, sira hech nimani hech kimga aytishni xohlamaydi. Bunday tarzda egotsentrik nutq taqdiri uning xususida butunlay ichki nutqqa tubdan oʻzgartirish bilan bogʻliq. J.Piajening egot-

sentrik nutq haqidagi dastlabki tasavvurlarini (J.Piaje egotsentrik nutqni ta'limotining negizi sifati ko'rib chiqqan) L.S.Vigotskiy buzib, egotsentrizm fenomenining o'zini inkor qilgan.

J.Piaje hamkasbining egotsentrik nuqtayi nazarini rivojlantirish yo'llari haqidagi aytgan farazining ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etgan. U egotsentrizm individualizm emasligini o'z «Men»ini anglashni haddan ortiq oshib ketmasligini, balki bilish istiqbollari o'zgartirishini oldindan detentratsiya qila olmaslik ekanligini e'tirof etib, yana bir bor egotsentrizm tushunchasiga oydinlik kiritgan. J.Piaje fikriga ko'ra, egotsentrizm fenomeni umumiy xarakterga ega bo'lib, nutq sohasida faqat uni ifodalash bilan bog'lab berilmaydi. Bilish egotsentrizmi, xususan kattalarda fikr-mulohaza yuritganda yoki bilish jarayonida o'zining obyektiv holatini hisobga olmaganida (dastlabki faoliyat davrida ma'ruza o'qiyotgan o'qituvchi o'zi qay darajada bilsa, taxminan shu darajada talabalar biladi, deb o'ylashi mumkin) kuzatiladi.

9.2. J.Piajening intellekt operatsional ta'limoti

1930-yillardan boshlab J.Piaje tomonidan belgilangan va izchil ravishda hal etib borilgan ulkan vazifa bir vaqtning o'zida bir qancha, ya'ni biologik, gneseologik, psixologik, mantiqiy va ijtimoiy tomonlarga ega bo'lgan murakkab tizim sifatida intellektni kompleksli o'zaro tartibli tahlildir. J.Piajening fikriga ko'ra, bolalarning kognitiv rivojlanishini psixologik tadqiqotni nazorat qiluvchi psixologiyaning genetik metodi bilish nazariyasining asosiy savollariga eksperimental javob berishni talab qiladi: anglanilmaganlikdan bilishga, noaniqlikdan aniq bilishga o'tish qanday sodir bo'ladi. Tug'ma g'oyalar mavjudmi yoki bizning bilimimiz butunlay tajribadan olinadimi, bilishning asosiy kategoriyalari tushunchalari obyekt, makon, vaqt, miqdor va boshqalar qanday shakllanadi. J.Piaje inson intellektini yashash muhitiga moslashish shakllaridan biri sifatida talqin qilgan. Har qanday tirik organizm atrof-muhit bilan uyg'un o'zaro munosabatni qo'llab-quvvatlashda ichki ehtiyojga ega bo'ladi. Ya'ni muhitga

moslashish ehtiyoji muhit bilan muvozanatda bo'lish kuzatiladi. Muhit ta'siri organizmni muvozanatdan chiqaradi. Organizm yana qaytadan muvozanatga, moslashishga erishish uchun yo'qotilgan muvozanatni qoplashda uzluksiz faol holatda bo'lishi kerak. Masalan, kesilgan barmoq, ya'ni chetdan muhit ta'sirida lat yeyish, jarohat olish, o'zini o'zi nazorat qilish jarayonlarini faollashtiradi, ular pirovard natijada turg'unlikni, barqarorlikni, ya'ni kesilgan barmoqdagi teri qoplashini qayta tiklashi kerak. J.Piaje tomonidan muvozanatga, xususan bilishga intilish rivojlanishining yuqori tamoyili sifatida e'tirof etilgan. Muvozanat omilini joriy etish harakatda bo'lish jarayoni o'zini o'zi rivojlantirish sifatida psixik rivojlanishni intellekt rivojlanishi sifatida tushunilishiga imkon beradi. Bilishga moslashish jarayoni ikkita har xil yo'nalishdagi jarayonlar assimilyatsiya va akkomodatsiyadan hosil bo'ladi. Assimilyatsiya va akkomodatsiya qarama-qarshi yo'nalgan, lekin chambarchas bog'liq va xulq-atvordagi bir-birini to'ldiruvchi tendensiyadir. Ovqat va hazm qilish bilan qiyoslasa bo'ladi. Muammoli vaziyatni hal qilish mavjud bo'lgan harakat chizmasi yoki kognitiv chizma yordamida sodir bo'ladi. Mutolaa qilganda axborot assimilyatsiyasi yuz beradi. Bola umumiy qilib olish chizmasidan foydalanib, har xil obyektlarni olishi mumkin. Assimilyatsiyani bilish tuzilishlarini bir butunligini, barqarorligini ta'minlaydi. Muammoli vaziyatning o'zi yoki yangi obyekt ba'zi o'zgarishlarga (transformatsiyalarga) uchragan.

Akkomadatsiya — bu yangi vaziyatga, yangi vazifaga muvofiq ravishda chizmani o'zgartirishda rivojlanish, yangi chizmalarni ishlab chiqishni ta'minlaydi. Assimilyatsiya va akkomadatsiya tendensiyalarini muvozanatlashtirish birmuncha darajada samarali moslashuvni ta'minlaydi, lekin bu holat har doim taxminiy vaqtincha bo'lib, buzilishi yana kuzatiladi. Ushbu tarkibiy qismlarni xulq-atvordagi o'zaro aloqasi har xil bo'lishi mumkin. Akkomadatsiyadan assimilyatsiyani ustunligi kichkina bolalarning ramziy o'yinlarida kuzatiladi. Bolaning xohishi va qiziqishidan bog'liqlikda qari daraxt bo'lagi «hazilkash» ham qo'g'irchoq,

Iam qayiq, ham samolyot bo‘lishi mumkin. Akkomadatsiya ko‘proq taqlid qiluvchi harakatlarda tashqi ta‘sir xususiyatlariga o‘z xulq-atvorini o‘xshatish vaziyatida (masalan, bola qutining ochilib yopilishini og‘iz harakatlari orqali taqlid qiladi «o‘lik o‘rdak» obrazini harakatlari orqali yaratadi) namoyon bo‘ladi.

Bolaning intellekti faoliyat asosida narsalardan foydalanish tajribasi asosida shakllanadi. Obyektlarni bilish uchun subyekt ular bilan birga harakat qilishi kerak: tutib qolish, ushlab ko‘rish, yaqinlashish, yo‘q qilish, aralashtirish, taqqoslash va boshqalar. Barcha egallagan tajriba faoliyat chizmasi ko‘rinishida saqlanadi. Faoliyat chizmasi — J.Piaje ta‘limotidagi juda muhim tushunchalardan biridir. So‘zning tor ma‘nosida harakat chizmasi tushunchasi bu umumiy bo‘lib, turli vaziyatlarda ko‘p marta takrorlanuvchi harakatda saqlanadi. So‘zning keng ma‘nosida harakat chizmasi — bu ma‘lum bir darajadagi aqliy rivojlanish tuzilmasidir. Ma‘lum bir bosqichda harakatning umumiy chizmasini rivojlanishini operatsiyaga (operant tuzilishga) aylanadi. Shuning uchun J.Piaje ta‘limoti operatsional deb ataladi. Operatsiya — bu tizimda qaytariluvchan va guruhlarga ajratilgan ichki predmetli harakatdir. Fikrlash faoliyatini tuzishi hayot davomida shakllanadi, egallagan tajribaga ega bo‘lib, rivojlanishning turli bosqichlarida sifat jihatdan farqlanadi. Assimilyatsiya va akkomadatsiya jarayonlari ontogenezdagi aqliy rivojlanishni uzluksizligi va ketma-ketligini ta‘minlaydi, fikrlash harakatlarini (tuzilishi) tashkillashning o‘ziga xosligi esa intellektning ajratilgan bosqichlarini aniqlaydi. J.Piajega ko‘ra, psixikaning rivojlanishi — bu yetakchi intellektual ko‘rinishlarini o‘zgarishidir. Har bir bosqich boshqasining ustiga ko‘riladi, ularning har biri keyingilarini shakllanishi uchun zarur, shuning uchun ularning (borish) kechish tartibi qayd qilingan va shunday belgilangan, ularni yuz berish tezligi esa har xil bo‘lishi mumkin.

Inson intellektining rivojlanishi: rivojlanishning davr va bosqichlari.

J.Piaje rivojlanishning uchta asosiy davrlarini ajratgan:

1. Sensesmotor intellekt (tuq‘ilgandan 1,5 yoshga qadar)

2. Aniq operatsion (reprezentativ) intellekt (1,5—2 yoshdan 11 yoshga qadar).

3. Formal (rasmiy) — operatsion intellekt (11—12 yoshdan 14—15 yoshga qadar).

J.Piaje har bir bosqichni ikki yo‘l bilan ta’riflaydi: ijobiy (oldingi darajadagi tizimini murakkablashishi defferensiyatsiya (farqlanish) natijasi sifatida) va salbiy (keyingi bosqichlarda bartaraf etiladigan o‘ziga xoslik va kamchiliklar nuqtayi nazarida).

1. Sensomotor davr. J.Piaje tafakkur rivojlanishining tadqiqini, hayotning birinchi ikki yilligida bolaning amaliy predmetli faoliyatini tahlil qilishdan boshlaydi. Uning ta’kidlashicha, hatto nihoyatda mavhum bilimlar manbayini harakatda qidirish kerak, bilim tayyor ko‘rinishda (sirdan) tashqaridan kelmaydi, inson uni ko‘rishi kerak. J.Piaje o‘zining 3 ta farzandi rivojlanishini kuzatib (qizlari Jaklin va Lyusena va o‘g‘li Loran) sensomotor rivojlanishning 6 bosqichini ajratgan. Bu tug‘ma mexanizmlar va sensor jarayonlardan (ko‘chirish, refleksiya singari) ixtiyoriy atayin qo‘llaniladigan uyushgan xulq-atvor shakllariga o‘tish bosqichlaridir.

Bola tug‘ilganidan to 15 yoshga qadar jarohat tuzilishlari va his-tuyg‘ular rivojlanishi bilan xarakterlanadi: u ko‘radi, eshitadi, teginadi, hidlaydi, murakkab va chigal tug‘ma qiziqish bilan amalga oshiradi. Sensomotor intellekt ikkita kichik davrlarga ajratiladi: 7—8 oyga qadar go‘dakning o‘z tanasiga markazlashuvi kuzatiladi. 9 oylikdan boshlab fazoviy sohada fazoviy intellekt chizmasini obyektivligi sodir bo‘ladi. Maqsadga erishish uchun vosita sifatida bola tomonidan ma’lum bir harakatlarni qo‘llanilishi intellekt shakllanishining mezonidir. Shunday qilib, birinchi kichik davr oxiriga kelib bolalar o‘zining harakatlari va natijalari o‘rtasidagi aloqani kashf qiladilar. J.Piaje topshiriqlari nomini olgan. Ko‘pincha bu tajribalarni, shuningdek, muvozanatni saqlash testi, og‘irlik, uzunlik, hajm, son va boshqa deb ham ataladi. Modemiki bunday turdagi haraba topshiriqlar umumiy tamozillar

ga asoslangan ekan, namuna uchun hajmning saqlanish testini ko'rib chiqamiz.

Suyuqlik hajmining saqlanish testi.

O'tkazish bosqichlari

1. Dastawal bolaga bir xil miqdorda suv yoki sharbat bilan to'ldirilgan ikkita stakan ko'rsatiladi. Bola ikkala stakanda suyuqlik miqdori bir xilmi deb so'raydi. Bola suvlar bir xilligini tushunib yetishi juda muhimdir. Dastlabki tenglikni qayd qilish majburiy. Baholanayotgan xususiyatning dastlabki tengligi albat-ta perseptiv idrokli o'xshashlik bilan kuzatiladi, ikkala stakanda-gi suvlar darajasi miqdori tenglashtirilgan.

2. So'ngra eksperimentator katta odam suvni bir stakandan boshqa shakldagi kengroq va pastroq stakanga quyadi. Odatda, eksperimentator bolaning diqqatini ushbu boshqatdan quyishga qaratadi. Qara, men nima qilayapman, o'zgartirish qilinadi, bun-da garchi baholanayotgan xususiyatga hech ham ta'sir ko'rsatma-sa-da, perseptiv idrokli o'xshashlik buziladi.

2. Qayta quyilgandan keyin savol takrorlanadi. Ikkala stakan-da suv miqdori bir xilmi, lekin albatta avvalgi dastlabki shakl-da bo'lishi kerak. Odatda, 7 yoshgacha bo'lgan bolalar saqlash-ning standart topshiriqlarini uddalay olmaydilar. Maktabgacha tarbiya yoshidagilar topshiriqlarni hal etayotib, J.Piaje fenomen-lari — fazoviy, perseptiv qayta o'zgartirishda obyektlarning turli xususiyatlarini saqlash doimiylik, invariantlik haqida ularga xos tasavvurlarni namoyon qiladilar. Bu bolalar psixologiyasidagi eng ishonchli dalildir, ular har qaysi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda ifodalanishi mumkin. Odatda, bola stakanlardan birida-gi suv endi kamroqligi yoki ko'proqligini aytadi, ya'ni persep-tiv qayta o'zgartirishda predmetning xususiyatlarini saqlab qo-lishini tushunish yo'qoladi. Bunda saqlanib qolmaslik fenomeni kuzatiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola obyektini idrokka tayanib, dolzarb yaxlit, bevosita egotsentrik sifatida baholaydi. U aynan holatga diqqatini yo'naltiradi va bir vaqtning o'zida ol-din predmetlar qanday ko'rinishda bo'lganligi haqida o'ylay ol-

maydi, amalga oshirishgan harakat, umuman olganda qaytarilishini, suv bir xil stakanlarga quyilgan bo‘lishi mumkin, bitta obyektga diqqatini qaratib, suyuqlik darajasini past-balandligidagi farqi bir vaqtda ikkita parametрни, stakan balandligi va kengligini e‘tiborga ololmaydi. J.Piaje saqlanib qolmaslik fenomenini bolani yetti yoshga to‘lgunga qadar mantiqiy fikr-mulohaza yuritishga va detsentratsiyasiga markaziy vazifalarni mahalliyga berish qodir emasligini isboti sifatida baholaydi. Bu vaziyatda ikkala stakandagi suvlar miqdori bir xilmi degan takroriy savolga bola xususiyatlar tengligini ta‘kidlaydi. U belgilar saqlanib qolishini aytadi. Saqlanib qolish testini bajarishi aniq operatsiyalarni ishlash mezonidir. Eslatib o‘tamiz, mantiqiy operatsiya — bu qaytariluvchanlik bilan xarakterlanadigan aqliy harakatdir. Qaytariluvchanlik, masalan, A va B hamda B va A o‘rtasidagi masofa tengligini tasdiqlash nisbatiga, yoki qo‘shish va ayirish munosabatiga taalluqlidir. Qaytariluvchanlik tamoyilidan xayolan foydalanish qobiliyati aniq operatsional tafakkur bosqichini egallashning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. J.Piaje topshirig‘ining boshqa varianti — ko‘p jihatlarni inobatga olish testi yaxlit va uning qismlarini taqqoslashni taklif etadi.

Ko‘p jihatlarni inobatga olish testi.

1. Bir qancha tanish obyektlar, masalan, g‘oyalar ko‘rsatiladi. Obyektlar ikkita kichik sinflarga oq va qizil bo‘lishi kerak, bu kichik sinflardagi elementlar soni bir xil bo‘lishi kerak emas: 4 ta qizil va 2 ta oq.

2. Bolaga quyidagicha savol beriladi: qaysi biri ko‘proq, qizil gullarmi yoki oq gullar?

3. Beshyasharbolaning oddiy javobi: qizil gullar ko‘proq. J.Piajening izohi quyidagicha: bola sinfga yo‘nalgan va sinf va uning kichik sinflari haqida bir vaqtning o‘zida o‘ylay olmaydi. Bola qachon bunday topshiriqlarni to‘g‘ri hal qilishni boshlasa, odatda 7 yoshdan so‘ng bu aqliy qobiliyat o‘sganligi qaytaruvchanlikni yuzaga kelganligi, operatsional tuzilish shakllanganligiga bog‘liq bo‘lgan detsentratsiyaga qobiliyati ortganligi haqida dalo-

lat beradi. Bola qachon bunday topshiriqlarni to'g'ri hal qilishni boshlasa, odatda 7 yoshdan so'ng bu aqliy qobiliyat o'sganligi, qaytariluvchanlikni yuzaga kelganligi operatsional tuzilish shakllanganligiga bog'liq bo'lgan detsentratsiyaga qobiliyat ortganligi haqida dalolat beradi. Bola predmetning ikki xil belgisi o'zaro bog'liq emasligini, bir-biriga tobe emasligini, masalan, narsaning shakli va miqdori tushunishga qodir bo'ladi. Har xil belgilarni — predmet materiali, uzunligi, og'irligi, hajmini, keyinroq vaqti, tezligi saqlanib qolishi haqida tushuncha paydo bo'ladi. Obyektlar va qismlarni tasniflash qobiliyati yuzaga keladi, ya'ni qatorlarga tartibga solib joylashtirish, masalan, miqdorini kamayishi tartibida. Endi bola bevosita idrok ta'sirini yengib o'tib, ma'lum bir vaziyatga mantiqiy tafakkurni tatbiq etadi. Ijtimoiy va madaniy qurshov rivojlanish bosqichining kechishi tezligini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin. Birinchi navbatda bu unga mashg'ulot uchun to'g'ri keladigan materiallarni, ham yechish uchun topshiriqlarni yetkazib berish hisobiga amalga oshadi. Tayyor bilimni berish to'g'ri javoblarni yod olish samarasiz, rivojlanish insonning shaxsiy faolligi amalga oshib, bilish jarayonlari faol tashkillashtirilib, tartibga solinganda sodir bo'ladi. Shuningdek, tafakkurning rivojlanishi uchun va ayniqsa, boshqa nuqtayi nazarlarni anglashni rivojlantirish uchun g'oyalar, fikr-mulohazalar almashinuvi va tengdoshlar bilan bo'lgan bahs-munozara muhim.

Aniq operatsion tafakkurga o'tish barcha psixik jarayonlar, axloqiy fikrlar va qobiliyatlarni boshqa odamlar bilan hamkorlikka moslashtiradi. Biroq barcha bu mantiqiy operatsiyalar aniq faqatgina haqiqiy, ko'zga ko'rinadigan, anglanadigan predmetlar va ular bilan bog'liq bo'lgan harakatlarga qo'llaniladi, bola haqiqat havola etilgan aniq mazmunga bo'ysunadi.

Rasmiy pozitsion operatsiya bosqichi (12—15 yosh).

Rasmiy-operatsion tuzilishlar bolani taxminiy va aniq tayanchga ega bo'lmagan predmet doirasini tuzilishidan mustaqil ravishda fikr yuritish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Rasmiy formal fikrlash operatsiyalari asosi katta yoshdagi insonlar man-

tiqidir, ularga faraz va deduksiya yordamida shakllanadigan elementar ilmiy tafakkur asoslanadi. Mavhum tafakkur rasmiy formal mantiq va uyg'unlik, kombinatorlik qoidalariga muvofiq bir fikrga xulosaga kelish qobiliyatini o'zida namoyon etadi. Bu o'smirlarga farazlarni ilgari surib tafakkur rasmiy formal mantiq va uyg'unlik kombinatorlik qoidalariga muvofiq bir fikrga xulosaga kelish qobiliyatini o'zida namoyon etadi. Bu o'smirlarga farazlarni ilgari surib, ularning eksperimental tadqiqini o'ylab topishga, xulosalar chiqarishga yordam beradi. Ayrim oddiy fizik qonunlarning birikishiga qaratilgan eksperimentda o'smirlarning yangi muvaffaqiyati, ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Mayatnikning tebranish qonuni, sariq rangdagi suyuqlikni olish uchun rangsiz suyuqliklarni qo'shish usullari, ayrim materiallari egiluvchanligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, tekislik bo'ylab sirg'anishida tezlikning ortishiga ta'sir qiluvchi omillar.

Bu vaziyatda bola operatsiyadan oldingi darajada omad uchun tartibsiz harakat qiladi, intellektning aniq bir darajasidagi bola birmuncha darajada tashkilotchi, bir qancha variantlarni sinab ko'radi, faqat ularning orasida keraklisi yo'q va keyinchalik harakat qilib ko'rishdan voz kechadi. Rasmiy formal darajadagi o'smir bir qancha urinishdan so'ng material bilan bevosita eksperiment o'tkazishdan to'xtaydi va barcha mumkin bo'lgan farazlar ro'yxatini tuzishga kirishadi. Faqatgina bundan so'ng o'smir mavjud bo'lgan o'zgaruvchilarni ajratib, ularning har birini o'ziga xos ta'sirini o'rganishga intilib, farazlarni ketma-ket tekshirishni boshlaydi. Barcha mumkin bo'lgan uyg'unliklarni kombinatsiyalarni tizimli sinab ko'rish xulq-atvorning bunday tipi yangi mantiqiy tuzilishlarga asoslanadi. J.Piaje ularning xarakteristikasi tasnifi uchun pozitsiyali propozitsional mantiq tilini qo'llaydi. O'smirda o'zining bevosita tajribasi chegarasidan chiqib, kattalar dunyoqarashiga uyg'unlashish nazariyani tuzish va tushunish qobiliyati paydo bo'ladi. Taxminiy mulohaza o'smirni yuzaga chiqishga tayyor turgan imkoniyatlar sohasiga yetaklaydi, bunda ideallashtirilgan tasavvurlar har doim ham sinovga uchramay-

di va ko‘pincha aniq dalillarga qarshilik ko‘rsatadi. J.Piaje kognitiv egotsentriзмning o‘smirlik shaklini, birmuncha darajada mukammal olamni yaratishga intilishda chegarasiz kuchni tafakkurga muhrlab qo‘yuvchi o‘smirning sodda idealizmi deb atagan.

Faqatgina kattalarning yangi ijtimoiy rollarini o‘ziga qabul qilgan o‘smir qarama-qarshiliklar bilan to‘qnashadi tashqi vaziyat sharoitni inobatga olishni boshlaydi, yangi sohada mutloq intellektual detsentratsiya markaziy bo‘lgan ba’zi vazifalarni mahalliyga berish yuz beradi. J.Piaje o‘spirinlikdan yetuklik yoshiga o‘tish davrida intellektning keyingi rivoji uni muayyan maqsadga yo‘naltirishga doir qator muammolarni e’tirof etgan.

Hayotiy dasturlarni tuzish davrida 15 yoshdan 20 yoshga qadar intellektual differentsiatsiya farqlanish jarayonini kuzatish mumkin, birinchidan shaxsiy vazifalar bilan muvofiqlikda har bir individ tomonidan o‘ziga xos tarzda qo‘llaniladigan umumiy-kognitiv tuzilishlar, ikkinchidan faoliyatning turli sohalari uchun alohida tuzilishlar hosil bo‘ladi.

9.3. J-Piaje nazariyasining asosiy fikrlari tanqidi

Bolaning egotsentrik bilish pozitsiyasi fenomeni mavjudligi yoki juda bo‘lmaganda, uni ifodalanishi chuqurligi eng avvalo eksperimental tadqiq va tanqidga uchraydi. Shunday qilib, ayrim tadqiqotchilar J.Piaje topshiriqlari bola uchun emotsional qiziqarsiz, ma’no-mazmunsiz bo‘lgani bois, u uchun qiyinligini isbotlashga harakat qilganlar. Yoki bolalar mantiqiy tuzilish mavjud emasligidan emas, balki savollarda ifodalangan fikrlarni tushunish qiyinligi, ularni eslab qololmasligi, faqatgina vazifani emas, balki butun eksperimental holatni yaxlitlikda o‘ziga xos talqin qilishida xatolarga yo‘l qo‘yadi. Aniqlanishicha, maktabgacha tarbiya yoshidayoq egotsentriзм tendensiyasi aqliy harakatlar va tushunchalarni P.Ya.Galperin, L.F.Obuxova rejali shakllantirish metodi bo‘yicha maxsus tashkillashtirilgan o‘qitish sharoitlarida muvaffaqiyat qilinadi. E’tirof etilishicha, egotsentriзм yosh davri funksiyasi sifatida emas, balki bola faoliyatini ma’lum bir

doirada tashkillashtirish funksiyasi sifatida talqin qilinishi kerak. L.S.Vigotskiy, V.A.Nedospasova, EVFilippova egotsentrik qaror kattalarda qiyin vaziyatlarda kuzatilishi mumkin, lekin bu adekvat o'qitishdan o'tgan bolalarda kuzatilmaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Jan Piaje bolalarning miyasi rivojlanishiga qanday omil ta'sir ko'rsatadi deb hisoblagan?

2. J.Piaje taxminiga ko'ra, bolalar fikrlarini nechta guruhga bo'lish mumkin?

3. Egoizm qanday tushuncha?

4. Sensomotor intellekt qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?

5. Sensomotor intellektning tarkibiy tuzilishini ayting.

6. Hayotiy dasturlarni tuzish davri qanday kechadi?

7. Egotsentrik nutq nutqning qanday shakli?

8. Egotsentrizm nima?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Jan Piaje bolalarning miyasi rivojlanishiga qanday omil ta'sir ko'rsatadi deb hisoblagan?

a) *bolalarning miyasi rivojlanishiga fizik olam ta'sir ko'rsatadi deb hisoblagan;

b) bolalarning miyasi rivojlanishiga biologik olam ta'sir ko'rsatadi deb hisoblagan;

c) bolalarning miyasi rivojlanishiga ichki olam ta'sir ko'rsatadi deb hisoblagan;

d) bolalarning miyasi rivojlanishiga atrof-muhit, ota-ona tarbiyasi ta'sir ko'rsatadi deb hisoblagan.

2. J.Piaje taxminiga ko'ra, bolalar fikrlarini nechta guruhga bo'lish mumkin?

a) 3; b) *2; c) 5; d) 4.

3. Egotsentrizm qanday tushuncha?

a) (lot. ego — men, centrum — markaz) — individualizm va egoizmning eng tuban turi.

b) *(lot. ego — men) — o‘z-o‘ziga mahliyo bo‘lish, o‘zining fazilatlari haqida yuqori fikrga ega bo‘lish;

c) nutq faoliyatining ovoz chiqarmasdan ifoda etiladigan alohida turi;

d) (lot. ego — men, centrum — markaz) — nutq faoliyati bo‘lib,

bog‘cha bolasining o‘yini bilan birga olib boriladigan va bolalarning o‘z-o‘ziga qaratilgan nutqi.

4. Sensomotor intellekt qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi?

a) * tug‘lgandan 1,5 yoshga qadar;

b) 1,5—2 yoshdan 11 yoshga qadar;

c) 11—12 yoshdan 14—15 yoshga qadar;

d) 16 yoshdan 18 yoshga qadar.

5. Egotsentrik nutq nutqning qanday shakli?

a) *nutq faoliyati bo‘lib, bog‘cha bolasining o‘yini bilan birga olib boriladigan va bolalarning o‘z-o‘ziga qaratilgan nutqi;

b) nutq faoliyatining ovoz chiqarmasdan ifoda etiladigan alohida turi;

c) o‘z-o‘ziga mahliyo bo‘lish, o‘zining fazilatlari haqida yuqori fikrga ega bo‘lish;

d) nutq faoliyatining ovoz chiqarib ifoda etiladigan alohida tu-

...:

X BOB. PSIXIK RIVOJLANISHNI TUSHUNISHNING MADANIY-TARIXIY KONSEPSIYASL L.S.VIGOTSKIY VA

UNING MAKTABI

Reja:

1. Oliy psixik funksiyalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi.
2. Inson psixik rivojlanishining o'ziga xos muammolari.
3. Inson psixik rivojlanishini o'rganish metodlari muammosi.
4. Ta'lim va rivojlanish muammolari.
5. L.S.Vigotskiyning psixik taraqqiyotni madaniy-tarixiy nazariyasi.
6. Psixik rivojlanish taraqqiyotini o'rganishda ikkita paradigmalalar.

Mavzu o'quv maqsadi:

Ta'limiy: bo'lajak psixologlarga oliy psixik funksiyalarni yuzaga kelishi va rivojlanishi, ta'lim va rivojlanish muammolari, L.S.Vigotskiyning psixik taraqqiyotni madaniy-tarixiy nazariyasi haqida ma'lumotlar berish.

Tarbiyaviy: bo'lajak psixologlar tomonidan L.S.Vigotskiyning psixik taraqqiyotni madaniy-tarixiy nazariyasi haqida bilim, malaka va ko'nikmalari asosida dunyoqarashini kengaytirish.

Rivojlantiruvchi: mavzuning ta'limiy va tarbiyaviy o'quv maqsadlari asosida talaba shaxsini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: Oliy psixik funksiyalar, involyutsiya, madaniy-tarixiy nazariyasi, rivojlanishning eng yaqin zonasi, aktual zona.

10.1. Oliy psixik funksiyalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi

Yosh davrlari psixologiyasining asosini L.S.Vigotskiy (1896—1934) tomonidan shakllantirilgan asosiy tushunchalarning qat'iy g'oyalari va tizimlari tashkil qiladi.

1920—1930-yillarda L.S.Vigotskiy tomonidan psixik rivojlanishning madaniy-tarixiy nazariyasining asosi ishlab chiqilgan. Garchi L.S.Vigotskiy tugallangan nazariyani yaratishga ulgurmasan bo'lsa-da, lekin olim ijodida bolalikdagi psixik rivojlanish

haqida umumiy tushuncha yoritilgan edi. Keyinchalik, A.N.Leontev, A.R.Luriya, A.V.Zaparojets, D.B.Elkonin, L.I.Bojovich, M.I.Lisina va L.S.Vigotskiy maktabining boshqa vakillari ishlari-da rivojlantirib, oydinlashtirilgan va aniqlangan. L.S.Vigotskiy-ning quyidagi ishlarida madaniy-tarixiy yondashuvning asosiy mazmuni yoritilgan. «Bolaning madaniy rivojlanish muammolari» (1928), «Psixologiyadagi instrumental metod» (1930), «Bola rivojlanishida vosita va belgilar» (1930), «Oliy psixik funksiyalar-ning rivojlanish tarixi» (1930—1931) olimning juda mashhur ki-tobi «Tafakkur va nutq» (1933-1934) va qator boshqalar. L.S.Vi-gotskiy XX asrning birinchi o‘n yilligida fan sifatida psixologiyani inqirozga yuz tutish sabablarini tahlil qilib psixik rivojlanishning barcha zamonaviy ta’limotlarida unga nisbatan yondashuv qo‘lla-nilganligini aniqladi, ularni biologizator, biologik to‘siq yoki na-turalistik tabiiylik deb atagan. Biologik to‘siq talqini bolaning rivojlanish va hayvonning psixik rivojlanishini bir qatorga qo‘yib, tenglashtiradi.



L.S.Vigotskiy

L.S.Vigotskiy psixik rivojlanishga nisbatan bildirilgan an'anaviy

nuqtayi nazarni baholab, assotsiativ va bixeviorizm psixologiyasiga taalluqli 3 ta asosiy qoidani ajratgan:

— oliy psixik funksiyalarni ularni tashkil qiluvchi tabiiy jarayonlar tomonidan o'rganish;

— oliy va murakkab jarayonlardan elementargacha bilish;

— xulq-atvorning madaniy rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini e'tiborga olmaslik.

U oliy psixik jarayonlarni tadqiq qilishga bunday yondashuvni, uning umumiy noadekvatligini ko'rsatib, «atomistik» deb atagan. L.S.Vigotskiy an'anaviy yondashuvni tanqid qilib, shunday yozadi: «Bolalar psixologiyasiga oliy psixik funksiyalar rivojlanishi tushunchasini o'zi begona, u bolaning psixik rivojlanishi tushunchasini bolaning organik yetilish funksiyasi sifatida, miya rivojlanishidan bevosita bogliqlikda keluvchi, elementar funksiyalarni biologik rivoji bilan chegaralaydi». L.S.Vigotskiy insonning oliy psixik funksiyalari rivojlanishini tushunish uchun, biologik bo'lmagan, boshqacha yondashuv zarurligini ta'kidlagan. U bolaning rivojlanishi uchun nafaqat ijtimoiy muhit muhimligini ko'rsatgan, balki bu ta'sirning aniq mexanizmini aniqlashga harakat qilgan. L.S.Vigotskiy quyi elementar psixik funksiyalarni tabiiy rivojlanish davri va yuqori psixik funksiyalarni madaniy rivojlanish davri ajratgan. L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan faraz, elementar va oliy psixik funksiyalar o'rtasidagi aloqa muammolarining yangi yechimini taklif etgan. Ular o'rtasidagi asosiy farq ixtiyoriylik darajasidadir, ya'ni tabiiy psixik jarayonlar inson tomonidan boshqarib bo'linmaydi, oliy psixik funksiyalarni odamlar ongli boshqarishi mumkin. L.S.Vigotskiy ongli boshqarish bevosita xarakteri bilan bog'liq, degan xulosaga keldi.

L.S.Vigotskiy eng avvalo noaniqlikning bu klassik vaziyati yoki muammoli holat ikkita teng imkoniyatlar o'rtasidagi tanlov yuzaga kelgan vaziyatni tubdan o'zgartirishga yordam beradigan vositalar nuqtayi nazaridan qiziqtirgan. L.S.Vigotskiy bo'yicha inson tomonidan tashlangan gur'a vosita hisoblanib, uning

yordamida inson ushbu vaziyatni tubdan o'zgartiradi va hal etadi. Inson reaksiyasi va ta'sir ko'rsatuvchi stimullar qo'zg'atuvchilar o'rtasida bog'lovchi bo'g'in orqali qo'shimcha aloqa hosil bo'ladi — stimul vosita yoki belgi. Belgilar yoki stimul vositalar bu — psixik qurol bo'lib, mehnat qurolidan farqli ravishda, fizik olamni emas, balki unda harakat qiluvchi subyektning ongini o'zgartiradi. Belgi — bu ma'lum bir ma'no ahamiyatga ega bo'lgan har qanday shartli belgidir, stimuldur, timsoldir. Inson tomonidan yaratilgan bo'lishi mumkin bo'lgan stimul vositadan farqli ravishda, masalan, ro'molchadagi tugun yoki harorat o'lhagich o'rniga tayoqcha, belgilar bolalar tomonidan yaratilmaydi, biroq kattalar bilan bo'lgan muloqotda ular tomonidan egallanadi. Inson uchun xos bo'lgan oliy psixik funksiyalarning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatuvchi, bolaning psixikasi o'zgarish mexanizmi — bu psixik faoliyatni tartibga solish vositasi sifatida belgilar interiorizatsiyasi mexanizmidir.

Interiorizatsiya — filogenez va ontogenezda oliy psixik funksiyalar rivojlanishining fundamental asosiy qonunidir. L.S.Vigotskiyning oliy psixik funksiyalarning yuzaga kelishi va tabiati haqidagi farazi shundadir. Bolaning oliy psixik funksiyasi dastavval boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish shakli sifatida, jamoaviy xulq-atvor shakli sifatida yuzaga keladi hamda keyinchalik faqatgina interiorizatsiya yo'li orqaligina ular shaxsiy individual funksiyalarga aylanadi, yoki L.S.Vigotskiy yozganidek — bolaning madaniy rivojlanishidagi har qanday funktsiya sahnada ikki marotaba, ikki xil doirada — dastlab-ijtimoiy, so'ngra — psixologik, dastavval interpsixik kategoriya sifatida odamlar o'rtasida, keyin esa intrapsixik kategoriya sifatida bolaning ichida paydo bo'ladi.

Masalan, agar oliy psixik funktsiya sifatida ixtiyoriy diqqat haqida so'z yuritadigan bo'lsak, uning shakllanish bosqichlari ketma-ketligi quyidagicha dastlab, kattalar muloqotda bolaning diqqatini qaratadi, jalb qiladi va yo'naltiradi, asta-sekin bolaning o'zi jest, imo-ishora harakatlari va so'zlar ro'yxatini o'zlashtirib oladi, o'zgalarning va o'z diqqatini tartibga solish usullari inte-

reriorizatsiya yuz beradi. Shuningdek, nutq ham dastlab, odamlar oʻrtasidagi muloqotning tashqi vositasi sifatida namoyon boʻlib, u oraliq bosqichga egotsentrik nutq oʻtadi, intellektual funksiyani bajarishni boshlaydi va asta-sekin ichki, interiorizatsion psixik funksiyaga aylanadi. Shunday qilib, belgi dastlab tashqi doirada, muloqot doirasida, keyin esa ichki doiraga, ong doirasiga oʻtadi. Interiorizatsiya muammosi oʻsha yillardayoq fransuz ijtimoiy maktablari tomonidan ishlab chiqilgan. Oldindan mavjud boʻlgan va avvaldan assotsiatsiyalashgan individual ongga sirdan umumiy ongning ayrim shakllari bogʻlanadi:

—fransuz psixologik maktablarining tasavvurlari shundan iborat. L.S.Vigotskiy uchun ong faqat interiorizatsiya jarayonida shakllanadi — hech qanday na filogenetik, na ontogenetik avvaldan mavjud boʻlgan asotsial ong mavjud emas. Interiorizatsiya jarayonida insoniyat ongi shakllanadi, mantiqiy tafakkur, iroda, nutq kabi insoniyatga xos boʻlgan psixik jarayonlar yuzaga keladi. Belgilar interiorizatsiyasi bolaning psixikasini shakllantiruvchi mexanizm hisoblanadi. L.S.Vigotskiy oliy psixik funksiyalar rivojlanishi umumiy tushunchasiga bola xulq-atvorining oliy yuqori shakllarini rivojlanish jarayonini birgalikda hosil qiluvchi ikki guruh hodisani kiritgan;

—tafakkur va madaniy rivojlanishning tashqi vositalari sifatida til, imlo, hisob, tasvirni egallash oʻzlashtirish jarayonlari;

—maxsus oliy psixiy funksiyalarni rivojlantirish jarayonlari ixtiyoriy diqqat, mantiqiy xotira, tushuncha va boshqa oliy psixik funksiyalarni farqlovchi belgilari asoslanganlik, ixtiyoriylik, tizimlilik, hayot mobaynida shakllanadi, namunalar interiorizatsiyasi yoʻli orqali hosil boʻladi. L.S.Vigotskiy insoniyat rivojlanishining ikki tarixiy bosqichlari biologik evolutsion va madaniy tarixiy rivojlanishni ajratib ontogenezdagi rivojlanishning ikkita tipi sifatida ham ularni farqlash va oʻziga xos tarzda alohida qarama-qarshi qoʻllashni muhim deb hisoblagan. Ontogenetik rivojlanish sharoitlarida bu ikki yoʻl biologik va madaniy-murakkab oʻzaro taʼsirda boʻladi, tutashadi, yaxlit, murakkab jarayonni

hosil qiladi. A.M.Matyushkinning ta'kidlashicha, L.S.Vigotskiy uchun asosiy muammo va tadqiqot predmeti ikki turdagi jarayonlar chalkashligini tushunishdan, rivojlanishning har bir bosqichida ularning aniq o'ziga xosligini kuzatishidan, har bir oliy psixik funksiyaga nisbatan va bosqichlarning har biridagi rivojlanishning yoshga bog'liq va individual tipologik ko'rinishini aniqlashdan iborat bo'lgan. L.S.Vigotskiy uchun qiyinchilik madaniy rivojlanishning alohida jarayonini kuzatish va tushunishida emas, balki jarayonlarning murakkab chalkashligida uning o'ziga xosligini tushunishda edi.

10.2. Inson psixik rivojlanishining o'ziga xos muammolari

Biologizatorlik, tarixiy bo'lmagan yondashuv, evolyutsionizm g'oyalariga L.S.Vigotskiy madaniy-tarixiy rivojlanish ta'limoti, tarixiylik g'oyalarini qarama-qarshi qo'ygan L.S.Vigotskiyga muvofiq, madaniy rivojlanishning har bir shakli oddiy organik yetilish emas, balki insoniyat tarixiy rivojlanishining mahsulidir, ijtimoiy hayot jarayonida insoniyatning tabiiy ehtiyojlari chuqur o'zgarishlarga bardosh berdi, yangi insoniyat ehtiyojlari yuzaga keldi va rivojlandi. Insoniyat ontogenezining o'ziga xosligini tushunish uchun rivojlanishning real va ideal shakllari o'rtasidagi nisbat g'oyalari kalit hisoblanadi.

L.S.Vigotskiy o'zining ma'ruzalaridan birida bola taraqqiyotini rivojlanishning boshqa turlari bilan taqqoslab, (embrional, geologik, tarixiy) shunday deydi: «Eng qadimgi, ibtidoiy odam endigina yer yuzida paydo bo'lgan damda, bu ilk shakl bilan bir vaqtning o'zida oliy, pirovard shakl kelajak insoni mavjud bo'lganligini hamda o'sha ideal shakl qandaydir tarzda ibtidoiy odam qo'ygan birinchi qadamga bevosita ta'sir ko'rsatganligini tasavvur qilish mumkinmi? Buni tasavvur qilib bo'lmaydi. Bizga ma'lum bo'lgan rivojlanish turlarining hech birida, ilk shakl skakllanayotgan vaziyatda, rivojlanish so'nggida yuzaga keluvchi oliy shakl, ideal o'z o'rniga ega bo'lganligi hamda u ilk yoki birinchi, shakllar rivojlanishi yo'lida bolaning qo'ygan birinchi qa-

dami bilan bevosita o‘zaro ta’sirda bo‘lganligi hech qachon so-dir bo‘lmagan. Rivojlanishning boshqa turlaridan farqli ravishda bolalar rivojlanishining eng katta o‘ziga xosligi shundan iboratdir, bunday holat rivojlanishning boshqa turlari o‘rtasida aniqlay olinmagan va topolmaymiz ham». Bu o‘z navbatida, bolaning rivojlanishida, shaxs rivojlanish mazmunida va uning o‘ziga xos insoniy xususiyatlarida rivojlanish manbayi rolini o‘ynaydi.

L.S.Vigotskiyga ko‘ra, ijtimoiy muhit bu oddiy tashqi qurshov emas, balki moddiy va ma’naviy madaniyat predmetlariga materiallashgan, turlangan umuminsoniy tajribadir; insoniyat tomonidan yaratilgan predmetlar va hodisalar olami, madaniy ijod, xususan, insoniyat faoliyati olamidir.

Muhit rivojlanishining ideal shakllari namunalarini qamrab oladi, ya’ni bolaning rivojlanishi nimaga intilishi kerak bo‘lsa, katta yoshdagi insonlarning oliy psixik funksiyasi, kattalarning nutq va faoliyati harakati ontogenetik rivojlanish yo‘nalishini belgilab beruvchi bolaning nutqi va faoliyatiga nisbatan ideal shakldir. Ijtimoiy muhit individual psixik rivojlanish manbayi sifatida ontogenezda inson tomonidan o‘zlashtiriladigan va uning psixikasini real shakliga aylanadigan ideal shakllarni mavjudlik makoni sifatida ko‘rib chiqiladi. Inson ijtimoiy mavjudot bo‘lib, u jamiyat bilan o‘zaro ta’sirsiz, o‘zida butun insoniyat rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan o‘sha xususiyatlarni alohida shakllantira olmaydi.

L.S.Vigotskiy oliy psixik funksiyalarni shakllantirishning umumiy mexanizmi deb, bolaning kattalarga taqlid qilishini hisoblagan. Psixik rivojlanishni harakatlantiruvchi kuch omil — ta’limdir. Bolaning oliy psixik funksiyalari hayot davomida kattalar bilan bo‘lgan muloqot natijasida shakllanadi L.S.Vigotskiy muloqot vositasi deb madaniyat fenomeni sifatida nutq belgisini e’tirof etgan. Insoniyat jamiyatini tarixiy rivojlanishi davomida ishlab chiqilgan maxsus qurol-vositalarni qo‘llash usullarini egallash — ya’ni ta’lim yetilish emas, psixik rivojlanish kechishi va yo‘nalishini ijtimoiydan individualgacha aniqlaydi. Bolaning

i ivojlanishini muhim sharti organizmning barcha funksional lizimlarini to'liqligi bir butunligi, me'yorda ishlovchi miyadir. Tabiiy o'ziga xos xususiyatlarning ulkan variativligini inkor qilish, organik rivojlanishning ijobiy yoki salbiy omillari ahamiyatini to'g'ri baholamaslik mumkin emas. Biroq o'zining mohiyati I iga ko'ra, ta'lim va tarbiya tabiiy o'ziga xos xususiyatlar rovidan yuqori turadi. Keng ma'noda insoniyat jamiyatida hayotning o'zi, (abiiy ta'lim bolaning insoniy rivojlanishini o'ziga xos sharti hisoblanadi.

Bundan tashqari, maxsus tashkillashtirilgan maqsadga yo'nalirilgan ta'limiy jarayon sifatida ta'lim psixik rivojlanishning turli lomonlari uchun muhim. Ko'r, kar bolaning to'laqonli rivojlanishiga u bilan maxsus tashkil etilgan ta'lim va muloqot orqali erishish mumkin va aksincha ko'pgina hollarda jismonan sog'lom bolalarning eng maqbul shart-sharoitlari ham kattalar bilan muloqotning kamligi, bolalar faoliyatini tashkil etishning adekvat shakllarining yo'qligi bois amalga oshmay qolishi mumkin. Shunday qilib, og'zaki va yozma nutqning rivojlanishi uchun fonematik eshitish muhim. U bir tomondan insonning nerv tizimi va eshitish apparatiga asoslanadi, biroq nutqni egallash jarayonida shakllanadi. Shunday, qilib madaniy-tarixiy yondashuvga me'yor darajasida taraqqiyot variativligiga ta'sir ko'rsatuvchi rivojlanish sharoitlari ostida miya va muloqotning morfofiziologik o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi.

10.3. Inson psixik rivojlanishini o'rganish metodlari muammosi

Inson xulq-atvorining shakllari oliy psixik funksiyalar va psixikaning madaniy-tarixiy rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish vazifasi tadqiqotning muvofiq metodini talab qiladi. L.S.Vigotskiy tomonidan tadqiqotning yangi metodini ishlab chiqishi stimulyatsiya nazariy va eksperimental chizmasida aks ettirilgan hamda klassik bixeviorizmning ilmiy yondashuvlariga asoslangan, shakllangan eksperimentning umumiy metodiga qaraganda qarshi qo'llash yo'li orqali amalga oshirilgan. L. S. Vigotskiy

psixik hodisalarni tadqiq qilishning yangi eksperimental-genetik metodini ishlab chiqqan. Shakllantiruvchi eksperiment metodining g'oyasi xulq-atvorning ma'lum bir shakllari genezisini (genesis — kelib chiqish payti va taraqqiyot jarayoni) yangidan yaratishdan iborat, xususan, bir shakldan boshqasiga o'tish bosqichini oddiy qayd qilish emas, balki bu yangi shaklga o'tish jarayonini o'zini o'rganish muhim. L.S.Vigotskiyning eksperimental genetik metodi psixologiyadagi tarixiylik tamoyilini amalga oshiradi. Tarixiy o'rganish psixik hodisalarni tadqiq qilishga rivojlanish kategoriyalarini, tushunchalarini tatbiq qilishni anglatadi.

Nimanidir tarixiy o'rganish harakatda o'rganish demakdir. Bu dialektik metodning asosiy talabi hamdir. L.S.Vigotskiy o'zining nutq tushunchalari rivojlanishning eksperimental tadqiqotida tilning asosiy birligi sifatida so'z tarixining empirik bosqichini aniqlash emas, balki so'zlar ortida turuvchi o'sha aloqa tizimining funksional rolini qayd qilish vazifasini qo'ygan. L.S.Vigotskiy tajribalari so'zlar ahamiyati ortishini isbotladi va kundalik va ilmiy tushunchalar shakllanish jarayonining o'zini kuzatish imkonini berdi. Mukammallashtirilgan shakllantiruvchi eksperiment tadqiqotning genetik modellashtiruvchi metodi nomini olgan.

10.4. Ta'lim va rivojlanish muammolari

Dastlab bu muammo L.S.Vigotskiy tomonidan inson ongi va oliy psixik funksiyalar rivojlanishi doirasida ko'rib chiqilgan edi. L.S.Vigotskiyga ko'ra, ong shakllanishi inson rivojlanishining eng muhim yo'li hisoblanadi. Insoniyat ongini alohida psixik funksiyalarga taqsimlab bo'lmaydi, u o'zida mexanik yig'indini emas, balki oliy psixik funksiyalar tuzumini tuzilmaviy tuzilishini aks ettiradi. Ya'ni ong tizimli tuzilishga ega. Hech bir psixik funktsiya alohida holatda izolatsiyada rivojlanmaydi. Aksincha, uning taraqqiyoti, u qaysi tuzilishga kirish va unda qanday o'rin egalashiga bog'liq. Masalan, ilk bolalikda ong markazida idrok, maktabgacha tarbiya yoshida asosiy psixik funktsiya xotira, maktab yoshida tafakkur bo'ladi. Qolgan barcha psixik jarayonlar ust-

vor bo'lgan funksiyalar ta'siri ostida rivojlanadi. Bola asta-sekin inson va olam o'rtasida doimo mavjud bo'lgan madaniy vositalar nutq belgilari mazmun ma'noni o'zlashtirib borib, ularning juda muhim bo'lgan tomonlarini kashf etadi. Ongning mazmuniy tuzilishi bu ushbu insonning og'zaki umumlashtirish so'zlar mohiyatini rivojlanish darajasidir. L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishiga ta'limning ta'siri haqidagi tezisni ongning tuzilishi va mazmuniy hamda uni ontogenezdagi taraqqiyoti haqidagi farazlar ko'rinishida shakllantirgan. L.S.Vigotskiyning fikriga ko'ra, onga faqat nutq orqaligini kirish mumkin. Psixik rivojlanish jarayoni ongning tizimli tuzilishini o'zgartirish qayta tuzish umumlashtirishning mazmuniy tomonlari rivojlanish darajasining o'zgarishiga asoslanadi. So'z mazmun mohiyatini boyitib, umumlashtirish darajasini oshirib, odamlarning nutqiy muloqoti orqali ongning tizimli tuzilishini o'zgartirish mumkin, ya'ni ta'lim orqali ong taraqqiyotini boshqarish mumkin. Bolada insonga tarixiy xos bo'lgan xususiyatlarni rivojlanish jarayonida ta'lim ichki muhim va umumiy holat hisoblanadi.

1931—1934-yillarda L.S.Vigotskiy tomonidan aqliy taraqqiyot va ta'limning aloqasi muammosiga bevosita taalluqli bo'lgan eksperimental tadqiqot o'tkazilgan bo'lib, unda bolalarni kundalik va ilmiy tushunchalarni ona tili va chet tillarini og'zaki va yozma nutqni o'zlashtirishlari qiyosiy o'rganilgan. Bu tadqiqot ma'lumotlari ta'lim va rivojlanish muammolarini tushunishda yangi darajaga chiqishga imkon berdi. Ta'lim rivojlanishga aynan o'xshash emas. Har qaysi ta'lim rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuch rolini bajarmaydi, hatto u befoyda bo'lishi yoki rivojlanishni tormozlab qo'yishi ham mumkin. Ta'lim rivojlantiruvchi bo'lishi uchun u rivojlanishning tugallangan sikliga, davriga emas, balki bolaning yaqin rivojlanish chegarasida, doirasida yuzaga keladigan e'tiborini, diqqatini, ahamiyatini qaratishi kerak. Yaqin rivojlanish chegarasi shakllanayotgan funksiyalarni rivojlanish mahsuli emas, balki rivojlanish kurtagi, rivojlanish gullari deb atash mumkin. L.S.Vigotskiy tomonidan yaqin rivojlanish

chegarasi bolaning zarur, muhim, aktual aqliy rivojlanish darajasi hamda ehtimoli mavjud bo'lgan rivojlanish darajasi o'rtasidagi oraliq tafovut sifatida aniqlanadi. Bola tomonidan mustaqil ravishda hal etilayotgan topshiriqning murakkablik darajasi zarur aktual rivojlanish darajasini anglatadi. Kattalar ishtiroki ostida hal etilayotgan topshiriqning murakkablik darajasi potensial imkoniyat darajasini aniqlaydi. Yaqin rivojlanish chegarasida bola va kattalarning hamkorlikdagi faoliyatida shakllanadigan psixik jarayonlar turadi, shakllanish bosqichi tugallangandan so'ng u bolaning o'zini aktual muhim zarur rivojlanish shakliga aylanadi. Bolaning yaqin rivojlanish chegarasidagi o'zgarish dinamikasi rivojlanishi va ta'lim o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqani yashiradi. Yaqin rivojlanish chegarasi fenomeni bolaning aqliy rivojlanishida ta'limning yetakchi roli haqida dalolat beradi, biroq har qanday ta'lim ta'sirli hisoblanmaydi, L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, faqatgina rivojlanishni oldinga undaydigani ta'sirlidir.

Har bir bolada yaqin rivojlanish chegarasining kengligi farqlanadi va uning chuqurligini aniqlash amaliy prognostik taxminiy ahamiyatga ega. Me'yoriy yoshga bog'liq diagnostika erishilgan rivojlanishning faqat tashqi, aniq ko'rinishini kolleksiya qilmasdan, to'plamasdan, balki rivojlanishning ikkala darajasi — aktual muhim va ehtimoli mavjud bo'lganini aniqlashni o'z ichiga olishi kerak, yaqin rivojlanish chegarasi bolaning potensial imkoniyatlarini chuqur xarakterlaydi, ilmiy asoslangan prognoz, bashorat, taxmin qilishga hamda amaliy tavsiyalar berishga yordam beradi. L.S.Vigotskiy bolalar taraqqiyotining 4 ta asosiy qonuniyatlari yoki o'ziga xos xususiyatlarini aniqladi.

1. Davriylik. Davr mobaynida rivojlanish murakkab tuzilmaga ega bo'lib, rivojlanish tempi, tezligi sur'ati hamda tuzilishi bolalik davri mobaynida o'zgarib boradi. O'sish jadal rivojlanish, susayish, sekinlashish, so'nishga o'zgaradi. Bolaning hayotida oying ahamiyati, u rivojlanish davrlarida qanday o'rinni egallashi bilan aniqlanadi, go'daklikdagi oylar o'smirlidagi oylarga nomutanosib.

2. Rivojlanishning notekisligi. Shaxsning turli tomonlari, xususan psixik funksiyalar ham notekis rivojlanadi. Funksiya ustunlik qiladigan davrlar mavjud, bu uning birmuncha darajada jadal muvofiq sur'atda rivojlanish davridir qolgan funksiyalar esa ong ustida bo'ladi hamda ustun bo'lgan funksiyadan tobe bog'liq bo'ladi. Har bir yangi yosh davri funksiyalararo aloqalarni o'zgariganligidan dalolat beradi - markazga boshqa funksiya chiqadi, boshqa funksiyalar o'rtasidagi bog'liqlikning yangi munosabati aniqlanadi.

3. Bola taraqqiyotidagi «metamofozalar». Rivojlanish miqdoriy o'zgarishga olib kelmaydi bu o'sish emas, balki sifat jihatdan o'zgarish qatoridir (zanjirdir). Har bir yosh bosqichida bolaning psixikasi o'ziga xos bo'lib u sifat jihatdan avvalgilaridan va keyingilaridan sifatliroqdir.

4. Bola taraqqiyotida evolutsiya va involutsiya jarayonlarining muvofiqligi. Involutsiya jarayonlari jadal rivojlanishga tabiiy sur'atda hosil bo'lganlar yo'q qilinadi yoki (yangidan tuziladi) tubdan yangilanadi. Masalan, (gapirishni) so'zlashni o'rgangan bola g'uldurab (noaniq) gapirmay qo'yadi.

10.5. L.S.Vigotskiyning psixik taraqqiyotni madaniy-tarixiy nazariyasi

L.S.Vigotskiy tomonidan e'tirof etilgan ong rivojlanishi haqidagi farazga qaytib, ta'kidlab o'tamizki, ko'pgina tadqiqotchilar, uning katta ijodiy (imkoniyatlarini) potensiyalarini tan olib bu ta'limotning ma'lum bir kamchiliklarini ko'rsatib o'tganlar.

Bolaning tafakkuri rivojlanishi uchun kattalar va bolalarning aynan nutq muloqoti rolini alohida bir tik xarakter (bilish jarayonlari ko'rib chiqiladi) daliliy ma'lumotlarga kam asos. Bu farazlardagi kamchiliklar va tarixiy asoslangan cheklovlarni bartaraf etilishi kelgusida madaniy-tarixiy paradigmalarda doirasida rus bolalar psixologiyasi rivojlanishida sodir bo'lgan. 1930-yillar oxirida Xarkov

maktabi psixologlari A.N.Leontev, AVZaporojets, RLZinchenko, P YA Galberin I I Boiovichlar umumlashirishni rivojlanishi aso-

sida nutq, muloqoti emas, balki subyektning bevosita amaliy faoliyati yetishini ko'rsatganlar. Insonning psixik rivojlanishida faoliyatning ahamiyati haqidagi tezis psixik taraqqiyot determinatsiya muammosini yangicha tahlil qilishga hamda rivojlanishning ikki omili talqin izoh chegarasini irsiy va muhit bartaraf etish imkonini berdi. Rus psixologlari ishida, ijimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishi bolaning faqat faol faoliyatidagina sodir bo'lishi ko'rsatilgan. Faoliyat tushunchasining kiritilishi rivojlanish subyekti faolligiga urg'u beradi, rivojlanish muammosini subyektning o'ziga qaratadi. L.F.Obuxova xulosasiga ko'ra rivojlanish jarayoni bu subyektning harakati bo'lib, predmetlardagi uning faoliyati tufayli amalga oshadi, irsiylik va muloqot omillari esa shaxsning individual betakrorligiga bog'liq bo'lgan, zarur shart-sharoitlar hisoblanadi. Bu yerdan rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchlar kategoriyasi tushunchasi yangicha izoh talqin oldi, uning asosida bolaning faoliyati, faoliyatni amalga oshirishda atrof-muhit olam bilan o'zaro aloqa, faoliyat ichidagi qarama-qarshilikni tushuna boshlaganlar D.B.Elkonin rivojlanishning asosiy prinsipial yo'lini ushbu yosh davriga muvofiq

tarzda bolalar faoliyatini tashkillashtirishni e'tirof etib, o'rgatishning, o'qitishning yetakchi roli haqidagi g'oyani chuqurlashtirdi. Psixik rivojlanishning muhim sharti bolaning kattalar bilan muloqoti hisoblanadi. Kattalar va bolalar muloqotini rivojlantirish muammosi M.I.Lisina va uning hamkasblari diqqat markazida bo'lgan. Bola hayotining birinchi yetti yilligi davomida bu jarayonlardagi bir qancha bosqichlar, shuningdek, ularning shakllanganlik mezonlari hamda u yoki bu muloqot bosqichi bilan bevosita bog'liq bo'lgan intellekt va shaxs tuzilishidagi yangi tuzilmalar ajratilgan edi. Tadqiqot natijalari har bir yosh bosqichida kattalar bilan muloqot o'zining maxsus funksiyasini bajarishi haqida dalolat bermoqda. Kattalar bilan bo'lgan muloqotda boshqa odamlar bilan va ularga nisbatan emotsional munosabatga ehtiyoj shakllanadi, psixik jarayonlar rivojlanadi, vositali xarakterdagi predmetli harakatlarni egallash sodir bo'ladi. Kattalar va bolalarning o'zaro aloqa shakllari shakllanish yo'lini bosib o'tadi.

10.6. Psixik rivojlanish taraqqiyotini o'rganishdagi ikkita paradigmalarda

Zamonaviy psixolog L.F.Obuxova, L.S.Vigotskiyning rivojlanishga biologizatorlik, naturalistik va madaniy-tarixiy yondashuvlarning prinsipial asosiy farqlari haqidagi talqiniga tayanib, bolalar rivojlanishi tadqiqotida ikkita asosiy paradigmaning mavjudligi va ajratilishini uqtirgan: tabiiy-ilmiy hamda madaniy-tarixiy. TKundan so'ng u paradigma tushunchasini ma'lum bir vaqt davomida to'plangan yutuqlarni ilmiy birlashmaga muammolarni va ularning yechimini ko'rsatish modeli barcha tomondan tan olingan, ilmiy yutuq sifatida talqin qilgan. L.F.Obuxova ta'kidlashicha, paradigma tushunchasi psixologlar diqqatini psixologik maktab va yo'nalishlar asos qilib olgan ustanovkalar ni anglashga qaratadi, bu ilm-fanning bugungi rivojlanishida, psixologlarni bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina yondashuvlar va ta'limotlar bilan tanishtirishda juda muhim. Tabiiy-ilmiy paradigma ham, yosh davrlar psixologiyasi tarixida ham uning taraqqiyotini zamonaviy bosqichida ko'pgina variantlar asosida ifodalangan. Asosiy naturalistik ustanovkalar biogenetik nazariya me'yoriy yondashuv klassik bixeviorizm, ikkita omil konvergentsiyasi nazariyasi bolani psixoanalitik o'rganish LPiajening intellektual rivojlanish ta'limoti singari tashqi sirdan o'xshamaydigan nazariyalar asosida yotadi. O'sha naturalistik metodologik yondashuvlar etiologik, ekologik, invayronmental, ijtimoiy kognitiv va asoslangan rivojlanishni o'rganishning yangi ta'limoti hamda yo'nalishi yuzaga keladi. Bu paradigmalarda doirasida psixik rivojlanish tuzilishi va sharoitlari haqida ko'pgina empirik dalillar to'plangan samarali tadqiqotlar o'tkazilgan insoniyat hayoti va psixikasining asosiy jihatlari, sohalari, xulq-atvor intellekt va emotsional irodaviy sohalar tahlil qilingan. L.S.Vigotskiy ishlarida asos solingan madaniy-tarixiy paradigmalarda A.N.Leontev, AVZaporjets, PLZinchenko, P.Ya.Galperin, D.B.Elkonin, MTLisina, W.Davidov, L.A.Venger, N.N.Poddyakova, N.F.Talizina, N.G.Salime-

na va ko'pgina boshqalar tadqiqotlarida davom ettirilgan. L.S.Vigotskiy nazariyasining xorijiy izdoshlari D.J.Brunner, M.Kov, S.Skribner, RVan der Veer, DJVerch va boshqalar.

Har ikkala paradigma ham mavjudlikka hamda kelgusida rivojlanish huquqiga ega, ammo ularning asosida bir-birini inkor qiluvchi ilmiy ustanovkalar yotadi, shuning uchun ular oddiy jamlanib bo'lmaydi. Soddashtirilgan elektrik yondashuvlarni va g'oya tushuncha yoki hatto dalillarni tanqid qilmay o'zlashtirib olishdan qochish kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Zamonaviy rus yosh davrlari psixologiyasining asosini nima tashkil qiladi?
2. L.S.Vigotskiyning bolani madaniy rivojlanish muammolariga bag'ishlangan asarlarini ko'rsating.
3. L.S.Vigotskiy psixik hodisalarni tadqiq qilishda qanday metodni ishlab chiqqan?
4. L.S.Vigotskiy o'zining nutq tushunchalari rivojlanishining eksperimental tadqiqotida tilning asosiy birligi sifatiga qanday ta'rif bergan?
5. Bolalar taraqqiyotining 4 ta asosiy qonuniyatlari yoki o'ziga xos xususiyatlarini kim aniqlagan?
6. Davriylik qanday kechadi?
7. Involutsiya jarayoni qanday kechadi?
8. Involutsiya jarayonini ko'rsating.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. L.S.Vigotskiyning bolani madaniy rivojlanish muammolariga bag'ishlangan asarlarini ko'rsating.
 - a) *«Psixologiyadagi instrumental metod», «Bola rivojlanishida vosita va belgilar», «Oliy psixik funksiyalarni rivojlanish tarixi», «Tafakkur va nutq»;
 - b) «Buyuk didaktika», «Psixologiyadagi instrumental metod», «Tafakkur va nutq»;

c) «Psixologiyadagi instrumental metod», «Bola rivojlanishida vosita va belgilar»;

d) «Tarbiya prinsiplari», «Bola rivojlanishida vosita va belgilar»,

«Oliy psixik funksiyalarning rivojlanish tarixi», «Tafakkur va nutq».

2. L.S.Vigotskiy psixik hodisalarni tadqiq qilishda qanday metodni ishlab chiqqan?

a) *eksperimental-genetik metodni ishlab chiqqan;

b) eksperimental metodni ishlab chiqqan;

c) kuzatuv metodini ishlab chiqqan;

d) analiz-sintez metodini ishlab chiqqan.

3. L.S.Vigotskiy o'zining nutqtushunchalari rivojlanishining ekspe-

rimental tadqiqotida tilning asosiy birligi sifatida qanday ta'rif bergan?

a) so'z tarixining empirik bosqichini aniqlash;

b) *tilning asosiy birligi sifatida so'z tarixining empirik bosqichini aniqlash emas, balki so'zlar ortida turuvchi o'sha aloqa tizimining funksional rolini qayd qilish vazifasini qo'ygan;

c) so'zlar ortida turuvchi o'sha aloqa tizimining funksional rolini qayd qilish vazifasini qo'ygan;

d) so'zni muloqot faoliyatining asosiy bo'g'ini va omili deb atagan.

4. Tushuncha nima?

a) tafakkur qilish usuli, bunda murakkab obyektlar qismlarga bo'linib o'rganiladi;

b) *narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bit-ta o'zi yoki so'zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli;

c) biror narsaning ma'nosi va ahamiyatini anglash qobiliyati, asosiy erishilgan natijasi;

d) inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

5. Involutsiya jarayoni qanday kechadi?

a) iadal rivojlanishga tayanadi.

XI BOB. INSON PSIXIK RIVOJLANISHINING BOSQICHLARI: ONTOGENEZDA RIVOJLANISHNI DAVRLASHTIRISH MUAMMOSI

Raja:

1. Yoshga oid davrlarning tarixiy kelib chiqish muammosi.
2. «Psixologik yosh» kategoriyasi va L.S.Vigotskiy ishlarida bolalar rivojlanishini davrlashtirish muammosi.
3. D.B.Elkoninning rivojlanishni davrlashtirish va yoshga oid dinamikasi haqidagi tasavvurlari.
4. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosini hal etishdagi zamonaviy yondashuvlar.

Mavzuning o'quv maqsadi:

Ta'limiy: bo'lajak psixologlar tomonidan rivojlanishni davrlashtirish haqidagi bilimlarning o'zlashtirilishini tashkil etish.

Tarbiyaviy: bo'lajak psixologlar tomonidan ontogenezdagi rivojlanishni davrlashtirish muammosi haqida bilim, malaka va ko'nikmalari asosida dunyoqarashini kengaytirish.


Rivojlantiruvchi: mavzuning ta'limiy va tarbiyaviy o'quv maqsadlari asosida talaba shaxsini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: psixologik yosh, rivojlanishni davrlashtirish, madaniy-tarixiy fenomen.

11.1. Yoshga oid davrlarning tarixiy kelib chiqish muammosi

Yosh davrlari psixologiyasi predmeti haqidagi tasavvurlar fan rivojlanishi davomida chuqurlashib bordi. Biroq, ta'kidlash joizki, inonning hayot siklini tuzilishi va mazmuni, ya'ni o'rganilayotgan obyektning o'zi tarixiy o'zgarishlarga moyil. Bu ma'noda L.S.Vigotskiy (abadiy) «hamisha bola» tushunchasini tanqid qilib, buning o'rniga «tarixiy bolalik» haqidagi holatni ilgari surib, o'z fikrini bildirgan. Psixik rivojlanish jarayoni organizmning yetilishi va tabiatning mangu (abadiy) qonunlariga bo'ysunmaydi, shuning uchun «hamisha», («Abadiy») bolalik haqida gapirib bo'lmaydi. Madaniy tarixiy fenomen sifatida bolalik tarixi jamiyat tarixi hi

ega bo'lgan, murakkab ijtimoiy-madaniy hodisadir. Fransuz tarixchisi F. Arlesning o'ziga xos tadqiqotlarida bolalik tushunchasi insoniyat tarixiy rivojlanishi davomida qanday shakllanganligi va turli davrlarda u nimasi bilan farqlanganligi ko'rsatilgan. F. Arles san'at asarlari, badiiy asarlar, o'tgan davrdagi insonlar maktublarini tahlil qilgan. U ijtimoiy hayotning rivojlanishi, yangi ijtimoiy institutlarning paydo bo'lishi insoniyat hayotining yosh davrlarini ajratilishiga olib keladi, degan xulosaga keldi. Masalan, oila ichida kichkintoyni «erkalatish» va «suyish» bilan bog'liq ilk bolalik davri yuzaga keladi. Ijtimoiy institut sifatida maktab, katta hayotga bolalarni muntazam tayyorlash majburiyatini oladi, maktabning sinf jamoasi bolalik va o'smir-o'spirinlik tushunchalarini («3-sinf o'quvchisi») «beshinchi sinfdagi» yaxshiroq farqlaydi. Harbiy xizmat va majburiy harbiy majburiyatning kiritilishi o'spirinlik davrini shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday tarzda F. Arles mavjud bo'lgan davr ustiga yangi davrni qurish hisobidan, bolalikni uzaytirishning tarixiy tendensiyasini ko'rsatishga harakat qilgan.



D. B. Elkonin

D.B.Elkonin hayvonlarning ba'zi turlarida instinktiv xulq-atvorning alohida shakllari yo'qolishini boshlaganda ontogenez davri sifatida bolalik yuzaga kelganligi haqida o'ziga xos g'oyani ilgari surgan. Ushbu hayvonlar tomonidan xulq-atvorning zarur shakllarini hayot davomida egallash uchun ham bolalik vujudga kelgan. Insoniyat bolaligining o'ziga xosligi shundaki, go'dak hatto tug'ma organik ehtiyojlarni qondirishning instinktiv usullari butunlay bo'lmagan, mutloq o'jiz mavjudot bo'lib tug'iladi. Insonning barcha xulq-atvori egallab boriladi. Shuning uchun unga juda uzoq davom etuvchi bolalik zarur, u o'z a'zolarining malaka va bilimlariga yanada yuqoriroq talablarni ilgari suruvchi, jamiyatning rivojlanishi sari uzayib boradi. D.B.Elkonin ijtimoiy-madaniy fenomen (hodisa) sifatida bolalikning rivojlanish qonuniyati oddiy uning uzaytirmasi bo'lmay, balki tuzilishi va mazmun mohiyatiga ko'ra sifat o'zgarishi hisoblanadi. Jamiyat hayotining murakkablashib borishi bilan unda bolaning holati (ya'ni ijtimoiy maqomi, huquq va majburiyatlar doirasi, unga doir bo'lgan faoliyat turlari va shakllari) muhim o'zgarishlarga duch keladi. Ijtimoiy rivojlanishning ilk bosqichlarida (bu etnografik kross-madaniy tadqiqotlar bilan ham tasdiqlanadi) bolani ishlab chiqarish jarayonlariga (terish, qazish) bevosita jalb qilinishi va umumiy faoliyatning maqsad va vazifalari, mehnat qurollari vazifalari, ozuqa topish usullarini amaliy egallash so'dir bo'ladi. Ma'lum bir tarixiy davrda mehnat qurollari shunday murakkablashganki, bunda bolalar bevosita kattalar mehnatiga kirisha olmaganlar, shuning uchun o'sib kelayotgan yosh avlod uchun maxsus alohida predmetlar, o'yinchoqlar kichraytirilgan va ko'rinishi o'zgartirilgan mehnat qurollari yaratiladi. Qachon qurollarning kichraytirilgan nusxasi ishlab chiqarish faoliyatini haqiqiy ifodalash imkonini bermasa o'yinlar paydo bo'ladi. Bolalar o'yinchoqlar bilan harakatda bo'lib, bir tarafdin kattalar mehnatining umumiy mazmunini ifodalasalar, boshqa tomondan — ular keyinchalik turli xildagi haqiqiy qurollarni egalashlari uchun zarur bo'lgan (ko'rish-harakat koordinatsiyalari,

chaqqonlik va h.k.) ba'zi bir umumiy qobiliyatlarni o'zlarida i ivojlantirganlar. Asta-sekin ba'zi o'yinchoqlar haqiqiy qurolarning ramziy o'rnini bosuvchisiga yoki odamlar ijtimoiy hayotining turli xildagi boshqa predmetlariga aylanadi. D.B.Elkonin o'yinning ijtimoiy jihatlarini ko'rsatgan. Rolli o'yin ijtimoiy munosabatlar tizimida bola o'rnining o'zgarishi natijasida, jamiyatning tarixiy rivojlanishida yuzaga keladi. U binobarin, o'zining tabiatiga, kelib chiqishiga ko'ra ijtimoiydir. O'yinlar va o'yinchoqlarning yuzaga kelishi bilan, bola rivojlanishida yangi davr shakllanadi. Zamonaviy pedagogika va psixologiyada ushbu davr maktabgacha tarbiya yoshi deb nomlangan, undagi yetakchi faoliyat bo'lib o'yin hisoblanadi. D.B.Elkonin bolalik yoshlaridan birining paydo bo'lishi misolida, bolalikning tarixiy xarakteri (xususiyati) va uning alohida davrlarini tarixiy kelib chiqishini ko'rsatib bergan. O'yin davri mehnat qurollarini egallash davrini yuqoriga, birmuncha kechki (keyingi) xronologik yoshga «siljitadi» («suradi») yangi davr yuzaga kelganda quyida joylashgan yoshga oid rivojlanish bosqichlari ham o'zgarishsiz qolmaydi. Maktab ta'limining yuzaga kelishi, avvalgi «o'yinlar davrini», maktabgacha qilib, yangi mazmun bilan to'ldiradi. Tarixiy kelib chiqish nafaqat hayot davrining bolalik davriga ega. Insoniyatning tarixiy uzoq bo'lmagan ortirmalaridan (muvaffaqiyat, yutuq) biri psixologik yosh sifatida keksalik davrining ajratilishidir. Ijtimoiy va yoshga oid kategoriya sifatida «keksalik» tushunchasini yuzaga kelishi XX asrga tegishli. D.B.Elkonin qayd etgan chizmalardan kelib chiqib, zamonaviy tadqiqotchi V.T.Kudryavsev bolalikning keyingi tarixiy rivojlanishini ko'rsatadi va bolalikning uch tarixiy tipini ajratadi: 1) kvazibolalik — insoniyat tarixining ilk bosqichlarida, bolalar (birlashmasi jamoasi) guruhi ajratilmay, balki odat tusiga kirib qolgan (ritual) amaliyotga va kattalar bilan hamkorlikdagi mehnat faoliyatiga bevosita kiritilganda; 2) rivojlanmagan bolalik — bolalik olami ajratilgan va bolalar oldida yangi ijtimoiy vazifa — kattalar guruhiga integratsiya (qo'shilish, birlashish) yuzaga keladi. Rolli o'yin —

kattalar faoliyatining ma'naviy asosini modellashtirish usuli sifatida avlodlararo uzilishlarni yengib o'tish funksiyasini (vazifasini) o'ziga oladi. Ijtimoiylashuv bola tomonidan faoliyatning tayyor mazmuni qat'iy belgilangan doirasini egallab borish darajasiga qarab sodir bo'ladi. Misol uchun — o'rta asrlardagi va yangi davrdagi bolalik; 3) rivojlangan bolalik (W.Davidov atamasi) — kattalar faoliyatining mazmuni va motivlari o'z-o'zidan aniq bo'lmaganda shakllanadi. (Zamonaviy bolalik) Bola diqqatini qaratadigan, balog'atga yetganlik obrazi — (prinsipial) deyarli to'liq bo'lmagan, tugallanmagandir hamda bola erkin va ijodiy tarzda «madaniyatda o'z mavqeyini belgilab olishi» kerak. Zamonaviy «rivojlangan» bolalik ochiq ko'p o'lchamli tizim sifatida madaniyatni ijodiy egallashni nazarda tutadi. Zamonaviy bolaning psixik rivojlanishini samarali, ijodiy xarakteri (xususiyati) ilk bosqichlardayoq bola submadaniyati fenomenlari «muammolarni qo'ya bilish», «komik hissiyot», «kommunikativ tashabbuskorlik» va boshqalar ko'rinishida amalga oshadi.

V. T.Kudryavsev bolalikni tadqiq qilishning yangi yo'nalishini yaratishni taklif qilib, uning asosiga quyidagi umumiy g'oyani qo'yadi: bolalik — bu nafaqat ijtimoiy rivojlanishdan hosila, tarixiy mahsul bo'lib qolmay, balki madaniyat va tarixda yangi shakldagi tuzilishni, vujudga kelishlarni boshlanishi, «avloddan avlodga o'tuvchi madaniyatni o'z-o'zidan rivojlantirish manbayi, uning generatoridir». Rus faylasuflari L.A.Jlin, P.A.Florenskiy, M.M.Baxtin, V.B.Shklovskiy va boshqalarning g'oyalariga tayanib, V.T.Kudryavsev madaniyatni ijodiy tajribaning yig'indisi, insonlarning muayyan shakldagi ijodiy imkoniyatlarini majmuasi sifatida yangicha talqinini shakllantirgan. Uni bunday tushunishda, psixik rivojlanish mexanizmi sifatida o'zlashtirish ideal namunalardan nusxa ko'chirishdan chetga chiqadi, avlodlar o'rtasida tajriba almashinuvi esa albatta rivojlanib boruvchi subyektning ijodkorligini, chegaralarni bartaraf qilishni, namunalar «noaniqligini» nazarda tutadi.

11.2. «Psixologik yosh» kategoriyasi va L.S. Vigotskiy ishlarida bolalar rivojlanishini davrlashtirish muammosi

Inson psixik rivojlanishi bosqichliligi haqidagi tasavvur uzluksizlik, asta-sekin mukammallashuv va yutuqlar (natijalar) yig'indisi g'oyasiga qarama-qarshi turadi. U o'z aksini jahon psixologiyasida bir necha o'n yilliklardan beri, rivojlanish jarayonining turli tomonlarini sintezlovchi va uning mexanizmlariga tayanuvchi yagona davrlashtirishni («psixik rivojlanish xaritasi») qidiruvda topadi. L.S.Vigotskiy rivojlanishning yoshga bog'liq davrlashtirish muammosini «barcha bolalar psixologiyasi uchun markaz» va «amaliyotning barcha savollariga kalit» deb atagan. U vaqtda mavjud bo'lgan davrlashtirish chizmasini tahlil qilib, L.S.Vigotskiy ularni tuzishning uch usulini ajratgan: 1. Bola psixikasini rivojlanishi bilan har tomonlama bog'liq bo'lgan, boshqa jarayonlarni zinama-zina qurish asosida bolalikni davrlashtirish. Misol uchun, biogenetik tamoyilga muvofiq ibtidoiy bosqich, hayvon psixikasi bosqichlari ajratiladi; 2. Bolalikni ajratishda asos qilib, shartli mezon sifatida rivojlanishning biror-bir belgisi yoki jihati (tomoni) olinadi (masalan, P.P. Blonskiyning davrlashtirishida dentitsiya — tishlarning chiqishi va almashinishi; Z.Freyd ta'limotida jinsiy rivojlanish). 3. A. Gazell ishlaridagi kabi rivojlanish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini fenomenologik izohlashga va qonuniyatlarni ajratishga urinish amalga oshiriladi. L.S.Vigotskiy bola rivojlanish jarayonining mazmun-mohiyatini qamrab oluvchi, haqiqiy ilmiy-psixologik davrlashtirish tuzilishi kerak bo'lgan tamoyillarni taklif qilgan. Davrlarni ajratish mezoni rivojlanishga nisbatan ichki bo'lishi kerak. «Faqatgina rivojlanishni o'zining ichki o'zgarishlari, uning kechish jarayonidagi burilishlar va o'zgarishlargina bola shaxsining shakllanishini asosiy davrlarini aniqlash uchun ishonchli asos bo'la oladi». Mezon obyektiv bo'lib, yosh chegaralari doirasi erkin va shartli qo'yilishi kerak emas. Mezonni qandaydir bir belgiga ko'chirib bo'lmaydi, chunki rivojlanish jarayonida belgining muhimligi va ko'rsatkichlari

yoshdan yoshga o'tishda o'zgaradi. L.S.Vigotskiy yosh davrlarida taraqqiy etuvchi psixik rivojlanish hodisasiga nisbatan asosiy yangi yondashuvni ishlab chiqib, yosh davrlar psixologiyasining asosini qo'ydi. Odatda psixologiyada o'rganiladigan alohida psixik jarayonlar va (idrok, diqqat, tafakkur) funksiyalarning yoshga bog'liq xususiyatlarini o'rganish o'rniga L.S.Vigotskiy birinchi o'ringa «psixologik yosh» tushunchasini qo'yishni va bola rivojlanishi taxlilining «birliги» sifatida rivojlanishining yoshga oid davrlarini talqin qilishni taklif qilgan. 1932—1934-yillarda yozilgan «Yosh davriga oid bo'lgan muammo» asarida, L.S.Vigotskiy ushbu fikrni quyidagicha izohlagan: «Yosh davrlari yaxlit dinamik tuzilishini rivojlanishning har bir qism sohalarini roli va solishtirma og'irligini aniqlaydigan tarkibni o'zida aks ettiradi». L.S.Vigotskiyga ko'ra, har bir psixologik yosh, har bir yosh davrining boshlanishida shakllanuvchi, rivojlanishning ijtimoiy holati bilan tavsiflanadi. Rivojlanishning ijtimoiy holati — bu «mutloq alohida, ushbu yosh uchun o'ziga xos, bola va uni o'rab turgan voqelik o'rtasidagi yagona va qaytarilmaydigan, eng avvalo ijtimoiy munosabatlardir» L.S.Vigotskiy muhitni absolut (absolut-idealistik falsafada — borliqning abadiy, o'zgarmas, bemakon ibtidosi — ruh) ko'rsatkichlarda emas, balki, bolaning o'zini kechinmalari bilan bog'liqlikda, muhitni bolaga munosabatidan kelib chiqib, talqin qilish kerakligini ta'kidlagan. «Rivojlanishning ijtimoiy holati» tushunchasi tashqi muhit va bolaning ichki dunyosini o'zaro aloqasini betakror o'ziga xosligini, ya'ni ijtimoiy muhit va motivatsion ehtiyoj sohalarini ifodalaydi. Bundan tashqari, psixologik yosh yangi tuzilishlar bilan ham tavsiflanadi. Yoshga oid yangi tuzilishlar — bu yoshga bog'liq rivojlanish natijasi, mahsuli va bir vaqtning o'zida keyingi rivojlanish zaminidir. Psixologik yangi tuzilmalar bolaning yangi shaxs tuzilishi turini ushbu bosqichda birinchi marotaba yuzaga kelayotgan hamda bolaning ongi, uning muhitga munosabatini, uning tashqi va ichki hayotini, ushbu davrdagi uning butun rivojlanish jarayonining eng asosiysi va muhimini aniqlaydigan psixik va ijtimoiy o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi.

I S.Vigotskiy ong va shaxs tuzilmasidagi o'zgarishlarni, markayiy va ikkilamchi darajali yangi tuzilmalarni farqlagan. Shunday qilib, psixologik yosh tuzilmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) iivojlanishning ijtimoiy holatini aniqlovchi; 2) «bolaning turmushlarzi yoki jarayonda rivojlanuvchi uning ijtimoiy borlig'i; 3) ong va shaxs sohasidagi yangi tuzilmalar. L.S.Vigotskiy fikriga ko'ra, ongning yangi tuzilishi so'zsiz, hali tashqi voqelikni idrok qilishning yangi xarakterini, ham undagi faoliyatni anglatadi. Ushbn davrda yuzaga kelgan yangi tuzilmalar rivojlanishning ijtimoiy holatini o'zgartiradi: bola kattalar bilan boshqa tizimdagi munosabatni talab qilishni boshlaydi, o'zi ham dunyoga boshqa ko'z bilan qaraydi, kattalar yordamida o'zining ular bilan bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Boshqacha qilib aytganda, vaqt o'tishi bilan psixologik yangi tuzilmalar jamlanib, asta-sekin rivojlanishning eski ijtimoiy holati bilan qarama-qarshilikka keladi, uning buzilishiga va keyingi yosh davrida bolaning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni ochuvchi, yangi munosabatlarni olishga olib keladi. Shu tarzda psixologik yoshning almashinuvi sodir bo'ladi. L.S.Vigotskiy so'zlari bilan aytganda, yosh rivojlanishining dinamikasi shundadir. L.S.Vigotskiy bir-biri bilan almashinuvchi, yosh davrlarining ikki tipini ajratgan: barqaror va keskin. Barqaror (yoshlarda) yosh davrlarida rivojlanish — rivojlanishning o'ziga xos ijtimoiy holatining ichida asta-sekin, evolutsion kichik qadamlar bilan amalga oshadiki, rivojlanish samarasi faqatgina birdan namoyon bo'luvchi yangi tuzilmalar ko'rinishida tamomila yaqqol ko'rinadi. Boshqa keskin davrlarda aksincha rivojlanish shiddatli, jo'shqin amalga oshadi. O'rtada kulminatsion nuqtada yoki eng yuksak cho'qqida (darajada) inqirozning keskin kuchayishi xarakterli. Unga qarab, inqiroz muddatini belgilash qulay. L.S.Vigotskiy fikriga ko'ra, inqirozlar faqatgina salbiy emas, balki shaxsiy ijobiy ahamiyatga ham ega. Rivojlanishning eski ijtimoiy holatidan voz kechish va yangisini hosil bo'lishi inqiroz davrining asosiy mazmunini tashkil etadi. O'zida buzuvchi va yaratuvchi yondashuvlarni uyg'unlashtirgan inqiroz — bu ontogenezning

me'yoridir. L.S.Vigotskiy tomonidan tuzilgan davrlashtirish quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi: yangi tug'ilgan chaqaloq inqirozi; go'daklik (2 oylikdan 1 yoshgacha); 1 yosh inqirozi; ilk bolalik (1—3 yosh); 3 yosh inqirozi; maktabgacha tarbiya yoshi (3—7 yosh); 7 yosh inqirozi; maktab yoshi (8—12 yosh); 13 yosh inqirozi; Pubertat yosh (14—17 yosh); 17 yosh inqirozi.

11.3. D.B.Elkoninning rivojlanishni davrlashtirish va yoshga oid dinamikasi haqidagi tasavvurlari

D.B.Elkonin (1904—1984) bolada insoniyatga xos bo'lgan qobiliyatlar rivojlanishining asosi sifatida bola tomonidan nasliy insoniy faoliyat usullarini o'zlashtirish muammosini o'rgangan. D.B.Elkoninning bola tug'ilgan onidanoq ijtimoiy mavjudot hisoblanishini ta'kidlab, «jamiyatda bola» (bola va jamiyat emas) formulasinigina tan olgan. Bolaning bilish jarayoni ikki turdagi munosabatlar tizimida kechadi: «bola-ijtimoiy predmet» va «bola-ijtimoiy ulg'aygan inson». «Ijtimoiy ulg'aygan inson», predmetlar bilan «harakatning ijtimoiy ishlab chiqilgan usullari», hayotning mazmun va me'yorlarini gavdalantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Madaniyat asoslarini egallagan sari bola hayot sharoitlariga moslashmaydi, balki faoliyatning faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi va faoliyatni amalga oshirish jarayonida unda turli xildagi psixik yangi tuzilmalar yuzaga kelib, rivojlanadi. Bolaning tug'ilganidan to 17 yoshigacha bo'lgan psixik rivojlanishining keng tarqalgan davrlashtirilishi D.B.Elkonin tomonidan yaratilgan bo'lib, «Bolalik yoshidagi psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosiga» (1971) maqolasida taqdim etilgan. D.B.Elkonin bolalarning rivojlanishida, shunchaki vaqt oraliqlarini emas, balki yosh davrlari, bosqichlarini ajratishni zarur deb hisoblagan. D.B.Elkonin yoshni — «bola rivojlanishining umumiy egri chizig'ida uning o'rni va funksional ahamiyati bilanagina muhimligi belgilanadigan, nisbiy, alohida davr» sifatida ko'rib chiqqan. Har bir psixologik yosh o'zaro murakkab munosabatlarda bo'lgan ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi: 1) rivoi-

lanishning ijtimoiy holati; 2) yetakchi faoliyat; 3) asosiy yangi tuzilmalar. Rivojlanishning ijtimoiy holati bolaning ijtimoiy haroitlardagi haqiqiy o'rnini, uning ularga munosabati va undagi laoliyat xarakteri sifatida aniqlanadi. Ma'lum bir ijtimoiy vaziyatdagi bolaning hayoti bilan, uning ikkinchi muhim tavsifini tashkil etuvchi ushbu yosh uchun xarakterli bo'lgan bolaning faoliyati (i chambarchas bog'liq. A.N.Leontev tomonidan ishlab chiqilgan yetakchi faoliyat tushunchasidan D.B.Elkonin psixologik yoshlarni ajratish mezonini sifatida foydalangan. Har bir yoshda faoliyatning turli xil ko'rinishlari tizimi mavjud, lekin yetakchi faoliyat unda alohida o'rinni egallaydi. Yetakchi faoliyat birdan tayyor shaklda yuzaga kelmaydi, balki shakllanish rivojlanishning uzoq yo'lini (kattalar rahbarligida) bosib o'tadi. Yetakchi faoliyat — bu bolaning ko'p vaqtini oluvchi faoliyat emas. Bu psixik rivojlanish uchun uning ahamiyatiga ko'ra, asosiy faoliyatdir: yetakchi faoliyat shaklida yuzaga keladi va uning ichida faoliyatni boshqa yangi turlari farqlanadi; (masalan, maktabgacha tarbiya yoshidagi o'yinda o'rganish elementlari birinchi marta yuzaga keladi va shakllanadi); yetakchi faoliyatda ayrim (xususiy) psixik jarayonlar shakllanadi yoki qayta tuziladi (o'yinda bolaning faol tasavvur jarayonlari shakllanadi); yetakchi faoliyatdan, rivojlanishning ushbu davrida kuzatiladigan bola shaxsining o'zgarishlari bog'liqdir (o'yinda bola inson xulq-atvorining motiv va me'yorlarini egallaydi, bu esa shaxs shakllanishining muhim tomonini tashkil etadi). D.B.Elkonin bolaligidagi psixologik yoshlar ketma-ketligini quyidagicha taqsimlagan: chaqaloqlik davri inqirozi; go'daklik (2 oylikdan 1 yoshgacha); kattalar bilan bevosita emotsional muloqot; 1 yosh inqirozi; ilk bolalik (1—3 yosh); vositali — predmetli (predmetli — harakatli) faoliyat; 3 yosh inqirozi; maktabgacha tarbiya yoshi (3—7 yosh); rolli o'yin; yetti yosh inqirozi; kichik maktab yoshi (8—12 yosh) o'quv faoliyati; 11—12 yosh inqirozi; o'smirlik yoshi (11—15 yosh) tengdoshlar bilan intim (jinsiy) shaxsiy munosabat; 15 yosh inqirozi. Faoliyat ichida psixologik yangi tuzilmalar yuzaga keladi va rivojlanadi. Bir ye-

takchi faoliyatning boshqasi bilan almashinuvida inqiroz sodir bo'ladi (masalan, maktabgacha tarbiya yoshidagi o'yin faoliyatini kichik maktab yoshidagilar uchun xos bo'lgan o'quv faoliyati bilan almashinuvi). Mazmun-mohiyatidan (tuzilishidan) bog'liqlikda munosabatlar inqirozi (3—11 yosh) va dunyoqarashlar inqirozi (1—7 yosh) farqlanadi. D.B.Elkonin o'zining bolalikdagi psixik rivojlanish chizmasida ontogenezda faoliyatning ikki turini almashinishi, davriy almashinuv g'oyasini ishlab chiqqan. Ushbu qadam predmetli harakatning tuzilishi va shakllanishiga bag'ishlangan. A.V.Zaparojets psixik jarayonlarni oriyentatsion jarayonlarning bir ko'rinishi deb hisoblagan. Misol uchun, idrok — bu predmetlar xususiyatlari va sifatlariga diqqatni qaratish, tafakkur — ularning aloqalari va munosabatlariga diqqatni qaratish, emotsiya esa — shaxs ahamiyatiga diqqatni qaratishdir. AVZaparojets ixtiyoriy harakatlar va ularni bolalarda shakllanishi tadqiqotlarida, harakatning yetakchi qismi sifatida oriyentatsiya roli va oriyentatsiyani bir qancha bosqichlarini tashqi yo'nalgandan, ichki yo'nalganga bosib o'tishi haqidagi xulosaga keldi. P.Ya.Galperin ichki, aqliy faoliyatning rivojlanishini o'rgangan. P.Ya.Galperin harakatning uch komponentidan (tarkibiy qismidan) — oriyentatsiya, bajarish va nazoratdan, ko'proq ahamiyatga ega deb oriyentatsiyani hisoblaydi. To'g'ri yo'naltirilgan oriyentatsiya asosi birinchi urinishdayoq harakatni to'g'ri bajarish imkonini beradi. Asta-sekin (bosqichma-bosqich) harakatlar interiorizatsiyasi va uni ichki, aqliy harakatga aylanishi sodir bo'ladi. Shunday qilib, har bir inson harakatida uning ikki tomoni, ikki qismini oriyentatsion va bajarishni ajratish mumkin. Oriyentatsiya fazasi (davri) bajarishdan oldin kechadi. U ayniqsa yangi predmetli harakatni egallashning boshlang'ich bosqichlarida keng tashkil etiladi. Harakatning aynan oriyentatsion qismi interiorizatsiyaga uchraydi va psixika funksional rivojlanishining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Faoliyatda ikki — motivatsion va operatsion tomonlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ular bir tekis rivojlanmaydi, xususan har bir yosh davrida faoliyatning alohida tomonlarini

rivojlanish sur'ati o'zgaradi. D.B.Elkonin faraziga muvofiq, barcha bolalik yoshlari ikki turga bo'linishi mumkin: birinchi turdagi yoshlarda (bu go'daklik, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalik, o'smirlik yoshi) bolada ko'proq biror faoliyatning ijtimoiy motivatsion tomonlari rivojlanadi; bolaning munosabatlar, motivlar inson harakatlari mazmuni tizimidagi oriyentatsiyasi shakllanadi; birinchi turdan keyingi, ikkinchi turdagi yoshlarda (bu ilk bolalik, kichik maktab yoshi, ilk o'spirinlik) bolada ushbu faoliyatning endi operatsion tomoni rivojlanadi.

D.B.Elkoninning bolalikdagi psixik rivojlanishni davrlashtirish

Eralar	Davrlar	Xronologik chegaralar	Yetakchi faoliyat ko'rinishi	Faoliyat turi	Davrga xos bo'lgan rivojlanish
Ilk bolalik	Go'daklik	0—1 yosh	Bevosita emotsional muloqot	I	Motivatsion ehtiyoj sohasi
	Ilk bolalik	1—3 yosh	Predmetli harakatli faoliyat	II	Intellektual bilish sohasi
Bolalik	Maktabgacha tarbiya yoshi	3—7 yosh	Rolli o'yin	I	Motivatsion ehtiyoj sohasi
	Kichik maktab yoshi	7—10 yosh	O'qish	II	Intellektual bilish sohasi
O'smirlik	O'smirlik	11-15 yosh	Tengdoshlar bilan intim (jinsiy) shaxsiy muloqot	I	Motivatsion bilish sohasi
	Ilk o'spirinlik	15-17 yosh	O'quv-kasbiy	II	Intellektual bilish sohasi

Bir yosh davrining (bolalarda ehtiyoj va motivlar ko'proq shakllanadi) ikkinchi boshqa yosh davri bilan (bolalarda u yoki bu faoliyatning aniq operatsiyalari shakllanadi) qonuniyatli almashinuvi sodir bo'ladi. Misol uchun, go'daklikda kattalar bilan emotsional muloqotga, predmetli olamni egallash va ish-bilarmon — hamkorlik ehtiyojlari va motivlari yuzaga keladi, ular muvofiq keluvchi operatsiyalar shakllanganda, ilk yoshda, predmetli faoliyatda amalga oshadi. Biroq, maktabgacha tarbiya yoshida o'yin faoliyatida keyingi kichik maktab yoshida yetakchi bo'ladigan faoliyatning ehtiyoj va motivlari ko'proq rivojlanadi. Shuning uchun ikki ma'lum bir turdagi yoshlar bir-biri bilan o'zaro bog'langandek va bu «bog'lanish» (yoki D.B.Elkonin so'zlari bilan aytganda «era») butun bolalik davomida amalga oshadi (yoki davriy takrorlanadi). Shunday qilib, D.B.Elkonin oriyentatsiyaning ilgarilab rivojlanish qonuniyati bajaruvchi qismiga nisbatan faqatgina funksional emas, balki psixikaning yosh davriga bog'liq rivojlanishida ham ta'sir ko'rsatadi, deb taxmin qiladi: bolaning rivojlanish jarayonida avval faoliyatning motivatsion, so'ngra operatsional texnik tomonlarini egallash sodir bo'ladi. D.B.Elkonin nuqtayi nazariga ko'ra, faoliyatning motivatsion va operatsion tomonlarini rivojlanish darajalari o'rtasida doimiy ravishda uzilish yuzaga keladi, biri oldinga chiqib boshqasidan o'zib ketadi hamda orqada qolgan tomon rivojlanishning zarur darajasiga yetishi uchun faoliyatni o'zgartirishi zarur. Rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchlar bola tomonidan faoliyatning predmetli va motivatsion tomonlarini egallash jarayonida shakllanadigan qarama-qarshilik (ziddiyat) bilan bog'liq. D.B.Elkonin tomonidan shakllantirilgan, bolaning psixik rivojlanishidagi davriylik farazi L.S.Vigotskiyning g'oyalarini ijodiy rivojlantiradi, u bolada nafaqat bilish, balki shaxsning motivatsion — ehtiyoj sohasi ham shakllanishini, bola tomonidan insonlar va predmetlar olamini o'zlashtirilishini tushuntirib, psixik rivojlanishda o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmini ochib berdi.

11.4. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosini hal etishdagi zamonaviy yondashuvlar

Psixika rivojlanishini yoshga oid davrlashtirish masalalari A.N.Leontev, L.I.Bojovich, V.V.Davidov, M.I.Lisina, AVPetrovskiy, D.I.Feldshteyn va boshqalarning ishlarida batafsil ko'rib chiqilgan. VLSlobodchikov va R.A.Sukermanlar yoshga oid davrlashtirishning birmuncha mashhur ikki modelini E.Erikson va D.B.Elkonin ta'limotlarini tahlil qilgan. Ularning fikriga ko'ra, bu ikki ta'limot «muvozanatlashmagan» va «to'liqsiz»ligi bilan farqlanadi. E.Erikson birinchi o'ringa rivojlanishning ichki manbalarini qo'ysa, D.B.Elkonin-tashqi muhitni qo'ydi. Mualliflar umumiy psixik rivojlanish va davrlashtirish nazariyasi asosiga, bir vaqtning o'zida rivojlanishning ikki tomonini — uning obykti va manbasini o'z ichiga oluvchi «mavjudlik birligi» tushunchasini qo'yishni taklif qilganlar har qanday insoniy birlikni (mavjudlikni) tuzilishida kamida ikki kishi ishtirok etadi va birlikning mazmuni va shaklini almashinuvi hamkorning almashinuvi bilan kuzatiladi. Psixik rivojlanishning integral davrlashuvini umumiy ko'rinishi o'zida bazis (asos) birlikning har xil turlarida shaxs rivojlanishining subyekti sifatida inson rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi. Har bir bosqich murakkab tuzilishiga ega: mavjudlikning shakllanish bosqichi va mustaqillikning shakllanish bosqichi, tug'ilish inqirozi (yangi birlikka o'tish) va rivojlanish inqirozi (yangi birlikni o'zlashtirish) farqlanadi. Yondashuvni keng batafsil yoritmasdan ajratilgan bosqichlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz: I. Jonlanish (tug'ilgandan 12 oylikkacha, katta yoshdagi qondoshi bilan umumiylik. Bola o'zining jismoniy psixosomatik individualligini egallaydi. II. Ruhlanish (11 oylik—6,5 yosh) — katta yoshdagi yaqinlari bilan umumiylik (birlik). Bola o'zi uchun ilk bora o'zining o'zligini (mashhur bo'lgan «Mening o'zim!») kashf etadi, o'zining shaxsiy xohish va qobiliyatini subyekti deb biladi. III. Shaxsiylashuv (5,5—18 yosh) qo'li-

oa qalam tutgan insonning hamkori bo'lib, madaniyat sohasida-

gi ijtimoiy kattalar hisoblanadi; o'qituvchi, murabbiy, ustoz va boshqalar. Inson birinchi marotaba o'zini shaxsiy tarjimayi hohlining muallifi ekanini anglaydi, kelajagi uchun shaxsiy javobgarligini his qiladi, boshqa odamlar bilan birgalikdagi turmush ichida o'zining ular bilan o'xshashlik chegaralarini aniqlaydi. IV. Individuallashtirish (17—42 yosh) — insonning hamkori bo'lib, ijtimoiy qadriyatlar va ideallar tizimi bilan asoslangan, faoliyat munosabatlariga u bilan kirishuvchi insoniyat hisoblanadi. Subyekt rivojlanishining ushbu bosqichini mohiyati — insonning shaxsiy mavqeyini o'lchashiga ko'ra ijtimoiy qadriyatlarni individuallashtirishidir. Inson o'z mustaqilligi uchun javobgar bo'lib boradi.

V. Universallashtirish (39 yoshdan yuqori) har qancha rivojlangan individuallik chegaralaridan tashqariga chiqish va bir vaqtning o'zida umumiy-yuqori insoniy, ekzistensial qadriyatlar doirasiga «o'zining boshqasiga* kirish. Ilohiy insoniyat universal voqelikni anglashdagi suhbatdosh va tuzishdagi ishtirokchi sifatidadir. Slobodchikov va Sukermenlar kimyodagi Mendeleev jadvali yoki biologiyadagi evolyutsion shajara bilan davrlashtirish chizmasining ahamiyatini taqqoslab, davrlashtirish chizmasini katta amaliy ahamiyatiga ishonch hosil qildilar: «Agar rivojlanishning umumiy xaritasi tuzilsa, psixolog va pedagoglar turli yoshdagi odamlar uchun rivojlanishning maqbul yo'llarini (ma'lum bir qadriyatlar nuqtayi nazaridan) ta'minlash uchun, ular yaratadigan madaniy-ta'limiy kenglikdagi bo'shliqlar, oq dog'larni ko'rishlari mumkin. So'nggi yillarda psixik rivojlanishda inqirozlar g'oyasini nazariy va eksperimental o'rganish keng avj oldi. Inqiroz davrlarining yangi tuzilishi L.I.Bershedova tomonidan yoshga bog'liq rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishga psixologik tayyorlik shaklida tahlil qilingan. K.N.Polivanova ishlarida og'ir «inqirozli» yosh davrlarida ontogenetik rivojlanishda real va ideal shakllarni o'zaro o'tishi sodir bo'lib, bu o'zaro ta'sirning murakkab ichki mexanizmi ochiladi. Bu mantiqda inqiroz (og'ir) yoshi zaruriyat yuzasidan bir qator keyingi keluvchi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Psixologlar diqqat markaziga nafaqat

yoshdagi yangi tuzilmalar balki, «yo‘qotishlar», (me‘yoriy yosh ga doir involutsiya belgilari) ham kiritilishiga e‘tibor qaillljidi Yoshga oid dinamika nafaqat kattalar nuqtayi nazaridan (yeli lishning psixofiziologik me‘yori va yoshning madaniy me‘yon ga muvofiqlikni bola tomonidan egallanishi nuqtayi nazaiidan) balki «o‘zini his qilish» bolalik me‘zonlarini hisobga olgan hol da ko‘rib chiqilishi kerak. Zamonaviy psixologlar poslindu'111 al axborotli davrda ijtimoiy hayotning yangi yondashuvlai iga ahamiyat qaratmoqdalar. XX asrning oxiri XXI asrning boshi hayotning odatiy davrlarini chegarasi va yoshga oid barqaroi 011 yentatsiyalarning yemirilishi bilan xarakterlanadi. Davr hod> a lari tobora vaqt va kenglikda individuallashadi va keng o‘lcham da turlanadi (o‘zgaradi): maktabga chiqish vaqti, talabalik davn. inutaxassisligi bo‘yicha ish boshlash, shuningdek nikohga kii ish, erta va kech farzand tug‘ilishi. K.N.Polivanova «yosh g‘oya:i , «madaniy yosh» (tushunchalari) kategoriyalari insonga niino sabat vositasi sifatida (o‘zining ahamiyatini) uning jamiyalda gi o‘rnini aniqlab, unga ma‘lum bir talab va kutuvlarni qo‘yil>. o‘z ahamiyatini saqlab qoladi. Biroq, zamonaviy holat yagona «yosh pog‘onalardan» individual rivojlanishning noani<|ligig.a o‘tishni aks ettiradi. Ayrim tadqiqotlar davrlashtirish yondashu viga muqobil sifatida hayotiy hodisalar psixologiyasini rivojlan tirishni taklif qiladilar. Bu muammoda ko‘p jihatlar o‘rganihnav qolmoqda, lekin uning o‘rganish usullari nazariy jihatdan yelai li darajada aniq yoritilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Bolalik nima?
2. F. Arles san‘at asarlari, badiiy asarlar, o‘tgan davrdagi 111 sonlar maktublarini tahlil qilish bilan qanday xulosaga kelgan?
3. Jamiyat hayotining murakkablashib borishi bola ruhiyai iga va shaxsiyatiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?
4. Bola rivojlanishida jamiyatni anglash borliqni o‘zlashlii ish da asosiy faoliyat turini ko‘rsating.

5. V.T. Kudryatsev bolalikning keyingi tarixiy rivojlanishini bolalikning nechta tipini ajratadi?

6. Kvazibolalik qanday xarakterlanadi?

7. Bolalikni ajratishda asos qilib nimalar olinadi?

8. L.S.Vigotskiy tomonidan tuzilgan davrlashtirish qanday davrlarni o'z ichiga oladi?

9. AVZaparojets psixik jarayonlarni qanday jarayon deb atagan?

10. Inqiroz davrlarining yangi tuzilishi L.I.Bershedova tomonidan qanday tahlil qilingan?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Bolalik nima?

a) *tarixiy kelib chiqish va ko'rinishiga ega bo'lgan, murakkab ijtimoiy-madaniy hodisadir;

b) inson yoshi va ruhiyatining muayyan bir davri;

c) inson hayotiy rivojlanishining bir bo'g'ini;

d) murakkab ijtimoiy-madaniy hodisadir.

2. F. Arles san'at asarlari, badiiy asarlar, o'tgan davrdagi insonlar maktublarini tahlil qilish bilan qanday xulosaga kelgan?

a) u ijtimoiy hayotning rivojlanishi davriy ravishda kechishini ta'kidlagan;

b) * u ijtimoiy hayotning rivojlanishi, yangi ijtimoiy institutlarning paydo bo'lishi insoniyat hayotining yosh davrlarini ajratilishiga olib keladi, — degan xulosaga keldi;

c) u ijtimoiy hayotning rivojlanishi murakkab hodisa ekanligini e'tirof etgan, yangi ijtimoiy institutlarning paydo bo'lishini aytib o'tgan;

d) u ijtimoiy hayotning o'zaro uzviy bogliqligini va vaqt o'tishi bilan sayqallanib rivojlanib borishini aytib o'tgan.

3. Jamiyat hayotining murakkablashib borishi bola ruhiyatiga va shaxsiyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

a) jamiyatning rivojlanib borishi bola hayotida tub o'zgarishlarni vujudga keltiradi;

b) jamiyat rivojlanishi bola ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

c) * bolaning holati (ya'ni ijtimoiy maqomi, huquq va majburiyatlar doirasi, unga doir bo'lgan faoliyat turlari va shakllari) muhim o'zgarishlarga duch keladi;

d) jamiyatning rivojlanib borishi bola hayotida ta'sir ko'rsatmaydi.

4. Bola rivojlanishida jamiyatni anglash borliqni o'zlashtirishda asosiy faoliyat turini ko'rsating.

a) suhbatlashish;

b) atrofni kuzatish;

c) *turli o'yinlar o'ynash;

d) borliqni idrok qilish.

5. L.S.Vigotskiy tomonidan tuzilgan davrlashtirish qanday davrlarni o'z ichiga oladi?

a) *yangi tug'ilgan chaqaloq inqirozi; go'daklik (2 oylikdan 1 yoshgacha); 1 yosh inqirozi; ilk bolalik (1—3 yosh); 3 yosh inqirozi; maktabgacha tarbiya yoshi (3—7 yosh); 7 yosh inqirozi; maktab yoshi (8—12 yosh); 13 yosh inqirozi; Pubertat yosh (14—17 yosh); 17 yosh inqirozi;

b) go'daklik (1 oylikdan 1 yoshgacha); 1 yosh inqirozi; ilk bolalik (2—3 yosh); 3 yosh inqirozi; maktabgacha tarbiya yoshi (3—7 yosh); 7 yosh inqirozi; maktab yoshi (8—12 yosh); 13 yosh inqirozi; Pubertat yosh (14—17 yosh); 17 yosh inqirozi;

c) ilk bolalik (1—3 yosh); 3 yosh inqirozi; maktabgacha tarbiya yoshi (3—7 yosh); 7 yosh inqirozi; maktab yoshi (8—12 yosh); 13 yosh inqirozi; Pubertat yosh (14—17 yosh); 17 yosh inqirozi;

d) 2 oylikdan 2 yoshgacha; 2 yosh inqirozi; ilk bolalik (1—3 yosh); 3 yosh inqirozi; maktabgacha tarbiya yoshi (3—7 yosh); 7 yosh inqirozi; maktab yoshi (8-12 yosh); 13 yosh inqirozi; Pubertat yosh (14—17 yosh); 17 yosh inqirozi.

XII BOB. GO‘DAKLIK DAVRI

Reja:

1. Prenatal va chaqaloqlik davridagi psixofiziologik xususiyatlar.
2. Inqirozli davr sifatida go'daklik davri.
3. Hayotining birinchi yilida psixik rivojlanish.
4. Go‘daklik davrining psixologik yangiligi. Bir yoshdagi inqiroz.

Mavzu o‘quv maqsadi:

Ta’limiy: Bo‘lajak psixologlarda tug‘ilish davri inqirozi, prenatal, chaqaloqlik, go‘daklik davri psixofiziologiyasi, jismoniy shuningdek, aqliy rivojlanishiga xos xususiyatlar haqida ilmiy bilimlarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: Bo‘lajak psixologlar ongiga insonning shaxs sifatida shakllanishida prenatal, chaqaloqlik va go‘daklik davri psixofiziologik rivojlanishining ahamiyatini singdirish.

Rivojlantiruvchi: mavzuning ta’limiy va tarbiyaviy o‘quv maqsadlari asosida talabalar dunyoqarashini kengaytirish, prenatal, chaqaloqlik va go‘daklik davridagi bolalarning psixologik rivojlanishini aniqlash, ko‘nikma-malakalarini shakllantirish.

Tayanch tushunchalar: zigota, embrion, chaqaloq, go‘dak, tug‘ilish davri inqirozi.

12.1. Prenatal va chaqaloqlik davridagi psixofiziologik xususiyatlar

Bolaning ona qornida paydo bo‘lgandan tug‘ilgunga qadar bo‘ladigan o‘zgarishlar homilaning prenatal ichki rivojlanishini tashkil etadi. Har bir davr ona qornida bo‘lajak farzandning rivojlanish bosqichiga tegishli atama bilan nomlanadi. Ona qornida rivojlanish o‘rtacha 38 hafta davom etadi va 3 bosqichga, ya’ni zigota bosqichi, embrion bosqichi va homila bosqichiga bo‘linadi.

Zigota bosqichi (1—2 haftalik)

Birinchi haftaning oxiriga kelib, zigota onaning qon tomirlari bilan birlashadi, bu hodisa implantatsiya deb ataladi. Implan-

lalsiya jarayonining tugallanishi uchun ikki hafta kerak bo‘ladi, shundan so‘ng garmonal o‘zgarishlar boshlanadi, bu hayz ko‘rishning vaqtinchalik to‘xtashiga olib keladi, ayol kishiga bu belgi uning homiladorligidan darak beradi. Zigotaning aylana o‘lchamlari 1 mm dan kamroq bo‘ladi, uning hujayralari bo‘linishni boshlaydi.

Homila tanasi murtak diski hujayralaridan rivojlanadi, bu bosqichda murtak diski zigota markazida joylashgan hujayralar lo‘plami ko‘rinishida bo‘ladi. Boshqa hujayralar rivojlanayotgan organizmni himoya qiluvchi va oziqlantiruvchi asosli to‘qimalarni hosil qilishi zarur. Implantatsiya va hujayralarning ajralib hosil bo‘lishi zigota bosqichining tugallanishi belgilari bo‘lib hisoblanadi. Zigota 36 hafta davomida murtakdan bola tug‘ilishigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tishga tayyor holga keladi.


Embrion bosqichi (3-8 hafta)

Bu ona qornida rivojlanishning yangi embrional davri odatda murtak hosil bo‘lgandan keyin uchinchi haftadan boshlanib, sakkizinchi haftaning oxirigacha davom etadi. Bu vaqt davomida tana tuzilishi va ichki organlar rivojlanadi. Davr boshida embrionda uch qavat hujayralar tiklanadi. Tashqi qavatda ektodermadon sochlar, terining tashqi qavati va nerv tizimi rivojlanadi. O‘rta qavatda mezodermadon, muskullar, suyaklar va qon tomirlari tizimi hosil bo‘ladi. Ichki qavatda yoki endodermadon ovqat hazm qilish tizimi va o‘pkalar rivojlanadi. Uch haftalik embrion bilan sakkiz haftalik embrion solishtirilganda uning ko‘rinishida sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. 3 haftalik embrion uzunligi 2 millimetrdan oshmaydi. Hujayralarning darajalariga bo‘linishi boshlanib, organizm ko‘proq salamandrani eslatadi. O‘sish va rivojlanish tezlik bilan amalga oshadi, 8 haftalik embrionda ko‘zlar, og‘iz, qo‘l va oyoqlarni ko‘rish mumkin, miya va nerv tizimi ham juda tez rivojlanadi, embrion yuragi bir oy avval o‘z faoliyatini boshlab yuborgan bo‘ladi. Embrionda odamga xos organlar u yoki bu shaklda mavjud bo‘ladi, lekin uning o‘lchamlari onaga sezilarli darajada bo‘lmaydi.

Embrionga amnion suyuqligi bilan toʻlgan amnion qobigʻi joylashadi. Amnion qobigʻi embrionni himoya qilib, doimiy haroratini taʼminlab turadi. Embrion ona bilan ikki tizimcha orqali bogʻlangan. Kindik tizimchasi embrionni yoʻldosh bilan bogʻlovchi qon tomirlaridan iborat. Yoʻldoshga qon tomirlar kindik tizimchasi orqali onaning qon tomirlarigacha yetib boradi, lekin bevosita ular bilan birlashmaydi. Qon kindik qon tomirlarining barmoqsimon oʻsimtalari — qilchalar orqali oqadi. Qilchalar ona qon tomirlariga bevosita yaqin joylashgan, bu vitaminlarning oʻtishi, shuningdek, ona qoniga almashinuv mahsulotlarining diffuziya mexanizmi hisobiga ajralish imkonini beradi. Tana qismlari va organizm tizimlari embrional davrda shakllanadi va homila bosqichida oʻz vazifalarini samarali bajara boshlaydi. Tana qismlari va ichki organlar hosil boʻlishi bilan ona qornida rivojlanishning ikkinchi muhim bosqichi nihoyasiga yetadi. Organlarning oʻz vazifasini bajara boshlashi navbatdagi oxirgi bosqichga toʻgʻri keladi.

Homila bosqichi (9—38 hafta)

Homila bosqichi oxirgi va eng uzoq davom etadigan bosqich boʻlib, toʻqqizinchi haftasidan boshlab, tugʻruq bilan tugallanadi. Bu vaqtda homilaning tana oʻlchamlari kattalashadi va organizm tizimlari faoliyat yurita boshlaydi. 4 oylikdan homilaning ogʻirligi 113,4 grammdan 226,8 grammgacha yetadi. Oxirgi 5 oyda homilaning ogʻirligi 1984,5 grammdan 2268 grammgacha oʻlchamlari kattalashib borishini koʻrish mumkin.



1. Tuxumdon va urug‘don differensatsiyasi.
2. Qon tomir tizimining faoliyati.
3. Homila harakatining onaga sezilishi.
4. Homila boshida soch qoplanishining hosil bo‘lishi.
5. So‘rish va yutish faoliyati.
6. Bosh miyaning maxsus faoliyati.
7. Homilaning hayotchan davri.
8. Og‘irlikni tezda ko‘paytirib olishi.
9. Tug‘ruq.

Bu davrda organizm uchun muhim bo‘lgan nerv, nafas olish va ovqat hazm qilish kabi organlarning shakllanishi tugallanadi.

Bu davrning eng muhim hodisalari quyidagilardan iborat.

Urug‘lanishdan 5—6 oydan so‘ng homilaning qoshlari, kipriklari va sochlari paydo bo‘ladi. Embrional davrning oxiriga borib, erkak embrionda urug‘don, qiz embrionda tuxumdonlar rivojlanadi. Uchinchi oyda urug‘donda tashqi jinsiy belgilar rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi garmonlar sintez qilishni boshlaydi: qiz embrionda bu garmon sintezlanmaydi va o‘xshash hujayralardan jinsiy organlar hosil bo‘ladi.

4-haftada hujayralar qavati naysimon bo‘lib o‘raladi. Nayning bir uchi kengayib, undan bosh miya hosil bo‘ladi, qolgan qismidan orqa miya shakllanadi. Homila bosqichi boshlanishiga kelib, bosh miya tarkibida turli tuzilmalar bo‘lib, organizm funksiyalarini boshqaradi. Bu bosqichda miyaning barcha sohalarini o‘siishi amalga oshadi, xususan, odam xulq-atvorining ko‘plab muhim turlarini boshqaruvchi bosh miya po‘stlog‘ining xususiyatlari ham rivojlanadi. Bu o‘zgarishlar homilaning 22 va 28 haftalar o‘rtasida rivojlanayotgan organlarning ko‘pchilik tizimi ishonchli ravishda faoliyat yurita boshlaydi, shuning uchun homila hayotining bu davri homilaning hayotchan davri deb ataladi. Bu vaqtda homila bola ko‘rinishini oladi. Vaqtdan avval tug‘ilgan bolalarning nafas olish organlarida muammolar tug‘ilishi mumkin. Shuningdek, ular tana haroratini doimiy tarzda boshqarib tutolmaydilar. Chunki, ularda teri osti qavatidagi yog‘ qava-

ti mavjud bo'lmaydi. Bu qavat homilaning 8-oyida hosil bo'ladi. Hozirgi zamon neonatal yordamning imkoniyatlari yordamida erta tug'ilib qolgan bolalar yashab qolishi mumkin. Homila bosqichida xulq-atvor paydo bo'ladi, homilada faollik davri ko'rinadi. Ko'pchilik onalar homila harakatchanligi va tinch vaqtlarini aytib berishlari mumkin. Homilaning ko'z va quloqlari ta'sirlarga javob beradi, yuragi tezroq urishni boshlaydi, ko'zlari yorug'likka pirpirash bilan javob beradi.

Bunday ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, ona qornidagi oxirgi oylar homilani mustaqil hayotga, ya'ni, ona organizmidan tashqi hayotga tayyorlab beradi, bu o'zgarishlar homilador ayol o'zining bo'lajak farzandiga sog'lom atrof-muhitni ta'minlagandagina amalga oshishi mumkin.

Sog'lom bola tug'ilishi uchun bo'lajak onalarga vrachlar asosiy 5ta tavsiyani ta'kidlab o'tadilar:

1. Homilador ayol davolovchi vrach ko'rigidan muntazam o'tib turishi, har oyda, homiladorlikning oxirida har haftada vrach qabuliga borib turishi shart.

2. Homilador ayol to'g'ri ovqatlanish tartibiga rioya qilishi shart. Asosiy oзуqа 5ta asosiy mahsulotlar guruhidan: yormalar, meva va sabzavotlar, sut mahsulotlari, go'sht yoki dukkakli o'simliklardan tayyorlangan oзуqalar bo'lishi kerak. Barcha vitaminlar, minerallar va temir moddalardan iborat taomlarni tanovul qilishlari kerak.

3. Alkogol va kofein tutuvchi ichimliklarni iste'mol qilish, chekish tavsiya etilmaydi. Biror-bir dori-darmon yoki tibbiy muolajani qabul qilishda avval vrach bilan maslahatlashishlari kerak.

4. Homiladorlik davrida badan tarbiya bilan shug'ullanish zarur. Agar homilador ayol yaxshi jismoniy holatda bo'lsa, tana qo'shimcha og'irlikni ko'tarishda qiyinchilikka uchramaydi.

5. Homilador ayol o'zining toliqib qolishiga yo'l qo'ymasligi, ayniqsa, homiladorlikning oxirgi haftalarida, maxsus mashg'ulotlarga qatnashishi zarur. U yerda ayollarni tug'ruqqa va yangi tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish qilishni o'rgatadilar.

Bola hayotining har bir oyi uning jismoniy va psixik imkoniyatlarining shakllanishidagi muhim davrdir. Ikki, uch oylik bola ham yangi tugʻilgan chaqaloqdan ancha farq qiladi, uch yashar bola esa oʻz taraqqiyoti bilan bir yashar boladan birmuncha ustun luradi. Ilk bolalik davrda bolaning shaxsi, xarakteri, xulq-atvori maʼlum darajada tarkib topadi. Shu sababli bolaning maʼlum davrdagi rivojlanishi xususiyatlarini tahlil qilganda, bu rivojlanishning oldingi bosqichlarda qanday boʻlganligini bilish kerak. Bn faqat bolaning rivojlanish jarayonini takomillashtirish va tezlashtirish uchun emas, balki ana shu jarayonning bola kuchiga yarasha va yosh imkoniyatiga mos keladigan boʻlishini taʼminlash uchun ham kerakdir.

Pedagogik tajribalarga va mavjud psixologo-fiziologik tekshirish natijalariga asoslanib maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti quyidagi yosh bosqichlariga ajratiladi. (Bunda bola tugʻilgandan tortib, to maktabda oʻqiy boshlaguncha boʻlgan davr hisobga olinadi.)

1. Tugʻilgandan bir yoshgacha: chaqaloqlik davri (hayotining birinchi oyi); hayotining birinchi yili — goʻdaklik davri.

2. Bir yoshdan uch yoshgacha: ilk bolalik davri.

3. Uch yoshdan yetti yoshgacha: maktabgacha boʻlgan davr.

Bola psixikasi taraqqiyotining mana shu koʻrsatilgan davrlari umuman qabul qilingan boʻlsa ham, bu davrlarni absolut davr deb hisoblash mumkin emas. Yosh davrlariga ajratishda qatʼiy chegara yoʻq. U hech kim yil fasllarining almashinuv oyi va soatini koʻrsata olmaganidek, odam hayotining davrlari oʻrtasidagi chegarani ham aniq ajratish mumkin emas. Shuning uchun yuqoridagi davrlarga ajratishni absolut deb boʻlmaydi.

Bola tugʻildi. Yangi tugʻilgan bola hayotida birinchi inqirozni boshidan kechiradi. Ona organizmi bilan anatomik bogʻlanish uzilgan boʻlsa-da, bola mustaqil hayot kechira olmaydi, chunki bola ona bilan fiziologik jihatdan bogʻlangandir, ona uni oʻz suti bilan boqadi. U yangi, oʻzgacha muhitda yashay boshlaydi. Bola hayotining birinchi kunlari tugʻilganidagi ogʻirligini yoʻqotadi.

Bunga tashqi dunyo sharoitiga moslashish davrida energiyaning ko'plab sarflanishi sababdir. Bola organizmining, ma'lum vaqt o'tib, tug'ilgan davridagi og'irligiga teng kelishi uning tashqi muhitga, yangi sharoitga moslashganligidan darak beradi. Odatda chaqaloqning og'irligi 10—12 kun o'tgach, asli holiga keladi.

Yangi tug'ilgan bola anatomik-fiziologik tomondan hali yetilmagan bo'lib, katta kishi organizmidan o'ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Yangi tug'ilgan bola suyak-muskul tizimining tez o'sishi bilan kattalardan keskin farq qiladi. Ularning muskul va muskul to'qimalari juda bo'sh bo'ladi. Muskullar asta-sekin qota boshlaydi. Oldin bo'yin muskullari (bola boshini tuta boshlaydi), keyin tana muskullari (bola o'tira oladi), undan keyin esa oyoq va qo'l muskullari yetiladi, predmetlar bilan harakat qilish imkoniyati paydo bo'ladi, bola yura boshlaydi.

Yangi tug'ilgan bolaning suyagida ohak va boshqa tuzlar kam bo'lib, u asosan tog'ay to'qimalaridan iboratdir. Bosh suyaklar bola 2—3 oylik bo'lgandagina bir-biri bilan tutashib ketadi. Bosh suyagining peshana va tepa qismlari tepasida katta liqildoq deb ataladigan oraliq bo'lib, u qalin parda va teri bilan qoplangan bo'ladi. Bu oraliq bir-bir yarim yildan keyingina suyak bilan qoplanib ketadi.

Yangi tug'ilgan bola nerv tizimining yuksak qismi — bosh miya yarim sharlari tashqi ko'rinishdangina kattalar miyasiga o'xshaydi. Aslida chaqaloqning boshi katta ko'rinsa-da (miya og'irligi butun tananing sakkizdan birini, kattalarda esa qirqdan birini tashkil etadi), hali taraqqiy etmagan bo'ladi. Tanasining umumiy og'irligi 3—4 kilogramm bo'lgani holda, miyaning og'irligi 300 grammdan oshadi. Chaqaloq miyasidagi nerv hujayralari, «ariqchalar* va «izlar»ning soni katta kishilar miyasidan farq qilmaydi, ammo bola miyasi tuzilish jihatidan bir shaklda bo'lib, «izlar» aniq ko'rinmaydi, nerv hujayralari tarmoqlarining miqdori kam bo'ladi.

Nerv tolalarining bir-biridan yetarli darajada ajralmaganligidan tashqi olamdan kelayotgan o'zgarishlar boshqa nerv mar-

kazlariga ham ta'sir etadi, bosh miya yarim sharlarida hech qanday aniq va barqaror o'zgarish joylari paydo bo'lmaydi. Uning uchun chaqaloq tashqi qo'zg'ovchilar ta'siriga qo'l, oyoq va boshini tartibsiz harakat qilib javob beradi. Miyaning eng «qadimiy» bo'limlari nafas olish, qon aylanishi, emish, yutinish kabi jarayonlarni ta'minlaydi. Bu nerv tolalari bolaning yashashi uchun yetarli miqdorda (nerv tolasi) mielen qobig'i bilan qoplangan.

Chaqaloq bola bizga eng ojiz zotdek tuyuladi. Shunga qaramay, xuddi shu yoshning ham kuchli tomoni bo'lib, bu jihati bilan go'daklar kattalardan ustun turadi,—deb ta'kidlaydi professor Ye.A.Arkin. Uning fikricha, bolaning kuchi uning o'sish energiyasida namoyon bo'ladi. Bola tanasining og'irligi hayotining birinchi yilida uch barobar ko'payadi, bo'yga nisbatan yetti oylik bola juda tez o'sadi va sakkiz oylik bo'lganda, bo'yi ikki barobar ortadi, o'ttiz oyga yetganda to'rt marta ortadi. Bolalar har oyda 2 santimetr o'sadi. Uning miya og'irligi har kuni 1,5 grammdan ko'payadi. Miyaning rivojlanishi sur'ati haqida gapirganda shuni e'tiborga olish kerakki, yetti oylik bolaning miyasi 2 marta ko'payasa, 2—3 yoshga kelib, uning og'irligi uch marta ortadi. Miyaning kattaligi deyarli 20 yil mobaynida ortib boradi, katta yarim sharlarning ustki «izlari» murakkablashib boradi. Bolalarning o'sishidagi bu qadar ulkan jadallik vegetativ nerv tizimiga, bir qator ichki sekretiya bezlari (bo'qoq bezi va boshqalar)ga bog'liq.

Ichki sekretiya bezlari ishlab chiqaradigan maxsus garmonlar qonga o'tib, organizmning o'sishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Go'daklarning bu qadar tez o'sishi ushbu davrning o'ziga xos tomonini ifodalaydi. Shuning uchun bu davrda bolaning o'sishiga va rivojlanishiga ta'sir etadigan barcha narsalar yaxshi bo'lishi, sifatli ovqat, sof havo, quyosh nuri yetarli miqdorda bo'lishi kerak.

Bolaning nerv faoliyati ikki xil ta'sirda o'z ifodasini topadi. Bularning birinchisiga shartsiz yoki tug'ma reflekslar, ikkinchisiga esa shartli reflekslar kiradi. Shartsiz reflekslar bolaning tug'inish paytiga kelganda, ancha yetilgan bo'ladi, buning natijasida

qon aylanish, nafas olish va ovqat hazm qilish singari eng zarur vegetativ funksiyalar amalga oshiriladi. Masalan, qorni ochgan chaqaloqning labiga bir narsa tegishi bilan oq, unda emishni bildiruvchi harakatlar paydo bo'ladi, bu ovqatlanish refleksi, ya'ni shartsiz refleksdir.

Yuqorida qayd qilinganidek, tug'ilish davrida bosh miya katta yarim sharlari og'irligi, hajmi va funksiyasi jihatidan rivojlangan darajada bo'lmasa ham, bosh miya mavjud shartsiz reflekslar zaminida yangi tug'ilgan bola bilan tashqi muhit o'rtasida eng zarur aloqalar o'rnatish imkoniyatini beradigan elementar shartli reflekslar hosil qilishga qodirdir.

Bola hayotining birinchi kunlaridan boshlab individual hayot kechirish jarayonida tashqi muhit bilan aloqa vujudga keladi. Bola hayotining ikkinchi oyida unda barcha sezgi organlariga xos shartli reflekslar hosil bo'ladi. Lekin tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, bola hayotining bu davridagi reflekslar zaif ifodalangan va beqaror bo'ladi.

Bolaning o'sishi va rivojlanishi jarayonida egallayotgan reaksiyalari barqaror bo'la boradi, tez paydo bo'la boradi va anchagina differensiyalashadi. Modomiki, bolada shartli reflekslar hayotining birinchi oylarida paydo bo'lar ekan, bola tarbiyasini ham hayotining birinchi oylaridan boshlab to'g'ri tashkil etish lozim. Bu esa bolaning rivojlanishi va xulq-atvorida salbiy xususiyatlar kelib chiqmasligining oldini oladi, bola taraqqiyotining normal bo'lishini ta'minlaydi. Markaziy nerv tizimining ruhiy bo'limlari rolining ortib borishini asosiy nerv jarayonlari — qo'zg'alish va tormozlanishning ifodalanishida aniqroq ko'rish mumkin bo'ladi. Odatda tormozlanish ikki turda: ichki va tashqi turga ajratiladi. Ichki tormozlanishning eng yorqin ifodasi uyqudir. Tormozlanishning tashqi ifodasi bolani tarbiyalash tufayligina hosil bo'ladi. Buning uchun asosiy ozuqa (masalan, sut) bilan birga, bolaga yana boshqa qo'shimcha (doimo sut ichiriladigan shishachani almashtirib qo'yish) ham ta'sir etadi. Chaqaloq tug'ilgandan boshlab uning atrofidagilari har tomonlama qo'llab-quvvatlaydilar.

Ular bola organizmini jismoniy parvarish bilan ta'minlaydilar, o'rgatadilar, tarbiyalaydilar, insoniy psixologik va axloqiy jihatlarni o'zlashtirishga, jamiyatda yashash sharoitlariga moslashuviga yordam beradilar. Bolani ota-onalar va kattalar tomonidan qo'llab-quvvatlash tug'ilishidan boshlab, toki bola katta bo'lib, mustaqil hayot tarzini kechira olguncha davom etadi.

Chaqaloq tug'ilgandayoq amalda qo'llashga tayyor bo'lgan sensor va harakat malaka instinktlariga ega bo'ladi, bu uning olamga moslashib olib o'z rivojlanishida tezgina o'sib ketishga yordam beradi. Chaqaloqda tug'ilganidan boshlab, masalan, ko'pgina murakkab harakatlar, asosan organizmni yetilish jarayonida genetik berilgan dastur asosida, shuningdek, reflektor, ya'ni bu harakatlar dasturi kaliti sifatida kodlangan o'ziga xos ichki va tashqi rag'batlar ta'sirida hayotining birinchi soatlaridan keyin maxsus tayyorgarliksiz, darhol yuzaga keladi. Go'daklik davri inson hayotidagi organik ehtiyojlarni (kislorodga, ovqatga, issiq yoki sovuqqa) qondirishga nisbatan yo'naltirilgan xatti-harakatlarning tug'ma, instinktiv shakllari sof holda kuzatiladigan yagona davr hisoblanadi. Insonga xos bo'lgan xatti-harakatlarni va yangi tajribalarni egallash uchun beqiyos imkoniyatlarning borligi go'dak yoshidagi bolalarning asosiy xususiyatlaridandir. Organik ehtiyojlarning yetarli darajada qondirib borilishi, to'g'ri tashkil etilgan kun tartibi, rejim va to'g'ri tarbiya natijasida bola psixik rivojlanishi uchun asos bo'ladigan taassurotlarga ega bo'lishiga, harakatga, muloqotga, nisbatan yangi turdagi ehtiyojlar turkumi yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bola tug'ilishining birinchi haftasidanoq, uning ko'rish va eshitish sezgilari jadal sur'atda rivojlanadi.

Tug'ruqxonalarda bolalar hayotlarini birinchi kunidayoq kunduzgi yorug'lik tushib turgan deraza tarafiga yuzi bilan instinktiv buriladi. O'tkazilgan tadqiqotlardan aniqlandiki, tug'ilganiga bir yarim sutka bo'lgan bola miyasida ko'ruv organiga rangli qo'zg'atuvchilar ta'sirigajavob potensiallarini ko'rish mumkin. Bu vaqtga kelib miyada shartli reflekslar shakllanishi yuzaga keladi.

Hid bilish eng muhim sezgi organi sifatida u tugʻilgandan keyin darhol ishlay boshlaydi. Shunday oʻziga xoslikka oddiy koʻrish, harakat va eshitish ham ega. Bola hayotining boshlangʻich ikki oyida ogʻzini chetiga qandaydir predmet bilan teginganda, bunga javoban reflektor oʻgirilish qobiliyatini namoyon etadi, barmoqlari ustiga tegilsa, ularni qattiq siqib oladi, qoʻllari, oyoqlari, boshi bilan umumiy koordinatlashmagan harakatlarni amalga oshiradi. Unda yana harakatlanayotgan obyektlarni koʻzi bilan kuzatish, ular tomoniga boshini oʻgirish qobiliyati ham mavjud.

Chaqaloq narsalarning mazasini ajrata oladi. U boshqa narsalar mazasiga qaraganda shirin suyuqlikni xush koʻradi va hatto shirinlik darajasini aniqlay oladi. Chaqaloq hidlarni sezadi, ularga boshini burish, yurak urishi va nafas olishi chastotasini oʻzgarishi bilan javob beradi. Yana bola organizmiga oʻzini saqlash va rivojlanishiga yordam beruvchi jarayonlar guruhi tugʻma ravishda berilishini alohida aytib oʻtish joizdir. Ular ovqat hazm qilish, qon aylanish, nafas olish, tana harorati, moddalar almashinuvi jarayonlari va hokazolarni boshqarish bilan bogʻliq. Shubhasiz, soʻrish, himoyaviy, moʻljal oluvchi, ushlab oluvchi, tayanch harakati va qator boshqa reflekslar tugʻma hisoblanadi, bularni barchasi bola hayotining ikkinchi oyida aniq koʻrinadi.

Oʻtkir yorugʻlikdan bola «bevosita» taʼsirlanadi, yaʼni oʻtkir yorugʻlikka qaray olmay, undan koʻzini yumadi. Predmetlarni koʻz bilan idrok qila olmaydi, chunki ularda koʻrish mexanizmi hali oʻsib yetmagan boʻladi, bu mexanizmlar kattaroq yoshda paydo boʻladi. Yetti-toʻqqiz kunlik bola baʼzan sekin harakatlanayotgan predmetga qarab qoladi, lekin uzoq vaqt qarolmaydi. Koʻzini bir nuqtaga qaratish psixik taraqqiyotda muhim rol oʻynaydi. Bola ikki-uch oylik boʻlganda yaqinidagi predmetlarni ikki koʻzi bilan kuzata oladi, unda asosiy rang va shakllarni farq qila olish qobiliyati paydo boʻladi. Olti oyligida u ranglarga nisbatan oʻz munosabatini ham bildira boshlaydi, yoqqan rangiga intilsa, yoqmaganini itaradi, undan yuzini oʻgiradi. Yangi tugʻilgan bolaning eshitishi zaifroq boʻladi, shunga koʻra u hali oʻzi eshitib, odat-

lanib qolmagan juda kuchli qo'zg'ovchilarga javob beradi, lekin ovozning qaysi tomondan kelayotganligini ajrata olmaydi. Bola ikkinchi oyining oxirlariga borgandagina eshitayotgan tovushiga e'tibor bera boshlaydi, tovushning qayerdan kelayotganini qidirib, u yoq bu yoqqa qaraydi. Tovush manbayini topishni o'rganagan uch oylik bola gapirayotgan kishini o'z ko'zlari bilan tez topib oladi, o'sha tomonga qarab, gapiruvchiga o'z munosabatini ifodalaydi. Ana shu vaqtdan boshlab, uning tevarak-atrofiga bo'lgan munosabati ancha kengaya boradi.

Bolaning tobora diqqat bilan eshita va ko'ra borishi uning umumiy taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga egadir. Lekin ko'rish, eshitish va boshqa analizatorlar faqat bolaning tevarak-atrof bilan o'zaro munosabatida bo'lishi natijasida takomillashadi. Bolaning o'z ko'zi bilan ko'ra olishi ma'lum hayot tajribasi natijasidir. Bolaning eshitish orqali idrok etishi ham oldindan tovushlarni ajratishga va ularni sintez qilishga o'rganib boradi. Bolaning eshitib bilib olishi shartli bog'lanishlarning sifatiga bog'liqdir. Yangi tug'ilgan bolada diqqat qilish qobiliyati bo'lmaydi. Unda turli qo'zg'ovchilar ta'sirida asta-sekin ixtiyorsiz diqqat rivojlanib boradi. Bolaning tasavvur doirasi qancha qisqa bo'lsa, uning o'zi uchun tanish va yangi bo'lgan predmetga nisbatan diqqati shuncha intensiv va davomli bo'ladi. Diqqatning psixik ta'siri ma'lum, u sezgi kompleksini

idrokka aylantirib, psixik jarayonlarning o'tishini kuchaytiradi va tasavvurlarning xotirada mustahkam saqlanishiga yordam beradi.

Bola organizmiga o'zini saqlash va rivojlanishiga yordam beruvchi jarayonlar guruhi tug'ma ravishda berilishini alohida aytib o'tish joizdir. Ular ovqat hazm qilish, qon aylanish, nafas olish, tana harorati, moddalar almashinuvi jarayonlari va hokazolarni boshqarish bilan bog'liq. Shubhasiz, so'rish, himoyaviy, mo'ljal oluvchi, ushlab oluvchi, tayanch harakati va qator boshqa reflekslar tug'ma hisoblanadi, bularni barchasi bola hayotining ikkinchi oyida aniq ko'rinadi.

Tug'ilganidan boshlab bolaning nafaqat sezgi organlari ish-

lay boshlaydi. Onalar chaqaloqning faqatgina psixika va xulqning tugʻma shakllarinigina bilmasdan, balki organizmni tabiiy rivojlanish jarayonini ham bilishi kerak. Hayotining birinchi oylarida harakatlarning rivojlanishi alohida ahamiyatga ega.

Chaqaloq motorikasi tugʻilganidan boshlab yetarlicha tashkiliylikka ega, u holatlarni boshqarishga moʻljallangan koʻpgina mexanizmlarni oʻz ichiga oladi. Chaqaloqda koʻpincha oyoq-qoʻllarining yuqori harakatchanlik faolligi paydo boʻladi, bu kelajakda koordinatlashgan harakatlarni murakkab majmuyi shakllanishida ijobiy ahamiyatga ega. Chaqaloq bolalarda qoʻl-oyoqlar bukilib, barmoqlar musht boʻlib turadi.

Hayotining birinchi oylarida, bola bezovtalangan paytlarda, qoʻl va oyoqlarning harakati juda betartib, bir-biriga moslashmagan, beixtiyor holda boʻladi. Keyin harakatlar asta-sekin «ongli»lashib boradi va bu harakatlar yangi sezgilarning manbasi boʻlib xizmat qiladi, bu murakkabroq harakatlarga oʻtishni tayyorlaydi. 3—3,5 oylik bola, unda hali aniq koordinatsiyalashgan harakat boʻlmasa ham, qoʻllarini oʻyinchoqlarga uzatadi. Aniq koordinatsiyalashgan harakat 4 oylik bolada yaxshi koʻrinadi. Bola oʻyinchoqni bemalol qoʻliga ololadi. Uni tutib olib, u-bu yogʻiga qaraydi, ogʻziga tegizib koʻradi va shu yoʻl bilan koʻplab har xil taassurotlar oladi. Ikki oylik bola, qorni bilan yotqizib qoʻyilsa, boshini koʻtara boshlaydi. Uch oylikda esa yotgan holda tirsagiga tiranib turadi va bemalol u yoq-bu yoqqa qaray oladi. Shu bilan birga, qoʻltigʻidan tutib turilsa, oyogʻida turadi. 8—8,5 oyligida boshqalarning yordamisiz oʻtira oladi, emaklaydi va biror narsaga suyanib oyogʻida tura oladi. 12—13 oyligida oʻtirib, tura oladi, birovning yordamisiz qadam qoʻya oladi, demak, bola yura boshlaydi. Bolaning vaqtida yurib ketmasligiga salomatligining nochorligi, chaqaloqligida koʻp kasal boʻlganligi va umumiy harakat hamda sezgi organlarining kech rivojlanishi sabab boʻladi.

Bolaning harakatlari rivojlanishi hayotini birinchi yilida judayam tez maromda kechadi, oʻn ikki oy ichida erishilgan taraqqiyot hayratlanarli.

Cheklangan qo‘l-oyoq, boshni tug‘ma umumiy elementar harakatlar to‘plamidan iborat imkoniyatga ega bo‘lgan, amalda yordamga muhtoj mavjudotdan bola kichkina odamga aylandi, u nafaqat ikki oyoqda oson turuvchi, balki muhitda nisbatan ozod va mustaqil harakatlanuvchi oyoqlar harakati bilan bir vaqtda lokomotsiyalardan ozod fazoda (harakatni ta‘minlovchi funksiyalar) qo‘l bilan murakkab boshqaruv harakatlarini va atrofdagi olamni tadqiq etishga mo‘ljallangan harakatlarni amalga oshira oladi. Yangi tug‘ilgan bolada diqqat qilish qobiliyati bo‘lmaydi. Unda turli qo‘zg‘ovchilar ta‘sirida asta-sekin ixtiyorsiz diqqat rivojlanib boradi. Bolaning tasavvur doirasi qancha qisqa bo‘lsa, uning o‘zi uchun tanish va yangi bo‘lgan predmetga nisbatan diqqati shuncha intensiv va davomli bo‘ladi. Diqqatning psixik ta‘siri ma‘lum, u sezgi kompleksini idrokka aylantirib, psixik jarayonlarning o‘tishini kuchaytiradi va tasavvurlarning xotirada mustahkam saqlanishiga yordam beradi.

12.2. Inqirozli davr sifatida go‘daklik davri

Go‘daklik davri bu bolaning himoyasiz, kam harakat, atrofidagi hodisalarga juda kam reaksiyasi bo‘lgan boladan juda jadal ravishda rivojlanadigan, faol, tez ilg‘aydigan, harakatchan, yordamga chaqira oladigan quvnoq bolaga aylanish davridir. Go‘dak yoshidagi bola ham jismonan, ham psixik, ham ijtimoiy jihatdan juda tez rivojlanadi. U qisqa vaqt ichida kattalar bilan munosabat o‘rnatadi, predmetlarni ushlab va ulardan foydalanishga o‘rganadi. U atrof-olamdagi narsalarni kuzatadi, predmetlarni qo‘li bilan ushlab, ularni qandayligini bilishga intiladi, tovushlarga e‘tibor beradi va predmetlarni harakatlantirish yordamida shu tovushlarni o‘zi yaratishga harakat qiladi. U o‘z onasi va boshqa yaqinlari bilan emotsional munosabatga kirishadi, juda qisqa vaqt ichida, kattalarning yaqin kelishidan quvonadigan bolaga aylanadi.

Ilk yoshdagi bolaning harakat faoliyati uning rivojlanish darajasini va nerv tizimining funksional holatini aks ettiradi.

N.D.Levitovning ko‘rsatishicha, yangi harakatlarni egallash analizatorlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘langandir, zotan kichkina bola olamni sezish yordami bilan biladigan mavjudot bo‘lganligi sababli, harakatlarning o‘z vaqtida taraqqiy etishi bolaning umumiy psixik taraqqiyotini ko‘rsatuvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ilk yoshdagi bolalarning muskullari juda bo‘sh bo‘ladi.



Go‘daklik yoshida bolalarni harakat ko‘nikmalari, ayniqsa qo‘l va oyoqlarning murakkab sensor koordinatlashgan harakatlari tez shakllanadi. Bu harakatlar keyinchalik bolalarning bilish va aqliy qobiliyatlari yuzaga kelishida judayam sezilarli rol o‘ynaydi. Bola qo‘l va oyoq harakatlari hisobiga olam haqida axborotlarni ahamiyatli qismini oladi. Qo‘lning murakkab harakatlari idrokning birlamchi shakliga kiradi va odamning aqliy faoliyatining mukammallashuvini ta‘minlovchi uning ajralmas qismiga aylanadi. Bola qo‘lining katta impulsiv faolligi hayotining birinchi haftasida namoyon bo‘ladi. Bu faollik qo‘llarni silkitish, ushlab, barmoqlar harakatlarini o‘z ichiga oladi. Bola 3—4 oyligida predmetlarga

qo‘l uzata boshlaydi, kattalarning yordami bilan o‘tiradi. 5 oyligida u harakatsiz predmetlarni qo‘li bilan ushlay oladi. Bola harakatlanayotgan narsani kuzata boshlaydi. U turli ovozlarga, jumladan, kattalarning tovushlariga e‘tibor bera boshlaydi.

12.3. Hayotining birinchi yilida psixik rivojlanish

Go‘daklik davridagi bolaning hayoti to‘liq kattalar bilan hamkorlikdagi emotsional munosabat bilan bog‘liq bo‘lib, bola kayfiyatining yaxshi bo‘lishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi. 4—5 oyligidan boshlab, bola o‘z yaqinlarini begonalardan ajrata boshlaydi. Kattalar bilan emotsional munosabat shu yoshdagi bolalarning asosiy yetakchi faoliyati bo‘lib, bola psixik taraqqiyotining asosi bo‘lib hisoblanadi. Kattalarning doimiy ravishda bola bilan birga bo‘lishlariga unga o‘z diqqatlarini qaratishlariga odatlanishi, uning o‘yinchoqlarga nisbatan qiziqishining susayishiga olib kelishi mumkin. Tarbiyaning to‘g‘ri olib borilishi bolaning kattalar bilan bo‘ladigan muomala-munosabatini predmetlar, o‘yinchoqlar bilan munosabatining almashinishiga olib keladi. Kattalar yordami bilan bajariladigan barcha xatti-harakatlari bolaning kelgusi psixik rivoji uchun asos bo‘ladi. Kattalarning bolaga nisbatan emotsional munosabati, ularning gaplariga bolaning o‘z diqqatini qaratishi, javob qaytarishga harakat qilishi, ba‘zi so‘zlarni yodida saqlab qolib, emotsiya bildirishi, diqqat, xotira, nutq va boshqa bilish jarayonlarining rivojlanishiga zamin bo‘ladi. Ikki oylik davridan boshlab bolada oddiy ranglarni ajratish, 3—4 oyligidan boshlab, esa predmetlarning shaklini ajratish layoqati yuzaga kela boshlaydi.

Go‘dak bola 2 oylik vaqtdan boshlab, o‘z onasining yuzini va ovozini o‘zgalarnikidan ajrata boshlaydi. 2—3 oylikdan boshlab esa, onasining tabassumi va kulgusiga tabassum va turli harakatlari bilan javob qaytaradi.

3—4 oyligidan boshlab, bolalar yaqinlariga o‘z harakatlari bilan ko‘rish, eshitish yoki gapirishni xohlayotganligini ko‘rsatadilar. 8 oyligidan boshlab esa, bola o‘zgacha muhit va begonalar

qo‘liga tushsa, o‘z xavotirini yig‘isi orqali namoyon etadi. Bu xavotir 14—18 oyligida asta-sekinlik bilan kamaya boshlaydi.

2-3 oylik bolalarda yuzaga keladigan narsalarni ushlay olish harakatlarining shakllanishi ularda predmetlarning shakli va hajmini idrok qilishlarini rivojlanishiga olib keladi. Bir yoshga yetgan bolada atrof-muhitni bilishga qiziqishi va rivojlanayotgan bilish faolligi ko‘zga tashlanadi.

Bir yoshgacha bo‘lgan bolalarning psixik rivojlanishidagi asosiy

1 yosh	Nutqni tushunishning dastlabki belgilari	Mustaqil holda tik turish va yurish	Nutqni qo‘llashning dastlabki belgilari
10 oylik	Sensomotor intellektning rivojlanishi	Mustaqil holda tik turish va yurishga harakat qilish	Bog‘liqlik reaksiyasining yuzaga kelishi, begona muhit va begonalar orasida xavotirlik
8 oylik	Sensomotor intellektning yuzaga kelishi	Tayanib yurishi	Jest, mimika va pantomimika yordamida noverbal muloqoti
7 oylik		Yordam bilan turishi	
5 oylik	Sezgilarning rivojlanishi	Yordam bilan o‘tirishi	
3 oylik	Ko‘rish qobiliyatining shakllanishi	Yon tomoniga o‘girilishi	Onaning jilmayishiga javob qaytarishi
2 hafta	Onaning tovushini boshqa tovushlardan farqlashi	Qo‘l va oyoq harakatlarida qat’iylik	
1 hafta	Harakatlarni kuzatishi	Qo‘l va oyoqlarning betartib harakati	

12.4. Go‘daklik davrining psixologik yangiligi. Bir yoshdagi inqiroz

Go‘daklik davridagi bola yura boshlaydi va birinchi so‘zlarni aytadi. Birinchi yilning oxirida bola mustaqil harakat qilishni o‘rganib oladi: emaklash, so‘ngra tik yurishni o‘rganadi. Dunyo unga boshqacha ko‘rina boshlaydi. Yurish bolaga kattalardan bo‘linish, harakat subyektiga aylanish imkonini beradi. Birinchi yilning oxiriga kelib yaqin kattalar bilan emotsional umumiylikning bo‘linishi va rivojlanish ijtimoiy vaziyatining qayta qurilishi ro‘y beradi. Faqat yaqinlarga tushunarli bo‘lgan va ko‘rsatuvchi jestlar xarakteriga ega bo‘lgan birinchi so‘zlarning paydo bo‘lishi kattalar bilan yangi progressiv muloqot usuliga aylanadi.

L.I.Bojovichning ta’kidlashicha, go‘daklik davridagi yangi tuzilmalardan biri motivatsiyalashgan tasavvurlarning paydo bo‘lishidir. Bolaning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan predmetlar obrazlarining xotirada saqlanib qolishidir. Motivatsiyalashgan ehtiyojlarning paydo bo‘lishi bolani harakat subyektiga aylantiradi.

Harakat imkoniyatlarining ortishi (dastlab emaklash, keyin yurish) bola uchun xavfsiz bo‘lgan ko‘p narsalarni ushlab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ota-onalar cheklovlar qo‘yishga majbur bo‘ladi. Bola ayrim harakatlarini amalga oshirishda doimiy katalarning qarshiligiga duch kelishi tufayli uning istaklari va katalarning xohish va hislariga mos kelmasligini tushuna boshlaydi. Xotirjam bola endi o‘z istaklarini bajarishga harakat qiladigan faol bolaga aylanadi.

L.S.Vigotskiyning ta’kidlashicha, emotsional bo‘ron tipi bo‘yicha kechadigan affektiv reaksiyalarning paydo bo‘lishi bir yoshdagi inqiroz namoyon bo‘lishining xulq-atvor belgilaridir. Bola o‘zi xohlayotganini talab qilib, kattalarga qarshi chiqib, yig‘laydi, polga yotib oladi. Bolaning shaxsiy istagi paydo bo‘ladi, uning subyektiga aylanadi; xohlovchi Men paydo bo‘ladi.

Umuman inqiroz bola taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda turli buzilishlar kuzatiladi: bioritmning buzilishi (masalan, tetiklik va uyqu); hayotiy ehtiyojlarni qondirishning buzilishi (ochlik hissi); emotsional anomaliyalar (yig'loqilik, tez xafa bo'lish).

Tushunadigan ota-onalar mustaqillikka intilayotgan bolaning faolligini kerakli tomonga yo'naltira olishadi. Bolaning maksimal xavfsizligiga g'amxo'rlik qilish doimiy cheklovlar va «mumkin emas» so'zini kamroq ishlatishga harakat qilish zarur. Uydagi fazo mumkin va mumkin emasga aniq ajratilishi lozim. Bu mumkin bo'lganda cheklovlarni boshqa alternativ xulq-atvor bilan almashtirish lozim: uydagi predmetlarni yaxshilab qarab chiqib, bola istayotgan predmetni xavfsizrog'i bilan almashtirish zarur.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Prenatal rivojlanish bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Chaqaloqlik inqirozining mazmuni nimadan iborat?
3. Go'daklik davridagi yetakchi faoliyat.
4. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishi.
5. Bir yoshdagi bolalardagi yangi psixologik tuzilma nima?
6. Bir yosh inqirozi sabablari.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Chaqaloqlik qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
 - a) tug'ilganidan boshlab olti oylikkacha;
 - b) *tug'ilganidan boshlab bir-ikki oylikkacha;
 - c) tug'ilganidan boshlab uch-to'rt oylikkacha;
 - d) tug'ilganidan boshlab bir-besh oylikkacha.
2. Go'daklik qaysi davrni o'z ichiga oladi?
 - a) *bir-ikki oylikdan bir yoshgacha;
 - b) ikki oylikdan bir yoshgacha;
 - c) bir oylikdan bir yoshgacha;
 - d) ikki yoshgacha.
3. Go'daklik davrida asosiy yetakchi faoliyat?

- a) predmetli faoliyat;
 - *b) kattalar bilan emotsional munosabat;
 - c) ota-onaning nutqi;
 - d) o'qish faoliyati.
4. Go'daklik davrida inqiroz sabablari?
- a) bolaning psixik jihatdan yaxshi rivojlanishi;
 - b) bolaning tengdoshlaridan ilgarilab ketishi;
 - *c) ayrim harakatlarini amalga oshirishda doimiy kattalarning qarshiligiga duch kelishi;
 - d) motivatsiyalashgan ehtiyojlarning paydo bo'lishi.
5. D.B.Elkoninning fikricha, go'daklik davridagi yangi tuzilmalardan biri?
- a) emaklash;
 - b) tik yurish;
 - *c) motivatsiyalashgan tasavvurlarning paydo bo'lishidir;
 - d) bolaning maksimal xavfsizligiga g'amxo'rlik qilish doimiy cheklolvar.

XIII BOB. ILK BOLALIK DAVRI

Reja:

1. Ilk bolalik davrida fiziologik va jismoniy rivojlanish, harakat malakalari, kognitiv rivojlanish.
2. Bola tafakkurida egotsentirizmning yuzaga kelishi predmetli harakat faoliyatlarining rivojlanishi.
3. Ilk bolalik davrida nutqning oʻsishi.
4. Aqliy rivojlanish, predmetli faoliyat ilk bolalik davrida yetakchi faoliyat sifatida.
5. Ilk bolalik davrida oʻz-oʻzini anglash.

Mavzu oʻquv maqsadi: Ilk bolalik davrining psixologik xususiyatlarini bayon etish.

Vazifa: Ilk bolalik davrida fiziologik va jismoniy rivojlanish, harakat malakalari, kognitiv va nutqning rivojlanishi, bola tafakkurida egotsentirizmning yuzaga kelishi predmetli harakat faoliyatlarini rivojlanishi, nutqning oʻsishi, aqliy rivojlanish, predmetli faoliyat ilk bolalik davrida yetakchi faoliyat sifatida, oʻz-oʻzini anglash usullarini bayon etish.

Tayanch tushunchalar: Ilk bolalik, egotsentirizm, predmetli faoliyat, oʻz-oʻzini anglash.

13.1. Ilk bolalik davrida fiziologik va jismoniy rivojlanish, harakat malakalari, kognitiv rivojlanishi

Ilk bolalik davri: goʻdaklik davridan soʻng rivojlanishning yangi bosqichi — ilk bolalik (1—3 yosh) davri boshlanadi. Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning ke-lajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning toʻgʻri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatni egallash xususiyatlari tashkil etadi. Tikka va toʻgʻri yura olish imkoni bolani doimiy ravishda yangi maʼlumotlarni egalashga zamin boʻladi. Bu yoshdagi bolalar oʻz xatti-harakatlari bilan oʻz-oʻzini anglash va kattalar bilan muloqotga kirishishga intiluv-


Ilk bolalik davridagi psixologik yangilik

Bola tomonidan o'zining atro- fidagilaridan ajralishi	O'zini ha- rakat sub- yekti sifatida anglashi	Boshqa kishilar bi- lan taqqos lashi
---	--	---

Yurishni o'rganish bolaning jismoniy o'sishi uchungina emas, balki uning psixik taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Bolaning mustaqil harakat qilishi — yurishi tufayli ko'plab predmetlarga duch keladi, ularning nimalarga ishlatilishini «amal»da ko'rib biladi va o'zi ham ulardan kerakli o'rinda foydalana boshlaydi. Bola yurishni o'rgangach, fazoni ham bila boradi. Kichikintoy bolalar «yaqindagi» fazoni qo'llarining harakati yordamida bilib oladilar, bunda ko'z ham ishtirok eta boshlaydi. Bog'chagacha yoshdagi bola «uzoqdagi» fazoni oriyentirovka qila boshlaydi. Bola yura boshlaganda, o'z oyog'i yordamida masofa va yo'nalish bilan tanishadi, uning ko'z, qo'l va oyoqlarining o'zaro kelishib harakat qilishi, boshlang'ich ko'z o'lchovi o'sadi hamda masofa va predmetlarning turgan joylarini birmuncha aniq aytib berish ko'nikmasi vujudga keladi.

Bog'chagacha bo'lgan yosh davrining birinchi yarmida bolalar predmetlar bilan harakat qilib, tanishib boradilar. Harakatlarning barcha koordinatsiyasi bolada barqaror diqqatning rivojlanishiga, idrokning aniq bo'lishiga va iroda kuchining o'sishiga olib keladi. Ammo bolalarning harakatlari kattalarning harakatlari taqlid qilish xarakteriga ega bo'ladi. Biror-bir harakatni o'z vaqtida o'zlashtirishi bilan bola uni asta-sekin mustaqil bajaradi, bu harakat unda dadillik, ishonch va sabr-matонатlilik kabi ijobiy xislatlarning tarkib topishiga yordam beradi.

Bola hayotining uchinchi yilida, ya'ni organizmning intensiv o'sishi va rivojlanishi davrida harakatlarning kam bo'lishi bolaning umumiy o'sishiga salbiy ta'sir etadi.



Shu sababli asosiy harakatlar (yurish, yugurish, predmetlarga tirmashib chiqish) bilan birgalikda, qo‘l harakatlarining ham to‘g‘ri va o‘z vaqtida rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilish zarurdir. Bolaning harakatlarini asosan uning kundalik faoliyati jarayonida o‘stirib borishga e‘tibor berish kerak. Masalan, mustaqil ravishda yuvinish, kiyinish, ovqatlanish, gigiyenik mashqlar, o‘yin va boshqalar.

Har xil harakatlarni bajarish va predmetlar bilan harakat qilish tevarak-atrofdagi olamni bilishga olib keladi. Bola predmetlarning fazodagi o‘rni, joylanishi, sifati, hajmi, shakli va holatlari bilan tanishadi. Bularning hammasi sezgi organlarining o‘sishiga ijobiy ta‘sir etadi. Bir yoshlik bola nisbatan yaxshi rivojlangan sezgirlikka egadir. Bola bog‘cha davrining boshlanishida ba‘zi tovuqlarni, o‘ziga yaqin kishilarning ovoz tempini aniq ajrata oladi, ba‘zi bir narsalarning ta‘mi va hidini farq qiladi, ranglarni taniy boshlaydi. Bu yosh davrida ko‘rish va eshitish analizatorlarining rivojlanishi ayniqsa yuksak darajaga yetadi. Bola asosiy ranglarni bir-biridan farq qiladi. Lekin bolaga ranglarning

nomini aytishga qaraganda, ularni bir-biridan ajratish osonroqdir. Bolalar ranglarni bilsalar ham, bu sohadagi o'z bilimlaridan yetarli darajada yaxshi foydalana olmaydilar. Bolalar qizil rangni osonlik bilan ajrata oladilar-u, binafsha rangni ajratishda ko'pincha yanglishadilar. Ko'pincha bolalar har bir rangning tusini, tovlanishini yaxshi ajrata olmaydilar.

Bu yoshdagi bolalar uchun idrok qilinayotgan predmet obrazlarining bir-biriga o'xshashib ketishi xarakterlidir. Masalan, ular olmani biladilar, olma bolaga bir butunligicha tanish, lekin bola olmaning rangini ham, shaklini ham alohida holda ajrata olmaydi. Predmetni har tomonlama ko'ra bilish, ya'ni uni qismlarga ajratish, belgi va turlariga qarab farqlash — uni analiz qilish demakdir. Bu esa bolaga butunlikni tushunish imkonini beradi. Shu sababli, bolalarni yangi predmetlar bilan tanishtirganda, ularni bir-biridan ajratib turadigan shakli, rangi va qismlariga e'tibor berish lozim. Mana shunday tarbiyaviy ta'sir natijasida bolalarning predmetlar haqidagi tasavvurlari o'sadi. Bola bir yarim yoshga borganda, o'zlari tez-tez uchratib turgan predmetlarni, ularning rangi, hajmi, shaklining o'zgarishidan qat'i nazar, xatosiz tanib oladilar. Bola ikki yoshga to'lay deganda, tanish kuy va tovushlarni bilib oladi. Borliqni bilish jarayonida bola o'z hayotida va tevarak-atrofidagi kishilar turmushida o'rnatilgan tartibni tushuna boshlaydi. Bu olamni bilishning eng muhim tomoni bo'lgan zamon — vaqtni bilib olishi uchun asos bo'ladi. Bolaning organizmi ma'lum tartibga ko'nika boshlaydi, bu vaqt bilan tanishishdagi dastlabki qadamdir. Keyinchalik bolalar tabiat hodisalari va odamlarning kundalik hayoti singari tushunchalarni anglay boshlaydilar. Albatta, buning uchun kattalar bolalarning e'tiborini hayotning muhim belgilariga qaratishi lozim. Bolaning har bir sezgan va idrok etgan narsalari o'ziga xos sezgilar bilan mustahkamlanishi kerak. So'z bolaning ko'rayotgan predmetlarini tushunib olishini osonlashtiradi, predmetni so'z yordamida bilib olish ko'z va quloq ishini kuchaytiradi.

Bolaning aqliy jihatdan o'sishida makon va zamon haqidagi tushunchalarni anglashga yordam beradigan so'zlarni o'zlashtirib olishi muhimdir. Predmetlar o'rtasida mavjud bo'lgan har xil fazoviy belgilarning (masalan, katta oraliq, tor oraliq) va turli fazoviy munosabatlarning nomlarini (o'ngda, chapda, orqada, bir qator) bilib olish natijasida bolalar predmetlar o'rtasidagi bu munosabatlarni ajratib olishga o'rganadilar. Shu tariqa, nutq predmetlarning belgilarini differensiyalash va umumiyashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Lekin, shu bilan bir qatorda, so'z birinchi signal sistemasi bilan bevosita bog'lanmog'i lozim. Ikki-uch yashar bolalardagi idrok o'zining yetarli darajada o'smaganligi va beqarorligi bilan ajralib turadi hamda bir kuzatish obyektidan ikkinchi kuzatish obyektiga tez-tez ko'chib turishi bilan xarakterlanadi. Yaltiroq, chiroyli, ko'zga tez tashlanadigan predmetlar bola diqqatini o'ziga jalb qiladi. Bog'chagacha bo'lgan yosh davridagi bolalar idroklarini qo'yilgan vazifa asosida tashkil eta olmaydilar, ulardagi bu xil idrok juda qisqa muddatli bo'ladi. O'zlaridan uzoqda turgan predmetlarni idrok qilishda ayniqsa ko'p xato qiladilar. Bolada idrok asta-sekin mustaqillashib, ma'lum maqsadga tayangan bo'ladi, kuzatuvchanlik rivojlana boradi. Bola o'zini qiziqtirayotgan narsaga uzoq vaqt qarab, uni kuzatishi, o'sha predmet to'g'risida biror narsani so'rashi mumkin.

Lekin bola hali predmet va hodisalarni har tomonlama kuzatib, uning asosiy, muhim tomonlarini ajratib, ayrim elementlarini o'zaro bog'lab olishning uddasidan chiqa olmaydi. Bolada kuzatuvchanlikni o'stirishda sayr va ekskursiyalar muhim ahamiyatga egadir. Bunda bolalar kattalarning rahbarligida tevarak-atrofdagi predmet va hodisalarda o'zlari uchun yangi bo'lgan muhim va qiziqarli narsalarni aniqlashga o'rganadilar. Rasmlarga qarash, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish idrokning o'sishiga juda yaxshi ta'sir etadi.

Ilk yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyat turi — predmetlarni o'rganish, predmetlar bilan manipulyativ harakat hisoblanadi.

13.2. Bola tafakkurida egotsentirizmning yuzaga kelishi predmetli harakat faoliyatlarining rivojlanishi

Ilk bolalik davridagi bolalar soʻzlay boshlagan boʻlishiga qaramay, ular hali vaqt va fazo kabi murakkab tushunchalarni toʻgʻri idrok qila olmaydilar, chunki ularda hali turmush tajribasi yoʻq. Bunday murakkab tushunchalar kundalik hayot davomida sekin-asta hosil qilib boriladi.

Bir yoshgacha boʻlgan bolalarning diqqati nihoyatda beqaror va ixtiyorsiz boʻlsa, ikki yoshga toʻlgan bolalarning diqqatida yangi sifatlar yuzaga kela boshlaydi. Bola oʻsib ulgʻaygan sari uning diqqati barqarorroq boʻla boshlaydi. Diqqatning ozmi-koʻpmi barqaror boʻla boshlagani shunda koʻrinadiki, bola oʻzini qiziqtirgan biron narsa bilan uzoq vaqt mobaynida shugʻullana oladi. Ikki yoshga toʻlib, uch yoshga qadam qoʻygach soʻzlarni tushunadi. Soʻz boyligi orta borgach, bolaning oʻziga xos boʻlgan situativ tili haqiqiy tilga aylanadi.

Bu yoshdagi bolalarning tafakkurlari oʻziga xos xususiyatlariga hamda konkret xarakterga ega. Ular ayni chogʻda idrok qilib turgan narsalari haqida juda sodda tafakkur qila oladilar. Bundan tashqari, bu yoshdagi bolalarning tafakkur jarayonlarida harakat elementlari koʻp boʻladi. Shuning uchun ham ularning tafakkurlari baʼzan harakatli tafakkur deb ham yuritiladi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda tafakkurning fikriy operatsiyalarini, yaʼni analiz, umumlashtirish kabilarni koʻramiz. Ular qoʻllaridagi oʻyinchoqlarini yoki qoʻllariga tushgan narsalarni amaliy aylantirib, paypaslab, buzib analiz qiladilar. Lekin sintez qilishga hali qurbi yetmaydi. Bu yoshning oxiriga kelib tafakkurning oʻsishida nutqning roli juda oshadi. Bola yangi soʻzlarni mumkin qadar koʻproq bilib olib, ulardan oʻz tafakkurida keng foydalana oladilar. Bu esa fiklash operatsiyalarining oʻsishiga yordam beradi. Bolada soʻzlar vositasi bilan analiz va sintez qilish, abstraksiyalash hamda umumlashtirishning dastlabki aloqmatlari koʻrina boshlaydi

Xorij psixologi G.Craig bu yoshdagi bolalar tafakkur jarayonlarining 5 ta xususiyatini ta'kidlab ko'rsatgan¹.

Birinchidan, bu yoshdagi bolalarning tafakkuri konkret. Operatsiyalargacha intellektda bolalar mavhum fikrlay olmaydilar. Ularning aqli «shu yerda va hozir» ro'y berayotgan jismoniy obyektlar bilan band bo'lib, ularni oson tasavvur qilishi mumkin.

Ikkinchidan, kichkina bolalarning tafakkuri bir yoqlama, ya'ni hodisalarning rivojlanishi va bog'lanishlarning hosil bo'lishi bir yoqlama ro'y beradi. Bolalar qandaydir obyektning dastlabki holiga qaytishi mumkinligi yoki obyektlar orasidagi bog'lanishlar ikki tomonlama bo'lishi mumkinligini tasavvur qila olmaydilar.

Uchinchidan, bolalarning operatsiyalargacha bo'lgan tafakkuri egotsentrik, bolaning istiqbol ramkalari bilan chegaralangan, shuning uchun ham boshqa insonning fikrini qabul qila olmaydi. Bolalar o'zlari idrok qilayotgan obrazlariga diqqatini qaratganlari uchun, hamma odamlar dunyoni uningdek ko'radi, deb o'ylaydilar.

To'rtinchidan, bu davrda bola tafakkuri obyekt yoki vaziyatni o'lchash yoki qandaydir jismoniy xususiyatida markazlashish tendensiyasiga ega. Markazlashish bu obyekt yoki vaziyatning qandaydir xarakteristikasida diqqatning to'planishi bo'lib, operatsiyalargacha bo'lgan tafakkurning asosiy belgisidir.

Beshinchidan, operatsiyalargacha bo'lgan davrda bolalar o'zgarish jarayonlariga emas, balki obyektlarning hozirgi holatiga diqqatlarini qaratadi.

Tafakkurning o'sishda yana bir muhim bosqich shundan iboratki, ilk bolalik yoshining oxiriga kelib bola ayrim tushunchalarni bilib olishga va bu tushunchalarning eng muhim belgilarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Uch yoshga to'lay deb qolgan bola, katta yoshdagi hamma odamlarning ishga barvaqt ketishlarini juda yaxshi biladi. Agar bu yoshdagi bolaga «adang endi barvaqt ishga ketmaydi» deyilsa, u hayron bo'lib qoladi. Chun-

¹ G.Craig. Human development. Prentice Hall. 1996. P.367.

ki katta odam bo'lgan adasining ishga bormasligi, uning tushunchasiga to'g'ri kelmaydi. Uning tushunchasida hamma katta odamlar barvaqt ishga ketishi kerak. Shuning uchun hech bir o'ylab o'tirmay, «adam kattalar-ku?» deb javob beradi. Bolalar tushunchalardan foydalanib, sodda xulosalar chiqarishga o'rganib boshlaydilar. Ular bir necha hukmlardan foydalanib, katta, kichik, baland, past, ko'p, oz kabi sodda xulosalar chiqara oladilar, bu esa tafakkurning yanada rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda murakkab psixik jarayonlardan biri bo'lmish xayol anchagina rivojlana boshlaydi. Lekin bu asosan ixtiyorsiz xayol bo'ladi. Ular hali ma'lum maqsad asosida ixtiyoriy tarzda xayol yurgiza olmaydilar.

Bola ikki yoshga to'lgach, uning o'yinlarida jiddiy o'zgarish ro'y beradi. Bolaning o'yiniga endi taqlidiy harakatlar qo'shiladi. Bola kattalardan ko'rgan-bilganlarini o'yinda taqlidan takrorlay boshlaydilar. Bu davrda bola mashinasini y yoqdan bu yoqqa siljitish yoki tepalikdan sirg'antirib tushirish bilan cheklanmay, haydovchilarning harakatlarini bajaradilar. Mashinaning motori ovoziga taqlid qilib ovoz chiqaradi, mashinada yuk tashiydi va hokazo.

Nutqning o'sishi bola xayolining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar kattalarning gaplariga tushunadigan bo'lgach, har xil ertak va hikoyalarni qiziqib tinglaydigan bo'ladi. Bolalar o'zlari biladigan, o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan narsalar haqidagi hikoyalarni joni dili bilan eshitadilar. Har bir hikoyani eshitganda bolada xilma-xil tasavvurlar yuzaga keladi. Bola bu tasavvurlari yordamida xayol qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bola hikoyalarni eshitish orqali olgan tasavvurlarini so'zlar bilan ifodalaydi. So'z esa bolaning narsalarni boshqacha idrok qilishga, ularning boshqa narsalarga o'xshashligini aniqlashiga va ana shunday o'xshashliklarni aniqlash asosida yangi obrazlar, yangi tasavvurlar yaratishga yordam beradi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda barcha psixik jarayonlar ma'lum darajada rivojlanar ekan, bu umuman ular ongining rivojlanishiga

zamin yaratadi. Tili chiqib, idrok va tafakkuri anchagina o‘sgan bola tevarak-atrofdagi har xil narsalarga ongli munosabatda bo‘la boshlaydi. Bola o‘zining turli ehtiyojlarini anglab, o‘zining shaxsini shakllantira boshlaydi. Mashhur fiziolog I.M.Sechenovning tili bilan aytganda, bola ana shu davrdan boshlab, o‘z sezgilarini tevarak-atrofdagi narsalardan ajratib, o‘z-o‘zini anglay boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarning so‘z boyligida o‘z shaxsini bildiruvchi «men» degan olmosh tez-tez uchrab turadigan bo‘ladi. Ana shu tariqa bola juda elementlar rarzda bo‘lsa ham o‘zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. Binobarin, ana shu davrdan boshlab ilk bolalik davridagi bolalarning shaxsiy (individual) xususiyatlari kamol topa boshlaydi.

13.3. Ilk bolalik davrida nutqning o‘sishi

Go‘daklik davridagi bolalarga nisbatan, ilk bolalik davridagi bolalar atrof-muhitdagi narsa va hodisalarga nisbatan ko‘proq qiziqish bilan qaraydilar. Agar, go‘dak bola qo‘liga ushlagan narsani oddiy harakatlar bilan kuzatsa, 2—3 yoshdagi bola shu predmet qismlarini diqqat bilan o‘rganganidan so‘nggina, o‘z amaliy faoliyatida ishlata boshlaydi. Bolani dastlab, ayni shu predmetlarning qo‘llanish vazifasi, mohiyati qiziqtirib, u o‘z savoliga javob olish maqsadida ko‘pincha kattalarga «Bu nima?» degan savol bilan murojaat qiladi. 1—3 yoshdagi bola shakllanishda psixik rivojlanishning o‘ta ahamiyatliligini inobatga olgan holda, ayrim psixologlar (R.Zazzo) inson tug‘ilganidan to yetuklik davrigacha bo‘lgan psixik rivojlanish asosining taxminan o‘rtalari, 3 yoshga to‘g‘ri keladi, degan mulohazani bildiradilar. Bu yoshdan boshlab, bolalar predmetlarni o‘rganish olamiga qadam qo‘yadilar. U endi kattalar bilan nutq orqali muomala-munosabatda bo‘la oladi va sodda axloq qoidalariga amal qila boshlaydilar. Kattalar bilan bo‘ladigan muloqoti tufayli bola atrof hayot haqida ko‘proq ma‘lumot oladi. Nutq — bu yoshlarda nafaqat muloqot, balki bola tafakkurining rivojlanishi va o‘zini-o‘zi, shuningdek, bilish jarayonlarini boshqarish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi.

Uch yoshli bolalarda hukmning oddiy turlarini ko‘rish mumkin. Bu hukm turlari doimo faqat o‘zi bevosita idrok qilayotgan va yakka predmetlarga taalluqli bo‘ladi. Bola 2,5 yoshga yetganda savollar bera boshlaydi. Avval savollar ko‘proq predmetlarning nomi to‘g‘risida bo‘lsa, keyinchalik savollar asosan predmetlarning qanday maqsadlarda qo‘llanilishi va nimalarga ishlatilishi to‘g‘risida (masalan, bu nima?, bu bilan nima qilinadi?, bu nimalarga ishlatiladi? kabi) bo‘ladi. Hozirgi zamon, o‘tgan zamon va umuman vaqt to‘g‘risidagi aniq tasavvur tushunchasi fazoviy tasavvurlarga nisbatan ancha kech paydo bo‘ladi. Bola predmetlar bilan ko‘proq aloqa qilishi, ular bilan munosabatda bo‘lishi va ularning xususiyatlarini tekshirib ko‘rishi kerak. Bu bilan unda dastlab ayrim predmetlar va hodisalar haqida tasavvurlar to‘plana boradi va keyinchalik shular zaminida umumiy tasavvur va tushunchalar hosil bo‘ladi, mantiqiy tafakkur rivojlana boshlaydi. 2—3 yoshli bola ko‘p narsani ko‘rishni, ko‘p narsani bilishni va tushunishni istaydi, bu uning qiziquvchanlik va sinchkovlik xususiyatidan kelib chiqadi. U hamma joyga «tiqiladi», kattalarga halaqit berib, ularning tinkasini quritib juda ko‘plab savollar beradi.

Kattalar mana shu savollarning hammasidan bolalarda tafakkurni o‘stirish va tevarak-atrofdagi olamni to‘g‘ri tushunishni tarbiyalash maqsadida foydalanishi g‘oyat muhimdir. Bola o‘z savollariga tushunarli javob olganidan keyin, bu ma’lumotlarni o‘z o‘yinlarida aks ettiradi va shu yo‘l bilan ularning xotirasida mustahkam saqlanib qoladi. Bola tevarak-atrofdagi olamni kattalarning tushuntirishi bilan bir vaqtda kuzatsa, atrofdagi olamni yaxshiroq tushuna boshlaydi, narsa va hodisalarni solishtiradi, ularning ayrimlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni va buning sabablarini aniqlaydi. Mana shuning o‘zi bolada ancha umumlashgan tafakkur paydo bo‘layotganidan darak beradi.

Bola tafakkurining rivojlanishi nutqning o‘sishi bilan mustahkam bog‘langandir, nutqning o‘sishi tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi, chunki so‘z narsa, predmet va harakatlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. O‘z navbatida, tafakkurning rivoj-

nimsiz harakatlari davomida kattalarga taqlid qilib, mustaqil ravishda kiyinish, ovqat yeyish, yuvinish kabi harakatlarni o'zlashtira boshlaydi. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bola o'zining kundalik harakatlari davomida hech bir erinmay, ko'z o'ngidagi hamma narsalarni tekshirib ko'radi. Natijada juda ko'p yangiliklarni bilib oladi, o'zining sezgi va idrokini, tasavvur va xotirasini, tafakkur va nutqini, hissiyot va xayolini — umuman hamma psixik jarayonlarini rivojlantiradi.


Bu yoshdagi davrda sezgilarning rivojlanishi analizatorlarning tobora takomillashuvi bilan bog'liqdir. Ikki yoshdan oshgan bolaning sezgilari (ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilish, teri va harakat kabi) uning har kungi xilma-xil harakatlari davomida turli narsalarga bevosita to'qnash kelishi natijasida rivojlanadi. Sezgilarning normal rivojlanishi bola idroki o'sishi uchun zamin yaratadi.

Ilk bolalik davridagi bolaning idroki ancha rivojlangan bo'lsa ham hali katta odamlar idrokidan keskin farq qiladi. Birinchidan, bolalarda turmush tajribasi yo'qligi tufayli ularning idroklari ham anglashilmagan xarakterga ega bo'ladi. Ular ko'p narsalarga birinchi marta duch keladilar. Shuning uchun bolalar idrok qiladigan ko'p narsalar ularga yangilik, ya'ni dastlabki taassurot kuchiga ega bo'ladi. Ikkinchidan esa, bolalarning idroki ko'pincha ixtiyorsiz xarakterga ega bo'ladi, ya'ni ularning idrokida muayyan bir maqsadni ko'zlash hali sezilmaydi. Shuning uchun ularning idroki bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor ko'chib keta beradi. Lekin bu yoshdagi bolalarda hissiyot kuchli bo'lgani uchun ular o'zlarini qiziqtiradigan, hayron qoldiradigan, hissiy kechinmalar uyg'otadigan narsalarni idrok qiladilar.

Bu yoshdagi bolalar idrokining yana farqlanadigan tomoni shundaki, ular idrok qilayotgan narsalarni umumlashtira olmaydilar. Atrof-muhitdagi narsalarni qanday bo'lsa shundayligicha idrok qiladilar. Bu xususiyat ularning rasmlarni idrok qilishlarida yaqqol ko'rinadi. Masalan, ikki yarim yashar bolaga otning kallasi solingan surat ko'rsatilsa, hayron bo'lib, otning o'zi qani, deb so'raydi.

Bolalar idrokining takomillashuvida soʻz katta ahamiyatga ega. Soʻz mohiyati jihatidan umumlashgan xarakterga ega boʻlib, u narsalarni umumlashtirish imkonini beradi. Bola soʻz yordamida oʻxshash narsalarni oddiygina guruhlarga ajrata boshlaydi.

13.4. Aqliy rivojlanish, predmetli faoliyat ilk bolalik davrida yetakchi faoliyat sifatida



Ilk bolalik davridan boshlab bola uni oʻrab turgan predmetlarning xususiyatlarini va ular orasidagi oddiy bogʻliqliklarni anglashga harakat qiladi. Bu davr aqliy rivojlanishning asosini, idrok va tafakkur harakatlarining yangi koʻrinishlarini tashkil etadi. 1 yoshli bola predmetlarni izchil, tizimli ravishda koʻrib chiqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir koʻzga tashlanib turadigan belgisiga oʻz eʼtiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga koʻra taniydi. Keyinchalik yangi idrok harakatlarining egallanishi bolaning predmetli harakatlarini bajarishdan koʻz bi-

lan chamalab, harakat qilishiga o'tishda namoyon bo'ladi, endi u predmetning bo'laklarini ushlab ko'rmasdan, balki chamalab idrok eta oladi. 2,5—3 yoshli bola kattalarning ko'rsatgan namunasi, rangi, shakli va kattaligiga ko'ra, aynan shunday predmetlarni chamalab, idrok etgan holda to'g'ri topa oladi. Bolalar avval shakliga, so'ngra kattaligiga va undan keyingina rangiga qarab ajrata oladilar. Bu jarayonda bola bir xil xususiyatga ega bo'lgan juda ko'p predmetlar mavjudligini tushuna boshlaydi. Lekin, bola rasm chizishni boshlash davrida predmetlarning rangini e'tiborga olmaydi va o'ziga yoqadigan ranglardan foydalanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha 2,5-3 yoshli bola 5-6 ta shaklni (doira, kvadrat, uchburchak, to'g'riburchak, ko'pburchak) va 8 xil rangni (qizil, olov rang, sariq, yashil, ko'k, siyohrang, oq, qora) idrok etishi mumkin. Rang va shakllarning maqsadga muvofiq ishlatilishi jihatidan har xil narsalarda turlicha namoyon bo'lishi sababli, bu yoshdagi bolalar ularni idrok etganlari bilan nomlarini aniq bilishlari va o'z nutqlarida ishlata olishlari birmuncha qiyinroq. Kattalarning bu yoshdagi bolalardan rang va shakllarni eslab qolishlarini talab etishlari noto'g'ridir, buning uchun mos davr 4—5 yoshlar hisoblanadi.

Bola 3 yoshigacha o'zlashtirgan so'zlar asosan predmet va harakatlarning nomlarini bildiradi. Nomlar asosan uning vazifasini anglatadi, bunda predmet yoki harakatning tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham uning nomi o'zgarmaydi. Shuning uchun ham bola predmetlarning nomlarini ishlatilishini vazifalariga bog'lagan holda tez o'zlashtiradi. Idrok o'ssa, xotira takomillashadi. Xotira bolaning taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga egadir.

Ilk yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunligicha qolaveradi. Masalan, bola juda berilib ertak eshitayotgan bo'lsa ham, xonaga birov kirib qolsa, uning diqqati ixtiyorsiz shu ertakdan chalg'iydi. Diqqatning ko'p chalg'ishi bu yoshdagi bolalar diqqatining xarakterli xususiyatidir, chunki psixik hayot doimiy ravishda tashqaridan bo'ladigan yangi o'zgaruvchilarga muhtoj bo'lib turadi. Ammo obyektga bo'lgan qiziqish qancha aniq va ravshan

bo'lsa, bolaning ixtiyorsiz diqqati shuncha barqaror bo'ladi. Ixtiyorsiz diqqatning kelgusi taraqqiyoti qiziqishlarning boyib borishiga bog'liqdir. Bu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqat endigina vujudga kela boshlagan bo'ladi.

Uch yashar bolaning xayol obrazlari tevarak-atrofdagi predmetlarning ta'sirida tughladi va ma'lum maqsadga bo'ysunadi. Bola qo'g'irchoqni ko'rib bo'lgandan keyin, uni kiyintiradi va «uxlashga» yotqizadi. Bordi-yu, shu on «ayiqcha»ni ko'rib qolsa, diqqatini qo'lidagi qo'g'irchoq qolib, ana shu «ayiqcha»ga qaratadi va u bilan «o'rmonga sayr qilishga» ketadi. Bolada tajriba ortib borishi bilan xayol ham boyib boradi. Kichkina bolalarda xayol ancha rivojlangan bo'ladi. Lekin bola xayoldagi obraz bilan borliqdagi idrok qilayotgan narsa va predmetlarni aralastirib yuboradi. Shu sababli bola xayoliga ta'sir etuvchi vositalar ichida ertaklar muhim o'rin egallaydi.

Ilk bolalik yoshidagi bolaning xayoli predmetlar bilan qilindigan harakatlarga bog'liqligi bilan farqlanadi. Bu yoshdagi bolalarda nutq va tafakkur xususiyatlari o'z hayotining birinchi yilida sodda assotsiatsiya, ya'ni har xil tasavvurlarni bir-biri bilan bog'lash qobiliyatiga ega bo'ladi. Masalan, u sutli shishani ko'rish bilan xursand bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan bolaning assotsiatsiyasi murakkablashib boraveradi. Bola bir yoshga to'lay deganda, onasining ko'chaga kiyadigan kiyimini olib kelayotganini ko'rib, xursand bo'ladi. Vrachning tekshirishidan yomon ta'sirlangan bolalar xalati odamlardan qo'rqa boshlaydilar.

Bola o'z hayotining ikkinchi yilida fazo munosabatlarini aniqlay boshlaydi, xonaning ichidagi predmetlar orasida o'zini to'g'ri tutish malakasini egallab boradi.

Bolaning yoshi ulg'ayishi bilan unda tevarak-atrofga bo'lgan qiziqish ortadi. Kichkintoydagi sinchkovlik va har narsaga qiziquvchanlik uning kelgusi hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Bola hamma narsani o'zi ko'rishni va eshitishni istaydi. Lekin bolaning hayoti va rivojlanishi uchun ko'rish va eshitish sezgilari asosida vujudga keladigan taassurotlargina emas, balki hid

va muskul-harakat sezgilari orqali oladigan taassurotlar ham juda muhimdir.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib, bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni bola biror predmetni olishga harakat qila olganidan so'ng, uni sinchiklab o'rganishida ko'rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari, asosan, ko'rgazmali-harakatli bo'lib, u atrof olamdagi turli bog'liqliklarni o'rganishga xizmat qiladi. O'zidan uzoqroq turgan koptokni biron-bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko'rgan bola, endi mustaqil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni tayoqcha yordamida olish mumkinligini tushuna boshlaydi. Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o'rin tutadi. Umumlashtirishda nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, soat deyilishi bilan bola qo'l soatini yoki devordagi osma soatni ham tushunishi mumkin. Lekin, ular turlicha bo'lganligi bois, ularda umumiylikni topish bola uchun qiyinroq hisoblanib, bu borada fikrlash 2—3 yoshli bolalar ma'lum bir predmetlarning o'rniga ularning o'rnini bosishi mumkin deb hisoblagan boshqa narsalardan ham foydalanadilar. Masalan, o'yin jarayonida bola cho'pni qoshiq yoki termometr o'rnida, yog'ochdan yasalgan krovat yoki mashina o'rnida foydalanishi mumkin.

Bola ikki yoshlarga borib, amaliy tafakkurdan birinchi marta foydalana oladi, uchinchi yoshida esa ba'zi tanish harakatlardan konkret masalalarni hal qilishda mustaqil foydalana boshlaydi. Masalan, bu yoshdagi bola vazadagi tugmachani qo'li bilan solib, ololmasa, u vazachani to'ntarib olaveradi. Tafakkurning bu boshlang'ich shaklini ba'zan «qo'l tafakkuri» ham deyiladi. Tafakkurning bu shakli bola aqliy taraqqiyotining kelgusi bosqichi uchun juda zarurdir.

13.5. Ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglash

Bu davrdagi bolalarning xatti-harakatlari ularning xohish va hissiyotlari juda o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, bolaning yig'lashi hamda yig'idan to'xtashi juda tez o'zgaradi. Ilk davrda bolada

o'z yaqinlariga: onasi, otasi, buvi-buvalari, tarbiyachisiga nisbatan muhabbat shakllanadi. Bola o'z yaqinlaridan maqtov olishga harakat qiladi. Ota-onalar tomonidan bolaning xatti-harakatlari va shaxsiy xususiyatlariga beradigan ijobiy emotsional baholari ularda o'zlarining layoqat va imkoniyatlariga nisbatan ishonchini shakllantiradi. U o'z ota-onasiga nihoyatda qattiq bog'langan bo'lib, intizomli va itoatkor bo'ladi. Ana shu bog'liqlik sababli bolaning asosiy ehtiyojlari qondiriladi, xavotirligi kamayadi. Onasi yonida bo'lgan bolalar ko'proq harakat qiladilar va atrof-muhitni o'rganishga intiladilar. Bu davrda bola o'z ismini juda yaxshi o'zlashtiradi. Bola doimo o'z ismini himoya qiladi, uni boshqa ism bilan chaqirishlariga norozilik bildiradi. Kattalarning bola bilan qiladigan muomala-munosabati uning o'zini alohida shaxs sifatida anglashini boshlanishiga imkoniyat beradi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Kattalarning bola bilan qanday muomala qilishlariga qarab uning o'z «Men»ini anglay boshlashi birmuncha avvalroq yoki kechroq yuzaga kelishi mumkin. 3 yoshli bola o'zini, o'z xohish va ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan manba deb biladi va bu uning «Menga bering», «Ko'taring», «Men ham boraman» kabi talablarida ko'rinadi. Uch yoshli bolalar o'zlarini o'z-galar bilan taqqoslay boshlaydilar, buning natijasida bolalarda o'z-o'zini baholash vujudga keladi. Shu davrdan boshlab bolalarda mustaqil bo'lish ehtiyoji yuzaga keladi va bu ularning «o'zim qilaman» qabilidagi so'zlarida namoyon bo'ladi.

3 yoshdagi inqiroz: 3 yoshga kelib bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo'lgan (huquqi bo'lgan), ular bajara oladigan harakatlarni bajarishga intiladi. «Men katta bo'lsam mashina haydayman», «Men sizga katta tort olib kelaman», «Mening yuzta qo'g'irchog'im bo'ladi» kabi xohishlarini o'z tili bilan ifodalaydi va u kelasi zamonda gapirsa ham o'zining barcha xohishlarini shu bugun amalga oshirishga harakat qiladi. Ko'pincha bunday xislat qafiylik va qaysarlik bilan namoyon bo'ladi. Bu qaysarlik asosan bolaning kattalarga

bildirgan salbiy xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Bola o‘zini mustaqil harakat qila olishini anglagan vaqtdan boshlab, unda «o‘zim qilaman* boshlanadi va bu yana qaysarlik va o‘jarlik tarzida ko‘rinadi. 3 yoshdagi inqiroz bola shaxsining ma’lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatti-harakatlarni qila olmayotganligini anglashi natijasi hisoblanadi. Inqiroz davrida yuzaga keladigan iroda, layoqat va boshqa bir qancha xususiyatlar uni shaxs bo‘lib shakllanishiga tayyorlaydi.

Uch yoshgacha bo‘lgan bolalarning psixik rivojlanishidagi asosiy

Y o s h davrlari	Bilishi	Harakati	Muloqoti
3 yosh	Nutqning shakllanishi. Ko‘rgazmali harakat tafakkurning rivojlanishi Obrazli tafakkurning dastlabki nishonalari. Atrof-muhitdan o‘zini ajratishi; qat‘iylikni anglashi	Qo‘l predmetli harakatlarning rivojlanganligi o‘z xatti-harakatlarini irodaviy boshqarishning ko‘rinishlari	O‘z-o‘zini anglashning yuzaga kelishi. Dastlabki axloqiy qoidalarni egallashi
2 yosh	Faol nutqni tushunishi va o‘zida yuzaga kelishi	Qo‘l va oyoq funksiyalarining aniq belgilanishi	Xarakter asoslarining shakllanishi
1 yosh	Nutqni tushunishning dastlabki belgilari	Mustaqil holda tik turish va yurish	Nutqni qo‘llashning dastlabki belgilari
10 oylik	Sensomotor intellektning rivojlanishi	Mustaqil holda tik turish va yurishga harakat qilish	Bog‘liqlik reaksiyasining yuzaga kelishi, begona muhit va begonalar orasida xavotirlik

8 oylik	Sensomotor intell- lektning yuzaga kelishi	Tayanib yurishi	Jest, mimika va pantomimika yor- damida noverbal muloqot
7 oylik		Yordam bilan turishi	
5 oylik	Sezgilarning rivoj- lanishi	Yordam bilan o'tirishi	
3 oylik	Ko'rish qobiliyati- ning shakllanishi	Yon tomoniga o'girilishi	Onaning jilmayi- shiga javob qayta- rishi
2 hafta	Onaning tovushini boshqa tovushlar- dan farqlashi	Qo'l va oyoq ha- rakatidagi qat'iylik	
1 hafta	Harakatlarni kuza- tishi	Qo'l va oyoq- larning betartib harakati	

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Ilk bolalik davridagi muloqotning psixik jihatleri.
2. Ilk bolalik davridagi asosiy faoliyat turi.
3. 3 yoshdagi krizis: uning sabablari va namoyon bo'lishi.
4. Ilk bolalik davrida shaxs shakllanishining psixologik asoslari.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Ilk bolalik davri necha yoshlarni o'z ichiga oladi?
 - a) 0—1 yosh;
 - *b) 1—3 yosh;
 - c) barcha javoblar to'g'ri;
 - d) 2—3 yosh.
2. Ilk bolalik davrida yetakchi faoliyat nima?
 - a) O'yin faoliyati;
 - *b) predmetli faoliyat;

d) muloqot faoliyati.

3. Bolaning psixik rivojlanishini ta'minlovchi omillar va shart-sharoitlarni aniqlang.

a) tabiiy ijtimoiy muhit, maktabgacha tarbiya muassasalaridagi tarbiya va maktabdagi ta'lim;

*b) irsiyat, muhit, bolaning shaxsiy faolligi, tarbiya va ta'lim;

c) tabiiy ijtimoiy muhit, oila, ota-ona;

d) oliy nerv faoliyatining tipi bilan bog'liq bo'lgan asab sistemasiga xos kuch va harakatchanlik.

4. 3 yosh krizisi (inqirozi) qanday xatti-harakatlarda ifodalanadi?

a) o'zini o'zgalardan farqlay (ajrata) olish, o'z imkoniyatlarini tushunish, mustaqillikka intilish;

b) bola o'zining xatti-harakatlarini nima yaxshi-yu, nima yomon degan tasavvurga moslay boshlashi;

c) oliy nerv faoliyatining tipi bilan bog'liq bo'lgan asab sistemasiga xos kuch va harakatchanlik;

*d) bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlashi, kattalar xatti-harakatlarini bajarishga intilishi, mustaqil harakat qila olishi, qafiyligi va qaysarligida ifodalanadi.

5. Bola to'g'ri yurishni, muloqotga kirishishni, predmetli faoliyatni egallash xususiyatlarini qaysi davrda egallaydi?

*a) ilk bolalik davrida;

b) chaqaloqlik davrida;

c) go'daklik davrida;

d) kichik maktab yoshi davrida.

XIV BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHI

Reja:

1. Maktabgacha tarbiya yoshida rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari.
2. O'yin maktabgacha tarbiya yoshida yetakchi faoliyat sifatida.
3. Bilish jarayonlarining rivojlanishi.
4. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot.
5. Asosiy psixologik yangilik.
6. Maktabgacha tarbiya yoshidagi inqirozning tavsifnomasi.

Mavzu o'quv maqsadi:

Ta'limiy: Talabalarni maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti, bilish jarayonlarining rivojlanishi hamda shaxs xususiyatlari haqida ilmiy ma'lumotlar bilan tanishtirish. Maktabga psixologik tayyorgarlik muammosi yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish.

Tarbiyaviy: Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi, ularning ruhiy salomatliklari va ruhiy barqarorliklarini ta'minlovchi muhit yaratish zaruriyatini talabalar ongiga singdirish.

Rivojlantiruvchi: Talabalarning maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ular bilan ishlash ko'nikma-malakalarini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha tarbiya yoshi, o'yin, yetakchi faoliyat, bilish jarayonlari, muloqot, asosiy psixologik yangilik, inqiroz.

1.1. Maktabgacha tarbiya yoshida rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari

Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga: (3—4 yosh) kichik maktabgacha davr, (kichik bog'cha yoshi), (4—5 yosh) o'rta maktab-

gacha davr, (oʻrta bogʻcha yoshi), (6—7 yosh) katta maktabgacha davr (katta bogʻcha yoshi)ga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qoʻlga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda oʻzlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning oʻsib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmogʻi kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi.

Bogʻcha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning muvazun harakatlarini oʻzlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bogʻcha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bogʻcha yoshidagi bolalarning koʻzga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat koʻrsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan

emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.

Kattalar va tengdoshlari bilan boʻlgan munosabat orqali bola axloq meʼyorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bogʻcha yoshidagi bola endi oʻz gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda boʻladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi, u yangiliklarni egallashga nisbatan oʻz bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, oʻzi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. 3—7 yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

- predmetlarni o'rganishi;
- individual predmetli o'yinlar, jamoa sujetli-rolli o'yinlar;
- individual va guruhij ijod;
- musobaqa o'yinlari;
- muloqot o'yinlari;
- uy mehnati.

Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni birmuncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi bog'chadagi o'rtoqlari va qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar.

Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolani biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi. 3—7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar.

1.2. O‘yin maktabgacha tarbiya yoshida yetakchi faoliyat sifatida



Ma'lumki, bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo'yicha dunyoqarashi kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yindir. Bu yoshdagi bolalarning o'yinlarini uchga bo'lish mumkin:

- 1) predmetli o'yinlar (15—20 minut o'ynaladi);
- 2) sujetli-rolli o'yinlar (30—60 minut o'ynaladi);
- 3) qoidali o'yinlar (1 soatdan 2 kungacha davom etishi mumkin).

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmogda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofda o'zining xaddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, xaddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, haqiqatda minik avtomobilni haydash, tramvayda yurishi va...

takam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki, bola o'zidagi bunday eh-

tiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mashg'ulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

ikkinchidan, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir.

O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda katalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xomxayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va sujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi. Demak, bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir. Shunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o'zi, o'yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir. Shuni ham ta'kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'zlarining bilish (ya'ni, anglash) to'g'risida, haqiqiy va xayoliy narsalarni

o‘ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o‘ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o‘zlarining har turli o‘yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog‘da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o‘yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obraz-

larni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar o‘yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o‘yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko‘pincha umumiylik xarakteriga ega bo‘lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o‘zining turli-tuman o‘yinlarida faqat o‘ziga tanish bo‘lgan yolg‘iz bir havdovchining, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarinigina emas, balki umuman shaydovchilarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi.

Bu yoshdagi bolalar o‘z vaqtining ko‘p qismini o‘yin bilan o‘tkazadi, ayniqsa 3 yoshdan 6—7 yoshgacha o‘yinlar ahamiyatli taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tadi: predmetli-boshqaruv va ramziy o‘yinlardan tortib, to qoidali sujetli-rolli o‘yinlargacha. Bu yosh davrida barcha o‘yin turlarini ko‘rish mumkin.

Bu yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi: predmetlar bilan boshqarish o‘yini, konstruktiv tipdagi individual predmetli o‘yin, jamoaviy sujetli-rolli o‘yinlar, individual va guruhij ijdod, o‘yin-musobaqa, o‘yin-muloqot, uy mehnati. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar asosan predmetlar, turli xil o‘yinchoqlar bilan yolg‘iz o‘zlari o‘ynaydilar. O‘zlarining predmetli va konstruktorli o‘yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur jarayonlarini, shuningdek, o‘z harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba‘zan kichik guruh bolalari ham) o‘zlarining o‘yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar.

xolos. Masalan, (oyisini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabilarni). Oʻrta yoki katta bogʻcha yoshidagi bolalarning oʻyinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega boʻla boshlaydi. Sekin-asta oʻrta maktabgacha davrga borib oʻyin jamoaviy boʻlib boradi va unga koʻproq bolalar qoʻshila boshlaydi. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa oʻyinlari davomida kuzatish qulaydir. Oʻz oʻyinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatiningina emas, balki koʻproq ularning oʻzaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid qiladilar. Shuningdek, jamoa oʻyinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poyezd» oʻyinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga koʻmir yoquvchi, provodniklar, kontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yoʻlovchilar boʻladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa oʻyinlari artistlarning faoliyatiga oʻxshaydi. Chunki, jamoa oʻyinidagi har bir bola oʻz rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, oʻyinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan oʻzining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Maʼlum rollarga boʻlingan jamoa oʻyini, bolalardan qatʼiy qoidalariga boʻysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa oʻyinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday oʻyinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, oʻyin qoidalariga, tartib-intizomga boʻysungan va shu kabi boshqa ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Eng asosiysi bu oʻyinlarda kattalarning predmetli dunyoga nisbatan

xulq-atvori takrorlanmaydi, odamlar orasidagi munosabatlarga, xususan — rollariga imitatsiya (taqlid) qilinadi. Bolalar ushbu munosabatlar

asosida quriladigan rollarni va qoidalarni ajratadilar, oʻyinda unga amal qilinishini qattiq nazorat qiladilar va oʻzlari ham ularga rioya qilishga harakat qiladilar. Bolalarning sujetli-rolli oʻyinlari turli mavzularda boʻlib, bolalar ular bilan hayotiy tajribasiga muvofiq yaxshi tanishdir. Bolalar tarafidan oʻyinda qayta iro

yaviy (enaga, bog'chadagi tarbiyachi) yoki ertak qahramonlari (bo'ri,

ayiq, tulki, quyon, echki) yoki kasbiy (shifokor, komandir, uchuvchi). Rollarni ijro etuvchilar kattalar yoki bolalar yoki ularni o'rnini bosuvchi o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar bo'lishi mumkin.

Ushbu yosh davri taraqqiyot uchun zarur bo'lgan ikkita faoliyat turining boshlanishi bilan bog'langan: mehnat va o'qish. Bu yoshdagi bolalarning o'yin, mehnat va o'qishni o'zlashtirishlarini ketma-ketligi bosqichini aniqlash mumkin, bunda maktabgacha yosh davri tahlil maqsadida shartli ravishda 3 ta davrga bo'lindi: kichik maktabgacha yosh davri (3—4 yosh), o'rta maktabgacha yosh davri (4—5 yosh) va katta maktabgacha yosh davri (5—6 yosh). Ushbu bo'lish yosh davrlari psixologiyasida bolalarning psixologiyasi va xulq-atvoridagi jadal va sifatiiy o'zgarishlarni qayd etish uchun o'tkaziladi.

Kichik maktabgacha yoshdagilar hali, qoidaga muvofiq, yolg'iz o'ynaydilar. O'zlarining predmetli va konstruktorli o'yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Ushbu yoshdagi bolalar sujetli-rolli o'yinlarida odatda kundalik hayotlarida kuzatadigan kattalarning harakatlarini qayta namoyon etadilar.

O'rta va katta maktabgacha yosh davrida sujetli-rolli o'yinlar rivojlanadi, biroq kichik maktabgacha yosh davridan o'yinlarga kiritiladigan va amalga oshiriladigan mavzulari, rollari, o'yin harakatlarining qoidalari bilan katta turli-tumanligi bilan farqlanadi. Tabiiy xarakterdagi ko'pgina predmetlar shartlilariga almashtiriladi va ramzli o'yin boshlanadi. Masalan, oddiy kubik o'yindan va unga ajratilgan roldan qat'i nazar ramziy ma'noda mebellar va mashinalarni, odamlar va hayvonlarni namoyish etadi.

O'yinlarda asosiy rol qoidalarga rioya qilishga va munosabatlarga, masalan, subordinatsiyaga ajratiladi. Bunda birinchi marotaba liderlik paydo bo'ladi, bolalarda tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlanadi.

Shu bilan bir qatorda o'yinli individual faoliyatning ramziy shakllaridan yana biri ramz chizishdir. Unga sabiq asta ko'proq

tasavvur, xayol va tafakkur qo'shilib boradi. Bola ko'rganlarini tasvirlashdan vaqti bilan bilganlarini, xotirasidagi va o'zi o'ylab topganlarini chiza boshlaydi. O'yin-musobaqalar alohida sinfga ajratiladi, unda yutuq va g'oliblik bolalarni juda jalb qiladi. Taxmin qilinishicha, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shakllanadi va mustahkamlanadi.

Katta maktabgacha yosh davrida konstruktorlik o'yini mehnat faoliyatiga aylana boshlaydi, o'yin jarayonida bola turmushda zarur bo'lgan nimanidir yasaydi, yaratadi, quradi. Bolalar bunday o'yinlarda oddiy mehnat ko'nikma va malakalarini egallaydilar, ularda amaliy tafakkur faol rivojlanadi. Bola o'yinda ko'plab uy-ro'zg'or asboblari va predmetlaridan foydalanishni o'rganadi. Unda o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish qobiliyati paydo bo'ladi va rivojlanadi, ko'p harakatlari va aqliy operatsiyalari, tasavvur va xayoli takomillashadi.

Bu yosh davridagi bolalar ijodiy faoliyatdan tasviriy san'at ayniqsa, rasm chizishni yaxshi ko'radilar. Bolaning nimani va qanday ifodalashiga qarab, uning atrof olamdagi voqelikni qanday idrok qilishi, xotirasi, xayoli va tafakkurining o'ziga xosligi haqida mushohaza qilish mumkin. Rasmlar orqali bolalar tashqi olamdan olayotgan taassurotlari va bilimlarini yetkazishga harakat qiladilar. Rasmlar bolaning jismoniy va psixologik holatiga ko'ra o'zgarishi mumkin (kasallik, kayfiyat). Aniqlanishicha, kasal bolalar chizgan rasmlar sog'lomlarnikidan ko'pgina jihatlari bilan farq qiladi.

Maktabgacha yosh davri badiiy-ijodiy faoliyatida musiqa muhim ahamiyatga ega. Bolalarga musiqiy asarlarni tinglash, musiqiy qatorlarni va tovushlarni turli asboblarda takrorlash quvonch bag'ishlaydi. Bu yosh davrida birinchi marotaba musiqa bilan jiddiy shug'ullanishga qiziqish paydo boiadi, u keyinchalik haqiqiy qiziqishga aylanishi va musiqiy qobiliyatning rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar qo'shiq aytishga, musiqa ostida turli ritmik, raqs harakatlarini bajarishga o'rganadilar. Qo'shiq aytish musiqani anglash va vokal qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Hech bir yosh davri ushbu yosh davridagidek shaxslararo hamkorlikning turli shakllarini talab qilmaydi, chunki u bola shaxsining turli jihatlarini rivojlanishi zarurati bilan bogʻliq. Bu tengdoshlari, kattalar bilan hamkorlik, oʻyinlar, muloqot va birgalikdagi mehnatdir. Bu yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi: predmetlar bilan boshqarish oʻyini, konstruktiv tipdagi individual predmetli oʻyin, jamoaviy sujetli-rolli oʻyinlar, individual va guruhij ijob, oʻyin-musobaqa, oʻyin-muloqot, uy mehnati. Maktabga chiqishdan bir yoki ikki yil avval ularga oʻquv faoliyati qoʻshiladi va 5—6 yoshli bola eng kamida faoliyatning 7—8 turiga tortiladi, ularning har biri bolani oʻziga xos ravishda intellektual va axloqan rivojlantiradi.

Bogʻcha yoshidagi bolalarning oʻyinlari atrofidagi narsa va hodisalarni bilish quroli boʻlishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega, oʻzgacha qilib aytganda, oʻyin qudratli tarbiya quroli hamdir. Bolalarning oʻyinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, yaʼni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Agarda biz bolalarning oʻyin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, oʻyin jarayonida ularning barcha shaxsiy xususiyatlari (xarakteri, kimning nimaga koʻproq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon boʻlishini koʻramiz. Shuning uchun bolalarning oʻyin faoliyatlarini, ularni individual ravishda oʻrganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda oʻzlari yolgʻiz oʻynaydilar. Predmetli va konstruktorli oʻyinlar orqali bu yoshdagi bolalar oʻzlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Sujetli-rolli oʻyinlarda bolalar, asosan, oʻzlari har kuni koʻrayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4—5 yoshli bolalarning oʻyini asta-sekinlik bilan jamoa shakliga ega boʻlib boradi. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa oʻyinlari davomida kuzatish qulaydir. Oʻz oʻyinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatiningina emas, balki koʻproq ularning oʻzaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid qiladilar. Shuningdek, jamoa oʻyinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoli-

yatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poyezd» o‘yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko‘mir yoquvchi, provodniklar, kontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo‘lovchilar bo‘ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o‘yinlari artistlarning faoliyatiga o‘xshaydi. Chunki, jamoa o‘yidagi har bir bola o‘z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o‘yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o‘zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma‘lum rollarga bo‘lingan jamoa o‘yini, bolalardan qat‘iy qoidalarga bo‘ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o‘yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o‘yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o‘yin qoidalariga, tartib-intizomga bo‘ysungan va shu kabi boshqa ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Katta bog‘cha yoshida sujetli-rolli o‘yinlar esa o‘z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o‘yinlar jaryonida bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkilotchilik ko‘nikma va malakalari rivojlana boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shug‘ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san‘atning ham ahamiyati juda kattadir. Bolaning tasavvur etish xarakteriga ko‘ra, uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Katta bog‘cha yoshidagi bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi.

Bu yoshdagi bolalar rasm chizishga nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o‘yin faoliyatining o‘ziga xos bir shakli bo‘lib hisoblanadi. Bola awalo ko‘rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o‘zi biladigan, xotirasidagi va o‘zi o‘ylab topgan narsalarni chizadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shunday o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishishga harakat qilish xususiyati shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalarning eng yaxshi daqiqalari

musobaqa o‘yinlaridagi yutish va muvaffaqiyatlaridir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shunday o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanadi va mustahkamlanadi.

Katta bog‘cha yoshida konstruktorlik o‘yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi, o‘yinda bola sodda mehnat ko‘nikma va malakalarini egallay boshlaydi, predmetlarning xossala-

rini anglay boshlaydi, amaliy tafakkur namunalari rivojlana boradi.

3—7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo‘lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o‘rganadilar.

O‘yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo‘lgan ta‘lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun odam, avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan bo‘lishi, ma‘lum malakalar, uquqlar va sodda tushunchalarga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Bularga bola yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, o‘yin faoliyati orqali erishadi.

Bola bu davrda o‘yin faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar bilan, ya‘ni mahsuldor faoliyat, mehnat faoliyati va o‘qish faoliyati bilan ham shug‘ullanadi. Mahsuldor faoliyat turlari (rasm chizish, plastilindan narsa yasash, qurish, yasash va b.) predmetlarning muhim xususiyatlarini mavhumlashtirishga olib keladigan, borliqni o‘ziga xos shaklda modellashtirish sifatida qaraladi. Mahsuldor faoliyat turlarida ijodiy amalga oshadigan ma‘lum mazmun mavjud. LShapovalenkoning ta‘kidlashicha, predmetli faoliyat doirasida vujudga keladigan tasviriy faoliyat maktabgacha yosh davrida o‘yin shaklida rivojlanadi. Natija, mahsulot, rasm uzoq vaqt ikkinchi darajasi hisoblanadi, borliqni qog‘oz ustida modellashtiradigan o‘yin sifatida rasm chizish jarayonining o‘zi muhim hisoblanadi.

Qurish-yasash ishlari faoliyatni maxsus tashkil etishni talab qiladi, chunki unda qism munosabatlarini tushunish va idrok etish zarur. Unda to‘g‘ri detallarni ajratish, namunasini an-

Hsh usullarini o‘zlashtirish kabi vazifalar paydo bo‘ladi. Qurish-yasash jarayonida muhim qobiliyatlardan biri faoliyatni rejalashtirish qobiliyati shakllanadi.

O‘qish va mehnat faoliyati elementlarining rivojlanishi. O‘qish faoliyatining yangi bilimlarni o‘zlashtirish kabi maxsus maqsadi mavjud. O‘qish ko‘nikmasi o‘quv vazifalarini amaliy hayotiy vaziyatlardan ajratish va uni qabul qilishni nazarda tutadi. Maktabgacha yosh davrida o‘qishning motivatsion asoslarini — bilishga qiziqish (qiziquvchanlikni) rivojlantirish muhim hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar bilish, o‘quv faoliyatini shakllantiradigan o‘yinning maxsus shaklidir.

Mehnat va o‘quv topshiriqlari tufayli bajarilgan mahsuldor faoliyat turlarida maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi: natijaga erishish, xulq-atvorni boshqarish va rejalashtirish, o‘z-o‘zini baholash, yangi motivlar, mehnatsevarlik kabilarni shakllantiradi.

14.3. Bilish jarayonlarining rivojlanishi

Bog‘cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o‘yinchoqlar, rangli kiyimlar, rangli halqalar, qutichalar va shu singari o‘yinchoqlar berish maqsadga muvofiqdir.

Bog‘cha yoshidagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko‘zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar.

Bog‘cha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o‘rgatishlari lozim. Bunda, asosan, bolalar diqqatini:

- 1) suratning mazmunini (sujetini) to‘g‘ri idrok qilishga;
- 2) suratning umumiy ko‘rinishida har bir tasvirlangan narsalarning o‘rnini to‘g‘ri idrok qilishga;

3) tasvirlangan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri idrok qilishga qaratish kerak.

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin juda katta ahamiyatga ega. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar.

Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko'rgazmali, obrazli bo'lishi bilan xarakterlidir. Bolada ko'proq ixtiyorsiz esda qoldirish va ixtiyorsiz esga tushirish ustunlik qiladi. Bola so'zlarni hech qanday ma'nosiz takrorlayveradi. Ammo keyinchalik, kattalarning ta'sirida, ixtiyoriy esda qoldirish ham asta-sekin rivojlana boradi. Bola ravshan va emotsional rang-barang materialni oson esda qoldiradi.

Uch yashar bola taassurotlarini bir necha oy davomida esda saqlab tura olishga qodirdir. Xotiraning o'sishiga o'yinlar, turli mashg'ulotlar, she'r yodlash, ertak va hikoyalar aytish hamda sayr paytida kuzatish ishlarini olib borish yordam beradi. Ushbu yoshdagi bolalar yangi so'zlarni ham, hatto chet tillardagi so'zlarni ham osongina eslab qoladilar. Lekin, bolalar materialni oson esda qoldirsalar ham, ular ko'pining ma'nosiga yaxshi tushunmaydilar va ulardan nutqda foydalanishga qiynaladilar. Kattalarning vazifasi bolalarning mumkin qadar ko'proq so'zlarni va tasavvurlarni eslab qolishigagina emas, balki ular uchun tushunarli, foydali bo'lgan turli bilimlarni egallashiga erishishdan iborat. Bolalar bu xildagi bilimlardan o'z o'yinlarida, rasmlarida, ustozlari yoki kattalar bilan suhbatda foydalanadilar, bu bilimlar ularning aqliy va axloqiy o'sishlari uchun xizmat qiladi.

Bog'cha yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunligicha qolaveradi. Masalan, bola juda berilib ertak eshitayotgan bo'lsa ham, xonaga birov kirib qolsa, uning diqqati ixtiyorsiz shu ertak-

dan chalg'iydi. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar.

Bog'cha yoshidagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir.

Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi, ular tafakkurining faollashayotganligidan darakberadi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so'na boshlaydi. Kunlarning birida 7 yoshli Samira shunday savol berdi: «Odam uxlaganda ham nafas oladimi?», «Buvijon sizning muchalingiz nima?»

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Ko'pgina ota-onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, «ko'p mahmadona bo'lma», «sen bunday gaplarni qayerdan o'rganding?», deb koyib beradilar. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zlari ham savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim.

Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar, analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar. Agar 2 yashar bolaning so'z boyligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yashar bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so'z

zaxirasi 4000 taga yetadi. Demak, bog'cha yoshi davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining o'sishi oilaning madaniy saviyasiga ham ko'p jihatdan bog'liq.

Kattalar bolalar nutqini o'stirish bilan shug'ullanar ekanlar, bog'cha yoshidagi bolalarning ba'zi hollarda o'z nutq sifatlarini to'la idrok eta olmasliklarini unutmastiklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham hali to'la takomillashmagan bo'ladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri, bola bilan to'la va to'g'ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir.

Respublikamizda B.R.Qodirov rahbarligida D.B.Hakimova tomonidan «5—7 yoshli bolalar bilish jarayonlarini rivojlanishining yosh va jins xususiyatlari» mavzusida tadqiqot olib borilgan¹. D.B.Hakimovanning natijalariga ko'ra, 5 yoshda psixologik belgilar kuchli namoyon bo'ladi, bir xil psixik belgilar o'g'il bolalar va qizlar-

da turli yosh davrlarida, turli darajada namoyon bo'lishi aniqlandi.

14.4. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot

Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin:

birinchi davr — bu 3—4 yosh oralig'ida bo'lib, bola emotsional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir;

ikkinchi davr — bu 4—5 yoshni tashkil qilib axloqiy o'z-o'zini boshqarish;

uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha yosh davridagi bolalarning kattalar bilan muloqoti ularning nutqining rivojlanishi hisobiga chuqurlashadi

¹ XaKMMOBa h-B. IloJioBospacTHbie oCO6CHHOCTH pa3BHTHH no3HaBaTejibHoi

lini ko'rsatgan'. Bola 3-4 yoshga to'lganida hamkorlik o'rniga muloqotning bilish shakli shakllanadi. Vaziyatdan tashqari bilish muloqoti shakllanadi. Muloqotning bu shaklida yetakchi motiv — bilishdir. Bunda kattalar bilan hamkorlik qilib tevarak-atrof bilan tanishadi, kattalar bilan «nazariy hamkorlik» jarayoni amalga oshadi. Bola hayvonlar, narsalar, planetalar, nimadan yasalganligi haqida juda ko'p «Nima uchun?» degan savollar beradi. Kattalar bola tomonidan bilim manbasi sifatida idrok qilinadi, savollariga va o'ziga jiddiy munosabatda bo'lishni, hurmatni talab qiladi. Bu ehtiyojning muhimligi shundaki, bu yoshdagi bolalarga xos bo'lgan tez xafa bo'luvchanlikda namoyon bo'ladi.

Bola 6—7 yoshga to'lganda muloqotning oliy shakli — vaziyatdan tashqari shaxsiy muloqotga o'tiladi. Bunda bola kattalariga oila haqida, qayerda ishlashi, nima ish qilishi haqida savollar bera boshlaydi. Endi kattalar bola uchun ijtimoiy bilish manbasi sifatida namoyon bo'ladi. Bolaning kattalar bilan muloqoti hamdardlik, o'zaro bir-birini tushunish, qarashlarning umumiyligiga intilish kabilar bilan chuqurlashadi.

Uch yoshda bolada tengdoshlari bilan muloqotda emotsiyalar, ifodali qarashlardan foydalanadi. 3—4 yoshli bola uchun tengdoshi birgalikdagi amaliy faoliyatning ishtirokchisiga aylanadi, uning individual xarakterologik xislatlarini sherigi payqamaydi. 4 yoshda tengdoshi muloqot sherigiga aylanadi. 4—5 yoshda sherigini o'zi bilan teng mavjudot sifatida ko'rib o'zini u bilan taqqoslaydi. 5—7 yoshga kelib tengdoshi bolaning ko'z o'ngida individuallikka aylanadi, u bola uchun muhim suhbatdoshga aylanadi, muloqotning ko'pchilik ko'rsatkichlari bo'yicha kattalardan o'zib ketadi. Bola o'zini va tengdoshini bir butun shaxs sifatida idrok qiladi, unga shaxsiy munosabat bildiradi.

S.A.Axundjanova tomonidan «Maktabgacha yoshdagi bolaning turli muloqot vaziyatlarida nutqi funksiyalari va shakllari xususiyatlari» mavzuidagi tadqiqotida aniqlanishicha, bu yosh

¹ Ilucinia M.H.npo6jieMa OHToreneaa o6meiiHH. C.89-100.

davrida nutq shakllarining rivojlanishida sujetli-rolli o‘yinlar jarayonida muloqot bilan birgalikda tengdoshlari bilan mahsuldor faoliyat turlari ham qulay sharoit hisoblanadi¹. Bunday faoliyat turlari maqsadga yo‘nalganligi, ma’lum darajada ixtiyoriylikni talab qiladi. Bajariyotgan harakatlarning mazmunini va harakat predmeti tavsifini nutqda mos aks ettirish uni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblanadi.

E.Z.Usmanova rahbarligida B.B.Nurullayeva tomonidan «Maktabgacha yoshdagi bolalarni tafakkurini modellashtirish faoliyatining tengqurlar bilan muloqotda rivojlanishi» mavzusida ilmiy tadqiqot olib borilgan^{1 2}. B.B.Nurullayevaning tadqiqotida aniqlanishicha, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurning modellashtiruvchi faoliyati bu yosh davri uchun xos bolgan faoliyat bo‘lib, unda bolalarning intellektual imkoniyatlari to‘liq namoyon bo‘ladi. Bu yosh davrida tengdoshlari bilan muloqot tafakkurning modellashtiruvchi faoliyatini o‘zlashtirishning asosiy shartidir. Modellashtirish vazifalarini birgalikda hal qilish tashqi predmetli faoliyatning ichki rejaga o‘tishiga imkon tug‘diradi. Bola tengdoshini modellashtirishga o‘rgatib, ushbu faoliyatni egallashning sifat jihatidan yangi darajasiga o‘tadi, diadada o‘zaro ta’sir qilish sheriklarning o‘zaro rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

14.5. Asosiy psixologik yangilik

Maktabgacha yosh davrida psixik funksiyalardan xotira juda yaxshi rivojlanadi. Tafakkur tasavvurlar orqali namoyon bo‘la boshlaydi. Jamiyat, tabiat va dunyoning tashqi ko‘rinishi haqida dunyoqarashning kurtaklari shakllana boshlaydi. Bola tevarak-atrofni tartiblashtirishga va tushunishga intiladi.

Bola va kattalar orasidagi yangi munosabatlar, kattalar obrazi bolaning xatti-harakatlarini ma’lum tomonga yo‘llaydi, bu esa

¹ AxynuxaHOBa C.A. OCO6CHHOCTH <J>opM H <J>yHKiiHH pequ noiiiKOJibHHKa B

² HypyiuiaeBa 6.B. PaaBHrne MOnejiHpyiomeH MbicjiHTejibHOH uerrejibHOCTH

bola shaxsi rivojlanishida barcha yangi psixologik tuzilmalarning paydo bo'lishida asos hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya yoshi — xulq-atvor shaxsiy mexanizmlarining rivojlanishi, shaxsning dastlabki shakllanishi davridir.

Bu yosh davrida motivatsion-ehliyoljar sohasining rivojlanishi ro'y beradi. Maktabgacha yosh davrida motivlar mavjud vaziyat bilan bog'liq xohishlar tarzida, anglanmagan xarakterga ega bo'ladi. Ilk bolalik va maktabgacha yosh davrida bolaning xulq-atvorini kattalarning «mumkin», «mumkin emas», «yaxshi», «yomon» kabi fikrlari boshqaradi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbayi sifatida, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida o'tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir.

Bog'cha yoshidagi bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari bu bolani tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'shiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib, yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. O'zini namoyon qilish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu motiv, asosan, bolalarning sujetli-rolli o'yinlarida asosiy rolni egallashga, boshqalar ustidan rahbarlik qilishga intilishda, musobaqaga kirishishga, nima bo'lganida ham yutishga harakat qilishlarida ko'rinadi.

Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattaiar beradigan baho juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq me'yor va qoidalarini, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga riyo etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallaydilar. Bunday me'yorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirishi uchun sujetli-rolli o'yinlar yordam berishi mumkin. Bog'cha yoshining oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy sifatlar jumladan: kishilarga nisbatan diqqat-e'tiborli, mehribon bo'lish xususiyati ham shakllanadi. Katta yoshdagi bolalar ko'p hollarda o'z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar.

3—3,5 yoshlar oralig'ida bolalar o'zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o'z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat, asosan, ularning o'zlariga beradigan yuqori baholari asosida shakllanadi. 4 yoshli bolalar esa o'z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4—5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek, o'zlari haqida ma'lum bir xulosani bera olmaydilar. O'z-o'zini anglash layoqati katta bog'cha yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo'lganini va kelajakda qanday bo'lishini fikrlab kohishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan «Men kichkina paytimda qanday bo'lgan edim?», «Men katta bo'lganimda qanday bo'laman?» singari savollarida kohinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlariga ega bo'lishga harakat qiladilar.

Kichik va o'rta bog'cha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Shu yillardan boshlab, bolada ahamiyatli hisoblangan — iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog'cha yoshida bola atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o'rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishida,

266

ish bo'yicha va shaxsiy munosabatlarini samarali o'rnatishda foyda keltiradi. Bolaning atrofidagi kishilar bilan bo'lgan munosabatlari, asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o'zgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi kabi hisslarning yuzaga kelishi hisoblanadi.

Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan, ularning turli-tuman o'yin faoliyatlarida o'sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo'lmaganda edi, ularning xayoli ham xilma-xil bo'lmas edi. Bog'cha yoshidagi bolalarning xayollari turli xil mashg'ulotlarda ham o'sadi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar loydan turli narsalar yasashni, qumdan turli narsalar qurib o'ynashni va rasm solishni yaxshi ko'radilar. Ana shunday mashg'ulotlar bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiluvchi omillardan yana biri — ertaklardir. Bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabatlari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg'ular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari ko'p jihatdan ularning organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmaslari bilan bog'liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmaslari sababli bolada noxushlik (yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg'ularini qo'zg'aydi.

Katta bog'cha yoshidagi bolalarning burch hissi «nima yaxshi-yu?», «nima yomon?»ligini anglashlari bilan ularning axlo-

qiy tasavvurlari orasida bogʻliqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuygʻulari paydo boʻlsa, biron tartib qoidani buzib qoʻyganlarida xafalik, taʼbi xiralik hissi tugʻiladi.

Shuningdek, bogʻcha yoshidagi bolalarda maʼnaviy hissiyotlardan oʻrtoqlik, doʻstlik va jamoachilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning bogʻcha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez oʻsadi. Bogʻcha yoshidagi bolalarda estetik hisslarning namoyon boʻlishini, ayniqsa, ularning chiroyli, yangi kiyim-bosh kiyganlarida juda yaqqol koʻrish mumkin.

Bu yosh davrida oʻyin bilan bogʻliq boʻlmagan faoliyatni amalga oshirish tendensiyasi shakllanadi. Bu tendensiya zamonaviy tarixiy sharoitda ijtimoiy muhim va baholanadigan faoliyatni bajarish, oʻquvchi boʻlish, oʻqish istagida namoyon boʻladi.

14.6. Maktabgacha tarbiya yoshidagi inqirozning tavsifnomasi

Atoqli rus psixologi L.S.Vigotskiy bu yoshdagi inqrozni 7 yosh inqirozi deb atagan va bola xulq-atvori hamda xarakteridagi oʻzgarishlarni koʻrsatib oʻtgan¹. Bolaning xulq-atvorida bolalar-cha bevositalik yoʻqoladi. Inqirozning belgilari sifatida jarohatlaydigan kechinmalardan himoya qilish funksiyasini bajaradigan qi-yshanglash, qiliq qilish, masxarabozlik qilishda namoyon boʻladi. Maktabgacha yosh davrida bola oʻzini jismoniy alohida mustaqil individ sifatida anglashdan, oʻz hissiyotlari va kechinmalarini anglashgacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtadi. Bu hissiyotlar aniq faoliyat turi bilan bogʻliq. Bola oʻz hissiyotlari va kechinmalarini umumlashtirish asosida oʻz-oʻziga munosabatda boʻla boshlaydi.

Shu bilan birga uyda quyidagi xulq-atvorni namoyon etadi:

— bolaga gapirilgandan soʻng javob reaksiyasi orasida tanafusning paydo boʻlishi («oʻzini eshitmaganday tutishi», «yuz marta qaytarish kerak»);

¹ BnroTCKMii JI.C. Bonpocbi BospacTHoii (AercKoi) ncnxojiornM// CoGpaiiMe coHMHeHMii B 6 T. 1984.T.4.C.376-385.

— ota-ona tomonidan buyurilgan ishni bajarishda vaqtni choʻzish;

— quloq sohaslik — odatiy ishlarni va burchlarini bajarishdan bosh tortish sifatida;

— «kichkina boladay* koʻrinmaslik uchun oʻzining tashqi koʻrinishi va kiyimiga qattiq eʼtibor berish.

Qaysarlik, talabchanlik, injiqlik, berilgan vaʼdani qayta-qayta eslatish, tanqid koʻtara olmaslik, maqtoʻvni kutish kabi xulq-atvor shakllari ham kuzatiladi.

Inqirozning ijobiy tomonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

— kattalar bilan muloqotga qiziqish, unga yangi mavzularni kiritish (siyosat, boshqa mamlakatlar va planetalardagi hayot, maktab haqida, axloqiy tamoyillar haqida);

— shaxsiy qaroriga koʻra oʻziga ajratilgan majburiyatlarni bajarish-

da va sevimli mashgʻulot (xobbi) bilan shugʻullanishda mustaqillik.

Xulq-atvor bunday xususiyatlarining psixologik mazmuni shundaki, bolaning oʻzi tomonidan mustaqil tashkil etilgan harakatlarning ichki qadrliligini oshinsh, qoidalarni anglashdan iborat. Eng muhim tuzilmalardan biri — muhim ijtimoiy mavqeni egallash qobiliyati, ijtimoiy harakat qilish ehtiyojidir.

7 yosh inqirozini yengishda bolaga koʻrsatiladigan yordamning asosiy shakllari — bu talablari sababini asoslashga urinish; mustaqil faoliyatning yangi shakllarini amalga oshirishga harakat qilish, berilgan topshiriqni bajarish zarurligini eslatish, bu topshiriqni bolaning bajara olishiga ishonch bildirish.

M.Sh.Rasuleva oʻz ilmiy izlanishlarida katta maktabgacha va kichik maktab yosh davrida burch hissini shakllantirish masalasiga asosiy eʼtiborni qaratgan boʻlib, maktabgacha yosh davridayoq bola-

ning bilish jarayonlari va hissiy-irodaviy sohasiga maqsadli yoʻnal-

¹ PacyjieBa M.III. OopMnpoBaHne 'iyBCTBa oSmccTBeHHoro jjojira y CTapniHX UOHKOJIBHHKOB H MJiaUHIHX IIIKOJIBHHKOB: ABTOpe<). JIHC. ... K3HJI. HCHXOJI.

burch haqidagi bilimlari hajm va mazmun jihatidan kichik maktab yoshidagilardan farq qiladi. Katta maktabgacha yosh davrida bu tasavvurlar o‘yin faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, kattalar, tengdoshlari va kichik yoshdagilar bilan boigan munosabatlar doirasida chegalansa, kichik maktab yosh davridagi o‘quvchilarda esa burch haqida ko‘p qirrali (o‘qish, mehnat, jamoaviy) faoliyat bilan bogiiq boigan birmuncha toiiqroq bilim mavjudligini ko‘rish mumkin.

Diffisil bolalar emotsional sohasi xususiyatlari esa L.V.Nazirova ishlarida ko‘rinadi. Uning fikricha, kattalar tomonidan qoila-niladigan nohaq jazolash, hujum, ayblov diffisil bolada salbiy affektiv kechinmalarni vujudga keltiradi'. Bu holatning doimiy takrorlanishi aqliy faoliyat jarayonidagi buzilishni determinatsiyalovchi emotsional zo‘riqish va xavotirlilikni keltirib chiqaradi. Yuqori xavotirlanish nerv tizimi ishini susaytirib, fikrlash faoliyati samaradorligining pasayishiga sabab bo‘ladi. Undan tashqari L.V.Nazirova diffisil bolalarda xavotirlanishning yuqori ko‘rsatkichlari, salbiy hissiy kechinmalar, himoyasizlik, o‘z-o‘ziga ishonchsizlik, adovat hislari mavjud bo‘lishini ta’kidlaydi.

Shunday qilib, maktabgacha yosh davrida o‘yin yetakchi faoliyat bo‘ladi. Bu davr nutqning rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bola va kattalar orasidagi yangi munosabatlar, kattalar obrazi bolaning xatti-harakatlarini ma’lum tomonga yo‘llaydi, bu esa bola shaxsi rivojlanishida barcha yangi psixologik tuzilmalarning paydo bo‘lishida asos hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Maktabgacha yosh davrida ijtimoiy vaziyat o‘zgarishining o‘ziga xosligi nimalardan iborat?
2. Bu yosh davridagi o‘yinning parametrlarini tavsiflang.
3. Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi qanday kechadi?

¹ Ha3bipoBa JL.B. Oco6eHHOCTM 3M0HH0Hajn>H0ii ccjjeppi
jjH(j)HCiun>Hi>ix

4. Maktabgacha yosh davridagi bolaning tengdoshlari va kattalar bilan muloqotining o'ziga xosligi nimalardan iborat?

5. Maktabgacha yosh davridagi asosiy psixologik tuzilmalarni tavsiflang.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Maktabgacha yosh davri necha yoshni o'z ichiga oladi?

- a) 3—6 yosh;
- b) 2—7 yosh;
- *c) 3—7 yosh;
- d) 1—6 yosh.

2. Maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat:

- a) mehnat;
- b) chizish;
- *c) o'yin;
- d) o'qish.

3. Maktabgacha yosh davrida senzitiv hisoblanadi:

- a) qaysarlik;
- b) o'zini namoyon qilish;
- c) aytganini qildirish;
- *d) nutqning rivojlanishi.

4. Maktabgacha yosh davrida yangi psixologik tuzilma:

- a) kichik emasligini boshqalarga ko'rsatish;
- *b) kattalar obrazi bolaning xatti-harakatlarini ma'lum tomonga yo'llyadi;
- c) yuqori xavotirlanish nerv tizimi ishini susaytiradi;
- d) katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarishlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'ladi.

5. Maktabgacha yosh davrida inqirozning belgilari...

- a) tortinqchoqik, agressivlik, uyatchanlik;
- *b) qiyshanglash, qiliq qilish, masxarabozlik qilish;
- c) diqqatni to'play olmaslik, giperaktivlik, deprivatsiya;
- d) affilyatsiya, appersepsiya, akkomadatsiya.

XV BOB. KICHIK MAKTAB YOSHI

Reja:

1. Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari.
2. Maktabga moslashish.
3. Kichik maktab yoshida yetakchi faoliyat.
4. Kichik maktab yoshida asosiy psixologik yangilik.
5. O'smirlik davriga o'tishdagi inqiroz.

Mavzu o'quv maqsadi:

Ta'limiy: Talabalarga kichik maktab davridagi o'quvchilarning psixik rivojlanish xususiyatlari, yetakchi faoliyat, xulq-atvor xususiyatlari, aqliy rivojlanishi va shaxsining shakllanishi bo'yicha bilim berish.

Tarbiyaviy: Bo'lg'usi pedagoglarda kichik maktab yoshidagi bolalarni sevis, ular shaxsiga hurmat bilan qarash hislarini singdirish. Talabalarni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga samarali ta'lim-tarbiya berish uchun o'z shaxsiy fazilatlarini tahlil qilishga ohgatish.

Rivojlantiruvchi: Olingan nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliyotga yo'naltirish yo'llari bo'yicha ko'nikma-malakalarni rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: kichik maktab yoshi, o'quvchi, maktab ta'limi, psixologik tayyorgarlik, o'quv faoliyati, shaxsiy tayyorgarlik, intellektual tayyorgarlik, harakat tayyorgarligi.

15.1. Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bolaning maktabda o'qishga tayyorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Shaxsiy tayyorgarlik.

Motivatsion sohaning rivojlanganlik darajasi. Bilishga qiziqishning mavjudligi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zining mavzus

o‘rni bo‘lishiga intilish, muhim baholanadigan faoliyatni bajarish — o‘quvchi bo‘lish.

Motivatsion tayyorgarlik. Katta bog‘cha yoshdagi bolalar asosan, maktabda o‘qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo‘lishi mumkin. «Menga chiroyli forma, daftar, qalam va ruchkalar sotib olib berishadi», «Maktabda o‘rtoqlarim ko‘p bo‘ladi va men ular bilan mazza qilib o‘ynayman»,

«Maktabda uxlatishmaydi». Bunday motivlarni bolalarga odatda ota-onalar singdiradilar. Maktabning tashqi ramzlari, shubhasiz bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun asosiy sabab bo‘la olmaydi. Ota-onalar, pedagog, tarbiyachilar tomonidan bolalarga bilish, o‘rganish motivlarining singdirilishi maktabda muvaffaqiyatli o‘qish omili bo‘lib xizmat qila oladi. «Men otamga o‘xshagan bo‘lishim uchun o‘qishim kerak», «Yozishni juda yaxshi ko‘raman», «O‘qishni o‘rganaman», «Maktabda qiyin misollarni yechishni o‘rganaman» — bunday motivlar to‘g‘ri motivatsion tayyorgarlikka misol bo‘la oladi.

«O‘quvchining ichki pozitsiyasi» bolaning maktab ta‘limiga tayyorligi ko‘rsatkichi sifatida — psixologik yangi tuzilma bo‘lib, kattaroq ijtimoiy mavqeni egallash ehtiyoji, bilish ehtiyojining o‘zgarishida namoyon bo‘ladi.

ixtiyoriy sohaning rivojlanishi: ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriy xotira, namuna bo‘yicha, qoida bo‘yicha harakat qilish.

2. Intellektual tayyorgarlik.

Tevarak-atrofdagi mo‘ljallanish, bilimlar zaxirasining mavjudligi.

Idrok va ko‘rgazmali-obrazli tafakkurning ma‘lum darajada rivojlanganligi. Umumlashtirish darajasi — narsa va hodisalarni farqlash va umumlashtira olish ko‘nikmasi.

Nutqining ma‘lum darajada rivojlanganligi; ko‘pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta‘limga asos bo‘lishi mumkin. Lekin o‘z bo‘yicha ma‘lum yetti harakatlarni bajarib olish la

yoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek, yetarli darajada rivojlangan boshqa bilish jarayonlarini ham talab etadi. Masalan, 6—7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalarnigina emas, balki organizmning tabiat bilan bog'liqligini va o'zaro ta'sirini ham tushunishi va o'zlashtirishi mumkin. 6—7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning natijasi bo'lib, yuqori darajada rivojlangan ko'rgazmali obrazli tafakkur bilan bola atrof olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bog'liqlikni ajrata olishidir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6—7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ham aqliy rivojlanishida asosiy vazifani bajaradi.

3. Harakat tayyorgariigi.

— mayda motorika;

— katta harakatlarni amalga oshirish (qo'l, oyoq, tana).

4. O'quv faoliyatiga tayyorgarlik:

— kattalarni diqqat bilan eshita olish va uning ko'rsatmalarini aniq bajarish;

— topshiriqni mustaqil bajarish;

— chalg'ituvchi omillarga e'tibor bermasdan topshiriqni bajarishga kirishish.

Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og'irligi oyiga 150 dan 200 gacha, bo'yi esa 0,5 sm gacha ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va yengil yugura oladilar. Ular sakrash, konkida yugurish, changhda uchish, suzish singari harakatlarni ham bemalol bajarishlari mumkin. Musiqa bo'yicha mashg'ulotlarda esa xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, yengil va chaqqon bajara oladilar.

6—7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, ko‘rish va eshitish qobiliyatiga alohida e‘tibor berish, shuningdek, umurtqa pog‘onasining to‘g‘ri rivojlanishiga ahamiyat berish, nihoyatda muhim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali o‘sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o‘rgatish hali barmoq muskullari to‘liq rivojlanmaganligi sababli ularga ma‘lum darajada zarar keltirishi, bolaning chiroyli yoza olmasligi esa, o‘z-o‘zidan bolani o‘ziga nisbatan ishonchini yoki o‘qishga nisbatan qiziqishining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi nafaqat uning aqliy vajismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy, ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog‘liq.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘rtog‘ining salbiy xususiyatlarini ko‘pchilik va begonalar o‘rtasida bemalol ayta olish xususiyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa axloqi va odobi jihatidan tanqidga uchrayotgan bolani o‘rtoqlari jamoasiga qo‘shilishdan bosh tortishiga yoki umuman maktabga kelishni istamasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sabab bolani o‘rtoqlari va ustozlari tomonidan tanqidga uchramaydigan darajada axloq-odob qoidalariga o‘rgatish ahamiyati jihatidan kam bo‘lmagan axloqiy tayyorgarlik hisoblanadi. Bolani maktabga irodaviy tayyorgarligi uni yangi kun tartibiga amal qilishida, dars jarayonida qunt bilan bilimlarni o‘zlashtirishida, uy vazifalarini bajarishida o‘z yordamini ko‘rsatadi. Maktabga o‘qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeyini — turli majburiyatlari va huquqlari bo‘lgan va unga turli talablar qo‘yiladigan — o‘quvchi mavqeyini olish uchun tayyor bo‘lmog‘i lozim. Ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi uchun tabiiy ravishda asos bo‘la oladi. Bolaning endi o‘zini katta bo‘lganini, bog‘cha bolasi emas, balki ma‘lum bir majburiyatlari bor o‘quvchi bo‘lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug‘ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat

hisoblanadi. Maktabga shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o'qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Har bir bola bolalar jamoasiga qo'shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba'zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta'minlab beradi. 6—7 yoshli bolalar o'qishidagi asosiy qiyinchilik shundaki, ko'pincha bu yoshdagi bolalar o'qituvchini uzoq vaqt davomida tinglay olmaydilar, o'quv harakatlariga uzoq vaqt o'z diqqatlarini qarata olmaydilar. Bunga sabab, faqat, shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olish xususiyatiga ham bog'liq. Chunki, shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar haqida so'ray oladilar. Natijada ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi va o'qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta.

Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari, so'ngra esa emotional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzlikkacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o'zgartirishi va erkin harakatga keltirishi, ramzlilik deyilganda esa belgilar tizimi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqati, asosan, bolalarning konstruktorlik o'yinlarida, texnik va badiiy ijodlarida namoyon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarining birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlanana boshlaydi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Bi-

lish jarayonlarining sintezi bolaning o'z ona tilini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlanib boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada sodda axloq me'yorlari va qoidalar egallaniladi. Bu me'yor va qoidalar bolada axloqini boshqaradi.

Kichik maktab davri 6—7 yoshdan 9—10 yoshgacha davom etadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra faqat muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki o'quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida bolaning o'z portfeliga, shaxsiy o'quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi. Ana shu ehtiyoj bola shaxsining shakllanishida, shuningdek, uning ijtimoiylashuvida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bu davrda bola, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Fiziologlarning fikriga ko'ra, 7 yoshga kelib bolaning katta miya yarim sharlari ma'lum darajada rivojlangan bo'ladi. Lekin bu yoshda inson miyasining psixik faoliyatni rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish kabi murakkab shakllariga javob beradigan maxsus bo'limlari hali to'liq shakllanib bo'lmagan bo'ladi (miyaning bu qismlari 12 yoshda rivojlanib bo'ladi). Miyaning boshqaruv funksiyalarini to'liq shakllanib bo'lmaganligi kichik maktab yoshidagi bolalarning xulq-atvorida, faoliyatlarini tashkil etishlarida va emotsional sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ayrim 6 yoshli bolalar ota-onasining xohishi bilan hali o'qishga tayyor bo'lmay turib, maktab ostonasiga qadam qo'yishadi. Afsuski, o'qish davomida aqliy-ruhiy zo'riqish oqibatida turli xil kasalliklarga chalilib, jismoniy va psixik rivojlanishda nuqsonlar paydo bo'ladi. Bunday bolalarda eng avvalo miya strukturasining va nerv psixik jarayonlarining maktabda o'qish uchun to'liq yetishmaganligi, ko'ruv harakat koordinatsiyasi va kichik

motorikaning rivojlanmaganligi, mantiqiy fikr mahsuldorligining pastligi kuzatiladi. Undan tashqari motivatsiya, irodaviy jihatlarning ayniqsa, ixtiyoriy diqqat va xotiraning shakllanmaganligi, xatti-harakatlarni ixtiyoriy boshqaruvdagi muammolar, bir soʻz bilan aytganda hali «Oʻquvchi ichki pozitsiya»sining shakllanmaganligi maktabda oʻqishga tayyor boʻlmagan bolalarning muvaffaqiyatli oʻzlashtirib ketishlariga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Pedagoglar, ota-onalar, bolalarni erta maktabga berishning foyda yoki zarari toʻgʻrisida oʻylaganlarida inson miyasi rivojlanishining neyrofiziologik qonuniyatlarini ham alohida eʼtiborga olishlari lozim. Bolani erta oʻqish, yozish, sanashga oʻrgatib uning bilish jarayonlari zoʻriqtirilsa, bolaning emotsional hissiy rivojlanishi uchun zarur boʻlgan miya quvvatining tanqislashuviga sabab boʻladi. Bundan bolalarning emotsional hissiy jarayonlarining kechishida yoki jismoniy rivojlanishida kamchiliklar sodir boʻladi. Bunday holatda energiya taqsimlanishining majburan buzilishi sodir boʻlib, u 7—8 yoshli bolalarni qoʻrquv, agressivlik yoki giperaktivlik holatlariga olib keladi. Bu bolani maktabda oʻqishga tayyorlash kerak emas, degan fikr emas, lekin bolaning aqliy rivojlanishiga erta oʻqishni, sanashni, yozishni oʻrgatish bilangina erishib boʻlmaydi. Maʼlumki, rivojlanish qonuniyatiga koʻra, har qanday taraqqiyot koʻrgazmali obrazlilikdan abstrakt mantiqlikka qarab boradi. Agar bola hali oʻqishga aqliy, maʼnaviy-ruhiy jihatdan tayyor boʻlmay turib, unga harf va raqamlarni yozish, oʻqish oʻrgatilsa psixik rivojlanishning teskari tomonga ketishiga sabab boʻladi. Psixolog olimlarning fikricha, psixik va evolutsiya taraqqiyot qonunlari ham fizik qonunlardek buzilmas, hamda universaldir. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkin, neyrofiziologik jihatdan ixtiyoriy diqqat va oʻqish uchun zarur boʻlgan koʻplab miyada kechadigan jarayonlar asosan 7—8 yoshda (aqliy yoshi oʻzib ketgan bolalarda olti yoshda ham) shakllanadi. Yaʼni shu yoshda bola 45 minutlik aqliy mehnatga tayyor boʻladi.

Maktabda oʻqishning boshlanishi 7 yoshda boʻladigan toʻrtinchi fiziologik krizis bilan mos keladi (bola organizmida

jadal bo‘yning o‘sishi, ichki organlarning kattalashuvi, vegetativ o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan keskin endokrin o‘zgarishlar ro‘y beradi).

6—7 yoshli maktabga tayyor bolada «Men shuni xohlayman» motividan «Men shuni bajarishim kerak» motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o‘quvchida psixik zo‘riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, masalan, ma’lum darajada qo‘rquvning kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo‘ladi.

Bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimi va faoliyatidagi kardinal o‘zgarishlar uning organizmidagi barcha tizimlar va funksiyalaridagi o‘zgarishlarga to‘g‘ri kelib boladan kuchli zo‘riqish va o‘z ichki imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish zaruriyatini taqozo etadi. Maktabga tayyor bo‘lgan boladagi ushbu o‘zgarishlar salbiy oqibatlarini olib kelmay, aksincha uning yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. O‘qituvchining munosabat uslubi o‘quvchining faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar tez chalg‘iydilar, uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar, ta’sirchan hamda emosional bo‘ladilar. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchi faolligining asosan uch xil ko‘rinishi mavjud bo‘lib, bular: jismoniy, psixik va ijtimoiy faollikdir. Jismoniy faollik — sog‘lom organizmning harakat qilishga bo‘lgan turli mavjud to‘siqlarni yengishdagi tabiiy ehtiyojdir. Bu yoshdagi bolalar nihoyatda serharakat bo‘ladilar. Bu jismoniy harakat bolaning atrofidagi narsalarga qiziqish bilan qarayotganligi, ularni o‘rganishga intilayotgani bilan ham bog‘liqdir. Bolaning jismoniy va psixik faolligi o‘zaro bog‘liqdir. Chunki, psixik sog‘lom bola harakatchan bo‘ladi, charchagan, siqilgan bola esa deyarli hech narsa bilan qiziqmaydi. Psixik faollik — bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir. Psixik faollik deganda, bolani o‘zini bilishga nisbatan ehtiyoji ham tushuniladi. Maktabga birinchi bor kelgan bolada qator qiyinchi-

liklar yuzaga keladi. Ularning, avvalo, bir qancha maktab qoidalariga bo'ysunishi qiyin kechadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng qiyin qoida bu dars vaqtida jim o'tirishdir. O'qituvchilar o'quvchilarning doimo jim o'tirishlariga harakat qilishadi, lekin kam harakatli, passiv, quvvati kam bo'lgan o'quvchigina dars jarayonida uzoq vaqt jim o'tira oladi.

Birinchi sinfnng birinchi kunlaridan boshlab bola yengishi kerak bo'lgan bir qancha qiyinchiliklarga uchraydi. Bu qiyinchiliklar: maktab hayotini o'zlashtirish, yangi kun tartibini yaratish va unga moslashish, u uchun yangi bo'lgan sinf jamoasiga qo'shilish, xatti-harakatlarini chegaralovchi qoidalarni qabul qilish, o'qituvchi bilan munosabatlarni o'rnatish, oilaviy munosabatlarni qabul qilish va h.k. Bunday vaziyatlarda kattalar, ya'ni ustoz va ota-onalar bolalarga albatta yordam berishlari zarur.

15.2. Maktabga moslashish

Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'z xatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar qo'yishi, ularning xatti-harakatlarini baholashi, o'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi talablar va shartlarni qabul qiladilar, shuningdek, ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar.

Maktabga qabul qilingan bolalarning hayoti birmuncha qiyinlashib boradi. Birinchi kunlardan boshlab o'quvchi bir qancha qiyinchiliklarni boshdan kechiradi: yangi maktab muhitiga moslashish; yangi kun tartibini ishlab chiqish; yangi tengdoshlari jamoasiga kirishish; xulq-atvorda ko'pgina cheklov va ustanovkalarni qabul qilish, o'qituvchi bilan munosabat o'rnatish, oilaviy vaziyatlarda yangi munosabatlarning uyg'unligini ta'minlash. Shu bilan birga o'quvchi yangi huquqlarga ham ega bo'ladi: kattalar uning o'quv topshiriqlariga, dars qiladigan joyiga va o'quv qurollariga hurmat bilan munosabatda bo'ladi.

Qulay sharoitlarda o'quv vaziyatlarini qabul qilish, egallash ikki oy (ba'zan bir yilgacha) davom etadi. Sevikli va g'amxo'r ota-onalar farzandining «o'quvchi bo'lish» imkoniyatini qadrlab, o'quv faoliyati talablari majmuasini egallashga yordamlashmoqlari darkor.

Bunday qiyin vaziyatda bolani o'zi mustaqil eplaydi deb, o'z holiga tashlab qo'yish mumkin emas, lekin bunda boladagi tashabbuskorlik cheklanishi mumkin.

Ota-onaning qo'llab-quvvatlashi maktabda beriladigan topshiriqlarga yuqori qiziquvchanlik tarzida portfelini yig'ish, keyingi kunga tayyorlanish tarzida bo'lishi mumkin. «O'qituvchi aytgan topshiriqlarning» barchasini aniq bajarishga farzandining intilishini tushunish bilan qabul qilish lozim. O'qituvchilar va o'quv dasturlarining takomillashtirilmagani haqida fikrni keyingiga qoldirgan ma'qul.

O'g'il bolalar va qizlar rivojlanish tempidagi o'zgarishlar saqlanib qoladi. Qiz bolalar hamma tomondan rivojlanishda o'g'il bolalardan oldinga o'tib oladilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy onglari I va IV sinfdagi o'qish mobaynida muhim o'zgarishlarga uchraydi va axloqiy sifatlar, bilim va tasavvurlar sezilarli darajada boyiydi.

Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida insoniy an'analar asosida harakat qilishga o'rganadi, o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola xulq-atvorining rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Kichik maktab davri bu anglanilgan va ixtiyoriy xatti-harakatlarga o'tish davridir. Bola faol ravishda o'zini o'zi boshqarishga, qo'yilgan maqsadlarga ko'ra o'zining faoliyatini tashkil etishga o'rganish davridir. Kichik maktab davrida xatti-harakatlarning yangi shakllarini paydo bo'lishi bevosita o'quv faoliyati bilan bog'liqdir. Hech bir o'qituvchi maktabga birinchi bor kelgan boladan o'zi o'rgatmagan arifmetik misol va masalalarni yechishni talab etmaydi, lekin afsuski, juda

ko'p o'qituvchilar ulardan qunt bilan o'qishni, uyushqoqlikni, mas'uliyatlilikni, tartibga aniq rioya etishni talab etadilar. Vaholanki, ushbu ko'nikmalar o'qituvchi tomonidan ma'lum odat va malakalarga o'rgatilganidan so'nggina paydo bo'ladi.

Ixtiyoriy ravishda harakat qilish layoqati butun kichik maktab davri davomida shakllanadi. Psixik faoliyatning oliy shakli singari ixtiyoriy xatti-harakatlar ularning shakllanishini asosiy qonuniga bo'ysunadi. Unga ko'ra yangi xatti-harakatlar avvalo kattalar bilan bo'lgan umumiy faoliyatda yuzaga kelib, bola shunday xatti-harakatlarni tashkil etish imkoniyatlarini o'rganadi va shundan keyingina u bolaning individual xatti-harakat usuliga aylanadi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanish qoidalariga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o'rinni egallaydi. Kichik maktab davri bu ijobiy o'zgarishlar va yangilanishlar davridir. Shuning uchun ham rivojlanishning shu bosqichida har bir bola erishgan muvaffaqiyatlar darajasi nihoyatda muhim hisoblanadi. Agar shu yoshda bola bilish, o'rganish quvonchini his etmasa, o'qish malakalarini egallay olmasa, do'stlashishni bilmasa, o'ziga nisbatan, o'z imkoniyat va layoqatlariga nisbatan ishonchli bo'la olmasa, bu ishlarni kelgusida amalga oshirish qiyinroq bo'lib, boladan yuqori ruhiy va jismoniy zo'riqishni talab etadi.

Bu davrga kelib bola atrofida bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda, o'z sinfi va oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek, u o'zini-o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab «Men yaxshi bolaman» emas, balki bu xatti-harakatlar o'zgal ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar. Bola maktabda noaniqlikka duch kelsa, kattalarning xatti-harakatlari ma'nosini tushunmasa unda taqlidchanlik rivojlanadi. Bolaning taqlidchanligi ixtiyoriy

va ixtiyorsiz bo'lishi mumkin. Ixtiyorsiz taqlidchanlik ustozlari va sinfdoshlarining xatti-harakatlarini o'zlashtirishga olib keladi. Bunda xatti-harakatlarni anglamagan ravishda egallaydi. Shuni hamisha yodda saqlash lozimki, bola ixtiyorsiz ravishda nafaqat chiroyli va kerakli narsalarga, balki turli salbiy ko'rinish va holatlarga ham taqlid qilishi mumkin. Ixtiyoriy taqlidchanlik irodaviy zo'riqishni talab etadi. Bunday vaziyatlarda bola maqsadga yo'naltirilgan ravishda u yoki bu xatti-harakatni amalga oshiradi, bu xatti-harakatlarini qoida, namuna etalonga moslashtirishga intiladi. O'qituvchi boladagi ixtiyoriy taqlidchanlik xususiyati orqali ularda samarali ijtimoiy odat va xislatlarni rivojlantirishi mumkin. Har qanday xatti-harakat va faoliyatda o'qituvchi bolani baholaydi, o'quvchi shu baholash asosida esa o'z-o'zini baholashga o'rganib boradi.

Bolaning ustoziga bo'lgan munosabati yomon baho olib xafa bo'lgan taqdirda ham ijobiy bo'lib, unga ishonch bilan qarashi saqlanib qolaveradi. 3—4-sinflarda o'quvchilarda o'rtoqlari va sinfdoshlari o'rtasida mavqeli bir o'rinni egallashga harakat yuzaga kelib, o'rtoqlari fikrlariga asoslanish paydo bo'ladi.

O'qishning ijtimoiy ahamiyatini tushunish (2—3-sinflarda) o'qish mazmunini va bilimlarni egallash yo'llariga qiziqishning yuzaga keltirilishi bilan mustahkamlanishi mumkin. Bunday holda kichik maktab davrining oxirlarga borib o'qishga nisbatan motivatsiyaning pasayishi ko'zga tashlanmaydi. Kichik maktab davrida maqsadni qo'yish shu bilan xarakterlanadiki, o'quvchi o'qituvchi tomonidan berilgan maqsadlarni qabul qilishga tayyor bo'ladi. Kichik maktab davrida o'quvchining o'z xatti-harakatlarini o'qituvchi qo'ygan maqsad va vazifalarga moslashtirishi sinfdan-sinfga ko'tarilgan sari kuchayib boradi. Bu o'quvchining maktab qoidalariga amal qilishida, sinfdagi vazifalarini bajarishida ko'rinadi. O'quvchi darsdagi va darsdan tashqari o'z vaqtini mustaqil tashkil etish borasidagi maqsadlarining ahamiyatini belgilashni o'rganib boradi. Bu uy vazifalarini bajarish tartibiga amal qilishda ko'rinadi. Mustaqil ravishda o'qituvchi tomonidan

qo'yilgan maqsadlardagi oraliq maqsadlari tizimini, masalan, masalani yechishning o'z yo'llari va bosqichlarini mustaqil aytib bera oladi, shuningdek, oraliq maqsadlarga erishish vositalarini belgilay oladi. Kichik maktab davrida maqsad qo'yishning murakkab xarakteri birinchi sinf o'quvchisining irodaviy xatti-harakatlari bilan bog'liqligi tadqiq etilgan¹. Yuqorida ko'rsatib o'tilganlar kichik maktab davridagi o'quvchilarning motivatsion sohasi o'zgarib borishini, maktabgacha davrda bo'lgan umumiy bilish va motivlarning ijtimoiy yo'nalganligi aniqlanib, «o'quvchi mavqei»ni egallashiga, ya'ni maktabga borishga intilish, bu pozitsiya qondirilganidan so'ng esa yangi munosabatlarning — o'quv motivlari va bir qadar murakkab shaklda bo'lgan ijtimoiy motivlarning yuzaga kelishidan dalolat beradi. Kichik maktab davri-ning oxirlariga kelib o'quvchilarda o'quv-bilish motivlari, ya'ni faqat yangi bilimlarnigina emas, hatto umumiy qonuniyatlarni emas, balki yangi bilimlarni topishning aynan biron-bir yo'llarini egallashga qiziqish shakllantirilgan bo'lishi lozim. Ushbu motivlarning shakllantirilishi kichik maktab yoshidagi bolalarning o'rta maktabga tayyorgarligining zaruriy jihati hisoblanadi.

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, xayolini-ning yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi.

Kichik maktab davrida o'qish faoliyati bilan shug'ullanish, jumladan, moddiy narsalarning har xil xossalari bilan tanishish sezgilarning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda asosan farq qila olish, ko'rish va eshitish sezgilari

¹ КОТЯРЦЮ В.К. Развитие познавательных способностей и интеллектуальных функций. КнЕВ,1971, С.179-182.

ayniqsa tez o'sadi. 7—10 yoshli bolalarda ranglarning tuslarini sezish

45% ortishi, 10—12 yoshgacha bolalarda esa 65% gacha ortishi rus olimlari tomonidan aniqlangan. Kichik maktab o'quvchilarini rasm chizishga o'rgatish ranglarni farqlash sezgirligining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ohanglarni farq qilish sezgirligi, ayniqsa bolalarga musiqa va ashula o'rgatish jarayonida kuchli sur'atda o'sadi. Sezgilarning o'sishida, shuningdek, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining ham ahamiyati katta. Aniq harakat qilishga jalb etuvchi mashqlar bolalarning muskul-harakat sezgilarini o'stiradi.

Kichik maktab davriga kelib idrokning hamma turlari asosan ta'lim-tarbiya tufayli mazmun, aniqlik, ravshanlik jihatdan ko'p darajada takomillashadi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni makonda joylashishini bilish bilan, birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasining yuqori bo'lishi juda muhim hisoblanadi. Maktab yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bolalar rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladi. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki, bola shu rasmlar orqali olam go'zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o'z munosabatini bildira oladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda ixtiyoriy idrok va kuzata olish qobiliyati o'sadi. Kuzata bilish muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur shartlardan biridir. O'quvchilarda kuzata bilish qobiliyati ularning tafakkuri, irodasi, qiziqish, havaslari bilan birgalikda o'sib boradi. Bu yoshdagi o'quvchilar o'z idroklarini mustaqil idora eta oladilar. Boshlang'ich

sinf o'quvchilari katta yoshdagi odamlardan deyarli qolishmasdan to'g'ri chiziqni ko'z bilan chamalab teng ikki bo'lakka bo'la oladilar, narsa va chiziqlarni katta-kichikligiga qarab taqqoslay oladilar, narsalarning fazoda turgan o'rnini, ularning qaysi biri yaqinroq yoki uzoqroq, qaysi biri balandroq yoki pastroq joylashganini ko'z bilan chamalab, shu masofani bosib o'tish uchun talab qilinadigan vaqtni ham taxminan hisoblay oladilar.

Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko'proq rivojlangan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quv materiallarining yaqqolliigi, yorqinligi, jozibadorligi, o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ularni uyg'otadi va kuchli irodaviy zo'riqishsiz fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1—2-sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri — uning yetarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular o'z diqqatlarini uzoq muddat muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat obyektlari ustida uzoq tura olmaydilar. Ta'lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar yechish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo'r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi, o'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira, shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi Birinchi signal sistemasida ikkinchi signal sistemasidan birmuncha ustunligi tufayli kichik

maktab yoshidagi o'quvchilarda mantiqiy xotiradan ko'ra ko'rgazmali harakatli xotira ustunlik qiladi. Shuning uchun ham ular nazariy qonun va qoidalardan, mavhum tushunchalardan ko'ra yaqqol ma'lumotlar, axborotlar, voqea va hodisalarni, obrazlar va narsalarni tezroq hamda mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Kichik maktab yoshidagi bolalar ta'lim olish munosabati bilan mantiqiy, ya'ni ma'nosiga tushunib esda qoldirish qobiliyati o'sib boradi. Esda qoladigan materialning hajmi kengayib boradi, materialning mazmunini tushunish ham chuqurlashadi va murakkablashadi. Ba'zan boshlang'ich sinf o'quvchilari, hatto mazmuni tushunarli bo'lgan materialni ham ma'nosiga e'tibor bermasdan, mexanik ravishda o'rganib oladilar.

Respublikamizning psixolog olimi E.G'.G'oziyevning fikriga ko'ra, buning sabablari quyidagilar¹: 1) ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda yaxshiroq rivojlangani uchun ham ma'lumotlarni aynan, o'zgarishsiz eslab qolish imkonini beradi; 2) o'quvchilar o'qituvchi qo'ygan vazifani anglab yetmaydilar, natijada uning «to'g'ri tushuntirib ber» degan talabini so'zma-so'z takrorlash deb biladilar; 3) ularning nutq boyligini yetishmasligi (ilmiy atamalar, til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to'ldirish, unga qo'shimcha qilish imkoniyati yo'qligi uni so'zma-so'z qaytarishni osonlashtiradi; 4) o'quvchilar matnni to'g'ri usullar bilan eslab qolishni bilmaydilar. Bunday holat shu yoshdagi bolalarda albatta bo'lishi kerak emas. Mexanik esda qoldirish ko'pincha o'qituvchilar o'quvchilarida mantiqiy xotirani o'stirishga yetarli e'tibor bermagan hollarda bo'lishi mumkin. Ta'lim jarayonida o'quv materialining ma'nosini, mohiyatini, turli mulohazalarni, dalillarni, ilmiy asoslarini eslab qolish va esga tushirish orqali o'quvchilarda mantiqiy xotira takomillashadi. Birinchi sinfdan boshlab ixtiyoriy esga tushirish qobiliyati tez rivojlana boshlaydi. O'qish jarayoni uchun ixtiyoriy esda qoldirish ham, ixtiyoriy esga tushirish ham barobar talab etiladi. Busiz o'qish jarayoni-

¹ G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. — T.: Noshir.2011.

ning normal bo'lishi mumkin emas. O'quvchilardan faqat o'rganib, bilib olishgina emas, balki o'rganib bilib olganini xotirlay olish ham talab etiladi. O'quv materialini muayyan sistema bilan xotirlash faqat ixtiyoriy esga tushirish yo'li bilan bo'lishi mumkin.

O'quvchilar tushuncha va qoidalarni ta'riflab berolmay qolganlarida yoki ta'riflash mumkin bo'lmagan paytlarda tasvirlab, taqqoslab, xarakterlab, misollar bilan ko'rsatib beradilar. Dars jarayonida o'qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishni so'raydi. Bu holat, albatta, biron-bir yordamchi qurollar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo'lgan taqdirdagina o'quvchi tasavvurini rivojlantirishi mumkin. Aks holda bu yoshdagi bolalar mustaqil tasavvur, harakatlar qilishga qiynaladilar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizayotganlarida, shuningdek, ertak va hikoyalar to'qiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'z xayollari va tasavvurlariga asoslangan holda qiziqarli ertak va hikoyalarni o'zlari mustaqil ravishda to'qiy oladilar. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilar real borliqni tasavvur etsalar, boshqalari esa fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. Shu bois kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum siymolar, sujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar. Juda ko'p multfilmlar ana shunday bolalarning tasavvurlari asosida yaratilgan. Turli tasavvurlar zaminida ularning qo'rquvni yengishi, do'st topishi, xursandchilik hislari yotadi. Bundan tashqari, tasavvur terapevtik natijaga olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Bola real hayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib ketgan holatda ham ko'pincha xayolga beriladi. Masalan, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola o'zining hamma havas qiladigan oilasi, uyi bo'lishini, bu uyga o'g'rilar kelib qolsa, u qahramonlik qilishini tasavvur qiladi. O'z tasavvurida yaxshi yoki yomon holatlarni boshidan kechirgan bola o'zining kelgusi xatti-harakatlari motivatsiyasi uchun zamin tayyorlaydi. Katta-

larga nisbatan boʻlgan tasavvurning bolalar hayotidagi ahamiyati juda katta. Bola tasavvur qilib atrof-hayotni chuqurroq bila boshlaydi, oʻz-oʻzining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chiqa oladi, ijodiy layoqati rivojlanadi, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Maktabning birinchi sinfiga kelgan bolada xayol yetarli darajada rivoj topgan boʻladi va u xilma-xil tasavvurlarning kattagina zaxirasiga ega boʻladi. Oʻqish jarayonida u faqat idrok va xotira tasavvurlariga tayanib qolmasdan, balki shu bilan birga, xayolida yaratilgan tasavvurlarga ham tayanib, oʻrgatilayotgan materialni yaqqol tarzda oʻzlashtira boradi.

Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy sanʼat asarlarini yetarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Siymolar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib, oʻquvchilarda xayol paydo boʻladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari oʻynaydigan oʻyinlarda ham ularning xayolini oʻsishi davom etaveradi. Oʻquvchilar oʻz oʻyinlarida turli narsalarni yasaydilar, turli yerlarga sayohat qiladilar. Bunday oʻyinlardan oʻquvchi mazmundor taassurotlar oladi va unda turli tasavvurlar hosil boʻladi, uning ijodiy, qurish-yasash va badiiy qobiliyatlari oʻsadi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchining xayoli oʻzining kengligi va mazmundorligi jihatidagina oʻzgarib qolmasdan, balki yoʻnalishi jihatidan ham oʻzgaradi. Kichik maktab davridagi oʻquvchining ixtiyorsiz xayoli ham, ixtiyoriy xayoli ham maktabgacha yoshdagi bolalarning xayolidan oʻzining barqarorligi bilan farq qiladi.

Maktabga kelish arafasida bolaning soʻz boyligi oʻz fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. 6 yoshdagi normal rivojlanayotgan bola oʻz nutqida 3000—7000 soʻzni ishlatadi. Bolalar nutqining oʻsishida ularning maktabdagi oʻqish faoliyati ayniqsa, katta rol oʻynaydi. Bola maktabga kelmasidan oldin oʻzi qanday gapirayotgani ustida oʻylab oʻtirmasdan, oʻz nutqidan faqat aloqa va bilish vositasi tariqasida foydalanadi. Maktabda esa bola gaplashayotgan til oʻqitiladigan va oʻrganiladigan fan boʻlib qoladi. Maktabda oʻqiyotgan: bola oʻz ona tilining grammatikasi bilan shugʻullanishi natijasida, oʻz nutqini grammatika qoidalariga mu-

289

vofiq ongli ravishda tuzishni o'rganadi. Grammatikani O'rganish jarayonida bola nutqining fonetika jihati aniqlanadi, nutqning morfologik jihati to'g'ri bo'lib boradi, sintaksis tuzilishi esa ancha takomillashadi. Nutqning ayrim jihatlariga xos bo'lgan bu sifatlar faqat grammatikani o'qib O'rganish natijasidagina o'sib qolmasdan, balki, shu bilan birga, maktabda o'qitilayotgan boshqa fanlarning ta'siri ostida ham o'sadi. Maktabda o'qitilayotgan hamma fanlarni o'rganish va shu fanlar bilan shug'ullanish jarayonida o'quvchi nutqining lug'at zaxirasi boyiydi, so'zlarning mazmuni chuqurlashadi va kengayadi, har qaysi so'zning, har qaysi atamaning ma'nosi aniqlanadi. Boshlanghch sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, sifat, son, fe'l va bog'lovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgani afzal-u, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6—7 yoshli bola jumllarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, uni o'zlashtirishi ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7—9 yoshli bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular o'z fikrlarini bayon etish uchungina emas, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar.

Bu davrda bolaning yozma nutqi ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jumllarni to'g'ri tuzish va so'zlarni to'g'ri yozishga ma'lum talablar qo'yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so'zlarni qanday eshitgan bo'lsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to'g'ri talaffuz etishga va yozishga o'rganishi zarur. Yozma nutqni egallash asosida bolalarda turli matnlar haqida ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolada o'zi yozgan fikrlarni, so'z va harflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan bo'ladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot to'plash, muhim jihatlarini ajratib olish, reja tuzish, uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish, malakasini yuzaga keltiradi. Jumllarni to'g'ri tuzish,

aynan shu mazmunga mos soʻzlarni topish va ularni toʻgʻri yozish, tinish belgilarini toʻgʻri qoʻyish, oʻz xatolarini topa olish va toʻgʻri-lash aqliy rivojlanishning koʻrsatkichlaridan hisoblanadi.

6—11 yoshli oʻquvchilarning bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik irodaviy zoʻriqish asosidagina, shuningdek, bola oʻzini atrof-dagilarning talabini bajarishga yoki shaxsiy harakat qilishga intil-gandagina yuzaga kelishi mumkin.

Kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sogʻlomligida, uning bilish faolligida tafakkurning ham rivojlanishini koʻrish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi, asosan, atrof-olamni bilish, oʻrganishga qaratilgan boʻladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchisi oʻynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalari va bogʻliqlaridan xa-bardor boʻlishga intiladi. Masalan, u oʻzi mustaqil ravishda qan-day predmetlar suvda choʻkishi, qaysilari esa suzishini tadqiq qi-la oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol boʻlsa, u shunchalik koʻp savol beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil boʻladi. Bolani qor, yomgʻir qanday yogʻishi, quyosh kechasi qayerda boʻlishi, mashina qanday qilib yurishi, yerdan osmongacha boʻlgan masofani bilish juda qiziqtiradi. Bu ularning «Nima uchun?», «Qanday qilib?», «Nima orqali?» kabi savollariga javob olishga qaratilgan boʻladi. Bu yoshdagi bolalar asosan oʻzlari koʻrib turgan narsalar haqi-da chuqurroq fikr yurita oladilar. Bu yoshdagi bolalar tafakkuri-ning asosiy turi obrazli tafakkurdir. Bolalarga beriladigan va aso-san maktabda amalga oshiriladigan taʼlim bolalar tafakkurining oʻsishi uchun gʻoyat katta ahamiyatga egadir. Masalan, psixolog olim Piaje tadqiqotlarida 6—7 yoshli bolalardan bir-biri bilan teng boʻlgan idishlardagi suv miqdori soʻralgan. Bolalar «Idishlardagi suv miqdori teng», — deb javob berishgan. Aynan shu miqdordagi suv bolalar koʻz oʻngida turli xil balandlikdagi idishlarga quyilib, soʻngra qaysi idishdagi suv miqdori koʻpligini soʻralganida bola-lar ingichka, lekin baland idishdagi suvning miqdori koʻpligini aytishgan. Bolalar aynan oʻsha suv miqdorini yana bir-biri bilan teng boʻlgan idishlarda koʻrganlaridan soʻnggina oʻz javoblari no-toʻgʻriligini bilganlar. Aynan shunday tajriba bir xil kattalikdagi

plastilin shakllari o'zgartirilganida hamda teng miqdordagi tugmachalar orasi ochiqroq qilib qo'yilgan qatordagi tugmachalar bilan solishtirilganida ham xuddi shunday javoblar bo'lgan.

Bu tajriba 6-7 yoshli bolalar asosan ko'rganlari bo'yicha fikrlashlarini isbotlab beradi. Bolalarga beriladigan va asosan maktabda amalga oshiriladigan ta'lim bolalar tafakkurining o'sishi uchun g'oyat katta ahamiyatga egadir. Ta'lim va maktabda beriladigan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida, kuzatuvchanlik, xotira va xayol o'sib borishi bilan kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkuriga material bo'ladigan narsalar doirasi kengaya boradi, bolalarda mantiqiy tafakkur va tanqidiy fikrlash o'sib boradi. Ta'lim jarayonida bolaning tafakkuri katta o'sish yo'lini — konkret tafakkurdan abstrakt — nazariy tafakkurga o'sish yo'lini bosib o'tadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning tafakkuri hali ham amaliy, konkret tafakkur bo'ladi, lekin ta'lim jarayonida bolalarning bunday konkret tafakkuri, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning konkret tafakkuriga qaraganda, murakkabroq va mazmunliroq bo'lib qoladi, ulardagi fikrlash jarayonlarining hammasi takomillasha boradi. Maktabda o'quvchi bola tobora murakkabroq narsalarni va o'zi idrok qilayotgan narsalarni hamda hodisalarnigina emas, balki shu bilan birga, tasavvur qilayotgan narsalar va hodisalarni ham bir-biriga taqqoslashni, analiz va sintez qilishni o'rganib oladi.


Bolaning maktabdagi o'qishi jarayonida unda abstraksiyalash qobiliyati o'sa boshlaydi. Matematika darslarida amaliy konkret sanashdan abstrakt hisoblashga o'tilgan vaqtda, shuningdek, ona tili darslari davomida bu qobiliyat ayniqsa, sezilarli sufatda o'sadi. Boshqa fanlarni o'qish jarayonida bu qobiliyat yanada o'sadi. Bola analiz qilish, abstraksiyalash va taqqoslashni, mashq qilish yo'li bilan narsalarning muhim belgilari bilan ahamiyatsiz belgilarini bir-biridan farq qilishni, predmet, voqea-hodisalarning muhim belgilariga qarab turib xulosalar chiqarishni o'rganadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash

tahlil qilishning turli usullarini qo'llashda o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalar va o'smirlardan farq qiladi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o'rgatish kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni barkamollikka erishtirishning garovidir. 6—11 yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin bu yosh asosan ko'rganlariga tayanib, ta'lim olishga senzitiv bo'lgan davr hisoblanadi.

Boshlang'ich maktabning o'zidayoq bolalar birinchi sinfdan boshlab ko'p miqdorda xilma-xil tushunchalarni — grammatikaga, arifmetikaga, tabiatga doir, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni o'zlashtirib oladilar. O'quvchilar o'zlashtirib oladigan tushunchalar doirasi, asosan, har qaysi sinf uchun turli fanlar yuzasidan tuzilgan o'quv dasturi bilan belgilanadi. Muayyan ilmiy mazmunga ega bo'lgan tushunchalar o'quvchilarga mantiqiy ifodalangan shaklda bayon qilib beriladi. O'quvchilar o'zlarining ham tushunchalarini mazmunini ta'riflab, ularning jins va turlariga doir belgilarini ko'rsatib, aytib berishni o'rganadilar. O'quvchilar tushuncha va qoidalarni ta'riflab berolmay qolganlarida yoki ta'riflash mumkin bo'lmagan paytlarda tasvirlab, taqqoslab, xarakterlab, misollar bilan ko'rsatib beradilar. N.S.Leytes mulohazalariga ko'ra, inson yoshi ulg'aygan sari aqliy rivojlanish darajasi birmuncha ko'tariladi, uquvchanlik xususiyati esa birmuncha pasayadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning uquvchanligi, albatta, o'smir va o'spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o'smir va o'spirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan yuqoridir. Bu holat kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yetakchi faoliyati — o'qish bo'lishi bilan, lekin bilish jarayonlari hali hamma tomonlama rivojlanib bo'lmaganligi bilan bog'liq hisoblanadi.

Kichik maktab davridagi bolalarning aqliy rivojlanishi ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Individ ijtimoiy munosabatlar ta'sirida o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o'qishga o'tishi uning barcha bilish jarayonlarini rivojlanishiga va o'z-o'zidan atrof-hayotdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikrini, munosabatlari o'zgarishiga olib keladi.

15.3. Kichik maktab yoshida yetakchi faoliyat



Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va xulq-atvoridagi o'rnini nihoyatda katta. Bu davrda axloqiy xatti-harakat qoidalari o'zlashtiriladi, shaxsning ijtimoiy yo'nalishi tarkib topa boshlaydi.

O'qish faoliyati kichik maktab davridagi bolalar psixikasi rivojidagi o'zgarishlarni belgilab beradi. Maktabga birinchi bor kelgan bola o'z faoliyatining tub mohiyati va vazifasini to'la tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak, deb biladi. Kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib, tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va bola o'qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi. Shunda bola aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi, o'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak. O'qish faoliyati davomida tarkib topgan xususiyatlar bolaning kelgusi rivoji uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Maktabdagi o'qish bolalarning bilish ehtiyojlarini tez rivojlanishi va sifatli tarkib topishi, ularning atrof-hayotga faol qiziqishlarini yuzaga keltirib, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratadi. Bola asta-sekinlik bilan o'z psixik jarayonlariga egalik qilib, idrok, diqqat va xotirasini boshqara olishga o'rgana boshlaydi.

Kichik maktab yoshidagi bola o'qituvchisi bilan yaxshi emosional munosabatda bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish-irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi.

Oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Bu yoshdagi bola boshqa davrlarga nisbatan ko'proq narsani o'zlashtiradi. Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeyini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rnini o'zgartiradi. Uning vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyatlari murakkab bo'lgan ko'p darajali motivlar tizimi bilan boshqariladi. O'quv faoliyati motivlari o'quvchilar nima uchun o'qiyotganlarini ko'rsatib beradi. Maktabning birinchi sinfiga kelgan bolalarda ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu motivlar atrof-dagilar orasida yangi mavqeni egallash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va baholanadigan faoliyat bilan bog'liq bo'lgan motivlardir.

Lekin birinchi sinfnings oxirlariga borib, ko'pchilik o'quvchilar o'z maktab majburiyatlariga mas'uliyatsizlik bilan qaray boshlaydilar. Bu bir qancha sabablar bilan bog'liq: 1) bola endi o'quvchi bo'ldi, o'quvchi bo'lish istagi qondirildi. Bu maqomni ushlab turish uchun hech narsa qilmasa ham bo'ladi; 2) o'quvchining ijtimoiy mavqeyi maktabda ularga beriladigan o'quv faoliyati mazmuni bilan belgilanmaydi. Yangi dasturlar ta'lim mazmuni va uni tashkil etishga mutlaqo yangicha yondashuv asosida tuzilgan bo'lib, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yosh imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, bolalarda qafiy o'quv motivlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi, o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirishi bilan yuzaga keladi va o'quvchida samaraliroq ishlash mayli, istak va ixtiyorigini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faylanish o'z

kuchiga ishonch hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy komponentlari: o'quv masalalari, o'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat etish va baholash bilan (W.Davidov bo'yicha) tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo'lgan sharoitda amalga oshirilishi juda muhim. O'quvchining o'quv faoliyatini o'zlashtirishi o'quv masalalari tizimini yechish jarayonida amalga oshiriladi. O'qishning boshida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar mustaqil ravishda o'quv masalalarini qo'yish va yechishni bilmaydilar. Bu vazifani boshida o'qituvchi bajaradi. Asta-sekinlik bilan o'quvchilarning o'zlari ham o'quv masalalarini qo'yish va yechish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallay boshlaydilar. Bu mustaqil o'quv faoliyati shakllanishining muhim bosqichidir. O'quv masalalarini ajratib olish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ma'lum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham har bir darsning so'nggida o'qituvchi o'quvchilari aniq bir topshiriqlarni bajarishning ma'nosini qanday tushunganliklarini aniqlash uchun vaqt ajratishi kerak. «Biz bugun darsda nimalarni o'rgandik?» tarzidagi savol bolalarga shuncha-ki daftarda chiziqchalarni chizib, doirachalarni bo'yashni emas, balki sanashni, qo'shishni yoki ayirishni o'rganganlarini tushunishlarida yordam beradi. Agar bola o'quv harakatlarini noto'g'ri bajarsa, bu uning o'quv harakatlarini yo nazorat va baholash bilan bog'liq harakatlarni bilmasligi, yoki ularni yaxshi egallamaganligidan dalolat beradi. Bolaning mustaqil ravishda bajargan harakatlari natijalarini o'z xatti-harakatlarining xususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda o'z-o'zini nazorat etish layoqati ma'lum darajada shakllanganidan dalolat beradi. Kichik maktab davrida yetakchi faoliyat doirasida refleksiya avvalo o'quv harakatlari, nazorat va baholash bilan bog'liq bo'ladi. Bu harakatlarning interiozatsiyasi o'quvchiga mustaqil ravishda o'zlashtirilayotgan ko'nikma

va layoqatlarga mustaqil ravishda yondashish imkoniyatini beradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyatini ja-

moa faoliyati sifatida tashkil etilishiga ko'p vaqt unchalik e'tibor berilmadi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni individual jarayon deb hisoblangan. Buning natijasida pedagogik psixologiyada o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va mustaqil faoliyati ishning individual shakllaridagina ro'yobga chiqishi mumkin deb hisoblangan. Lekin so'nggi yillarda sobiq ittifoq davlatlarida, shuningdek, Polsha, Germaniya kabi mamlakatlardagi ilg'or o'qituvchilarning ishlarida guruhiy bilish faoliyati har bir o'quvchiga darsda maksimal faollik va mustaqillikni ta'minlanishi zarurligi tasdiqlangan. So'nggi yillardagi olib borilgan tadqiqotlar tafakkur mustaqilligini faoliyat sifatida an'anaviy tushunishga jiddiy tuzatishlar kiritdi. O'quvchilarning o'zaro nazorati va javobgarligiga asoslangan guruhiy o'quv faoliyati tafakkur mustaqilligining rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratishi aniqlangan.

Taniqli psixolog va pedagoglarning ilmiy asarlarida kichik maktab yoshidagi o'quvchining o'quv faoliyatidagi mustaqilligi uchun shart-sharoitlarni yaratish nihoyatda ahamiyatli ekanligi haqida fikrlar mavjud. Shunday shart-sharoitlardan biri boshlang'ich davrda o'quv faoliyatini jamoaviy faoliyat sifatida tashkil etilishidir.

Quyidagi belgilar mavjud bo'lgan taqdirdagina ishni jamoaviy deb hisoblash mumkin.

1. O'qituvchi tomonidan berilgan o'quv vazifasi yoki alohida bir mikroguruh tomonidan baravar bajarish qabul qilinsa.

2. Vazifalarni o'zaro taqsimlagan holda birgalikda biron-bir ish bajarilsa.

3. O'zaro nazorat va mas'uliyat mavjudligi.

4. Ishlarni taqsimlashni tashkil etish va uning kechishini o'quvchilarning o'zlari nazorat qilishlari.

Frontal ishda (ma'ruza, hikoya qilib berish, frontal so'rovnomma va h.k.) o'qituvchi butun sinfga teng ravishda ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi. Bunday holatda o'quvchi bilan muloqot o'qituvchining tashabbusi bilan lekin, juda kam miqdorda amalga oshiriladi. Individual ishda (darslik bilan mustaqil ishlash, misol, masala yechish, mashqlarni bajarish va h.k.) o'qituvchi bilan

to'g'ridan to'g'ri muloqot yo'q. Bunday holda ko'pincha o'quvchi-o'quvchi, ya'ni sinfdoshi bilan muloqotga yo'l qo'yilmaydi yoki cheklanadi. Darsdagi jamoaviy faoliyat o'quvchining to'liq mustaqilligi va faolligini rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Bunda o'quvchilar asta-sekinlik bilan o'quv faoliyatining subyekti sifatida yangi imkoniyatlarini o'zlari uchun ochib boradilar. Bu jarayonda o'quvchi faoliyati samaraliroq bo'lishi uchun o'zini o'zi nazorat etishga harakat qiladi. O'quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdagi masalalarni yechish yo'llari bilan tanishadilar va ularni egallagan zahoti aniq bir masalalarni yechishda amaliy foydalanadilar.

O'quv faoliyatida nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish kichik mak-

tab yoshidagi o'quvchilarda o'quv harakatlarini mustaqil rejalashtirishi va bajarishni shakllanishida juda muhimdir. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining masalalarni yechishdagi ayrim yo'l va tushunchalarni yetarlicha egallamaganligi bu tushuncha va yo'llarni shakllantirishda bolalar barcha kerakli o'quv harakatlarini bajarishga o'rgatilmaganligining natijasidir.

Bolalar tafakkuri va nutqining rivojlanishida ovoz chiqarib mulohaza yuritishning va bu uslubdan o'quv jarayonida foydalanishning ahamiyati katta. Ovoz chiqarib mulohaza yuritish va o'z yechimini asoslab berish aqliy sifatlarning o'sishiga xizmat qilib, kishi o'z mulohazalari va xatti-harakatini tahlil etishi va anglashini rivojlantiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda aqliy va o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlari ancha yuqori hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'limda bu yoshdagi bolalar o'rta maktab dasturida ko'rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushunishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab, o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshida past o'zlashtirish sabablari va o'qishdagi qiyinchiliklar quyidagilar bilan bog'liqdir: 1) neyrofiziologik sabablar; 2) bilish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi; 3) erkin va mustaqil harakat qilish darajasining pastligi; 4) motivatsion so-

halarining yetarli rivojlanmaganligi; 5) oila tarbiyasidagi, oilaviy munosabatlardagi kamchiliklar; 6) maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar; 7) o'zaro muloqot va munosabatlardagi kamchiliklar; 8) shaxs xususiyatlardagi og'ishlar¹. Kichik maktab yoshidagi bolalar o'qishidagi qiyinchiliklar bola shaxsining barcha shaxsiy, bilish, motivatsion va hissiy va irodaviy sohalarida aks etadi. Bu qiyinchiliklar o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Bir qiyinchilikni bartaraf etilishi ikkinchi qiyinchilikni ham kamayishiga olib keladi.

O'qishga nisbatan ijobiy munosabat kichik maktab davrining oxirlariga kelib, birmuncha pasayish ko'zga tashlanadi. O'quv faoli-

yatiga qiziqish — 1—2-sinflarda ko'tarilib, 3—4-sinflarda pasayadi. O'quv faoliyatiga qiziqishning pasayishida o'qituvchining tayyor

materialni bayon etishi va o'quvchilarning yodlab olishlari ustunovkasi ustunlik qiladi va o'quvchilarning faolliklari taqlid qilish xarakterida bo'ladi. 3—4-sinf o'quvchilari odatda o'qilganlarni qay-

ta hikoya qilib berishni, doskada yozilgan mashqni ko'chirib yozishni, qoidalar va she'rlarni yodlashni yoqtirmaydilar va aksincha, misol va masalalarni mustaqil ravishda yechishni, tabiat hodisalarini kuzatishni, rasm chizish va plastilin va loydan narsalar yasash ishlarini yaxshi ko'radilar. Boshqacha aytganda, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tashabbus va mustaqillik imkoniyati bor bo'lgan ishlarga ko'proq qiziqish bildiradilar. Kichik maktab yoshida o'qishga qiziqishning pasayish sabablaridan biri sifatida V.A.Suxomlinskiy o'qituvchi tomonidan past bahoning ko'p qo'yilishi, bu esa bolada o'qishga nisbatan qiziqishning pasayishi va o'z imkoniyatlariga nisbatan bo'lgan ishonchning pasayishida deb biladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyatining hamma elementlari shakllantirilganligi va mustaqil bajara olinishi yetakchi faoliyat sifatidagi o'qish o'z vazifasini bajaraganligini angla-

¹ Sherimbetova Z.Sh. Boshlang'ich sinflardagi o'zlashtirmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari. Ps.f.n....avtopef..—T.2007.-17 c.

masalalar yechimlarining umumiy yo‘llarini mustaqil ravishda topish ko‘nikmalari;

o‘quv vazifalarini ajrata olish, topish va o‘zlashtirish;

o‘zini va o‘z faoliyatini adekvat baholay olish va nazorat qi-la olish;

faoliyatda o‘zini-o‘zi boshqara olish;

mantiqiy fikrlash qoidalaridan foydalana olish;

umumlashtirishning turli shakllarini egallash va ulardan foydalana olish;

jamoaviy faoliyatlarda ishtirok eta olish;

yuqori darajada mustaqil ijodiy faollikka ega bo‘lish.

Lekin aksariyat hollarda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv faoliyati maktab amaliyotida birinchi o‘ringa bolalarni amaliy ko‘nikmalarga, o‘qish, yozish, sanash malakalariga o‘rgatish muammosi turadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quv faoliyatining asosiy vazifasi — bu o‘quvchilarni «o‘qish»ga, bilim olishga o‘rgatishdir. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishida ta‘limning ta‘sirida jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi. Bu o‘zgarishlar ularni hayotlarining mas‘uliyatli davri bo‘lmish o‘smirlik davriga o‘tish uchun tayyorlaydi.

15.4. Kichik maktab yoshida asosiy psixologik yangilik

Kichik maktab yoshida bolada ko‘pgina o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu o‘quv faoliyati ko‘nikmalarining shakllanishi, o‘z-o‘zini boshqarish, dunyoni bilish munosabati shakllanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi.

Intellektual refleksiya (o‘z harakatlari va ularning asoslari mazmunini anglash qobiliyati) kichik maktab yoshida nazariy tafakkur shakllanishidan darak beruvchi asosiy yangi psixologik tuzilmadir. Nazariy tafakkur nafaqat qoidalarni, balki ularni ochish va qayta qurish vaziyatida namoyon bo‘ladi.

Bu yosh davrida o‘zini bilish va shaxsiy refleksiya o‘z imkoniyatlari chegarasini mustaqil bilish qobiliyati sifatida shakl-

lanadi («Bu topshiriqni yecha olamanmi, yoki yo‘qmi?»), «uni yechish uchun menga nima halaqit beradi?», harakatning ichki rejasi (ma’lum natijaga erishishni rejalashtirish va uni oldindan ko‘ra olish ko‘nikmasi), ixtiyoriylik o‘z-o‘zini nazorat qilish ham rivojlanadi. Bola o‘z xulq-atvorini boshqara boshlaydi. Uyda va jamoat joylarida o‘zini qanday tutish kerakligi haqida xulq-atvor normalarini aniq tushunadi, kattalar va tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatda o‘z emotsiyalarini boshqara oladi. Xulq-atvor normalari o‘zining ichki talabiga aylanadi, unda uyatchanlik hislari paydo bo‘ladi. Oliy hislar shakllanadi: estetik, ma’naviy, axloqiy (o‘rtoqlik, hamdardlik, adolatsizlikka chiday olmaslik). Lekin shunga qaramay kichik maktab yoshidagi bola uchun axloqiy jihatdan barqaror emaslik, munosabatlar va kechinmalarning dominimiy emasligi xosdir.

Kichik maktab yoshi davrida yetakchi bo‘lgan o‘quv faoliyatini tashkil etish va mazmuniga bog‘liq ravishda yangi psixologik tuzilmalarning darajasida farqlar kuzatilishi mumkin. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, tafakkur nazariy va empirik bo‘lishi, refleksiya mazmunan va shakliy, rejalashtirish esa muhim belgilariga ko‘ra va xususiy asoslarga ko‘ra namoyon bo‘lishi mumkin.

O‘quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o‘quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxs xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrida bola shaxsining shakllanishi davom etadi. O‘quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoj va shaxsining shakllanishida to‘liq ijobiy asos bo‘ladi. Buning natijasida bolaning o‘z-o‘zidan oilasi, o‘qiyotgan sinfi va boshqa jamoalardagi o‘z o‘rnini anglay boshlaganini ko‘rish mumkin.

Yangi faoliyatga o‘tish o‘quvchi bolaning o‘z asosiy faoliyatiga yangi munosabatni paydo qiladi. Unda burch hissi o‘sa boshlaydi. U o‘qish shart ekanligini va u uning burchi ekanligini, belgilab qo‘yilgan qoida va talablar bajarilishi shartligini anglaydi. O‘zini haqiqiy o‘quvchidek his qilgan holda unda yaxshi o‘qishga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy onglari I va IV sinfdagi o'qish mobaynida muhim o'zgarishlarga uchraydi va axloqiy sifatlar, bilim va tasavvurlar sezilarli darajada boyiydi va bola o'zini o'zi anglay boshlaydi. U o'ziga xos bo'lgan yaxshi-yomon xususiyatlarni bilmasa ham, lekin u o'zining «Men»ini his qiladi. O'zining vazifasi, maqsadi, uni bajarish lozimligi, uga berilgan vazifalarni bajarish, takrorlash uning burchi ekanligi kabilarni anglab yetadi. Bu yoshdagi bolalarni maktab dasturiga kiritilmagan juda ko'p atrof-muhit hodisalari haqidagi bilimlar qiziqtiradi. Bu qiziqishlar bolaning ko'pincha e'tiborga olinmaydigan ijodiy o'yinlarga nisbatan qiziqishlarida ham namoyon bo'ladi. Bunday o'yinlarda uning ijtimoiy qiziqishlari, emotsiyalari, jamoa uchun tashvishlanish kabi hislari aks etadi. Qiziquvchanlik kichik maktab yoshidagi bolalarning keng aqliy faolligini namoyon etilish shakli hisoblanadi. Vatanga kerakli inson bo'lish uchun o'qishning muhimligi va ahamiyatini bilishi uchun ochiqlik, ishonuvchanlik, ustozining barcha topshiriqlarini bajarishga tayyorlik xususiyatlari keng ijtimoiy burch motivlari, mas'uliyatlilik samarali shartlar hisoblanadi. Maktab ta'limining dastlabki yillarida qiziqishlar, xususan, bilim egallashga nisbatan qiziqishlar, intellektual qiziqishlar sezilarli darajada rivojlanadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olingan yolg'iz hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil bo'ladi. III—IV sinflarda esa sabablarni, qonuniyatlarni, hodisalar o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqliklarni bilib olish uchun bo'lgan qiziqishlar rivojlanadi.

III sinfdan boshlab o'qishga qiziqish differensiallasha boshlaydi. O'quvchilardagi bunday qiziqishlar o'zini anglash va o'z xatti-harakatiga baho berishi kabi xususiyatlarni shakllantiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning qiziqishlarida samarali o'qish uchun halaqit beruvchi qator salbiy xarakteristikalari ham mavjud. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qiziqishlari:

- yetarlicha amaliy natija bera olmaydi;
- qat'iy emas, vaziyatli;

tez qondiriladi va ustozning qo‘llab-quvvatlashisiz tez so‘nadi; o‘quv material va topshiriqlar o‘quvchining joniga tez tegadi va charchashni yuzaga keltiradi;

kam anglanilgan, o‘quvchining ma’lum bir predmetdagi nima yoqishini va nima uchun yoqishini aytib bera olmasligida ko‘ri-nadi;

umumlashtirishning pastligi, bir yoki bir nechta predmetlar-ning tashqi belgilarigagina qarab umumlashtirish;

o‘quvchini o‘qishning o‘quv faoliyatining usullariga emas, balki natijalariga yo‘nalganligi.

Kichik maktab davrining so‘ngiga qadar o‘quv ishlarida-gi qiyinchiliklarni yengishga nisbatan qiziqish yuzaga kelmaydi (bu holat ko‘pincha o‘qituvchilarning o‘zlari tomonidan amalga oshiriladi, ya’ni aksariyat hollarda o‘quvchining qiyinchiliklarni yengishga harakati emas, balki natija baholanadi). Bularning barchasi kichik maktab yoshida qiziqishlarning yetarli daraja-da rivojlanmaganligi bo‘lib, ba’zan o‘qishga nisbatan yuzaki mu-nosabatni keltirib chiqarishi mumkin. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilardagi motivlarning umumiy dinamikasiga nazar tash-lansa, quyidagilarni ko‘rish mumkin: kichik maktab davrining boshida maktabda bo‘lishning tashqi jihatlariga (partada o‘ti-rish, forma kiyish portfel ko‘tarish va h.k.), so‘ngra birinchi o‘quv mehnati natijalariga (birinchi bor harf va sonlarni yoza olish-lariga, o‘qituvchining bahosiga), keyinchalik, jarayonning o‘zi-ga, o‘qishning mazmuniga va shundan so‘nggina bilimlarni olish yo‘llariga qiziqish kuchli bo‘ladi. O‘qishning ijtimoiy ahamiyatini tushunish (2—3-sinflarda) o‘qish mazmunini va bilimlarni egal-lash yo‘llariga qiziqish bilan mustahkamlanishi zarur. Bunday holda kichik maktab davrining oxirlariga borib, o‘qishga nisbatan motivatsiyaning pasayishi ko‘zga tashlanmaydi.

Bilish motivlari quyidagicha o‘zgarib boradi: kichik mak-tab yoshidagi o‘quvchilarning qiziqishlari alohida bir faktlarga qiziqishdan, qonuniyat va prinsiplarga qiziqishga aylanib boradi. Oxirgi yillarda o‘tkazilgan psixologik tadqiqotlar kichik mak-

tab yoshining o'rtalariga borib bilimlarni o'zlashtirish yo'llariga qiziqish yuzaga kelishi mumkinligini ko'rsatib berdi. Kichik maktab davrida mustaqil ta'lim motivlari ham yuzaga kelib, lekin ular eng oddiy shaklda — bilimlarni olish qo'shimcha manbalariga va qo'shimcha kitoblarni vaqti-vaqti bilan o'qishga qiziqish bilan yuzaga keladi. Ijtimoiy motivlar birinchi sinfga kelganida differensial bo'lmagan umumiy tushunishdan o'qish va o'rganishning zarurligi sabablarini chuqur anglashga, «o'zi uchun* o'qish mazmunini anglab yetishga tomon o'zgarib, ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo'ladi. Bu yoshdagi vaziyatli ijtimoiy motivlar o'qituvchining qo'llab-quvvatlashini olishga nisbatan bo'lgan ehtiyoji hisoblanadi. Bolaning ustoziga bo'lgan munosabati yomon baho olib xafa bo'lgan taqdirda ham ijobiy va unga ishonch bildirishi saqlanib qolaveradi. Unda o'rtoqlari va sinfdoshlari o'rtasida mavqeli bir o'rinni egallashga harakat yuzaga kelib, asta-sekinlik bilan o'rtoqlari fikrlariga asoslanish paydo bo'ladi.

O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qishga harakat qiladi. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatlarini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyatlari bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga

kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek, o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zlari baho beradilar. Shuningdek, o'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi, turli faoliyatlardagi muvaffaqiyatlariga ham bog'liq bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha — yuqori adekvat — mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi

bolalarda mavjud boʻlgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi taʼsirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida shakllantirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab davrida boshqarishdan oʻz-oʻzini boshqarishga oʻtishi nihoyatda muhimdir. Yetakchi boʻlgan oʻquv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar — oʻyin, muloqot va mehnat faoliyati ham oʻquvchi shaxsi rivojiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bogʻliq boʻlgan shaxs xususiyatlari tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topa boshlaydi. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolgʻiz holda sevimli mashgʻulotlari bilan shugʻullanishlari mumkin va shular asosida ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlarini shakllanadi. Kichik maktab davridan boshlab oʻquvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga amaliy va psixologik jihatdan tayyorlashga eʼtibor beriladi. Bu davr ichida bolalarda mehnatga nisbatan ongli, ijobiy munosabatda boʻlish asoslari tarkib topa boshlaydi. Ularda mehnatga havas uygʻonadi, mehnatga va mehnat ahllariga hurmat bilan qarash, ijtimoiy foydali ishlarda qatnashishga intilish singari fazilatlar tarkib topadi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda mehnatsevarlik, asosan, oʻqish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Kichik yoshdagi oʻquvchilar zarur boʻlgan harakat va amallarni darhol oʻzlashtirib va egallab ololmaydilar, koʻproq ortiqcha va chalkash harakatlar qiladilar. Mehnat jarayonidagi turlicha ish harakatlarini, chunonchi: tikish, toʻqish, kiyish yoki taxtalarni randalash kabi ish harakatlarni qiynalmasdan va birmuncha silliq bajaradigan boʻlishi uchun har bir ishda har qanday harakatlar qilish kerakligini va bu harakatlarning qay yoʻsinda amalga oshirilishini aniq bilib olish va esda qoldirish kerak boʻladi. Harakatlarni qayta-qayta takrorlash, mashq qilib borish natijasida kichik yoshdagi oʻquvchilarda uchrab turadigan ortiqcha va chalkash harakatlar yoʻqolib boradi.

O'qituvchilar mehnat darslarida o'quvchilarning mehnatiga yetarli darajada e'tibor berishlari, mehnat darsiga alohida tayyorgarlik ko'rishlari, o'quvchilarning har bir harakatlarini ziyraklik va kuzatuvchanlik bilan nazorat qilishlari, ularga individual munosabatda bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mehnati:

— bolalarni yosh, individual va jismoniy rivojlanishiga mos bo'lishi;

— o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi;

— undan kundalik ish jarayonida o'z-o'ziga xizmat qilishga asoslanganligi;

— jamoa bo'lib mehnat qilish orqali bolalarda bir-biriga nisbatan hamkorlik, do'stlik, o'rtoqlik tuyg'ularini shakllantirishi;

— o'quvchini o'zini tuta bilishga, sabr-toqatli bo'lishga, qiyinchiliklarga bardosh berishga o'rgatadigan va ularni shakllantirishi;

— o'quvchi o'z mehnati natijasidan bahramand bo'ladigan mehnat xususiyatlariga ega bo'lishi lozim.

Bola o'z mehnat mahsuli sinf yoki maktab jamoasiga, jamoatchilikka manfaat keltirayotganligini bilib, undan xabardor bo'lib borsa undagi ijtimoiy foydali mehnatga bo'lgan ishtiyoq yana ham ortadi va mehnatga nisbatan faol, ijodiy va ongli munosabat shakllana boradi. Mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan mehnati unga zavq bergan taqdirdagina yuzaga keladi va rivojlanadi.

Bu davrda mustaqillikning poydevori yuzaga kelib, o'quv vazifalarini mustaqil bajarish layoqati yuzaga keladi. Mustaqillikka moyillikning rivojlanishi ikki yo'nalish asosida amalga oshiriladi¹.

1. Mustaqillikning shaxs xislati sifatida vujudga kelishi ijtimoiy muhitga bog'liq. Bu bog'liqlik mustaqillikka bo'lgan ehtiyojni qondirish imkoniyatlari sohasida va qadriyatlarda ifodalangan mustaqillik mazmuni xarakterida ifodalanadi.

¹ Soliyeva D.A.Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'quv mustailligini rivojlantirishning psixologik jihatlarini. Ps.f.n.....avtoref. —T. 2012.-24 b.

2. Mustaqillikning shaxs xislati sifatida shakllanishida individual xususiyatlar, shaxs yashaydigan va mehnat qiladigan jamoada vujudga kelgan munosabatlarga hamda shaxsning qobiliyatlariga, uning faolligiga bog‘liq bo‘ladi.

Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog‘liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq xususiyatli bo‘lsa,

unda asta-sekinlik bilan bo‘ysunuvchanlik, tobelik xususiyati mustahkamlana boradi. Biroq bolani erta mustaqillikka undash, unda ba’zi salbiy xislatlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki u hayotiy tajribalari kamligi uchun asosan, kimlargadir taqlid qilgan holda harakat qilishi mumkin. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko‘proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron-bir mas’ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o‘zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo‘lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.

7—11 yoshli bolalar o‘zlarining individual xususiyatlarini anglay

boshlaydilar. Bolaning o‘z-o‘zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o‘zlarining ismlariga yanada ko‘proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bolani o‘zining tashqi ko‘rinishi va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o‘z-o‘zini anglashida ahamiyati juda katta. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa, qizlar o‘zlarining yuz tuzilishlariga alohida e’tibor bera boshlaydilar. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchining o‘quv faoliyati jarayonida o‘zidagi xulq-atvorni va faoliyatni o‘zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o‘z faoliyatini o‘zi uyushtirishga hamda bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishining qaror topishi-ga yordam beradi. O‘quvchi xulq-atvorini motivlashtirishi ham

bo‘lib qoladi. Axloqiy his-tuyg‘ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari ham shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iroda tarbiyasi tashabbuskorlik, dadillik, o‘zini tuta bilish, sabotlilik, chidamlilik, qafiylik, kamtarlik va intizomlilik kabi irodaviy sifatlarini o‘stirish va mustahkamlashdan iboratdir.

Iroda tarbiyasi bolalarda yomon sifatlar paydo bo‘lishining oldini olish va agar bunday sifatlar paydo bo‘lsa, ularni yo‘qotishdan iboratdir. Bolalar irodasining salbiy tomonlaridan biri o‘ziga ishonmaslikdir. O‘ziga ishonmaslik holati o‘qish, mehnat, o‘yin va shu kabi faoliyatlarda tez-tez qaytarilib turadigan muvaffaqiyatsizliklar tufayli yuzaga keladi.

FLIvashchenko tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlarning ko‘rsatishicha, o‘qish sharoitida o‘quvchilarning o‘zlariga ishonmaslik holatlari asosan quyidagi sabablar tufayli yuzaga keladi: «a) o‘qishda izchillik prinsipiga rioya qilmaslik tufayli; b) o‘quvchilarga kuchlari yetmaydigan, ya’ni ortiqcha talab qo‘yib yuborish orqali; d) ayrim pedagoglar, ota-onalar va shuning bilan birga sinfdoshlarning o‘quvchilar kuchiga, xotira qobiliyatlari va fahm-farosatlariga ishonchsizlik bildirishi tufayli; e) ana shunday o‘quvchilarni yomon baho olganliklari uchun qo‘rqitish va jazolash orqali».

Iroda tarbiyasi tafakkur va hissiyotlar tarbiyasi bilan mahkam bog‘liqdir. Biz bolalarda tafakkurni taraqqiy ettirishimiz bilan birga, ularda o‘z oldiga to‘la anglab, muayyan maqsadlar qo‘ya olish va juda yaxshi asoslangan qaror va harakatlarni tanlay ola bilish qobiliyatini ham tarbiyalaymiz. Bolalarda ijobiy axloqiy hislarni tarbiyalar ekanmiz, buning bilan axloqiy qaror qabul qilishga va shuning bilan birga, o‘z qaror hamda harakatlariga axloqiy baho berishga odatlantirib boramiz. Vatanparvarlik va vijdoniy burch hissini tarbiyalash ayni vaqtda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining harakat motivlarini tarbiyalash hamdir.

5—6 yoshlarda ko‘zga tashlangan bolalarning xususiyatlari kichik maktab yoshi davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi. O‘smirlik davrining boshlariga kelib, juda ko‘pgina shaxsiy fazilatlar shakllanib bo‘ladi. Bolalarning individualliklari ularning

bilish jarayonida ham ko‘rinadi. Bu davrda bolalarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko‘nikma va malakalari takomillashadi. 3—4-sinflarga borib, aksariyat bolalarda umumiy va maxsus layoqatlar ko‘zga tashlanadi. Kichik maktab davrida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo‘lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o‘z-o‘zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o‘qituvchi bilan bo‘ladigan munosabati katta ta‘sir ko‘rsatadi. 3—4 sinflarga borib bolalar uchun uning o‘rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta‘lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. I—IV sinf o‘quvchilari o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, turli materiallardan har xil buyumlar yasash, o‘simliklar ekib o‘stirish, uydagi yumushlarga qatnashish kabi bir qancha ishlarda ishtirok etadilar va bu sohada dastlabki ko‘nikma va malakalarni hosil qiladilar.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning emotsional xususiyatlari. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning hislari o‘zining ancha barqarorligi, anglanganligi bilan maktabgacha yoshdagi bolalarning hislaridan farq qiladi, bu hislar anchagina osoyishtalik bilan o‘tadi, ancha chuqur va kuchli bo‘lib qoladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning umumiy emotsional tonusida xushchaqchaqlik, ruhiy tetiklik kayfiyati ustunlik qiladi. Darslarda va tanaffus vaqtlaridagi o‘yinlarda ular quvnoq va tetik bo‘ladilar. Bunday holat esa kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning emotsional hayotida norma bo‘lib hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning emotsional hayoti ta‘lim va tarbiyaning ta‘siri ostida ancha kengayadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning hislaridan farqli ravishda kichik maktab davrida hislarning yo‘nalganligida katta tabaqalanish yuzaga keladi. Bu yoshda oliy hislarning barcha turlari rivojlanishni boshlaydi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning his-tuyg‘ulari ularning faoliyatida namoyon bo‘ladi va rivojlanadi. Kichik maktab

yoshidagi o'quvchilar o'zlarining har bir faoliyat natijalariga baho bera oladilar. Baho kishida qoniqish va qoniqmaslik hislarini yuzaga keltirishi mumkin bo'lib, bu hislar bolani yaxshi o'qishga ruhlantiradi. Ba'zan past baho olish orqali yuzaga kelgan salbiy hislar chuqurlashib, o'qituvchining noto'g'ri reaksiyasi va kattalarning doimiy tanbeh va tanqidlari oqibatida bolaning xarakter xislatiga aylanib qolishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlari uchun ijobiy baho olishlariga yordam beruvchi asosiy hislardan biri intellektual hislardir. Odamning aqliy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hislar intellektual hislar deb ataladi. Bilishga qiziqish, taajjublanish va hayron qolish hislari, ishonch, ishonchsizlik va shubhalanish hislari intellektual hislar qatoriga kiradi.

Bunday hissiyotlar har xil nazariy va amaliy savollar tug'ilganida, vazifa va masalalarni hal qilish chog'ida, biror yangilikni o'zlashtirish va bilish chog'ida paydo bo'ladi va his qilinadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning intellektual hislari bilish jarayonida rivojlanadi. O'quv faoliyatida bolalar katta hajmdagi bilimlar va faktlarga duch kelib, ular bolalarda taajjublanish, ishonchsizlik, quvonch hislarini yuzaga keltirib, qiziquvchanlik, urinchoqlik va shu kabi boshqa hislarning shakllanishiga asos bo'ladi.

O'qish jarayonida yoshi kattalashib, tajribasi orta borgan sari, oqilona urinchoqlik rivoj topa boradi. Bu his odamning ilmiy tadqiqot ishlari bilan samarali shug'ullanishini rag'batlantiradi. Bilishga qiziqish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga xos bo'lgan xususiyatlardandir. Bilishga qiziqish kichik maktab davrida o'ziga xos yo'nalishni oladi. Ular har bir o'rgangan narsalariga taajjublanish bilan qaraydilar.

Respublikamizda M.G.Davletshin rahbarligida M.A.Maqsudova tomonidan «Birinchi sinf o'quvchilarida ta'lim jarayonida bilishga oid qiziqishlarning o'sishi» mavzuida ilmiy tadqiqot olib borilgan¹.

¹ MaxcynoBa M.A. Pa3BHThe no3HaBaTejibHiix HHTepecoB yqamnxa nepBbix KJiaccoB B npojecce oGyHeHHn. ABTope<i> HC.H.-T.1993.-17 c.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quv yilining boshida o'quvchilar o'z

qiziqishlarini «yoqadi», «yaxshi ko'raman» kabi umumiy motivlar bilan namoyon qilsalar, 1-sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatidagi muvaffaqiyatlari munosabati bilan ularning bu faoliyati mazmuni naqadar o'qishga berilishida aks etar ekan. O'quv yilining oxirida bolalar o'zlari uchun yangi bo'lgan faoliyat turlari — konstruktorlik,

mehnat turlari bilan qiziqqa boshlaydilar. 1-sinf o'quvchilari bilish qiziqishlarini samarali rivojlanish shart-sharoitlari ta'limda samarali metodlarni qo'llashga bog'liqdir. Jumladan, mashq va vazifalarning mazmunini tanlash, o'quvchilarning darsdagi diqqatini faollashtirish, ishning o'yin shakllari, musobaqa turlari va h.k.

Taajjublanish hissi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda bunday his ularga qandaydir odatdan tashqari, nomaTum biror narsa ta'sir qilganida tug'iladi. Boshlanghch sinf o'quvchilari kutmagan voqealar sodir boTganida ulardan taajjublanadilar. Bilish jarayonida taajjublanish hissi xursandlik tariqasida o'tadi. Bu hol samarali bilish faoliyatining doimiy yoTdoshidir. «Voqealarni kuzatib borayotganimizda biz o'zimizda tug'ilgan hislardan mamnun boTamiz, bu mamnuniyat esa intellektual xursandlikdir (D. R.Dekart).

Kutilmagan bir narsa sababli tug'ilgan taajjublanish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni dastlabki qarashda kam uchraydigan va odatdan tashqari boTib ko'ringan narsalarni diqqat bilan ko'zdan kechirishga majbur etadi. Shunday qilib, taajjublanish boshlang'ich sinf o'quvchilarini hodisalarni bilishga g'oyat darajada rag'batlantiradi.

Hayron qolish hissi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda hayron qolish hissi kuchli boTib, tushuntirilayotgan yangi materialni, tadqiq qilinayotgan faktlarning sabablarini topishda qiyinalib qolganida, bu faktlarni shu damgacha maTum boTib turgan hodisalar guruhiga kiritolmay qolganida va shu kabi hollarda bolada hayron qolish hissi tugTladi. Bu his ham kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilish faoliyatini yanada kuchaytirish-

Ishonch hissi. Narsa va hodisalar oʻrtasidagi bogʻlanishlar va munosabatlarning toʻgʻriligi kichik maktab yoshidagi bolalarning tafakkuri jarayonida aniqlanib, mantiqiy ravishda chiqarilgan xulosalar bilan amaliyotning oʻzida yaqqol isbot boʻlganida ularda ishonch hissi tugʻiladi.

Shubhalanish hissi kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda toʻliq rivojlanmagan boʻlib, bu his asta-sekinlik bilan oʻquv jarayonida bolaning oʻzi chiqargan qoidalari yoki nazariyalariga zid boʻlib, ular

bilan toʻqnashib qolganida tugʻiladigan hissiyotdir. Bu juda muhim hissiyot boʻlib, u toʻplangan dalillarni va aytilgan qoidalarni har tomonlama tekshirib koʻrishga ragʻbatlantiradi. «Samarali ilmiy faoliyat uchun doimo shubha bilan qaramoq va oʻz-oʻzingni tekshirib turmoq zarur* (I.P. Pavlov). Bu hislar bola qiyinchiliklarni yengib, oʻz ishida maʼlum muvaffaqiyatlarga erishganida ahamiyatli ravishda rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bola oʻqish va yozishni bilib olganida, oʻzi misol yoki masalani yechishni oʻrganib olganida juda katta xursandchilik hissini boshidan kechiradi. Oʻquvchilarda oʻz mehnatidan xursand boʻlish hissini iloji boricha koʻproq yuzaga keltirish va uni bola xarakterining emotsional jihatiga aylantirish boshlangʻich sinf oʻqituvchisining asosiy vazifalaridan biridir. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning intellektual hislari uning bilish qiziqishlari bilan bogʻliqdir. Boshlangʻich sinf oʻquvchisi nima boʻlganiga, qayerda, qachon va qanday qilib boʻlganiga juda qiziqadi, shuningdek, uni «Nima uchun boʻldi?» savoliga javobga nisbatan

shu voqea bilan bogʻliq boʻlgan faktlarning oʻzi qiziqtiradi.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchi doskaga chaqirilganda u oʻqib berishga yoki yozib berishga qoʻrqib, uyalib xijolat tortsa, bunday oʻquvchilarni tez-tez doskaga chiqara berish kerak, ana shunda u tortinmaydigan boʻlib qoladi. Qayta-qayta doskaga chiqaverish natijasida qoʻrquv hissi susaya beradi va u nihoyat butunlay «soʻnib qolishi» va yoʻq boʻlib ketishi mumkin.

Albatta, bunda shu hislarni tugʻdiruvchi manbaning takrorlanish berishi emas, balki odamning salbiy kechinmalardan qutulish

«Lekin bu qonuniyat faqat oddiy va tez o'tib ketadigan hislarga ya'ni, bolaga bir xilda ta'sir qiluvchi va mazmuni chuqur bo'lmagan obyektlar sababli tug'iladigan hislargagina taalluqlidir. Murakkab, chuqur hislar bolada shu hislarni tug'dirgan obyektlar bizga qayta-qayta ta'sir o'tkaza berganida yo'q bo'lib ketmaydi, balki, aksincha, yana ham kuchli va barqaror bo'lib qoladi. Masalan, musiqa asarlarini qayta-qayta eshitish natijasida bizning estetik hislarimiz chuqur va kuchli bo'lib qoladi. O'zimiz yaxshi ko'rgan, o'zimiz uchun qadrlil bo'lgan joylarga har safar borganimizda bizning shu joylarga bo'lgan hislarimiz, mehrimiz, odatda, kuchaya boradi. Ayrim emotsional kechinmalarning «so'nib qolishi»da boshqa qonuniyatlarning ham bor. Masalan, qarama-qarshi hislar ba'zi nisbatlarda bir-birini yo'qotib yuborishi mumkin. Salbiy his paydo bo'lib turganida kuchliroq ijobiy his yuzaga keltiradigan sabab paydo bo'lib qolsa, u holda salbiy his so'nib qolishi, yo'qolishi mumkin. Masalan, bola yiqilib tushib, yig'lab turibdi. Onasi shu paytda kelib qolib, uni erkalatdi. Bu erkalash ijobiy hislarning paydo bo'lishiga kuchli sababchi bo'ladi, shuning uchun ham bolada ko'z yoshi o'rniga kulish, xursandlik paydo bo'ladi. O'quvchidagi cho'chib turish hissini qayta-qayta doskaga chiqarish yo'li bilangina yo'q qilib qolmasdan, balki bolada qarama-qarshi hislarni tug'dirish yo'li bilan ham bu cho'chishlikni oldini olish mumkin. Masalan, birinchi sinf o'quvchisining xavotirligining sababi uning o'z kuchiga ishonmaganligida bo'lsa, unga oson bajara oladigan vazifalarni berish kerak. Shu vazifalarni bajara olgani uchun kattalar tomonidan rag'batlantirilishi, maqtalishi bolada ijobiy hislarning tug'ilishiga yordam beradi, xavotirlik hissi esa yo'qoladi. Shuning uchun ham doska oldida u o'zini dadilroq his etadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda intellektual va axloqiy hislar, o'rtoqlik, do'stlik hislari katta o'rin ola boshlaydi. Vatanparvarlik, vijdoniy burch hissi va shu kabi hislar paydo bo'ladi va o'sadi. Axloqiy hislarning rivojlanishiga jamoaviy ishlar, o'qish mazmuni, turli jamoat tashkilotlari va shubhasiz o'qituvchining shaxsiy namunasi ta'sir ko'rsatadi. O'qishning boshida aynan shu

o'qituvchi shaxsi kichik maktab yoshidagi o'quvchining juda ko'p axloqiy hislarining rivojlanishini belgilab beradi. Birinchi vaqtlarda o'quvchi sinf jamoasi bilan o'qituvchisi orqaligina bog'langan bo'ladi. O'qituvchi bola uchun barcha diqqat-e'tibori va hislari qaratilgan markaziy figura bo'lib hisoblanadi. Bilimli, mahoratli, bolalarni sevuvchi pedagog o'qishning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarining o'ziga bo'lgan shunday munosabatini saqlab qoladi. Lekin keyinchalik bu muhabbat, bog'liqlik ustoz va sinf jamoasi, o'rtoqlari, do'stlari o'rtasida bo'linadi. Shunga qaramasdan boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun o'qituvchi asosiy avtoritet hisoblanadi. U o'qituvchisi haqida uyida jo'shib va hurmat bilan gapiradi. O'qituvchining ta'siri ostida asta-sekinlik bilan o'quv, mehnat va o'yin faoliyatlarida har bir sinfdoshi uchun tashvishlanish, jamoa (kollektivizm) hissi paydo bo'ladi. Bu esa bolalardagi o'rtoqlik hissining rivojlanishiga zamin bo'ladi. Bolalar o'qishda past o'zlashtirayotgan o'rtoqlariga yordam berishga harakat qiladilar. Bu motivlar shunchalik chuqur va kuchli bo'ladiki, ular maqsadlariga erishish uchun juda ko'p qiyinchiliklarni: o'zlashtirmayotgan o'rtog'ining dangasaligi, o'zining darslarini tayyorlashga tezroq ulgurishi, ba'zan esa hatto ota-onalarning qarshiliklarini ham yengishi kerak. Bunday vaziyatlarda bolada shakllanayotgan mas'uliyat hissi qiyinchiliklarni yengishga va o'z ishini muvaffaqiyatli bajarishiga yordam beradi. Birinchi sinfda o'quvchi o'qituvchisining tanbehlari o'rtoqlarining oldida yoki o'ziga yolg'iz berilganiga e'tibor bermasa, ikkinchi sinfda o'rtoqlari oldida berilgan tanbehlardan uyaladigan bo'lib qolishi bolaning o'zini jamoa a'zosi sifatida to'liq his etayotganidan va o'rtoqlari uni hurmat qilishlarini istayotganidan dalolat beradi.

Estetik hislar birinchi navbatda bolalarning badiiy asarlarni idrok qilish jarayonida namoyon bo'ladi. Uchinchi sinfga borib bolalar ustoz o'qiyotgan she'rlarning nafaqat mazmuniga, balki o'qilishidagi go'zalligiga ham e'tibor beradilar. Badiiy asarlarni o'qiyotganlarida va kinofilmlarni ko'rayotganlarida bolalar asosan asar qahramonlarining axloqiy sifatlarini baholaydilar. Ba-

<1 iiy asarning estetik tomoni pedagog tomonidan bolalarga ko'rsatilishi kerak. Ana shunday o'rgatish bo'lgan taqdiridagina kichik maktab yoshidagi bolalar ularga mos bo'lgan musiqiy asarlarga emotsional baho bera oladilar.

Kichik maktab davrida shaxslararo munosabat. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U hayotining tubdan o'zgar-ganini, unga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish ham yuklatil-ganligini his eta boshlaydi. Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini bila boshlaydi. Ota-onasi, ya-qinlari, atrofdagilari unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs sifatida munosa-batda bo'ladilar. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganli-gi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgar-ganligini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan muno-sabatining o'zgarishiga asos bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituv-chiga ishonch hissi bo'lib, bunda o'qituvchining o'quvchiga ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aql sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon inson deb biladi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh urug'la-rining nufuzi keskin kamayadi. Shu sababli, bolalar o'qituvchi-ning har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar. Demak, ki-chik maktab yoshidagi o'quvchilar rivojida yetakchi bo'lgan o'quv faoliyati o'qituvchi shaxsi va o'quvchi bilan munosabat uslubining ahamiyati juda kattadir.

Kichik maktab davrida bolaning boshqa insonlar bilan mu-nosabatlarida katta o'zgarishlar ro'y beradi. Bolaning muloqoti endi aniq maqsadga qaratilgan bo'ladi. Bunga sabab bir tomon-dan o'qituvchining doimiy ravishda unga ko'rsatadigan faol ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quv jamoasining ko'rsatadigan ta'siri-

dir¹. Chunki, o'qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan ko'proq ravishda normativ talablar qo'yadi. Bundan tashqari bolaning oilasi va tevarak atrofdagi odamlar bilan ham muloqotida katta o'zgarishlar bo'ladi. Oilada endi bolani ma'lum bir majburiyat va huquqlari bo'lgan shaxs sifatida qabul qilinadi va bu o'z-o'zidan bola bilan bo'lgan munosabatlarda o'z aksini topadi. Atrofdagilar bilan munosabatda esa bola o'z «Men»ini namoyon etishga harakat qiladi. L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, faqat jamoaviy hayot ichida va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida bolaning individual xulq-atvori shakllanadi. Faqat o'qituvchigina o'quvchisiga turli qat'iy talablar qo'yib, ularning xatti-harakatlarini baholay oladi, bolaning ijtimoiylashuviga sharoit yaratib, uni huquq va burchlar — ijtimoiy mako-

ni tizimida standartlashuviga olib kela oladi. O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchining faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik

maktab yoshidagi o'quvchi faolligining asosan uch xil kohinishi mavjud bo'lib, bular: jismoniy, psixik va ijtimoiy faollikdir.

O'qituvchining dars jarayonida har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsati-

shi uchun qulay imkoniyati bor. O'quv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala-munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. «Bola-katta» munosabati «bola-ota-ona» munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. Chunki, o'qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan ko'proq ravishda normativ talablar qo'yadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'z xatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar qo'yishi, ularning xatti-harakatlarini baholashi, o'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shart-

¹ Kjibi'icBa 3.II. OSmeHne B yneSHO-BocnHTaTejibHOM npouecce KHK ifiaKTop (jtOpMHpOBaHHH JIH'IHOCTH yTaiUIIXCT HaVaJIBHBIX KJiaCCOB. —T. ABTOpe(>.

belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaq. sinfdagi, balki, umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z-o'zidan oilasidagi munosabatlarig' ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar uning o'qin^a faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi.

O'qituvchining bolaga munosabati uning o'rtoqlari va oji si bilan bo'lgan munosabatiga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, yangi muloqotning xarakteri kichik maktab yoshidagi o'quvchi ta'limining motivlarga, undagi axloqiy sifatlarning rivojlanishiga, o'z-o'ziga beriladigan bahoning shakllanishiga hamda bolaning qiziqishlari darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning o'quv faoliyati muvaffaqiyatida hamda shaxsining shakllanishi ko'p jihatdan ularning o'qituvchi bilan munosabatlaridagi o'ziga xos xususiyatlariga, sinfdagi mavqeini qay darajada anglab yetishiga, tarkib topgan o'quvchi jamoasi bilan o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'ladi.

15.5. O'smirlik davriga o'tishdagi inqiroz

Kichik maktab yoshining oxiriga kelib an'anaviy ta'lim tizimida chuqur motivatsion inqiroz kuzatiladi (ba'zan uni motivatsion vakuum ham deb ataladi). Bunda yangi ijtimoiy pozitsiyani egallash bilan bog'liq motivatsiya yo'qoladi (o'qish hayotiy majburiyatlarni biriga aylanadi), o'qishning mazmunli motivlari mavjud bo'lmaydi, shakllanmagan bo'ladi. Inqiroz belgilari quyidagilarda namoyan bo'ladi: maktabga umuman salbiy munosabat, unga borish majburiyati emas, o'quv topshiriqlarini bajarishni istamaslik, o'qituvchilarni nizolashishlar. Bola o'quv faoliyatida qanchalik kam muvaffaqiyatga erishgan bo'lsa, unga shunchalik og'ir tuyuladi.

Maktabda o'quvchining barqaror mavqei shakllangan bo'lsa, ayniqsa qulay bo'lmagan mavqeda o'smirlik davriga o'tishda ham saqlanib qoladi. Boshlang'ich sinf davrida bilim, malakalar ko'nikmalarning yetishmasligi tufayli hal qilinmagan qiyinchiliklar o'smirlik davriga o'tishda yanada chuqurlashadi. Bola hal qilishi zarur bo'lmagan, muammolar, topshiriqlarga duch kelishi

(oʻzini tekshirish va boshqalar bilan solishtirish, har xil oʻqituvchilarning talablariga, taʼlimning yangi sharoitlariga moslashish).

N.K. Polivanovning taʼkidlashicha, oʻsmirlikdan oldingi inqirozning asosiy psixologik mazmuni refleksiyaning «oʻziga qaratilishidir»¹. Oʻquv faoliyatida shakllangan refleksiv munosabat oʻz-oʻzini anglash sohasiga koʻchiriladi.

Shunday qilib, rivojlanishning ijtimoiy vaziyatini qayta qurishda turli topshiriqlarni bajarishning asosiy sharti sifatida oʻz xislatlari va koʻnikmalariga, «oʻziga yoʻnalganlik» vujudga keladi. Bolalar xarakterida kattalikka intilish kuzatiladi. Tengdoshlari bilan muloqot shaxsiy rivojlanishning koʻp jihatlarini belgilay boshlaydi.

Maktabning boshlangʻich sinfidan oʻrta sinfga oʻtgan bolalardagi ijtimoiy psixologik moslashuvning oʻziga xosliklari L.B.Bekniyazova tadqiqotlarida koʻzga tashlanadi^{1 2}. Tadqiqotchi taʼlim jarayonidagi qiyinchiliklarni oʻquvchining psixologik xususiyatlari, bilish jarayonlarining rivojlanganlik darajasi, motivatsion sohadagi oʻziga xosliklar, atrofdagilar va oʻziga boʻlgan ijtimoiy munosabatlar sistemasi bilan bogʻlaydi.

K.Q.Mamedovning fikricha, psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning maktabgacha yosh bosqichida, shuningdek, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida va oʻsmir yoshidagilarda tafakkurning soʻz-mantiq turi normal tengdoshlariga nisbatan yetarli darajada shakllanmagan³. Ammo bu xususiyatning ifodalanishi maktabgacha yoshdan oʻsmirlik yoshi tomon kamayib borishi kuzatiladi. Olim ijtimoiylashuv va mustaqil fikrlashga moyillikni ushbu jarayonning psixologik mexanizmi sifatida eʼtirof etadi. K.Q.Mamedov psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar tafakkuriga xos xu-

¹ ПожиHBaHOBa K.H.TTcHxojiorn5i BO3pacTiibix KPHBHCOB.

² BeKHHH3OHa JI. B. ncHxojiopHHecKHe oco6cHHocTH aJanTauHH y MJiajinnx

nojipocTKOB (Ha npHMepe nepcxojinoro nepnona yqamnxca OT HanajibHon K

³ Mamedov K.Q. Maktabgacha yoshdagi bolalar va oʻquvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlari: Psixol. fan. dokt. ... dis. — T.: OʻzMU, 2004. — 47 b.

susiyatlar soʻz-mantiq tafakkur turining koʻrgazmali-obrazli tafakkur koʻrinishidan ortda qolishi, intellekt koʻrsatkichlarining nihoyatda notekisligi bilan tavsiflaydi, ammo bu notekislik yosh ulgʻayishi bilan kamayib borishini taʼkidlab oʻtadi.

Sh.T.Xalikova koʻzi toʻliq ojiz, zaif koʻruvchi va koʻrish analizatori sogʻlom boʻlgan oʻquvchilar fikr yuritish jarayonini oʻzaro taqqoslab, ular bir-biriga umumiy xususiyatlari bilan ancha yaqin boʻlsa-da, lekin oʻzlarining shaxsiy xususiyatlari bilan farqlanadi, — deb taʼkidlaydi*. Uning fikricha, koʻrish nuqsonining qay darajada chuqurligi koʻzi ojiz subyektlarning taqqoslash jarayoni sifatiga oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Sh.T.Xalikova oʻz ilmiy izlanishlari natijasida koʻrish nuqsoniga ega boʻlgan kontingentlar tafakkuri umumiy, normal rivojlanish qonuniyatlariga boʻysunishini, ammo bu jarayonda oʻziga xos qonuniyatlar ham mavjud boʻlib, ular oʻquvchi imkoniyati, isteʼdodi, izlanuvchanligi, tezkorligi, topqirligi kabi xususiyatlarga va shaxsiy tipologik farqlarga bogʻliqligini taʼkidlaydi. Shuningdek, muallif koʻzi ojiz oʻquvchilar tafakkuri rivojlanishi aksariyat hollarda milliy xususiyatlar bilan ham bogʻliqligini eʼtirof etadi.

Aqliy normal va ruhiy rivojlanishi sustlashgan oʻquvchilarni oʻzaro solishtirar ekan, Sh.R.Samarova fikrlash jarayonlari (idroki, mantiqiy xotirasi, koʻrgazmali, obrazli, fazoviy, vizual tafakkur turlari hamda operatsiyalari) rivojlanishi, diqqat xususiyatlari, anglangan, ixtiyoriylik darajalari negizida oʻziga xos qonuniyatlar, taʼsir etuvchi ichki va tashqi omillar yotishini asoslab beradi^{1 2}. Tadqiqotchining fikricha, aqlan normal, ruhiy rivojlanishi sustlashgan boshlangʻich (2 va 4) sinf oʻquvchilarida fikrlash jarayonlari, yuksak funksional tizim tarkibi (ixtiyoriy diqqat) umumiy

¹ Xalikova SH.T. Koʻrishdanuqsoniboʻlgan oʻquvchilartafakkuri rivojlamshining oʻziga xos xususiyatlari (II va IV sinflar misolida): Psixol. fan. nomz. ... dis. — T., OʻzMU, 2005. - 153 b.

² Samarova Sh.R. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari fikrlash jarayonlarining diagnostikasi va dinamikasi (2-4-sinf oʻquvchilari misolida): Psixol. fan. nomz. ... dis. — T., OʻzMU, 2007. — 157 b.

xususiyatlari bilan birga maxsus oʻziga xoslikka ega boʻlganligi tufayli kognitiv tizim diagnostikasi, harakatlantiruvchi mexanizmlari, uzviyligi, uzluksizligi oʻzaro bir-biridan tafovutlanadi. Sh.R.Samarova boshlangʻich sinf oʻquvchilarida fikrlash jarayonlari, diqqatning nazorat funksiyasi diagnostikasi va dinamikasida jinsiy (gender) farqlar mavjudligi, ular oʻziga xos davriy qonuniyatlarning hosilasi sifatida gavdalanishini eʼtirof etadi.

Shunday qilib, kichik maktab yoshi 7—11 yoshli bolarlarni oʻz ichiga oladi. Bu davrda oʻqish yetakchi faoliyatga aylanadi, oʻqituvchining soʻzi bola uchun senzitiv hisoblanadi. Intellektual refleksiya bu davrda paydo boʻlgan yangi psixologik tuzilmadir.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning oʻziga xos psixologik xususiyatlari.
2. Maktabga ijtimoiy-psixologik moslashuv yoʻllari qanday?
3. Bolalar intellektual rivojlanishida kichik maktab davrining ahamiyati.
4. Oʻquv jarayoni davomida yuzaga keladigan muammolar.
5. Kichik maktab davridagi bolalar shaxsi rivojida yuzaga keladigan yangilanishlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Kichik maktab yoshi davri necha yoshlarni oʻz ichiga oladi?
 - a) 6—7 yosh;
 - b) 9—10 yosh;
 - c) 6—10 yosh;
 - *d) 7—11 yosh.
2. Kichik maktab yoshida yuzaga keladigan yangi psixologik tuzilma nimalardan iborat?
 - a) erkinlik, ish-harakat va fikrlarning ichki rejasi;
 - b) erkinlik, refleksiya va katta boʻlganligini his etish;
 - *c) intellektual refleksiya;
 - d) tashabbuskorlik, tez xafa boʻlish.

3. Kichik maktab yoshi davrida yetakchi faoliyat qaysi?
- a) predmetli faoliyat;
 - b) o‘yin va mehnat faoliyati;
 - *c) o‘qish faoliyati;
 - d) rasm chizish.
4. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishida ta’limning rolini aniqlang.
- a) jamoa shakldagi muloqot va faoliyatning shakllanishi;
 - b) kuzatuvchanlik, ixtiyoriy diqqat, ijodiy xayol, mavhum tafakkurning shakllanishi;
 - *c) bilish jarayonlarining rivojlanishi, ta’lim olishdagi muammolarni yechishda tafakkur jarayonining shakllanishi;
 - d) harakatlantiruvchi mexanizmlari, uzviyligi, uzluksizligi.
5. Kichik maktab yoshidan o‘smirlikka o‘tishdagi inqirozning belgilari nimalarda namoyon bo‘ladi?
- a) o‘z «Men»ini va o‘z psixologik xususiyatlarini anglay boshlaydi;
 - b) axloq normalari va xulq-atvor qoidalarini egallaydi;
 - *c) maktabga umuman salbiy munosabat, unga borish majburiy emas, o‘quv topshiriqlarini bajarishni istamaslik, o‘qituvchilar bilan nizolashishlar;
 - d) intellekt ko‘rsatkichlarining nihoyatda notekisligi.

XVI BOB. O‘SMIRLIK DAVRI

Reja:

1. O‘smirlik yoshida rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari.
2. O‘smirlik davrida yetakchi faoliyat.
3. O‘smir psixikasi va xulq-atvorining o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Kattalar bilan muloqotning xususiyatlari.
5. O‘smirlik davrida psixologik yangilik.
6. Shaxs rivojlanishi va o‘spirinlik davriga o‘tishdagi inqiroz.

Mavzu o‘quv maqsadi:

Tarbiyaviy: O‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari, ularning ong va dunyoqarashining shakllanishini tushuntirish orqali talabalarni o‘z-o‘zini anglashga, tahlil qilishga, tarbiyalashga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: Talabalarning o‘smirlik yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ular bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni yechish ko‘nikma-malakalarini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: o‘smir, yetakchi faoliyat, muloqot, psixologik yangilik, o‘z-o‘ziga baho berish, jinsiy yetilish jarayoni, o‘spirinlik davriga o‘tishdagi inqiroz.

16.1. O‘smirlik yoshida rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari

O‘smirlik 10—11 yoshlardan 14—15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o‘smirlar o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘shish oldinroq namoyon bo‘lmoqda. Aksariyat o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas» ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O‘smirlik — bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning

salarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Bo'yga o'sish bir tekis bormaydi: qiz-bolalar 5—7 sm o'ssalar, o'g'il bolalar 5-10 sm o'sadilar. Bo'yiga qarab o'sish paysimon ilk suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro'y beradi.

Og'iz bo'shlig'i va halqumdagi o'zgarishlar oqibatida tovush tembri ham o'zgaradi. Bu o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'proq darajada sodir bo'ladi. O'g'il bolalarning tovushi vazminroq bo'lib qoladi, do'rillaydi.

Garchi bu davrda mushaklar tez sur'at bilan o'ssa ham, mustahkamlashsa ham, lekin baribir oyoq va qo'l suyaklarining o'sish sur'ati orqada qoladi. O'smirlarda bu xususiyat ularning beso'naqay xatti-harakatlarida, yurish-turishlaridagi qo'polikka, katta-katta odim tashlashlariga sabab bo'ladi.

Fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon bo'ladi. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekretiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to'qimalarining o'sishi va muhim ichki sekretiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak usti bezi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo'y o'sishi tezlashadi, jinsiy balog'atga yetish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo'lishi) amalga oshadi. Ko'krak qafasi ham gavdaning bo'y o'sishiga nisbatan sekin rivojlanadi. Buning natijasida ayrim o'smirlarning yelkasi, ko'kragi tor bo'lib qoladi, bu esa o'z navbatida kislorod yetishmasligiga, nafas qisishiga olib keladi. Kislorod yetish-

masligi natijasida ruhiy faoliyatga putur yetadi. Bu davrda yurak kengayishi bilan qon tomirlari ham yo'g'onlashadi. Qon aylanish sistemasining qayta qurilishi, vegetativ nerv sistemasidagi barqarorlik qon aylanishini buzadi va o'smirda ba'zi qon bosimining ortishi ro'y beradi.

Bu davrda ayniqsa jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. O'smirda ro'y beradigan biologik-jismoniy o'zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. O'smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Jinsiy yetilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir.

O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. O'smirlik davri «o'tish davri», «krizis davr», «qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni «psixik rivojlanishdagi inqiroz» deb nomlagan. Kichik maktab davridan so'ng bola alohida olingan shaxs sifatida o'z-o'ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o'smirlik yoshini ikki xil davrga — kichik o'smirlik davri va katta o'smirlik davrlariga to'g'ri keladi. Birinchi bosqichda o'smir o'zini «bola»lardan ajratib, endi o'zini kattalar olamiga mansubligini ta'kidlamogchidek bo'ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o'smirlarning asosiy xarakteristikalari hisoblanadi.

Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o'zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho berilmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo'lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog'liq

boʻlib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda oʻsmir endi oʻzining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va oʻzligini aniq anglay boshlaydi, oʻz shaxsini ulugʻlab, oʻziga xos harakatlar qila boshlaydi. Oʻsmirlarni oʻz shaxslari haqidagi fikrlar koʻproq qiziqtiradi, ular oʻzlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar.

Oʻsmirlik davrida ichki erkinlikning oʻsishida, oʻz-oʻzini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat oʻzgarishlari yuz beradi. Bunday oʻzgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funktsiya sifatida oʻsmirning erkin harakat qilish quroli, shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizigʻi boʻlib hisoblanadi. Bu davrga kelib uning harakatlari oʻzi bilan oʻrtoq boʻlgan bir guruh tengdoshlariga bogʻliq boʻlmay qoladi. Oʻrtoqlari oʻsmirga oʻzi toʻgʻrisidagi notoʻgʻri tasavvurlardan qaytib, jiddiy oʻylab koʻrishga uni majbur qilmoqchi boʻlganlarida ham u bemalol rad javobini berishi va oʻz fikrida qatʼiy turib himoya qilishi mumkin. Bu davrda oʻzga kishilarning ichki dunyosiga ortiqcha qiziqish bilan qarash va oʻz xatti-harakatlarini oʻzi tahlil qilish, oʻz-oʻzini tarbiyalashning elementlarini yuzaga kelishi mana shu ikkinchi bosqichdagi oʻsmirlar hayotiga xos xususiyatlardir. Oʻsmirlik davriga koʻpincha soʻzga kirmaslik, oʻjarlik, tajanglik, oʻz kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. Oʻsmirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obroʻlarini koʻradilar hamda havas qiladilar. Oʻsmirda katta yoshli odam boʻlishga yoki hech boʻlmaganda katta yoshli odam boʻlib koʻrinishga qiziqish, intilish paydo boʻladi va bu xohishni amalga oshirish unga osondek boʻlib koʻrinadi. Oʻsmirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining oʻzaro mos kelmasligi oʻsmirlar bilan ota-onalari, oʻqituvchilari va boshqa murabbiylari oʻrtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi.

Oʻsmir oʻzining juda koʻp istaklari, «xohlayman»larini amalga oshirishga intiladi: katta yoshli odamlar ega boʻlgan ham-

ma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo'lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, qo'rqmas va epchil bo'lishga intiladi. Tarbiyachilar ham o'z tarbiyalanuvchilari xuddi shunday bo'lishlarini istaydilar, ammo ular ana shu fazilatlarining faqat «kerakligi» uchun shunday bo'lishini istaydilar. Ana shunday «xohlayman» va «kerak» o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ba'zan oilada, maktabda keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Tarbiyalangan odamda «xohlayman» faqat «kerak»ni bajarish orqaligina amalga oshiriladi. Agar o'smir bola tushunishga o'rgatilmagan bo'lsa va «kerak» bo'lgan narsani bajarishga odatlanmagan bo'lsa, u o'zboshimchaligini namoyon qilish orqali tarbiyachilarning talablariga qarshilik qiladi hamda o'zining shaxsiy asoslanilmagan xohishlari asosida ish tutadi. O'smirning yangi huquqlarga da'vosi, avvalo, kattalar bilan o'zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo'ladi. O'smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko'rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo'naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u juda xafa bo'ladi va norozilik bildiradi. O'smirda o'z qadrini bilish hissi paydo bo'ladi va u o'zini kamситish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo'lmagan inson, deb biladi. Bolalikdagi kattalar bilan bo'lgan munosabat haqidagi fikrlari o'zgaradi va uning o'z kattaligi darajasi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelmay qoladi. U kattalar huquqini cheklaydi, o'zinikini esa kengaytiradi. Kattalarning o'z shaxsi va insoniylik qadrini hurmat qilishlarini xohlaydi, ishonch va mustaqillik namoyon etishga da'vo qiladi, ya'ni kattalar bilan ma'lum teng huquqlilikka va ularning shu narsani tan olishlariga erishishga harakat qiladi.

O'smirlik davriga kimningdir xatti-harakatini imitatsiya qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar.

O'smirlarbu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. O'smir katta odam, shuningdek, chekuvchi, ichuvchi singari yangi rollarda o'zini noqulay his qiladi. 1'sixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin bo'lgan o'smirda juda ko'p noqulay va tashvishga (ushuvchi holatlar bo'ladi va ular o'smirda krizisni yuzaga keltirishi ib chiqaradi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi, shuningdek, psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirning asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdegilar, kattalar, shuningdek, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo'ladi va o'smirlik davri inqirozi yuzaga keladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg'izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o'jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning kechishida namoyon bo'ladi. Bunday paytlarda u o'zi singari katta fiziologik, psixologik o'zgarishlar kechayotgan o'rtog'i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do'sti o'smiringa ijobiy ta'sir qiladimi yoki uni yo'ldan urib, yomon ta'sir qiladimi — bu narsa uning axloqiy qiyofasi bilan bog'liq.

O'rtoqlarining ta'siri ostida o'smir o'zining ehtiyojlari va istaklarini qondirishi mumkin. Agarda bundan qanoatlanish unga katta mamnunlik bag'ishlarsa, bunday hollarda uning ba'zi bir harakat yoki qiliqlarga nisbatan bo'lgan tasodifiy qiziqishlari dastavval ishtiyoqqa, undan keyin ehtiros yoki odatga aylanishi mumkin. Ana shunday yo'l bilan o'quvchilarda, masalan, matematikaga, fizika yoki ximiyaga, duradgorlik, slesarlik yoki qandaydir boshqa bir ishlarga nisbatan ishtiyoq yuzaga keladi,

ammo o‘quvchilar xuddi shunday yo‘l bilan yolg‘onchilikka, bezorilikka va boshqa axloqsiz xatti-harakatlarga ham o‘rganib qolishlari mumkin.

O‘smirlik davridagi barcha nomunosib harakatlar bir onda o‘tib ketadigan xohishlarning ko‘pligidan va kelib chiqadigan oqibatni nihoyatda yuza tarzda ko‘ra bilishlikdan kelib chiqadi. Deyarli barcha zararli xohishlar oldin zararsiz va yengillik bilan amalga oshiriladigandek bo‘lib ko‘rinadigan ko‘ngil ochish tarzidagi ishlardan boshlanadi. Biroq, aslida esa bu ishlarni amalga oshirishga o‘smirlarning imkoniyatlari yetmaydi. Bunga shaxs taraqqiyotining tabiiy ehtiyojlari ta’sir qiladi. Agarda o‘smir bolalar faqat bajara oladigan ishlarni qilganlarida edi, ular o‘zlarining psixik xususiyatlarini rivojlantira olmagan bo‘lar edilar. O‘smirlar, o‘zlarining turli xil xohishlarini bevosita qondirishdan bo‘lak narsani ko‘ra olmaydilar va bunday xohishlar xatarli oqibatlariga tomon yo‘llaganda o‘zlarini vaqtida to‘xtatib qola olmasliklari ham mumkin. O‘quvchilarni o‘z xatti-harakatlarining oqibatlarini oldindan ko‘ra bilishga va o‘zlarini tuta bilishga o‘rgatish tarbiyachilarning asosiy vazifasidir.

O‘smirlar haddan tashqari g‘ayratli va besaramjon bo‘ladilar, ular uchun bekorchilik juda og‘irdir, bir xil tarzidagi ishlardan tezda toliqadilar, bir xildagi ish bilan qiziqmay qo‘yadilar, bu esa ularning ta’lim jarayonlari muvaffaqiyatiga kuchli ta’sir qiladi. Binobarin, o‘smirlarga muvaffaqiyatli ta’lim va tarbiya berishda ularni turli faoliyatlarga qiziqtirish va turli xil foydali mashg‘ulotlarga jalb qilish hamda qiyinroq, lekin kuchlari yetadigan ishlar bilan shug‘ullantirish nihoyatda muhimdir.

«O‘smirlik yoshining mohiyati shundan iboratki, o‘smir bir-muncha faolroq ijtimoiy muhitga yetilgan bo‘lib, bolalik chog‘ida vujudga kelgan eski munosabatlarni buzib, ana shu muhit uchun kurasha boshlaydi». Har bir o‘smir muvaffaqiyatli ishlar bilan tevarak-atrofdagi odamlar o‘rtasida o‘z shaxsini tasdiqlashga intiladi.

Kattalar o‘smirlarning foydali jamoa ishlarida muvaffaqiyatga erishishlarida yordam berishlari va bu bilan ularning o‘z

qadr-qimmatlarini namoyon qilishlariga imkon berishlari lozim. Aks holda ular boshqalarning oldida o'zlarini yuqori qo'yishlari, bepisandlik qilishlari mumkin. Buni ular o'zlarining qadr-qimmatlari tan olinmaganligi yoki kamsitilganligiga qarshi chiqib, salbiy ishlar va xatti-harakatlar orqali amalga oshirishlari mumkin bo'ladi.

O'smirlar nihoyatda taqlidchan bo'lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo'ladi. Ular tashqi ta'sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladilar. Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay, o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. O'smirlarga farosatlilik, tejamkorlik, ehtiyotkorlik va uzoqni ko'ra bilishlik kabi psixik xususiyatlar hali yetishmaydi. Tengdoshlari, shuningdek, sinfdoshlari guruhida o'smir o'zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. O'smir o'z guruhiga bog'liq va qaram bo'lgani holda shu guruhning umumiy fikriga qo'shilishiga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor bo'ladi. Guruh ko'pincha o'smirda «biz» hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustahkamlaydi. O'smir yoshdagi bola uchun do'st tanlash juda katta ahamiyatga ega. O'smirlik davrida do'stlik juda qadrli hisoblanadi. Do'stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj o'smir do'stlarning hol-ahvol so'rashishi va ko'rishishlarida (qo'l berib, quchoq ochib ko'rishish) birga o'tirish va birga yurishga harakat qilishlarida ko'rinadi. Ko'pgina ana shunday juda yaqin munosabatlar, o'smirlarning shaxs bo'lib shakllanishida, hamkorlikdagi harakatlarining izi inson qalbi va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

O'smir yoshlarning xulq-atvori va faoliyatlarida ba'zan o'zlarning kuchlari yetmaydigan qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi. Asosiy qarama-qarshilik juda ko'p orzu-tilaklarni vujudga keltiradi

ruvchi, jadal ortib borayotgan jismoniy, ma'naviy va moddiy ehtiyojlar bilan ularni qondirish uchun nihoyatda cheklangan hamda ko'p jihatdan yetarli bo'lmagan imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. O'smirning o'z kuchiga to'la ishonmasligi uni butun vositalar bilan shunchaki o'zini katta kishi bo'lib qolganligini ta'kidlashga majbur qilibgina qolmay, shu bilan birga bu tuyg'uni yetarli baholay olmaslik holatini ham vujudga keltiradi. Bu o'z navbatida kattalarga qo'pol munosabatda bo'lish va agresivlikni hamda ota-onalar bilan o'qituvchilarning maslahat va talablarini pisand qilmaslik kabi xulq-atvor alomatlarini ham keltirib chiqaradi.

«Oltinchi sinf muammolari»ga bag'ishlangan tadqiqot ishi-da shu yoshdagi bolalarning xulq-atvor xususiyatlari va turli xil fanlar bo'yicha o'zlashtirishning pasayishi bilan bog'liq bo'lgan muammolarning o'sib borishi quyidagicha namoyon bo'lgan: oltinchi sinf o'quvchilari to'rtinchi sinfga nisbatan 6 marta ko'proq qaysarlik qilishlari, 10 marta ko'proq o'qituvchilarga qarshilik ko'rsatishlari, 7 marta ko'proq boshqalar irodasiga to'sqinlik qilishlari, 9 marta ko'proq boshqalar kamchiliklariga e'tibor berishlari, 5 marta ko'proq faqat o'z xohish-istaklariga bo'ysunishlari va nihoyat 42 marta ko'proq o'z xatti-harakatlari motivlariga ega bo'lmasliklari aniqlangan (Krakovskiy A.P. 1970).

16.2. O'smirlik davrida yetakchi faoliyat



O'smirlik davrida yetakchi faoliyat shaxsiy intim muloqotdir. O'smirlik davrida yetakchi faoliyat — bu o'qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir. O'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi — bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir. O'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysunadi. O'smirlarni o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi g'oyat katta ahamiyatga egadir. O'smirlar do'stlik, o'rtoqlik va o'zaro yordamlashuvni hamma narsadan yuqori qo'yadilar: ana shunday o'zaro munosabatlar, o'spirinlik yillarida ham davom eta beradi. Bunda o'smirlar va ilk yoshdagi o'spirin o'quvchilarniig xulq-atvorlariga do'stlari ota-onalar va pedagoglarga nisbatan bir necha marta kuchliroq ta'sir etadilar. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, o'smir bolaning yetilmaganligi va tajribasizligi uni tevarak-atrofdagi kimsalardan madad axtarishga majbur qiladi. O'smir bolaga uning istaklarini tushunadigan va ularni amalga oshirishga yordam beradigan do'st kerak. O'smirning do'stlari bilan muloqoti ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tengdosh bolalar bilan prinsipial tenglik holatidagi munosabatlar muhitiga nisbatan o'smirda alohida qiziqish bo'ladi. Bu hol o'smirida yuzaga keladigan shaxsiy kattalik hissining etik mazmuniga mos keladi. Kattalar bilan muloqotda bo'lish tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotning o'rnini bosa olmaydi.

O'smir uchun tengdoshlari bilan bo'lgan muloqot u mustaqil harakat qiladigan o'zining shaxsiy munosabatlari muhitiga ajraladi. U bunga haqqim bor, deb o'ylaydi, o'z huquqlarini himoya qiladi va aynan shuning uchun ham o'rtoqlari bilan bo'lgan munosabatga kattalarning o'rinsiz, qo'pol aralashuvi o'smirning xafagarchiligiga va noroziligiga olib keladi.

O'smirida tengdoshlar bilan muloqot qilish va hamkorlikdagi faoliyatga intilish yaqqol namoyon bo'ladi. Jamoa hayoti bilan yashash, yaqin o'rtoqlar, do'stga ega bo'lish xohishi — do'stlar tomonidan qabul qilingan, tan olingan, hurmat qilingan bo'lishdek kuchli xohishdir. Bu o'smirning muhim talabiga aylanib boradi.

O'smir uchun eng yoqimsiz vaziyat — jamoa va o'rtoqlarining noroziligi, muloqot qilishni istamaslik, eng og'ir jazo esa — ochiq yoki nooshkor aloqa uzish, gaplashmaslikdir.

O'smirlar do'stlik kodeksining muhim me'yorlari — sha'nini hurmat qilish, tenglik, sodiqlik, do'stga yordam, to'g'riso'zlik.

Do'stlik me'yorlarini egallash bolaning o'smirlikdagi muhim yutug'idir.

Agarda u bunday do'stni qarindoshlari va pedagoglari orasidan topa olmasa, unday paytda u o'z qiziqishlari va intilishlarini qo'llab-quvvatlaydigan hamda undagi kamchiliklarni nimalar bilandir to'ldira oladigan odamni begona katta kishilar yoki o'z tengqurlari orasidan albatta topadi.

O'z tengdoshlari bilan tenglik asosida qilingan munosabat asosida o'smir alohida bir ijtimoiy munosabatlar maktabini o'taydi. O'zaro qiziqishlar, atrof dunyoni, bir-birlarini o'zligini anglashlari va tushunishlari ular uchun juda qimmatlidir. O'smirlar uchun uy vazifalari, uy ishlari bo'yicha majburiyatlarni bajarishga qaraganda tengdoshlari bilan muloqot qilish muhimroqdir. O'z sirlarini bola endi ota-onasiga emas, balki tengdoshiga ko'proq ishonadi. O'z tengdoshlari bilan muloqot va munosabat jarayonida o'z shaxsini erkinlik bilan to'la namoyon eta oladi. Shaxsiy erkinlikni u katta bo'lish huquqi deb anglaydi. O'smirning o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligini yaxshi bilgan tajribali o'qituvchilar sinfda ham o'quvchilarning ayrim kichik-kichik guruhlari orasida ijobiy ijtimoiy fikrni shakllantirishga katta e'tibor beradilar, o'smirlarga ularning yaqin do'stlari orqali ta'sir ko'rsatishga harakat qiladilar. Ayrim o'quvchilarning (ayniqsa o'qishda o'rqada qoladigan va «tarbiyasi qiyin» bo'lgan o'quvchilarning) sinf jamoasidagi shaxslararo munosabatlar tizimidan «tushib qolishlariga» yo'l qo'ymaydilar.

O'rtoqlarining ta'siri ostida o'smir o'zining ehtiyojlari va istaklarini qondirishi mumkin. Agarda bundan qanoatlanish unga katta mamnunlik bag'ishlarsa, bunday hollarda uning ba'zi bir harakat yoki qiliqlarga nisbatan bo'lgan tasodifiy qiziqish-

lari dastavval ishtiyoqqa, undan keyin ehtiros yoki odatga aylanishi mumkin. Ana shunday yo'l bilan o'quvchilarda, masalan, matematikaga, fizika yoki ximiyaga, duradgorlik, slesarlik yoki qandaydir boshqa bir ishlarga nisbatan ishtiyoq yuzaga keladi, ammo o'quvchilar xuddi shunday yo'l bilan yolg'onchilikka, bezorilikka va boshqa axloqsiz xatti-harakatlarga ham o'rganib qolishlari mumkin.

16.3. O'smir psixikasi va xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlari

Ijobiy sifatlar, ehtiyojlar va intilishlar har bir yoshda, jumladan, ma'lum darajada yo'ldan ozgan o'smirda ham bo'ladi. O'smirlar hamma narsani bilishga qiziqadilar. Ko'pchilik o'smirlar boshqalardan yomonroq bo'lishni xohlamaydilar va o'z muhitida ko'zga tashlanib turishga hamda boshqalardan nimalar bilandir farq qilishga intiladilar. O'smirlarning hammasi g'ayratli va faoldirlar, biroq, o'zlarining kuch-quvvatlarini qayyoqqa yo'naltirishni hamma vaqt ham bilavermaydilar. Binobarin, ularni bevosita natijalari bilan xursand qiladigan xilma-xil foydali va qiziqarli ishlar bilan band qilish kerak. O'smirlar, garchi hamma vaqt ham bunga tayyor emasliklariga qaramay, mustaqillikka intiladilar. Ammo ko'pincha mustaqil ish-harakatlar uchun ularning imkoniyatlari bo'lmaydi. Demak, ularni mustaqil faoliyatga yaxshiroq tayyorlash va ularga mustaqil ishlarni ishonib topshirish hamda muvaffaqiyatli bajarilishini hamma vositalar bilan ta'minlash kerak. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, o'smirlar psixikasida ijobiy tomonlar yetarli darajada mavjuddir. Bu ijobiy tomonlardan foydalanib va ularni rivojlantirish, salbiy ishtiyoq, mayl, ishlar va xatti-harakatlarni yo'qotish kerak.

Katta o'smirlar asta-sekinlik bilan bevosita ishlari va xatti-harakatlarining natijalarini hamda oqibatlarini oldindan ko'ra boshlaydilar. Ularda o'z-o'zini tuta bilish, matonat paydo bo'ladi, qarorlari birmuncha qat'iy bo'la boshlaydi, iroda tarkib topadi. Ular o'zlarining faoliyatlarida ishtiyoq va istaklardan ko'ra

ko‘proq sog‘lom fikrga asoslanadigan bo‘ladilar. Ularning ichki kechinmalari va hayajonlari endi irodaviy nazoratga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Lekin axloqiy va estetik hislarning taraqqiyoti tufayli ichki kechinmalari va hayajonlari yanada kuchliroq bo‘ladi. Kattalarga nisbatan qo‘pol munosabatning paydo bo‘lishi, noxush xulq-atvor alomatlari, o‘smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar, uning tengdoshlari va turli jamoalardagi mavqei, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o‘zgartirish yo‘li bilan o‘smirlarning xulq-atvoriga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatish mumkin.

Endi o‘smirlar o‘yin hamda damga kamroq vaqtlarini ajratgan holda ko‘proq jiddiy ishlar bilan shug‘ullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi. Maktab ta‘limi o‘smir bilish jarayonlarini rivojlanish yo‘nalishini sifat jihatidan o‘zgarishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘qish o‘smirlar hayotida katta o‘rinni egallaydi. Ular uchun mashg‘ulotlarning mustaqil shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o‘smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari, qiziqishlarining ortishi, o‘qituvchining o‘quv materialini tushuntira olish mahoratiga bog‘liq. O‘qish faoliyati asosida o‘smirning o‘z-o‘zini anglash darajasi kengayadi, boshqa odamlar, atrof olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. Bilim o‘rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan o‘quv fanlariga nisbatan qat‘iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o‘qishning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar o‘smirning, hayotiy rejalari, kelajak kasbi va ideali bilan bog‘liq bo‘lgan holda bilish jarayonlari rivojlanish xarakteriga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Aynan o‘smirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo‘ladi. Bilim o‘smirlarga alohida bir quvonch bag‘ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi.

Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq ogʻzaki va yozma mavjud boʻlishi bilan kuchli vosita hisoblanadi. Maktabdagi oʻquv jarayonlarining toʻgʻri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan oʻsmir nutqining toʻgʻri rivojlanishiga qulay sharoit yaratiladi. Nutqni oʻzlashtirishga harakat bu oʻsmirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirishiga ehtiyoj va intilish hisoblanadi.

Oʻsmirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan soʻz boyligining oshishi hisobiga boʻlsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea va hodisalarning mazmun-mohiyatini anglashlari hisobiga boʻladi. Bu davrda oʻsmir til yordamida atrof-borliqni aks ettirish bilan bir qatorda inson dunyoqarashini ham belgilab berish mumkinligini his qila boshlaydi. Aynan oʻsmirlik davridan boshlab, inson nutqbilishjarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi. Oʻsmirni koʻpincha muomalada soʻzlarni ishlatish qoidalari — «Qanday qilib toʻgʻri yozish kerak?» «Qanday qilib yaxshiroq aytish mumkin?», «Nima deyish kerak?» kabi savollar juda qiziqtiradi. Oʻsmirlar maktabdagi oʻqituvchilar, kattalar, ota-onalar nutqidagi kamchiliklariga, kitob, gazeta, radio va televidenie diktorlari xatolariga tez eʼtibor beradilar. Bu holat oʻsmirning bir tomondan oʻz nutqini nazorat etishga oʻrgatsa, ikkinchi tomondan kattalar ham nutq qoidalarini buzishlari mumkinligini bilishlariga va oʻzida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib keladi.

Oʻsmir soʻzlarning kelib chiqish tarixiga, ularning aniq mazmuni va mohiyatiga juda qiziqadi. U endi oʻz nutqida yosh bola singari emas, balki katta odamlardek soʻzlarni tanlab ishlatishga harakat qiladi. Nutq madaniyatini egallash borasida oʻsmir uchun oʻqituvchi, albatta, namuna boʻlishi shartdir. Aynan maktab taʼlimi oʻsmir bilish jarayonlarini rivojlanish yoʻnalishini sifat jihatidan oʻzgarishida asosiy omil boʻlib xizmat qiladi. Maktabdagi oʻquv jarayonlarining toʻgʻri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan oʻsmir nutqining toʻgʻri rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Nutqni oʻzlashtirishga harakat bu oʻsmirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirishishiga ehtiyoj va intilish hisoblanadi.

O‘smirlik davrida o‘qish malakalari, yozma va monologik nutq jadal rivojlanadi. 5-sinfdan boshlab to 9-sinf-gacha o‘qish to‘g‘ri, tez va ifodali bo‘lish darajasidan, yoddan ifodali, ta’sirli aytib berish darajasigacha ko‘tariladi. Monologik nutq esa asarda-gi kichik bir parchani qayta so‘zlab berishdan, mustaqil ravish-da nutq va chiqishlar tayyorlash, og‘zaki — mulohaza yuritish, fikr bildirish va ularni asoslab berishgacha o‘zgaradi. Yozma nutq ham rivojlangan holda o‘smirlar endi ularga berilgan erkin mavzu bo‘yicha mustaqil holda insho yoza oladilar. O‘smirlarning nutqi to‘la tafakkur bilan bog‘liq holatida amalga oshiriladi. 5—6-sinf-lardagi o‘quvchilar og‘zaki va yozma matn uchun reja tuzib, unga amal qila oladilar. O‘zi yozgan fikrni qayta-qayta o‘qib, o‘z nut-qini analiz qilib ko‘rishga majbur qiladi. O‘quvchi yozib bayon qilayotganida, ko‘pincha, bu ishini bir necha marta qayta ko‘rib chiqishga, o‘zgartirishga, to‘ldirishga, qaytadan ishlab chiqishga majbur bo‘ladi.

O‘quvchi o‘qituvchining topshirig‘iga binoan yozma ishlar ba-jarayotganida o‘zining shu ishiga baho berilishini, ammo bu ba-ho ishning faqat mazmuniga qarabgina berilib qolmasdan, balki shu bilan birga, o‘z fikrining «qanday til» bilan bayon qilingani-ga qarab ham baholanishini oldindan bilib turadi. Mana shu hol-larning hammasi bolani o‘z nutqini grammatika va logika ta-lablariga muvofiq keladigan qilib, ongli ravishda tuzishga majbur etadi. Adabiyot darslari bilan shug‘ullanish o‘quvchilar nutqining o‘rishiga ayniqsa katta ta’sir qiladi. O‘quvchilar adabiyot darsla-rida to‘g‘ri tuzilgan nutqning eng yaxshi namunalari bilan tani-shadilar.

Bolalarning yozma nutqni egallashlari ularning nutqini o‘sti-rishda muhim bosqich bo‘ladi. O‘quvchi yozma nutqni to‘g‘ri tushunishni o‘rganib oladi, o‘z fikrlarini yozma nutq holida ba-yon qilish va boshqalarga tushuntirishni o‘rganadi. Kitob o‘qish va ayniqsa o‘zidagi fikrlarni yozma tarzda ifodalab, bayon qilib berish tilning grammatika tuzilishini egallashda katta ahamiyat-ga ega. Yozma bayon qilish vaqtida fikrni to‘liq tushuntirib be-

riş zarurligi o‘quvchini o‘zi yozayotganlarining mazmunigagina diqqat qaratmasdan, balki qanday qilib yozayotganligiga ham e‘tibor berishga majbur etadi.

Yozma nutqni egallash og‘zaki nutqni va ayniqsa monolog nutqni to‘g‘ri va kengroq qilib tuzishga yordam beradi.

O‘quvchi maktabda berilgan topshiriqni tayyorlash vaqtida shu topshiriqni o‘ziga-o‘zi gapirib berishni muttasil mashq qilib turishi o‘quvchi nutqining o‘shishiga katta ta‘sir qiladi. O‘quvchi darslarni tayyorlayotgan vaqtda shu darslarni kitobdan o‘qibgina qolmasdan, balki, odatda, u kitobdan o‘qigan narsalarini kitobni yopib qo‘yib, o‘z-o‘ziga yoki yonidagi sherigiga so‘zlab ham beradi. Bunday hollarda o‘quvchi o‘zi tayyorlayotgan darsni grammatika qoidalariga to‘g‘ri rioya qilgan holda ayniqsa, tushunarli qilib og‘zaki gapirib berishga intiladi. O‘qituvchi o‘quvchining nimalarni bilganligi va bilganlarini qanday gapirib berishi bilangina kifoya qilmasdan, balki, shu bilan birga, shu bilgan narsasini qanday qilib va qay tariqa gapirib berayotganiga ham e‘tibor berishini o‘quvchi yaxshi tushunadi.

O‘quvchi ovoz chiqarib, aynan yoki o‘z so‘zlari bilan takrorlash yo‘li bilan o‘zining artikulyatsiya apparatini mashq qildiradi, o‘z nutqining qay darajada to‘g‘riligini nazorat qiladi, shu bilan birga o‘zi o‘zlashtirgan bilimlarning to‘g‘riligini va mustahkamligini ham nazorat qiladi.

Albatta, o‘quvchi nutqining o‘shishida o‘qituvchining nutqi katta rol o‘ynaydi, chunki o‘qituvchining nutqi o‘quvchilar uchun namunali nutq hisoblanadi. Shu sababli, har bir o‘qituvchi o‘quvchilar nutqini o‘stirishga intilib, o‘zi ham o‘z nutqini takomillashtirish ustida to‘xtovsiz va tinmay intilishi lozim.

Diqqat. Agar kichik maktab davrida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qilsa, o‘smirlik davrida bola o‘z diqqatini o‘zi boshqara oladi. Dars davomida intizomning buzilishi aksariyat hollarda o‘quvchilar diqqatsizligidan emas, balki ijtimoiy sabablar bilan belgilanadi. O‘smir o‘z diqqatini to‘la ravishda o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan va yuqori natijalarga erishishi mumkin bo‘lgan faoliyat-

larga qarata oladi. O'smirning diqqati yaxshi boshqariladigan va nazorat etiladigan darajada rivojlangan bo'lishi mumkin. Bola-ning rivojlanayotgan ixtiyoriy diqqati o'qituvchi tomonidan doimo qo'llab-quvvatlanishi juda zarurdir. Pedagogik jarayonda ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqat darajasiga ko'tarish uchun bir qancha uslublar ishlab chiqilgan. Shuningdek, o'smirning dars jarayonida o'z tengdoshlari orasida o'zini ko'rsatishi uchun sharoitni yaratilishi ham o'smirdagi diqqatni ixtiyorsizdan ixtiyoriyga aylanishida zamin bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'smirlik davrida juda qattiq charchash holatlari ham bo'lad-i. Aynan 13—14 hamda 16 yoshlarda charchash chizig'i keskin ko'tariladi. Bunday holatlarda o'smir atrof-dagi narsa va voqealarga to'liq diqqatini qarata olmaydi.

O'smirlik davrida xotiraning barcha turlari o'zining sifat ko'rsatkichlari asosida jadal rivojlanadi. Bu davrda o'quvchilarga beriladigan o'quv materialining hajmi katta bo'lgani uchun ham uni eslab qolishi yoki bir necha marta takrorlash yo'li bilan o'zlashtirish qiyin. O'smirlik yoshida bolalar o'qigan va o'rgan-ganlarini so'zma-so'z yodlashdan voz kechib uning ma'nosiga ko'ra eslab qolishga harakat qiladilar. Ularda faol ravishda mantiqiy xotira rivojlanib boradi. Mexanik xotiraning rivoji esa bir-muncha sustlashadi. Bu esa ba'zan salbiy holatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. O'smirlik davriga kelib yangi fanlar, jum-ladan, o'quvchilar eslab qolishi zarur bo'lgan ma'lumotlar miq-dori ko'payadi. Ammo mexanik xotiraning sustlashuvi ma'lumot-larni eslab qolishda muammolarni keltirib chiqaradi va o'smirlar tomonidan xotiralari zaiflashuvi haqidagi shikoyatlariga va o'z-o'zidan o'qishga bo'lgan qiziqishlarining pasayishiga sabab bo'li-shi mumkin. Buning uchun o'quvchi o'quv materialining maz-munini tahlil qilishi, undagi mantiqiy tuzilishni bilishi muhim.

O'smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof-olamda-gi bog'lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishida kes-

kin rivojlanish sodir bo'ladi. Ilmiy-nazariy bilimlarning egallab olinishi o'smir tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyati paydo bo'ladi.

Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi. J.Piajening ta'kidlashicha, «Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri — til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi». Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

11—12 yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O'smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o'rgana boshlaydi. O'smir tafakkurning nazariy darajasiga qanchalik tez ko'tarila olishi, o'quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini ham rivojlani-shini belgilab beradi. O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o'ta qiziquvchanlik hamda atrof-dagilarga o'z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek, ularda yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O'smirning kattalarga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan o'sha masala doirasida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar turli farazlarni keltira oladilar, taxminiy fikr yuritib, tadqiqot o'tkaza oladilar hamda ma'lum bir masala bo'yicha muqobil variantlarni taqqoslay oladilar. O'smir tafakkuri ko'pincha umumlashtirishga moyil bo'ladi. Respublikamizning bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tishida kishilardagi amaliy tafakkurning ahamiyati oshmoqda. Amaliy tafakkur tizimiga quyidagi aqliy sifatlar kiradi: tadbirkorlik, tejamkorlik, hisob-kitoblik, yuzaga kelgan muammolarni tez yecha olishlik va boshqa shu kabi sifatlar mavjud bo'lgan taqdirdagina amaliy tafakkurni rivojlangan deb hisoblash mumkin. Bu sifatlarni 1-sinfdanoq rivojlantira borish nihoyatda muhim.

O'smirlik davrida ishbilarmonlik sifatini o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishini yo'lga qo'yishi, umumiy foydali tadbirkor-

339

lik ishlarida ishtirok etishi orqali rivojlantirish mumkin. Bu borada o'quvchi ijrochi rolida emas, balki boshqaruvchi, mustaqil yo'l tanlovchi va tadbirkorlik munosabatlarida o'zi ishtirokchi bo'lgan taqdirdagina rivojlanish amalga oshishi mumkin. Bu yoshda tadbirkorlikni rivojlantirishda ko'proq mustaqillikning berilishi o'smir amaliy tafakkurining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'smir yoshdagi bolalarda tejamkorlikni rivojlantirish aqlning boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko'proq ularni qiziqtiradigan narsalarga mustaqil ravishda hisob-kitob qilib borishga yo'llash orqali amalga oshirish mumkin, o'smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda yechish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi. Albatta, bu bolaning temperamentiga ham bog'liq. Barcha o'smirlarni ham tez yo'llab, tez harakat qilishga o'rgatish mushkul, lekin ularni biror muammo yuzaga kelishi bilan orqaga chekinmay, zudlik bilan muammoni yechishning umumiy qoidalariga o'rgatib borish mumkin. O'smirlik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi qimmatli va obro'li hisoblanadi. O'smir shaxsida va uning bilishga qiziqishidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurning rivojlanishi bilan belgilanadi.

O'smirlarning ota-onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti xarakteri ularning katta bo'lganlik hissi asosida tuzilgan bo'ladi. Kattalar tomonidan qilinadigan o'smirlarning haq-huquqlarini cheklashlariga bildirgan qarshilik va e'tirozlariga o'zlari ham qattiq qayg'uradilar. Ular muloqotda kattalarning qo'llab-quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat o'smirlarga kattalarni yaxshiroq tushunishlari uchun yordam beradi. O'smir o'zida bo'layotgan o'zgarishlar, uni tashvishga solayotgan muammolar haqida kattalar bilan bo'lishishga katta ehtiyoj sezadi, lekin buni hech qachon birinchi bo'lib o'zi boshlamaydi. O'smir o'ziga nisbatan yosh bolalardek qilinadigan muomala-munosa-

batiga qattiq norozilik bildiradi, o'smirlar muloqoti nihoyatda o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. O'zini kattalardek his qilish tuyg'usi bolaning shaxsan o'ziga bo'lgan munosabatini muayyan darajada o'zgartiradi va har qanday ichki munosabat singari bu ham tashqi munosabatlarning ta'siri ostida, mazkur shaxsga nisbatan boshqa odamlarning munosabatlari tashkil topadi. Shuning uchun o'smir o'zi haqida atrofdagi kishilar qanday fikrga kelishi to'g'risida ko'p o'ylaydi hamda buning uchun qulay muhit yaratish yo'llarini faollik bilan izlaydi. Bu shunday muhit bo'lmog'i kerakki, undagi munosabatlar endi o'smirning katta kishi, mustaqil odam bo'lib qolganligi yaqqol namoyon bo'lishini istaydi. Har bir o'smir bilan muloqotda uning shaxsidagi eng yaxshi tomonlarni topa bilish, nimaga qobiliyati bor ekanligini aniqlab olish hamda ularga tayangan holda o'smirning o'ziga bo'lgan ishonchini har tomonlama qo'llab-quvvatlash g'oyat muhimdir. Aks holda tarbiya sohasida katta qiyinchiliklar kelib chiqishi muqarrar. O'smir o'ziga yaqin bo'lgan kishilarning ko'z o'ngida o'z shaxsining mustaqilligini tasdiqlash, o'zligini bildirib, o'z «men»ini anglatish maqsadida u yoki bu darajadagi o'z imkoniyatidan tashqari ishlarga qo'l urishga va shu orqali o'z shaxsining ta'sirini atrofdagi kishilarga o'tkazishga harakat qilib ko'rishga majbur bo'ladi. Basharti, bola o'zini ijobiy tomondan ko'rsatishning ilojini topa olmasa, u holda psixologik ehtiyoj tufayli u salbiy ishlarda o'zini ko'rsatishi, o'z kamchiliklarini oshirib ko'rsatishi, qilish mumkin bo'lmagan ishlarni atayin qilishi, ko'proq o'jarlik va qaysarlik qilishi va boshqa salbiy ishlarni qilishi mumkin. Ushbu yoshdagi bolalarning o'z-o'zini hurmat qilish tuyg'usini shakllantirish uning shaxsi rivojida muhim hisoblanadi. Bunda o'qituvchi bolaning sinf va maktab jamoasi oldidagi obro'sini ko'tarish yo'llarini izlashi, turli sohalaridagi yutuqlarini ko'pchilikka ma'lum qilib, xato va kamchiliklarini yo'qotishda donolik bilan harakat qilishi uning o'z kuch va imkoniyatlariga ishonishiga zamin yaratadi. Bu bilan o'smirda shakllanib kelayotgan «katta kishi» bo'lib qolish tuyg'usini hur-

mat qilishini bildiradi, o'qituvchi o'smirning zarur munosabatlarini yo'lga qo'yishida unga zarur kishiga aylanadi.

O'smirda psixik jarayonlarning keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, o'quvchi bilan o'qituvchi muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi.

Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi va ota-onasini qattiq tashvishga soladi.

Xo'sh, o'smirlarning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch nima? O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch — uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlarni o'smirning psixologik kamolotini ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish, uning shaxsida yangi psixologik fazilatlarini tarkib toptirish orqali asta-sekin yo'qotish mumkin.

Ota-onalarning o'smirda shu erkinlikni bermasligi yoki o'smirning shunday deb bilishi natijasida, ular ota-onaga qarshi pozitsiyada bo'ladilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ana shu muloqot va munosabat asosida o'smirlarda g'urur hissi shakllana boshlaydi. Albatta, g'urur me'yor va qoidalari kattalardan o'rganiladi, lekin o'z g'ururini qanday himoya qilishi o'smirlarning alohida nazoratida bo'ladi.

Muxammed Gabdulgalimovich Davletshin O'zbekistonda ilmiy maktab yaratgan, o'smirlar ruhiyatini chuqur o'rgangan yetakchi psixologlardan biri. Respublikamizda professor M.G.Davletshin tomonidan psixologiya fanining turli masalalari bo'yicha 250ga yaqin ilmiy ish chop etilgan. Ustoz tomonidan qoldirilgan eng yirik monografiya va o'quv qo'llanmalar sirasiga «Qobiliyatlar va uning diagnostikasi» (1979), «Yosh va pedagogik psixologiya»

(1974), «Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi» (1999),

«Umumiy psixologiya» (2001), «Yosh va pedagogik psixologiya» (2004) va boshqalarni kiritish mumkin. M.G.Davletshin 1957-yil «5—7 sinf o'quvchilarida texnik qiziqishlarni shakllantirish» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Olim 1971-yil «O'quvchilarda texnik qobiliyatlarning psixologiyasi» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlagan.

Professor M.G.Davletshin mehnat ta'limi va kasbga yo'llash muammolariga, texnik qiziqish va texnik qobiliyatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlariga, respublikamizdagi pedagogika oliy o'quv yurtlari va universitetlarida o'qituvchi kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish muammolariga ko'p e'tibor beradi. M.G.Davletshinning ilmiy qiziqishlari asosan oliy maktablarda psixologiyani o'qitish samaradorligini oshirish muammolariga qaratilgan edi.

M.Wohidov rahbarligida M.Dadajonov tomonidan «5-sinf o'quvchilarida geografik kartani o'rganish jarayonida fazoviy tasavvurlarning shakllanishi» nomli tadqiqotida aniqlanishi-cha, geografik kartani o'zlashtirishning mustahkamligi undagi obyektlarning joylashishi haqida o'quvchi ongida fazoviy tasavvurlar tizimining vujudga kelishiga bog'liq^{1 2}. Bu tizim rivojlanib, o'z ichiga murakkab assotsiatsiyalarni jalb qiladi.

16.4. Kattalar bilan muloqotning xususiyatlari

O'smirlik davrida kattalardan masofa saqlash va begonala-shish ro'y beradi. Haqiqatan ham o'zini kattalarga qarshi qo'yish, mustaqil subyekt sifatida o'zinikini, o'z fikrini ajratish yaqqol namoyon bo'ladi. O'smirning kattalarga munosabati murakkab-dir. O'smir bir tomondan kattalar bilan huquqlardan teng ekan-licini prinsipial jihatdan talab qiladi, ikkinchi tomondan katta

¹ Davletshin M.G. «Yosh va pedagogik psixologiya*». — T., 2004

² ^ajjaxaHOB M. <▷opMnpobaiiMe iipocpaHCTBCHHBix npe/iCTaBJieHHH y yiauiHxca V KJiacca B nnoiicce M3y'ieiiM>i reorpa(i)micKOH KapTbi. ABTopeij)...

larning yordamiga, qo‘llab-quvvatlashiga, himoyasiga, bahosiga ehtiyoj sezadi. Kattalar o‘smir uchun muhim, o‘smirda ham kattalarga nisbatan empatiya kuchli, lekin amalda nazoratning «bolalarcha* shakli saqlanib qolganligiga, haddan tashqari g‘amxo‘rlik qilishlariga qarshi chiqadi.

Ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlardagi muammolar, o‘qituvchilar bilan nizolashishlar — o‘smirlik davri uchun odatiy hol bo‘lsa-da, bunday holatlarning namoyon bo‘lish tezligi kattalarning unga bo‘lgan munosabatiga, oilaviy tarbiya uslubiga, o‘smir xulq-atvoriga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmasiga bog‘liq. O‘smir va kattalar orasida qulay munosabatlarni o‘rnatishning zaruriy sharti kattalarning tashabbusi bilan ular hayotida umumiylikni yaratish, hamkorlik sohalarini kengaytirish, mazmunli aloqalarni amalga oshirish, o‘zaro yordam va ishonch muhitini yaratishdan iborat¹.

O‘smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadilar. Kattalarning o‘smir yoshdagilarga ta’sir ko‘rsatishi, tarbiya berishi uchun eng qulay sharoit — bu umumiy mehnat bilan shug‘ullanishdir. Agar kichik yoshdagi bolalar yordamchi bo‘lish rollaridan qoniqsalar, o‘smirlar, ayniqsa katta o‘smirlar kattalar bilan teng ravishda faoliyat ko‘rsatayotganlaridan, lozim bo‘lganda ularning o‘rnilariga ham ishlay olishlaridan qoniqadilar. Kattalar o‘smirlar bilan do‘stona, uni to‘la tushungan holda va aql bilan rahbarlik qilsalar, bunga o‘smirlar ijobiy qaraydilar, lekin bu rahbarlik kattaning xohish-istagi ustunligida kechsa, unday holda ular to‘la qarshilik ko‘rsatadilar. Bu qarshilik ko‘pincha salbiy natijalarga, ba’zan depressiya holatini ham yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat ko‘pincha ota-onasi avtoritar munosabatda bo‘luvchi o‘smirlarning oilalarida uchraydi. Bunday oilalarda tarbiyalanayotgan o‘smirlar hayotda mustaqil holda harakat qilish-

¹ IHanoBaneHKO H.B. BaaMMOOTHomeHna noKoneHHH B ceMbe // IcHxojiorHa ceMeiiHbix отНОИсННН с очНОBaMH ceMeiiHoro KOHcyjibTHpoBaHHa/ ПoA

lari, o'z rejalarini amalga oshirishlari, qiyin mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari birmuncha qiyin kechadi.

Ular ko'pincha intellektual xarakterdagi muammolarni ham qiyinchilik bilan yengadilar. O'smirlik davrida bolalarning atrofdagi odamlar bilan shaxsiy va ish yuzasidan bo'ladigan munosabatlaridagi mavqei o'zgaradi. Endi o'smirlar o'yin hamda damga kamroq vaqtlarini ajratgan holda ko'proq jiddiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi. O'qish o'smirlar hayotida katta o'rinni egallaydi. Ularga mashg'ulotlarning mustaqil shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o'smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari, qiziqishlarining ortishi, o'qituvchining o'quv materialini tushuntira olish mahoratiga bog'liq. Bilim o'rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan o'quv fanlariga nisbatan qat'iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar o'smirning, hayotiy rejalari, kelajak kasbi va ideali bilan bog'liq bo'ladi. Aynan o'smirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo'ladi. Bilim o'smirlarga alohida bir quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi. Bu davrda o'quvchilarga beriladigan o'quv materialining hajmi katta bo'lgani uchun ham uni eslab qolishi yoki bir necha marta takrorlash yo'li bilan o'zlashtirishi qiyin. Buning uchun o'quvchi o'quv materialining mazmunini tahlil qilishi, undagi mantiqiy tuzilishni bilishi muhim. Bu davrda bolalarning idroki, diqqati va tasavvurlari rivojlanadi, lekin bu rivojlanish bolaning o'ziga va atrofdagilarga sezilmagan holda kechadi. Shu bilan birga bu davrda bolaning xotirasi, nutqi, tafakkur jarayonlari ham jadal rivojlanadi. Bu o'zgarishlar atrofdagilarga sezilarli darajada bo'ladi. O'smirlik davrida o'z-o'zini anglash darajasi kengayadi va unda boshqa odamlar, olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi. O'yin faoliyati asta-sekin kamayib, yangi faoliyatlari yuzaga kela boshlaydi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi

boshlanadi. O'smirlik davrida o'z faoliyatini nazorat qilish rivojlana boshlaydi va o'zini-o'zi boshqarishga intilishi kuchayadi. Bir so'z bilan aytganda, o'smirlik davri psixik rivojlanishda keskin burilish davri hisoblanadi.

16.5. O'smirlik davrida psixologik yangilik

O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat — voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, xulq-atvorning tashqi shakllarida o'z ifodasini topadi. O'smirlik yoshiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga erishish yo'llarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. Jinsiy yetilish o'smirning bu yoshdagi xulq-atvoriga asosiy biologik vosita sifatida ta'sir o'tkazadi. Lekin bu bevosita ta'sirdir. Kichik o'smir psixologik «mexanizmi» sxematik ravishda quyidagicha baholanadi. Endokrin garmonlarining paydo bo'lishi va ularning markaziy nerv sistemasiga ta'sir qilishi bilan bog'liq bo'lgan jinsiy yetilishning boshlanishi bolalar faolligining jismoniy va psixologik imkoniyatlarini oshiradi hamda ularning o'zlarini kattalardek his etish, mustaqil bo'lish tuyg'ularini tuyushlari uchun qulay shart-sharoitlarni olib keladi. Biroq, psixik rivojlanishning bu bosqichida ham bola hali mustaqil harakat qilishga to'la tayyor bo'lmaydi. Ijtimoiy omillar esa quyidagilardir: kichik maktab yoshidan o'rta maktabga o'tish, ya'ni yakka o'qituvchi rahbarligidan ko'pchilik o'qituvchilar tasarrufiga o'tish va muhoqotdagi o'zgarishlar ijtimoiy foydali ishlarni kengaytirib borish, mustaqil va amaliy ishlarni ko'proq bajarish, shu bilan birga bolaning oiladagi o'rnining ham o'zgarishidir. Katta o'smirlarga nisbatan kichik o'smirlarda paydo bo'ladigan kelisha olmaslikni ulardagi jinsiy yetilish bilan emas, balki atrofdagi shart-sharoitlar, oiladagi ota-ona, aka-ukalarning unga munosabati, mahalla-ko'y, ya'ni ijtimoiy sharoitlar ta'siri bilan bog'lash zarur.

Mana shu ijtimoiy sharoitlarni ulardagi psixologik iqlimni o'zgartirish yo'li bilan o'smirlarning xulq-atvoriga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatish, yomon xulq-atvor, o'jarlik, kamchiliklarini tan olmaslik kabi salbiy xislatlarning oldini olishi mumkin. Bu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar hayotida hali o'z o'rnini topa olmagan holatda bo'ladi. O'smir o'zining qobiliyati va kuchini to'g'ri baholamay turib, murakkab hayotiy masalalarni hal qilishga urinadi, ammo fikr yuritish qobiliyati yuzaki bo'lganligi sababli kundalik hayotida qator kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Lekin u o'z xatosini tan olishdan ko'ra kattalar bilan bahslashishni afzal ko'radi. Tanqid qilgan kishilarni yoqtirmaydi, har bir tanqid go'yoki uni mensimaslik belgisi, atayin qilinayotgan ish bo'lib ko'tinadi. U mustaqil, o'zboshimchalik bilan ish tutishga urinadi, kattalarning maslahatiga e'tibor bermaydi. Ayrim o'smirlar o'zining kattalar safiga qo'shilganligini namoyish qilish uchun turli xil salbiy odatlarga o'tgana boshlaydilar. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar o'qituvchi va ota-onalarni qattiq tashvishga soladi. Ularni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun esa kattalardan psixologik bilim va tajribani talab etadi. Bu yoshda kattalar o'smirlarni bilib-bilmay qo'yayotgan kamchilik va xatolarini ko'pchilik ichida uyaltirib, kamsitib, qoralab emas, balki psixologik yo'l bilan yondashgan holda yordam berish uni «katta bo'tib qolganlik» tuyg'usini so'ndirib emas, balki katta odam qanday bo'tishi va qanday talablarga javob berishi kerakligini anglatishi zarur.

Kichik o'smir davrida bilish faolligi, bilishga bo'tgan qiziqish kuchayadi (11—12 yosh). O'smirlik davrida tafakkur, tushunchalarni hosil qilish funksiyasi shakllanadi. Fan asoslarini, umumlashtirilgan bilimlarni o'zlashtirish hisobiga psixik funksiyalar ixtiyoriy boshqariladigan jarayonlarga qayta quriladi. Kognitiv sohadagi o'zgarishlar o'smirning tevarak-atrofga munosabatini, umuman shaxs sifatida shakllanishini o'zgartiradi. Idrok tanlovchan, maqsadga yo'naltirilgan analitik-sintetik faoliyatga aylanadi. Xotira mantiqiy operatsiyalar bilan ichdan bog'tiq bo'ta-

di. Nazariy diskursiv tafakkur tushunchalarga tayanilgan holda, ular o‘zaro taqqoslanadi, bir fikrdan boshqa bir fikrga o‘tish ro‘y beradi.

O‘smirning yangi huquqlarga da‘vosi, avvalo, kattalar bilan o‘zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo‘ladi. O‘smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko‘rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo‘naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u juda xafa bo‘ladi va norozilik bildiradi. O‘smirda o‘z qadrini bilish hissi paydo bo‘ladi va u o‘zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo‘lmagan inson deb biladi. Ota-onalar va pedagoglar o‘smirlar bilan alohida ishlab, ularning ko‘nglini topishi va xatti-harakatlarini o‘z vaqtida to‘g‘ri yo‘lga solishlari lozim. Ba‘zi o‘qituvchilar kichik o‘smirdagi bu o‘zgarishlar — salbiy alomatlar, urushqoqlik, o‘jarliklarining ildizlari qayerdan kelib chiqqani va nima bilan bog‘langanligi, nimaning ta‘siri ekanligini bilmay turib, noto‘g‘ri tashxis va xulosalar chiqaradilar, bu esa aksariyat holda fojiga olib kelishi mumkin. Asosiy ziddiyatni keltirib chiqaruvchi omillardan biri o‘smirning o‘z mustaqilligini imkoniyatidan ortiq darajada baholashidir. O‘z imkoniyatlarini ortiqcha baholash bilan kichik o‘smirning psixik imkoniyatlari o‘rtasida tafovut paydo bo‘ladi. Kattalarning irodasiga bo‘ysunmaslik, maktab, sinf faollari va boshqalarning qarorlarini bajarmaslik bu mazkur sharoitga yetarli darajada baho bera olmaslikning yagona reaksiyasi bo‘libgina qolmay, shu bilan birga bu o‘smir, uning shaxsi nuqtayi nazaridan o‘zini boshqalarga tanitish yo‘li sifatida ham xizmat qiladi. Bu yo‘l orqali bola o‘z shaxsining ahamiyatini, uning ta‘sirchanligini hamda tevarak-atrofdagi kishilarga qarshilik ko‘rsata olish qobiliyatini ham ta‘kidlab ko‘rsatishga erishmoqchi bo‘ladi.

Demak, bu o‘smirni to‘laqonli psixik rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy bir xislat ekanligini bilgan holda shu bilan

I>>g'liq salbiy ishlarning psixologik tabiatini to'g'ri tushunmog'i v;i bolalarni o'zlarini katta tutishlariga to'sqinlik qilmaslik, ak-incha ularning bunday xatti-harakatlarini ijobiy baholashga in-lilishi kerak.

O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'proq qiziqтира-di, ular o'zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. U kattalar huquqini cheklaydi, o'zinikini esa kengaytiradi, kattalarning o'z shaxsi va insoniylik qadrini hur-mat qilishlarini xohlaydi, ishonch va mustaqillik namoyon etish-ga da'vo qiladi, ya'ni kattalar bilan ma'lum tenghuquqlilikka va ularning shu narsani tan olishlariga erishishga harakat qiladi.

O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, o'z-o'zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishi-da irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funktsiya si-fatida o'smirning erkin harakat qilish quroli, shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig'i bo'lib hisoblanadi.

O'z-o'zini anglash hissining tarkib topishi, o'ziga nisbat-an go'yo alohida mustaqil shaxs sifatidagi munosabatning vu-judga kelishi bu davrdagi har ikki jinsdagi va istagan tempe-rament tipidagi o'smirlar uchun muhim xususiyatlardir. O'smir o'g'il-qizlar shaxsining kamol topishida, o'zini anglash jara-yonida o'ziga baho berish mayli va istagi o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, o'ziga bino qo'yish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bu-lar esa o'smirning psixik dunyosiga aqliy faoliyatiga, tevarak-at-rofga munosabatning shakllanishiga ta'sir qiladi. Ilk o'smirlik davrida ko'pchilik o'smirlar o'zlariga salbiy shaxsiy xarakteris-tika beradilar. Katta bo'lgan sari o'smirning o'z-o'ziga bergan bahosi differensial xarakter (xulq-atvoriga, ijtimoiy vaziyatlar-da o'zini tutishga va ayrim xatti-harakatlari)da namoyon bo'la-boshlaydi.

O'g'il bolalar va qiz bolalarning ijtimoiy rollari turlicha bo'li-shi to'g'risidagi jamiyatda tarkib topgan tushunchalar bilan bola-lar tomonidan o'zlashtirilgan tasavvurlar o'smir yoshidagi shaxs-

ning shakllanish yo'llarini belgilab beradi. O'smir o'z kuchi va quvvati, chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kengayotganini anglay boshlaydi.

O'smirlar ustanovkalari muhim funksional ahamiyatga ega bo'lib, uning ma'lum bir faoliyatni samarali bajarishga tayyorligi sifatida namoyon bo'ladi. Uning asosiy vazifalari: 1) faoliyat amalga oshirilishining qafiy xarakterini belgilab beradi; 2) o'smir shaxsini standart vaziyatlardagi faoliyatlar kechishini erkin holda nazorat qilish va qaror chiqarishdan ozod qiladi.

O'smirlik davri xususiyatlarini talqin qilgan olimlarning ta'kidlashicha, o'g'il va qizlarning bu yoshda o'rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo'ladi. Ushbu o'zgarishlar ta'sirida bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatlarini o'sib borish munosabati bilan o'zlariga ko'proq ishona boshlaydilar, ular endi oilaviy muammolar muhokamasida ham ishtirok eta boshlaydilar.

Aslida o'smir yoshidagi bolalarning psixik holatlarini va psixik rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, psixik muammolarini erkin va to'g'ri yechishlari uchun yordam berish, ularga psixologik yondashish zarur. Kichik o'smir yoshdagilar bilan ishlayotganda o'quvchining har bir tashqi va ichki reaksiyasi ortida uning o'z psixologik sabablari borligini bilish muhimdir. Bu «madaniyatsiz», «zararli», «tushunib bo'lmaydigan» deb nom olgan xatti-harakatlar bir qarashda shunday baholanadi, lekin bu xatti-harakatlar shaxs qaror topishining maxsus bosqichi uchun xos xususiyatdir. Kichik o'smirda o'z-o'zini hurmat qilish va o'zini anglashni shakllantirishning bir qancha yo'llari mavjud. Masalan: bu davrda kattalarga taqlid qilish yoki oilada o'z hurmatini talab qilish, o'z so'zini o'tkazish, o'zini hurmatli, obro'li katta yoshli kishining obraziga o'xshatib rivojlantirish kuchli bo'ladi. Ularga biror so'z yoki tanbeh bilan murojaat qilsangiz, u o'zini mustaqil fikrlay olishi va biror ishni albatta ud-dasidan chiqa oladigandek ko'rsatadi. Vaholanki, hali o'smirning psixologik imkoniyatlari yetarli emas yoki rivojlanmagan

bo'lishi mumkin. Kattalar, o'qituvchilar o'smirdagi bu jarayonni psixologik nuqtayi nazardan baholay olishlari, unga soxta, yuzaki yondashmay, aksincha, unga o'z imkoniyatlarini o'stirishga, o'z ichki va tashqi qobiliyatlarini to'g'ri rivojlantirishga yo'naltirishlari muhim hisoblanadi. O'smirlar uchun o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi g'oyat katta ahamiyatga egadir. U endi salbiy va ijobiy tomonlariga alohida bir urg'u bermagan holda o'zi xohlagan kishisi bilan do'st bo'lish huquqini talab etadi. O'smirlar orasida sodiqlik va to'g'rilik kabi xislatlar yuqori baholanib, sotqinlik, o'z so'ziga bevafoqlik, egoizm, qizg'anchilik qattiq qoralanadi va qattiq jazolanadi. Bu jazo u bilan urishish, kaltaklash, unga qarshi baykot e'lon qilish va uni yolg'izlatib qo'yish shaklida bo'lishi mumkin. O'smirlar o'zini hurmat qilishini, o'z fikrini va qiziqishini himoya qilishni bilmagan tengdoshlariga juda past baho beradilar.

5—6-sinf o'quvchilariga sinfdagi o'zi egallagan mavqeiga katta e'tibor berish xususiyati xos. Ayniqsa, 6-sinfdan boshlab, o'quvchilar o'z tashqi ko'rinishlariga, shuningdek qarama-qarshi jinsdagi bolalar va ular bilan o'zaro munosabatlariga e'tibor berib boshlaydilar.

7-sinf o'quvchilarida esa o'z layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi. 8-sinf o'quvchilari esa mustaqillik, o'ziga xoslik, do'stlik va o'rtoqlik bilan bog'liq bo'ladigan shaxsiy xislatlar paydo bo'ladi.

Ma'lumki, har bir bolaning munosabatlari aniq ishlarda ko'rinadi, mustahkamlanadi va qayd etiladi. Bola o'zidagi mustaqillikni shakllantirish uchun o'zi mustaqil ishlarni bajarishiga to'g'ri keladi. Lekin, ikkinchi tomondan bir marta mustaqil ish bajarish uchun mavjud shart-sharoitlardan xoli bo'lishga harakat qiladi. Bola boshqa mexanizmlarga ega emas. Bular o'smirlarning o'z kuchiga ichki bir ishonchni mavjud emasligini bildiradi. Bu belgilar mana shu yoshda kishini mustaqil harakat qilishga qodir bo'lishga, ayni hollarda tevarak-atrofdagi kishilarga qarshi borib, o'zini haq ekanli-

gini qattiq turib himoya qilishga, boshqa hollarda esa vaziyatni vazminlik bilan qabul qilishga da'vat etadi. Mustaqil ishlar qilishga uringan o'smir shunday qilishga haqqi borligiga o'zini-o'zi ishoniradi, chunki men endi «katta bo'lib qoldim» deb o'ylaydi. Shuning uchun ham psixologlar «katta bo'lib qolganlik tuyg'usi» shaxsning o'smirlik yoshidagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladilar. Bu yoshda kattalar o'smirlarni bilib-bilmay qo'yayotgan kamchilik va xatolarini ko'pchilik ichida uyaltirib, kamsitib, qoralab emas, balki psixologik yo'l bilan yondashgan holda yordam berish uni «katta bo'lib qolganlik» tuyg'usini so'ndirib emas, balki katta odam qanday bo'lishi va qanday talablarga javob berishi kerakligini anglatishi zarur. Demak, bu o'smirni to'laqonli psixik rivojlanishi uchun zarur bo'lgan hayotiy bir xislat ekanligini bilgan holda shu bilan bog'liq salbiy ishlarni psixologik tabiatini to'g'ri tushunmog'i va bolalarni o'zlarini katta tutishlariga to'sqinlik qilmaslik, aksincha ularning bunday xatti-harakatlarini ijobiy baholashga intilishi kerak. O'smirlarning o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi g'oyat katta ahamiyatga egadir.

O'smirlik davrida, asosan, bilish jarayonlari yuqori darajada rivojlanadi. Bu yillarda o'smirlar uchun hayot davomida kerak bo'ladigan asosiy shaxsiy va tadbirkorlik xususiyatlari ochiq ko'rina boshlaydi. Xotira, mexanik xotira darajasidan mantiqiy xotira darajasiga ko'tariladi. Nutq rivojlangan, xilma-xil va boy tafakkur esa o'zining barcha ko'rinishlari: harakatli, obrazli, mantiqiy darajasida rivojlanadi. O'smirlarni endi turli amaliyot va aqliy faoliyatlarga o'rgatish mumkin. Shuningdek, bu davrda umumiy va maxsus layoqatlar shakllanadi va rivojlanadi.

O'smirlik davriga juda ko'p ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar xos. Maktab dasturini o'zlashtirish va boshqa ishlar bilan bog'liq turli masalalarni yechishda ko'zga tashlanadigan o'smirlarning intellektual rivojlanganligi kattalarni ular bilan birga jiddiy muammolar bo'yicha fikrlashga undaydi, o'smirlarning o'zlari ham bunga harakat qiladilar. Boshqa tomondan esa ayniqsa, ke-

lajak kasb, xulq-atvor etikasi, o'z majburiyatlariga mas'ullik kabi muammolar muhokamasida infantillik (yosh bolalarga xos jismoniy va psixologik holat)ni kuzatish mumkin.

O'smirlarning ana shu ketma-ket yuzaga keladigan qiziqishlariga asoslangan holda faol ravishda irodaviy ishbilarmonlik va boshqa foydali sifatlarni rivojlantirishi mumkin. O'smirlik davrida o'quv fanlarini turli o'qituvchilar o'qitishlari bilan kattalar shaxsi va faoliyatini baholashning yangi mezonlari ham shakllana boshlaydi. O'smirlik asosan, bilimli, talabchan, haqqoniy, o'quv materialini qiziqarli va tushunarli yo'l bilan yetkaza oladigan, o'quvchilarni ajratmaydigan, o'qituvchilarni ko'proq hurmat qiladilar va yaxshi ko'radilar. Ular o'qituvchi bilan munosabatlariga ham katta e'tibor beradilar.

10—15 yoshli bolalarning faoliyat motivlarida ham o'zgarishlar amalga oshadi. Ilk o'smirlik davrida ko'pchilik o'smirlar o'zlariga salbiy shaxsiy xarakteristika beradilar. Katta bo'lgan sari o'smirning o'z-o'ziga bergan bahosi differensial xarakter (xulq-atvoriga, ijtimoiy vaziyatlarda o'zini tutishga va ayrim xatti-harakatlari)da namoyon bo'la boshlaydi.

O'smirlik yoshidagi o'quvchilarning emotsional xususiyatlari. O'smirlik yoshida, taxminan 13—14 yoshlarda, bolalarni emotsional kechinmalarida katta o'zgarishlar boshlanadi. Shu yoshdagi bolalarda ta'lim ta'siri ostida abstrakt-mantiqiy va tanqidiy tafakkur ancha o'sadi. O'smirlar dunyoqarashlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar bilan qiziq boshlaydilar, ularning kamalak va yoshlar ittifoqida ishtirok etishlari bunday qiziqishlarning o'sishiga ko'p jihatdan yordam beradi. Mana shularning hammasi xilma-xil intellektual va axloqiy hislarni o'sishi uchun manba bo'lib qoladi. O'smirlarda xayol kuchli ravishda o'sadi. Hislarning o'zi xayolning o'sishiga yordam beradi va xayolning o'zi ham xilma-xil chuqur emotsional kechinmalarning manbayi bo'lib qoladi. Kelajak to'g'risidagi orzular, qahramonlik, romantika shularning hammasi emotsional kechinmalarning manbayidir. Bu yoshda o'z-o'ziga baho berish hissi kuchli ravishda o'sadi.

O'smir yoshidagi bolalarning aloqa doirasining kengayishi va ularda ijtimoiy-siyosiy masalalarga qiziqish o'sishi tufayli axloqiy hislar o'smirlar hayotida katta o'rin oladigan bo'lib qoladi, ularda vatanparvarlik hissi yorqin namoyon bo'ladi. Shu yoshda organizmda fiziologik o'zgarishlar sodir bo'lishi sababli emotsional qo'zg'alishlarning xarakterida ham o'zgarish ro'y beradi. Hislar kuchli ravishda namoyon bo'laveradi, lekin ko'pincha bu hislar barqaror bo'lmaydi. Boshqa yoshdagi bolalarga qaraganda o'smirlarda injiqlik va arazlash ko'p bo'ladi.

16.6. Shaxs rivojlanishi va o'spirinlik davriga o'tishdagi inqiroz

O'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, prinsip, o'zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakllanadigan davr hisoblanadi. O'smir ulg'aygan sari unda «Ideal Men», «Axloqiy Men» va «Haqiqiy Men» singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e'tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi o'zi to'g'risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo'lib qoladi.

O'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtayi nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O'smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, o'smirlarning ko'pchiligi qafiyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma'naviy, axloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror e'tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi.

Ma'lumki, o'smirlik davrida o'smirning «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofida gilari ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlarini yo'nalishi keskin o'zgaradi.

O'smir yoshdagi bolani birinchi galdagi intilishi, u o'zini endi kichkina bola emas, balki katta bo'lib qolganligini atrofida gilarga ishonitirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan o'smir shunday qilishga haqqi borligiga o'zini-o'zi ishonitiradi, chunki

men endi «katta bo‘lib qoldim» deb o‘ylaydi. Shuning uchun ham psixologlar «katta bo‘lib qolganlik tuyg‘usi»ni shaxsning o‘smirlik yoshidagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladilar.

L. S.Vigotskiy o‘smirlik davrida qiziqishlarning o‘zgarishiga bog‘liq ravishda ikki fazani (salbiy va ijobiy) ajratib ko‘rsatgan. Salbiy faza ilgarigi qiziqishlarning so‘nishi va yangi dastlabki jinsiy qiziqishlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Bunda quyidagi salbiy xulq-atvor ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi: ish qobiliyatining, o‘zlashtirishning pasayishi, o‘smirning qo‘polligi va yuqori qo‘zg‘aluvchanligi, uning o‘zidan qoniqmasligi va xavotirlanish va b. Ijobiy faza keng, chuqur yangi qiziqishlarning paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi. O‘smirda boshqalarning va o‘zining psixologik kechinmalariga qiziqish paydo bo‘ladi.

O‘smirlik davridagi inqiroz — o‘smir kechinmalari, uning strukturasi, mazmunining qat’iy o‘zgarishi, buzilishidir. L.S.Vigotskiy 13 yoshni inqirozni sindiradigan nuqtasi deb atagan. Inqirozdan keyingi davrlar (14—15 yosh) ota-onalar va o‘qituvchilar tomonidan subyektiv yanada qiyinroq deb ataladigan yangi psixologik tuzilmalar shakllanadi. Inqirozning kechishi kattalarning o‘sayotgan boladagi o‘zgarishlarni sezuvchanligiga, tarbiya taktikasini mohirona o‘zgartirishiga, o‘smirning yangi ehtiyojlari, yangi qobiliyatlariga bog‘liq ravishda munosabatlarni o‘zgartirishiga bog‘liq.

Sog‘lom o‘smirlarga ham kayfiyatning beqarorligi, depressiv kechinmalar, tez ranjish va boshqalar xos. O‘smirlarda ko‘p uchraydigan «mos emaslik affekti» (arzimas narsaga ham kuchli reaksiya bildirish) o‘zini past baholash va intilish darajasining yuqoriligi orasidagi qarama-qarshilik bilan bog‘liq.

O‘smir intellektining o‘ziga xosligi va affektiv sohasi bilan bog‘liq ravishda o‘smirlar egotsentrizmining o‘ziga xos shaklini ajratishadi¹. O‘smir o‘ziga, o‘zida ro‘y berayotgan psixofizologik o‘zgarishlarga qiziqadi va o‘zini zo‘r berib analiz qiladi. O‘z-o‘zini baholaydi

¹ Kpauir T. Ilcnxojiorni pa3BHTMM.C.591-592.

Unda boshqalar ham uning haqida o'ylashi, uning tashqi ko'rinishiga qiziqishi, fikrlari, xulq-atvori va hissiyotlariga qiziqadi, degan illyuziya paydo bo'ladi. «Xayoldagi auditoriya» fenomeni egotsentrizm

komponentlaridan biri bo'lib, uni har doim tomoshabinlar kuzatadi, u esa har doim sahnaning o'rtasida deb ishonadi. O'smirlik egotsentrizmining boshqa komponenti bu shaxsiy afsonadir. Shaxsiy afsona — bu shaxsiy kechinmalarga asoslangan muhabbat, hasad, uyat kabi hisslarning o'ziga xosligiga ishonishdir. Bunday egotsentrizm cho'qqisi o'spirinlik davriga o'tishga to'g'ri keladi, bunda tengdoshlari bilan o'z hissiyotlarini bo'lishish, ular bilan yaqin ishonchli

munosabatlarni o'rnatish orqali barham berish mumkin.

Men konsepsiyasi — o'z-o'zini anglashning yangi darajasi sifatida katta o'smirlik davrida yangi markaziy tuzilma hisoblanadi. O'z-o'zini anglashning yangi darajasini shakllanishi (o'zi haqidagi tasavvur, Men konsepsiyasi) o'z imkoniyatlari va xususiyatlarini, o'zining boshqalarga o'xshashligi va betakrorligini, o'zini shaxs sifatida bilish ehtiyojidan kelib chiqadi. O'smirlarning o'zi bilan bog'liq kechinmalari ko'pincha salbiy bo'ladi. Bu o'smirning o'ziga «tashqaridan» qarashiga, kattalarning bahosi va tasavvurlari interiorizatsiyasi qilinishiga bog'liq.

Ko'pincha o'smirlar o'zlariga salbiy baho beradilar, kamchiliklarining uzun ro'yxatiga faqat bitta ijobiy xislat qo'shiladi. Bu o'smirning o'ziga «tashqaridan» qarashiga bog'liq, kattalarning salbiy bahosi ortib boradigan va ijobiy baho kamdan kam ko'rsatiladigan tasavvurlari interiorizatsiya qilinadi.

O'smirda o'zini baholashning shaxsiy mezonlarini ishlab chiqishga, o'zini «ichdan» ko'rishga va o'z yutuqlarini baholashga, shaxsining kuchli tomonlariga suyanishga o'rgatmoq lozim. O'smirlik davrining oxiriga kelib kuchli o'z-o'zini anglash ro'y beradi. Kattalarning bahosiga taqlid qilish yo'qolib, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini ko'rsatish, o'z-o'zini tasdiqlatish, o'z-o'zini namoyon qilishga intilish kuchayadi.

O'z oldiga kelajakda bajariladigan tashvirlarni ko'rish

namoyon qilish, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini rivojlan- tirishga o'tiladi. Ilk o'spirinlik davriga (15—18) o'tishdagi inqiroz insonning shaxsiy taraqqiyot subyekti sifatida shakllanishi muam- mosi bilan bog'liq. 18—21 yoshlarda ijtimoiy-psixologik va shax- siy o'z-o'zini belgilash tugallanadi.

O'zbekistonlik psixologlarning o'sinirlik davri xususiyatlari borasidagi tadqiqotlariga e'tiboringizni qaratamiz.

G. B.Shoumarovning shogirdi D.R.Rahmonovanning «O'smir- larda qo'rqinch determinatsiyasi xususiy holatlarining tur- li vaziyatlarda rivojlanishi* mavzusidagi ilmiy ishida mehnbon- lik uylarida, oilada va mehnat tuzatish koloniyalarida yashovchi o'smirlarda tadqiqot olib borgan bo'lib, psixik og'ishish che- garaviy zonasining uchta, ya'ni dezintegratsiyalashgan, bi- ologik va ijtimoiy tarkibiy qismlarini aniqlashga imkon beradi- gan qo'rqinch determinatsiyasi mexanizmlarini yoritib bergan va o'z ihmy izlanishlariga tayangan holda shaxslararo munosabatlar jarayonida emotsional zo'riqish tufayli yuzaga keladigan qo'rqinchning o'smirlar psixik holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab o'tgan. Uning fikricha, qo'rquv fenomenologiyasi uni tashkil etuvchi biologik, ijtimoiy va dezintegratsion komponent- larga bog'liqdir. Muallif dezintegratsion qo'rquv deganda o'smir emotsional sohasiga jiddiy rezonans olib keluvchi xayoliy sub- yektiv idrok etilgan xavf-xatarning shaxsda mavjudligini nazarda tutib, ushbu qo'rquv biologik hamda ijtimoiy qo'rquv xususiyat- larini va uning darajalarini aniqlashda sababiy omil hisoblanishi- ni ta'kidlaydi^{1,2}. D.R.Rahmonova qo'rquvning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yoritib berar ekan, oiladan tashqaridagi o'smirlar- da emotsional namoyon bo'lishiga hamda shaxsning psixik ho- latlari ko'rsatkichlariga ko'ra oilada tarbiyalanayotgan o'smir-

¹ ПожиHBaHOBa K.H. IlcHxojiorHqecKHH aHajiH3 KPHCOCB BoapaciHoro pa3BHTHH.// Bonpocbi ncHxojiorHH.1994.N21. C.61-69.

² PaxManoBa /I.P. OCOCHHOCTH nrepMHHaHHH cpxaxa y nonpocTKOB c pasjiHHHOH CHTYaiiHeii pa3BHTHji (na npHMepe MILTBHHKOB): /JHC. ... Kanu. ncHxoji. HayK. — T.: HWa , 2006. — 152 c.

lardagidan farq qilishini aytib o'tadi. Tadqiqotchi tomonidan dezintegratsion qo'rquv pubertat davridagi yosh xususiyati sifatida ko'rib, o'smirda ijtimoiy vaziyat malakasining rivojlanishi psixik holatlar xarakteri va psixotravmatik holatlarni yengib o'tishni belgilab berishi e'tirof etilgan.

D. R.Rahmonova tadqiqotining ijobiy tomonlari shundaki, u bu davr xususiyatlarini turli muhitda tarbiyalanayotgan o'smirlar misolida o'rganadi. Ya'ni ularning natijalarini o'zaro solishtirish orqali xulosa chiqaradi.

O'smirlarda stress holatidan keyingi psixologik xususiyatlarni tadqiq etgan G.V.Xrulnova jarohatdan keyingi stress holati belgilari, jarohatdan so'nggi stress holatining tarqalganligi, psixologik jarohatni boshidan o'tkazgan o'smirlardagi boshqa psixik buzilish va shaxsiy og'ishishning ifodalanishiga e'tiborini qaratib, jinsiy belgilar bo'yicha stressli holat dinamikasining psixologik xususiyatlarini yoritib beradi¹. GVXrulnovaning fikricha, o'smirlarning stressli vaziyatlardan chiqish malakalarining mavjud emasligi somatik, emotsional, xulq-atvor, kognitiv, shaxsiy bosqichda ma'lum darajada stressdan keyingi buzilishlarni vujudga keltiradi. U o'smirlarda stress reaksiyalarini vujudga kelishiga oiladagi, tengdoshlari va kattalar bilan shaxslararo munosabatlar jarayonidagi muammolar, travmatik malaka sabab bo'ladi, deb hisoblaydi.

O'quvchilarda emotsional barqarorlik va uning shakllanish masalalariga e'tiborini qaratgan M.G.Davletshinning shogirdi G.A.Bogdalova emotsional barqarorlik xususiyatlari tarkibi, mexanizmlarini hamda uning o'smirlik yoshidayoq shakllanish imkoniyatlari va prinsiplarini o'rgangan. G.A.Bogdalova tadqiqot natijalariga asoslanib, emotsional barqarorlikni quyidagi jarayonlarning natijasi sifatida ko'rsatadi^{1 2}:

¹ XpyjibHOBa T. B. HcHxojiorHHeckHe oco6eHHocTH nocTCTpeccoBbix coCToHHHH

² BornajioBa T.A. SMOHHOHajibHaji ycToiiHBOCTb H ee (JjopMnpoBaHne y yiamiixcn paHHero noapocTKOBoro BoapacTa: h^{HC}- ... Kaun. HCHXOJI. HayK. -T.: HYY3, 2000. - 175 c.

a) xulq-atvorda barcha emotsiyalarning e'tiborsiz namoyon etilishi;

b) emotsiyalarning osonlik bilan, silliqina bir holatdan ikkinchi holatga ko'chirilishi;

d) kishining o'z xulq-atvoriga mustaqil baho berishi.

O'smirlik davri xususiyatlari va emotsional o'zgarishlarni tadqiq etish B.M.Umarov ishlarida ham ko'rinadi¹. U bolalar hamda o'smirlar suitsidining yosh va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yoritib bergan bo'lib, olimning fikricha, o'qituvchi, o'quvchi hamda oila a'zolari o'rtasidagi shaxslararo nizolar, «sevgi-muhabbatga bog'liq bo'lgan nizolar», «qo'rquv», «his-hayajon», «g'am-g'ussa» va yosh davri «inqirozlari» bolalar, o'smirlar suitsidining asosiy sabablari bo'lib hisoblanadi. Muallif qo'rquv holatiga suitsidni yuzaga keltiruvchi omil sifatida qaraydi.

O'smirlar guruhida o'zini-o'zi psixologik muhofaza qilish jarayoniga e'tiborini qaratar ekan, Sh.R.Baratovning shogirdi E.M.Muxtorov o'smirlardagi o'zini-o'zi psixologik muhofaza qilish haqidagi tasavvurlarning shakllanishi eng avvalo ulardagi maktab hayotiga, o'zini o'zi baholashga, shaxslararo umumiy muloqotga bogliq bezovtalik me'yorlariga, shuningdek, o'smirlar faolligini ta'minlovchi xotirjamlik, g'ayrat-shijoatlilik, hissiy ko'tarinkilik, o'z-o'ziga ishonchlilik sifatlariga mutanosiblik yoki nomutanosiblik ko'rsatkichlarining namoyon etilishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi^{1 2}. Muallif o'smirlardagi o'zini o'zi adekvat hissiy baholash va ijtimoiy vaziyatga bog'liq me'yoriy bezovtalik motivatsiyasi ko'rsatkichlariga psixologik muhofaza mezonlari sifatida qaraydi.

O'smir shaxsi xususiyati, bu davrdagi o'ziga xos jihatlar va xulqiy buzilishlar bilan bog'liq muammolar G.K.Tulyaganova,

¹ Umarov B.M. Bolalar va o'smirlar suitsidining yosh va ijtimoiy psixologik xususiyatlari: Psixol. fan. nomz. ... dis. — T.: TDPU, 1993. — 154 b.

² Muxtorov E.M. O'smirlar guruhida o'zini o'zi psixologik muhofaza qilishning o'ziga xos xususiyatlari: Psixol. fan. nomz. ... dis. avtoref. —T.: TDPU, 2009. - 24 b.

N.G.Kamilova, E.I.Ganeyeva, Z.F.Kamaletdinova ishlarida yoritilgan. G.K.Tulyaganova «Tarbiyasi qiyin» o'smirlarning motivatsion ehtiyoj doirasidagi qiziqishlarining psixologik xususiyatlarini tadqiq etar ekan, uning ta'kidlashicha, tarbiyasi «qiyin» o'smirlar qiziqish sistemasi ko'p jihatdan ularni qurshagan «muhit» yetakchi ehtiyojiga, yosh xususiyatiga, muomala doirasiga bog'liqdir, mo'tadil o'smirlar tarbiyasi «qiyin»lardan farqli o'laroq o'z qiziqishlarini boshqarish imkoniyatiga egadirlar. Yosh xususiyatiga ko'ra qiziqishning o'zgaruvchanligi kichik maktab yoshidan boshlanadi, ularda qiziqishning zaif ifodalanganligi oldingi taraqqiyot bosqichi hosilasidir. G.K.Tulyaganovanning fikricha, 6-sinf-dan boshlab tarbiyasi «og'ir» o'smirlarda o'quv jarayoniga nisbatan qiziqish va motivatsiya susayadi, ammo ayrim tarbiyasi og'ir o'smirlar o'quv motivatsiyasi yuksakligi bilan ajralib turadilar¹.

Deviant xulq-atvorli o'smirlarda o'z-o'ziga baho berishning o'ziga xos xususiyatlari masalalari N.G.Kamilova ishlarida yoritilgan bo'lib, ijtimoiy maqbul xulq-atvorni ta'minlashda yordam beradigan o'z-o'ziga baho berishning asosiy xususiyati o'ziga bo'lgan emotsional-qadriyatli munosabatni belgilovchi, kongruentlik va o'z-o'zini anglash bilan xarakterlanuvchi konstruktivlik ekani ta'kidlanadi. Deviant xulq-atvorli o'smirlarda esa destruktiv o'z-o'ziga baho berish xos bo'lib, bu holat ularning shaxslararo munosabatlar jarayonida o'z o'rnini topishiga to'sqinlik qiladi, turli nizolarni vujudga keltiradi va shaxsdagi xulqiy buzilishlarga sabab bo'ladi^{1 2}.

O'smirlarda integral individuallik va uning rivojlanishida individual uslubning o'rnini masalalariga e'tiborini qaratgan E.L.Ganeyeva ta'lim-tarbiyaviy jarayonida o'quvchilarda muomala individual uslubi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini izohlab

¹ TyjjaranoBa T.K. JHTepeci «ipynHbix» noupoTKOB KBK oTpaXHjic HX MOThBaiJHOHHO-nOTpeSHOCTHOH Ctjiejpi: ABTOpetJ). UHC. ... KaHfl. nCHXOJI.

² KaMiuioBa HT. OCO66HHOCTH caMooiieHKH IPOPOCTKOB C jjeBHATHHbiM noBeaHHeM: ABTOpetJ). HHC. ... KaHji. HCHXOJI. HayK.— T.: HYY3, 2000,— 22

bergan¹. Olimaning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, individual muomala uslubi o'smir integral individualligi strukturasi-ning o'ziga xosligini belgilaydi, ya'ni turli ierarxik bosqichlari-ning xossalari aloqadorligini determinatsiya qilishda vositachi bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi.

O'smir xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlar sabablarini ijtimoiy omillar bilan bog'lagan V.M. Karimovanning shogirdi A.T.Kadirova o'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida oila muhitining, xususan, ota-onalarning o'zaro munosabatlari, ularning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati hamda har bir oila a'zosining ijtimoiy psixologik mavqeyi, oilaviy munosabatlarga tayyorlik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etadi. Shuningdek, o'smirlarda aniqlangan nizokashlik to'g'risidagi tasavvurlar mohiyatan oiladagi o'zaro munosabatlarga, nafaqat ota-ona bilan, balki aka-ukalar, opa-singillar o'rtasidagi muomala xarakteriga ham bog'liq ekanligini ta'kidlaydi^{1 2}.

VM. Karimovanning yana bir shogirdi O.A.Abdusattorova tomonidan o'smirlarda jinsiy identifikatsiya jarayonlarida namoyon bo'ladigan sifatlar, oila muhitida er-xotin va ota-onalik maqomlaridan kelib chiqadigan gender munosabatlar, jumladan liderlikka oid tasavurlar, ushbu holatlarga ta'sir etuvchi oilaviy rollar taqsimoti, gender ustanovkalar, ekspektatsiya va refleksiv jarayonlar o'rganilgan bo'lib, u oila muhitida ustuvor bo'lgan munosabatlar uslubi va er-xotin munosabatlari o'smir yoshlarning jinsiy identifikatsiya jarayoniga bevosita ta'sir qiladi, deb hisoblaydi³. Muallif-

¹ raneeBa 3.H. OopMnpoBaHne nnnMBiwyajiBHoro CTИИИ o6njeHMa y nouporTKO6 B yqeSHo-BocnHTaTeiibHOM npoiijecce: dnc. ... KaH,i. ПСНХОЛ. HayK. - T.: YaHY, 2002. - 159 c.

² Kadirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi: Psixol. fan. nomz. ... dis. —T.: O'zMU, 2007. — 146 b.

³ Abdusattorova O.A. Oila muhitida o'smirlarda shakllanadigan jinsiy identifikatsiyaning gender xususiyatlari: Psixol. fan. nomz. ... dis. — T.: O'zMU, 2007. - 155 b.

ning fikricha, o'smirning jinsiy identifikatsiyasida gender stereotiplarning ham o'rni bor, lekin bunday stereotip ustanovkalar ko'proq o'g'il bolalarga xos bo'lib, bu otaning sifatleri va gender munosabatlariga bog'liq; qizlardagi muskulinlikka moyillik va androgenlikning kuchli namoyon bo'lishi esa ulardagi yangicha fikrlash va onalarining oilaviy munosabatlar tizimidagi faol o'rni va jinslararo munosabatlarga nisbatan liderlik ustanovkasidan kelib chiqadi.

Xavotirlanishning tafakkur xususiyatlari bilan bog'liqlik masalalari R.I.Sunnatova ishlarida yoritib berilgan¹. U maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar va kattalarda masalalarni hal etishdagi fikrlash faoliyatining individual tipologik xususiyatlarini tadqiq etgan bo'lib, uning fikricha o'ziga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabat, ya'ni kongruentlik o'z-o'zini baholash darajasi, shaxsning intilishi, mustaqil rivojlanishga ko'maklashadigan konstruktiv o'z-o'zini baholash, o'zini yoqtirmaslik, ichki nokongruentlik, o'z-o'ziga konformlilik holatlari bilan ifodalanadi hamda o'z-o'zini realizatsiyalashda ichki to'siq bo'lib qoladi va mustaqil rivojlanish deformatsiyasiga olib keladi, ya'ni shaxs rivojlanishi umumiy yo'nalishiga destruktiv ta'sir etadi. Muallif himoyasizlik va keraksizlik hissi kohinishida namoyon bo'luvchi bolalardagi yuqori darajadagi xavotirlilik destruktiv o'z-o'ziga baho berish bilan bog'liqdir, deb ta'kidlaydi. R.I.Sunnatova fikrlash faoliyatining individual-tipologik xususiyatlarini o'rganib, bu xususiyatlar qatoriga mustaqil yoki mustaqil emaslik, o'zini o'zi baholashda konstruktivlik-destruktivlik, fikrlash faoliyatida qaror qabul qilish bo'yicha shaxslararo ta'sir o'tkazish holatlarida konfliktlik-konformlilik kabilar kirishini ta'kidlagan.

E. G.G'oziyev tomonidan shaxsda mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalalari o'rganilgan bo'lib, muallifning fikricha, ijodiy fikrlash quyidagi xususiyatlari bilan boshqa fikr yuritish jarayonlaridan muayyan darajada ajralib turadi: mazmundorligi,

¹ CyHHaTOBa P.K. nmjHBWiyjibHO-THnojirnqecKHe oCOBCHHOCTH MbicjiHTejib-

mantiqiyliги, umumiyliги, dinamikliги, qamrovliligi, noma'lumga intiluvchanliги, yechimda nostandartliги, yig'iqliги, yoyiqliги, originalligi, haqchilligi, izchilligi, bosqichma-bosqichliги, to'g'ri va teskari yo'nalganliги, uzluksizliги va h-k.¹ Z.Nishanova o'z izlanishlarida ijodiy tafakkurning ijtimoiy tabiatini, ijodiy tafakkurga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillarni o'rganadi. Z.T.Nishanovanning ta'kidlashicha, mustaqil ijodiy fikrlash darajasi yuqori shaxslar o'zlarini noadekvat baholaydilar. Guruh muhitida tan olingan a'zolari o'zlariga guruhiy baholashga nisbatan quyi baho beradilar, lekin ularda mustaqil ijodiy fikr yuqori ko'rsatkichga ega. Guruhdan ajralib qolgan a'zolar esa guruhiy baholashga nisbatan o'zlarini yuqori baholaydilar, biroq ularda mustaqil, ijodiy fikr ko'rsatkichi quyi rivojlangan^{1,2}.

O'smir o'quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etgan T.S.Jo'rayev aqliy taraqqiyotni ro'yobga chiqaruvchi asosiy omil sifatida o'quv faoliyatining umumlashgan usullarini ko'rsatadi³. Muallifning fikricha, o'quvchilarning yoshi va saviyasi orta borishi bilan murakkab usullarni yangi sharoitga ko'chirish uquvi ularda takomillashadi, usullarning ko'chish ko'lamini kengayadi va fanlararo xususiyat kasb etadi, bu aqliy faoliyatning muhim omili sanaladi. T.S.Jo'rayev o'quvchilar aqliy faoliyatining ko'rsatkichi bir xil emasligini ta'kidlab, bu xususiyat ularning saviyasiga, topshiriqni yechish motivatsiyasiga bog'liqligini aytib o'tadi. Muallif ta'lim jarayonida o'smir o'quvchilarda aqliy faoliyat usullarini shakllantirish shaxs aqliy kamolotini ta'minlashning muhim mezonini deb hisoblaydi.

X.G.Sharafutdinova tomonidan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida aqliy qobiliyatlar tadqiq etilib, uning uzluk-

¹ G'oziyev E. Umumiy psixologiya. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010. - 548 b.

² Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari: Psixol. fan. dok. ... dis. - T.: O'zMU, 2005. - 391 b.

³ Jo'rayev T.S. O'smir o'quvchilar aqliy rivojlanishining psixologik xususiyatlari: Psixol. fan. nomz. ... dis. — T.: O'zMU, 2005. — 171 b.

sizligini xarakterlovchi, unda mavjud kamchiliklarning psixologik tavsifini beruvchi ma'lum sabablar mavjudligi kuzatilgan. Muallif o'zining izlanishlari natijasida umumta'lim maktabi o'quvchilari, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi o'quvchilari hamda oliy o'quv yurti talabalari intellektual imkoniyatlari xususiyatlarida dinamik o'sishdan ko'ra anchagina notekis o'sish mavjud, degan xulosaga keladi¹. Muallif tomonidan aqliy qobiliyatni psixodiagnostika qilish metodikasi modifikatsiya qilinib, aqliy qobiliyati past bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan psixokorreksion mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan.

M.G.Davletshin rahbarligida M.P.Babaxanova tomonidan «O'smirlarda kitobxonlik qiziqishlarini shakllantirish» mavzuidagi ilmiy tadqiqot olib borilgan^{1 2}. O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, o'quvchilarda kitobxonlik qiziqishlarini rivojlantirishda oila, atrofdagi kattalar va tengdoshlari ta'sir kohsatadi. O'quvchilarda kitobxonlik qiziqishlarining rivojlantirishiga maxsus ishlab chiqilgan sinfdan tashqari mashg'ulotlar tizimi ham ta'sir etadi, ular o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, bilimlarini chuqurlashtiradi, o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishga imkon beradi, kitob o'qishga qiziqishni rivojlantiradi. Tadqiqotda kitobxonlik qiziqishlari hayotiy qiziqishlar bilan bog'liqligi isbotlandi.

O'zbekistonda olib borilgan o'smirlik davridagi bolalarni o'rganishga baghshlangan tadqiqotlardan biri G.Q.To'laganova rahbarligida N.M.Dalimova tomonidan olib borilgan «Kompyuter o'yinlariga tobe o'smirlarning psixologik diagnostikasi va korreksiya xususiyatlari» mavzuidagi tadqiqot ham qiziqish uyg'otadi³. N.M.Dalimovanning ta'kidlashicha, kompyuter o'yinlariga tobe

¹ Sharafutdinova X.G. Uzluksiz ta'lim tizimida aqliy qobiliyat diagnostikasi va psixokorreksiya: Psixol. fan. nomz. ... dis. — T.: TDPU, 2009. — 198 b.

² Babaxanova M.IT. cbopMupoBaHue 'iriTaTCJibCKnx HHTcpecoB y HOAΠOCTKOB.-

³ Dalimova N.M. Kompyuter o'yinlariga tobe o'smirlarning psixologik diagnostikasi va korreksiya xususiyatlari. Avtoref.... ps.f.n. —T., 2010.-24 b.

o'smirlar oilada, shaxslararo munosabatlarda, ijtimoiy muhitga moslashishda, maktabda birmuncha qiyinchiliklarga duch keladi. Shuningdek, muallif bolalar kompyuterdan oddiy kunlari 2 soatdan ortiq, dam olish kunlari 3 soatdan ortiq foydalanmasligi zarurligini ta'kidlagan. O'smir o'ynayotgan o'yinlarda aqliy rivojlantiruvchi va mantiqiy o'yinlarning ko'proq bo'lishi maqsadga muvofiq.

F. I.Haydarov rahbarligida N.I.Xalilova tomonidan «O'smirlik davrida o'zini o'zi nazorat qilish shakllanishining psixologik xususiyatlari» mavzuidagi ilmiy tadqiqoti ham e'tiborga molik¹. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, o'smirlik davrida mustaiql fikr, mustahkam e'tiqod va dunyoqarash shakllanganligi ularda axloq sohasida o'zini o'zi nazorat qilishning rivojlanishiga olib keladi va bu ko'proq ijtimoiy xulq-atvorlar, munosabatlarda, o'zini tuta bilish hamda javobgarlikni his qilish, mustaqillikka intilish, axloqiy qarashlarning kengayishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Z.Nishanovanning shogirdi Sh.T.Alimbayeva tadqiqotlarida o'smirlik davrida xavotirlanishning ijodiy tafakkurga ta'siri o'rganilgan^{1 2}. Xavotirlanish namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlaridan biri ushbu hissiy holatning ijodiy tafakkur namoyon bo'lishi va uning taqdimotiga ta'sirida ifodalanadi. Ammo xavotirlanishning ijodiy tafakkur namoyon bo'lishiga ta'siri bilvosita amalga ohsa, ijodiy tafakkur mahsullarini taqdim etish jarayoniga ta'siri bevositalik xarakterini kasb etadi.

Xavotirlanishning ijodiy tafakkurga ta'sirida o'quv motivatsiyasining bilvositalovchi roli mayjud. Ichki o'quv motivatsiyasi ustun bo'lganda xavotirlanish ijodiy tafakkurning namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatmasligi, tashqi motivatsiya ustun o'quvchilarda esa ushbu ta'sir ma'lum darajagacha stimulyer va-

¹ Xalilova N.I. O'smirlik davrida o'zini-o'zi nazorat qilish shakllanishining psixologik xususiyatlari. -T.: TDPU.2010.-24 b.

² Alimbayeva Sh.T. O'smirlar o'quv faoliyatida xavotirlanish namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari. Ps.f.n.... dis. —T., 2011. -148 b.

zifasini bajarib, xavotirlanishning yuqori darajasida esa ijodiy tafakkurning susayishiga sabab bo'lishi aniqlandi. Shuningdek, o'quvchilardagi ichki o'quv motivatsiyasining yuqori bo'lishi shaxs bilan bog'liq xavotirlanishning pasayishiga olib kelsa, tashqi o'quv motivatsiyasining ustunligi shaxs bilan bog'liq xavotirlanishning ortishiga sabab bo'ladi. Ichki motivatsiya ustun bo'lganda taqdimot natijalarining past bo'lishini, tashqi motivatsiya ustun bo'lganda esa aksincha, ijodiy tafakkur mahsullarini taqdim etish darajasining yuqori bo'lishini ko'rish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. O'smirlilik davrining asosiy psixik xususiyatlari.
2. O'smirlilik davridagi yetakchi faoliyat turi.
3. O'quv faoliyatining qayta tuzilishi hamda o'smirdagi bilish jarayonlarining rivojlanishi.
4. O'smirlilik davri krizisi, sabablari va namoyon bo'lishi.
5. «Tarbiyasi qiyin» o'smir xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlar va ularga psixologik yondashuv.
6. O'smirlilik yoshida individual yondashuv.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. O'smirlilik yoshiga o'tishda yuzaga keladigan asosiy qayta shakllanish nimalardan iborat?
 - a) bolaning tasavvurlari o'z bolaligi haqida emas, balki o'zining katta bo'lganligini his etishidan;
 - b) begativizm, janjallik holatlari, o'zini bola deb hisoblashni istamasligida;
 - *c) mustaqillikka intilish, tevarak-atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabatlarda bo'lishida;
 - d) bilish jarayonlari rivojlanishining sekinlashishida.
2. O'smirlar bilan kattalar o'rtasidagi nizolarning kelib chiqish sabablari nimalarda aks etadi?
 - a) ota-onalarning o'smirlarni «kattalashish» darajasini og'ir kechirishlarida;

*b) kattalarda o‘smirlarga nisbatan bo‘ladigan munosabatlar kichkina bolaga bo‘lgan munosabatdek saqlanib qolishida;

c) o‘smirlarning moddiy tomondan kattalarga butunlay bog‘liq bo‘lib turishida;

d) bilish jarayonlari rivojlanishining sekinlashishida.

3. O‘smirlik yoshida o‘zaro munosabatlarning xususiyatlari va «tanglik» davrining kechishi nima bilan aniqlanadi?

*a) o‘smirning ijtimoiy mavqeyi kattalar olamiga o‘tishi bilan;

b) o‘smir organizmida anatomik-fiziologik o‘zgarishlarning xarakteri bilan;

c) o‘smirda o‘qish motivlarining asta-sekin tarkib topishi bilan;

d) bilish jarayonlari rivojlanishining sekinlashishida.

4. O‘smirlik davrida aqliy rivojlanish nimalarda aks etadi?

a) nutqning faollashuvi, dunyoqarashning o‘shida;

b) bilish jarayonlari rivojlanishining jadallashishida;

*c) barcha javoblar to‘g‘ri;

d) bilish jarayonlari rivojlanishining sekinlashishida.

5. «Tarbiyasi qiyin» o‘smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlang.

a) shaxsning psixik o‘shidagi kamchiliklar, irodaning bo‘shligi;

*b) shaxsning biologik nuqsonlari, shaxs tarbiyasidagi nuqsonlar, psixik kamolotidagi, maktab ta‘limi va tarbiyasidagi kamchiliklar, maktabdan tashqari muhitdagi nuqsonlar;

c) silaviy nizolar, oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi va tengqurlarining ta‘siri;

d) bilish jarayonlari rivojlanishining jadallashishida.

XVII BOB. O‘SPIRINLIK DAVRI

Reja:

1. O‘spirinlik psixologik yosh sifatida rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari.
2. O‘spirinlik davrida yetakchi faoliyat.
3. O‘spirinlik davrida intellektual rivojlanish.
4. Shaxs rivojlanishi.
5. O‘spirinlik davrida muloqot.

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Talimiy: Talabalarga o‘spirinlik davrining psixik xususiyatlari, bu davrdagi aqliy va emotsional rivojlanish, shaxs xususiyatlari haqida tushuntirish va anglatishdan iborat.

Tarbiyaviy: O‘spirinlik davrining psixik xususiyatlari bilan tanishtirish orqali shaxsda o‘z-o‘zini boshqarishni, irodaviy va shaxsiy sifatlarni tarbiyalash.


Rivojlantiruvchi: Talabalarda o‘spirinlik davrining psixik xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: ilk o‘spirinlik, o‘spirinlik, intellektual rivojlanish, yetakchi faoliyat, muloqot, emotsional rivojlanish, yangi psixologik tuzilma.

17.1. O‘spirinlik psixologik yosh sifatida rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari

Ilk o‘spirinlik davri «kamolot bo‘sag‘asi» deb ta’riflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o‘z ichiga oladi. Psixologiya fani o‘spirinlik muammosini kompleks o‘rganishni da’vat etadi.

Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur‘ati bilan uning bosqichlari ijtimoiy yetilish muddati bilan hamma vaqt ham to‘g‘ri kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi ilk o‘spirinlarning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o‘rtacha ikki-uch yil avval yetilmoqda. Fiziologlar bu jarayonni 2-darajali jinsiy belgilarning paydo bo‘lishiga qarab, 3 ta bosqichga ajratadilar:



Akseleratsiya munosabati bilan o‘spirinlik yoshining chegarasi endi 15—16 dan 23 yoshgacha bodmoqda. Bunda ilk o‘spirinlik 15—18 yosh, o‘spirinlik 18—23 yoshdagi yigit va qizlarni o‘z ichiga oladi. Demak, o‘spirinlik ham oldin boshlanadi. Lekin, bu taraqqiyot davrining konkret mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning mavqei, ular egallaydigan bilimlarning hajmi va bir qator boshqa omillar ijtimoiy sharoitlarga bog‘liqdir.

Uk o‘spirinlik yoshidagi bolalar bu 15 yoshdan 17—18 yoshgacha bo‘lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilaridir. O‘spirinlik — bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi. o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi davri, fuqaro va vatanparvarning ma’naviy sifatleri tarkib topadigan davrdir. Faol ijtimoiy hayot, o‘qishning yangi xarakteri (mustaqil bilim olish) yigit va qizlarda dunyoqarashning shakllanishiga, ularda mustaqillik va burch hissining tarkib topishiga, bilimning turli sohalarida ularning ijodiy qobiliyatini avj oldirishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Rus psixologi L.I.Bojovich ilk o‘spirinlik davrida shaxs motivatsion sohasining rivojlanishiga urg‘u beradi: o‘quvchilarning hayotda o‘z o‘rnini va ichki pozitsiyasini aniqlashi, dunyoqarashning shakllanishi va uning bilish faoliyatiga, o‘z-o‘zini anglashga va axloqiy ongga ta’siri nazarda tutiladi.

Ilk o‘spirinlar mustaqil hayot sohasida yaqin istiqbolga ega bo‘lar ekanlar, o‘zlarining hayot yo‘llarini belgilab olishga, bundan buyongi mehnat faoliyatlarining aniq istiqbollarini aniqlab olishga, o‘zlarining kelgusi ixtisoslarini tanlashga intiladilar. Shu

munosabat bilan kasb-hunarga oid qiziqishlar tarkib topadi va yanada barqarorroq bo'lib qoladi, yigit va qizlar o'z kelajaklari haqida jiddiyroq o'ylay boshlaydilar.

Ilk o'spirinlik davridagi jismoniy rivojlanish ustida to'xtalib o'tamiz, bu narsa quyidagi sabablarga ko'ra muhimdir. Jismoniy rivojlanishning ayrim xususiyatlari ilk o'spirin shaxsining ayrim sifatlari rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi va uning bundan keyingi hayot faoliyati sohasidagi imkoniyatlarini bir qadar belgilab beradi. Birinchidan bu o'rinda kasb tanlash nazarda tutiladi, bu esa ma'lum darajada yigit va qizlarning individual jismoniy tuzilishi xususiyatlariga ham bog'liqdir. Ikkinchidan, jinslarning o'zaro mayli ta'sir ko'rsatadiki, bunda jismoniy rivojlanish xususiyatlari ancha muhim rol o'ynaydi. O'zining jismoniy kuchini va jozibadorligini, sog'lomligi va mukammalligini his etish yigit va qizlarda o'ziga ishonch, dadillik, tetiklik, optimizm va xushchaqchaqlik singari sifatarning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bo'ying o'sishi o'spirin qizlarda 15—16 yoshgacha, o'g'irlarda 17—18 yoshgacha davom etadi. Bu yoshda muskullar kuchi tez o'sadi. Masalan, 18 yoshli bola muskul kuchi 12 yoshli bolaga nisbatan 2 baravar ko'p bo'ladi. Jismoniy taraqqiyot asosan, to'g'ri ovqatlanish rejimiga va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishiga ko'p jihatdan bog'liq. Jinsiy taraqqiyot jihatdan bu yoshdagi ko'pchilik yigit va qizlar postpubertat (tugallanuvchi) davrda bo'ladilar. Bularning jismoniy rivojlanishi katta yoshdagi odamning jismoniy rivojlanishidan kam farq qiladi. Bo'ying va organizmning notekis o'sishi va rivojlanish davri tugallanadi hamda jismoniy rivojlanishning nisbatan birmuncha tekis davri boshlanadi. O'spirinlik yoshida jismoniy sifatlari (bo'y, og'irlik) nisbatan barqaror darajaga yetgan bo'ladi. Shuningdek, muskul kuchi va ishchanlik qobiliyati sezilarli darajada ortadi.

Ko'krak qafasining hajmi kengayadi, skelet, naychasiimon suyaklar qattiqlashadi, to'qimalar va a'zolarining shakllanishi va funksional taraqqiyoti tugallanadi. Odatda bu yoshda yurak va

qon tomirlarning rivojlanishida o'smirlarga xos bo'lgan notekislik endi tekislashadi, qon bosimi baravarlashadi, ichki sekretsiya bezlari bir me'yorda ishlay boshlaydi. Nerv sistemasining va xususan, miya rivojlanishidagi o'zgarishlar ma'lum bo'lib qoladi. Lekin, bu o'zgarishlar miya massasining ortishi hisobiga emas, balki miyaning ichki hujayralari tuzilishining murakkablashuvi hisobiga ro'y beradi.

Katta yarim sharlar qatlamidagi hujayralarning tuzilishi sekin-asta katta yoshdagi kishi miyasining hujayralariga xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'ladi. Bosh miya po'stining qismlarida asotsiativ to'qimalarning miqdori ko'payadi. Natijada o'qish va mehnat jarayonida katta (yarim sharlar) qatlamining analitik-sintetik faoliyati murakkablashadi. Ba'zan bu yoshdagi o'quvchilarda nerv qo'zg'aluvchanligining ortishi, nerv sistemasi normal ishlashining buzilishi ko'pincha noto'g'ri yashash rejimining: tungi mashg'ulotlar, to'yib uxlamaslik, toliqish, chekish, noratsional ovqatlanish, zararli odatlar va boshqa ayrim sabablarning natijasida ro'y beradi.

Ilk o'spirlik yoshining boshlanishida odatda jinsiy yetilish tugallanadi, ikkilamchi jinsiy belgilar rivojlanadi, bu hol yigit va qizlarning tashqi kohinishida ham sezilarli o'zgarish hosil qiladi. Jinsiy yetilish davrining tugallanishi hali jismoniy yetuklikni ham, buning ustiga psixik va ma'naviy yetuklikni ham anglatmaydi. Faqat 18 yoshga borib, nikohdan o'tishga ruxsat beriladigan davrda, shu yosh uchun minimal darajada zarur bo'lgan jismoniy, ma'naviy, fuqarolik yetuklik darajasi boshlanadi. 18 yoshli yigit va qizlar jamiyat tomonidan katta yoshli kishilar deb e'tirof etiladi.

Ilk o'spirinlik davrini ikkinchi o'tish davri deb hisoblash mumkin. Agar birinchi o'tish davri ko'proq bolalikka yaqin bo'lsa, ikkinchi o'tish davrida bo'lgan o'spirin ko'proq yoshlik davriga yaqindir va shu jihatidan o'rganiladi hamda tadqiq etiladi. Ilk o'spirinlik davri, asosan, unda mustaqil hayotning boshlanishi (o'rta maktabni tamomlab, litsey, kollejlarga kirishi) bilan xa-

rakterlanadi. Hayotdagi bu o'zgarishlar ilk o'spirinning shaxsiga, o'z-o'zini anglashiga ta'sir ko'rsatadi. O'smirlardan farqli o'laroq ilk o'spirinlar katta hayotni tasavvur etmaydilar, balki unda ishtirok etadilar.

Ilk o'spirinlarning mustaqilligi ortishi bilan kattalarning unga munosabatlari ham o'zgaradi. Kattalar o'smirlarga ko'proq bola deb qarasarlar, ilk o'spirin yoshdagilarga katta odamdek munosabatda bo'ladilar. Ilk o'spirinlar hayotda o'z o'rnini topishga nisbatan intilishi anglangan holatda bo'ladi. U o'z hayotiy rejalarini amalga oshirish uchun harakat qila boshlaydi va ma'lum bir kasbni egallay boshlaydi yoki shu soha bo'yicha akademik litseylarda o'qishini davom ettiradi. O'spirinlar tanlagan sohalari yoki kasblarida juda katta yangiliklar, kashfiyotlar qilgilari keladi, lekin asta-sekinlik bilan yangilik va kashfiyotlar qilish uchun ularda bilim va tajriba yetishmayotganligini, buning uchun ko'proq o'qish va o'rganishlari kerakligini anglay boshlaydilar.

Hayot faoliyati kengaygan sari, o'spirinlarda ijtimoiy rollar kengligi faqat miqdor tomondangina kengayib qolmay, balki sifat tomonidan ham o'zgarib boradi. Masalan: 16 yoshda pasport oladi; 18 yoshidan faol saylash huquqiga va oila qurish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'spirin jinoiy ishlar uchun javobgar bo'ladi. Ba'zi o'spirinlar bu yoshdan boshlab ishlay boshlaydilar. Kasb tanlash haqida o'ylay boshlaydilar. Lekin, shunga qaramay o'spirinlarda kattalarga qaramlik xususiyatlari saqlanib qoladi.

O'spirinlar (16—18 yoshlar) o'zlarining psixologik xususiyatlari

bilan boshqa yosh davrdagi bolalardan keskin farq qiladilar. Jismoniy hamda aqliy jihatdan voyaga yetgan, kamolotga erishgan, dunyoqarashi, o'z-o'zini boshqarishi kabi yetuk insoniy xususiyatlari tarkib topgan bo'ladi. Ular vazmin, mulohazali bo'ladilar, katta yoshdagilarga hurmat-ehtirom bilan qaraydilar. Ular uzoqni ko'zlaydigan, kelajak uchun qayg'uradigan, ota-onalarining yaqin yordamchisiga aylanadilar. O'quv faoliyati o'spirinning asosiy faoliyati bo'lib qolaveradi, o'qishga nisbatan o'smirlik yoshiga qaraganda o'spirinlikda birmuncha yuqoriroq bo'ladi. Mustaqil

hayotga tayyorgarligini o'z-o'zini anglashi bilan bog'liq motivlar bu davrda yetakchi o'rinni egallaydi. Motivlar tizimida jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishga intilish, insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu davrda o'spirinlarning kelgusi hayoti va tanlayotgan kasbiy rejalariga ko'ra fanlarga nisbatan qiziqishlari o'zgaradi. O'spirinning fanlarga hamda shu fan o'qituvchilariga nisbatan munosabati o'zgaradi. O'spirinlik davrida o'zi ko'zlagan maqsadlariga erishishga asoslangan motivlar birinchi o'ringa ko'tariladi. O'smirlar o'zlarining o'qishga bo'lgan munosabatlari va ularning o'qish-o'rganishga undovchi sabablarni yaxshi anglaydilar. O'spirinlik yoshida boshdan kechiriladigan his-tuyg'ularning boyligi, xilma-xilligi bilan, hayotning turli tomonlariga emotsional munosabatda bo'lishi bilan ajralib turadi.

Rus psixologi L.S.Vigotskiy 1920-yillardayoq ilk o'spirinlar haqida nazariyalar ko'pligini ta'kidlagan edi. Ilk o'spirinlar haqida 3ta yirik yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin.



Birinchi yo'nalish biogenetik yo'nalish deb ataladi, uning asosida yetilishning biologik jarayonlari yotadi. Ikkinchi yo'nalish sotsiogenetik yo'nalish deb ataladi, unda asosiy e'tibor ijtimoiylashuvga qaratiladi. Uchinchi yo'nalish psixogenetik deb atalib, uning asosida psixik jarayonlar va funksiyalarning rivojlanishi yotadi.

Taraqqiyotning biogenetik nazariyalarida rivojlanishning biologik determinantlariga asosiy urg'u beriladi. Rivojlanish jarayonining o'zi bosqichlari universal bo'lgan yetilish sifatida talqin etiladi. Bu yo'nalishning yorqin namoyandalaridan biri XX asr amerikalik psixolog S.Xolldir. Uning ta'kidlashicha, rivojlanish psixologiyasining asosiy qonuni biogenetik «rekapitulyatsiya qonuni» hisoblanadi, unga ko'ra individual rivojlanish, ontogenez filogenezning asosiy bosqichlarini takrorlaydi. Go'daklik rivojlanishning hayvonot fazalarini takrorlaydi. Bolalik qadimgi odamlarning asosiy mashg'ulotlari ovchilik va baliq ovlash bo'lgan davrga to'g'ri keladi. 8 dan 12 yoshgacha bo'lgan davr o'smirlikdan oldingi davr deb ataladi, yovvoyilik tugallanib, madaniyatning boshlanishi deb tahiflaydi. 12—13 yoshdan 22—25 yoshgacha bo'lgan davrni o'spirinlik deb ataladi, kattalikning boshlanishi, romantizm davri deb ataladi. Bu davrda tashqi va ichki nizolar avj olib, insonda «individual hissi» paydo bo'ladi. Holning bu nazariyasi psixologlar tomonidan tanqid qilinadi.

Biogenetik nazariyaning boshqa varianti nemis «konstitutsional psixologiya» vakillari tomonidan ishlab chiqildi. E.Krechmer va E.Yensh ba'zi biologik omillar asosida (tana tuzilishi tiplari va boshqalar) shaxs tipologiyalari muammolarini ishlab chiqib, insonning jismoniy tiplari va uning rivojlanish xususiyatlari orasida qandaydir bog'lanish mavjud bo'lsa kerak, deb taxmin qiladilar. E.Krechmer barcha insonlarni ikki tomonga joylashtirish mumkin, bir tomonda sikloid (oson qo'zg'aluvchan, kayfiyati o'zgaruvchan) ikkinchi tomonda shizoid (kamgap, hissiyotlari yorqin bo'lmagan) tiplarni joylashtirish mumkin. Krechmerning shogirdi K.Konradning ta'kidlashicha, bu tavsiflarni yosh bosqichlariga ham qo'llasa bo'ladi: O'smirlikdan oldingi davr «sikloid», ilk o'spirinlik esa «shizoid» davrga to'g'ri keladi. Shizoid shaxsning o'spirinligi murakkab va og'ir kechadi, uning xislatlari individual-tipologik xususiyatlar bilan yanada chuqurlashadi. Sikloid shaxs ilk o'spirinlik xavotirlanishlarini yengil shaklda boshidan

kechiradi, bu yoshning xususiyatlari uning tipologik xususiyatlari bilan muvozanatlashadi.

Nemis olimi V.Seller «Konstitutsiya va rivojlanish» asarida (1952) ta'kidlashicha, psixik va somatik rivojlanish orasidagi bog'lovchi zveno bola tana tuzilishining o'zgarishi va uni anglash hisoblanadi.

Biogenetik yo'nalish namoyandalari olimlar e'tiborini taraqqiyotning psixik va jismoniy o'zaro bog'liqligini o'rganishga qaratdilar. Bu psixofiziologiya uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Psixika taraqqiyotini faqat biologik qonunlar asosida tushunish muvaffaqiyatga erishmadi. Ular taraqqiyotning ijtimoiy omillarining rolini yo'qqa chiqarib, faqat biologik omillarning rolini bo'rttirmoqchi bo'ldilar. Shunday nazariyalardan biri mashhur amerikalik psixolog A.Gezell nazariyasidir. U taraqqiyotda biologik omillarga urg'u beradi. Gezellning fikricha, ilk o'spirinlik yoshi 11 dan 21 yoshgacha davom etadi, ulardan birinchi besh yil (11 dan 16 yoshgacha) bo'lgan davr juda muhimdir. Uning ta'kidlashicha, o'n yil, oltin davr bo'lib bola muvozanatli, hayotni oson idrok etadi, ota-onasi bilan muomalasi yaxshi, tashqi ko'rinishi haqida qayg'urmaydi. 11 yoshdan organizmda qayta qurish boshlanadi; bola ta'sirchan bo'lib qoladi, qarshilik ko'rsatish (negativizm), kayfiyatning tez o'zgarishi, tengdoshlari bilan janjallar, ota-onaga qarshi isyon paydo bo'ladi. 12 yoshda hayotga munosabat ijobiylasha boshlaydi, o'smirning oiladan uzoqlashishi hamda tengdoshlarining ta'siri kuchaya boradi. Bu yoshdagi asosiy xislatlar: aqllilik, chidamlilik va hazil; o'smir bajon-u dil tashabbus bilan chiqadi, tashqi ko'rinishi haqida qayg'ura boshlaydi va qarama-qarshi jins vakillariga qiziqishi ortadi. 13 yoshlilarning asosiy xislatlari — o'smir o'zi bilan o'zi bo'lib, introvertlik xislatlari kuchayadi; o'z-o'zini tanqid qiladi, tanqiddan tez xafa bo'ladi, psixologiya bilan qiziqqa boshlaydi, ota-onaga ham tanqidiy munosabatda bo'la boshlaydi, do'st tanlashi ham o'zgarib boradi, somatik o'zgarishlar kuchayganligi sababli kayfiyatning tez o'zgarishi namoyon bo'ladi.

14 yoshda introversiya ekstroversiya bilan almashadi, o'smir muloqotchan, kuch-quvvatga to'la, o'ziga ishonchi ortgan, insonlarga va ular orasidagi farqqa qiziqish ortadi. U o'zini boshqalar bilan solishtirishni, kino va adabiy qahramonlarga o'zini o'xshatib, muhokama qilishni yoqtiradi. Gezellning ta'kidlashicha, 15 yoshlilarning xususiyatlarini yagona shaklda ifodalash qiyin, chunki individual farqlar ortib boradi. Bu yoshdagi yangi psixologik tuzilma — mustaqillik ruhining ortishi bo'lib, bunda o'smirning maktab va oilaga munosabati kuchayadi, tashqi nazoratdan qochish o'z-o'zini nazorat qilish va ongli o'z-o'zini tarbiyalash bilan uyg'unlashadi. Bularning barchasi o'smirning salbiy ta'sirlarni idrok qilish va tez xafa bo'lishini orttiradi.

16 yoshda yana osoyishtalik boshlanadi: isyonchilik xushchaqchaqlikka aylanadi, ichki mustaqillik, hissiy barqarorlik, muloqotchanlik, kelajakka intilish kuchayadi. Shunday qilib, Gezellda biogenetik konsepsiya taraqqiyotning turli jihatlarini, xronologik birlashtirilgan tavsiflashga aylanadi.


Sotsiogenetik nazariyalarda ilk o'spirinlik xususiyatlari jamiyatning tuzilishidan, ijtimoiylashuv usullaridan, boshqalar bilan o'zaro ta'sir xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ilk o'spirinlikni o'rganishda sotsiogenetik yo'nalish ijtimoiy psixologiyaning ta'siri bilan bog'liq. Nemis psixologi K.Levinning «maydon nazariyasi» bo'yicha insonning xulq-atvori, bir tomondan shaxsning, ikkinchi tomondan uni o'rab turgan muhitning funksiyasidir. Lekin shaxs xususiyatlari va muhit xislatlari o'zaro bog'liq. Bola oiladan, maktabdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi, chunki bu ijtimoiy institutlar alohida olingan individlarsiz bo'lishi mumkin emas. Levin shaxsiy va muhit tarkibiy qismlarining birligi va o'zaro ta'sirini hayotiy yoki psixologik fazo deb ataydi. O'tish davrining muhim jarayonlari sifatida Levin shaxs hayotiy dunyosining, muloqot doirasining kengayishi deb hisoblaydi. Ilk o'spirinning xulq-atvori o'zgaruvchandir. Bolalikdan kattalikka o'tgan o'spirin, to'liq unisiga ham, bunisiga ham kirmaydi. Uning hayotiy dunyosi va ijtimoiy vaziyatdagi bu xususiyati intilish dara-

jasining noaniqligi, ichki qarama-qarshilik, kuchli tortinchoqlik va agressivlik kabi psixikasining holatlarida namoyon bo'ladi. Bunday nizolar qanchalik ko'p bo'lsa, bolalar dunyosi va kattalar dunyosi orasida farq shunchalik ko'p bo'ladi.

Levin konsepsiyasining yutug'i shundaki, u o'spirinlikni ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida qaraydi, shaxsning psixik taraqqiyotini uning ijtimoiy holatining o'zgarishi bilan bog'laydi.

Ilk o'spirinlik biogenetik va sotsiogenetik yo'nalishlarining umumiy xususiyati shundaki, taraqqiyotning manbaalari va harakatga keltiruvchi kuchlarini ular psixik omillardan tashqarida izlaydilar. Birinchi holda organizmda ro'y beradigan biologik jarayonlarga urg'u beriladi, ikkinchisida shaxs ishtirok etadigan ijtimoiy jarayonlarga urg'u beriladi.

Psixogenetik yo'nalish har ikkala yo'nalishning ahamiyatini kamaytirmagan holda, psixik jarayonlarning rivojlanishini birinchi o'ringa qo'yadi. Bu yo'nalishni uchga bo'lib o'rganish mumkin. Ular:



Xulq-atvorni hissiyot, mayl va boshqa psixikaning ratsional bo'lmagan tarkibiy qismlari bilan tushuntiruvchi nazariya psixodinamik nazariya deb ataladi. Bilish qobiliyatlari va intellektning rivojlanishiga urg'u beriladigan konsepsiya kognitiv yoki kognitiv-genetik konsepsiya deb ataladi. Shaxsning rivojlanishiga urg'u beriladigan konsepsiyalar personologik konsepsiyalar deb ataladi.

Ilk o'spirinlik haqida psixodinamik nazariyaning yirik namoyandasi mashhur amerikalik psixolog E.Erikson hisoblanadi. Uning falsafiy-metodologik qarashlari freydistik-psixoanalizning davomi hisoblanadi. Z.Freyd shaxs taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi biologik jinsiy mayl («libido») deb hisoblaydi. Eriksonning ta'kidlashicha, insonning rivojlanishi, o'zaro bog'liq uch jarayondan iborat: biologiya o'rganadigan jismoniy taraqqiyot, psixologiya o'rganadigan ongli «Men»ning rivojlanishi, ijtimoiy fanlar o'rganadigan ijtimoiy rivojlanish. Taraqqiyotning asosiy qonuni — «epigenetik prinsip» bo'lib, rivojlanishning har bir yangi bosqichida oldingi bosqichlarda bo'lmagan yangi hodisa va xislatlar paydo boiadi. Taraqqiyotning yangi fazasiga o'tish «normativ inqiroz» shaklida o'tadi, u tashqaridan patologik hodisaga o'xshaydi, lekin o'sishning normal qiyinchiliklarini ifodalaydi.

Taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tish oldingi bosqichga xos bo'lgan asosiy qarama-qarshilikni hal qilish asosida mumkin bo'ladi. Agar qarama-qarshilik hal qilinmasa u albatta keyin namoyon bo'ladi.

Erikson hayotiy siklni sakkiz bosqich (faza)ga bo'ladi.

Birinchi bosqich — go'daklik. Uning asosiy maqsadi — tashqi dunyoga «ishonish» hissini hosil qilishdir. Uning asosiy vositasi ota-onaning muhabbati va g'amxo'rligidir. Agar go'dakda «asosli ishonish» vujudga kelmasa, unda dunyoga «asosli ishonmaslik», xavotirlanish hissi paydo bo'ladi.

Ikkinchi bosqich — ilk bolalik — bolada uyat va shubhalanish kabi hislar paydo bo'ladi. Bolada mustaqillik, mas'uliyat, tartib va intizomni hurmatlash kabi xislatlar paydo boiadi.

Uchinchi bosqich — o'yin yoshi (5—7 yosh) tashabbus hissi, nimadir qilish hissi paydo boiadi. Bu yoshda guruhiy o'yinlar, tengdoshlari bilan muloqot, xayolning rivojlanishi muhim hisoblanadi. Bu yoshda adolat, qoidaga mosligini tushunish hissi paydo boiadi.

To'rtinchi bosqich — maktab yoshidagi yangi psixologik tuzilma — maqsadga erishish qobiliyati, tashabbuskorlik hissidir.

Beshinchi bosqich — o‘spirinlik bo‘lib, boshqalarga o‘xshamaslik, individuallik hissining paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Erikson o‘z-o‘zini anglash, vaqtni yangicha his qilish, jinsiy qiziqishlar shakllanishi mexanizmlarini to‘liq tavsiflaydi.

Oltinchi bosqich — yoshlik — boshqalar bilan intim psixologik yaqinlik, jumladan, jinsiy yaqinlik ehtiyoji va qobiliyati paydo bo‘ladi.

Yettinchi bosqich — yetuklik davrida hayotiy faoliyatning barcha sohalarida (mehnatda, ijodiyotda, g‘amxo‘rlikda, pusht qoldirishda, tajriba uzatish va boshqalarda) mahsuldorlik tuyg‘usi uzluksiz hamroh bo‘ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi.

Sakkizinchi bosqich, ya‘ni qarilik — inson sifatida o‘z burchini uddalay olganligidan, turmushning keng qamrovliligidan qanoatlanish tuyg‘ulari bilan xarakterlanadi.

Personologik yo‘nalish vakillari, jumladan E.Shprangerning ta‘kidlashicha, bu davrdagi asosiy o‘zgarishlar: shaxsiy «Men»ni kashf qilish, refleksiyaning o‘shishi, o‘zining individualligini anglash va shaxsiy xususiyatlarini e‘tirof etish, hayotiy ezgu rejalarning paydo bo‘lishi, o‘z shaxsiy turmushini ongli holda qurishga intilish va hokazolardir. Shpranger o‘spirinlikni ikki davrga bo‘ladi. Birinchi davr 14—17 yoshlarda vujudga keladigan inqiroz o‘spirinlarda o‘zlarini kattalarning bolalarcha munosabati doirasidan qutulish tuyg‘usi paydo bo‘lishidan iboratdir. 17—21 yoshlilarning asosiy xususiyati ularda tengqurlaridan «ajralish» inqirozi va tanholik istagining paydo bo‘lishidir. Bu holat tarixiy shart-sharoitlardan kelib chiqadi. Shpranger ilk o‘spirinlarda o‘z-o‘zini anglash va qadriyatlar yo‘nalganligiga asos solgan. Bu yo‘nalishni keyinchalik K.Byuler, A.Maslou va boshqalar davom ettirganlar.

Kognitivistik yo‘nalishning asoschilari qatoriga IPiaje, Dj.Kelli, L.Kolberg, D.Bromley, Dj.Birrer, AVallon, G.Grimm va boshqalarni kiritish mumkin. IPiajening intellekt nazariyasi aql-idrok funksiyalari hamda uning davrlari haqidagi ta‘limotni o‘z ichiga oladi. Intellektning asosiy funksiyalari uyushqoqlik va

moslashish, ko'nikishdan iborat bo'lib, aql-idrokning funksional invariantligi deb yuritiladi.

U intellektni quyidagi rivojlanish davrlariga ajratadi: 1) sensor motor intellekt (tug'ilishdan 2 yoshgacha); 2) operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan 7 yoshgacha); 3) konkret operatsiyalar davri 7—8 yoshdan 11—12 yoshgacha); 4) rasmiy operatsiyalar davri.

Hayotiy istiqbol rejalarni qurish, kelajakka yo'nalganlik o'spirin hayotining mazmuniga aylanadi. Ilk o'spirinlik davrida mustaqil hayot ostonasiga qadam qo'yish — taraqqiyotning muhim ijtimoiy vaziyatidir. 17 yoshdagi inqiroz jarayonida shaxsiy taraqqiyot subyektini sifatida insonning shakllanish vazifasi hal qilinadi. Ilk o'spirinlikdan katta o'spirinlikka o'tishda kasbiy o'z-o'zini belgilash tugallanib, o'z-o'zini namoyon qilish amalga oshadi.

17.2. O'spirinlik davrida yetakchi faoliyat



D.B.Elkoninning va A.N.Leontevning ta'kidlashicha, o'quv kasbiy faoliyat o'spirinlik davrida yetakchi faoliyat hisoblanadi. D.I.Feldshteynning fikricha, o'spirinlik davrida o'qish va mehnat asosiy faoliyat turlari sifatida shaxsning taraqqiyotini belgilaydi. Boshqa psixologlar esa kasbiy o'z-o'zini belgilashni ilk o'spirinlik davrida yetakchi faoliyat sifatida ko'rsatadilar. I.V.Dubrovina bu holatga aniqlik kiritadi, maktabni tugatgan paytda kasbiy o'z-

o'zini belgilash haqida gapirish erta, chunki unda faqat istak, haqiqatda amalga oshmagan kelajak rejalar mavjud boiadi.

Ilk o'spirinlar shaxsining taraqqiyotida ijtimoiy foydali mehnatning roli katta. Ilk o'spirinlar mehnati faqat o'zining moddiy natija berishi tomoni bilangina muhim emas. Bu yoshdagilarning mehnatini to'g'ri tashkil etish shaxsning kollektivizm, umum foydasi uchun qilinadigan mehnatga muhabbat, tashabbuskorlik, maqsadga intiluvchanlik, intizomlilik, qafiyatlilik singari sifatlarini tarkib toptirishga yordam beradi. O'quvchilar umumiy mehnatda qatnashar ekanlar, mehnatni va mehnat kishilarini hurmatlash tuyg'usini hosil qiladilar, ularda mehnat qilish ehtiyoji va istagi paydo bo'ladi.

Mehnat jarayonida o'quvchilarda yangi tuyg'ular — o'z mehnatidan quvonish, yaratilgan narsa bilan faxrlanish tuyg'usi, ko'p kuch-g'ayrat sarflagandan keyin erishilgan g'alabadan qanoat hosil qilish tuyg'usi vujudga keladi. Ana shu yangi quvonchli emotsiya o'quvchini yana bir marta bu tuyg'ularni boshdan kechirish uchun tag'in mehnat vaziyatiga jalb qiladi. Mehnatning ijtimoiy ahamiyati va uning natijalariga ijtimoiy baho berish — o'quvchini mehnatga psixologik jihatdan tayyorlashning zarur tomonlaridan biridir.

Jamoada mehnat qilishda uning tarbiyaviy ahamiyati kuchli bo'ladi. Jamoaviy mehnat, o'zaro mehnat mas'uliyati ilk o'spirin shaxsini tarkib toptirishda katta rol o'ynaydi. Jamoa bo'lib mehnat qilish o'quvchilarning mehnatda hamkorlik va o'zaro yordam ko'rsatish tajribasini, bir-birlarini nazorat qilish tajribasini hosil qilishlariga imkon beradi, mehnatning umumiy natijalaridan shaxsiy manfaatdorlikni, o'z xatti-harakatlarini jamoa manfaatlariga bo'ysundirish odatini tarkib toptiradi. Ilk o'spirinlik yoshi — mehnat hayotida o'z-o'zini aniqlab olish yoshi bo'lib, bu vaqtda o'quvchi o'zining mehnatdagi iste'dodini jiddiy ravishda izlay boshlaydi, unda o'zining kelajakdagi kasbini belgilab olish intilishi paydo bo'ladi. O'smirlardan farqli ravishda ilk o'spirinlar kasbni o'ylab tanlaydilar, nima uchun shu kasbni tanlaganlikla-

rini asoslab beradilar. Ularning ko'plari o'zlarining individual jismoniy va psixik xususiyatlarini biror kasb kishisiga qo'yiladigan talablar bilan taqqoslamochi bo'ladilar. Buning natijasida ilk o'spirinlar amaliy jihatdan masalaga yaqinlashib qoladilar va o'z qiziqishlari hamda imkoniyatlarini hisobga olib, haqiqiy kasblarni tilga ola boshlaydilar.

Ming-minglab kasblar bor, lekin muayyan mehnat turiga individual moyillik bilan unga bo'lgan qobiliyat va uning ijtimoiy ahamiyatiga yuqori baho berish birga qo'shilib ketgan vaqtdagina chin yurakdan tanlangan kasbgina kishiga ma'naviy qoniqish va jamiyatga foyda keltiradi. Ilk o'spirinlar uchun xarakterli xususiyat — kasblarga keskin tanlab munosabatda bo'lishdir. Ular ayrim kasblarni yuksak baholaydilar, o'quvchilarning ko'z o'ngida bu kasblarning ijtimoiy mavqei ulug'dir. Boshqa kasblarning ijtimoiy mavqei juda past.

Kasbiy niyatlarning barqarorligini o'rganish yuzasidan N.I.Krilov o'tkazgan tekshirish shuni ko'rsatdiki, hatto o'z niyatlarini amalga oshirib, oliy o'quv yurtiga kirgan talabalar orasida ham ko'plari o'zlarining kim bo'lishlarini oxirigacha hal qilmaganlar. Bunga sabab yoshlarni mazkur oliy o'quv yurtiga olib kelgan kasb haqidagi tasavvur bilan bu kasbning haqiqiy, amaliy mazmuni o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. O'zining kasb tanlash bo'yicha taqdirini tasodifan hal etish murakkab kechinmalarga, tanlangan kasbi sohasida ikkilanishlarga, og'ir ichki nizolarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qizlar uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi.

Kasb tanlash nimaning ta'siri ostida ro'y beradi? Bunday tanlashning motivlari nima?

Ko'pdan ko'p materiallar maktab o'quvchilarida o'zlarining kelajakdagi kasblariga qiziqishni tarbiyalashda maktab va o'qituvchilarning ma'lum darajada rol o'ynashini ko'rsatadi. Bir qancha tadqiqotlarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, so'rab chiqilgan o'quvchilarning 40—50% kelajakdagi kasbni tanlashga biror o'quv predmetiga bo'lgan qiziqishlari sabab bo'lganligini ayta-

di. Ko'pgina o'quvchilar xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan kasblarni tanlaydilar, bunga Vatanga foyda keltirish istagini sabab qilib ko'rsatadilar, lekin bu kasblarni o'zlarining individual xususiyatlariga, qobiliyatlariga muvofiq keladi, deb hisoblamaydilar. Ilk o'spirinlarning ko'pchiligi kasb tanlashga motiv qilib o'z qobiliyatlarini ko'rsatadilar. Ko'p o'quvchilar esa oilaviy an'analarning mavjudligini, moddiy-maishiy ta'minlanganlik sababini, do'stlar va o'rtoqlaridan namuna olganligini motiv qilib ko'rsatib o'tadilar. Ayrim hollarda ish joyi yoki oliy o'quv yurtining yashash joyiga yaqinligi va boshqalar motiv bo'lgan.

Ilk o'spirinlarning qiziqishlarini xarakterlaganda avvalo shuni aytish kerakki, yigit va qizlar odatda xuddi shu yoshda biror fanga, bilim tarmog'iga, faoliyat sohasiga bo'lgan o'zlarining qat'iy spetsifik qiziqishlarini belgilab oladilar. Ilk o'spirin yoshidagi bunday qiziqish shaxsning bilish-professional yo'nalishining tarkib topishiga olib keladi, yigit yoki qizning maktabni tamomlagandan keyin qanday kasb tanlashini, hayot yo'lini belgilab beradi. Ana shunday maxsus qiziqishning mavjudligi muayyan sohada gi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga doimiy intilishni rag'batlantiradi: katta maktab yoshidagi o'quvchi zarur adabiyot bilan aktiv ravishda tanishib boradi, tegishli to'garaklarda bajon-u dil shug'ullanadi.

Ilk o'spirinlik yoshida bilishga oid qiziqishlar tobora keng, qafiy va amaliy xarakter kasb etadi. O'quvchilarning qiziqishlari keng va xilma-xil bo'lib boradi: texnikaga, tabiyotga, ijtimoiy-siyosiy masalalarga, falsafiy-axloqiy masalalarga, sportga qiziqish ortadi.

Insonning hayot yo'li turli-tumandir. Ilk o'spirinlikda inson hayot yo'lini o'zi tanlaydigandek tuyuladi, lekin uning kasb tanlashiga tarbiya, muhit va boshqalar ham ta'sir qiladi. Kasb-hunar kolleji yoki litseyni bitirgandan so'ng shaxsiy bo'lmagan tashqi omillarning ta'siri yanada kuchli bo'ladi. V.N.Shubkinning ta'kidlashicha, biz tanlaydigan yoilardan boshqa bizlarni tanlaydigan yoilar ham mavjud. Oliy o'quv yurtini tugallagan yoshlar taiimni

hayotni mazmunli va qiziqarli qilish vositasi sifatida hamma narsadan ustun qo'yishadi. Ishlaydigan yoshlar esa ta'limning mohiyatini jamiyatga ko'proq foyda keltirishda degan fikrdalar.

O'spirinlar turli kasblarni turlicha baholaydilar. 17 yoshlilar kasblarni kontrast «oq-qora», mavhum deb baholasalar, 25 yoshlilar o'zlarining hayot yo'llari bilan baholaydilar. Muvaffaqiyatli kasbga yo'naltirishning muhim shartlaridan biri o'quvchilarning mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lishi va ularning faolligidir.

Kasbga yo'naltirish — shaxsning ijtimoiy taqdirini belgilashning tarkibiy qismidir. Kasb tanlash hayot mazmuni haqidagi o'ylari va shaxsiy «Men» tabiati bilan mos kelganda muvaffaqiyatli hisoblanadi.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti talabalarida Z.T.Nishanova rahbarligida o'tkazilgan D.Xodjakulova tadqiqotlarida so'ralganlarning yarmisi yana shu kasbni tanlashlarini ta'kidlab, tasdiq javobini berishgan, uchdan bir qism talabalar esa ikkilanishlarini bayon etishgan¹. Talabalarda kasbiy yo'nalganlikning shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga faol maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

1. Oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonida har bir talabaning barqaror kasbiy yo'nalganligi shakllanishiga yordam berish uchun ta'limning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan psixologik fenomenlar majmuyini hisobga olish zarur.

2. Oliy ta'lim davomida har bir talabaga individual yondashuvni amalga oshirmoq, kasbiy yo'nalganlik imkoniyatlaridan kengroq foydalanish lozim.

3. Talabalarining anchagina qismi kasbni anglamay tasodifan tanlaganliklarini hisobga olib, oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonida talabalarda dunyoni kasb nuqtayi nazaridan ko'rishni shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimini tavsiya etish mumkin.

¹ Xodjakulova D.I. Talaba shaxsi kasbiy yo'nalganligining psixologik xususiyatlari. Ps.f.n....avtoref. —T., 2011-24 b.

4. Ko‘pchilik talabalar hozirgi zamon masalalari bilan aloqasi borligi, ilmiylik, muammolilik, bilimining chuqurligi, ta’limda kohsatmalilik va texnika vositalarining qo‘llanilishini mutaxassislik fanlarini o‘qitishdagi ijobiy jihatlar sifatida ta’kidlangani bois, darslarni jonli, yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda qiziqarli qilib o‘tishlarini o‘qituvchilarga tavsiya etgan.

5. Talabalarda kasbiy yo‘nalganlikni shakllantirish uchun kasb professiogrammasi va psixogrammasi bilan tanishtirish hamda kasbiy muhim xislatlarni psixologiya darslarida amaliy mashg‘ulotlarda hamda tarbiyaviy soatlarda guruh murabbiylari yordamida rivojlantirishni tavsiya etilgan.

E.N.Sattarov rahbarligida S.N.Jo‘rayeva tomonidan talaba shaxsiga kasbiy shakllanish ta’sirining psixologik jihatlarini o‘rganildi¹. Tadqiqotda shaxsning kasbiy faoliyatga mutanosibligini belgilovchi psixologik xususiyatlar va omillar aniqlandi, talabalarining oliy o‘quv yurtiga kirishida ta’lim yo‘nalishlarini tanlashlariga sabab bo‘luvchi psixologik omillarning roli aniqlandi, shaxs xususiyatlarining kasbiy faoliyatga mutanosibligini ta’minlashga xizmat qiluvchi kasbiy motivlar, ustanovkalar va yo‘nalganlikning o‘rni aniqlangan.

A.X.Ubaydullayev tomonidan «Yoshlarni kasbga yo‘llashda aksidental qobiliyatlarni diagnostikasi* nomli ilmiy tadqiqotida «xavf-xatar hissi* va «xavfsiz psixomotorika» kabi tizimlarni o‘z ichiga olgan aksidental qobiliyatlar konsepsiyasining nazariy va amaliy ahamiyatligi ko‘rsatilgan^{1 2}. Aksidental qobiliyatlar individual me’yorda ifodalangan, faoliyat xavfziligini ta’minlashda o‘ziga xos namoyon bo‘luvchi bilish va psixomotor jarayonlar faoliyatini ta’minlovchi funksional sistemalar xususiyatlari tushuniladi.

¹ Jo‘rayeva S.N. Talaba shaxsiga kasbiy shakllanish ta’sirining psixologik jihatlarini. Psixol.f.n....dis.. - T.: TDPU, 2010. - 133 b.

² ybairiyuiaeb A.X. flnarHOCHKa aKcnaeHTajibHbix cnocoSHOCTeft B npotjjopHeHTatsHOHHOM pabore cpean MOJIOACXH. — T. ABTopecl)... ..K.nc.H.1994.-19 c.

O'zbekiston psixologlari tadqiqotlarida yuqori sinf o'quvchilarida o'quv faoliyatini boshqarish masalalariga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, jumladan ShVAzizova o'quv faoliyatini yuqori sinf o'quvchisi tomonidan boshqarish imkoniyati bir necha omilga bog'liq ekanini ta'kidlaydi¹:

a) o'quvchilar tomonidan egallangan, umumlashgan ta'limiy usullar tizimi va xususiyatiga;

b) o'quvchilar o'quv faoliyati individual uslubining mavjudligiga;

d) ijtimoiy va shaxsiy-amaliy tajribaning ko'lamiga;

e) har qaysi ta'limiy usulning anglanganlik darajasiga.

Muallifning e'tirof etishicha, bu tarkibiy qismlarning muayyan tizim shakliga kelganligi ta'limni optimallashtirishning puxta negizini va shart-sharoitini yaratadi.

17.3. O'spirinlik davrida intellektual rivojlanish

Ilk o'spirinlarning bilish jarayonlari shunday darajaga yetadiki, kattalar bajaradigan barcha aqliy ishlarni bajarishga amaliy jihatdan tayyor bo'ladilar. Ularning bilish jarayonlari murakkab va egiluvchan bo'lib boradi. Ular bu yoshga kelib jiddiy ishlariga ko'p vaqtlarini ajrata boshlaydilar, dam olish va o'yin-kulguga juda kam vaqt ajratadilar. Ularning barcha bilish jarayonlari, jumladan, xayol, xotira, nutq, tafakkur rivojlanadi. Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning bilish jarayonlari turli nuqtayi nazarlarni tahlil etishga va bu masala bo'yicha har tomonlama fikr yuritishga yordam bera oladi. Bilishga qiziqishning rivojlanishi, o'qishga ongli munosabatda bo'lishning o'sishi bilish jarayonlarining ixtiyoriyligini, ularni boshqara olish mahoratini yanada rivojlantirishga undaydi.

Bu yosh davrining oxiriga borib, o'quvchilar o'zlarining bilish jarayonlarini to'la-to'kis egallab oladilar, ularni hayot va faoliyatining muayyan vazifalariga bo'ysundiradilar. Ular axloqiy va si-

¹ А3М30Ва LLL.B.ncHxojiom¹iecfne OCOCHHOCTH ynpaBjieHHii YMCSHOH fleaTejibHOCTH CTapeKJiacHHKOB. ABTope<ji....K. nc. H. -T., 1998.-21 c.

yosiy va boshqa mavzular bo'yicha erkin fikrlaydilar. Ilk o'spirinlarga umumiydan xususiyga, xususiyan umumiyga xulosa chiqarish, ya'ni induksiya va deduksiya xosdir.

Ilk o'spirinlar ko'pchilik ilmiy tushunchalarni o'zlashtiradilar, turli masalalarni yechish jarayonida ulardan foydalanishni o'rganadilar. Bu esa ularda nazariy yoki so'z-mantiq tafakkurning rivojlanganligini bildiradi. Kuzatish aniq maqsadga qaratilgan va yanada sistemali bo'lib boradi. Shaxsning kuzatuvchanlik xususiyati rivoj topadi. Shu bilan birga N.D.Levitov ko'rsatib o'tgandek, o'spirinlar o'z kuzatishlarida parishonxotir bo'lmasliklarini, kuzatishni o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarga bo'ysundirishlarini, yetarli darajada to'plangan faktlar to'planmaguncha xulosa chiqarishga shoshilmasliklarini nazorat qilib borish zarur. Ilk o'spirinlarning o'quv faoliyati ularning faolligi va mustaqilligiga ancha yuqori talablar qo'yadi. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji dasturida belgilangan materiallarni o'zlashtirish uchun nazariy tafakkur rivojlangan bo'lishi hamda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini egallash zarur.

Xotirani rivojlantirishda mavhum so'z-mantiq xotira, ma'nosiga tushunib esda olib qolishning roli sezilarli darajada ortadi. Garchi ixtiyoriy xotira ustunlik qilsada, ixtiyorsiz esda olib qolish ham ilk o'spirinlar tajribasidan chiqib ketmaydi. U faqat o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi, ilk o'spirinlarning qiziqishlari, xususan ularning bilishga oid va kasb tanlashga oid qiziqishlari bilan ko'proq bog'lanadi. Shu bilan birga faol ravishda bilim egallash, o'qish va jamoat faoliyatida har holda ixtiyoriy xotira yetakchi rol o'ynaydi.

So'zma-so'z yodlab olish alohida hollarda zarur ekanligini o'quvchilar yaxshi tushunadilar. Ilk o'spirinlar esda olib qolish usullaridan — rejalarni va tekstning sxemalarini, konspektlarni tuzish, asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatish va ostiga chizish, ilgari ma'lum bo'lgan fikrlarga taqqoslash, solishtirish usullaridan o'smirlarga qaraganda beqiyos darajada keng suratda foydalanadilar. Ular esda olib qolishga alohida-alohida yondashadilar.

Qiziqishlarning differensiyalashganligi diqqatning tanlovchanligini, ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqatning roli ancha ortishini belgilab beradi. Ilk o'spirinlarda ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat bilan bir qatorda ixtiyoriy diqqatning ham ahamiyati ortadiki, ular o'quv materialini bilan bevosita qiziqmasdan, o'rganilayotgan hodisalarning hayotiy ahamiyatini tushunib, unga diqqatlarini qaratadilar.

Diqqatni ko'chirish va taqsimlash qobiliyati sezilarli ravishda rivojlanib, takomillashib boradi. Xususan, diqqatni taqsimlash bir vaqtning o'zida o'qituvchining tushuntirgan narsalarini ham tinglash, ham yozib borish, o'z javobining mazmunini kuzatib borish mahoratining shakllanishida o'z aksini topadi. Ilk o'spirinlar o'quv ishlari jarayonida o'zlariga ta'sir qiladigan chalg'ituvchi narsalarga o'smirlardan ko'ra ko'proq qarshi turishga, bardosh berib yengishga qobildirlar.

Ilk o'spirinlarning ayrimlarida diqqatning tanlovchanligi shu narsada ham ko'rinadiki, ular o'quv materialini idrok qilgan ekanlar, hamma vaqt uning ahamiyatiga baho berishga, uni amaliy jihatdan ahamiyatli nuqtayi nazaridan idrok qilishga harakat qiladilar. Agar unga material muhim bo'lib tuyulmasa, u o'z diqqatini susaytiradi. Shuni qiziqki, diqqatning bu o'ziga xos harakati ko'pincha atayin ro'y bermaydi. Odatda ilk o'spirinning diqqati shu sohadagi muayyan bilimlarni amalda tatbiq etish haqida gap borgan vaqtdagina ixtiyorsiz ana shu predmetga qaratiladi.

Bu yoshdagi o'spirinlar atrofida turli voqea-hodisalardagi haqiqatni bilishga intiladi. Ularni tayyor yechimlar, ma'lumotlar emas, balki shu yechim va ma'lumotlarni o'zlarini mulohaza yurguzib, qidirish jarayonining o'zi ko'proq qiziqtiradi. Bu borada turli masalalar bo'yicha bahs va munozaralar yuritishga va o'zlarining fikrlarini isbotlashga juda qiziqadilar. Bu davrda bilish jarayonlarining rivoji faol ravishda davom etadi. Bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofida kuzatuvchilarga kam seziladi. Bu davrga kelib, o'spirinlar to'la ravishda mantiqiy tafakkurga ega bo'ladilar, nazariy fikr yuritib, o'zlarini-o'zlarini tahlil eta oladilar. Ular en-

di bemalol axloqiy, siyosiy va boshqa mavzularda bahslashga olib, o'z munosabatlarini bildira oladilar. O'spirinlik davrida bolalar juda ko'p ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib, ulardan turli masala va muammolarni yechishda foydalana oladilar. O'spirinning o'z-o'zini anglashi o'quv, mehnat va muloqot motivatsiyalarining o'zgarishida o'z aksini topadi. Bu davrda, bolada yangi faoliyatlar yuzaga kelib, psixik rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi.

O'spirinlik yoshi o'qish, mehnat, muloqot singari yetakchi faoliyatlar asosida umumiy va maxsus layoqatlarning rivojlana-yotganligi bilan xarakterlanadi. Lekin, bu rivojlanish o'spirin-ning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. O'spirinlik davriga kelib, juda ko'p bolalarda o'z faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shuningdek, o'z-o'zini boshqarish ham o'spirinlik yoshidagi bolalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'spirinning o'quv mashg'ulotiga munosabati o'z xususiyati va mazmuni jihatidan boshqa yoshdagi o'quvchilarning ta'lim jara-yonidagi munosabatidan tubdan farq qiladi. Ular voyaga yetib bo-radilar, ularning tajribasi ortadi; ular mustaqil hayot bo'sag'asida turganliklarini anglaydilar. O'quvchilarning o'qishga ongli qarashi kuchayadi, bu qarash bevosita hayotiy ma'no kasb etadi. Ilk o'spirinlar jamiyatning kelajakdagi mehnat hayotida to'laqon-li ishtirok etishning zaruriy sharti bilim, ko'nikma va malaka-larning mavjud fondi ekanligini, hosil qilingan mustaqil bilim egallash ko'nikmalari ekanligini aniq ravshan his qiladilar. Bi-limlarga ehtiyoj sezish hozirgi vaqtda ilk o'spirinlarning xarak-terli xususiyatlaridan biridir. O'quv rejasi va dasturning murak-kablashuvi, yangi fan va mavzularning kiritilishi, o'zlashtirilishi nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning o'qishga munosa-bati ham o'zgaradi, ular ayrim fanlarga tanlab munosabatda bo'la boshlaydilar.

O'spirinlik davrida bilishga oid qiziqish ko'lami tobora amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy masala-

389

larga, texnika, tabiatga, osmon jismlariga, sport va hokazolar-ga qiziqishi kuchayadi. O'spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik yanada takomillashib boradi, mantiqiy xotirasi, esda olib qo-lishining oqilona yo'li sifatida ta'lim jarayonida yetakchi vazifani ado eta boshlaydi. Mazkur pallada o'spirinlarning tafakkuri tobora mantiqiy, faol, mustaqil va ijodiy xususiyat kasb eta bosh-laydi. Tafakkur rivojlanishi bilan birgalikda o'quvchilarning nutq madaniyati rivojlanadi. O'spirin turli janrdagi adabiy asarlarni o'qishi, tushunishi orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va munozaraga kirishish, nazariy fikrlash hamda o'z-o'zini tahlil qilishga o'rganib boradi. O'spirinlik tafakkurining sifatiga uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorli-gi, tezligi kabilar kiradi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, o'spirin ongida tevarak-atrofdagi voqelik to'g'risida qancha miq-dorda mulohazalar, muhokamalar va tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi.

Tafakkurning chuqurligi deganda esa, moddiy dunyodagi nar-sa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlari, ularning o'zaro bog'lanish va munosabatlari o'spirinning fikrlash faoliya-tida to'liq aks etganligi tushuniladi. Tafakkurning kengligi o'zi-ning mazmundorligi va chuqurligi sifatlari bilan bog'liq bo'ladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda o'spirinning shaxsiy tashab-busi bilan o'z oldiga yangi vazifalar qo'ya bilishi, bu vazifalarni hech kimning yordamisiz, oqilona usullar bilan mustaqil hal qi-lish xususiyatini tushunish kerak. Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi.

Ayrim qiz va yigitlar aqliy rivojlanishdan orqada bo'lib, o'quv materiallarini o'zlashtirishga ulgurmaydilar yoki qiynaladilar, ular tevarak-atrofdagi voqelikni bilib olish maqsadida umumlashti-ruvchi tushunchalardan foydalanishni bilmaydilar, chun-ki bu tushunchalar, xulosalar, fikrlar, hodisa va faktlarni yod-lab oladilar. Bolalarni aqliy jihatdan rivojlantirish uchun o'qish faoliyatlarida faollashtirish va ularning bilimlarini ongli ravishda o'stirib borish kerak.

Ta'limda onglilik o'quvchining yuqori darajadagi faolligi bilan ta'minlanadi. Bilimlarini faol faoliyat ko'rsatib o'zlashtirganda, o'quvchilar bu bilimlarni yaxshi tushunibgina qolmay, ularni amaliy faoliyatda qo'llashga ham o'rganadilar. O'quvchilarga ijtimoiy masalalar, iqtisodiy hamda ijtimoiy faktlar va hodisalarni mustaqil ravishda ilmiy tahlil qilish va ularga baho berish usullarini maxsus o'rgatish muhim va zarurdir. Bu o'rinda o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini faollashtirishga, to'g'ri rahbarlik qilgan holda rivojlantirish lozim. O'spirinlarning aqliy jihatdan rivojlanishida nazariy tafakkurning roli kattadir.

O'spirin adabiy asarlarni o'qish va tushuntirish orqali mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish va munozaralarga kirishishga o'rgana boradi. Unda asta-sekin tabiat va jamiyat haqida o'zining nuqtayi nazari, e'tiqodi, qarashi shakllanadi. Ma'lumki, shaxsning ana shu fazilatlarining uning fikrlashi, mustaqil o'ylashi, to'g'ri hukm va xulosalar chiqarishi, qafiy qarorga kela olishi natijasidir.

O'spirinlarning adabiy asarni baholashi, u haqda shaxsiy fikrlarni bildirishi, muammo yuzasidan bahslashuvi insoniy xislatlarning muayyan darajada ishtirok etishi tanqidiy tafakkurning aynan o'zginasidir. Turmushda uchraydigan noo'rin tanqidiylik esa o'spirinning badiiy didi va hayotiy tajribasi zaifligidir. O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilar tafakkuridagi tanqidiylikni haqqoniylik darajasiga ko'tarishdan, ularga voqelikka odilona, oqilona, tanqidiy nuqtayi nazardan qarashni o'rgatishdan iborat. O'spirinlarda moddiy dunyo to'g'risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlana boshlaydi. Tanqidiy tafakkurning rivojlanishi o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga, ta'lim jarayonida tashabbuskorlikka, voqelikni isbotlash va asoslash ko'nikmalari tarkib topishiga imkon yaratadi. Hodisalar to'g'risida hukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'spirinning qobiliyati va iste'dodi ta'lim jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi. Qobiliyatning o'sishi bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning sifatiga

bog‘liq bo‘lib, shaxsning kamol topish jarayoniga qo‘shilib ketadi. Demak, maktabda o‘tiladigan, darslar, laboratoriya ishlari, amaliy mashg‘ulotlar, referat, konspekt yozish kabi faoliyat turlari o‘spirinlar o‘zlashtirish uchun zarur materiallarni mustaqil holda tushunishga olib keladi.

Shaxsning bilish jarayonlari uning emotsiyalari bilan bog‘liq. O‘smirlik davridagi kuchli emotsional reaksiyalar garmonal va fiziologik jarayonlarga bog‘liq. Bolgariyalik psixologlar G.D.Pirov va boshqalar 5 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan bolalarni ko‘ndalang kesim metodi orqali o‘rganib, nerv faoliyatining eng qo‘zg‘aluvchan tipi 5 yoshlilar orasida uchrashini aniqlashgan. Bola katta bo‘lgan sayin qo‘zg‘aluvchanlik kamayib, muvozanatlilarning soni ortgan. Pubertat yoshda (11—13 yosh qizlarda va 13—15 yosh o‘g‘il bolalarda) qo‘zg‘aluvchanlarning miqdori ortadi, bu davrning oxiriga borib qo‘zg‘aluvchanlik yana kamayadi.

Emotsional zo‘riqishning fiziologik manbalari qizlarda aniq payqaladi, ularda depressiya, jizzakilik, xavotirlanish va o‘z-o‘zini hurmat qilishning pasayishi hayz ko‘rishning ma‘lum davrlariga bog‘liq. Bunga o‘z vaqtida Sh.Byuller ham e‘tibor bergan edi.

O‘g‘il bolalarda aniq fiziologik bog‘liqlik ko‘zga tashlanmaydi, lekin pubertat davr ular uchun ham qiyin kechadi. Rus psixologi P.M.Yakobson kattalar va tengdoshlariga salbiy reaksiyalar 12,5—13, 5 yoshda eng ko‘p uchraydi, deb ta‘kidlagan edi. O‘smir va o‘spirinlardagi emotsional reaksiyalar faqat garmonal o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy omillar va tarbiya sharoitlari, individual-tipologik farqlarga ham bog‘liq. Katta bo‘lishdagi psixologik qiyinchiliklar, «Men» obrazi va intilish darajasi orasidagi qarama-qarshilik kabi o‘smirga xos bo‘lgan emotsional zo‘riqish, ilk o‘spirinlik davrida ham saqlanib qoladi.

Psixolog V.R.Kitlovskaya proyektiv testlar yordamida xavotirlanishning yosh dinamikasini o‘rganib, bog‘cha yoshidagi bolalar tarbiyachilar bilan muloqotda eng ko‘p xavotirlanishlarini, ota-onalar bilan kamroq xavotirlanishlarini aniqlagan. Kichik

inaktab yoshidagi bolalar tengdoshlari bilan kamroq, begona katta odamlar bilan muloqotda ko'proq xavotirlanishi ma'lum bo'lgan. O'smirlar bo'lsa begona katta odamlar va o'qituvchilar bilan kamroq, ota-onalari va tengdoshlari bilan muloqotda ko'proq xavotirlanishi aniqlangan. Ilk o'spirinlar esa barcha sohadagi muloqotda eng yuqori xavotirlanish namoyon bo'lgan, ayniqsa ota-onalar va nlar bog'liq bo'lgan kattalar bilan muloqotda kuchli xavotirlanish namoyon bo'lgan. A.E.Lichkning ta'kidlashicha, 14—18 yoshda xarakterning ba'zi xususiyatlariga ortiqcha urg'u beriladi. Ilk o'spirinlikdagi tipologik o'zi bilan o'zi bo'lib qolish, ba'zan insondagi to'liq emaslik hissi bilan birga kechadigan yakkalanib qolishga olib keladi.

Yosh ulg'aygan sayin insonda emotsional qo'zg'alish hosil qiluvchi omillar ko'payib boradi. Agar katta odam yosh bolalarga o'xshab har bir qo'zg'atuvchiga javob qaytaraversa, u ko'p qo'zg'alish va emotsional beqarorlikdan olamdan o'tgan bo'lar edi. Kattalarni xavotirlanishdan tashqi ta'sirlarga tanlab javob qaytarish hamda ichki tormozlanish va o'z-o'zini nazorat qilishning mahsuldor ichki mexanizmlari qutqaradi.

Amerikalik olim G.Djons 12 yoshli o'smirlar va 17 yoshli ilk o'spirinlarning emotsional reaksiyalarini (teri-galvanik reaksiyalari) solishtirdi. U so'zli qo'zg'atuvchilarni yoqimli, yoqimsiz va befarqlarga ajratgan. Tajriba natijalaridan ma'lum bo'lishicha, umumiy emotsional reaksiya o'smirlarga nisbatan ilk o'spirinlarda yuqori bo'lgan. Lekin ular orasidagi asosiy farq tanlash darajasida kuzatilgan: ilk o'spirinlar o'smirlarga nisbatan befarq va yoqimsiz so'zlarga javob qaytarganlar. Shunday qilib, ilk o'spirinlarning emotsiyalari, intellekt singari aniq qo'zg'atuvchi bu sinaluvchi uchun qanday ahamiyatga egaligini hisobga olmasdan o'lchash mumkin emas. Ilk o'spirinlik davridagi emotsional qiyinchilik va muammolarni aniq qarab chiqish lozim, chunki ularning kelib chiqish sabablari har xil. O'smirlik davridagi dismorfofobiya — o'z tanasi va tashqi ko'rinishidan tashvishlanish ilk o'spirinlik davrida o'tib ketadi. Ilk o'spirinlarda namoyon bo'ladigan xavotirlanish

belgilari bu yoshdagi maxsus qiyinchiliklarga reaksiya emas, balki ilgari olingan ruhiy jarohatlanishning keyin namoyon bo'lishidir.

Ko'pchilikda o'smirlikdan ilk o'spirinlikka o'tishda muloqotchanlik va umumiy emotsional kayfiyat yaxshilanadi. Ye.A.Silining longityud tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, u bolalarni 7 va 9-sinflarda kuzatib, o'smirlarga nisbatan ilk o'spirinlarda kamroq impulsivlik va emotsional qo'zg'aluvchanlik, ko'proq ekstravertlik va emotsional barqarorlik kuzatilishini aniqlagan. A.V.Kuchmenko tadqiqotlarida ham 16—18 yoshli ilk o'spirinlar o'smirlarga qaraganda, o'zlarining nerv sistemasi tipiga bog'liq bo'lmagan holda bosiqlik va barqarorlik kuzatilgan.

Amerikalik psixolog R.Kettel tadqiqotlarida ham ilk o'spirinlarda o'smirlarga nisbatan muloqotchanlik, odamlar bilan kirishimlilik, boshqaruvchanlik kabi xislatlar ortishini, umumiy qo'zg'aluvchanlik kamayishini aniqlagan.

Shunday qilib, ilk o'spirinlik yoshi emotsional holatlarni ifodalash usullari va emotsional reaksiyalarning differensiallashishini hamda o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini boshqarishning ortishini kuzatish mumkin. Ilk o'spirinlarning kayfiyati o'smirlarga nisbatan barqaror va anglangan hamda ijtimoiy sharoitning keng doirasiga mos bo'ladi.

Doimo hissiyot vujudga keltiradigan shaxsiy muhim munosabatlar doirasining kengayishi oliy hislarning rivojlanishida namoyon bo'ladi. Axloqiy norma va tamoyillarning ma'lum tizimini o'zlashtirish jamiyat va boshqa odamlar oldida mas'uliyat hissi, hamdardlik qobiliyati, do'stlik va muhabbat ehtiyoji, o'rtoqlik hissi va axloqiy-siyosiy hislar kabi yuksak axloqiy hislarga aylanadi.

Ilk o'spirin tomonidan qabul qilingan xulq-atvor normalarinin buzilishi unda aybdorlik hissini vujudga keltiradi. Shu bilan birga unda estetik hislar doirasi ham kengayadi. Ilk o'spirinlarda intellektning rivojlanishi bilan birga hazil-mutoyiba hissining ham rivojlanishini ta'kidlash joiz. Intellektual va praksis hislar ham sezilarli rivojlanadi. Sodda bolalarcha qiziquvchanlik ta-

Likkur jarayonidan ongli zavqlanish, qiyinchiliklarni yengishdan quvonish, ijodga ongli intilish va boshqalarga aylanadi.

Shunga ko'ra har kim qobiliyatiga yarasha kasb-hunar tanlasa, bu sohada muvaffaqiyatli mehnat qilsa, ijtimoiy turmush (araqqiyotiga muhim hissa qo'shgan bo'ladi. O'spirinlar u yoki bu kasbni o'z ixtiyorlari bilan ongli ravishda tanlashlari uchun ular mustaqillik, dadillik, qafiylik, o'zini tuta bilish, chidamlilik, sabr-toqat kabi irodaviy xislatlarga ega bo'lishlari kerak. Mehnat qilishda muqaddas burchni bajarish istagi, maqsadning aniqligi, hunar o'rganishga ishtiyoqmandlik mazkur fazilatlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'spirinlar aqliy rivojlanishida tasavvurning ahamiyati juda katta, chunki inson biron-bir ishni qilishga kirishar ekan, albatta uning natijasini tasavvur eta olishi kerak. Tasavvursiz hech qanday ishni to'g'ri rejalashtirish mumkin emas. O'spirinda tasavvur qila olish layoqati yaxshi rivojlangan bo'lsagina, u o'z hayotidagi idealni tasavvur eta oladi, shunga ko'ra uzoq va yaqin rejalarini tuzadi.

Hozirgi yigit va qizlarni 30—40 yil avvalgi tengqurlari bilan solishtirganda, ularning umumiy saviyalari naqadar o'sganligini ko'rish mumkin. O'spirinlarning intellektual qiziqishlari doirasi keng va ko'p qirralidir. O'spirinlarning qiziqishlari aksariyat hollarda o'zi tanlagan kasb va yo'nalish, shuningdek, hayotiy rejalariga asoslangandir. O'spirinlik yoshiga kelib, yigit va qizlarning dunyoqarashlari yuksak pog'onaga ko'tarila boshlaydi. Bu esa o'spirinning tashqi olamni tushunishiga, baholashiga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. O'spirinlarning dunyoqarashi endi ularning ilmiy, falsafiy, siyosiy va diniy qarashlari tizimidan iboratdir.

Ma'lum bir kasbda faoliyat ko'rsatishni boshlayotgan o'spirin unga intellektual, ijtimoiy-psixologik hamda axloqiy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. O'smirlik davrining oxirlari va o'spirinlik yoshiga kelib, ularda mehnat ko'nikma va malakalari rivojlanadi. Bu ko'nikma va malakalari ularning kelgusidagi kasbiy faoli-

395

yatlari bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Har qanday kasbiy ko'nikma va malakalarning o'sishi, avvalo, o'spirin intellektimng umuiniy rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Shumng uchun ham bu davrdagi o'spirinlar intellektining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim.

O'zbekistonda E.G'.G'oziyev rahbarligida J.S.Iskenderov tomonidan pedagogika kolleji o'quvchilarida xarakterning intellektual va irodaviy xususiyatlari shakllanishini baholashda test-reyting tiziridan foydalanishning samarali yo'llari ishlab chiqildi¹. Pedagogika kolleji o'quvchilarida xarakterning intellektual va irodaviy xususiyatlarining shakllanish jarayoni shaxsning umumiy yo'nalganligi, kasbiy ustanovkalari, kasbiy tasavvurlari va imkoniyatlari mutanosibligi omillar asosiga qurilishi tadqiqot davomida dalillandi.

O'spirinlar xulq-atvori buzilishiga olib keladigan sabablarning psixologik xususiyatlari Z.F.Kamaletdinova ishlarida yoritilgan^{1 2}. Muailif olib borgan tadqiqotlari natijasida deviant xulqning vujudga kelishi g'oyaviy-mazmuniy xarakterga ega ekanligini ta'kidlab, uning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi ikki omilni ko'rsatib o'tadi: birinchisi, o'quvchining doimiy ravishda qoniqarsiz bah olishi natijasida diqqati, intellektual tushuncha bilan bog'liqlik harakatlari pasayib ketadi. Ikkinchi holatda esa ota-onalari-ning o'z bolalariga nisbatan mehrsiz va shafqatsizligi oqibatida talablarga nisbatan tushunmaslik mexanizmi kuchga kiradi.

Bu yoshdagi bolalar uchun muloqotga kirishish ehtiyojining mavjudligi ham juda muhim, lekin u yetakchi emas, faqat tanlagan kasb va yo'nalishlari bo'yicha mashg'ul bo'lmagan o'spirinlargina ko'proq tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Bu yoshdagi bolalar mehnat faoliyati bilan xuddi kattalardek shug'ullana oladilar. Ilk o'spirinlik davrini kasbiy bilim,

¹ Iskenderov J.S. Pedagogika kolleji o'quvchilarida xarakterning intellektual va irodaviy xususiyatlarini shakllantirish. Ps.f.n. ...avtoref. — T. 2009.-26 b.

² KaMajieTilMHOBa 3.0. IlcHxojiorHHeckHe OCOCHHOCTH MOTHBannoHHO-CMbcijioBoii c<l)epbi CTapmeKjiaccHHKOB c OTKJIIOHSHOIIIHMCIH noBeaeHHEM. ABTopetl) ..K. nc. H. - T. 1993.-19 c.

ko'nikma va malakalarning shakllanishi uchun sezitiv davr deb hisoblash mumkin. O'zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto'g'ri hal etilishi murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qiz hayoti uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o'spirinlar o'z moyilligi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan, nerv sistemasining tipi, analizatorlar xususiyati emotsional-irodaviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.

17.4. Shaxs rivojlanishi

Kelajakka intilish ilk o'spirinlarning psixologik xususiyati hisoblanadi. Ilk o'spirinlik davrida shaxs rivojlanishining muhim omili hayotiy rejalar qurish, hayotiy istiqbollarni anglash hisoblanadi. Hayotiy reja keng tushuncha bo'lib, shaxsiy o'z-o'zini belgilashning barcha sohasini qamrab oladi. Kelajakka hayotiy rejalar qurish, kasbiy o'z-o'zini belgilash — o'spirinlik davridagi markaziy psixologik yangilikdir.

G'arb psixologiyasida o'z-o'zini belgilash jarayoni identiklikning shakllanish jarayoni ham deb ataladi. Erikson shaxsiy identiklikni izlashni kattalik davrida markaziy vazifa sifatida qaragan.

Eriksonning ta'kidlashicha, identiklik inqirozi bir necha qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi:

- vaqtinchalik istiqbol;
- o'ziga ishonish yoki tortinchoqlik;
- turli rollarni sinab ko'rish yoki bir rolda qotib qolish;
- shogird tushish;
- lider munosabati (avtoritetning noaniqligi yoki davomchisi);
- g'oyaviy e'tiqod yoki qadriyatlar tizimining aralashib ketishi.

Bu murakkab yo'lda muvaffaqiyatsizliklar ham bo'lishi mumkin. Identiklik diffuziyasi (yoki rollarning aralashib ketishi) o'spirin ancha uzoq vaqtgacha psixoiijtimoiy o'z-o'zini belgilashni amalga oshira olmay qiynaladi.

Shunday qilib, hayotiy rejalarni tuzish o'tmish, kelajak va hozirgi «Men»ning qulay birikuvi asosida quriladi. O'spirinlik davrida shakllangan ijobiy «Men» konsepsiyasi, o'z-o'zini hurmat qilish, o'z-o'zini qadrlash hissi istiqbol maqsadlarni qurishga va ularga erishish uchun faol intilishga undaydi.

O'spirinlarda qadriyatlar shakllanadi, dunyoga umumlashtirilgan qarashlar tizimi sifatida dunyoqarash shakllanadi, hayotga anglangan umumlashgan munosabat inson hayotining mazmuni shakllanadi.

O'spirinlarni hali to'la katta deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ularning shaxs xususiyatlarida hali bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida, berayotgan baholarida, hayotga va o'z kelajaklariga munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik o'spirinlar maktabni tugatish vaqtiga kelib ham kasb tanlashga nisbatan mas'uliyatsiz yondashadilar. Bu davr o'spirinning axloqan o'z-o'zini anglashi va barqaror «Men» obrazining shakllanishi, shuningdek, axloqning yangi bosqichiga o'tishi bilan xarakterlanadi. Bu anglash oddiygina o'sishdan iborat bo'lib qolmasdan, u sifat jihatdan o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi, bu hol o'z shaxsining ma'naviy-psixologik xususiyatlarini konkret hayotiy maqsadlar va intilishlar nuqtayi nazaridan anglash va ularga baho berish ehtiyoji bilan bog'langandir.

Ilk o'spirinning o'zini o'zi anglashi o'smirning o'zini o'zi anglashidan xuddi shu tomonlari bilan farq qiladi. Xuddi ana shu narsa ilk o'spirinlarda o'zining psixik hayotiga, o'z shaxsining sifatlariga, o'z qobiliyatlariga chuqur qiziqish uyg'otadi, xuddi shuning uchun ham o'z xatti-harakatlariga nazar tashlash, o'z his-tuyg'ularini va kechinmalarini bilib olish ehtiyoji paydo bo'ladi.

O'z-o'zini anglash o'quvchining ichki kechinmalar dunyosiga kirishi bilan bog'liq emas va foydasiz, maqsadsiz o'z-o'zini tahlil qilishdan ham iborat emas. O'z-o'zini anglash hayot va faoliyat talablaridan kelib chiqadi. Jamoadagi yangi vaziyat, tevarak-atrofdagilar bilan bo'ladigan yangicha munosabatlar o'quvchini o'z

iinkoniyatlarini baholashga, o'zining shaxsiy xususiyatlarini, o'ziga nisbatan qo'yilayotgan talablarga javob bera olishi yoki javob bera olmasligi nuqtayi nazaridan anglashga majbur qiladi.

Ilk o'spirinning o'z-o'zini anglashiga oid bu qiziqarli xususiyat quyidagilardan iborat. Ilk o'spirin o'zining kuchli va ojiz tomonlarini, o'zining ustunligi va kamchiliklarini o'smirga qaraganda yaxshiroq va chuqurroq baholay oladi. Biroq o'smir ko'pincha ilk o'spiringa qaraganda o'ziga to'g'riroq baho beradi. O'smirda o'z-o'zini anglashning rivojlanishiga boshqa kishilarning fikrlari ta'sir qiladi. O'smir go'yo o'ziga tevarak-atrofdagilar ko'zi bilan qaraydi, uning aynan o'zi haqidagi fikrlari ko'pincha ota-onalari, o'qituvchilari va o'rtoqlarining fikrlarini takrorlaydi. Tabiiyki, uning o'z-o'ziga baho berishi ham ancha obyektiv bo'ladi, chunki u tevarak-atrofdagilarning obyektiv bahosini takrorlaydi. Bu hol akademik litsey va kollej o'quvchilarida boshqacha bo'ladi.

Yoshining ortishi bilan unda o'z shaxsini, o'z xatti-harakatlari va faoliyatini mustaqil tahlil qilish va baho berish tendensiyasi kuchayadi. O'z-o'ziga baho berish esa hamisha tashqaridan berilgan bahoga qaraganda qiyinroqdir. Shuning uchun ilk o'spirin o'zining shaxsiy xususiyatlarini va xatti-harakatlarini o'smirga qaraganda yaxshiroq tahlil qila olmasa ham, o'ziga ayrim hollarda obyektiv baho bera olmaydi. Shuning uchun ular ko'pincha o'z shaxslariga ortiqcha baho beradilar, g'ayritabiiy manmanlik, kekkayish, takabburlik, kibrlanish hollariga yo'l qo'yadilar, tevarak-atrofdagi kishilarga mensimasdan munosabatda bo'ladilar; boshqalar esa o'zlariga g'ayritabiiy ravishda yetarli baho bermaydilar, o'zlarini «o'rtamiyona», «arziyas», «oddiy va ko'zga tashlanmaydigan odam» deb hisoblaydilar.

Intellekti yaxshi rivojlangan o'spirinlar kattalarni tashvishga solayotgan muammolarni tushuna oladilar va ularni muhokama eta oladilar. O'spirinlar juda ko'p muammoli savollarga javob o'ylaydilar. Ularning diqqatini ko'proq axloqiy masalalar tortadi. Ilk o'spirinning o'z-o'zini anglashi o'smirning o'z-o'zini anglashidan shu jihatlari bilan farqlanadi. Xuddi ana shu narsa

ilk o'spirinni o'zining psixik hayotiga, o'z shaxsining sifatlariga, o'z qobiliyatlariga chuqur qiziqish uyg'otadi, xuddi shuning uchun ham o'z xatti-harakatlariga nazar tashlash, o'z his-tuyg'ularini va kechinmalarini bilib olish ehtiyoji paydo bo'ladi. Agar o'smirning tushunchasida sezgir kishi hamisha boshqalarga yordam ko'rsatsa, ilk o'spirin yoshidagi o'quvchilar esa bunda ancha nozik tafsilotlarning ham farqiga boradilar, ular sezgirlik — ayniqsa qanday yordam zarurligini his qila bilish va u ana shu yordamni ustalik bilan kishini xafa qilmasdan, ko'rsata olishdan iborat deb hisoblaydilar.

O'smir o'zining hozirgi ahvoriga muvofiq ravishda o'ziga baho beradi, katta maktab yoshidagi o'quvchi o'zining kelajagiga muvofiq ravishda o'ziga baho beradi. O'smir o'zicha: «Men maktab jamoasining a'zosi sifatida qandayman?» deb savol beradi. Ilk o'spirin esa o'ziga: «Men kelgusi mustaqil hayot uchun qandayman? Men unga yaroqlimanmi?» — deb savol beradi.

Ilk o'spirin shaxsga, umuman uning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda baho bera bilsa, o'smir o'zining shaxsiga ayrim ishlar, xatti-harakatlarga qarab baho beradi va bu bahoni umuman shaxsga tatbiq etadi.

Ilk o'spirinda o'zi, o'z shaxsi to'g'risida to'g'ri, obyektiv tasavvur hosil bo'lishi uchun unga ko'p o'ylab, ustalik bilan yordam ko'rsatish kerak. Agar o'qituvchining bergan bahosi do'stona va to'g'ri bo'lsa, uning fikrlari ilk o'spirinning imkoniyatlariga chuqur ishonch bilan, uning shaxsini chuqur hurmat qilish bilan aytilgan bo'lsa, hatto o'qituvchining bildirgan keskin tanqidiy mulohazalari ham odatda yetarli darajada diqqat-e'tibor va minnatdorchilik bilan qabul qilinadi.

Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun axloqiy masalalarni yechish manbayi o'qituvchilar bo'lsa, o'smirlar bu savollarga javobni ko'proq tengdoshlari davrasidan qidiradilar. O'spirin yoshdagilar esa savollarga to'g'ri javobni topishda ko'proq katta kishilar foydalanadigan manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko'pqirrali, murakkab insoniy munosa-

batlar va ilmiy-ommabop, badiiy, publitsistik adabiyotlar, san'at asarlari, matbuot, radio, televideniye bo'lib hisoblanadi. Bugungi o'spirinlarga hayotga nisbatan hushyor, aqliy-amaliy qarash, erkinlik va mustaqillik xos. Ular haqqoniy bo'lish tushunchasiga ham real tarzda yondashadilar. Litsey va kollejni tugallash vaqtiga kelib, juda ko'p o'spirinlar axloqiy jihatdan shakllangan va ma'lum axloq normalari qafiyatlashgan xususiyatlarga ega bo'ladilar.

O'spirinlarda axloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri o'spirinlarni yaxshilik va yomonlik, haqiqat va noqonuniylik, axloqlik va axloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o'spirinlari har bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabatlar bo'lmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko'proq erkin va mustaqil bo'lishga intiluvchi yoshlardir.

O'spirinlar ongli ravishda egallangan axloq normalari asosida o'z xatti-harakatlarini yo'lga solishga intiladilar. Bu esa, avval o'spirin o'zini anglashining o'sishida namoyon bo'ladi. Bu narsa ularning alohida shaxs ekanligini tan olishga intilishida o'z ifodasini topadi. Buning uchun ayrim yoshlar turli modalarga mayl qo'yish, tasviriy san'atga, musiqaga, kasb-hunarga, tabiatga mafkurlash qiziqishlarini namoyish qilishga harakat qiladilar. O'quv va mehnat jamoalari ta'sirida matonat, jasurlik, sabr-toqat, kamtarlik, intizomlilik, halollik kabi insoniy fazilatlar takomillashadi. Xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo'rqqoqlik, g'ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

O'spirinlar shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlarining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qafiyatlilik, mas'uliyatlilik, o'z harakatlarini tanqidiy baholash singari fazilatlarini barqaror xususiyat kasb etib boradi. O'spirin yigit va qizlarning jamoatchilikda faol ishtirok etishi orqali muayyan tashkilotchilik qobiliyati namoyon bo'ladi. O'zining kimligi, qandayligi, qobiliyatlari, o'zini nimga hurmat qilishini aniqlashga intiladilar. Do'st va dushmanlari-

ning kimligi, o‘z istaklari, o‘zini va tevarak-atrofni, olamni yaxshi bilishi uchun nima qilish kerakligini anglashga harakat qiladi. Ma'lumki, o‘spirinlarning hamma savollari anglangan bo‘lmaydi. Ba‘zan o‘spirinlar o‘zlaridan hech qanoatlanmaydigan, o‘z oldilariga haddan tashqari ko‘p vazifalar qo‘yadigan, lekin uning udasidan chiqa olmaydigan bo‘ladi. Mana bulardan ko‘rinib turibdiki, o‘spirinlar o‘z-o‘zini analiz qilish teranligi va yuksak talablarni bajarish kerakligini o‘zida aks ettira boradilar. Bu esa o‘spirinlarning kelgusi yutuqlari shartlaridan biridir.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, shaxsning ilk o‘spirinlikdagi eng muhim xislatlaridan biri o‘z-o‘zini hurmatlash. o‘z-o‘ziga baho berish hamda o‘zini shaxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. O‘spirinlar o‘zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar. Ularni o‘z-o‘zini tarbiyalash borasida bir butun ma‘naviy psixologik qiyofani shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va namunaning mavjudligi katta ahamiyatga ega. Masalan: o‘g‘il bolalar — qahramonlik, yaxshi ota, tadbirkor, o‘qituvchi, vrach yoki badiiy asar hamda kinofilm-dagi obrazlarni o‘zlariga ideal deb bilsalar; qizlarimiz mehnatkash ayol, jozibali jamoat arbobi, nazokatli uy bekasi yoki ilmiy xodim va boshqalarni ideal deb biladilar. O‘zaro munosabat va emotsional hayot o‘z mavqeini belgilashning murakkab muammolarini o‘spirinning o‘zi hal qila olmaydi. Bu masalani o‘spirinning ota-onasi, o‘z tengqurlari, o‘qituvchilar ishtirokida ularning qo‘llab-quvvatlashida hal qilishi mumkin.

O‘spirinlarni ming yillab tashvishlantirayotgan axloqiy muammolar bu — yaxshilik va yomonlik, adolat va qonunga xiloflik, tartiblilik va mas’uliyatsizlik va hokazo. Hozirgi ilk o‘spirinlar ko‘p asrlar oldin yashagan yigit va qizlardan farq qilmasalarda, ularga hayotga amaliy nuqtayi nazardan qarash xos bo‘lib, ko‘proq mustaqillik va erkinlik xos.

Dunyoda va mamlakatimizda ro‘y berayotgan jo‘shqin ijtimoiy hodisalar, o‘zgarishlar yosh avlodga mustaqil tanlash, barcha narsada shaxsiy yo‘nalganlik, mustaqil qaror qabul qilish imkonini

bermoqda. Zamonaviy yigit va qizlarning psixologiyasini hayotning o'zi bir necha o'n yillar ilgari yashagan tengdoshlaridan farq qiladigan qilib shakllantirmoqda. Bu xislatlar quyidagilar: axloqiy xarakterga ega bo'lgan ko'p muammolarni qo'yish va hal qilish, mustaqillik, fikrlarning har doim to'g'ri emasligi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va diniy muammolarni hal qilish.

Respublikamiz psixologlari tomonidan ilk o'spirinlar shaxsining psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlagan qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Jumladan, M.G.Davletshin rahbarligida M.T.Isakova tomonidan o'tkazilgan «Yuqori sinf o'quvchilari xarakter xislatlarining shakllanishida milliy an'analarning ta'siri» mavzusida ilmiy izlanish olib borilgan¹. Tadqiqotda o'zbek etnik guruhiga xos bo'lgan yuqori sinf o'quvchilari xarakter xislatlarining etnopsixologik xususiyatlari, ya'ni Vatanga muhabbat, katalarga hurmat, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, uyatchanlik, kamtarlik kabi xislatlarning shakllanishiga milliy an'analarning ta'siri o'rganilgan.

Shunday tadqiqotlar sirasiga AJabborov rahbarligida o'tkazilgan O.U.Avlayevning tayanch-harakat a'zolari buzilgan ilk o'spirinlarning shaxs xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotini keltirish mumkin^{1 2}. Tadqiqot natijasida muallif quyidagilarni aniqlagan: tayanch-harakat a'zolari buzilgan kontingentlar shaxsining motivatsiyalari mazkur yoshdagi sog'lom tengdoshlari singari bir xildagi munosabatni namoyon qilganiga qaramay ularning imkoniyatlari shaxslilik pozitsiyasidan cheklanib qoladi. Ichki motiv, bilish motivi, musobaqalashuv motivlaridagi natijalar nisbiy ma'noda tenglikni ifodalasa-da, ammo ularning o'zini o'zi hurmatlashi sog'lom tengdoshlariga qaraganda ancha past ko'rsatkichli motiv darajasini namoyon etadi.

¹ HcaKOBa M.T. BjinyaHne nannoHajibHbix Tpajinnii na cbopMnpBaHiie qepT xapaKTepa y CTapineKJiacHHKOB. ABTope<jj....K..nc.H. -T.1997,-17 c

² Avlayev O.U. Tayanch harakat a'zolari buzilgan ilk o'spirinlar shaxsining psixologik xususiyatlari. Ps.f.n...avtoref.-T.2006.-23b.

Demak, ilk o'spirinlik davri katta mustaqil hayotga qadam qo'yish bo'sag'asidir.

17.5. O'spirinlik davrida muloqot

O'spirinlarda qadriyatli ma'noli muloqot dominantlik qiladi. Yigit va qizlarning kattalar va ota-onalar bilan muloqoti demokratik xarakter kasb eta boshlaydi. O'spirinning kattalar bilan muloqotining mazmuni hayot mazmunini izlash, o'zini bilish, hayotiy rejalar va ularni amalga oshirish yollari, insonlar orasidagi shaxslararo munosabatlar, kasb egalari haqidagi muammolarni qamrab oladi.

Kattalar bilan muloqot bir xil davom etmaydi, o'zini qiziqtirgan muammoni hal qilgach, keyingi muammo bo'yicha savollar tug'ilguncha kamroq muloqot qilishi mumkin. Yigit va qizlar o'ziga yaqin kattalar bilan muloqot qilishga kasb tanlash muammolariga duch kelganlarida hayotiy tajribalarini o'rganish uchun ehtiyoj sezadilar. Bir-birini tushunish, bir-birini qo'llab-quvvatlashga asoslangan hamkorlik sharoitida muloqot samarali kechadi. O'spirin uchun kattalar bilan ishonchli muloqotning mazmuni shundan iboratki, uning muammolarini tushunish, hamdardlik bildirish va uni hal qilish uchun yordamlashishdan iboratdir. Muloqotdagi o'zaro ishonch o'spirin shaxsiga hurmat, hayotiy qiyinchiliklarni yenga olishiga ishonch bildirish — ota-ona va farzand munosabatlarida uyg'unlikni ta'minlashning muhim asosidir. O'spirinlik davrida muloqotga ehtiyoj kuchayadi, muloqot vaqti ortadi, muloqot doirasi kengayadi. Muloqot doirasining kengayishi bilan muloqot chuqurlashadi va individualashadi.

Axloqiy va ijtimoiy, siyosiy hislarning rivojlanishi ayniqsa xarakterlidir. Ular odatda muayyan axloqiy talablar bilan o'zaro to'g'ri munosabatda bo'ladilar. Boshdan kechirgan his-tuyg'ularni anglab yetish mahorati ham rivojlanadi.

Ilk o'spirinlik davrida do'stlashish muammosi. Axloqiy va ijtimoiy, siyosiy hislarning rivojlanishi ayniqsa xarakterlidir. Ular

odatda muayyan axloqiy talablar bilan o‘zaro to‘g‘ri munosabatda bo‘ladilar. Boshdan kechirgan his-tuyg‘ularni anglab yetish mahorati ham rivojlanadi.

Do‘stlik — ilk o‘spirinlik davridagi shaxslararo munosabat va hissiy bog‘lanishning muhim turidir. O‘spirinlik yoshida o‘quvchilarda o‘rtoqlik hissining rivoj topishi xarakterlidir. Rossiya psixologlari I.V.Straxov bilan A.L.Shnirman tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, o‘spirinlik yoshidagi do‘stlik, o‘smirlik yoshidagi do‘stlikdan ba‘zi bir xususiyatlari bilan farq qiladi.

Birinchidan, o‘spirinlarda do‘stlik motivlari ancha chuqurroq bo‘ladi. Do‘stlikning o‘ziga yuqori talablar qo‘yiladi, bular: oshkoralik, o‘zaro ishonch, talabchanlik, sadoqat, birgalikda doimiy yordam ko‘rsatish, kamchiliklarni tugatish, do‘stiga yordam berish, o‘zaro hurmat, bir-birini tushunish va hokazo.

Ikkinchidan, do‘stlik hislari ancha sermazmun bo‘lib, qiziqishlar faoliyatning keng doirasini qamrab oladi.

Uchinchidan, do‘stlik emotsional bo‘lib, do‘sti kechirayotgan hislarga javob bera olish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

O‘spirinlik yoshidagi do‘stlik ko‘pincha butun umr bo‘yi davom etadi. Ilk o‘spirinlik davridagi do‘stlikning psixologik qonuniyatlari o‘zining barqarorligi bilan ajralib turadi. Har xil insonlarning do‘stligi bir xil bo‘lmaydi, yosh, jins va individual-tipologik xususiyatlarga ega bo‘ladi. O‘rtoqlik munosabatlari jamoani jipslashtirishga yordam beradi, uning hayotiy faoliyatini oshiradi. Yoningda o‘rtog‘ing borligini his qilishning o‘ziyoq qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. O‘spirinlar do‘stlik, samimiylilik, emotsional sofdillik kabi xislatlarni birinchi o‘ringa qo‘yishadi. Do‘stlar bir-birlari bilan yuraklarini bo‘shatadilar. Do‘stlarga samimiy mehribonlik shaxsining reflektivlik darajasiga hamda uning emotsional hayot xususiyatlariga bog‘liqdir. O‘spirin hamma vaqt rostgo‘y, samimiy bo‘lishni istaydi.

Ilk o‘spirinlik davridagi do‘stlikning mezonlarini aniqlash uchun ularga quyidagi bir necha tugallanmagan gaplar taklif etiladi: «Do‘st — bu...», «Do‘stim bilan men ko‘pincha...», «Do‘st va

o‘rtoq bir emas, chunki ular ...». Bunda do‘stlikning ikkita bosh mezoni aniqlandi: birinchisi o‘zaro yordam ko‘rsatish va sodiqlik; ikkinchisi — psixologik yaqinlik («...meni tushunadigan»; «...meni yaxshi ko‘radigan», «...hamma narsa haqida gaplashish mumkin» va h.k.). Birinchi tipdagi javoblar ko‘p uchrasa-da, yosh ulg‘ayishi bilan, ayniqsa 18—19 yoshlilarda psixologik yaqinlik ehtiyoji ortadi. Bu ehtiyoj qizlarda o‘g‘il bolalarga nisbatan, shahardagi ilk o‘spirinlarda qishloqdagi tengdoshlariga nisbatan kuchli namoyon bo‘ladi.

Ilk o‘spirinlarning do‘stlashishi o‘z tabiatiga ko‘ra ko‘p funksiyalidir, bu esa uning ko‘p shakllari mavjudligini: oddiy birgalikda vaqt o‘tkazishdan, to bir-birlariga sirlarini ochiq aytishgacha kuzatish mumkin. Aslida birgalikdagi faoliyat yotadigan guruhiy munosabatlardan farqli ravishda do‘stlik bu eng avvalo hissiy bog‘lanishdir. Do‘st uchun shaxsiy yaqinlik muhimdir.

Ilk o‘spirinlik davridagi do‘stlikning psixologik ahamiyati shundaki, u bir vaqtning o‘zida o‘z-o‘zini ochish maktabi va boshqa insonni tushunish maktabidir. Shuning uchun ilk o‘spirinlar alter ego (ikkinchi «Men»)ning qanday tipini tanlashlari qiziqish uyg‘otadi. 15—16 yoshli yigit va qizlar o‘zlaridan kattalarni do‘st sifatida tanlashadi, ularning gaplarini jon deb eshitishadi, ularning xulq-atvorini kuzatishadi. Kattalar bilan do‘stlashish ular uchun qadrlidir. Kattalar bilan emotsional aloqaga kirish ehtiyoji ba‘zan o‘z hayotiy ideallarini topgandek, ularga berilib ketishga ham olib kelishi mumkin.

Lekin tengdoshlari bilan do‘stlashish ehtiyoji undan-da kuchli namoyon bo‘ladi. «Kim bilan do‘stlashishni xohlarding, o‘zingdan kattalar bilanmi, tengdoshlaring bilanmi, yoki o‘zingdan kichiklar bilanmi?» degan savolga ilk o‘spirinlarning ko‘pchiligi (75—85%) tengdoshlarini tanlashgan, kattalarni (11—20%), hamda kichiklarni juda kam (1—4%) tanlashgan. Qizlar ham ko‘pincha tengdoshlarini tanlashgan, lekin ko‘pincha kattalarni ham tanlashgan (39—50%), o‘zlaridan kichiklarni hech tanlashmagan (I.S.Kon va V.A.Losenkov tadqiqotlari natijalari).

Do'st tanlashdagi bunday farqlarning psixologik mohiyati nimada? Fransuz psixologi B.Zazzo ham o'z tadqiqotlarida yuqoridagidek natijalarni qo'lga kiritgan. «Ideal do'st» yoshi ba'zi har doim anglanmaydigan psixologik ehtiyojlarni ochadi. Buning uchun tengdoshlarni tanlash teng munosabatlarga intilishni bildiradi. Tengdoshi bilan do'stlashish o'xshashlik va tenglik tamoyillariga asoslanadi: «Men bilan teng yigit bilan muloqot qilish oson», «Ustimdan kuladi, deb qo'rqmasdan unga hamma narsani aytish mumkin», «O'zimni aqlli ko'rsatishga intilmasdan, qanday bo'lsa shunday o'zimni ko'rsatishim mumkin, u bilan o'zimni erkin tutaman». O'zidan kattaroq do'stni tanlash g'amxo'rlik, rahbarlik ehtiyojini bildiradi: «Men bilmaydigan narsalarni aytib berishi mumkin».

Do'stlarcha yaqinlik ba'zi do'stlarning o'xshashligini bildiradi. Lekin bunday o'xshashlik har doim hamma narsada ko'rinmaydi. Amerikalik psixolog D.Kendel 1900 nafar do'stlarni o'rganib, ba'zi obyektiv xarakteristikalarida (ijtimoiy kelib chiqish, jins, yosh va boshqalarda) o'xshashlikni aniqlagan; do'stlarning psixologik xususiyatlarida va ijtimoiy ustanovkalaridagi o'xshashlik ahamiyatsiz bo'lgan.

Ilk o'spirinlik davridagi do'stlik psixologiyasi shaxs xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Bunda avvalo jins farqlari kuzaatiladi. Qizlarda o'g'il bolalarga nisbatan 1,5-2 yil oldin yaqin do'stlikka ehtiyoj paydo bo'ladi, ularda do'stlik hissiyotlarga boy. Qizlarda do'stlikning mezonlari yigitlarga nisbatan psixologik motivlarga boy bo'lib, ular yozilib gaplashib, bir-birlariga sirlarini aytishga ehtiyoj sezishadi.

Do'stlikning individual-psixologik xususiyatlari kam o'rganilgan. O'spirinning emotsional hayotida yangi bir holat sevgi paydo bo'ladi. O'spirinlik sevgisi sof, pokiza, beg'ubor, xilma-xil kechinmalarga boy, yoqimli, xayolga berilish va samimiyat belgilariga ega bo'ladi. Yigit va qizlarning sevgini boshdan kechirishida bir-birlarini hurmat qilish, do'stlik, o'zaro yordam, bir-birini tushunish kabi xislatlar xarakterli bo'lib, ular bir-birlaridagi yuk-

sak ma'naviy sifatlarni qadrlaydilar. Yigit va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar o'spirinlik yoshida faollashgan bo'ladi. O'rtoqlariga nisbatan munosabatlar doirasi kengayadi, Ayniqsa, qizlarda aralash do'stlik ehtiyojlari kengayadi. Bolalarga xos 16—17 yoshlarda birinchi jinsiy moyillik va sevgi ehtiyojlari ko'rina boshlaydi. Ikki jins o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi asosiy muammolardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ilk o'spirinlarda kuchli va chuqur his bo'lgan sevgi hissi aks ettirilgan, kishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadigan badiiy adabiyot, kino-film va teatrlarga zo'r qiziqish paydo bo'ladi. O'z hissiyotlarini o'zi ham qog'ozda bayon qilish, ko'pincha she'riy shaklda izhor etish ehtiyoji tug'iladi.

Mabodo ana shunday hislar akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilarida paydo bo'lsa, unga qanday munosabatda bo'lish kerak? Ayrim o'qituvchilar o'quvchilarda ana shu hisning paydo bo'lishidan ko'pincha cho'chiydilar va asabiylashtadilar. Ular bu tuyg'uda «yomon berilib ketishlik»ni, «bemavrid va zararli sevgini» ko'radilar, bu o'qishga va jamoat faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydilar. Ta'nalar, boshqacha nazar bilan qarash va masxara qilishlar, «baloning oldini olish», «taqiy etilgan munosabatlarga chek qo'yish», «yo'l qo'yimaslik» kabi nojo'ya urinishlar boshlanadi. Bu hisga ko'pincha salbiy munosabatda bo'ladilar.

Vaholanki, 16—17 yoshda boshqa jinsdagi kishiga mayl qo'yish va qiziqish bilan qarash normal hodisadir. 18 yoshda yigit va qizlar nikohdan o'tish huquqiga ega bo'ladilar. O'spirin sevgisi o'z asos e'tibori bilan sog'lom sevgi bo'la oladi. Samimiy kechinmalar olamiga qo'pollik bilan bostirib kirish sira ham mumkin emas, buning ustiga yigit yoki qizning ana shu tuyg'uga berilgani uchun uning ustidan kulish, haqorat qilish va koyishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Birinchi sevgi alomatlarini avaylash, ularga sezgirlik va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak. Lekin bu ana shu tuyg'ularga beparvo va befarq qarash kerak, degan ma'noni bildirmaydi.

Bu tuyg'ularning qanday xarakter kasb etishi, yigit va qiz o'rtasida qanday munosabatlarni keltirib chiqarishi o'quvchilar shaxsining ma'naviy darajasiga bog'liq. Ko'p hollarda sevgi tuyg'usi yigit va qizlarga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. U yigit va qizlarga o'z kamchiliklariga barham berishga, shaxsning ijobiy fazilatlarini hosil qilishga intilishni vujudga keltiradi, o'qib-o'rganishga, qiyinchiliklarga qarshi kurashga o'rgatadi. Bu tuyg'u ilk o'spirinlarni pokiza, muloyim qiladi, ularda oliyjanob tuyg'ular va intilishlarni tarbiyalaydi. Unday bo'lsa, nega bu tuyg'uga chek qo'yish kerak? Aksincha, tarbiyachi bunday tuyg'uni qadrlashi va hurmat qilishi, uning vujudga kelishidagi soflikni avaylashi, bu tuyg'uning kelgusida ham har ikkala tomonga yaxshi ta'sir ko'rsatishi uchun qo'ldan kelgan hamma chorani ko'rish (hech bo'lmaganda, xalaqit bermasligi) kerak.

O'spirinlarda sevgi hissi bir qancha holatlarga bog'liq. Birinchidan — jinsiy yetilish; ikkinchidan — ishonadigan, suyandigan va har qanday nozik masalalar bo'yicha gaplashish mumkin bo'lgan do'stga ehtiyoj; uchinchidan — bu tabiiy insoniy ehtiyoj hisoblanib, inson ko'pincha o'zini yolg'iz his qilganida kuchli emotsional bog'liqlikka intiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha bunday tuyg'u kuchaygan shaklda birinchi bor ilk o'spirinlik davrida yuzaga keladi. Ilk o'spirinlar yolg'iz bo'lishni istamaganliklari uchun o'zlari faol ravishda o'zaro yaqin muloqot, bir-birlari bilan intim munosabatni izlaydilar. Ba'zan o'spirinlar bu hislarga shunchalik berilib ketadilarki, boshqa narsalar mavjudligi haqida mutlaqo unutib qo'yadilar. Bu davrda o'spirinlarda sevish mumkin boigan qiz yoki yigit ideali paydo boiadi va ko'p yillar davrida bu ideal saqlanib turadi. O'spirinlar tasavvuridagi ideal kimnidir yoqtirishiga, sevishiga turtki boiadi. O'spirinlarning ideal obrazlari ba'zan real boimaydi, ya'ni ular hech kimni «unga» o'xshatmaydilar. Bu esa ularda ishonchsizlik hamda yolg'izlik hissini ham yuzaga keltirishi mumkin. Ilk o'spirinlarga shu mavzuda badiiy adabiyotlar o'qish, kinofilmlar, teatrlar tomosha qilishni tavsiya etish hamda yoshi ulug' kishilar bilan

suhbatlar o'tkazish, ularga o'zlarini kelgusi hayotlarini o'zlariga mos turmush o'rtoqlar topish masalasiga jiddiyroq yondashishlariga yordam beradi.

Respublikamizda ilk o'spirinlik davrida do'stlikning psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlagan tadqiqotlarni prof. G.B.Shoumarov rahbarligida F.A.Akromova o'tkazgan. Uning tadqiqotlarida ham do'stlikka doir yuqoridagi natijalar olingan.

Shunday qilib, o'spirinlik davri 16—23 yoshni o'z ichiga oladi. Bunda 16—18 yosh ilk o'spirinlik, 18—23 yosh esa o'spirinlik deb ataladi. Bu davrda kasbiy o'z-o'zini belgilash yetakchi faoliyat hisoblanadi. E'tiqod va dunyoqarash bilan bir qatorda, axloqiy ideallar bu davrda paydo bo'lgan yangi psixologik tuzilmalardir.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. O'spirinlik davrida psixologik jarayonlarning shakllanish xususiyatlari.

2. O'spirinlikdagi aqliy rivojlanish bilan yetakchi faoliyatlar o'rtasidagi bog'liqlik.

3. Umumiy va maxsus layoqatlarning rivojlanishi.

4. O'spirinlik davrida kasb tanlashning o'ziga xos xususiyatlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Ilk o'spirinlik davri qanday ta'riflanadi?

a) yetuklik davri;

*b) «kamolot bo'sag'asi»;

c) ilk balog'at davri;

d) qiyin davr.

2. Ijtimoiy psixologik holat bo'lgan o'spirinlik qanday ifodalanadi?

a) o'spirinlik o'z xulq-atvorida amal qiladigan axloqiy prinsiplar, e'tiqod, tushunchalar tez sur'atlar bilan shakllanish davri;

*b) bu o'spirinning kattalar jamoasining to'liq a'zosi bo'lishga tayyorgarligini subyektiv boshdan kechirishi sifatida kattalik hissining yuzaga kelishi davri;

c) bu o'spirinning fuqaro sifatida tarkib topishi, uning ijtimoiy hayotga faol qo'shilishi davri;

d) ishonchsizlik hamda yolg'izlik hissini ham yuzaga keltirishi mumkin.

3. O'spirinlik davrida yuzaga keladigan yangi xususiyatlar nimalardan iborat?

*a) e'tiqod va dunyoqarash bilan bir qatorda, axloqiy ideallar ham paydo bo'ladi;

b) o'qishga ongli munosabati o'sadi va his-tuyg'ularning boyligi, turli-tumanligi bilan farq qiladi;

c) mustaqillikka intilish hamda o'zining katta bo'lib qolganligini ko'rsatish istagida namoyon bo'luvchi, o'ziga xos kattalik hissining vujudga kelishidir;

d) samimiy kechinmalar olamiga qo'pollik bilan bostirib kirish.

4. «Akseleratsiya» terminining ma'nosi nima?

a) tiklash;

*b) tezlatish;

c) umumlashtirish;

d) sekinlashish.

5. O'spirinlik davri qanday psixologik xususiyatlari bilan boshqa davrlardan farq qiladi?

a) mustaqillikka bo'lgan ehtiyoji ortadi;

b) tafakkuri, idroki, qiziqishlari, qobiliyati yanada rivojlanadi;

*c) jismoniy hamda aqliy jihatdan voyaga yetadi, kamolotga erishadi, dunyoqarashi, o'z-o'zini boshqarish kabi yetuk xususiyatlari tarkib topgan bo'ladi;

d) mustaqillikka intilish hamda o'zining katta bo'lib qolganligini ko'rsatish istagida namoyon bo'luvchi, o'ziga xos kattalik hissining vujudga kelishidir.

XVIII BOB. YETUKLIK

Reja:

1. Yetuklik psixologik bosqich sifatida.
2. Yetuklikni davrlashtirish muammosi.
3. Yetuklik davrining yetakchi faoliyati va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari.
4. Yetuklik davrida shaxs rivojlanishi.
5. Yetuklik davrining inqirozlari.
6. Yetuklik davrida psixofiziologik va bilish jarayonlarining rivojlanishi.

Mavzu o'quv maqsadi:

Ta'limiy: bo'lajak psixologlar tomonidan yetuklikni yosh chegaralari muammosi, yetuklik davrida shaxsiy inqiroz va yoshning psixologik vazifalari, yetuklik davrida yetakchi faoliyat va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari, yetuklik davrining shaxsiy xususiyatlari, yetuklik davrida bilish jarayonlari haqida ma'lumotlar berish.

Tarbiyaviy: bo'lajak psixologlar tomonidan yetuklik davrining shaxsiy xususiyatlari, yetuklik davrida bilish jarayonlari haqida bilim, malaka va ko'nikmalari asosida dunyoqarashini kengaytirish.

Rivojlantiruvchi: mavzuning ta'limiy va tarbiyaviy o'quv maqsadlari asosida talaba shaxsini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: yoshlik, o'rta yetuklik, yetuklik bosqichlari, mezonlari.

18.1. Yetuklik psixologik bosqich sifatida

Yetuklik ontogenezdagi nisbatan uzoq davom etadigan davrlardan biridir. Odatda yetuklikning uch bosqichi ajratiladi:

- ilk yetuklik (yoshlik);
- o'rta yetuklik;
- yetuklik (qarilik va keksayish).

Yetuklik tushunchasi va yetuklikka erishish mezonlari.

Rivoj-

lanish jarayonining ko'p qirraliligini hisobga olgan holda yetuklikning ko'pgina belgilarini ajratish mumkin¹:

— jismoniy o'sish bilan kamroq, ko'proq kognitiv takomillashish bilan bog'langan rivojlanishning yangi xarakteri;

— yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashish, qarama-qarshilik va qiyinchiliklarni ijobiy hal qilish, vaziyatga tez moslashish;

— tobelikni bartaraf etish va boshqalar va o'zi uchun mas'uliyatni his qilish;

— xarakterning ayrim xislatlari (qafiylik, umidvorlik, vijdonlilik, hamdardlik bildirish va boshqalar).

«Kattalik» va «yetuklik» tushunchalari aynan bir xil tushunchalar emas. Yetuklik — hayot faoliyatining eng ijtimoiy faol va mahsuldor davridir, u kattalikning shunday davriki, unda shaxs va intellekt rivojlanishining eng yuksak darajasiga erishiladi. Qadimgi greklar bu yoshni va ruh holatini «akme» deb atashgan, «cho'qqi», oliy bosqich, gullagan davr degan ma'no-larni anglatadi.

Gumanistik psixologiyada (A.Maslou, G.Olport, K.Rodgers va b.) yetuk shaxsning o'z-o'zini namoyon qilishi jarayoniga katta ahamiyat berilgan. Maslouning fikricha, o'z-o'zini namoyon qiladigan shaxslar elementar ehtiyojlarini qondirish bilan chegaralanib qolmaydi, haqiqat, go'zallik, yaxshilik kabi oliy qadriyatlar-ga intiladi. Ular o'z faoliyatlarida yuksak cho'qqilarga intiladilar. O'z-o'zini namoyon qilish uchun o'z ustida tinmay ishlashni ta-lab qiladigan jarayondir.

G.Olportning ta'kidlashicha, shaxsning yetukligi motivatsiyasi-ning funksional avtonomligi bilan belgilanadi. Olportning fikri-cha, o'z-o'zini namoyon qiladigan shaxs quyidagi xislatlarga ega bo'ladi:

Δ) tashqi dunyoga qiziqish. Men hissi kengaygan.

¹ Kpaipr T. ncnxojiorna paaBHTna. C.647—653.

B) boshqalarga nisbatan g'amxo'rlik (hamdardlik, hurmat, chidamlilik);

D) emotsional xavfsizlikni fundamental his qilish (o'zini nazorat qilish, o'zini qabul qilish);

E) borliqni real idrok qilish va harakatlardagi faollik;

F) o'z-o'zini tushunish, ichki tajribasini vaziyatga ko'chirish;

G) «hayot falsafasi*», tajribani tartibga soladi, tizimlashtiradi va individual xatti-harakatlarga ma'no beradi.

18.2. Yetuklikni davrlashtirish muammosi

Yetuklikning bosqichlari turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Yetuklik davrini birinchilardan bo'lib davrlashtirgan Sh.Byuler o'z-o'zini aniqlashni asos qilib, yetuklikning besh ta bosqichini ajratgan:

Birinchi bosqich (16—20 yosh) shaxsiy o'z-o'zini belgilashdan oldin keladi.

Ikkinchi bosqich (16—20 yoshdan 25—30 yoshgacha) — urinib ko'rish va izlash bosqichidir (kasb, umr yo'ldosh va b.). Bu davrda hayotiy maqsadlar noreal bo'lib, o'zgarib turadi.

Uchinchi bosqich (25—30 yoshdan 45—50 yoshgacha) — yetuklik davri: inson hayotda o'z o'rnini topadi, oila quradi. 40 yoshlarda shaxs o'zining hayotda erishgan natijalariga qarab o'zini baholay boshlaydi.

To'rtinchi bosqich (45—50 yoshdan 65—70 yoshgacha) — qartayotgan inson, kasbiy faoliyatning tugashi, maqsadlar qo'yish va faol o'z-o'zini belgilashning yo'qolishi.

Beshinchi bosqich (70 yoshdan keyin) — qari inson: o'tmishni eslash va tinchlikni xohlash.

Mashhur gollandiyalik psixolog va psixoterapevt B.Divexud kattalar hayotidagi 7 yillik bosqichlarni ajratgan Uotering davrlashtirishini misol sifatida keltiradi¹

¹ flnByxyn B. KpiBMCbI xHSHM — niaHCbI xii3Hii. Pa3BH7iie 'iejiOBexa Mexny jeTCTBOM M CTapcoTtio. Kajiyr 1994.

21—28 yosh — hayotiy bazisni egallash;
28—35 yosh — topilgan hayot asoslarini tasdiqlash;
35—42 yosh — ikkinchi jinsiy yetilish, kasbiy maqsadlarga yoʻnalganlik;
42—49 yosh — maniakal-depressiv davr;
49—56 yosh — shaxsiy qartayish bilan kurash;
56—63 yosh — donolik;
63—70 yosh — oʻz hayotida yana muvaffaqiyatga erishish mumkinligini anglash, «ikkinchi yoshlik» imkoniyati.

Lekin inson hayot yoʻlini bunday davrlashtirish tavsiflovchi xarakterga ega boʻlib, jiddiy empirik asoslarga ega emas.

Antropologlar va fiziologlar tomonidan yetuklikning quyi chegarasini 17 yoshdan (D.Birren), 21 yoshdan (D.B.Bromley), 20 yoshdan ayollar, 21 yoshdan erkaklar (xalqaro klassifikatsiya boʻyicha), 25 yoshdan (V.V.Bunak) boshlanadi, deb hisoblashgan. Oʻrta yetuklik chegaralari ham turli olimlar tomonidan turlicha kohsatilgan: 20 yoshdan 35 yoshgacha (DVeksler), 25 yoshdan 40 yoshgacha (D.Bromley), 25 yoshdan 50 yoshgacha (D.Birren), 36—60 yoshgacha (yoshning xalqaro klassifikatsiyasi boʻyicha).

Yetuklikning yuqori chegarasi va keksalikning boshlanishi haqida ham turlicha qarashlar mavjud: 55 yoshdan (WBunak, W.Ginzburg, D.Bromley, DVeksler), 60 yoshdan (G.Grim va koʻpchilik demograflar), 75 yoshdan (D.Birren).

Ilk yetuklik (yoshlik) bosqichi saylov huquqiga ega boʻlish, toʻliq huquqiy va iqtisodiy javobgarlik, ijtimoiy faollikning barcha turlari bilan shugʻullanish imkoniyati bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda hayotiy muhim qarorlar qabul qilinadi, kasbiy taʼlim olish tugallanadi, kasbiy rollar egallanadi, maʼlum muloqot doirasi shakllanadi. Koʻpchilik oila qurgan va birinchi farzandli boʻlishadi, er-xotin va ota-ona rollari egallanadi va amalga oshiriladi.

Oʻrta yetuklik davridagi insonlar keksalik davriga oʻtayotgan ota-onalari va ota-ona uyidan alohida chiqib mustaqil hayot boshlayotganlar orasidagi holatni egallaydi. Odatda, ular ijtimoiy tomondan moddiy mustaqil emaslik, kasbiy faoliyatda yuqori da-

rajaga erishganligi tufayli oila boshlig'i, boquvchisi, jamiyatni boshqaruvchi bo'ladilar.

18.3. Yetuklik davrining yetakchi faoliyati va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari

Bu yosh davrida rivojlanishning ijtimoiy vaziyati insondan ishlab chiqarish sohasiga, mehnat faoliyati sohasiga, o'z oilasini qurish va farzandlar tarbiyalashga faol kirishishni talab etadi. Yetuklik davrida rivojlanishning ijtimoiy vaziyati ichki tomondan mustaqillikka intilish, mas'uliyat hissining kuchayishida ifodalanadi. O'z hayoti va yaqinlarining hayoti uchun shaxsiy mas'uliyatni anglash, bu mas'uliyatni qabul qilishga tayyorlik — yetuklik davridagi rivojlanish ijtimoiy vaziyatning asosiy kechinmasidir.

A.N.Leontev, D.B.Elkonin tomonidan bolalik davri uchun ishlab chiqilgan yetakchi faoliyat haqidagi tasavvurlar yetuklik davrida uning ma'nosini chuqurroq tushunishni talab qiladi.

Yetuklik davrida faoliyatning yetakchi tipi mehnat hisoblanadi. Akmeologiya nuqtayi nazaridan aniqlanishicha, nafaqat jamiyatning ishlab chiqarish faoliyatiga kirishish, bunday faoliyatda insonning kuchiarini maksimal darajada fbydalanish nazarda tutiladi¹. Shunday qilib, insonning turli faohyat sohalarida — jismoniy, axloqiy, intellektual, kasbiy sohalarida yuksak yutuqlarga erishishga intilishi nazarda tutiladi.

18.4. Yetuklik davrida shaxs rivojlanishi

Yetuklik davrida shaxsning rivojlanishi psixologiyadagi kam o'rganilgan muammolardan biridir. Masalan, psixoanalitik nazariyalar shaxs anomaliyalariga, patologik variantlariga e'tibor qaratadi. Norma kasallik belgilarining yo'qligi sifatida qaraladi. Boshqa yo'nalish, gumanistik psixologiya vakillari o'zligini namoyon qilgan mashhur shaxslarni absolutlashtiradi.

¹ БоаајіеВ А.А. БерshнHa B па3BHТНН ЛНСННОСТН В3роејіоро чејіоВеКа,— М.:1998.С.17.

N.A.Ribnikov 1920-yillarda katta odamlarning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadigan yosh psixologiyasi sohasini akmeologiya deb atagan. Bu g'oya so'nggi 10 yillikda akmeologiyaning insonni yetuklik davridagi rivojlanish mexanizmlari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganadigan mustaqil ilmiy fanga aylarishiga sabab bo'ldi. Akmeologiya insonning individ sifatida, shaxs sifatida faoliyatning talantli subyekti sifatida, individuallik sifatida ota-ona, fuqaro, turmush o'rtoq, do'st sifatida shakllanish sharoitlari, yo'llari va usullarini o'rganadi.

A.A.Bodalevning ta'kidlashicha, yetuk inson «rivojlanishidagi cho'qqi», yetuklik cho'qqisi sifatida akme fenomeni — ko'p o'lchamli holat bo'lib, variativ va o'zgaruvchidir turli yosh davrlarida cho'qqiga turlicha erishiladi¹. Inson hayot yo'lini kuzatish cho'qqiga erishishda har bir yosh davrining (go'daklik, ilk bolalik, maktab yoshidagi davri va h.k.) inson bo'lg'usi makroakmesining namoyon bo'lish shakllari va mazmuniga tayyorlanishda katta ahamiyatga ega. Fan va madaniyatda buyuk iz qoldirgan mashhur insonlarning hayotini o'rganish hayotining har bir bosqichida mikroakmelar namoyon bo'lganligini kuzatish mumkin.

Turli insonlardagi akmelarni solishtirishdan shu narsa aniqlandiki, uning namoyon bo'lishi lokal (bir faoliyat doirasida) va keng (ko'p sohalarda) bo'lishi mumkin (misol sifatida Leonardo da Vmchi va MVLomonosovni olim-ensiklopedist va san'at arbobi sifatida keltirish mumkin). Inson tomonidan akme ga erishishga yordamlashuvchi yoki unga xalaqit beruvchi bir necha omillarni ko'rsatish mumkin:

— Ijtimoiy makroomillar (jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, shaxs yashagan tarixiy davr, ijtimoiy kelib chiqishi, aniq ijtimoiy vaziyat, insonning yoshi, jinsi);

¹ BojjajieB A.A. O (JjeHOMene "aKMe" H HCKOTOPMX aaKOHOMepHOCTyax ero cJiopMMpoBaHMya H pa3BHThya.// Mnp HCHXOJOTHH H nCHxojiopHyя B MHpe.1995.N9 3.C.113-119.

—Ijtimoiy mikrooimillar (maktab, oila, ta'lim muassasalan, ishlab chiqarish jamoasi, oilaning boshqa a'zolarining, o'qituvchilar, muioqot doirasining ta'siri);

- O'z-o'zidan rivojlanish omili, shaxsning o'z ustida ishlashi, ichki dunyosining uzluksiz faolligi.

18.5. Yetuklik davrining inqirozlan

G'arb psixologiyasida yetuklik davridagi inqirozlarni o'rganish bu yosh davridagi rivojlanishni tahlil qilishning asosiy yondashuvlaridan biridir¹. Ko'proq shaxsiy o'sishlar ro'y beradigan yosh davrlarini ajratish mumkin: 20 yoshlar atrofida, 30 yoshlar atrofida (28—34), 40—45, 55—60 yoshlarda va nihoyat keksalik davrida. Yetuklik davrida inqirozlarning kechishi, davomiyligi shaxsiy hayotdagi sharoitlarga bog'liqdir. Bu yosh davrida rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi o'sishga va o'z-o'zini takomillashtirishga ichki intilish hisoblanadi. Inqirozni keskinlashtiradigan sharoitlar sirasiga sog'liqning to'satdan o'zgarishi (kutilmagan kasallik, uzoq kasallanish, garmonal o'zgarishlar), ijtimoiy va siyosiy hodisalar, talablarning, sharoitning va ijtimoiy kutilmalarning o'zgarishi va b.) kirishi mumkin. Kritik davrning kechishl turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Bu davrning «inqirozligi» haqidagi tasavvurga barcha tadqiqotchilar ham qo'shilmaydilar.

Inson hayotining «ikkinchi yarmiga» K.Yung ham juda qiziqqan. Hayotning o'rtasini u «ruhning chuqur va qiziqarli o'zgarishlari» ro'y beradigan kritik davr sifatida qaragan^{1 2}. Yetuklik davrida inson ichki o'z-o'zirri anglashi, KYungning ta'biiri bilan aytganda «individualizatsiyani» amalga oshirishi zarur. Hayotining ikkinchi yarmida inson shaxs turli elementlarining muvozanati va integratsiyasi yordamida o'z shaxsining yuksak rivojlanishiga erishishi mumkin. KYungning fikricha, shaxsining yuksak darajasiga hamma ham erishmaydi.

¹ ПИHXH F. BoapacTHbie Kpнanчи. CpyeHH лИHHOCTHOIO pocTa. CII6.1999.

² K)HT K. pиpобjieMa ayiiiH Hamero BpeMeHH. —M.: 1993.C.467.

D. Levinsonning kattalar hayotini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari qiziqish uyg'otadi. U 35—45 yoshdagi 40 nafar amerikalik erkaklarni o'rgangan, ularning har biri bilan 15 soatlik biografik intervyu o'tkazgan hamda mashhur shaxslarning biografiyalarini o'rgangan. Natijada erkaklarning hayot siklida har bir 20 yil davom etadigan uch asosiy eralarni aniqlagan. Har bir era davomida individuum hayot strukturasi qayta quradi. Levinson quyidagi o'tish davrlarini ajratgan:

— ilk yetuklik — 17—22 yosh;

— 30 yoshlarga o'tish — 28—33 yosh;

— o'rta yetuklik — 40—45 yosh;

— 50 yoshlarga o'tish — 50—55 yosh;

— kechki yetuklikka o'tish — 60—65 yosh;

— yetuklik davriga kirishning boshlanishi — 17—33 yoshlarga to'g'ri keladi. To'liq yetuk bo'lish uchun yosh erkak rivojlanish jarayonida vujudga keladigan 4 vazifani uddalashi kerak:

1) orzuga erishish va reallik haqida o'ylab ko'rish: asossiz fantaziyalar va umuman erishib bo'lmaydigan maqsadlar, shuningdek, orzuning umuman yo'qligi o'sishga imkon bermaydi;

2) ota-ona bola munosabatlaridan yetuk tengdoshlar dunyosi munosabatiga o'tishni amalga oshirish uchun ustoz topish;

3) o'zining karyerasini qurish;

4) «o'ziga xos ayol» bilan intim aloqalarni o'rnatish, bu ayol unga kattalar dunyosiga kirishga yordamlashadi, uning umidlarini oqlaydi, uning bog'liq xulq-atvori va boshqa kamchiliklariga chidaydi, orzulari amalga oshishida uni qahramon deb qabul qiladi.

Levinsonning fikricha, o'tish davrlarida inson stresslarni boshdan kechiradi, chunki bu davrda maqsadlar, qadriyatlar, hayot tarzi qayta quriladi va qayta baholanadi.

Amerikalik olim G. Shixi, Levinsonning tadqiqotlaridan ilhomlanib, shunday izlanishlarni ayollarda o'tkazadi¹. Uning tadqiqotlari ham Levinson natijalarini tasdiqladi.

¹ ИИХХ Т. **Bo3pacTHi>ie** КРХЗНЧ. **C'ryienn** ЛИННОСТНОТО

Dastlabki inqiroz ilk yetuklikka o'tishda, 20—22 yoshda namoyon bo'lib, «ota-ona ildizlaridan bo'linish» inqirozi deb ataladi. Yoshlikning asosiy vazifalari va muammolari: hayotiy rejalarni aniqlashtirish va ularni amalga oshirishga kirishish; o'zligini topish individuallikni ishlab chiqish; o'zining huquq va majburiyatlarini bilgan yetuk inson deb anglash; turmush o'rtoq tanlash va o'z oilasini qurish; kasbiy faoliyatda ixtisoslashish va mahoratni egallash.

30 yoshlar — o'rta yetuklik, «oltin yoshga» o'tish yuqori darajada ishchanlik davri. 30 yosh inqirozi — to'plangan tajriba asosida hayotiy rejalarni korreksiya qilish vazifalari bilan bog'liq, kasbiy faoliyat va oilada tartibli va oqilona hayot strukturasi yaratish bilan bog'liqdir. Yoqimsiz hislarni bartaraf etishga intilgan inson ilgari tanlovlari — turmush o'rtoq, karyera, hayotiy maqsadlarini qayta baholaydi. Ko'pincha hayot tarzini tubdan o'zgartirish kuzatiladi; erta qurilgan oilaning buzilishi; kasbiy qayta yo'llash.

30 yoshdan keyin — «ildizlar va kengayish» — moddiy va yashash muammolarini hal qilish bilan bog'liq, xizmat pog'onasida ko'tarilish, ijtimoiy aloqalarning kengayishi, o'z kelib chiqishini tahlil qilish, ilgari rad etilgan o'z Menini asta-sekin qabul qilish.

40 yosh inqirozi — hayot o'rtasining inqirozi bo'lib, keng tarqal-

gandir. Bu yosh davridagi inqirozning dastlabki belgilari ichki dunyoning o'zgarishi — ilgari muhim, qiziqarli deb hisoblangan narsalarga befarq munosabat namoyon bo'ladi. Identiklik inqirozi — o'ziga o'xshamaslik, boshqacha bo'lib qolganini his qilishda ko'rinadi. Inqiroz jismoniy kuchlari va yoqimtoyligining kamayotganini his qilish bilan bog'liqdir. Hayotiy kuchlarining kamayotganligini anglash — o'z-o'zini baholashga va Men konsepsiyasiga qattiq ta'sir qiladi. Ayniqsa bu yoshdagi inqiroz ijod bilan shug'ullanuvchi kasb egalarida qiyin kechadi.

40 yosh inqirozi xavfli va katta imkoniyatlar davri sifatida angellanadi. Yoshligi tugaganini anglash, jismoniy quvvatining kamayganligi, rollar va kutilmalarning o'zgarishi, xavotirlanish, chuqur o'z-o'zini tahlil qilish, kayfiyatning keskin tushishi bilan kechadi. Hayotini to'g'ri yashaganiga shubhalanish bu yosh davridagi

yetakchi muammodir. Bundan tashqari G.Spixi ayollardagi yosh inqirozlarining erkaklardan farqlarini ko'rsatib bergan. Ayollar-ning hayot yo'li bosqichlari ko'proq oilaviy sikl hodisalari bilan bog'liq: turmush qurish, farzandlar tug'ilishi, bolalarning ulg'ayishi, «bo'sh uya» (ulg'aygan bolalar ota-ona uyini tark etishi).

Eriksonning ta'kidlashicha, o'rta yetuklik davrida avlodini saqlash hissi kuchayadi, kelgusi avlod va uning tarbiyasiga qiziqish ortadi. Hayotning bu davri turli sohalarda yaratuvchanlik va mahsuldorlik bilan ajralib turadi.

R.Pek Eriksonning g'oyalarini davom ettirib, bu yosh davrida 4 inqirozning kuzatilishini va ularning hal qilinishi navbatdagi shaxsiy rivojlanish uchun zarur sharoit hisoblanadi:

— insonda donolikni hurmat qilish rivojlanadi (jismoniy kuchga nisbatan);

— jinsiy munosabatlarning ijtimoiy munosabatlarga almashinuvi (jinsiy rollarning susayishi);

— emotsional egiluvchanlikni saqlash;

— ruhiy egiluvchanlikka intilish (psixik rigidlikni bartaraf etish), xulq-atvorning yangi shakllarini izlash¹.

Inson inqirozli kechinmalami muvaffaqiyatli bartaraf etish uchun

o'zida emotsional egiluvchanlikni, o'sayotgan bolalar va keksayot-

gan ota-onalarga nisbatan hissiy barqarorlikni rivojlantirishi zarur. O'rta yosh inqirozini hal qilish — hayotiy maqsadlarni qayta ko'rib chiqish, insonga berilgan umrning qisqaligini anglash, hayot sharoit-

larini tuzatish, yangi Men obrazini ishlab chiqish, turmush o'rtog'iga,

do'stlariga, farzandlariga ko'proq e'tibor qaratish, yangi holatini to'g'ri

idrok etish yangi barqaror davrga olib keladi. Inqirozlarni muvaffaqiyatli bartaraf etgan insonlarda 50—60 dan keyin kundalik muam-

¹ Grase J.Craig Human development.Prentice- Hall.1996.P.787—788

Inqirozli kechinmalarning hal qilinmasligi 50 yoshlarda uning yanada kuchayishiga olib keladi. Inson o'zidagi o'zgarishlarni rad etib, lavozim kreslosiga yanada yopishib oladi: «Men hali shu yerda ekanman, men bilan hisoblash kerak, menga yana ishingiz tushadi». So'nggi vaqtlarda jamiyatning tez rivojlanishi, axborotlashuv asrida yetuklik davri inqirozlarining yanada yasharganligini kuzatish mumkin. 60 yoshga yaqinlashganda nafaqaga chiqishga tayyorlanish munosabati bilan barcha motivatsiyada o'zgarish kuzatiladi.

Yetuklik davridagi inqirozlarning bolalik davridagi inqirozlardan farqlari quyidagilarda kuzatiladi:

— yetuklik davrida asosiy faoliyat turi doimiy bo'ladi (mehnat, ishlab chiqarish, oila, muloqot va b.), bolalik davrida esa yetakchi faoliyat doimiy ravishda o'zgarib turadi;

— yetuk shaxs asosiy faoliyat turining ichida chuqur o'zgarishlar ro'y beradi;

— yetuklik davri inqirozlari uzoqroq vaqtda (7—10 yosh) paydo bo'ladi, ma'lum bir xronologik yoshga bog'lanmagan, ko'proq ijtimoiy vaziyatga, hayotning shaxsiy sharoitlariga bog'liq;

— inqirozlar orasidagi intervallarda rivojlanish tekis kechadi, xronologik chegaralar shartlidir;

— yetuklik davridagi inqiroz anglangan holda, yopiq kechadi, atrofdagilarga keskin namoyon qilinmaydi;

— inqirozdan chiqish, uni bartaraf etish shaxsning ichki faolligiga, uning o'zigagina bog'liq.

Normal inqirozlardan farqli ravishda anomal rivojlanishda ichki qarama-qarshiliklarni hal qilish uchun nuqsonli shakllardan foydalaniladi. Masalan, spirtli ichimliklarga berilish motivatsion va mazmunli intilishlarning o'zgarishiga olib keladi.

18.6. Yetuklik davrida psixofiziologik va bilish jarayonlarining rivojlanishi

Psixik funksiyalar rivojlanish mexanizmlarida quyidagi xususiyatlar aniqlandi:

—Psixofiziologik funksiyalar rivojlanishi ikki fazali xarakterga ega. Birinchi bosqich — funksiyalar taraqqiyotida frontal rivojlanish boʻlib — tugʻilgandan ilk yoki oʻrta yetuklikkacha kuzatiladi. Ikkinchi bosqich — psixofiziologik funksiyalarning ixtisoslashuvi — 26 yoshdan keyin faolroq namoyon boʻla boshlaydi. 30 yoshda ixtisoslashuv hayotiy tajribaning egallanishi va kasbiy mahorat cvaziga ustunlik qiladi.

—Yetuk insonning psixologik va psixofiziologik rivojlanishi qarama-qarshi va murakkab strukturaga ega boʻlib, bilish qobiliyati va alohida funksiyalar funksional darajasining susayishi, barqarorlashishi va kuchayishi jarayonlarining almashishini (birgalikda kelishini) kuzatish mumkin. Aniqlangan qonuniyat neyrodinamik, psixomotor xarakteristikalariga verbal va noverbal intellekt, xotira kabi oliy psixik funksiyalarga xosdir.

—Rivojlanishning geteroxronligi (bir xilda kechmasligi) — insonning individ, shaxs va faoliyat subyekti sifatida yutuqlari va rivojlanish darajasi mos kelmaydi.

Bilish funksiyalarining dinamikasi. Y1 yoshdan 50 yoshgacha boʻlgan davrda verbal va noverbal intellekt rivojlanishi bir xilda kechmaydi.

Ilk yetuklik davrida (18—25 yosh) psixik funksiyalarning kuchli rivojlanishi xos. Xotira, diqqat tafakkur konstruktiv, ijobiy siljishlar, choʻqqilar kuzatiladi. Barqarorlashuv 33—35 yoshda kuzatiladi. 35 yoshgacha inson intellektual faoliyati funksional asoslarining bir butunligi davom etadi. 30—33 yoshda diqqat, xotira, tafakkur kuchli rivojlanadi, 40 yoshlarda ular birmuncha susayadi. 41—50 yoshda 36—40 yoshga nisbatan tafakkur ham birmuncha susayadi.

Koʻpchilik soha vakillari uchun 35—39 yosh ijodiy faollik uchun oʻrtacha maksimum yosh hisoblanadi. Aniqroq toʻxtaladigan boʻlsak, matematik, fizik, ximik kabi aniq fanlarda ijodiy choʻqqiga erishish 30—34 yosh, geolog, vrachlarda 35—39 yosh, psixolog, faylasuf va siyosatchilarda birmuncha kechroq 40—55 yoshlarda kuzatiladi.

Kattalarda bilish funksiyalarining saqlanishiga qadriyatlar yoʻnalganligi katta taʼsir koʻrsatadi¹. Hayotning turli sohalarida yangilikka faol intilish, maʼlumotlarni izlash, erishilgan natija bilan cheklanmaslik, obrazli tafakkur rivojlanish darajasiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Oʻz kasbiy mahoratini takomillashtirish, maxsus adabiyotlarga doimiy murojaat qilish verbal-mantiqiy, amaliy va obrazli tafakkurning rivojlanishiga olib keladi.

51—55 yoshda ham tafakkurning har xil turlarining, diqqat va xotiraning rivojlanishiga kasbiy faoliyatdagi bilishga faol intilish, boʻsh vaqtda ham nimalarnidir oʻrganishga intilish ijobiy taʼsir qiladi.

Kattalarning intellektual potensialini optimallashtirishning muhim omillari quyidagilardir: maʼlumoti darajasi (oliy, texnik, gumanitar, oʻrta maxsus va h.k.); taʼlim — individual va tashkiliy bilish jarayoni sifatida; kasbiy faoliyat turi; mehnat faoliyati xarakteri (aqliy zoʻriqishga ehtiyoj, ijodiylikning mavjudligi) va b.

Yetuk insonlar intellekti saqlanishi bilan bir qatorda uning strukturasi sifat jihatidan qayta oʻzgarishlar sodir boʻladi. Soʻzli matnlarni umumlashirish ustunlik qiladi. Intellekt rivojlanishida yangi boʻlishi mumkin boʻlgan bosqich — muammoni oʻzi qoʻya olishidadir.

Uzoq muddatli xotirada verbal esga tushirish keksalik davrigacha oʻzgarmaydi, reaksiya tezligi, qisqa muddatli xotira, qayta esga tushirish birmuncha susayadi. Shunga qarmay kasbiy xotiraning takomillashishi mnemik funksiyalarning umumiy susayishi bilan mos kelmasligi mumkin.

Soʻnggi zamonaviy longityud tadqiqotlarda aniqlanishicha, yetuklik davridagi insonlarning kognitiv rivojlanishi tugallanmaydi, lekin kattalarning aynan qanday qobiliyatlari qanday qilib oʻzgarishi haqida umumiy fikrga kelinmagan. Bunda ayrim olimlar «dialektik tafakkur va mustaqil tanlangan pozitsiya va masʼu-

¹ KaHaTOB A.K. OSyqaeMOCTb B3pocjibix B paajimHbie nepHOHbi 3pejiocTH // IlcHXOJioriM pa3BHTHi .XpecTOMaTHJi .2001.CII6., C.329-335.

liyat* tushunchalaridan foydalanadilar, bunda intellekt sifat jihatidan qayta qurilishi nazarda tutiladi. Tafakkur rivojlanishida dialektik bosqich bu qarama-qarshi fikrlarni o‘ylab topish, ularni sintezlash yoki ideal va real holatlarni integratsiya qilishdir. Boshqa tadqiqotchilar esa turli yosh davrlaridagi murakkab vazifalarni hal qilish uchun intellektdan egiluvchan foydalanish va uni doimiy takomillashtirish haqida fikr yuritadilar¹.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Yetuklikni davrlashtirish muammosi haqida fikringizni bildiring.
2. Yetuklik davrining yetakchi faoliyati nima va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari qanday?
3. Yetuklik davrida shaxs rivojlanishi to‘g‘risida fikringizni bildiring.
5. Yetuklik davrining inqirozlari.
6. Yetuklik davrida psixofiziologik va bilish jarayonlarining rivojlanishi qanday kechadi?

¹ Grase J.Craig Human development.Prentice- Hall.1996.P.770 -778.

XIX BOB. KEKSAYISH VA KEKSALIK

Reja:

1. Keksalik bioijtimoiy hodisa sifatida.
2. Gerontopsixologiya muammolariga doir dolzarb tadqiqotlar.
3. Keksalik va keksayish nazariyalari.
4. Keksalikning yosh chegaralari muammosi.
5. Keksalik davrida shaxsiy inqiroz va yoshning psixologik vazifalari.
6. Keksalik davrida yetakchi faoliyat va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari.
7. Keksalik davrining shaxsiy xususiyatlari.
8. Keksayish davrida bilish jarayonlari.

Mavzu o'quv maqsadi:

Ta'limiy: bo'lajak psixologlar tomonidan keksalik va keksayish nazariyalari, keksalikning yosh chegaralari muammosi, keksalik davrida shaxsiy inqiroz va yoshning psixologik vazifalari, keksalik davrida yetakchi faoliyat va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari, keksalik davrining shaxsiy xususiyatlari, keksayish davrida bilish jarayonlari haqida ma'lumotlar berish.

Tarbiyaviy: bo'lajak psixologlar tomonidan keksalik davrining shaxsiy xususiyatlari, keksayish davrida bilish jarayonlari haqida bilim, malaka va ko'nikmalar asosida dunyoqarashni kengaytirish.

Rivojlantiruvchi: mavzuning ta'limiy va tarbiyaviy o'quv maqsadlari asosida talaba shaxsini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: gerontologiya, oliy psixik jarayonlar, skleroz, demensiya, altsgeymer.

19.1. Keksalik bioijtimoiy hodisa sifatida

Qarilikning birinchi davri gerontogenez yoki keksayish davri deb ataladi. Ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra, bu davr 60 dan keyin boshlanadi. Ba'zi olimlar esa bu davrni ayollarda 55 yoshdan, erkaklarda 60 yoshdan keyin boshlanadi, deya ta'kidlashgan.

Bu yoshdagi insonlarni uch guruhga bo'lish mumkin: qariyalar, keksalar, uzoq umr ko'ruvchilar.

Xorij olimi Bernsayd bu davrni to'rt guruhga ajratgan: 60—69 yoshgacha qarilikdan oldingi davr, 70—79 yoshgacha qarilik, 80—89 yoshgacha keksalik, 90—99 yoshgacha munkillagan qarilik.

Bu yoshning eng muhim xususiyatlaridan biri yosh o'zgarishi bi-

lan kechadigan genetik programmashtirilgan jarayonning qarishini bildiradi. Qarilik murakkab bioijtimoiy psixologik hodisadir. Biologik

jarayon sifatida qarilik organizmning keksayishi, o'lim ehtimolining ortishi bilan bog'liq. Ijtimoiy hodisa sifatida keksalik nafaqaga chiqish, ijtimoiy statusning o'zgarishi, muhim ijtimoiy rollarning yo'qoli-

shi bilan bog'lanadi. Psixologik darajada bu ro'y bergan o'zgarishlami

anglash va unga muvaffaqiyatli moslashishdan iborat.

Bu yosh o'zgarishlari nimalarda ko'rinadi, degan o'rinli savol tug'iladi?

Dastlab organizm faoliyatining sekin-asta susayishida kuzatiladi. Bu yoshdagi insonlarning jismoniy kuchi, energiyaning umumiy zaxirasi yoshlik davriga nisbatan ancha kamayganligini kuzatish mumkin. Insonning qon aylanish va immun tizimi ham susayadi.

Qarish jarayoni insonning nerv sistemasiga ham ta'sir qiladi. Dastlab uning sezgirligi kamayadi, tashqi ta'sirlarga organizmning sekin reaksiya bildirishi, turli sezgi organlari sezgirligining pasayishi kuzatiladi. Qarilik davrida ko'pchilik insonlar u yoki bu ma'lumotni olish uchun ko'proq vaqt sarflayotganligini his qilishadi.

Qarish jarayonining natijalari insonning eshitish sezgirligining susayishida kuzatiladi. Fozard (1990)ning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, bu yoshdagi insonlarda eshitishning susayishi qariyalarning uchdan bir qismida, ko'proq erkaklarda kuzatiladi.

Bu yoshdagi insonlarning ko'pchiligida ko'rishning turlicha buzilishlari kuzatilishi mumkin. Ko'z qavhari elastikligi

shi mumkin. Qariyalardagi o'zgarishlardan biri sifatida ko'rish o'tkirligining susayishida, mayda detallarni farqlashning qiyinchiligida namoyon bo'ladi. Bunday o'zgarishlar bifokal va trifokal ko'zoynaklar bilan to'ldiri lishi mumkin. Qariyalarda ko'rish sezgirligining o'zgarishi ko'p jihatdan psixofizik funksiyalar dinamikasi bilan ko'p jihatdan bog'liq. Qariyalarda ranglarni ajratish ham birmuncha susayadi, faqat sariq rangni ajratish 50 yoshdan keyin ham o'zgarmaydi.

Ta'm bilish sezgilari ham qariyalarda qariyb o'zgarmaydi. Bartoshukning (1990) tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, shirinni sezish qobiliyati o'zgarmaydi. M. Spitzer (1988)ning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, achchiqni sezish biroz kamayadi. Ta'm bilish sezgilaridagi qator o'zgarishlar ba'zan insonning individual xususiyatlariga ham bog'liq bo'ladi. Qariyalar ovqatdagi ba'zi komponentlarning ta'mini sezishda qiyinchilikni boshdan kechiradi, bu esa ta'm bilish analizatori emas, balki hid bilish sezgirligining susayishi evaziga sodir bo'ladi.

Hid sezgirligining o'zgarishiga asosiy sabab nerv uchlari va tolalarida karaxtlikning boshlanishidir. Bundan tashqari, hid bilish sezgirligi kamayishining sabablari havoning ifloslanishi, zaharli va qo'lansa hidli moddalar bilan nafas olish, chekish, oziq-ovqatda A vitamini yetishmasligidir.

Shunday qilib, keksayish davrida ko'pchilik sensor funksiyalar susayadi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, biz yuqorida ko'rib o'tgan sensor sezgirlik tiplarining ko'pchilikda susayishi kuzatilsa-da, bu hammadada bir xil emas. Sensor funksiyalarning susayishi, shaxs shug'ullangan faoliyat turiga bog'liq ravishda o'zgarish kuzatiladi. Masalan, butun hayoti davomida musiqa bilan shug'ullangan insonlarda eshitish sezgirligining unchalik o'zgarmaganligini kuzatish mumkin.

19.2. Gerontopsixologiya muammolariga doir dolzarb tadqiqotlar

Qarilik ijtimoiy kategoriya sifatida XX asrda ajratildi. Bu oxirgi yuz yilda Yer planetasidagi demografik o'zgarishlar bilan bog'liq

Dunyo aholisining keksayishi ro'y bermoqda, ya'ni rivojlangan davlatlarda keksa insonlar soni ortib bormoqda. Aholi keksayishi-ning sabablaridan biri tug'ilishning kamayishi, salomatlikning yaxshilanishi, kichik va katta yoshdagilarda o'lim sonining kamayishi, hayotning individual davomiyligining ortishidir. Bronza davrida hayotning o'rtacha davomiyligi 18—20 yil bo'lsa, o'rta asrlarda 35 yil, XIX asrda 44 yil bo'lsa, XX asrda 68—72 yilni tashkil etadi.

Aholining keksayishi fenomeni iqtisodiy, tibbiy, huquqiy, siyosiy va boshqa muammolarni tug'diradi. Saylovchilar va tovar iste'molchilarining ko'pchilik qismi keksalar bo'lganligi uchun barcha tizimlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Rivojlangan Yevropa va Amerika mamlakatlarida ham keksalar muammolarini hal qilish borgan sayin qiyinlashib bormoqda (hatto uni «sekin ta'sir qiladigan demografik bomba, deb atashmoqda»¹). Ayrim mamlakatlarda nafaqa yoshini qayta ko'rib chiqish masalasi qo'yilgan (masalan, Buyuk Britaniyada 2010-yildan keyin ayollar uchun nafaqa yoshi 65 yosh deb belgilab qo'yildi).

Gerontopsixologiya — yosh psixologiyasining bo'limi bo'lib, keksalik muammolarini o'rganuvchi psixologiya tarmog'i sifatida so'nggi vaqtlarda ko'p tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortmoqda.

Qariyalarda bilish jarayonlaridagi farqlar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, xotirani tekshirishda standart topshiriqlarni bajarishda 30 yoshli va 70 yoshli kishilar turli tezlikda bajaradi. Soda kognitiv topshiriqlar, ya'ni turli predmetlarni kattaligi bo'yicha xotirada taqqoslashda qariyalarga yoshlarga qaraganda 50% ko'p vaqt talab etilgan. Topshiriq murakkablashtirilganda yoshlarga qaraganda qariyalarga 2 barobar ko'p vaqt talab etilgan (Baltes, 1993).

Qariyalarda kognitiv jarayonlar o'zgarishiga bag'ishlangan tadqiqotlarda operatsiyalarning bajarish tezligini yo'qotishni kompensatsiya qilish mumkin. 1985-yilda S. Salthouse tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda qari mashinistkalar yoshlardan qolish-

¹ CTbioapT— TaMiuibTOH B. flcnxojiorwi CTapeHHa,—M., 2002. C.

may ishni bajarishgan, ularda reaksiya vaqti va barmoqlarning sekin harakatlanishini kuzatish mumkin. Tadqiqotchi eksperiment o'tkazish tartibini murakkablashtirib, mashinistka oldindan o'qib olishi mumkin bo'lgan so'zlar sonini chegaralaganda, qari mashinistkalarining ish tezligi keskin pasayib ketgan, bu yosh mashinistkalarining ish tezligiga umuman ta'sir qilmagan. Qari mashinistkalar yozish tezligini saqlash uchun tekstni oldindan o'qib olib uni xotirada saqlashga harakat qilishgan.

Uzoq muddatli xotirani o'rganishga bag'ishlangan test natijalarida yosh farqlari kuzatiladi. Qator tadqiqotlarda qariyalar so'zlar qatorini qayta esga tushirishga qaraganda tanishga bo'lgan topshiriqlarni yaxshiroq bajarishi aniqlandi (Craik & McDowd, 1987). Ular materialni xotirada saqlash uchun ko'proq tanlovchanlikni namoyon qiladi. Qariyalarda foydasiz so'zlar ro'yxatini eslab qolish ichki isyonni keltirib chiqaradi. Shu bilan bog'liq ravishda ma'nosiz so'zlarni eslab qolishga bag'ishlangan tadqiqotlarda ular quyi natijalarni namoyon etishgan, ma'noli so'zlarni, qiziqarli iboralarni eslashda keksalar yoshlarga qaraganda yaxshi natija ko'rsatishgan (Meyer, 1987).

Shunday qilib, qator olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, qariyalar ular uchun muhim hisoblangan va hayotda kerak bo'ladi, deb o'ylangan materialni yaxshiroq eslab qoladilar.

Uchlamchi xotira bu ilgari bo'lib o'tgan voqeani eslashdir. Xotiraning bu turi keksalarda to'liq eslab qolinadi.

19.3. Keksalik va keksayish nazariyalari

Keksalikni o'rganish bo'yicha bir necha nazariyalar mavjud. Har bir nazariya asosida keksalikni qanday tushunish yotadi.

Keksalik biologik muammo sifatida. Har bir nazariya organizmning qarish mexanizmi bo'yicha o'z modeliga tayanadi. Biologik nazariyalarga rus gerontologiyasining asoschisi A.A. Bogomolsning organizm fiziologik jarayonlari uyg'unligining buzilishini keksayishda asosiy omil deb hisoblagan nazariyasi-

ni hamda keksayishni intoksifikatsiya sifatida qaragan LLMechnikov nazariyasini kiritish mumkin.

Gerontolog W.Frolkis keksalikni organizm moslashuv imkoniyatlarining qisqarishi sifatida qaraydi. Antiqarish yoki vitaukta tushunchasi (lot. Vita — hayot, auktum — choʻzmoq) olim tomonidan

taklif etilgan moslashuv-boshqaruv nazariyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Keksayish evolutsion jihatdan dasturlashtirilib genetik kodga kiritilishi haqidagi tasavvur, hujayralarning buzilishi bilan bogʻliq gʻoyalar biologik nazariyalarga misol boʻla oladi.

Keksalik ijtimoiy muammo sifatida. Ijtimoiy nazariyalarga «erkinlik» hamda «oʻyindan chiqish» nazariyalari misol boʻla oladi. Jamiyatdan uzoqlashuv, motivatsiyaning oʻzgarishi, kommunikativlikning pasayishi, oʻz ichki dunyosiga oʻralashib qolish kabilarda kuzatiladi. Jamiyatdan uzoqlashish ilgarigi ijtimoiy rollarning yoʻqotilishi, sogʻliqning yomonlashuvi, topish-tutishning kamayishi, yaqin kishilarning yoʻqotilishi yoki uzoqlashishida namoyon boʻladi. Subyektiv ravishda bu kerak emaslik tuygʻusi, qiziqishlar doirasining pasayishi, uning oʻziga qaratilishida namoyon boʻladi. Bu jarayon insonning nafaqaga chiqishi bilan boshlanadi, lekin qari inson ishxonada nimalar boʻlayotgani bilan qiziqib turadi, lekin bu sekin-asta sunʼiy xarakterga ega boʻla boradi, sekinlik bilan bu ham toʻxtaydi. Insonga keladigan maʼlumotlar kamayib boradi, qiziqishlar doirasi torayadi, faolligi pasayadi, qarish jarayoni tezlashadi¹.

Faollik nazariyasi («Yangi bandlik») jamiyatdan uzoqlashish nazariyasiga qarama-qarshidir. Faollik nazariyasi keksalarni jamiyat hayotiga tortish, ular qanchalik faol boʻlsa, ularning hayotdan qoniqqanlik darajasi yuqori boʻladi, degan gʻoyaga asoslanadi. Uzluksiz hayot yoʻli konsepsiyasi qarilikni ilgarigi hayot uslubini saqlab qolish uchun kurash mavzoni sifatida talqin etadi.

¹ Кривобог О.В. Социально-психологическая теория старости как социальная проблема // Мнп психологии. 1999. № 2. С.96-106.

Qarilik kognitiv muammo sifatida. Bu yondashuv asosida keksalarda intellektual va emotsional qobiliyatlarning pasayishi yoki yo'qotilishi jarayoni yotadi. «Foydalanmaslik» nazariyasiga ko'ra intellektual ko'nikmalar yetarlicha foydalanmaslik natijasida keksalarda yomonlashadi. Kognitiv nazariyaning boshqa variantida keksa inson o'zidagi o'zgarishlarni qanday talqin qilishiga bog'liqligi nazarda tutiladi. Bunda uch soha asosiy rol o'ynaydi: shaxsiy kechinmalar (sog'liqning yomonlashuvi, jozibadorlikning kamayishi), ijtimoiy mavqe xususiyatlari (kirishimlilik, integratsiya yoki ajralib qolish), shaxsiy hayotining tugayotganligini anglash.

Keksayishning kompleks nazariyalari. Kompleks nazariyalar keksayishning biron jihatiga urg'u beradigan nazariyalarga qarshi chiqadi. Keksayish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u o'zaro biologik, ijtimoiy va psixologik jarayonlar bilan bog'liqdir. Har bir insonga o'ziga xos keksayish yo'li xos. Dj.Terner, D-Xehns¹ uch o'zaro bog'liq jarayonni ajratib ko'rsatadilar:

Psixologik keksayish — individ o'zi keksayish jarayonini qanday

tasavvur qiladi va his qiladi, boshqalarning keksayishi bilan o'zini taqqoslab keksayish jarayoniga qanday munosabatda bo'ladi.

Biologik keksayish — yosh o'tishi bilan organizmda o'zgarishlarning sodir bo'lishi.

Ijtimoiy keksayish — individ keksayishni jamiyat bilan, ijtimoiy rollarni bajarish bilan qanday bog'laydi?

19.4. Keksalikning yosh chegaralari muammosi

Qarilikning yosh chegaralarini turli olimlar turlicha tavsiflashadi, lekin ko'pchilik 60—65 yoshni qarilikning boshlanishi sifatida e'tirof etishadi. Misol sifatida bir necha olimlarning qarashlarini keltiramiz:

Chexiyalik professor B.Prijigoda: 60—75 — qarilik, 75—100 yosh keksalik

¹ КрaчHOBa O.B. CoHHajiMiaii HCMXOЛOИHН cTapeHHH KBK ocHOBNaa cocTaBJинio-

Dj.Birren: 50-75 yosh soʻnggi yetuklik, 75 yoshdan keyin qarilik.

D.B. Bromley qarilikning 3 bosqichini koʻrsatib oʻtadi: 65—70 yosh sevimli ishdan uzoqlashish; 70 yoshdan keyin keksalik; 110 yoshgacha — munkillaganlik, qarib kasalga chalinish va oʻlim.

Rossiya gerontologiyasi asoschilaridan biri LVDavidovskiy kek-

salik boshlanishining aniq sanasi mavjud emas, degan fikrni bildirgan¹. Boshqa mashhur gerontolog N.F.Shaxmatov keksayish muam-

molariga biologik nuqtayi nazardan yondashib, psixik keksayishni markaziy nerv sistemasining oliy boʻlimlarida yoshga oid destruktiv

oʻzgarishlar natijasi sifatida qaraydi^{1 2}. Keksayish yoshga oid muqarrar jarayon boʻlishiga qarab har kimda har xil individual kechadi.

Butunjahon sogʻliqni saqlash Yevropa byurosining klassifikatsiyasiga muvofiq, erkaklarda qarilik 61—74 yosh, ayollarda 55—74

yosh, 75 dan keyin keksalik boshlanadi, 90 yoshdan keyin uzoq umr koʻruvchilar deb ataladi.

Qarilikning boshlanishi ijtimoiy mezon sifatida insonning nafaqaga chiqishi bilan belgilanadi. Lekin turli mamlakatlarda turli kasb egalarida ayollar va erkaklarda nafaqa yoshi turlichadir (55 dan 65 yoshgacha davom etadi). Qarilik davriga oʻtishning boshqa ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlari — bu asosiy daromad manbayining oʻzgarishi, ijtimoiy mavqening oʻzgarishi, ijtimoiy rollar doirasining oʻzgarishi hisoblanadi.

Odatda yosh qariyalar 75 yoshgacha hamda keksa qariyalar 75 yoshdan keyin farqlanadi. Bunda faol va mustaqil hayot tarzini kechiradigan qariyalar hamda doimiy mehribonlikni, eʼtiborni talab qiladigan imkoniyatlar funksional mezon boʻlishi mumkin.

¹ HanmioBCKHM n.B. FepoHTOJiornya. —M.,1966.

² IIIaxMaTOB H.<t>. IIcHXHHecKoe crapeHHe: cnaCTjiHBoe H 6ojie3HeHHoe.—M.,

deb ataladi, bunda asosiy determinant sifatida ijtimoiy omil nafaqa yoshiga yetish omili ko'rsatiladi. Darhaqiqat nafaqaga chiqish inson hayotini tubdan o'zgartirib yuboradi, jamiyatdagi muhim ijtimoiy rolining yo'qotilishi, insonning o'z referent guruhidan ajralishi, muloqot doirasining torayishi, moddiy ahvoning yomonlashuvi, ba'zan «iste'fo shoki» holatining o'tkir kechishida namoyon bo'ladi.

Bu holat ko'pchilik qartayayotgan insonlarda qiyin kechadi, salbiy hissiy holatlarni vujudga keltiradi. L.I.Ansifirovaning ta'kidlashicha, qariyalarning uch xil asosiy shaxs tiplarini ajratish mumkin¹. Birinchi tipdagi qariyalar nafaqaga chiqishni yaxshi boshdan kechiradi, yangi qiziqarli mashg'ulotga jon deb ko'chadilar, yangi do'stona munosabatlarni o'rnatishga layoqatli. Bularning bari ularning hayotdan qoniqqanlik darajasining yuqori bo'lishiga hamda umrining uzun bo'lishiga ham ta'sir etadi. Ikkinchi tipdagi qariyalar hayotga passiv munosabatda bo'ladi. Ularda qiziqishlar doirasining pasayishi, o'z-o'ziga hurmatning yo'qolishi, kerak emaslik va mos emaslik hissi kuzatiladi.

Ushbu yosh davridagi inqirozni yumshatish strategiyalaridan biri «hayotga yangicha qarash» texnikasidir. Bu texnika o'z ichiga yangi ijtimoiy yondashuvga psixologik tayyorgarlik, bo'sh vaqtni oldindan rejalashtirish, yangi hayot tarzini, jamiyatga kirishishning yangi usullarini izlash, salbiy holat va hodisalarni oldindan his qilish, nafaqaga chiqishni qat'iy kun tartibi va qat'iy cheklolardan ozod bo'lish hamda insonning yangi qobiliyatlarini namoyon etadigan erkin fazo sifatida ijobiy idrok etish kabilarni o'z ichiga oladi.

Keksalik davriga o'tishdagi inqirozlar bo'yicha boshqa bir yondashuv shaxs ichidagi, identiklik inqirozidir. Bunda qarilik aloqatlari subyekt tomonidan emas, balki atrofdagilar tomonidan seziladi. Fiziologik qartayish jarayonlari doimiyliги tufayli uzoq

¹ Л.И.Анфирова(1)wpoBa Hostie ciajiHH noaziHCH >KH3HH: BpeMH TCTLTOH OCCHH HJИH cypoBOH 3HMи>i.// HcHxojiorHHeCKHH xypnaji. 1994 Nq 3. C.99-105.

vaqt subyekt tomonidan anglanmaydi, o'zining «o'zgarm^ligi» haqida illyuziya paydo bo'ladi. Keksalikni angla_{sh} kutilmaganda sodir bo'ladi (masalan, sinfdoshlari bilan Uchrashnanda) hamda ichki nizolarga olib keladi. Ba'zan qarilikni angl_{ash} bilan bog'liq inqiroz o'smirlik davridagi inqiroz bilan tengl_{ashtiriladi} (bunda ham o'zining o'zgargan tanasiga yangicha munosabatni ishlab chiqishdan iborat), lekin qanlik inqirozi og_{hrOq} kecbadi

E.Erikson konsepsiyasida qarilik ilgarigi hayot voHining m gashi sifatida talqin etiladi¹. Keksalik psixosotsial inqirozining mohiyati shundan iboratki, Egoning yaxlitlikka erishishidir Keksa psixologik yoshga o'tish muvaffaqiyatini E.Erikson oldingi yosh inqirozlarini ijobiy hal qilish bilan bog'i_{aydi} Eriksonin», ta'kidlashicha, donishmandlik ruhning ma'lum holati bo'lib bunda o'tmish, hozir va kelajakka bir vaqtda boqish havot tarixini tasodiflardan xalos etish hamda avlodlar bil_{an} a_{loqa} o'rnatish sifatida talqin etiladi. Donishmandlik keksaiiv • ■

yuksak yutug idir. ^saiik davnning eng

Qarihk davrida rivojlanishning yosh vazifa_{lari} quyidagilarda bo'lishi mumkin:

- yosh o'zgarishlariga moslashish, tana, psixofiziologik'
- keksalikni adekvat idrok etish (salbiy stereotiplarga qarshi turish); * M
- vaqtni aql bilan taqsimlash, qolg_{an h} maasadea yo'naltinb foydalanish; Y aqsadga
- rollarni qayta yo-naltirish, eski rollar Wzitsi id k chish va yangilanm shakllantirish;
- yaqin insonlarning yo'qotilishi va farzandlarning uzoalashishi munosabati bilan bo'ladigan affektiv ho_iat_{larf?}a aarshJ kurashish, emotsional egiluvchanlikni saql_{ash}-
- ruhiy egiluvchanlikka intilish (psixik' rjgidlikni o tish), xulq-atvormng yangi shakllanm izl_{ash}-
- ichki yaxlitlikka intilish va o'tgan unirni anglash

¹ 3.3pMKCOH. JJeTCTBO H o6mecTBo

19.6. Keksalik davrida yetakchi faoliyat va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari

Keksalik davri ishlab chiqarishda faol ishtirok etishdan uzoqlashish, nafaqaga chiqish bilan ijtimoiy pozitsiyaning o'zgarishi taraqqiyotning ijtimoiy vaziyatidagi muhim o'zgarishlardir. Keksalarga nisbatan ijtimoiy vaziyatning noaniqligi ular hayotining ijtimoiy vaziyatini to'liq deb bo'lmaydi. Keksalik davrida inson quyidagi savolni hal qiladi: eski ijtimoiy aloqalarini saqlab qolish hamda yangi ijtimoiy aloqalarni o'rnatish yoki yaqinlarining qiziqishlari bo'yicha ularga qo'shilish yoki o'z muammolarini hal qilish uchun individual hayotga kirish. Bu tanlov u yoki bu moslashuv strategiyasini — o'zini shaxs sifatida yoki individ sifatida saqlab qolishni belgilaydi. Ana shu tanlovga, moslashuvning strategiyasiga bog'liq ravishda yetakchi faoliyat o'zini shaxs sifatida saqlab qolishga, yoki individ sifatida saqlab qolishga yo'naltirilishi mumkin.

«Yopiq kontur tipi» bo'yicha adaptatsiya strategiyasida tashqi dunyoga qiziqishlar va intilishlar darajasining pasayishida, egotsentrizm, emotsional nazoratning susayishi, to'liqmaslik kompleksi, qo'zg'aluvchanlik ba'zan atrofdagilarga befarqlikda namoyon bo'ladi. Ba'zan ushbu keksayish modelini «passiv keksayish» yoki ijtimoiy qiziqishlarning yo'qolishi ham deb atashadi. Bunga alternativ ravishda yana bir model mavjud, ya'ni jamiyat bilan aloqalar saqlab qolinadi, yanada rivojlantiriladi. Yetakchi faoliyat ijtimoiy tajribani tizimlashtirish va uzatishdan iborat bo'ladi. Bu yoshda keksalar kasbiy faoliyatlarini davom ettirishlari, memuarlar yozishlari, o'qitishlari, ustozlik qilishlari, nabiralarni tarbiyalashlari va jamoat ishlari bilan shug'ullanishlari mumkin.

O'zini shaxs sifatida saqlab qolish uchun kuchi yetadigan mehnat bilan shug'ullanish, turli qiziqishlarga ega bo'lish, yaqinlarga kerakli inson bo'lishga intilish, hayotga qiziquvchanlikni his qilish zarur.

N.S.Pryajnikov keksalikni turli davrlarga bo‘lgan va bu davrlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tgan¹.

I. Nafaqadan oldingi keksalik (55 yoshdan nafaqaga chiqquncha) — nafaqaga tayyorlanish.

1. Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati:

— nafaqani kutish: kim uchundir nafaqaga chiqish bu «tezroq dam olishni boshlash», kim uchundir faol mehnat faoliyatining to‘xtatilishi hamda qolgan energiyasini va tajribasini nima qilishni bilmaslik, noaniqlik;

— asosiy aloqalar ish joyidagilar bilan bo‘lib, hamkasblari uning tezroq nafaqaga ketishini xohlashadi, inson esa buni seza-di, boshqa tomondan inson uni nafaqaga boshqalarga nisbatan kechroq chiqazishlariga umid qiladi;

— yaqinlari bilan munosabatlarda keksa inson oilasini, nabiralarini ham ta‘minlashi mumkin bodgani uchun «foydali», ikkinchi tomondan yaqinda o‘zining ishlamaganida, nafaqasiga qarab qolganida «kerak emasligini» his qilish;

— ishda o‘ziga «munosib shogird» tayyorlash, trabiyalashga intilish.

2. Yetakchi faoliyat:

— ulgurmaganlarini bajarishga intilish, ishda o‘zidan keyin «Yaxshi nom» qoldirishga intilish;

— o‘z tajribasini shogirdlariga, o‘quvchilariga uzatishga intilish;

— nabiralar tughlganda nafaqa yoshidagi insonlar o‘zini maksimal darajada namoyon qilishda nabiralar tarbiyasi bilan ham shug‘ullanib, «bo‘linishlari» mumkin;

— nafaqaga chiqish aniq bo‘lganda o‘zining keyingi hayotini rejalashtirish, nafaqada nima bilan shug‘ullanish haqida o‘ylaydi.

II. Nafaqaga chiqqan davr (nafaqaga chiqqan birinchi yil) — bu yangi ijtimoiy status, yangi rolni egallash. Bu davr quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

¹ ИpaXHHKOB H.C. ЖИЛHOCТHIOe CaMOOpИC/ICHHC B npCKJHOHHOM BO3paCTe//

— eski aloqalar birinchi davrda saqlanib qoladi, ular sekin-asta kamayib boradi;

— asosan aloqalar qarindoshlar va yaqinlari bilan bo‘ladi («tajribasiz nafaqaxo‘rlar bilan juda ehtiyot bo‘lib muloqotda bolish lozim»);

— sekin-asta nafaqaxo‘r do‘stlari paydo bo‘ladi;

— yaqinlari va do‘stlari bo‘sh vaqti ko‘p nafaqaxo‘rning nabiralari tarbiyasi bilan shug‘ullanishini istashadi, shuning uchun bolalar va nabiralari bilan muloqot ham nafaqaxo‘r ijtimoiy vaziyatining bir qismi hisoblanadi.

2. Yetakchi faoliyat:

— bu birinchi navbatda yangi rol sifatida «o‘zini izlash», turli faoliyatlarda o‘z kuchini sinab ko‘rishdir, bu «sinab ko‘rish va xato qilish» metodi orqali o‘z-o‘zini aniqlashdir (bunda u kundan kunga hayot qisqaligini his qiladi);

— ayrim nafaqaxo‘rlar nafaqani rasmiylashtirib kasbiy faoliyati bo‘yicha mehnat faoliyatini ham davom ettirishadi. Bunda ishlayotgan nafaqadagilarda shaxsiy muhimlik hissi ortad;

— yoshroq insonlarni uyaltirish, o‘rgatish hissi borgan sari kuchayadi;

— ayrim nafaqaxo‘rlar xotirjam o‘tgan umrini sarhisob qilishga harakat qiladi, ayrimlar «memuarlar» yozib o‘z tajribasi va kechinmalari bilan bo‘lishishga harakat qiladi.

III. Keksalik davri (nafaqaga chiqqandan so‘ng bir necha yildan keyin sog‘liqning jiddiy yomonlashuvigacha bo‘lgan davr) bunda inson yangi ijtimoiy statusni egallab olgan bo‘ladi va quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1. Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati:

— o‘ziga o‘xshagan keksalar bilan muloqot;

— keksa insonning bo‘sh vaqtdan foydalanayotgan, yoki unga «g‘amxo‘rlik» qilayotgan oila a‘zolari bilan muloqot;

— ayrim nafaqadagilar jamoat ishlari bilan mashg‘ul bo‘ladilar;

— ayrim nafaqadagilar uchun boshqalar bilan munosabat o‘zgaradi, ayrim keksalarning ilgari yaqin munosabatlari asta-sekin uzoglasha boradi

2. Yetakchi faoliyat:

— bo‘sh vaqtdagi qiziqishlar (ayrim keksalar har xil faoliyat bilan shug‘ullanib, o‘zlarini sinab ko‘radilar;

— har xil usullar bilan shaxsining nimalarga qodirligini ko‘rsatishga intilish;

— ayrim keksalar (sog‘liqlari yaxshi bo‘lsa-da) uchun o‘limga tayyorlanish yetakchi faoliyat bo‘lib qoladi, bu dinga berilish, tez-tez qabristonga borish, yaqinlariga «vasiyatlar» qilishda namoyon bo‘ladi.

IV. Sog‘liqning birdan yomonlashishi sharoitidagi uzoq umr ko‘rish sog‘lig‘ida jiddiy muammolari yo‘q keksalarning holati bir-biridan farq qiladi.

1. Ijtimoiy vaziyat:

— yaqinlar, qarindoshlar, vrachlar va palatadagi sheriklar bilan asosan muloqot amalga oshiriladi;

— qariyalar uyida palatadoshlari bilan muloqot (xoriyda hech kimi yo‘q qariyalarni bunday uylarga joylashtiriladi).

2. Yetakchi faoliyat:

— davolanish, qandaydir usullar bilan bo‘lsa-da, kasallikka qarshi kurashish;

— o‘z hayoti mazmunini anglashga intilish. O‘z hayotini bezashga, hayotidagi yaxshi narsalarga intilish. Bunda inson «bekorga yashamaganligini ko‘rsatish uchun» o‘zidan yaxshiroq narsa qoldirgisi keladi.

IV. Nisbatan mustahkam sog‘liq bilan uzoq umr ko‘rish (75—80 yosh va undan kattalar).

1. Ijtimoiy vaziyat:

— yaqinlar va qarindoshlar bilan muloqot, ularning oilasida uzoq umr ko‘ruvchi shaxs yashayotganligidan faxrlanish;

— uzoq umr ko‘ruvchi qariyada yangi do‘stlar va tanishlar paydo bo‘ladi;

— uzoq umr kechirish noyob hodisa bo‘lganligi uchun u bilan gaplashishga hamma, hattoki OAV xodimlari ham intiladi.

2. Yetakchi faoliyat:

— insonning layoqatiga bogʻliq boʻlib, koʻproq faol hayot tarzini kechirish, sogʻliqni saqlash uchun faqat vrachlarning aytganlarini qilish emas, balki oʻz sogʻligʻini his qilish ham muhim.

19.7. Keksalik davrining shaxsiy xususiyatlari

Keksahk davridagi insonlarga emotsional sohada ham maxsus oʻzgarishlar xos. Bu affektiv reaksiyalarning kuchayishi (kuchli asab

qoʻzgʻalishi), sababsiz xafa boʻlish, yigʻlash va boshqalarda namoyon boʻladi. Qariyalarda oʻtmish qadriyat hisoblanadi. Kaliforniya universiteti olimlarining 40 yillik longiyud tadqiqot natijalaridan maʼlum boʻlishicha, 30 yoshda emotsional va psixologik barqaror faol shaxslar 70 yoshda ham oʻz faolliklarini saqlab qoladi.

Qariyalarning ijtimoiy va psixologik mavqesini belgilaydigan muhim omillardan biri jismoniy sogʻliq, jismoniy faollikdir. Jismoniy noxushliklar — keksalik davrida hayotdan qoniqmaslikning muhim sababidir. Buning xususiy oqibatlar atrofda qilarga qiziqishning pasayishi, yaqinlar bilan munosabatlarning oʻzgarishi, oʻz-oʻzini baholashning pasayishida koʻrinadi.

Biroq shaxsiy keksayishga munosabat — keksalar psixik hayotining faol elementidir. Jismoniy va psixik oʻzgarishlarni anglash, oʻzining jismonan nosogʻlomligini his qilish keksalik davrida oʻz-oʻzini anglashning yangi darajasini tashkil etadi. Keksalarning jismoniy kuch va imkoniyatlarining chegaralanganligiga chidamliligi yoki chidamsizligi shaxsiy qartayishiga munosabatini bildiradi.

K.Roshakning taʼkidlashicha, ehtiyojlar ierarxiyasi, tuzilishi oʻzgaradi: qiynalishdan qochish, xavfsizlik ehtiyoji, avtonomiya va mustaqillik ehtiyoji¹. Shu bilan birga keksalik davrida vaqtinchalik hayotiy rejalarning umurniy oʻzgarishi roʻy beradi. Hozirgi hayot va oʻtgan umr haqida tasavvurlar kelajak hayotga nisbatan muhim ahamiyatga ega. Keksalarning oʻtmish xotiralarga qaratilgan muhim ahamiyatga ega. Keksalarning oʻtmish xotiralarga qaratilgan muhim ahamiyatga ega. Keksalarning oʻtmish xotiralarga qaratilgan muhim ahamiyatga ega.

¹ PosaK K.ricMxojio™qecKMe OCO6CHHOCTH JIHMHOCTH B HOXHIJOM Boapacre. ABTope<i>. flHC. —.1990.

Shuningdek, bu davrda hayotdan qoniqish hamda o'z-o'zini baholashning susayishi kuzatiladi. Amerika psixologlari tadqiqotlarida nafaqaga chiqqan erkaklar o'rganilib, 5 xil shaxs tiplari o'rganilgan¹.

1. Konstruktiv tip — ichki muvozanat, ijobiy emotsional kayfiyat, o'ziga nisbatan tanqidiylik va boshqalarga nisbatan chidamlilik bilan tavsiflanadi. Kasbiy faoliyatni to'xtatgandan so'ng ham hayotga nisbatan optimistik ustanovka saqlanib qoladi. Bunday keksalarning o'z-o'zini baholashi yuqori bo'lib, atrofdagilarning yordamiga tayangan holda kelajak uchun reja tuzadi.

2. Bog'liq tip — ijtimoiy qabul qilingan va yaxshi moslashgan tip. Yuksak hayotiy va kasbiy intilishlar bo'lmaganida turmush o'rtog'iga yoki farzandiga bo'ysunadi. Oilaviy vaziyat tufayli hissiy muvozanat saqlab turiladi.

3. Himoyalannuvchi tip — zo'r berib doimiy faollik orqali o'z-o'zini ta'minlashga intilish. Nevrotik tip sifatida baholanadi.

4. Agressiv-ayblovchi tip — bunday keksalar shaxsiy muvaffaqiyatsizliklari uchun aybni boshqalarga to'nkaydi, shubhalannuvchan va birdan tutoqib ketadi. Ular o'zlarining keksaligi, nafaqaga chiqqanligi haqidagi fikrni qabul qilishni istamaydi, kuchi tugayotgani va o'lim haqida o'ylab, yoshlarga nisbatan dushmanlarcha munosabatda bo'ladi.

5. O'z-o'zini ayblovchi tip — passivlik, depressiyaga beriluvchanlik, tashabbussizlik, yolghzlik, hayotga pessimistik munosabat, o'lim baxtsizlikdan qutulish yo'li sifatida qabul qilinadi.

I.S.Kon keksalikdagi ijtimoiy-psixologik tiplarni ajratishda mezon sifatida faoliyatning yo'nalganligidan foydalanadi.

Ijobiy psixologik qulay tiplar:

1) nafaqaga chiqqandan so'ng jamoat ishlarini davom ettirish, faol va ijodiy munosabatda bo'lish;

2) shaxsiy hayoti bilan shug'ullanish — moddiy ta'minlanganlik xohishi qiziqishlar mustaqil ta'lim olish yaxshi ijtimoiy va

¹ CTK>apT-raMmiTOH fl. ncnxojiorna cTapeHHH. C. 131-132.

3) oilaning boshqa a'zolariga qulay bo'lish uchun ularga yordamlashish, bular ko'proq ayollardir. Zerikish yo'q, lekin birinchi va ikkinchi guruhdagilarga nisbatan hayotdan qoniqqanlik quyiroq;

4) hayotning mazmuni sog'liqni mustahkamlash bilan bog'lanadi, bu ko'proq erkaklarga xos. Hayotni bunday tashkil etish ma'lum ma'noda axloqiy qoniqish hosil qiladi, ba'zan sog'liqqa nisbatan xavotirlanish kuzatiladi.

Keksalarning salbiy tiplari:

1) agressiv, maxmadonalar;

2) o'z hayotidan norozi, baxtsiz, muvaffaqiyatsiz keksalar.

Keksalik davrida paydo bo'lgan yangi psixologik tuzilma — bu hayotiy donishmandlik hamda ruhning chuqur qatlamlari bilan yashash qobiliyatidir.

19.8. Keksayish davrida bilish jarayonlari

Kundalik hayotda ko'pchilik qariyalarning aqli ham susayadi, deb hisoblaydi. Masalan, yosh yigit qo'ygan narsasini eslay olmasa, hech kim bunda hech qanday qo'rqinchli narsani ko'rmaydi, lekin bunday e'tiborsizlik qariyalar tomonidan amalga oshirilsa, bunday o'zgarishlarni qarilik o'zgarishlarining namoyon bo'lishi — skleroz deb baholaydi.

So'nggi vaqtlarda ilmiy adabiyotlarda normal qarilikda intellektual faoliyatning susayishi haqidagi qarama-qarshi fikrlar uchraydi. Qarilik davrida kognitiv jarayonlarning o'zgarishi muammosini o'rgangan tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ko'pgina aqliy ko'nikmalar nisbatan saqlanib qoladi. Bu yosh davrida xotirani keng doirada o'rganish natijalariga ko'ra (Perlmutter, Adams, Barry, Kaplan, Person & Verdonik, 1987) xotiraning susayishi faqat qarilik oqibati emas, balki boshqa omillar, depressiya, faol faoliyatning to'xtatilishi va dorilarning salbiy ta'siri natijasidir.

Qarilik davrida kognitiv rivojlanish darajasida ma'lum susayish ro'y beradi. Masalan, bilish jarayonida ma'lumotlarni qayta ishlash, mexanik eslab qolish tezligining pasayishi kuzatiladi. Lekin bunga mos ravishda kompensatsiyalar ham ro'y beradi. Nati-

lada ma'lum kognitiv xarakteristikalarining yo'qotilishi kundalik hayotga ta'sir qilmaydi (Perlmutter et al., 1987; Salthouse, 1985).

Qarilik davridagi inson bilish qobiliyatidagi muhim o'zgarishlardan biri — bu jismoniy va aqliy operatsiyalar bajarish tezligining susayishida namoyon bo'ladi. Bu yoshga yetgan insonlarda reaksiya vaqti ortadi, perseptiv ma'lumotlarni qayta ishlash sekinlashadi, kognitiv jarayonlar tezligi susayadi.

Qariyalarda kognitiv qobiliyatlarning susayishi muammosi xotira funksiyalarining o'zgarishi doirasida ko'proq o'rganilgan.

Informatsion nuqtayi nazardan yondashuvchi xorij psixologlari sensor, birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi xotira mavjudligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, sensor xotira — juda qisqa muddatli ko'rish yoki eshitish xotirasidir, bunda informatsiya qayta ishlanguncha 250 millisekund vaqt oralig'ida xotirada saqlab turiladi. O'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, qariyalar yoshlarga qaraganda kamroq ma'lumotni xotirada saqlab qoladi. Birlamchi xotira xorijlik tadqiqotchilar tomonidan cheklangan ma'lumotlar hajmini saqlash sifatida tavsiflanadi. Masalan, sotib olinayotgan tovarning narxini eslab qolishni misol sifatida keltirish mumkin. Bu xotira turini ishchi xotira, yoki operativ xotira ham deb atash mumkin. Tadqiqotlarda yoshlar keksalarning birlamchi xotirasida farqlar aniqlanmagan.

Ikkilamchi xotira uzoq muddatli xotira turi bo'lib, unda yosh xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Yodlash va qayta esga tushirishni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda qariyalar berilgan ro'yxatdagi kam so'zlarni, rasm detallarining oz qismini eslab qolishi aniqlandi.

Uchlamchi xotira bu ilgari bo'lib o'tgan voqeani eslashdir. Xotiraning bu turi keksalarda to'liq eslab qolinadi. Keksalar ilgari bo'lib

o'tgan tarixiy voqealarni batafsil eslab qoladi, agar bu voqeada o'zi ishtirok etgan bo'lsa, yanada yaxshiroq xotirada saqlanadi.

Shu bilan birga keksalik davridagi insonlarda xotira saqlanishida individual farqlar kuzatiladi. Masalan, oliy ma'lumotli keksalar o'rta ma'lumotli tengdoshlariga nisbatan xotira testlarini

yaxshiroq eslab qoladi. Intellektual faoliyat bilan faol shug'ullanadiganlar bu testlarda yaxshi natija ko'rsatishadi.

Rus psixologlari tomonidan xotiraning yosh funksiyalari o'zgarishini kuzatilgan tadqiqotlarda aniqlanishicha, yosh o'tishi bilan mexanik esda olib qolish yomonlashadi, mantiqiy xotira esa saqlanib

qoladi. Obrazli xotira so'z-mantiq xotiraga nisbatan kamroq esda qoladi. Shunday qilib, keksalik davrida xotira asosida mantiqiy bogla-

nish yotadi, mantiqiy xotira tafakkur bilan chambarchas bog'langani

uchun keksalarda tafakkur yaxshi rivojlangan deyish mumkin.

Yoshlar xotira jihatdan keksalardan ustun bo'lsalar-da donolik jihatidan ustun emas. Donolik — bu inson bilimlarining ekspert tizimi bo'lib, hayotning amaliy jihatlariga yo'naltirilgan, hayotiy muhim muammolar bo'yicha foydali maslahatlar berishdir.

Pol B.Bal hamkasblari bilan birga donolikni o'rganib, uning bir necha kognitiv xususiyatlarini aniqlagan. Birinchidan donolik, insonlarning hayot mazmuniga aloqador muhim va murakkab muammolarni yechish bilan bog'liqdir. Ikkinchidan, donolik bilimlar, fikrlar va maslahatlarning yuksak darajasi bilan ajralib turadi. Uchinchidan, donolik bilan bog'liq bilimlar shunchalik keng va chuqurki, ularni maxsus vaziyatlarda qo'llash mumkin. To'rtinchidan, donolik shunday aqlni o'z ichiga oladiki, undan shaxsiy foydaga hamda insoniyat foydasiga foydalanish mumkin. Beshinchidan, donolikka erishish qiyin, lekin ko'pchilik insonlar uni osongina anglaydi.

Intellektual funksiyalar pasayishining sabablari. Keksalarda intellektual funksiyalarning pasayishiga turli sabablar: bevosita va bivosita sabablar bo'lishi mumkin. Intellektual funksiyalar pasayishining bevosita sabablariga miya kasalligi, masalan, Alzgeymer kasalligi va miya qon-tomirlarining kasallanishini keltirish mumkin. Bivosita sabablariga esa bosh miya funksiyalari bilan bog'liq emas, lekin intellektual funksiyalarni amalga oshirish uchun ta'sir ko'rsatadigan sabablar kiradi. Ularga: inson sog'lig'ining umumiy

Demensiya — keksalik boshlanishi bilan bogʻliq shaxs oʻzgarishlari, amneziya, bilish nuqsonlarini oʻz ichiga olgan buzilishlarning bir butun kompleksidir. Senil demensiya — inson tafakkurining adekvatligida namoyon boʻladigan miyaning organik kasalligidir. Amerikalik olimlar tadqiqotlarida aniqlanishicha, qariyalar uyida yashovchi 75—84 yoshli keksalarning 20% demensiya kasalligining bir turi hisoblangan Alsgeymer kasalligiga chalinishgan. 85 yoshdan keyin qariyalar uyida yashovchi keksalarning 47% ida senil demensiya kuzatilgan (Evans et al., 1989). Oʻz oilalarida va faol hayot tarzini olib borayotgan keksalarda demensiya kamroq kuzatilgan.

Alsgeymer kasalligi. Ushbu kasallikda keksalarda bosh miya poʻstlogʻi hujayralarining buzilishi kuzatiladi. Kasallikning dastlabki belgilari mayda-chuydalarni esdan chiqarib qoʻyishda namoyon boʻladi. Keyinchalik qayerda boʻlganligini, kundalik ishlarni ham esdan chiqarib qoʻyadi, oʻziga ovqat ham tayyorlay olmaydi, yaqin kishilarini ham tanimaydi. Demensiyaning boshqa bevosita sababi mikroinsultdir. Mikroinsult — miya qon bilan taʼminlanishining oʻtkir buzilishidir.

Keksalarda intellektual funksiyalarning buzilishi barchada bir xil emas. Ayrim olimlar 70 yoshdan keyin ham ishchanlik qobiliyatlarini saqlab qolgan: P.La-mark, M.Eyler, K.Laplas, Im.Kant, I. P.Pavlov «Yigirma yillik tajriba» asarini 73 yoshda yaratgan.

E.Gʻoziyevning shogirdi A.B.Sabirova ontogenezning kechki bosqichlarida insondagi subyektilik va emotsional sohaning oʻziga xos xususiyatlarini tadqiq etgan boʻlib, bu davrda oʻz-oʻzining emotsional holatini quyi baholash shaxsiy xavotirlanishning oshishiga sabab boʻlishini, shuningdek, oʻz-oʻzining emotsiyalari quyi baholanganda esa vaziyat bilan bogʻliq xavotirlanish darajasi oʻrtishini taʼkidlab oʻtadi¹. Bu qonuniyat emotsional nazorat

¹ Ca6HpoBa A.B. Oco6eHHOCTH cy6i>eKTHBHOCTh H OMOHHOHaabHOH c<j)epbi qejioBCKa na noajjHnx OTanax OHToreHeaa: ABTopeij). JHC. ... Kann. HCHXOJI.

hissiy o'z-o'zini boshqarishning obyektiv indikator ekanidan dalolat beradi. A.B.Sabirova o'z tadqiqoti natijasida qarilik va keksalik davrida shaxsiy xavotirlanish o'rtasida ahamiyatli darajadagi farq namoyon bo'lganini ko'rsatib, bu holatni quyidagicha izohlaydi: qarilik davrida insonlar kuchli emotsional zo'riqishni boshdan kechiradilar va bu holat ulardagi normal hayotiy tuzilmalarning buzilishiga olib keladi. Keksalik davrida esa shaxs bilan bog'liq xavotirlanishning susayishi qarilik davriga nisbatan xulq-atvor strategiyasining ishlab chiqilganligiga asoslanadi va bu holat ulardagi emotsional hayajon reaksiyasini susaytiradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Gerontopsixologiya nimani o'rganadi?
2. Keksalik haqida qanday nazariyalarni bilasiz?
3. Keksalik davrida shaxsiy inqiroz nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Keksalik davrida yetakchi faoliyat.
5. Keksalikning qanday tiplarini bilasiz?
6. Keksalik davrida bilish jarayonlaridagi o'zgarishlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Keksalik davrini o'rganadigan psixologiya sohasini belgilang.
 - a) zoopsixologiya;
 - b) differensial psixologiya;
 - c) patopsixologiya;
 - *d) gerontopsixologiya.
2. Demensiya — bu....
 - a) qarilik va keksalik davrida shaxsiy xavotirlanish o'rtasida ahamiyatli darajadagi farq;
 - *b) keksalik boshlanishi bilan bog'liq shaxs o'zgarishlari, amneziya, bilish nuqsonlarini o'z ichiga olgan buzilishlarning bir butun kompleksidir;
 - c) keksalik davrida esa shaxs bilan bog'liq xavotirlanishning susayishi.

d) miya qon bilan ta'minlanishining o'tkir buzilishidir.

3. Senil demensiya —

*a) inson tafakkurining adekvatligida namoyon bo'ladigan miyaning organik kasalligidir;

b) o'z oilalarida va faol hayot tarzini olib borayotgan keksalarda namoyon bo'ladi;

c) inson sog'lig'ining umumiy yomonlashuvi, ma'lumot darajasining quyiligi;

d) bilish faoliyati motivatsiyasining mavjud emasligi.

4. Alsgeymer kasalligi — .

a) bilimlar, fikrlar va maslahatlarning yuksak darajasi bilan ajralib turadi;

b) donolik bilan bog'liq bilimlar shunchalik keng va chuqurki, ularni maxsus vaziyatlarda qo'llash mumkin;

c) bilish faoliyati motivatsiyasining mavjud emasligi;

*d) keksalarda bosh miya po'stlog'i hujayralarining buzilishi kuzatiladi.

5. Keksalik davrida paydo bo'lgan yangi psixologik tuzilma —

a) mustaqil fikrlash;

b) dunyoqarashning shakllanishi;

*c) bu hayotiy donishmandlik hamda ruhning chuqur qatlamlari bilan yashash qobiliyatidir;

d) refleksiya, identifikatsiya, empatiya.

XX BOB. PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. Pedagogik psixologiya fanining vazifalari, muammolari.
2. Pedagogik psixologiyaning rivojlanish tarixi.
3. Pedagogik psixologiya fanining tamoyillari.
4. Pedagogik psixologiya fanining metodlari.
5. Pedagogik jarayon konsepsiyalari va uning psixologik asoslari.
6. Hozirgi zamon ta'limi: kognitiv-oriyentirovkadan shaxsiy oriyentirovkali ta'lim paradigmalari.

Mavzu o'quv maqsadi:

Ta bo'lajak psixologlar tomonidan pedagogik psixologiya fanining predmeti, vazifalari, bo'limlari, tadqiqot metodlari haqidagi bilimlarning o'zlashtirilishini tashkil etish.

Tarbiyaviy: bo'lajak psixologlar tomonidan pedagogik psixologiya fanining predmeti, vazifalari, bo'limlari, tadqiqot metodlari haqida bilim, malaka va ko'nikmalari asosida dunyoqarashni kengaytirish.


Rivojlantiruvchi: mavzuning ta'limiy va tarbiyaviy o'quv maqsadlari asosida talaba shaxsini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: pedagogik psixologiya, predmeti, vazifalari, bo'limlari, tadqiqot metodlari.

20.1. Pedagogik psixologiya fanining vazifalari, muammolari

Pedagogik psixologiya — psixologiya fanining tarmog'i sifatida ta'lim va tarbiyaning shaxsga samarali ta'sir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganuvchi fandır. Pedagogik psixologiyaning predmeti o'quvchilarni maktabda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash qonuniyatlarini, bu jarayonlarda sodir bo'ladigan individual tafovutlarni, ularda mustaqil va ijodiy tafakkurni tarkib toptirish qonuniyatlarini tadqiq etishdir. Pedagogik psixologiyaning muhim vazifalaridan biri — maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishning psixologik asoslarini

ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, bu hol yangi ta’lim dasturiga o‘tish bilan bog‘liqdir. Pedagogik psixologiya uch bo‘limdan iborat: ta’lim



Ta'lim
psixologiyasi

Pedagogik faoliyati psixologiyasi

Tarbiya
psixologiyasi

1-rasm. Pedagogik psixologiya bo‘limlari

Pedagogik psixologiyaning vazifalari:

1) ta’lim jarayonlarini boshqarishning psixologik masalalarini o‘rganish;

2) bilish jarayonlarining shakllanishini tadqiq qilish;

3) aqliy taraqqiyotning ishonchli ko‘rsatkichlarini aniqlash;

4) ta’lim jarayonida aqliy taraqqiyotning samarali bo‘lish sharoitlarini o‘rganish;

5) pedagog va o‘quvchilar o‘rtasidagi, o‘quvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat xususiyatlarini o‘rganish;

6) o‘quvchilarga individual yondashish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni o‘rganish.

7) pedagogik faoliyatni amalga oshirishning psixologik qonuniyatlarini o‘rganish.

Pedagogik psixologiyaning muammolari quyidagilar:

1. Bolaning rivojlanishida uning hayotidagi har bir sensitiv davrni topish va undan iloji boricha ko‘proq foydalanish muammosi. Bu masalaning muammoliligi shundaki, birinchidan, bola shaxsi va intellekti rivojlanishining barcha sensitiv davrlari maTum emas, uning qachon boshlanishi, qancha davom etishi va qachon tugashi nomaTum. Ikkinchidan, har bir bolaning hayoti o‘ziga xos individual bo‘lib, turli davrda har xil kechadi.

2. Bolaga ongli tashkil etilgan pedagogik ta'sir va uning psixologik taraqqiyoti orasidagi bog'lanish muammosi. Ta'lim va tarbiya bolaning rivojlanishiga ta'sir etadimi, yoki u ta'lim va tarbiya natijasida faqat bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lib, uning intellektual va axloqiy rivojlanishiga ta'sir qilmaydimi? Har qanday ta'lim bolaning rivojlanishiga ta'sir qiladimi yoki faqat muammoli va rivojlantiruvchi ta'lim-mi?

3. Ta'lim va tarbiyaning umumiy va yosh muammolari. Bola hayotining har bir aniq davrida ta'limga yoki tarbiyaga urg'u berish kerakmi? Bola hayotining ayni davrida nimaga ko'proq ehtiyoj sezadi: kognitiv-intellektual yoki shaxs sifatida rivojlanishgami?

4. Pedagogik ta'sirlarning kompleksligi va bola taraqqiyotining sistemaliligi xarakteri muammosi. Bola taraqqiyotini kognitiv va shaxsiy xislatlarning o'zgarishi sifatida tasavvur qilsak, ularning har biri alohida rivojlanishi mumkin, har birining rivojlanishi boshqa xususiyatlarga bog'liq.

5. Bola xulq-atvori va psixologik xarakteristikalarining rivojlanishi ta'lim va yetilishga, layoqat va qobiliyatlar, genotip va muhitga bog'liqligi muammosi. Ta'limni bola organizmida ma'lum neyrofiziologik tuzilmalar yetilmasdan boshlash mumkin-mi? Ta'lim bolaning organik rivojlanishiga ta'sir qiladimi? Agar ta'sir qilsa, qanday darajagacha ta'sir qiladi? Genotip hamda muhit bolaning psixologik va xulq-atvori rivojlanishiga alohida, birgalikda qanday ta'sir qiladi?

6. Bolaning ongli ta'lim va tarbiyaga psixologik tayyorligi muam-

mosi. Bu muammoni hal qilishda ta'lim va tarbiyaga psixologik tayyorlik deganda nima nazarda tutilishi: bolada layoqatlarning mavjudligi ma'nosidami yoki ta'lim va tarbiyaga qobiliyatning rivoj-

langanligi ma'nosidami, bolada yaqin taraqqiyot zonasi va rivojlanish darajasi mavjudligi ma'nosidami, intellektual va shaxsiy yetuklikning ma'lum darajasiga erishilganligi ma'nosidami?

7. Bolaning pedagogik qarovsizligi muammosi. Bolaning ne-

8. Ta'limni individuallashtirishni ta'minlash muammosi. Bolalarning layoqat va qobiliyatlari asosida guruhlarga bo'lib o'qitish, har bir bolaning individual xususiyatlarga mos ta'lim va tarbiya metodlarini tanlash tushuniladi.

Yuqorida keltirilgan psixologik-pedagogik muammolarni hal qilish o'qituvchilardan yuqori kasbiy mahoratni, psixologik bilim, ko'nikma va malakalarni talab qiladi.

20.2. Pedagogik psixologiyaning rivojlanish tarixi

Pedagogik psixologiya fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida tarkib topadi. XIX asrning 60-yillarida xalq ommasi orasida bilimlarni tarqatishga qaratilgan tashkilotlar paydo bo'la boshladi. Bu davrda talabalarning tashabbusi bilan dehqon va hunarmandlarga ta'lim beradigan kattalarning yakshanbalik maktablari paydo bo'la boshladi. Shuningdek, dastlabki xalq kutubxonalari va o'quv zallari (qiroatxonalar), mehnatkashlar uchun tekin kutubxonalar tashkil etildi; umumta'lim, amaliy va kasbiy bilimlarni ommalashtirishning keng tarqalgan shakllaridan biri xalq o'qishlari o'tkazila boshlandi.

Bilimlarni ommalashtirishda bilim jamiyatlari va komitetlari muhim rol o'ynadi. Bunday muassasa a'zolari xorij va rus yozuvchilarining eng yaxshi asarlarini chop etish, yozgi pedagogik kurslarni tashkil etish, xalq maktablari va kutubxonalarini yaratish kabi ishlar bilan shug'ullanishgan. Sankt-Peterburgda 1861-yilda tashkil etilgan bilim jamiyatiga L.N.Tolstoy, I.S. Turgenov kabi mashhur yozuvchilar a'zo bo'lishgan.

Xalq ta'limining rivojlanishida pedagogik muzeylarning tashkil etilishi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bunday muzey nafaqat Rossiyada, balki butun dunyoda dastlab 1864-yilda Peterburgda harbiy-o'quv yurtlarining Pedagogik muzeyi tashkil etilgan. Dastlab muzey faqat xorijda nashr etiladigan o'quv qo'llanmalarni tizimlashtirish, mamlakatimizda yaratiladigan o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqish, o'qitishning ilg'or metodlarini ommalashtirish bilan shug'ullangan. Keyinchalik muzeyda katta

ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, pedagogika fanining dolzarb muammolarini ishlab chiqadigan jamoatchilik ilmiy markaziga aylantirildi. Bu yerda pedagogik psixologiya bo'yicha Rossiyada birinchi eksperimental laboratoriya tashkil etildi.

Keyinchalik ta'lim va tarbiyaga oid kitob, dastlabki pedagogik jurnallar nashr etila boshladi. Ular sirasiga «Tarbiya jurnali*», «O'qituvchi», «Rus pedagogik xabarnomasi», «Maktab va oila», «Ta'lim va tarbiya» va boshqalarni kiritish mumkin.

1848-yilgi fransuz revolyutsiyasidan so'ng rus olimlarining xorijga safarbarliklari to'xtatildi. 1860-yillarda rus olimlarining Yevropa ilmiy hayoti bilan bevosita aloqasi yana tiklandi. 60 dan ortiq olimlar xorijga malaka oshirishga jo'natildi. Ular orasida faylasuf va psixolog M.M.Troitskiy, K.D.Ushinskiy hamda I.M.Sechenovlar bor edi. K.D.Ushinskiy Shveysariya, Germaniya, Fransiya, Belgiyadagi ayollar ta'limining yo'lga qo'yilishini o'rgandi. Bunda taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiyning asarlari, ayniqsa uning «Inson tarbiya predmeti sifatida» nomli asari katta rol o'ynaydi.

Bundan tashqari Ch.Darvinning evolyutsion g'oyalari ham yosh psixologiyasining taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Evolyutsion ta'limot psixik taraqqiyot manbalari muammosiga e'tiborini qaratishga olib keladi.

XX asrning boshlariga kelib, umumiy psixologiyada o'tkaziladigan eksperimental tadqiqotlarni pedagogika sohasiga shundayligicha o'tkazish mumkin deb qaraldi. Ammo o'sha davrning umumiy psixologiya fani pedagogika uchun yetarli bilimlar boyligini bera olmas edi. Shved yozuvchisi E.Key tomonidan «Bolalar asri» nomli kitobi keng tarqaldi. Uning ta'kidlashicha, XX asr bolalar asri bo'ladi. Bunda kattalar bolalar ruhiyatini tushuna boshlaydilar, o'zlari ham bolalardek bo'ladilar. Shundagina ijtimoiy tuzum yangilanadi.

Turli mamlakatlarda bolalar va pedagogik psixologiya muammolarini o'rganish bo'yicha laboratoriyalar, jurnallar tashkil etildi. 1896-yilda Leypsigda «Bolani tadqiq qilish» jurnali, 1899-yilda Leypsigda «Pedagogik psixologiya, gigiyena va patologiya» ju-

rnali, 1905-yilda Leypsigda «Eksperimental pedagogika* jurnali (1911-yildan «Pedagogik psixologiya jurnali* sifatida nashr etilgan boshladi).

1901-yilda Rossiyada birinchi eksperimental pedagogik laboratoriya Peterburgda A.P.Nechayev rahbarligida tashkil etildi.

1906-yilda Peterburgda pedagogik psixologiya bo'yicha I syezd chaqirildi. Pedagogik psixologiya namoyandalari — A.P.Nechayev, N.E. Rumyansev va boshqalar pedagogik adabiyotlarni keskin tanqid qilib chiqdilar. Psixologiyani pedagogik amaliyot bilan yaqinlashtirish eksperimental tadqiqotlarni ta'lim-tarbiya jarayonining o'zida o'tkazish orqaligina mumkin degan muhim xulosa chiqarildi. Ya'ni eksperimental ma'lumotlar tashqaridan emas, balki psixologik-pedagogik tadqiqotning o'zidan olinishi kerak, degan xulosaga kelinadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa yosh va pedagogik psixologiyaning muhim nazariy, metodologik masalalarini hal qilishning to'g'ri yo'llarini izlab topish lozim edi. Shu tufayli psixik taraqqiyotning manbalari va uning ta'lim jarayoniga munosabati masalasi yosh va pedagogik psixologiyaning markaziy muammosi bo'lib qoladi. 1879-yilda I.A.Sikorskiy tomonidan ta'lim jarayonida eksperimentdan foydalanish g'oyasi ko'pchilik olimlar tomonidan tan olinmadi. Lekin 80-yillarda psixologik laboratoriyalarning tashkil etilishi bilan, eksperimentlarni pedagogik jarayon bilan bog'lash, ta'lim va tarbiya haqida yangicha fanni yaratishga intilish vujudga keldi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida AQSHda pedologiya deb ataluvchi yangi fan vujudga keladi. Uning namoyandalari — S.Xoll, E.Meyman, V.Preyer. Bu oqim namoyandalari bola rivojlanishining biologik, fiziologik va psixologik nazariyalarini mexanik ravishda qo'shadilar.

20—30-yillarda pedologiya «Bola haqidagi yagona marksistik fan» rolini da'vo qila boshlaydi va pedagogika hamda bolalar fiziologiyasini siqib chiqarishga harakat qiladi.

Pedologlarning qarashlari idealistik va mexanistik xarakterda edi. Ularning o'quvchilarni «aqliy qobiliyat koeffitsienti»ni

aniqlashga oid testlari asossiz bo‘lib, psixologiya va pedagogika-ga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi hamda maktabga katta ziyon yetkazdi. Shuning uchun 30-yillarning boshlarida pedologiyaning keskin tanqid qilish boshlandi. 1936-yil 4-iyulda BKP MKining «Xalq maorifi komissarligi sistemasidagi pedologik buzg‘unliklar haqida»gi qarori chiqdi. Bu qarorda pedologiya fani marksistik nuqtayi nazar-ga zid ekanligi ta‘kidlanib, katta tanqid ostiga olindi. Shu tariqa pedologiya faniga barham berildi.

20—30-yillarda pedagogik psixologiyada juda ko‘p ilmiy tadqiqot

ishlari olib borildi, hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bir qancha psixologik-pedagogik konsepsiyalar vujudga keldi.

Ayniq-

sa, A.S.Makarenkoning bola shaxsi va bolalar jamoasiga bo‘lgan ilmiy qarashlari, L.S.Vigotskiyning oliy psixik funksiyalarning rivojlanish nazariyasi katta ilmiy qimmat kasb etadi.

Hozirgi kunda yosh va pedagogik psixologiya psixologiya fanining

eng rivojlangan sohasi hisoblanadi. Yosh va pedagogik psixologiya masalalari bilan bir qator ko‘zga ko‘rinarli psixologlar shug‘ullanganlar va shug‘ullanmoqdalar. Ulardan: B.G. Ananyev, L.I.Bojovich, P.Ya.Galperin, WDavidov, AVZaporojets, LVZankov, G.S.Kostyuk, A.N.Leontev, N.A.Menchinskaya, N.F.Talizina, D.B.Elkonin va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Bolalar psixologiyasi muammolari bilan shug‘ullangan o‘zbek olimlaridan: professorlar M.G. Davletshin, E.G‘.G‘oziyev, MVohidov; RTSunnatova, Z.T.Nishonova, dotsent S.A.Axunjanova, Sh.A.Do‘stmuhamedova, S.X.Jalilova kabi psixologlarni keltirishimiz mumkin.

Sharq allomalari asarlarida ta‘lim-tarbiya jarayoni hamda bi-

lishga qiziqish masalalarining yoritilishi. Yuksak tafakkur namoyandalarining asarlarida bilim olishga keng o‘rin berilgan bo‘lib, o‘tmishda ham, hozirda ham, qayerda ta‘lim sohasiga e‘tibor yuqori bo‘lsa, o‘sha yerda taraqqiyot doimo ilgarilab borganligi yagona ko‘rinadi.

Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Burhoniddin Zarnujiy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Umar Xayyom, Abu Hamid Fazzoliy, Alisher Navoiy, Muhammad Rizo Ogahiy, Abdulla Avloniy kabi olim va mutafakkirlarning asarlarida yuqoridagi muammolar yuzasidan atroflicha ma'lumotlar keltiriladi.

Qomusiy olim Imom al-Buxoriy ham ilm o'rganishni yuqori darajaga qo'yib, o'z asarlarida quyidagi fikrlarni ilgari suradilar: «Kishi ilm bobida nafaqat o'zidan yuqori yoki tengdoshlaridan, balki o'zidan past bo'lganlardan hadis olmaguncha, yetuk muhaddis bo'la olmaydi». Imom Buxoriy ushbu fikri bilan o'quv faoliyatining ijobiy motivlari ustoz-muallim tomonidan shakllantirilishiga urg'u beradi.

Abu Nasr Forobiy esa ko'plab asarlarida bilish masalasiga katta e'tibor beradi. U bilishda ikki bosqichni — hissiy va aqliy bilishni farqlaydi hamda bilishda inson aqlining roliga ahamiyat beradi. Forobiy insonlarni ilmi bo'lishga chaqirib, o'quvchining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ibratli g'oyalarni ilgari surgan. U o'quvchiga ta'lim berish, uni ilmi qilish uchun o'qituvchi tinmasdan mashaqqatli mehnat qil-sagina o'quvchi o'qishga, ta'lim olishga, bilimli bo'lishga intilishi mumkinligini ta'kidlaydi. O'qituvchi o'quvchiga bilim beraman desa, o'quvchi oldida haqiqatgo'y bo'lishi kerak, o'zi fahm-farosatli bo'lib, or-nomusini qadrlashi lozim, shogirdlariga nisbatan adolatli bo'lishi, ko'zlagan maqsadiga erishishida qat'iylik ko'rsata bilishi va o'rnak bo'lmog'i joiz, deya ta'kidlaydi mutafakkir. Forobiy tushunishni, bilimning mohiyatini uqib, anglab olishni quruq yodlashdan ustun qo'yadi, o'quvchiga umumiy qonun-qoidalarni o'zlashtirishni tavsiya etadi, chunki qonun-qoidalarni anglash, uning e'tirofiga ko'ra, juda katta ahamiyatga ega. Allomaning mulohazasiga binoan, har qanday o'quvchi o'z xatti-harakatidan xabardor bo'lmog'i, ya'ni o'zini anglagani, zamonaviy psixologiya fani terminologiyasiga ko'ra, o'zini refleksiya qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi va shu sa'y-harakatlari tufayli baxtga erisha oluv-

chi insonligini anglamog‘i lozimdir. Forobiy o‘quvchining shaxsi-ga xos qator fazilatlarga xolisona sharh bergan olimdir.

Qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning fikricha, inson tafakkuri, aqlining kuchi bir necha bosqichdan iborat. Aqliy kuchlar dastlab mutlaq tinch, sokin holatda bo‘ladi. Bolalardagi yozishni, o‘qishni o‘rganishdagi potensial kuchlar shunga misol bo‘la oladi. Abu Ali ibn Sino bu kuchlarni moddiy kuchlar deb nomlagan, ya‘ni mazkur kuchlarni tashqi motivlar deb tushunsa bo‘ladi. Sekin-astalik bilan bu kuchlar harakatga aylanadi, bular mehnat quroli samarasidir, ya‘ni mehnat quroli orqali harakatga keladi va namoyon bo‘la-

di. Bu holatni bola yozishni xohlab turibdi-yu, ammo yozish quroli bo‘lgan qalamning yo‘qligi bilan izohlash mumkin. Bu ikki kuchni Ibn Sino ro‘yobga chiqishi mumkin bo‘lgan kuch deb atagan. Nihoyat, uchinchi kuch esa irodaning yetishmasligi bilan tushuntirib beriladi. Ya‘ni shunday holatning kuchi bor, ammo uni ishlatishga, ro‘yobga chiqarishga bolada iroda yetishmaydi. Alloma nazarida, shu kabi uch holat bilan aql, bilim olish izohlanadi. «Tayr» asarida esa insonlarni do‘stlikka, bilim o‘rganishga chaqiradi.

Ibn Sino «Xayy ibn Yaqzon» qissasida inson fe‘l-atvorini, ruhiyatini tushunish uchun mantiq ilmini o‘rganishga chorlaydi. Bu fan inson tafakkur doirasining kengayishiga katta yordam beradi. Insonlarning fe‘l-atvorini bilish uchun o‘qish, o‘tkir bo‘lish uchun farosat ilmidan xabardor bo‘lish kerak. Darhaqiqat, ilm o‘rganishga Forobiy musiqiy, falsafiy ilm bilan da‘vat etgan bo‘lsa, ibn Sino mantiq ilmi orqali da‘vat etgan.

Abu Ali ibn Sino bolalarning o‘qish, ta‘lim olishlariga mas‘uliyat bilan qarash tarafdorlaridan bo‘lgan. U bola 6 yoshga yetgach muallimga bilim olish uchun topshirilishini aytib o‘tadi. Hozirda ham bolalarning 6—7 yoshdan boshlanghch sinflarga qabul qilinishi ibn Sinoning o‘sha davrdagi g‘oyalarining naqadar ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi, zotan ushbu hol bolaning o‘qishga bo‘lgan muhabbatini kuchaytirishi mumkin. Uning fikricha, bolaga ta‘lim asta-sekinlik bilan berilishi joiz. Uni birdaniga kitobga bog‘lab o‘qimaslik lozim, deydi alloma Ibn Sino kishilar.

ning yashashga qobil bo'lishi va bekorga jabr ko'rmasligi uchun ularga ehtiyot bo'lib ta'lim berish kerakligini uqtiradi. Ya'ni ularning o'qishga bo'lgan ijobiy motivlarini so'ndirmaslikka undaydi.

O'quvchilarning o'qish faoliyatiga oid fikrlar qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham o'z aksini topgan. Uning fikriga ko'ra, bilim olish uchun o'quvchilarda avvalo intilish va qiziqish bo'lishi kerak. Darhaqiqat, nimanidir o'rganish, tadqiq qilish uchun insonda intilish, harakat va qiziqish bo'lmasa, u hech narsaga erisha olmaydi. Ilm olishning muhim yo'llaridan biri inson hammani o'ziga do'st tutishi va boshqa insonlarga ham yaxshilik qila olishi lozim. Olimning mazkur fikrlarini fan tili-da o'quv faoliyatiga nisbatan ehtiyoj tughlsagina o'quv motivlari shakllantirilishi mumkin, deya talqin qilsa bo'ladi.

Beruniy ilm olishda axloqiy poklikni yuqori o'ringa qo'yib, ta'lim va tarbiyani bir xil izchillikda olib borganlar komil inson darajasiga erishadilar, deydi. Beruniy o'qitish uchun muallim o'z malaka va bilimlarini doimo orttirib, zamonga moslashib borishi lozimligini uqtiradi. U kitob o'qish usullariga alohida e'tibor qaratadi. Kitoblarni shunchaki emas, fikrlab, kichik-kichik bo'limlarga bo'lib o'qish va umumlashtirib borish kerakligi haqida ma'lumotlar beradi. Beruniy o'qitishda faqat induktiv (umumiy xulosa) yo'li bilangina emas, balki deduktiv (juz'iy xulosa) yo'li bilan ham ish tutish lozimligini ta'kidlaydi, zotan bunday o'qishda tafakkur kengayib, bilimlar ortib boradi.

Abu Rayhon Beruniy o'qituvchilar o'quvchining e'tiborini taqqoslash, qiyoslash kabi operatsiyalarga qaratishlari lozimligiga alohida ahamiyat beradi. Zotan, bugungi kunda ham ongli, ifodali, to'g'ri va tez o'qish hozirgi zamon o'quvchilarining savodli bo'lishlarini ta'minlovchi asosiy tarkibiy qismlardandir.

Abu Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashga zo'r berib, yosh o'quvchilarni toliqtirib va zeriktirib qo'ymasdan, turli psixologik usullarni qo'llashni, shu orqali ularning tafakkurini boyitib, bilimlarini chuqurlashtira borishni ilgari surgan buyuk zotdir. Ya'ni o'qishga nisbatan bo'lgan qiziqishni so'ndirmaslik uchun bola-

larning yoshiga xos psixologik xususiyatlar albatta inobatga olinishi kerakligini e'tirof etadi.

Beruniyning tafakkur operatsiyalari — analiz, taqqoslash, umumlashtirish kabilarni shakllantirish orqali o'qishga qiziqish uyg'otish haqidagi fikrlari to hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Sharqning boshqa bir yirik olimi Burhoniddin Zarnujiy o'zining «O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma» kitobida: «O'qib o'rga-

nish uchun eng yaxshi vaqt yoshlik davri, erta tong va qosh qoraygan payt. Bilim oluvchi ana shu vaqtni samarali tashkil etishga odatlansin, bordi-yu, unga bir fan zerikarli bo'lsa, boshqasi bilan mashg'ul bo'lsin», — deya ta'lim beradi. «Ta'limul — mutaallim» nomli kitobida bo'lsa ta'limning uzviylik prinsipini e'tirof etadi.

XI asrda yashab ijod etgan Mahmud Qoshg'ariy ham o'zining «Devonu lug'atit turk» asarida bilim olishga da'vat etgan. Asaridagi: «Ey o'g'lim, mendan o'git, nasihat ol, odobli va tarbiyali bo'lishga tirish, toki el ichida zo'r olim bo'lib tanil va ular orasida odob va ilm tarqat» yoki «Ilm, hikmat o'rgan, o'rganishda havoyilik va takabburlik qilma, hech narsa o'rganmasdan, o'zini bilimdon ko'rsatib maqtangan kishi imtihon vaqtida uyaladi, achinadi» kabi fikrlari buning yorqin misolidir.

O'rta Osiyoning yana bir buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib ham o'z ijodida bilimni yuksak baholaydi. Alloma bilimni boylik, kiyim, yemish kabi narsa-hodisalarga qiyoslaydi. Bilim va bilimdonlikni his eta olmoq, uni tushunmoq darkorligi, bilimdon bo'lishning tarbiya bilan chambarchas bog'liqligi, bola qanchalik erta tarbiya qilinsa, bilim olishga ishtiyoqi ortishi haqida yozadi.

O'quvchining psixologik xususiyatlari va shaxsiy fazilatlariga oid mulohazalar qomusiy olim Umar Xayyom asarlarida chuqur yoritib berilgan. Umar Xayyomning fikricha, o'quvchilar o'qituvchidan olgan bilimlari bilan cheklanib qolmasdan, hayotda bo'layotgan voqea-hodisalarni o'rganish va kuzatish, amaliyot davomida bilim, malaka hamda ko'nikmalarini har xil usullarda ko'p martalab takrorlab berish jarayonida oqalaydilar va uni

olim ta'limdagi predmet bilan hayot uzviy aloqadorligi prinsipi ilgari suradi. Uning fikricha, bilim olishni, ta'limni amaliyot bilan uzviy ravishda bog'lagan holda o'quvchilarda mustaqil tafakkurni shakllantirib borish zarur. Buning uchun u «Sen osongina o'ylayapsan», «Ko'p o'ylab, maqsadga erishish mumkin», «Biroz o'ylagandan keyin, tushunib olasan» kabi so'zlarni ishlatib, o'quvchilarni mulohaza qilishga undab, sekin-astalik bilan o'qishga bo'lgan ishtiyoqlarini oshirishga harakat qiladi.

Inson hayotida ilm va amaliyotning birligi haqida Abu Hamid Fazzoliy ham fikr bildirgan edi. Darhaqiqat, inson olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay borishi kerak deb o'ylaymiz, chunki bilim va ilmgina emas, balki fan va tajriba yutuqlarini amalda qo'llay bilish ham insoniy xislatlardan biridir.

Buyuk mutafakkir va alloma Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli-farosati hamda ilmni yuksak qadrlagan. U: «Bilim va donishmandlik insonning bezagidir», — deb yozadi. Alisher Navoiy bolalarga kichik yoshligidanoq bilim, ma'lumot va tarbiya berish kerakligini aytib, ibn Sino kabi, 6 yoshdan muallim qo'lga topshirish kerakligini ta'kidlaydi.

Iste'dodli shoir va tarjimon, tarixchi Muhammad Rizo Ogahiy asarlarida inson bekamu ko'st kamolga yetishishi uchun yoshlikdan ilm va kasb-hunar egallashi shart ekanligini aytib o'tadi. Uning fikricha, ilm-ma'rifat insonning ma'naviy kamolotida va jamiyat taraqqiyotida kuchli vositadir. Ilm inson aqlini boyitadi. Ogahiy ilmni ko'proq xalq o'yinlari orqali yetkazib berish uchun harakat qiladi, chunki bu narsa ijobiy o'quv motivini shakllan- (irishga xizmat qiladi. Xalq o'yinlari, aslida psixologik o'yinlar hisoblanadi. Bu vaqtda bola ham ta'lim oladi, ham shakllanadi.

XX asr boshlarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida pedagogik fikrlar rivojida yetakchi rol o'ynagan olimlardan biri Abdulla Avloniydir. Abdulla Avloniyning fikriga ko'ra, ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, ne'matidir. Ilm o'rganmoq, olim bo'lmoq uchun maktabga kirmoq, muallimdan ta'lim olmoq lozimligini u qayta-qayta ta'kidlaydi.

Ma'rifatparvar alloma Avloniy inson ma'naviy kamolotining yo'llari ustida to'xtaiib o'tadi. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidir, deb ta'kidlab o'tadi.

U ilmning nazariy ahamiyatini ko'rsatibgina qolmasdan, balki uning amaliy faoliyat uchun hayotiy zaruriyat ekanligini ham ta'kidlab o'tadi. Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarishi, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarishi, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarishi, yaxshi xulq, odob sohibi qilishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, rohatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqligini qayta-qayta takrorlaydi.

Ilm kishi zehni, fikrini qilich kabi o'tkir qiladi. Ilmsiz inson mevasiz daraxtga o'xshaydi. Ilm daraxt mevalaridek har shaxsga ozuqa berib, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat dunyosiga olib kiradi. Yomon odamlardan, buzuq ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulqli va odobli bo'lishga xizmat qiladi. Natijada, ilm kishilari har yerda aziz va hurmatli bo'ladilar. Kishi hayotini haqiqiy va to'g'ri yo'lga soladigan vosita — bu ilmdir. Shuning uchun ham ilm orqali oliy fazilatlarga ega bo'lgan, ulug'likka va orzu-istaklariga erishgan buyuk kishilar xalq orasida yuksak qadrlanadilar.

Ilm kasb va fazilatlarning eng afzalidir. Ilm orqali inson yaxshi-yomonni tanishi, halol-haromning farqiga borishi, do'stlik va qarindosh-urug'ning fazilatlarini anglashi, o'z haq-huquqlarini bilishi mumkin.

Kishilarning bilimi, ilmi, amaliy malakalari rivojisiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Muayyan ma'naviy ehtiyojlarga, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan kishilarda ilm-fanni o'rganishga, halol mehnat qilib, kasb-hunar egallashga, malaka oshirishga ishtiyoq ham bo'lmaydi. Shu sababli jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida avval yoshlarni tarbiyalab, keyin ularga ta'lim berganlar.

Haqiqatdan ham, bilimga, ilmga ehtiyoj anglangan motivlar tizimidir. Biror muammoni hal etish imkoniyatlarini inson o'z aql-zakovati, bilimi, kuchi va irodasi bilan aniqlaydi. Bilim mazmun jihatidan kengroq bo'lib, insonning hayot tajribasi orqali o'rtirgan barcha tushunchalar, fikrlar, amaliy malakalarni o'z ichiga oladi. Ilm bilimning cho'qqisidir. Bilimlar tabiat, jamiyat, inson ruhiyati qonunlarini chuqur o'rganish natijasidagina ilmga aylanadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Sharq mutafakkirlari o'quv motivlarini ehtiyojlar nuqtayi nazaridan tahlil qilishga harakat qilganlar. Mazkur ehtiyojlarni hosil qilishga, oshirishga, asosan o'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayonining psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish, ya'ni o'qish jarayonida bolalarning fiziologik va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ularga imkon qadar individual yondashish orqali erishish mumkinligini e'tirof etishgan. Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlarining buyuk xazinasi, bolalarga ta'lim, tarbiya berishdagi ilg'or fikrlari hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

20.3. Pedagogik psixologiya fanining tamoyillari

30-yillarning o'rtalariga kelib psixologiya fanining asosiy tamoyillari: determinizm tamoyili, ong va faoliyatning birligi tamoyili, psixikaning faoliyatda rivojlanishi tamoyili aniq ifodalab berildi.

Determinizm tamoyili psixikaning turmush tarzi bilan belgilanishini va turmush tarzi o'zgarishiga qarab o'zgarishini anglatadi. Agar hayvonlar psixikasi haqida gapiriladigan bo'lsa, u holda bu psixikaning rivojlanishi biologik qonun tarzidagi tabiiy tanlash bilan belgilanadi. Agar odamning psixikasi haqida gapiriladigan bo'lsa, u holda kishida ong shakllarining paydo bo'lishi va rivojlanishi pirovard natijada tirikchilikning moddiy vositalarini ishlab chiqarish usullarini rivojlanish qonunlari bilan belgilanadi. Kishi ongining ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega ekanligini tushunish kishi ongining ijtimoiy borliqqa bog'liqligi haqidagi umumiy materialistik tamoyilidan kelib chiqadigan eng muhim xulosadir.

Ong va faoliyat birligining psixologiyada qabul qilingan tamoyili ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi emas, lekin ular bir-biriga aynan o'xshash ham emas, ammo birlikni tashkil etishini bildiradi. Ong faoliyatning ichki rejasini, uning programmasini tashkil etadi. Voqelikning o'zgaruvchan modeli aynan ongda hosil bo'ladiki, odam o'zini qurshab turgan muhitda shuning yordamida mo'ljal oladi.

Ong va faoliyatning birligi tamoyili psixologlarga xulq-atvorni, faoliyatni o'rganayotib, harakatning maqsadlariga erishishning muvaffaqiyatini ta'minlovchi ichki psixologik mexanizmlarni aniqlash,

ya'ni psixikaning obyektiv qonuniyatlarini ochish imkonini berdi.

Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi tamoyili shuni anglatadiki, psixika agar faoliyat samarasi va rivojlanish mahsuli sifatida qaraladigan bo'lsagina, u to'g'ri tushunilishi va aynan bir xil tarzda izohlab berilishi mumkin. Bu tamoyil psixologlardan P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, B.M.Teplov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topdi.

XIX asrning o'rtalarida ilmiy fikrlar taraqqiyotida rivojlanish tamoyilining keng tarqalganligini kuzatish mumkin. G.Gegel bilishni dialektik metodlarining asosiy holatlarini bayon etib, o'rganilayotgan hodisalarga rivojlanish va tarixiylik tamoyili nuqtayi nazaridan yondashib, o'z nuqtayi nazarini psixologiyaga ham tatbiq etdi. Uning ta'kidlashicha, psixikani ruhiy hayotning alohida hodisalari va faktlari majmuasi sifatida emas, balki ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadigan rivojlanishni bir butun jarayon sifatida o'rganish lozim. Dialektik metod nuqtayi nazaridan psixik rivojlanishni o'rganish turli yosh bosqichlarida psixikaning o'ziga xosligini hisobga olishni talab etadi.

Psixikaning taraqqiyotini dialektik nuqtayi nazardan tushunish psixik taraqqiyot odamning mehnat faoliyatiga, ta'limga, o'yin faoliyatiga bog'liq ekanligini aniqlab berdi. Bunda ijtimoiy tajribani o'zlashtirishning yuz berishi odam uchun aynan xos bo'lgan psixik taraqqiyotning shakli sifatida xizmat qiladi.

I S.Vigotskiy ta'lim psixikasining rivojlanishini talab etadi

fikrni aytib, shu bilan birga bu jarayonda ongli faoliyatning yangi, mutlaqo boshqacha shakllari yaratiladi, deb ta'kidlaydi.

P.P.Blonskiy tafakkurning kichik maktab yoshida o'yinlar bilan, o'spirinlik yoshida o'qish bilan bog'liq tarzda rivojlanishini tahlil qildi. S.L.Rubinshteyn ong faoliyatda paydo bo'lib, ana shu faoliyatda shakllanadi, deb yozgan edi. B.M.Teplov odamning eng muhim individual-psixologik fazilatlaridan bo'lgan qobiliyatni tadqiq qilarkan, qobiliyat faqat rivojlanishda mavjud bo'lgan, deb ta'kidlaydi. Lekin rivojlanish faoliyat jarayonidan bo'lak boshqacha muhitda yuz bermaganidek, «qobiliyat tegishli konkret faoliyatdan ajralgan holda paydo bo'la olmaydi».

Gumanizm tamoyili pedagogikada 60-yillarda paydo bo'lgan bo'lib, bolalarga e'tibor va muhabbat bilan munosabatda bo'lishni anglatadi. Tarbiyaviy ta'sir tarbiyachining bola shaxsini ta'qib qilish va jazolashga emas, balki aqliy va axloqiy ustunligiga asoslanishi lozim. Bolalar qo'rqqani uchun emas, hurmat qilgani uchun jim o'tirishsin. Gumanistik tamoyillarga asoslangan munosabatlar tizimi tarbiyachidan o'z ustida ishlashni, o'z tarbiyachilarini chuqur o'rganishni va ularning har biriga individual yondashuvni talab etadi.

20.4. Pedagogik psixologiya fanining metodlari

Pedagogik psixologiyada umumiy va yosh psixologiyada foydalanilgan metodlar qo'llaniladi. Ular: kuzatish, yozma va og'zaki savolnomalar, eksperiment va boshqalar. Lekin ular bolalarning yoshi, psixologik va pedagogik muammolariga bog'liq ravishda qo'llaniladi.

Umumiy metodlardan tashqari, pedagogik psixologiyaning maxsus metodlari ham mavjud. Masalan, ularga psixologik-pedagogik eksperiment, maxsus psixologik-pedagogik testlar kiradi. Psixologik-pedagogik eksperiment bolaga u yoki bu pedagogik ta'sirning mahsuldorlik darajasini aniqlash uchun maxsus rivojlantiruvchi maqsadni ko'zlab o'tkaziladi. Psixologik-pedagogik eksperiment uch bosqichdan iborat:

1. Aniqlovchi eksperiment.
 2. Shakllantiruvchi eksperiment.
 3. Nazorat eksperimentlari.
- (2.1, 2.2-bo'limlarga qarang).

20.5. Pedagogik jarayon konsepsiyalari va uning psixologik asoslari

Ta'lim va ta'lim jarayonida bolaning rivojlanishi muammosi yosh davrlari va pedagogik psixologiya fanining asosiy masalalaridan biridir. Ta'lim va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri:

1. Aqliy xatti-harakatlar, bilim, ko'nikma va malakalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish nazariyasi (P.Ya.Galperin).

P.Ya.Galperin nazariyasi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga:

1. Motivatsiya.
2. Tushuntirish.
3. Moddiy formadagi xatti-harakatlarni bajarish.
4. Baland ovozda xatti-harakatlar va vazifalarni bajarish.
5. Bajariladigan xatti-harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish.
6. Faoliyatni fikran bajarish kiradi.

Ushbu nazariyada ta'limning uchta asosiy turi ajratiladi:

— birinchi turda — xatti-harakatlarni o'zlashtirish xatolar bilan kechadi, berilayotgan material yetarli darajada anglanilmaydi, ta'lim oluvchi ta'limning asl mohiyatini tushunib yetmaydi;

— ikkinchi turda — materialni nisbatan dadil va to'la tushunilishi va material bilan bog'liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadi;

— uchinchi tur — tez, samarador va bexato xatti-harakatlarni o'zlashtirilishini ta'minlab beradi.

2. *VVDavidov nazariyasi*. Ushbu nazariya mazmunini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishi

tashkil qiladi. Ushbu nazariyaga ko'ra ta'lim jarayonida

tomonidan nazariy tushunchalar tizimi o'zlashtirilishi lozim bo'lib, bu o'z o'rnida xususiyan umumiy bilimlarga o'tilishni ta'minlaydi.

W.Davidovning ta'kidlashicha, o'quv materialini induktiv usul bilan bayon etish, o'quvchilarda fikrlash jarayonining faqat bir tomonini ya'ni, konkretan mavhumlashtirishga tomon yo'nalgan mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Bunday mantiq natijasida bola tafakkuri bir tomonlama rivojlanadi, ilmiy tushunchalar va qoidalar bir tomonlama o'zlashtiriladi.

3. Qator nazariyalar muammoli ta'lim bilan bog'liq bo'lib, L.V.Zankov va A.M.Matyushkin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta'limda muammoli darslarni tashkil etishga qaratilgan.

Ta'limning psixologik asoslari muammosi ko'pgina masalalarni qamrab oladi. Ta'limning muvaffaqiyati qator psixologik omillarga bog'liq bo'ladi. Asosiy omillardan biri o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatidir. Bu munosabat o'quvchining diqqati, his-tuyg'ulari, qiziqishlari va irodasida, shuningdek, shaxsning tutgan yo'lida namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayoni avvalo o'quvchilar diqqatini rivojlantirishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchining diqqatini rivojlantiradigan omillardan hisoblanadi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda o'quvchilarning faolligini yuzaga keltirishga emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materialni idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqati o'zgarib turadi. O'qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish, o'quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga hamda o'zlashtirilgan materialni takrorlashga jalb etish kerak.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarda tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolish kerakligini, nimani esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolish kerakligini,

465

nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini tushuntirib o'tishi lozim. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi tomonidan bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha bilish va o'rganishga nisbatan noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi.

O'qitishning emotsionalligi ta'limning muvaffaqiyatliligini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, bunday ma'lumotni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. O'quvchilarning ijobiy psixik holatlari, ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali qiladi. O'quvchilar emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq o'zlashtirib oladilar.

O'tkazilgan tajribalar hech qanday his-tuyg'u uyg'otmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruhdagi materialni o'quvchilar yaxshiroq eslab qolishlarini ko'rsatadi. O'qituvchi o'quv jarayonining emotsional tomoni haqida ham qayg'urishi kerak. Bu muammo juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, ta'limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, hajmi esa g'oyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga erishish uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatini kuchaytirish lozim. Ijobiy tuyg'ular o'quv mehnatining samaradorligiga kuchli ta'sir etadi. Hafsala bilan bajarilgan faoliyat yuzasidan beg'araz munozara paydo bo'ladi, bahslashiladi, befarq qaralgan yoki salbiy munosabatda bo'lingan ishga esa, hech qanday hafsala bo'lmaydi. Jamiyatimizdagi mehnat — haqiqiy ijod, quvonch manbayi. O'qituvchi o'quvchilarida o'quv mehnatiga ijobiy munosabatni uyg'otib, mehnatning haqiqiy ijodga, quvonch manbayiga aylanishiga ko'maklashishi kerak.

20.6. Hozirgi zamon ta'limi: kognitiv-oriyentirovkadan shaxsiy oriyentirovkali ta'lim paradigmalari

Ta'limda individual yondashuv deganda har bir o'quvchi individual, boshqalarga bog'liq bo'lmagan holda o'qitiladi, degan

ma'noni bildirmaydi. Ta'limni individuallashtirishning ma'nosi shuki, u o'quvchining individual-psixologik xususiyatlariga tayyanadi, ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda quriladi. Sinf rivojlanishi va tayyorgarlik darajasi bir xil bo'lmagan, o'zlashtirishi turlicha va o'qishga munosabati har xil bo'lgan o'quvchilardan tashkil topadi. O'qituvchi an'anaviy tashkil etilgan ta'lim jarayonida hammaga bir xil holda baravar e'tibor qarata olmaydi. Shuning uchun u ta'limni o'rtacha darajaga — o'rtacha rivojlanishga, o'rtacha tayyorgarlikka, o'rtacha o'zlashtirishga tatbiq qilgan holda olib borishga majbur bo'ladi. Boshqacha aytganda, u ta'limni qandaydir afsonaviy «o'rtacha» o'quvchini ko'zda tutgan holda tashkil etadi. Bu narsa shunga olib keladiki, «kuchli» o'quvchilar sun'iy ravishda o'z rivojlanishida ushlab turiladi. Bunday holda o'quvchilarning o'qishga qiziqishlari qolmaydi, chunki o'qish ularda ko'p aqliy kuch sarflashni talab qilmaydi. «Kuchsiz» o'quvchilar esa surunkasiga orqada qolishga muhtalo bo'lganlar, ular ham o'qishga qiziqmay qo'yadilar, chunki o'qish ulardan ko'proq aqliy kuch sarflashni talab qiladi. «O'rtacha» darajaga kiruvchilar ham juda har xil bo'ladilar, qiziqish va mayllari turlicha, idrok, xotira, xayol va tafakkur xususiyatlari xilma-xil bo'ladi. Bir o'quvchi ko'rgazmali obrazlar va tasavvurlarga asosli ravishda tayanmog'i zarur, ikkinchisi bunga kamroq ehtiyoj sezadi; biri sekin fikrlaydi, ikkinchisining aqliy mo'ljali nisbatan tezligi bilan ajralib turadi; biri tez esda olib qolsa-da, mustahkam emas; ikkinchisi — sekin esda olib qolsa-da, ko'p narsani yodida saqlaydi; biri uyushgan holda ishlashga o'rgangan, boshqasi kayfiyatiga qarab, asabiylashib va notekis ishlaydi; biri astoydil, ikkinchisi majburan shug'ullanadi.

Ta'limni individuallashtirish tamoyili o'qitishda o'quvchilarning real tiplariga tayanish zarurligiga asoslanadi. Bu tamoyilni programmalashtirilgan ta'lim juda yaxshi amalga oshiradi. O'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari ta'limning ayrim metodlari va usullarini tanlash hamda qo'llanish vaqtida, uyga berilgan topshiriqlarni qismlarga bo'lishda, sinf va nazorat ishlarining variantlarini aniqlashda hisobga olinadi.

Sinf bilan olib boriladigan ishni ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan individual ish bilan birga qo'shish mumkin. Shu bilan birga dasturning xuddi shu masalalarini o'quvchilar qanday tayyorgarlik ko'rganliklari, individual moyilliklari, qiziqish va qobiliyatlari hamda individual ish sur'atlariga qarab turlicha to'lalilik va teranlik bilan, har kim darsda optimal darajada band bo'ladigan qilib o'rganadilar.

Ta'lim metodlari turlicha bo'lishi, o'quvchining individual xususiyatlariga qarab o'zgartirilishi kerak. Lekin bu 40 o'quvchi bor bo'lgan sinfda 40 xil individual yondashishni, ta'lim metodikasining 40 xil individual variantini amalga oshirish zarur degan ma'noni anglatmaydi. Odatdagi maktab ta'lim sharoitida bunday haddan tashqari individuallashtirish mumkin ham emas, kerak ham emas. O'quvchilarning fikrlash faoliyatining asosiy tiplarini hisobga olish kifoya.

Ta'limda individual yondashish kamchiliklarga barham berish-nigina emas, balki o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, o'qishga to'g'ri munosabatda bo'lishni, bilishga oid qiziqishlarni tarkib top-tirish ishlarini olib borishni ham anglatadi. O'qishga salbiy munosabatda bo'lish hollarida bunday munosabatni keltirib chiqargan sabablarga qarab, tarbiyaviy chora-tadbirlar ko'rish kerak bo'ladi. Bunday sabablar orasida o'qituvchi bilan bo'lgan kelishmovchilik, o'quvchi duch kelgan qiyinchiliklar, bilimdagi nuqsonlar, o'z kuchiga ishonmaslik va hokazolar bo'lishi mumkin.

Rus psixologlari yakdillik bilan: barcha bolalar o'qishga qobiliyatlidirlar, har bir normal va psixik jihatdan sog'lom o'quvchi o'rta ma'lumot olishga qodirdir. Maktab o'quvchilari davlat ta'lim standartlari doirasida o'quv materialini ma'lum darajada muvaffaqiyatli egallashga qodirdir, binobarin o'qituvchi hamma o'quvchilarning ham shunday bo'lishiga erishmog'i lozim, degan nuqtayi nazarda turadilar. Lekin bundan hamma o'quvchilarga ham ta'lim berish bir xilda oson, deb aslo o'ylab bo'lmaydi. Har qanday ta'lim metodikasi sharoitida, bu ta'lim juda yaxshi tashkil etilgan sharoitda bir xil o'quvchilar yaxshiroq harakat qilib, bosh-

qalardan ko'ra yuqori natijalarga erishadilar. Bir o'quvchi alohida ko'p kuch va mehnat sarf qilmasdan nisbatan qisqa muddat ichida yuksak natijalarni, katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritadi, boshqa o'quvchi bo'lsa qanchalik intilmasin va harakat qilmasin, o'sha darajaga shunchalik tez va osonlikcha ko'tarila olmaydi.

Bugungi kunda hech kim: «Yomon o'quvchilar yo'q, yomon o'qituvchilar bor» degan formulani hech so'zsiz qabul qilavermaydi, o'quvchilarning o'zlashtirmasligida hech kim o'qituvchilarni yoppasiga ayblab o'tirmaydi. Albatta, ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi bilimlar, ko'nikma va malakalarning juda yuqori darajasi asosan ta'limning mazmuni bilan, ta'lim metodikasining takomillashuvi, o'qituvchining mahorati bilan ta'min etiladi, lekin hamma narsa faqat ana shunga bog'liq deb o'ylab bo'lmaydi. Muvaffaqiyat ichki shart-sharoitlarga — o'quvchining individual-psixologik xususiyatlariga ham bog'liqdir. Har gal teng sharoitlarda bir xil mashqlar, bir xil ta'lim metodikasi g'oyat har xil natijalar beradi, bunda o'quvchilarning turli xususiyatlari haqida gapirish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Pedagogik psixologiya predmeti, vazifalari, muammolari haqida nimalarni bilasiz?
2. Pedagogik psixologiya fan sifatida qachondan rivojlana boshladi?
3. Pedagogik psixologiya fanining tamoyillarini ko'rsating.
4. Pedagogik psixologiya fanining metodlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Pedagogik psixologiya — ...
 - a) psixologiya fanining tarmog'i sifatida shaxsga samarali ta'sir etuvchi umumpsixologik omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganuvchi fandır;
 - *b) psixologiya fanining tarmog'i sifatida ta'lim va tarbiyaning shaxsga samarali ta'sir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganuvchi fandır;

c) psixologiya fanining tarmog‘i sifatida turli yosh davrlaridagi shaxslarga samarali ta’sir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o‘rganuvchi fandır;

d) psixologiya fanining tarmog‘i sifatida individual psixologik qonuniyatlarni va mexanizmlarini, hayvon va inson psixikasini qiyoslab o‘rganuvchi fandır.

2. Pedagogik psixologiya bo‘limlari —...

a) psixika, ta’lim, ong psixologiyasi;

b) tarbiya, ta’lim, bola psixologiyasi;

*c) ta’lim, tarbiya, o‘qituvchi psixologiyasi;

d) ta’lim, ijod, o‘qituvchi psixologiyasi.

3. Pedagogik psixologiya fan sifatida qachondan boshlab rivojlana boshlagan?

a) XVIII asrning boshlarida;

b) XVIII asrning o‘rtalarida;

*c) XIX asrning o‘rtalarida;

d) XIX asrning boshlarida.

4. Psixologik-pedagogik eksperiment qismlari....

a) tabiiy, laboratoriya, psixologik eksperiment;

b) aniqlovchi, laboratoriya, psixologik eksperiment;

*c) aniqlovchi, shakllantiruvchi, nazorat eksperiment;

d) shakllantiruvchi, pedagogik, nazorat eksperiment.

5. Shakllantiruvchi eksperimentda

a) sinaluvchilardagi biror psixik jarayonning rivojlanish darajasi aniqlanadi;

*b) aniqlangan psixik jarayon mc'yordan orqada bo‘lsa, uni rivojlantirish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar o‘tkaziladi;

c) shakllantiruvchi ta’sirning samaradorligini aniqlash uchun diagnostik metod yana bir marta takroran o‘tkaziladi;

d) o‘qituvchi va ota-ona bilan hamkorlikda o‘tkaziladi.

XXI BOB. TA'LIM PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. O'quv faoliyati.
2. O'quv motivlari.
3. Rivojlantiruvchi taTimning psixologik asoslari.
4. Dars jarayonida o'quvchilarni boshqarish texnikasi va usullari.
5. Kompyuterlashtirilgan taTimning psixologik jihatlari.

Mavzuning o'quv maqsadi:

Ta'limiy: Talabalarga ta'lim tushunchasining mohiyatini, o'quv faoliyati va o'quv motivlari, rivojlantiruvchi taTimning psixologik asoslari, dars jarayonida o'quvchilarni boshqarish texnikasi va usullari, kompyuterlashtirilgan taTimning psixologik jihatlari to'g'risidagi bilimlarini rivojlantirish, ularga jamiyatning kelgusi rivoji va taTimning o'zaro bog'liqligini tushuntirish va anglatishdan iborat.

Tarbiyaviy: taTimning shaxs rivojlanishidagi rolini yoshlar ongiga singdirish orqali ularni jamiyatimiz uchun fidokor, bilimdon inson qilib tarbiyalash asos bo'la olishini uqtirish, talabalarda o'qituvchi va tarbiyachiga xos kasbiy va shaxsiy sifatlarni tarbiyalashdir.

Rivojlantiruvchi: Talabalarda taTimning samarador usullarini egallash va undan oqilona foydalana olish ko'nikma, malakalarini shakllantirish orqali shaxsini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: taTim, o'qish, o'rganish, rivojlantiruvchi taTim, kompyuterlashtirilgan taTim.

21.1. O'quv faoliyati

Insonning hayotiy tajribalarni bilimlar, ko'nikmalar va malakalar tariqasida o'zlashtirishiga aloqador bo'lgan bir necha tushunchalar mavjud. Bu o'quv faoliyati, taTim, o'qish va o'rganishdir.

Bunday faoliyat kishiga shu jumladan bolaga ham atrof-muhitga moslashish, o'zining asosiy ehtiyojlari, shuningdek, aqliy o'sish va shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

O'quv faoliyati inson yangi bilim, ko'nikma va malakalar egalaydigan, yoki mavjudlarini o'zgartiradigan, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradigan, takomillashtiradigan jarayondir.

O'quv faoliyati shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlarning yuzaga keladi. O'quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo'luvchi uzluksiz jarayondir.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi o'quv faoliyatidan iborat bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalarni uzatish jarayonidir, hayotiy tajribani o'qituvchidan o'quvchiga uzatishdir.

Ta'lim haqida gapirilganda o'qituvchining ta'lim jarayonidagi maxsus funksiyalariga e'tibor qaratiladi. O'qish ham o'quv faoliyatiga taalluqli bo'lib, lekin ko'proq bu tushuncha ishlatilganda o'quv faoliyatida o'quvchiga tegishli faoliyat nazarda tutiladi

O'qish — bunda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash uchun qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan o'quvchi tomonidan amalga oshiriladigan o'quv harakatlari nazarda tutiladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan uch tushuncha ham o'quv faoliyati mazmuniga taalluqlidir. O'qishning natijasi haqida gapirilganda o'rganish tushunchasidan foydalaniladi.

O'rganish insonning o'quv faoliyati natijasida yangi psixologik sifat va xususiyatlarni o'zlashtirganligini bildiradi. Etimologik jihatdan bu tushuncha «o'rganmoq» tushunchasidan kelib chiqqan bo'lib, individning ta'lim va o'qish natijasida o'rganishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni o'z ichiga oladi.

O'quv faoliyatini o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siriga asoslangan o'quv-bilish jarayoni sifatida turli tomondan tavsiflaganda, biz to'rt tushunchadan ham foydalanamiz, o'qituvchi va o'quvchi ta'sirining qaysi jihati nazarda tutilayotganligiga bog'liq ravishda biriga urg'u beramiz. Dastlab o'rganish haqidagi masalasiga to'xtalamiz.

Rivojlanish bilan bog'liq barcha narsani o'rganish deb ay- tish mumkin emasligini ta'kidlash joiz. Masalan, unga orga- nizmning biologik jihatdan yetilish jarayonlarini kiritish mum- kin emas. Chunki organizmning biologik jihatdan yetilishi ta'lim va o'rganishga bog'liq emas. Lekin o'rganish deb ataladigan bar- cha jarayonlar yetilishga umuman bog'liq emas deb bo'lmaydi. Bu barcha olimlar tomonidan tan olingan. Lekin rivojlanish qay darajada yetilish bilan bog'liqligini aniqlash muhim. O'rganish doimo ma'lum darajada organizmning biologik yetilishiga taya- nadi. Masalan, bolaga bosh miyadagi nutq uchun javob beradi- gan bo'limlar yetilmaguncha gapirishni o'rgatib bo'lmaydi. Bu ikki jarayon o'rtasida teskari aloqa ham mavjud: ta'lim va o'qish organizmning yetilishiga ham ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatadi.

Insonda bir necha o'rganish turlari mavjud.

Ulardan birinchisi — imprinting mexanizmi bo'yicha o'rga- nish, ya'ni tez, avtomatik ravishda o'rganishdir. O'rganishning bu turi markaziy nerv sistemasi rivojlangan hayvonlarda ham mav- jud. Masalan, o'rdakchalar tug'ilishi bilan ona o'rdakning yu- rishini ko'rib orqasidan ergashib yura boshlaydilar. Chaqaloq- larda so'rish reflekslari mavjud bo'ladi. I.P.Pavlov davridan beri xulq-atvorning bunday shakllari shartsiz reflekslar deb atalgan, ularni ko'proq «instinkt» deb atash to'g'riroq bo'lur edi.

O'rganishning ikkinchi turi — shartli reflektor o'rganish. Bu bo'yicha ham tadqiqotlarni dastlab LPPavlov olib borgan. O'rganishning bu turi dastlabki neytral qo'zg'atuvchiga shartli reaksiyalar sifatida xulq-atvorning yangi shakllari vujudga kelishi- ni nazarda tutadi. Organizmning shartli reflektor reaksiyalarini tug'diradigan stimullar qabul qilinishi lozim. Masalan, «limon» so'zini aytishimiz bilan ko'z oldimizga sariq rangli, nordon ta'mli meva keladi.

O'rganishning uchinchi turi operant o'rganishdir. Bunday o'rganish turida bilim, ko'nikma va malakalar «Sinab ko'rish va xato qilish» metodi orqali o'rganiladi. Individ duch keladi- gan vaziyatlar unda turli instinktiv, shartsiz, shartli reaksiyalarni

vujudga keltiradi. Organizm ketma-ket amalda masalani yechish uchun har birini sinab ko‘radi va bunda avtomatik ravishda erishilgan natijani baholaydi. Eng yaxshi natijaga olib kelgan reaksiya, vujudga kelgan vaziyatda organizmning qulay moslashishini ta‘minlagani boshqalaridan ajralib chiqadi va tajribada mustahkamlanadi. Mana shu «Sinab ko‘rish va xato qilish» metodi orqali o‘rganishdir.

Yuqorida tavsiflangan o‘rganish turlari hayvonlarda ham, insonlarda ham uchraydi. Lekin insonlarda o‘rganishning maxsus, oliy turlari mavjud.

Bu birinchidan, boshqa odamlar xulq-atvorini to‘g‘ridan to‘g‘ri kuzatish orqali o‘rganish bo‘lib, unda inson kuzatilayotgan xulq-atvor shakllarini o‘zlashtiradi. Bu vikar o‘rganish deb ataladi.


Ikkinchi — verbal o‘rganish, ya‘ni insonning yangi tajribani til orqali o‘zlashtirishidir. Bunday o‘rganish natijasida inson nutqni egallagan boshqa odamlarga, bilim, ko‘nikma va malakalarni uzatishi mumkin.

O‘rganish va ta‘lim orasidagi ikki muhim qo‘shimcha farqlarni ta‘kidlab o‘tamiz. Ta‘lim o‘rganishdan farqli ravishda rejali va ongli boshqariladigan tashkiliy jarayondir. O‘rganish esa stixiyali ravishda ro‘y beradi. O‘qish o‘quv faoliyatining tarkibiy qismi, o‘quvchilarning faoliyati bilan bog‘liq ravishdagi tashkiliy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Birinchi holda o‘qish ta‘limning bir tomoni hisoblanadi, ikkinchi holda ijtimoiylashuvning natijasidir. O‘rganish har qanday faoliyatning natijasi bo‘lishi mumkin, ta‘lim va o‘qish tushunchalari esa maxsus o‘quv faoliyati bilan bog‘liqdir.

Agar faoliyatning asosiy motivi sifatida bilishga qiziqish yoki individning psixologik taraqqiyoti nazarda tutilsa, o‘quv faoliyati haqida gapiriladi. Agar motiv individning u yoki bu ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lsa, «o‘rganish» tushunchasidan foydalaniladi. Bunday yo‘l-yo‘lakay o‘rganishga misol sifatida ma‘lumotlarni ixtiyorsiz ravishda eslab qolish, o‘quv maqsad-

larini koʻzda tutmagan harakatlarni misol keltirishimiz mumkin. Taʼlim va oʻqish — har doim ongli jarayonlardir, oʻrganish esa ongsiz darajada ham roʻy berishi mumkin. Taʼlim, oʻqish va oʻrganish orasidagi yana bir farq maʼlumotlarni oʻzlashtirishga tayyorlik turli yosh davrlarida turlicha namoyon boʻladi. Oʻrganishning elementar turlari — imprinting, shartli reflektor va operant turlariga — bola tugʻilishi bilanoq amalda tayyor boʻladi. Oʻqish bilim, malaka va koʻnikmalarni oʻzlashtirish uchun ongli, maqsadga yoʻnaltirilgan qobiliyat sifatida bolada 4—5 yoshligida namoyon boʻladi, mustaqil oʻqishga tayyorlik maktabning birinchi sinflarida, yaʼni 6—7 yosh atrofida vujudga keladi.

Oʻrganish jarayoni faoliyat sifatida quyidagi oʻquv-intellektual mexanizmlar hisobiga amalga oshadi:



1. Assotsiatsiyalarning shakllanishi. Bu mexanizm alohida bilimlar orasida yoki tajriba qismlari oʻrtasida vaqtinchalik bogʻlanishlar oʻrnatish asosida yotadi.

2. Taqlid qilish. Koʻnikma va malakalar shakllanishi uchun asos boʻladi.

3. Farqlash va umumlashtirish. Tushunchalar shakllanishi bilan bogliq.

4. Insayt (taxmin). Inson tomonidan qandaydir yangi informatsiyani qarab chiqish, o'tmish tajribadan ma'lum narsada no-ma'lumni ko'rishdir. Insayt bolaning intellekti rivojlanishi uchun kognitiv baza hisoblanadi.

5. Ijud. Yangi bilim, ko'nikma va malakalarni yaratish uchun asos hisoblanadi.


O'rganishning muvaffaqiyati turli xil omillarga bog'liq, ular ichida quyidagi psixologik omillar muhim: o'quv faoliyati motivatsiyasi, bilish jarayonlari — idrok, diqqat, xayol, xotira, tafakkur va nutqning ixtiyoriyligi, o'quvchilarda irodaviy va boshqa shaxs xislatlari: mas'uliyat, tirishqoqlik, maqsadga intiluvchanlik, intizomlilik, onglilik, tartibililik va boshqalarning mavjudligi. O'quv faoliyati samaradorligining psixologik omillariga hamkorlik faoliyatidagi insonlar — o'qituvchilar va sinfdoshlari bilan o'zaro ta'sir qila olish ko'nikmasi, intellektual rivojlanganlik va boshqalar kiradi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'rganishga bo'lgan tayyorlik (ustanovka) muhim hisoblanadi, bunda o'quv vazifalarining o'qituvchi tomonidan qo'yilishi, o'quvchi tomonidan qabul qilinishi muhim bo'lib, bunda o'qituvchi o'rgatadi, o'quvchi o'rganadi.

Rus psixologi A.N.Leontev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini, bola ongi aynan o'quv faoliyatida o'sishini ta'kidlaydi. D.B.Elkonin esa o'quv faoliyatining xususiyatlarini ko'rsatib, uni mohiyatiga, mazmuniga va o'zini namoyon etish shakliga ko'ra ijtimoiyligini ta'kidlaydi. O'quv faoliyati bu shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo o'quvchida o'zgarish yuz beradi. Uning mahsuli turli motivlar asosida qurilgan bo'lishi darkor. Bu motivlar bevosita o'quvchi shaxsining o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lishi kerak. O'quv faoliyati ta'lim, o'qish va o'rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog'liqdir.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi o'quv faoliyati, o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga o'rgatish jarayonidir.

Ta'lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq-atvorning shakllarini o'zlashtirishga qaratilgandir. O'qish va

o'rgatish tushunchalari o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga, o'rgatishga xizmat qiladi. O'quv faoliyatining besh elementi mavjud:



O'quv motivlari

D.B.Elkoninning ta'kidlashicha, o'quv faoliyatining shakllantirilishi bu faoliyatning ayrim kishilar tomonidan bajarilishini asta-sekinlik bilan o'quvchining o'ziga o'qituvchining ishtirokisiz mustaqil bajarish uchun o'tkazilishidir.

21.2. O'quv motivlari

Motiv — inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchadir. Motivatsiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni, motivlar yig'indisi bo'lib, unga tashabbus, yo'nalganlik tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kiradi. Ta'lim jarayonida o'qish motivlari «nima uchun?»

«nimaga?», «qanday maqsad bilan?» kabi savollar asosida yuzaga keladi. Motivlar birinchidan, o'quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi. O'quv faoliyatida o'quv motivlari o'quvchilar tomonidan tanlanib, ular o'quvchining maqsadi, qiziqishi, kelajak rejalari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv motivlari turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi.

O'quv faoliyati motivatsiyasining manbalari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. Ichki manbalar. Ular insonning tug'ma yoki orttirilgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimi tug'ma axborot olishga bo'lgan ehtiyojdir. Orttirilgan ehtiyojlar esa gnostik va ijtimoiy ijobiy ehtiyojlar hisoblanadi.

2. Tashqi manbalar. Ular shaxsning ijtimoiy hayot shart-sharoitlari bilan belgilanadi.

Talablar ularning birinchisi bo'lib, jamiyatning shaxsdan talab qiladigan doimiy xulq-atvorini bildiradi. Bog'cha, maktab, oila boladan juda ko'p ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Ijtimoiy kutish jamiyatning har birimizdan ma'lum bilimlar, ko'nikmalar darajasining bo'lishi zarurligini bildiradi. Masalan, bir yoshli bola yurishi kerak, 7 yoshdan u o'qishi kerak, 15 yoshdan u kasb tanlashi kerak, deb hisoblaymiz. Imkoniyatlar — shaxs faoliyatini belgilovchi obyektiv shart-sharoitlardir. Masalan, boy kutubxona bolani ko'p kitob o'qishga undaydi.

3. Shaxsiy manbalar: bu shaxsning qadriyatlarini tizimi ustanovkalari, g'oyalaridir. Bu manbalar har bir shaxs faoliyatida u yoki bu darajada mavjud. Ularning barchasi faoliyatning kechishiga ta'sir etib ta'lim jarayonining motivatsiyasini tashkil etadi.

V. A.Krutetskiy o'spirinlarda uchraydigan motivlarning quyidagilarini alohida ifodalaydi:

- a) biror o'quv faniga qiziqish;
- b) Vatanga foyda keltirish istagi;
- d) shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilish;
- e) oilaviy an'analarga rioya qilish;

- f) do‘st-birodarlarga ergashish;
- g) moddiy ta‘minlash va hokazolar.

Respublikamizda professor M.G.Davletshin rahbarligida o‘tkazilgan F.I.Haydarovning tadqiqotlarida qishloq maktabi o‘quvchilarining o‘qish motivlari, N.S.Jo‘rayevning tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘qish motivlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari o‘rganildi. Ushbu tadqiqotlarda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv motivlarini psixologik o‘yinlar yordamida shakllantirishga mahalliy sharoitda ilk bor kompleks yondashildi. O‘quv jarayonida foydalanilgan psixologik o‘yinlar o‘quvchilarning o‘qishga ijodiy yondashuviga, psixik taraqqiyotiga va psixik jarayonlariga ta‘sir etishi mumkinligi ko‘rsatib berildi. Shu bilan birga baho olishga yo‘nalganlik motivlari tashqi motivlar sirasiga kirsada, ichki motivlarni muayyan darajada rivoj topishiga ko‘mak berishi ko‘rsatib berildi.

21.3. Rivojlantiruvchi ta‘limning psixologik asoslari

Ta‘lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi. Ta‘lim jarayoni besh elementdan iborat:

1. Ta‘limning maqsadi — nima uchun o‘qitish kerak?
2. Ta‘limning mazmuni — nimaga o‘qitish kerak?
3. Ta‘limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo‘llari.
4. Ta‘lim beruvchi.
5. O‘quvchi.

Ta‘lim jarayonini tashkil etish ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o‘zlashtirilishi;

— faoliyatning barcha turlari tarkib topgan usullar va jarayonlarning o‘zlashtirilishiga;

— maqsadga muvofiq keladigan usullar va jarayonlarni to‘g‘ri tanlash va foydalanishga bog‘liq.

Ta'lim jarayoni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'quv faoliyati quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. Motivatsiya, ya'ni o'qituvchi yaxshiroq o'qitishga, o'quvchi esa yaxshiroq o'qishga harakat qilishi.

2. Ta'limning rivojlangan va egiluvchan tuzilishga egaligi.

3. Ta'limning turli shakllarda amalga oshirilishi. O'qituvchiga o'z ijodiy pedagogik imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishi, o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish uchun o'z individual xususiyatlari va imkoniyatlaridan foydalanish uchun faoliyatni turli shakllarda amalga oshirilishi.

Ta'limning zamonaviy texnik vositalar yordamida bajarilishi

Yuqorida keltirilgan ta'lim va o'qishga qo'yilgan talablarni o'quv faoliyatining o'zaro bog'liq ikki jihati bo'yicha alohida ko'rib chiqamiz.

Ta'lim motivatsiyasi o'quvchilarning o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishiga shaxsiy qiziqishini anglatadi. O'qituvchining faqat moddiy qiziqishlarini qondirish, yoki ishsiz qolmaslik, qisqarishga tushmaslik uchungina ta'lim berishi, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi bilan bog'liq bo'lib, bunda pedagogik faoliyatda yaxshi natijalarga erishish mumkin emas. Ta'lim mahsuldorligini oshirishdagi dastlabki vazifa uni chuqur va ko'p motivatsiyali jarayonga aylantirishdir. O'qituvchi o'quvchilarni o'qitish jarayonida o'z hayotining asosiy mazmuni va maqsadini ko'ra boshlaganida ta'lim samarali bo'ladi.

21.4. Dars jarayonida o'quvchilarni boshqarish texnikasi va usullari

O'quv faoliyatini boshqarish o'z-o'zini boshqarishning tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarni mustaqil bilim olish, ijodiy fikrlash sari yetaklaydi. O'quv faoliyatini boshqarishning tarkibiy qismlarini rejalashtirish, o'zini nazorat qilish, bilishga qiziqishdan iborat bo'lib, o'zaro jips bir-biri bilan aloqada hukm suradi. O'quv faoliyatini boshqarishning tarkiblari umumlashgan ta'limiy usullar yordami bilan o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. Ular

oʻziga xos xususiyatlari, faolligi, koʻlami, samaradorligi, surʼati bilan tafovutlanishiga qaramay, bir-birlarini taqozo qiladi. Boshqaruv bu shunday yoʻnaltiruvchi kuchki, u insonlardagi ijodiy potensial imkoniyatlarini oladigan sharoitlarni yuzaga chiqarishni maqsad qilib qoʻyadi. Shunday ekan, oʻqituvchining taʼlim-tarbiya jarayonini toʻgʻri va oqilona boshqara olishi oʻquvchi shaxsi kamolotida nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Faoliyatdan kutiladigan natija psixologiyada maqsad deyiladi. Oʻquv jarayonining boshqarilishi ikkita asosiy maqsadni koʻzda tutadi. Ulardan birinchisi, oʻquv jarayonini toʻgʻri tashkil eta olish, ikkinchisi esa oʻquvchilarning shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini qondirishdir. Ana shu maqsadlar boshqarishning vazifalarini belgilab beradi. Demak, oʻquv jarayonini boshqarishning:

- birinchi vazifasi tashkiliy boʻlib, oʻquvchilarning taʼlim va tarbiyasi boʻyicha ijtimoiy buyurtmalarni qondirish;

- ikkinchi vazifasi — bevosita oʻquvchining qiziqish va talablarini qondirishga yoʻnaltirilgan holatdagi ijtimoiy vazifadir. Shuningdek, bu vazifa oʻquvchilarni koʻtarinkilik, yaxshi kayfiyat va oʻquv jarayonidagi ishchanlikni yuzaga keltirishni ham oʻz ichiga oladi. Afsuski, koʻp yillar davomida boshqarishning shu ijtimoiy vazifasiga juda kam eʼtibor berilgan.

Boshqaruvning ikkinchi vazifasi bu ijtimoiy-psixologikdir. Bu vazifa oʻquvchilarda samarali faoliyat uchun zarur boʻlgan ijtimoiy-psixologik holat va xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilganidir. Bu holat va xususiyatlar oʻquvchilarni oʻzaro jipslashtirish, nazorat, oʻz-oʻzini boshqarish, shuningdek, mustaqil taʼlim olishlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Oʻqitishning ikkita usuli mavjud. Biri anʼanaviy oʻqitish usuli — bunda oʻqituvchi muammoni belgilaydi, vazifalarni aniqlaydi va muammoni yechib beradi. Oʻquvchi esa masalani yechish yoʻllarini eslab qoladi va uni yechishni mashq qiladi. Bunda oʻquvchilarda reproduktiv tafakkur shakllanadi. Rivojlantiruvchi taʼlim oʻqitishning muammoli usulida oʻqituvchi oʻquvchilarning bilish jarayonlarini boshqaradi, uni tashkil etadi va nazorat qila-

di. O'quvchi esa muammoni tushunadi, uni yechish yo'llarini qidiradi va uni yechadi. Bunday hollarda o'quvchi tafakkurining mahsuldorligi oshadi va uning mustaqilligi rivojlanadi.

O'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish uchun o'qituvchi quyidagi qoidalariga tayanishi lozim:

1. O'quv jarayonini shunday tashkil etish lozimki, bunda o'quvchi faol harakat qilishi, mustaqil izlanishi, yangi bilimlarni o'zi kashf etishi va muammoli xarakterdagi masalalarni yechish uchun sharoit izlashi kerak.

2. O'quvchilarga bir xil o'qitish usullari va bir turdagi ma'lumotlarni berishdan qochish kerak.

3. O'rgatilayotgan fanga nisbatan qiziqishning namoyon bo'lishi uchun ayni shu fan yoki bilim, o'quvchining o'zi uchun qanchalik ahamiyatli va muhim ekanligini bilishi kerak.

4. Yangi material qanchalar o'quvchi tomonidan avval o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'liq bo'lsa, u o'quvchi uchun shunchalik qiziqarli bo'ladi.

5. Haddan ziyod qiyin material o'quvchida qiziqish uyg'otmaydi.

Berilayotgan bilimlar o'quvchining kuchi yetadigan darajada bo'lishi lozim.

O'qituvchi o'rganilayotgan mavzu yoki bilimining ahamiyatini ko'rsatish, o'quvchining o'quv faolligini oshirish uchun qiziqarli misollar, aqliy o'yinlardan keng foydalanishi lozim. Lekin, ta'limdagi har bir beriladigan bilim yorqin, qiziqarli bo'lavermaydi, shuning uchun o'quvchilarda iroda, qafiylik, mehnatsevarlik kabi xislatlarning kamol toptirilishi nihoyatda zarurdir. Ana shu xislatlar o'quvchining kelgusida o'z-o'zini nazorat qilishga, o'z-o'zini baholashga va mustaqil ta'lim olishga asos bo'lishi kerak.

E.G'.G'oziyev o'quv faoliyatini boshqarishning psixologik asoslari¹ tafakkur psixologiyasi asoslari^{1,2} bilish nazariyasining

¹ raaneB 9.r.YnpaBjieHiie yucSHOH jieaTejibHOCTbio niKOJibHHKOB. —T.: d>aH.1986.

² G'oziyev E.G'.Tafakkur psixologiyasi. —T.: O'qituvchi. 1990.

psixologik muammolari, komil insonning psixologik nazariyasi yoʻnalishlarda ilmiy izlanishlar olib borgan serqirra ijodkor olim. Respublikamizda oʻquv faoliyatini boshqarish muammosi E.Gʻ.Gʻoziyev va uning shogirdlari X.Ruxiyeva, Sh.V.Azizovalar tomonidan oʻrganilgan. Sh.Azizova tadqiqotida yuqori sinf oʻquvchilarida oʻquv faoliyatini boshqarishning psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Muallifning taʼkidlashicha, oʻquv faoliyatini boshqarish tarkiblarini egallash muayyan bosqichma-bosqich amalga oshadi, turli xususiyatli materiallarni oʻzlashtirish negiziga quriladi. Egallangan usullar va tarkiblarni yangi vaziyatga koʻchirish boshqarish jarayoni vujudga kelganligini bildiradi.

21.5. Kompyuterlashtirilgan taʼlimning psixologik jihatlari

Taʼlim jarayoni avvalo oʻquvchilar diqqatini rivojlantirishni talab etadi. Darslarda kohgazmali qurollardan, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish taʼlim oluvchining diqqatini rivojlantiradigan omillardan hisoblanadi. Taʼlim jarayonida taʼlim beruvchining vazifasi darsda oʻquvchilarning faolligini yuzaga keltirishgina emas, balki oʻquvchilarning darsda oʻtiladigan materialni idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida oʻquvchilarning diqqati oʻzgarib turadi. Oʻqitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish, oʻquvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlari hamda oʻzlashtirilgan materialni takrorlashga jalb etish kerak.

Taʼlimni avtomatlashtirish pedagogik muammosi oʻqituvchilarning faoliyati takrorlanadigan tarkibiy qismlardan iboratligini anglab ularni yordamchi xodimga yoki texnik qurilmaga ham topshirilsa boʻlishini anglaganlaridan soʻng vujudga keldi.

Taʼlim jarayonining samaradorligi koʻp jihatdan oʻqituvchi tomonidan beriladigan koʻrsatmalarga ham bogʻliq. Oʻqituvchining roli shundan iboratki, u oʻquvchilarda tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolish kerakligini, nimani esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani soʻzma-soʻz esda olib qolish kerakligini,

nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini tushuntirib o'tishi lozim. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi tomonidan bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha bilish va o'rganishga nisbatan noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi.

O'qitishning emotsionalligi ta'limning muvaffaqiyatliligini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, bunday ma'lumotni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. O'quvchilarning ijobiy psixik holatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham bilib borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali qiladi. O'quvchilar emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq o'zlashtirib oladilar.

O'tkazilgan tajribalar hech qanday his-tuyg'u uyg'otmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruhdagi materialni o'quvchilar yaxshiroq eslab qolishlarini ko'rsatadi. O'qituvchi o'quv jarayonining emotsional tomoni haqida ham qayg'urishi kerak. Bu muammo juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, ta'limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, hajmi esa g'oyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga erishish uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatini kuchaytirish lozim. Ijobiy tuyg'ular o'quv mehnatining samaradorligiga kuchli ta'sir etadi. Hafsala bilan bajarilgan faoliyat yuzasidan beg'araz munozara paydo bo'ladi, bahslashiladi, befarq qaralgan yoki salbiy munosabatda bo'lingan ishga esa, hech qanday hafsala bo'lmaydi. Jamiyatimizdagi mehnat - haqiqiy ijod, quvonch manbayi. O'qituvchi o'quvchilarida o'quv mehnatiga ijobiy munosabatni uyg'otib, mehnatning haqiqiy ijodga, quvonch manbayiga aylanishiga ko'maklashishi kerak.

Qadimda greklar juda ajoyib iborani qo'llaganlar: «Talaba — to'ldirilib turilishi kerak bo'lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo'lgan mash'aldir». Bu fikrning tagida chuqur ma'no bor. Ta'lim jarayonining bugungi kundagi asosiy talablaridan biri

erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish bo'lib, yuqorida aytib o'tilgan metodlardan foydalanish uchqunlardan katta mash'allar paydo bo'lishini ta'minlab beradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilishga qiziqishlari g'oyat katta rol o'ynaydi. Ma'lumki, qiziqish o'quvchilarning emotsional bezagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo'nalishidir.

Ma'lumki, psixologiyada o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi qiziqishining ikki turi aniqlanadi. Birinchisi, bevosita, ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarida o'z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o'quvchilarda ta'limga faol munosabat namoyon bo'ladi. Psixologiyada qiziqish — bu shaxsning o'zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qiziqishlar o'quvchilar hayotida katta rol o'ynaydi. Ular o'quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar — motivlardir. Qiziqishlar maktab o'quvchisiga fan asoslarini yaxshiroq o'zlashtirib olishlariga, aqliy qobiliyatlarning o'sishiga, bilim doirasining kengayishiga imkon beradi. O'qituvchilarning vazifasi o'quvchini qiziqitirib qolgan ishning o'zi bilan shug'ullanishga imkon yaratishgina emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ta'sirchan qilish, shuningdek, qiziqishlarining markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shug'ullanish istagini, maylini shakllantirishdir.

O'quvchilarning muayyan maqsadni ko'zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni yenga olishida, ishdan chalg'itadigan narsalar bilan shug'ullanishdan o'zini tiya olishida, unda o'qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo'ladigan iroda, ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, iroda bu shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oshirish uchun intilishi, maqsad yo'lida ma'lum bir qarorga kelish tezligi va uni o'z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan sifatidir.

Ta'lim jarayonidagi o'quv materialiga bo'lgan diqqatning barqaror bo'lishida irodaviy zo'r berishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ta'lim jarayonidagi iroda o'quvchining maktab va uyda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga tayyor turishida namoyon bo'ladi. O'quv materialini o'rganish, eslab qolish o'quvchining irodaviy zo'r berishiga bog'liq. Iroda o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarida — masalani yechishga, qo'yilgan savolga javob topishga va hokazolarga intilishida namoyon bo'ladi. Ular o'quvchilarda ko'nikma va malakalarni hosil qilishda ham tarkib topadi.

Psixologlar olib borgan tadqiqotlarda o'quvchilar tomonidan berilgan materialning o'zlashtirilishi ko'p jihatdan irodaning tarbiyalanishiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Irodaviy faollik ta'limning zarur shartidir. O'quv muassasasidagi ta'lim jarayonining o'zi o'quvchilardagi irodani o'stirish omillaridan biridir. Bunda o'quvchilarning kun tartibi, o'qish va oqilona dam olishni bir-biri bilan to'g'ri almashtirib turish katta rol o'ynaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish jarayonlarini shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim. Zero, bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bo'lib, unda jonli mushohadadan mavhum tafakkurga, mavhum tafakkurdan esa amaliyotga o'tiladi, ana shundan so'ng obyektiv haqiqat bilib olinadi. Binobarin, ta'lim jarayonida o'quv materialini idrok qilishning ahamiyati katta. Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, idrok bu narsa va hodisalarni sezgi organlariga ta'sir etishi natijasida ularning kishi psixikasida yaxlit obrazini paydo bo'lishidir. Idrok etish jarayoni ta'limning turli shakllarida, ya'ni o'qituvchining og'zaki hikoya qilishida, suhbat o'tkazishda, ma'ruza o'qishida, kinos-dars, televizion parcha, sxemalar va ko'rgazmali qurollar ko'rsatish, ekskursiyalar o'tkazish, o'quvchining o'ziga darsliklar hamda boshqa qo'llanmalarni o'qitish jarayonida rivojlanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, idrokni tarkib toptirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhimdir. Chunki, fazoni, vaqtni va harakatlarni idrok etishda ham yosh xususiyatlarda turli farqlar mavjud bo'ladi.

Ta'lim jarayonining natijasi o'zlashtirish, ichki va tashqi faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirishdir. Ta'lim bir odamning boshqasiga bilim va ko'nikmalar berishidir. Bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim jarayonining natijasidir. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni muammosi P.Ya.Galperin va N. F. Talizina kabi psixolog olimlar tomonidan o'rganilgan. Ular aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini ishlab chiqqanlar. Mualliflar aqliy xatti-harakatlarni moddiy holda tashqi nutq yordamida hamda aqliy shaklda, fikrda namoyon bo'lishini izohlab berdilar. Aqliy xatti-harakatlarning birinchi bosqichi rasm, sxema, diagramma va shartli belgilar tarzida o'z ifodasini topadi. Aqliy xat-

ti-harakatlarning ikkinchi bosqichi ko'rgazmalardan olgan tasavvurlari to'g'risida o'quvchilarning ovoz chiqarib, fikr yuritishidan iboratdir. Uchinchi bosqich esa, subyekt ongida tasavvur, tushuncha, qonuniyat, xossa, xususiyat, operatsiya, usul tariqasida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, o'quvchilarga taklif etiladigan axborotlar aql

bovar qilmaydigan darajada tezlik bilan ko'payib bormoqda. Shuningdek, ularning juda tez eskirib qolib, yangilashni taqozo etishi ham o'z-o'zidan ma'lum bo'lmoqda. To'rtinchi bosqichda bajarilgan xatti-harakatlar ichki rejada ovoz chiqarilmay bajariladi. Beshinchi bosqichda esa faoliyatni fikran bajarishga o'tiladi. Bundan ravshan ko'rinib turibdiki, materialni asosan yodlab olish va xotirada saqlab qolishga asoslanadigan ta'lim hozirgi talablarga qisman javob bermoqda. O'quvchilarning hamisha yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil ravishda o'zlashtirib borishi va o'qishni bitirib ketganidan keyin, kishiga jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan fan-texnika taraqqiyotidan orqada qolib ketmaslik imkoniyatini beradigan qobiliyatlar taraqqiyotini beruvchi tafakkur sifatlarini tarkib toptirish muammosi birinchi o'ringa chiqib bormoqda.


Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli individual tipologik xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar uchun ta'limning yagona qulay, optimal sharoitlarini yaratish mumkin emas. Ammo o'zlashtirishning samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim

Bilim oluvchilarning faoliyatiga ko'ra ta'limning quyidagi metodlari ajratiladi:

Tushuntiruv-ko'rsatmalilik metodi — bu metod reproduktiv metod bo'lib, unda faoliyat o'qituvchi tomonidan olib boriladi, o'quvchilar ta'lim jarayonida bilim oladilar, tanishadilar.

Bu metod juda keng tarqalgan metodlardan biri bo'lib, uning takomillashtirilgan usullari mavjud, bu — dasturlashtirilgan ta'limdir.

Ta'lim jarayonida o'zlashtirishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog'liq:



Reproduktiv metodda o'quvchi faoliyat ko'rsatib, unda o'quvchiga berilayotgan bilimni qayta xotirada tiklab, olingan bilimni nusxa sifatida qabul qiladi.

Muammoli ta'lim metodi — o'qituvchi tomonidan tashkil etilib, u produktiv xarakterga egadir. Ushbu metod orqali o'quvchi bilim va malakalarini shakllantiradi. Ushbu metodni takomillashtirish yo'llaridan biri, ishchan o'yinlarni tashkil etishdan iboratdir.

Qisman izlanish metodi — o‘qituvchi nazorati ostida tashkil etiladigan metod bo‘lib, u produktiv xarakterga ega, bunda o‘quvchi ijod qiladi.

Tadqiqot metodi — o‘qituvchi yordamisiz tashkil etiladigan ta‘lim metodi bo‘lib, u o‘quvchining mustaqil izlanishi, fikrlashi va bilimlar transformatsiyasini talab etadi. Ta‘lim jarayoni tashkil etishning o‘ziga xos metodlaridan biri ishchan o‘yinlardir. Ishchan o‘yinlar munosabatlar tizimini modellashtirish, faoliyat xarakteristikasini tashkil etishga yordam beradi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta‘lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish ta‘kidlanadi. Pedagogik texnologiya — bu ta‘lim jarayoniga tizimli yondashuv bo‘lib, unda ta‘lim jarayonini tashkil etishda texnika va inson imkoniyatlari hisobga olinadi va ularning o‘zaro munosabati ta‘limning optimal shakllari yaratilishiga zamin bo‘ladi.

Pedagogik texnologiyalarni quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘lish mumkin:

— ta‘lim-tarbiya ishtirokchilari shaxsiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar;

— hamkorlik faoliyati a‘zolarining kasbiy tayyorgarligi;

— ta‘lim jarayonining maqsadi, mazmuni, mohiyati, amalga oshirish vositalari;

— ta‘lim jarayonini differentsiyalashtirish;

— ijodiylik.

Ta‘lim texnologiyasi insoniylik tamoyillariga tayanadi. Psixologiyada bu yo‘nalishning o‘ziga xosligi talabaning individualligiga alohida e‘tibor berish orqali namoyon bo‘ladi. Ta‘lim texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlarga e‘tibor berish kerak:

— ta‘limning shaxsga yo‘naltirilganligi. O‘z mohiyatiga ko‘ra bu yo‘nalish ta‘lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to‘laqonli rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu esa Davlat ta‘lim standarti talablariga rioya qilgan holda o‘quvchining intellektual rivojlanishi darajasiga yo‘naltirilib qolmay, uning

ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni ham anglatadi;

— tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam qilishi zarur, jarayonning mantiqiyli-gi, undagi qismlarning o'zaro aloqadorligi, yaxlitligi;

— amaliy yondashuv. Shaxsda ish yuritish xususiyatlarini shakllantirishga ta'lim jarayonini yo'naltirish, o'quvchi faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha layoqati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorli-gini ishga solishni shart qilib qo'yadi;

— dialogik yondashuv. Ta'lim jarayonidagi ishtirokchi subyektlarning psixologik birligi va o'zaro hamkorligini yaratish zarurati-ni belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi va taqdimot eta olishi kuchayadi;

— hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratiya, tenglik, subyektlar munosabatida o'qituvchi va o'quvchining tengli-gi, maqsadini va faoliyat mazmunini birgalikda aniqlashni ko'zda tutadi;

— muammoli yondashuv. Ta'lim jarayonini muammoli ho-latlar orqali namoyish qilish asosida o'quvchi bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning obyektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilish-ni dialektik tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyat-da ijodiy ravishda qo'llash ta'minlanadi. Ta'lim texnologiyalarini qo'llashda:

— axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydala-nish, ya'ni o'quv jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyala-rini jalb qilish;

— o'qitish usullari va texnikasi: muloqot, keys stadi, muam-moli usul, o'rgatuvchi o'yinlar, «aqliy hujum», insert, «Birga-likda o'rganamiz», pinbord, ma'ruza (kirish ma'ruzasi, vizual ma'ruza, tematik, ma'ruza-konferensiya, aniq holatlarni yechish, avvaldan rejalashtirilgan xatoli, sharhlovchi, yakuniyjlardan foy-dalanish;

— o‘qitishni tashkil qilish shakllari: frontal, kollektiv, guruhiy, dialog, polilog va o‘zaro hamkorlikka asoslanish;

— o‘qitish vositalari: odatdagi o‘qitish vositalari (darslik, ma’ru-

za matni, tayanch konspekti, kodoskop)dan tashqari grafik organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish;

— o‘zaro aloqa vositalari: nazorat natijalarining tahlili asosida o‘qitishning diagnostik (tashxis) usullarini qo‘llash;

— o‘quv mashg‘ulotini texnologik karta ko‘rinishida rejalashtirish o‘quv mashg‘ulotining bosqichlarini belgilab, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘quvchi va o‘qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini aniqlab beradi. Shunga ko‘ra boshqarishning samarali usuli va vositalaridan foydalanish;

— monitoring va baholash. O‘quv mashg‘uloti va butun kurs davomida o‘qitish natijalarini kuzatib borish, o‘quvchi faoliyatini har bir mashg‘ulot va yil davomida reyting asosida baholash muhim sanaladi.

Pedagogik baho psixologiyasi. Bolalar ta’limi va tarbiyasining muvaffaqiyati motivatsiyaga, ya’ni bilimlarni o‘zlashtirish ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun stimullar mavjudligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi. Bolalar ta’limi va tarbiyasida namoyon bo‘ladigan motivlar va qiziqishlar rag‘batlantirish va jazolash tizimiga olib keladi. Rag‘batlantirish ijobiy xislatlarni vujudga keltirsa, jazolash salbiy xislatlarning paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi. Bunday holat rag‘batlantirish va jazolash to‘g‘ri amalga oshirilgan taqdirdagina amalga oshadi.

Baho o‘zida rag‘batlantirish va jazolashni birlashtirgan pedagogik stimul hisoblanadi: yaxshi baho rag‘batlantiradi, yomon baho jazolash uchun xizmat qiladi. Shuni esda tutish lozim-ki, eng quyi baho ham, eng yuqori baho ham undovchi vazifani bajarmaydi. Masalan, muvaffaqiyatga undovchi eng yaxshi stimul 5 emas, 4 baho, 2, 1 emas, 3 baho hisoblanadi. 5 baho olgan o‘quvchi yanada yaxshiroq o‘qishga harakat qilmay qo‘yadi. Ijobiy yoki salbiy baho

Predmetga qaratilgan baholar bolaning shaxsiga emas, u bajar-gan ish uchun qo'yiladi. Bunda subyekt emas, faoliyatning maz-muni, predmeti, jarayoni, natijasi baholanadi. Shaxsiy pedagogik baholar, aksincha, faoliyat subyektiga tegishli bo'ladi, faoliyatda namoyon bo'ladigan shaxsning individual xislatlari, uning inti-lishlari, ko'nikmalari baholanadi.

Moddiy pedagogik baholar bolalarni o'quv-tarbiya ishidagi muvafaqqiyatlari uchun turli usullar bilan moddiy rag'batlantirishni nazarda tutadi. Moddiy stimul sifatida bolalar uchun pul, qiziqarli narsalar va boshqa ularning moddiy ehtiyojlarini qondiruvchi narsalardan foydalanilishi mumkin. Ma'naviy pedagogik baho maqtov yoki faxriy yorliqni o'z ichiga olib, bola harakatlarining axloq normalariga mosligi xarakterlanadi. Natijali peda-gogik baholar faoliyatning so'nggi natijasiga tegishli bo'lib, aso-san unga urg'u beriladi. Bunda qanday yo'l bilan erishilganligiga qaramasdan so'nggi natijaga e'tibor beriladi. Jarayonli pedagogik baholar, natijaga emas, jarayonga tegishlidir. Bunda oxirgi natija-ga qanday erishilganligiga emas, natijaga erishishga nima unda-ganligiga urg'u beriladi. Miqdoriy pedagogik baholar bajarilgan ishning hajmiga tegishli bo'ladi, masalan, yechilgan misollar so-niga e'tibor beriladi. Sifatiy pedagogik baholarda bajarilgan ish-ning sifatiga e'tibor beriladi.

Pedagogik baho turlari bilan birga bolalarni o'quv-tarbiya ja-rayoniga undashning bir necha usullari mavjud. Ular: e'tibor, qo'llab-quvvatlash, baho, tan olish, maqtov, mukofot, ijtimoiy ro-lini, obro'sini oshirish.

Pedagogik bahoning mahsuldorligi deganda uning bolalar ta'lim va tarbiyasidagi undovchi roli tushuniladi. Bolada o'zini o'zi takomillashtirishga, bilim, ko'nikma va malakalar egalashga, shaxsning ijobiy xislatlarini shakllantirishga, xulq-at-vorning ijtimoiy foydali shakllariga intilishni kuchaytiradigan baho mahsuldor hisoblanadi. Bola shaxsiy-xulq-atvor va intel-ktual taraqqiyotida motivatsiya tashqi va ichki bo'lishi mum-kin. O'quv-tarbiyaviy faoliyatning tashqi motivatsiyasi dey-492

ilganda bolaning faolligini tashqi tomondan yoʻllab turuvchi stimullar nazarda tutiladi, yaʼni ular bolani oʻrab turgan atrof-muhitdan kelib chiqadi va u bolani maʼlum tarzda tutishga majburlaydi. Bunday qoʻgʻatuvchilarning taʼsiri yoʻqotilsa, oʻquv faolligi ham susayib, yoʻqoladi. Tashqi stimullardan farqli ravishda ichki stimullar bunday faollikni vujudga keltirishi va yoʻllab turishi mumkin. Oʻquv tarbiyaviy faoliyatning ichki motivatsiyasi, tashqi motivatsiyaga qaraganda kuchli boʻlib, mahsuldor pedagogik baho deganda bolada taʼlim va tarbiyaning ichki motivatsiyasini vujudga keltiradigan baho nazarda tutiladi.

Pedagogik baho bolaning yoshiga mos tanlanishi zarur. Pedagogik baho yoshga qarab oʻzgarishi tendensiyalari quyidagilar: Birinchidan, yosh ulgʻayishi bilan yangi bilim, koʻnikma va malakalarni egallash zarurligini tushunish ortadi. Ikkinchidan, bolalikda yillar oʻtgan sayin shaxsning maʼlum xislatlarini egalashning ahamiyati ortadi. Uchinchidan, katta boʻlgan sayin, ayniqsa, maktab davrida ijtimoiy-psixologik stimullarning roli ortadi. Toʻrtinchidan, tashqi stimullarga qaraganda ichki stimullarning roli ortib boradi. Turli yosh davrlarida pedagogik bahoning qulay usullari va sharoitlarini koʻrib chiqamiz.

Sh.A.Dustmuxamedova tomonidan «Olti yoshli bolalar-ga taʼlim berishda pedagogik bahoning psixologik xususiyatlari* mavzuida ilmiy izlanishlar olib borilgan¹. Olimaning taʼkidlashicha, pedagogik baholarni formal va mazmunli baholarga ajratish mumkin. Olimaning taʼkidlashicha, pedagogik baho oʻqituvchining bola bilan munosabat uslubiga, xususan oʻqituvchi tomonidan baholovchi taʼsirning maʼlum tur va vositalarini tanlashiga bogʻliq. Bunda qattiqqoʻllik bilan, formal tipdagi baholovchi taʼsirdan koʻproq avtoritar pedagogik ustanovkalari mavjud oʻqituvchilar tomonidan, yumshoq koʻngillik bilan mazmunli

¹ JJycMyxaMcfIOBa III.A. ИцихоjiоринекKMe oco6eHHOCTH nenaronwecKOH oueHKH B o6yчicHHH fleTeii inecTiuieTHepo BO3pacra..-M. 1987.-24 c.

motivatsion baho esa demokratik uslubdan foydalanuvchi o'qituvchilar tomonidan foydalanishi aniqlangan.

Bolalarni go'daklik davrida imo-ishora, mimika va pantomimika orqali bildiriladigan hissiy-ekspressiv baholash qo'llaniladi. Ilk bolalik davrida «yaxshi», «yomon» kabi so'zlar bilan baholash mumkin. Maktabgacha yosh davrida xulq-atvor qoidalariga rioya qilish, bilim, malaka va ko'nikmalarni namoyon qilish bilan bog'liq pedagogik baholar paydo bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni ta'lim va tarbiyaga undashda hamma tomonidan berilgan baho emas, balki bu bolalar qadrlaydigan kattalar, o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan berilgan baho mahsuldor bo'ladi. O'smirlar esa kattalar emas, balki tengdoshlari, do'stlari tomonidan berilgan bahoni ahamiyatli deb biladilar. Ilk o'spirinlik davrida kattalar tomonidan beriladigan bahoning ahamiyati yanada ortadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. O'quv faoliyati va uning elementlari nimalardan iborat?
2. Ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish nimaga bog'liq?
3. O'qish motivlari va motivatsiyaga izoh bering.
4. O'quv faoliyati motivatsiyasining manbalariga nimalar kiradi?
5. Rivojlantiruvchi ta'limning psixologik asoslari nimalardan iborat?
6. Dars jarayonida o'quvchilarni boshqarish texnikasi va usullari.
7. Kompyuterlashtirilgan ta'limning psixologik jihatlari.
8. Pedagogik baho turlari.
9. Ta'limni individuallashtirish deganda nimani tushunasiz?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Ta'limga psixologik tayyorgarlik deganda nima nazarda tutiladi?
 - a) ta'lim beruvchi, ma'lumot usullari, o'quv motivlari, o'qituvchining baholashi;
 - b) ta'limning maqsadi — nima uchun o'qitish kerak? Ta'limning mazmuni - nimaga o'qitish kerak? Ta'limning metodlari

*c) bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi;

d) bola o'qishni, sanashni bilib olsa.

2. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati nimalarga bog'liq?

a) ta'limning maqsadi — nima uchun o'qitish kerak? Ta'limning mazmuni — nimaga o'qitish kerak? Ta'limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo'llari, ta'lim beruvchi, o'quvchi;

b) motivatsiya, ma'lumot usullari, ma'lumotning tushunarlili-gi, ma'lumotlarni qo'llash;

c) ta'lim beruvchi, ma'lumot usullari, o'quv motivlari, o'qituv-chining baholashi;

*d) o'quvchilarga, o'qituvchining qanday o'qitishiga.

3. O'quv faoliyatining elementlarini to'g'ri belgilang.

a) motivatsiya, xotira, o'quv topshiriqlari, o'qituvchining na-zorati, pedagogik muloqot yo'llari;

b) ta'lim beruvchi, ma'lumot usullari, o'quv motivlari, o'qituv-chining baholashi, pedagogik muloqot yo'llari;

*c) o'quv motivlari, o'quv topshiriqlari, o'quv harakatlari, o'qituvchining nazorati, o'qituvchining baholashi;

d) ta'limning maqsadi — nima uchun o'qitish kerak? Ta'lim-ni-ning mazmuni — nimaga o'qitish kerak? Ta'limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo'llari, ta'lim beruvchi, o'quvchi.

4. O'quv faoliyati motivatsiyasining manbalari qaysilar?

*a) ichki, tashqi, shaxsiy motivlar;

b) bilim, ko'nikma va malakalar;

c) ustanovka, qadriyatlar, orttirilgan qobiliyatlar;

d) intellektual malakalar.

5. O'qish jarayonida harflar shaklini farqlash qanday malaka-ga misol bo'la oladi?

a) sensor malaka;

b) motor malaka;

*c) intellektual malaka;

d) sensomotor malaka.

XXII BOB. TARBIYA PSIXOLOGIYASI

Raja:

1. Tarbiyaviy texnologiyalarning psixologik jihatlari.
2. Turli yosh bosqichlarida tarbiya xususiyatlari.
3. Shaxs shakllanishiga oilaning ta'siri.
4. Shaxs tarbiyasida madaniyat.

Mavzuning o'quv maqsadi:

Ta'limiy: Talabalarga tarbiya tushunchasining mohiyatini, uning shaxs kamolotidagi o'rnini, tarbiyaviy texnologiyalarning psixologik jihatlari, turli yosh bosqichlarida tarbiya xususiyatlari, shaxs shakllanishiga oilaning, madaniyatning ta'sirini tushuntirish, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi va unga ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi bilimlarini rivojlantirishdan iborat.

Tarbiyaviy: Milliy an'analar, urf-odatlarimizning tiklanishi, milliy, umumbashariy va umumma'naviy qadriyatlarga asoslangan axloq normalarini yaratish va ularni bolalarimiz, yoshlarimiz ongiga singdirish orqali ularni jamiyatimiz uchun fidokor, bilimdon inson qilib tarbiyalash asos bo'la olishini uqtirish, talabalarda o'qituvchi va tarbiyachiga xos kasbiy va shaxsiy sifatlarni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: Talabalarda tarbiya usullarini egallash va undan oqilona foydalana olish malakalarini shakllantirish.

Tayanch tushunchalar: shaxs, guruh, axloq, tarbiya, xulq-atvor motivlari, shaxsning yo'nalganligi, e'tiqod, shaxsiy namuna, o'z-o'zini tarbiyalash.


22.1. Tarbiyaviy texnologiyalarning psixologik jihatlari

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham davr talabiga munosib bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash muammosi hamisha dolzarb ahamiyatga molik bo'lib kelgan.

Tarbiya tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchida barqaror axloqiy xislat va xulqiy fazilatlarni tarkib toptirish, shakllantirish maqsadida tarbiyalanuvchining ongiga aniq maqsad yo'lida tarbiyaviy ta'sir etish jarayonidir.

Tarbiya bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va jislab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Tarbiya - bolaning ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishni o'rganishi hamda insonning hayotiy ko'nikma va malakalarga ega boTishidir. TaTim jarayonning markazida shaxsning bilish va anglash jarayoni, uning qobiliyati, ilm o'rganishi yotsa, undan farqli oTaroq tarbiya insonni shaxs sifatida shakllanishiga, uning dunyoqarashi va jamiyatga munosabatiga qaratiladi. Tarbiya — bu alohida jarayon emas, balki o'qitishning bir tomoni boTib, u bilan umumiy va farqu tomonlarga egadir. Bilim berish va tarbiyaga, asosan, insonning ijtimoiy ko'nikma olish mexanizmining o'ziga xos jihatlarini kiritish mumkin. Tarbiya jarayonida shaxsning sifat va xossasi, ijtimoiy xulq-atvori va shakllari nazarda tutilsa, o'qitishda bilim, ko'nikma va malakalar inobatga olinadi.



Tarbiya jarayonining ilmiy asoslari bilan, psixologiyadan tashqari falsafa, sotsiologiya va Pedagogika fanlari shug'ullandi. Holbuki, psixologiya fanisiz tarbiyaning asosiy muammolari hal qilinib boTmagan holda to'g'ri qo'yilishi ham mumkin emas, chunki ularni anglash negizida shaxs psixologiyasi, insoniy munosabatlar, har xil ijtimoiy jamoalar psixologiyasini bilish yotadi. Barcha uchun umumiy boTgan yoki o'quvchilarga individual tav-

siyalar berishda umumiy psixologiya va yosh davrlar psixologiyasiga tayaniladi.

Tarbiya uning maqsadlarini aniqlashdan boshlanadi.

Tarbiyaning bosh vazifasi — jamiyat hayotida zarur boʻlgan kerakli sifatlarni oʻzida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Tarbiya jarayonida doimiy va oʻzgarmas maqsad qoʻyilmaydi, chunki oʻzgarmas maqsad har qanday jamiyatga ham mos boʻlavermaydi. Jamiyat tuzilishi va ijtimoiy munosabatlar oʻzgarishi bilan tarbiya maqsadi oʻzgaradi.

Tarbiya turli xil davrlarda va turli xil jamiyatlarda oʻzgarmas jarayon boʻlib qolmaydi. Tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, shakl va metodlari har bir tarixiy davrda oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻladi. Inson shaxsini shakllantirish boʻyicha har bir ijtimoiy tuzum yoʻnalishiga mos ravishda talablar qoʻyiladi. Tarbiyaning barcha tarixiy davrlar uchun xos boʻlgan baʼzi bir umumiy belgilari ham mavjud. Pedagogik gʻoyalar va tarbiyaviy ishni rivojlantirishda muayyan darajadagi aloqa va maʼlum bir davomiylik mavjud. Jumladan, asrlar davomida dars maktabda oʻquv mashgʻulotlarini tashkil etishning asosiy shakli boʻlib keldi va shunday boʻlib qolmoqda. Qator oʻquv predmetlari mazmuni maʼlum darajada saqlanib qolayapti. Ayni chogʻda tarbiyada va taʼlim berishda gʻoyaviy tomondan betaraf qoladigan jihatlar borligini ham unutmaslik lozim. Tarbiya va taʼlimning tashkiliy shakllarini aniq toʻldirish, maktab ishining u yoki bu masalalarini izohlashda turli davrlarda turlicha yondashuvlar mavjud boʻlgan.

Tarbiya jarayonining texnologiyasini quyidagicha sharhlash mumkin:

Agar jamiyat oʻz taraqqiyot davrida maʼlum bir rivojlanishga, madaniyatga va maʼnaviyatga erishgan boʻlsa va uni saqlab qolishni hamda yuksaltirishni istasa, uning tarixida turli xil oʻzga-

rishlar ro'y berishidan qat'i nazar, u o'tmishdan beri saqlanib kelayotgan eng yaxshi an'ana va qadriyatlarini qabul qilishi, davom ettirishi lozim bo'ladi. Umuminsoniy qadriyatlar va madaniy boyliklar tarixiy va hududiy chegara bilmaydigan boyliklar qatoriga kiradi. Birinchi navbatda xuddi o'shalar ijtimoiy tarixning barcha bosqichlarida tarbiya maqsadlarini ifodalaydi. Bu maqsadlar yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va tartiblilik, insoniylik va tabiatga bo'lgan muhabbat tushunchalari bilan bog'liqdir. Bu yana ruhiyat, erkinlik, shaxsning o'zi va atrofida ro'y berayotgan voqealarga javobgarlikni his qilishi, kamtarlik, insoniylik ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

1. Tarbiyalanuvchini alohida takrorlanmas, individuallik sifatida tushunmoq lozim. Uning ehtiyojlari tuzilishini aniqlash kerak.

2. Ijobiy emotsiyalar vositasida ijobiy xulq-atvor odatlarini shakllantirmoq kerak. Ong ham, iroda ham motivlar ierarxiyasini shakllantira olmaydi. Zotan, bir ehtiyojning o'rnini faqat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin.

3. Shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya va tarbiyachidan muloqotni ham, hamdardlikni ham emas, aynan shu vositalar bilan , qurollantirishni kutadi.

Ruhiyat yuqori axloqiy tafakkurning bir daqiqalik mayl va ehtiyojlardan yuqori qo'yilishini bildiradi. O'sib kelayotgan va rivojlanayotgan shaxsda bu doimiy ravishda axloqiy barkamollikka intilishda namoyon bo'ladi. Erkinlik bu insonning ichki va tashqi ozodlikka intilishidir, bunda boshqa shaxsning ijtimoiy kelib chiqishi, millati, diniy va siyosiy qarashlari, sinfiy munosabatlari va

boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, uning huquqlari albatta to‘la-to‘kis tan olinishi lozimdir.

Majburiyat yoki javobgarlikni his qilish — erkinlikning qarama-qarshi jihati bo‘lib, bu shaxsning manfaatlariga xizmat qiladi. Majburiyatsiz erkinlik — bu o‘zboshimchalik, pala-partishlik hisoblanadi. Erkinliksiz majburiyat esa — bu qullikdir. Unisi yoki bunisi o‘zaro bir-birini to‘ldirganda yoki bog‘langanda mustaqillik mavjud bo‘lishi mumkin. Majburiyatni yana boshqacha talqin qilinsa, insonning o‘z ixtiyori bilan jamiyat hayoti va boshqa insonlar taqdiri uchun javobgarlikni o‘z ustiga olishi tushuniladi. Hozirgi zamon tarbiyasining umumiy maqsadi bolani yuksak axloqli, ruhiy jihatdan boy, qalban ozod, erkin, burch va majburiyatni his qila oladigan shaxs sifatida shakllantira olishdir. Tarbiyaning umumiy maqsadi bilan bir qatorda maxsus ijtimoiy maqsadlari ham kelib chiqishi mumkin. Ular tarixning ma’lum davrida o‘zgaruvchan talablar bilan jamiyat taraqqiyotining dolzarb muammolarini bayon etishi va rivojlanishiga hissa qo‘shishi lozim. Ma’lum vaqtdan so‘ng jamiyat taraqqiyoti o‘zining ma’lum bir bosqichidan o‘tgandan keyin rivojlanish yana davom etadi va talablar ham o‘zgaradi. Tarbiyaning maqsad va vazifalaridan biri bu jamiyat taraqqiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichlariga javob bera oladigan maxsus tashabbuskor o‘quvchilarni yetishtirish, shaxsni o‘z-o‘zini hurmat qiladigan va intiluvchan qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Yuksak tafakkur namoyandalarining, xususan faylasuflarning risolalarida hamda badiiy adabiyotning yirik vakillari asarlarida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy ta’limotlarga, ayniqsa, keng o‘rin berilgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘tmishda axloqshunoslik sohasida ijod qilib, shu fan taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan mutafakkirlarimiz talaygina.

Abu Nasr Forobiy bolalarni axloqli, nazokatli qilib tarbiyalashda musiqa bilimining ahamiyati haqida bunday deydi: «Bu fan shu ma’noda foydaliki, kimning fe’l-atvori muvozanatni yo‘qotgan bo‘lsa, u tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga

yetkazadi va muvozanatli bo‘lganlarni muvozanatini uzoq muddatga saqlaydi. Musiqa ruhni davolaydi, uning so‘zlarining ta’siri bilan ruhiy quvvatlar o‘z substansiyasiga uyg‘unlashadi va tartibga, muvozanatga keladi».


Forobiy o‘zining «Iso-al-ulum» kitobining oxirgi bo‘limida: «Inson aqli faqat bilim bilan cheklanmaydi, balki odat va qarashlarni o‘zining maqsadlariga bo‘ysundira olishi va yo‘naltirishi, o‘zgartirishi ham mumkin», - deb yozadi. Uning fikricha, har bir kishi bilimlarni yaxshi egallamog‘i, yaxshi va barkamol tarbiya olmog‘i, eng yaxshi fazilatlarga ega bo‘lmog‘i kerak. Forobiy fikricha, kishidagi tub g‘oya — saodatdir. Tarbiya vositasi bilan bolalarda hosil qilinadigan barcha insoniy, axloqiy fazilatlar shunga qaratilmog‘i kerak.

Insonning tabiatini o‘zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta’sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacha qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o‘sishi va o‘zgarishidir. Bundan tashqari inson shaxsining tarkib topishiga ta’sir qiluvchi yana bir kuchli omil — inson orttirgan tajribalarining tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Shunday qilib, inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo‘lib, u kishining individual hayoti davomida ma’lum konkret omillarning ta’siri ostida sekin-asta tarkib topadi. Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta omillar ta’sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi, odam tug‘ilib o‘sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta’siri bo‘lsa, ikkinchisi, odamga uzoq muddat davomida tizimli ravishda beriladigan ijtimoiy ta’lim-tarbiyaning ta’siridir va nihoyat, uchinchi odamga nasliy yo‘l bilan beriladigan irsiy omillarning ta’siridir.

Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal etuvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib o‘tganimizdek, faqat shu ikkita omilga emas, balki uchinchi bir omilga ham bog‘liqdir. Bu omil nasliy yo‘l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta’siridir. Masalan:

tanasining tuzilishi, sochi va ko'zlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug'ma ravishda berilishi mumkin. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatlari nasliy yo'l bilan berilmaydi. Nihoyat, ayrim hollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqa, matematika qobiliyatlari nasliy yo'l bilan berilishi mumkin. Bunday imkoniyatlarning amalga oshirilishi, ya'ni ro'yobga chiqishi uchun albatta, ma'lum sharoit bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda xalqimiz orasidan yetishib chiqqan iste'dodli olimlar, muhandis-ixtirochilar, yozuvchi va shoirlar, davlat va jamoat arboblari, iste'dodli artistlar, rassomlar va boshqa kishilarimizga nasliy yo'l bilan berilgan barcha imkoniyatlarning ro'yobga chiqishi uchun har qanday sharoit maydonga kelganligining dalili bo'la oladi.



Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xatti-harakatlari shaxsning hayoti faoliyatida maTum rolni bajaruvchi va har

biri murakkab qurilmadan iborat boʻlgan hamda shartli ravishda toʻrtta oʻzaro mustahkam bogʻlangan funksional bosqichlarga bir-lashtiriladi:

Shaxsning ana shu ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan barcha si-fatlari ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi shaxsning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilaydi.

Birinchi tizimning hosil boʻlishida analizatorlar oʻrtasidagi doimiy tabiiy aloqani aks ettiruvchi filogenetik mexanizmlar kat-ta rol oʻynaydi. Biroq, bu ilgari yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, ontogenez jarayonida filogenetik analizatorlar oʻrtasidagi aloqa vaqtli aloqalar bilan organik jihatdan qoʻshilib keladilar. Bunda mazkur tizimning ichida perseptiv tizimga oʻtib ketadigan yuksak darajada integratsiyalangan maʼlum ichki sensor komplekslarni hosil qiladi. Bunday komplekslar qatoriga nutq, eshitish, koʻrish hamda sensomotor komplekslarni kiritish mumkin. Mana shu komplekslarning hammasi odamning hayot-faoliyati jarayoni-da oʻzaro bir-biri bilan doimiy aloqaga kirishib, sensor-perseptiv uyushishning yagona funksional dinamik tizimini yaratadi. In-sonning sensor-perseptiv jihatlari doimo takomillashib boradi.

Ikkinchi tizim barqaror psixik holatlarni oʻz ichiga oladi. Bu holatlar bolaning aniq maqsadni koʻzlovchi va foydali faoliyati-ning ongli subyekti sifatida boshlagan harakatlarining dastlabki yillaridayoq shakllana boshlaydi. Temperament, intellekt, bilim va munosabat ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi.

Uchinchi tizim — shaxsni arbob sifatida stabilizatsiya tizimidir. Yoʻnaltirilganlik, qobiliyat, mustaqillik va xarakter uning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Yoʻnaltirilganlik — shaxsning integral va generalizatsiya qilin-gan xususiyatidir.

Yoʻnaltirilganlik bilim, munosabatlarning hamda shaxsning xulq-atvori va xatti-harakatlarida ijtimoiy ahamiyat yetakchilik qilgan motivlarning bir butun ekanligida oʻz ifodasini topadi. Bu xususiyat odamning dunyoqarashi, qiziqishlari va maʼnaviy ehti-yojlarida namoyon boʻladi.

Yo‘naltirilganlik strukturasi g‘oyaviy e‘tiqod katta rol o‘ynaydi. G‘oyaviy e‘tiqod — bu bilimning, o‘sha shaxsga xos bo‘lgan intellektual, emotsional va iroda sifatlarining sintezi, g‘oyalar va xatti-harakatlar bir butunligining negizidir.

To‘rtinchi tizim o‘z ichiga shunday xususiyatlar, munosabatlar va xatti-harakatlarni oladi-ki, ularda real shaxslarning ijtimoiy «o‘y fikrlari va his-tuyg‘ulari» aks ettiriladi. Ular bu shaxslarning siyosiy jihatdan ongli, ijtimoiy taraqqiyotning mas‘ul arboblari sifatida xulq-atvorini belgilab beradi. Bunga gumanizm, optimizm va mehnatsevarlik fazilatlarini kiradi.

Shaxs shakllanishida u yashayotgan muhit, kishilar, jamiyatning roli juda kattadir. Masalan, biron mahallada inson shaxsining tarkib topishiga faol ta‘sir ko‘rsatuvchi yuzta o‘ziga xos ijtimoiy muhit bor degan ma‘noni bildiradi. Bu yerda shunday bir savol tug‘iladi: «Tashqi muhit inson shaxsining tarkib topishiga qanday ta‘sir qiladi?»

Birinchidan, ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning oniga bevosita ta‘sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi.

Ikkinchidan, tashqi ijtimoiy muhit ta‘sirining chuqurroq va mustahkamroq bo‘lishiga odamning o‘zi yordam beradi. Ma‘lumki, bolalar o‘z tabiatlariga ko‘ra, ilk bolalik chog‘laridan boshlab, nihoyat darajada taqlidchan bo‘ladilar. Bolalar katta odamlarning barcha xatti-harakatlariga bevosita taqlid qilish orqali bu xatti-harakatlarni, yaxshi-yomon fazilatlarini o‘zlariga singdirib boradilar. Bolalar oilada, ko‘cha-ko‘yda, katta odamlarning har bir harakatlarini, o‘zaro munosabatlarini zimdan kuzatib turadilar.

Inson shaxsining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhitning roli haqida gap borar ekan, shuni ham ta‘kidlab o‘tish zarurki, ayrim g‘ayritabiiy hodisalar inson shaxsining tarkib topishida tashqi muhit ta‘sirining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini to‘la tasdiqlaydi. Biz ayrim tasodifiy hollarda odam bolalarining yovvoyi hayvonlar muhitiga tushib qolish hodisasini nazarda tutayapmiz. Hayotda bunday hodisalar juda siyrak bo‘lsa ham har holda uchrab turadi. Masalan, hindistonlik doktor Sing Kalkutta yaqinida-

gi o'rmonzorda bo'ri bolalari bilan birga ikkita odam bolasining ham to'rt oyoqlab yugurib yurganini ko'rib qoladi. Keyin ularni poylab, qarorgohlarini topib, bolalarni olib ketadi. Ulardan biriga Amala, ikkinchisiga Kamala deb nom qo'yadi. Shu narsa xarakterliki, bolalar yoshlikdan bo'rilar muhitiga tushib qolganliklari tufayli, fe'l-atvorlari, xatti-harakatlari jihatidan bo'rilardan farq qilmas edilar. Nutq yo'q, demak tafakkur ham nihoyat darajada cheklangan edi. Juda katta qiyinchiliklar bilan qayta tarbiyalanayotgan bo'ri muhitidagi bolalar shamollash natijasida o'lib qoladilar. Bu hodisa odamning shaxs sifatida rivojlanishi uchun eng avval insoniy muhit, ya'ni ijtimoiy muhit bo'lishi kerakligini to'la tasdiqlaydi. Shaxs va uning psixologiyasiga ta'sir etuvchi ikkinchi omil ta'lim-tarbiyaning ta'siridir. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya inson ongini shakllantiradi, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, hayotga bo'lgan munosabatini tarkib toptiradi. Agar bolalarning ruhiy taraqqiyotlari va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi faqat tashqi ijtimoiy muhit bilan, ta'lim-tarbiyaning o'zigagina bog'liq bo'lganda edi, unday paytda biz bir xilda sun'iy va aynan bir xil ta'lim-tarbiya sistemasini tashkil qilib, har tomondan bab-baravar taraqqiy etgan va deyarli bir xil shaxsiy xususiyatlarga ega shaxslarni yetishtirib chiqarar edik. Vaholanki, bunday bo'lishi mumkin emas. Shuni aytib o'tish kerakki, bola shaxsining tarkib topishiga ta'lim-tarbiyaning ta'siri deganda, albatta, birinchi navbatda tarbiya muassasalarida, ya'ni bog'cha, maktab, internat, litsey va kollejlarda beriladigan ta'lim-tarbiya tushuniladi. Biroq, bundan oilada bolaga beriladigan ta'lim-tarbiya mutlaqo mustasno emas. Oiladagi umumiy ijtimoiy muhitdan tashqari, oilada beriladigan ta'lim-tarbiyaning ham roli kattadir. Bola tarbiyasi bilan sistemali shug'ullanadigan va umuman shug'ullanmaydigan oilalarga misollar keltirish mumkin.

Odamning ruhiy taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi haqida gapirar ekanmiz, yana bir muhim narsa ustida to'xtab o'tish kerak. Hozirgi kunda tez-tez akseleratsiya terminini ishlatayapmiz. Xo'sh akseleratsiya bu nima? Akselerat-

siya «tezlatish» degan maʼnoni anglatadi. Hozirgi kunda bolalarni ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan juda jadallik bilan rivojlanayotganliklarining guvohi boʻlib turibmiz. Xoʻsh, buning sababi nima boʻlishi mumkin? Albatta, bunga turli fikrlar bor. Ayrim olimlar akseleratsiyaning sababini ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan bogʻlab tushuntirishga intilmoqdalar. Ularning fikricha, ilmiy-texnikaning juda jadal temp bilan rivojlanishi insoniyatning oldiga mislsiz koʻp axborotlarni idrok qilish va fikrda qayta ishlash talablarini qoʻyadi. Bu talab oʻz navbatida insonni har tomonlama, yaʼni ham jismoniy, ham psixik jihatdan tez rivojlanishiga olib keldi. Yuqorida aytib oʻtilgan olimlarning fikricha, aksele-ratsiya — bu XX asrning ikkinchi yarmiga xos boʻlgan hodisadir.

Tarbiyali boʻlish — bu xulq-atvorini nazorat qilishdan iboratdir. Bunday nazorat insonga yomon xatti-harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyligi haqida qaygʻursa, u ijtimoiylashuvga erishgan boʻladi.

Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvni oʻrganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi. Bola oʻzini egotsentrik emas, balki tarbiyali tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday ragʻbatlantirilishi kerak? Tarbiya oʻz mohiyatiga koʻra ijtimoiy jihatdan ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishidir. Agar taʼlim shaxsning ongini shakllantirish boʻlsa, tarbiya uning ongsizlik sohasiga taʼsir etishdir. Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga hissiy yaqinlik xos. Odatda 6 oylik bolalar unga gʻamxoʻrlik qiladigan ota-onasiga bogʻlanib qoladilar. Ota-onaning oldida, ular bilan muloqotda boʻlish bolalarga juda yoqadi, ularning yoʻqligi bolaga yoqmaydi. Ota-onaning gʻamxoʻrligini bildiradigan soʻzlar, xatti-harakatlar bola uchun juda katta ahamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy ahamiyatga ega boʻladi. Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu oʻrganish jarayoni orqali sodir boʻlishi mumkin: xulq-atvorning istalgan shakllari gʻamxoʻrlik va eʼtibor bilan taqdirlanadi, kutilmagan shakllari esa qoʻllab-quvvatlanmaydi. Lekin, yaxshi xulq-atvorni ragʻbatlantirish va yomon xulq-atvor uchun jazolash

r> l<><|iy ijlimoiylashuvning kichik bir qismidir. Biz ko'rib chiqqan

•oil<l atvor hamma bolalarga ham taalluqli emas.

Bolalarni tarbiyalash samaradorligini oshirishda an'ana va m I odatlarning roli katta. Xalq urf-odatları, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-bi-ii]'a yaqinlashtiradi, do'stlik-birodarlik his-tuyg'ularini rivojlantiradi. Bular o'z navbatida yoshlar uchun ibrat namunasini o'taydi.


Tarbiya jarayonida g'amxo'rlikning funksiyasi kattadir. Bolalar bclarq ota-onalarga nisbatan g'amxo'r ota-onaga ko'proq taqlid qiladilar. G'amxo'r ota-onalar bolaning salbiy xulq-atvorini qollab-quvvatlamaganda, bola o'z xatti-harakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi.

Tarbiyaviyjarayonni amalga oshirishda g'amxo'rlikbilan bir qatorda yaxshi ko'rishga asoslangan intizomga rioya qilish zarurdir. Bu bola bilan doimiy muloqotni, tushuntirishni, muhokama qilishni, agar bolaning xulq-atvori shuni talab qilsa, og'zaki tanbeh berishni, yaxshi xulq-atvor uchun taqdirlashni nazarda tutadi.

Bola shaxsi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini uning i I k davrlardagi rivojlanishini aniqlamasdan turib tushunish qiyin. Axloqiy rivojlanish ilk bor shaxsning umumiy xususiyatlari va xislatlari shaklida shakllanishi haqidagi g'oyalar ilk bor X.Xartshorn va M.Meylar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ularning l'ikricha, axloqiy xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi va faoliyatga undovchi fenomenlar aniqlanmaguncha axloqiy rivojlanishni o'rganib bo'lmaydi. X.Xartshorn va M.Meylar olib borgan tadqiqotlarning asosiy maqsadi axloq normalariga rioya qilishda bola shaxsining umumlashgan xislatlarini shakllantirish muhim rol o'ynaydimi yoki xususiy axloqiy odatlar ahamiyatliroqmi, degan savolga javob topish bo'lib, tadqiqotlardan shu narsa aniqlanadiki, axloqiy normalarni bola ongiga singdirilishida xususiy odatlarni yuzaga keltirish va o'ziga xos ta'lim nazariyasiga asoslanish ustunligi yaqqol namoyon bo'ladi.

O'quvchilar tomonidan ba'zi bir axloqiy tushunchalar va tasavvurlarining o'zlashtirilishi va ularning bola shaxsiga bo'lgan ta'siri-

rini psixologik nuqtayi nazardan o'rgangan V.A.Krutetskiy o'z tadqiqotida 10 ta asosiy tushunchani tanlab oladi. Bular: qafiylik, sezgirlik, faxrlanish, haqgo'ylik, mardlik, bir so'zlilik, kam-suqumlik, qo'rqmaslik, faxrlanish, burch kabilardir. Olim o'tkazgan tadqiqotidan shunday xulosaga keladiki, o'quvchilar ushbu tushunchalarni mukammal tushunishlari va hayotga tatbiq etishlari uchun:



O'quvchilarda o'z-o'zini anglashda shaxs axloqiy hislarining ba'zi bir jihatlari masalalari PLRazmislov, jamoa oldida burchni rivojlantirish xususiyatlari A.L.Shnirman, burch hissini tushunish muammolari A.S.Alyakrinskaya, axloqiy jihatdan o'zini aniqlash muammolari VLShardakovlar tomonidan o'rganilgan.

22.2. Turli yosh bosqichlarida tarbiya xususiyatlari

Bolada shaxs xislatlari uch yoshda namoyon bo'la boshlaydi. Bu esa uni uch yoshdan boshlab tarbiyalash zarurligini bildir-maydi. Bolani hayotining birinchi oylaridan boshlab tarbiyalash zarur, faqat uning tashqi ko'rinishlari maktabgacha yosh davri-ning boshida namoyon bo'ladi. Ilk bolalik davrida berilgan tar-biya butun bolalik davrida namoyon bo'ladi. Tarbiya ona bilan bolaning muloqotidan boshlanadi, bu esa bolaning keyingi shax-siy rivojlanishini belgilab beradi. Zamonaviy psixologiyadagi so'nggi tadqiqotlarda aniqlanishicha, onadan bolaga yoki chaqa-

loqlik davrida onaning o'rnini bosuvchi shaxsdan insoniy emosional o'zaro munosabatlar bilan bog'liq ko'pchilik sifatlar o'tadi.

Bola ikki yoshga to'lganda muhim shaxs xislati hisoblangan va keyingi hayoti davomida butun umr saqlanib qoladigan — insonlarga bog'lanib qolish xislati shakllanadi. Bolada kimgadir simpatiya paydo bo'ladi, ana shu yoqtirgan insonning oldida ko'proq bo'lishga harakat qiladi, unga ko'proq yordam so'rab murojaat qiladi. Bola bog'lanib qolgan shaxs boshqalarga nisbatan ko'proq unga kuchli tarbiyaviy ta'sir o'tkazishi mumkin.

Ilk bolalik davrida bolada axloqiy ongning emas, balki axloqiy hislarni tarbiyalash haqida so'z yuritish mumkin. Bolalarni axloqiy tarbiyalash masalalari bilan bir qancha xorij olimlari shug'ullanishgan. Ulardan Pijaie, L.Kolbergning ta'kidlashicha, bolalar maktabga o'qishga borguncha axloqiy ong darajalari konvensial axloqqacha bo'lgan davrda bo'ladi. Ushbu axloq turi shu bilan tavsiflanadiki, kattalar bola uchun axloqiy fikrlar manbai va axloqiy darajada taqlid qilish namunasi hisoblanadi. Lekin Pijaie va Kolberg ishlarida ham qachon va qanday qilib bolani axloqiy tarbiyalash jarayonini boshlash kerakligi haqida tavsiyalar keltirilmagan.

Ilk bolalik davrida axloqiy tarbiya bilan bir qatorda intizomni, jismoniy va gigiyenik tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Tartib intizomni tarbiyalash bolada o'z xohish, istaklarini boshqarish, vaziyatli motivatsion ehtiyojlarni jiddiy muhim maqsadlarga erishishga bo'ysundirishni nazarda tutadi. Ilk bolalik davrida jismoniy tarbiya nafaqat sog'liqni mustahkamlash, bolalarning kuchi va chidamliligini shakllantirish, balki intellektual rivojlaniishi uchun ham zarurdir. Shuningdek, ilk bolalik davri elementar gigiyenik malakalarning shakllanishi uchun sezitiv davr hisoblanadi. Elementar gigiyenik malakalarni shakllantirish bolani intizomga o'rgatadi, bu esa unda boshqa ijobiy shaxs xislatlari, jumladan saranjom-sarishtalik, batartiblikka o'rgatadi.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalashda ularning uy mehnatida ishtirok etishi muhim ahami-

yatga ega. 4—5 yoshligidan boshlab bolaning uyda doimiy bajaradigan majburiyatlari bo‘lishi maqsadga muvofiq. Uy mehnatida ishtirok etish tufayli bolada saranjom-sarishtalik, mas’uliyatlik, mehnatsevarlik va boshqa foydali xislatlar shakllanadi. Bolaning shaxs sifatida shakllanishi va tarbiyalashda asosiy mehnat turlari - bu uy ishlariga yordamlashish, ota-onalar bilan birgalikda iqtisodiy masalalarni hal qilishda ishtirok etish, ovqat pishirishda yordamlashish, o‘simliklar va gullarni parvarishlash va hayvonlarga qarash va b. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘zlari o‘ynaydigan, dam oladigan joylarini yig‘ishtirishda, bezashda ishtirok etishlari muhim, kichik maktab yoshidagi bolalar dars tayyorlagan joyini yig‘ishtirishi lozim. Har bir bolaning uyda kichik, ish burchagi bo‘lishi lozim.

Uy ishlariga yordamlashish bolada batartiblik va tozalikni rivojlantiradi. Uy mehnati orqali tarbiyalashning boshqa jihati — iqtisodiy jihat bo‘lib, bunda bola oila budjetini tejab-tergab foydalanish haqida tasavvurlari va malakalari shakllanadi.

Uy mehnatining turlaridan biri o‘z-o‘ziga xizmat qilishdir. Bunda bolada mustaqillik, o‘z-o‘ziga xizmat qilish qobiliyati shakllanadi. Bolalarning qishloq xo‘jalik ishlarida, o‘simliklar va hayvonlarni parvarishlashda ishtirok etishi — ekologik va axloqiy tarbiyaning kuchli qurolidir.

Maktabgacha yosh davrida o‘yin yetakchi faoliyat bo‘lgani bois, u katta tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. O‘yinning tarbiyaviy funksiyalaridan biri shundan iboratki, u bolaning turli ehtiyojlarini qondirish va uning motivatsion sohasini rivojlantirish vositasi hisoblanadi¹.

O‘qish faoliyatida bola nafaqat o‘rganadi, bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallaydi, balki tarbiyalanadi ham, ya’ni ma’lum shaxs xislatlari layoqatlar, qobiliyatlar, qiziqishlar, ehtiyojlar, xarakter xislatlari ham shakllanadi. Kichik maktab yoshining oxi-

¹ HeMOB P.C. ncnxojiorna. KHnra 2. ncnxojiorna o6pa:iOBanMa. —M.: BJIA40C. 2003. C.436.

i ga kelib bolada muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikdan qochish ehtiyoji shakllanadi. Boladagi muvaffaqiyatga erishish intilishini to'g'ri tarbiyalash ko'proq kattalar va bolalarning mu-loqot uslubiga bog'liq. Boshlang'ich sinflarda o'qish davrida muvaffaqiyatsizlikdan qochadigan va aksincha muvaffaqiyatga in-tilishga harakat qiladigan o'quvchilarning onalari farzandlariga turlicha munosabatda bo'lishi aniqlandi:

1. Farzandlarining yutuqlarini baholashda individual norma-larga yoki erishilgan natijalarga emas, o'rtacha ijtimoiy normalar-ga mosligi e'tiborga olingan. Ular uchun farzandlarining yutuqlari shu yoshdagi boshqa bolalarning yutuqlariga mosligi muhim.

2. Bunday onalar farzandlarining xohishlarini kamroq e'tibor-ga olishadi, uy vazifalarini bajarish jarayonini qattiq nazorat qili-shadi, bolani mustaqil ishlashga yoki mustaqil qaror qabul qilish-ga undashmaydi. Bolaga yordam ham maslahatlar tarzida emas, balki uning faoliyatiga bevosita aralashish, bolaga o'z fikrini o'tkazish tarzida amalga oshiriladi.

3. Bunday onalar ko'pincha farzandlarida qobiliyatlar yo'q-ligidan noliydi. Nafaqat qobiliyat, balki intilishning yetishmasligi-da ham farzandlarini ayblaydilar, farzandlarining muvaffaqiyat-larini oson topshiriqlarni bajarish sifatida baholaydilar.

4. Bunday onalar farzandlarining muvaffaqiyatlari uchun kam-dan kam maqtaydi. Farzandlarining muvaffaqiyatsizligi uchun ko'proq koyib, qoniqmaslik hissini namoyon etishadi.

Bolalik va maktab yoshida shaxs tarbiyaning hal qiluvchi ta'siri ostida tarkib topadi. Tarbiya maxsus faoliyat sifatida muayyan das-turning, anglab olingan maqsadning mavjudligi bilan ta'sir ko'rsa-tishning maxsus ishlab chiqilgan va asoslab berilgan vositalari, shakllari hamda metodlarining tasodifiy yoki stixiyali ta'sirlaridan ajralib turadi. Ma'lumki, tarbiyaning eng muhim vazifasi yosh av-lodda mustahkam e'tiqod va his-tuyg'ular hamda ularga asoslan-gan ma'naviy xulq-atvorni hosil qilishdir. Bu vazifani shaxsni faol va muayyan maqsadni ko'zlagan holda, shuningdek, bolaning indi-vidual xususiyatlarini hisobga olgan taqdirdagina hal etish mumkin.

Mashhur olim Gerbart tarbiya maqsadini belgilab olishga katta ahamiyat bergan. U tarbiyaning maqsad va vazifalarini yaxshi fazilatli kishini tarkib toptirishdan iborat, deb hisoblaydi. Gerbart tarbiya ishida aqliy ta'limni tarbiyaning eng katta va asosiy vositasi deb bilib, ta'limsiz tarbiya bo'lmaydi, deb hisoblagan.

O'smirlik davri bilan bog'liq bo'lgan yorqin jihatlardan biri — bu o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan kuchli intilishdir. O'z-o'zini tarbiyalashning faol kechishi aynan shu yoshdan boshlanib, odatda u yoki bu shaklda insonning butun umri bo'yi davom etadi. O'smirlik davrida o'z-o'zini tarbiyalash haqida gap ketganda, shuni nazarda tutish lozimki, bola 12—13 yoshga yetgandan so'ng birinchi marotaba o'zining aqliy shaxsiy qobiliyatlarining imkoniyati haqida o'ylab qoladi va bularni rivojlantirish uchun ongli ravishda maqsad sari intiladi.

O'z-o'zini tarbiyalash ma'lum bir aniq rivojlanish yo'lini bosib o'tadi. Agar uni asosiy yosh pog'onalari bo'yicha qamrab oladigan bo'lsak, inson ontogenezidagi rivojlanish quyidagicha namoyon bo'ladi:

Birinchi bosqich o'z-o'zini jismoniy va irodaviy tarbiyalashdir. Bu o'smirlik davriga to'g'ri keladi. Insonning bu davrga xos bo'lgan o'z-o'zini tarbiyalashdan maqsad iroda va jismoniy imkoniyatlarni rivojlantirish bo'lib, jasurlik, chidamlilik, o'z-o'zini boshqara olish, matonat, o'z-o'ziga ishonch kabi irodaviy sifatlarni maxsus vosita va mashqlar orqali rivojlantirishdan iboratdir. Bu holat jismoniy rivojlanishga ham taalluqli bo'lib, shu sababli ko'pgina bolalar bu yoshda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni boshlaydi.

Ikkinchi bosqich — o'zini xulqiy-axloqiy rivojlantirish bo'lib, ilk o'spirinlik davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha ko'proq kuzatiladigan maqsadlar — ruhiy, ma'naviy rivojlanish, shaxsning to'g'rilik, yaxshilik, saxiylik, do'stga sodiqlik, sadoqat, muruvvat kabi oliyjanob sifatlarni o'zida mujassamlashtirishga intilishdir.

Uchinchi bosqich kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash o'spirinlik davriga

to'g'ri keladi. Inson hayotining bu davrini ishga bo'lgan ishtiyoqni o'stirish deb qarash mumkin, unda kishining kasbiy zarur bo'lgan kompleks sifatlarni rivojlantirish, qobiliyat, malaka, ko'nikma, tanlagan kasbi bo'yicha mahorat bilan ishlash uchun zarur bo'lgan xislatlari shakllanadi. O'z-o'zini kasbiy rivojlantirish maqsadi bu davrda boshlanib, ko'pgina kishilarda mustahkamlanib boradi va uning hayoti davomida asosiy maqsadlardan biri bo'lib qoladi.

To'rtinchi bosqich — ijtimoiy-dunyoviy qarashlarda o'z-o'zini tarbiyalashdir. Bu inson hayotining 40—45 yoshidan keyingi davri hisoblanadi. Bu yerda o'z-o'zini rivojlantirish vazifasi ijtimoiy holat, dunyoqarash, hayotga ma'lum nazar bilan qarash hisoblanadi.

Ba'zi hollarda beshinchi pog'ona ham uchrab turadi, bunda o'z-o'zini aktuallashtirish masalasi qo'yiladi va hal etiladi.

Besh bosqichdan ikkitasi insonni o'z-o'zini tarbiyalashdagi rivojlanishi o'smirlik va yoshlikning ilk davriga to'g'ri keladi. Bu davrlarda o'z-o'zini tarbiyalash inson xarakterini belgilab beradi.

O'smir va o'spirinlarga ularning jismoniy, ruhiy va axloqiy o'z-o'zini tarbiyalashida qanday ko'maklashish mumkin? Bu savolga quyidagicha javob bersa bo'ladi: birinchidan, o'z-o'zini tarbiyalashning birinchi belgilari paydo bo'lishi bilan ularning intilishlarini faol qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish lozim. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish, albatta, o'smirlarga jismoniy o'z-o'zini tarbiyalashda katta yordam beradi. Bolalar uchun ayniqsa, sportning o'yin tariqasida o'tkaziladigan turlari foydali, shuningdek, yengil atletika, suzish, kompleks jismoniy tarbiya mashqlari organizmning har taraflama va barkamol rivojlanishiga yordam beradi. Bunday mashqlar jarayonida shaxsning iroda kuchi ham tarbiyalanadi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullana borish, albatta shu sohada yuqori cho'qqini zabt etishni maqsad qilib olish kerak degani emas. Asosiysi ular bolaga quvonch keltirishi, sog'lig'ini mustahkamlashiga yordam berishidir. Ayniqsa, bu jismoniy tarbiya bolalar uchun foydali bo'lib, bunday o'smirlik va yoshlik davri uchun zarur bo'lgan xislatlarni shakllantirishda yordam beradi.

lan ota-onalar, o'qituvchilar yoki biror katta odam shug'ullansa samaraliroq bo'ladi. Bu narsalar albatta kelgusida malakali mutaxassis — trener rahbarligi ostida sport bilan shug'ullanish imkoniyatini yo'qqa chiqarmaydi, u holatda tarbiya vazifasi o'zga cha tus oladi, oddiy jismoniy yoki irodaviy o'z-o'zini tarbiyalash, rivojlantirishdan farq qilib, uning chegara doirasidan oshadi.

Shaxs kamol topishida o'smirlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi yaxshi maktab rolini o'taydi. Holbuki bu vo-sita yagona emas, u doim ham har tomonlama iroda kuchini o'sti-rishni ta'minlab bera olmaydi. Jismoniy tarbiya natijasida olingan ma'lum iroda kuchi intellektual va boshqa turdagi faoliyatlarda har doim ham o'zini namoyon qila olmaydi. Ayniqsa, hayotning axloqiy tomonlarida avtomatik tarzda iroda o'z kuchini ko'rsa-ta olmaydi. Bunda quyidagi qoida amal qiladi: shaxs iroda ku-chini birinchi navbatda ular to'g'ridan to'g'ri muloqot qiladigan va amaliyotda ko'rinadigan faoliyatlarda chiniqtirib borish zarur.

Manfaatdor, ezgu niyatli va aql-idrokli kattalarning o'smirlar o'z-o'zini tarbiyalashdagi ishtiroki odatda ularning o'z kuchlariga ishonishga, shu yoshdagi o'smirlar xarakteriga xos bo'lgan komplekslar va krizis holatlarini bartaraf etishlariga katta yordam be-radi. O'smirlar va o'spirinlarning o'z-o'zini tarbiyalashda katta-larni namuna ko'rsatishi katta rol o'ynaydi. Bu yoshdagi insonlar ko'pincha kattalarga, ayniqsa obro'li kishilarga taqlid qiladilar, ularning yaxshi sifatlarini o'zlarida jam qilishga intiladilar.

Yuqori sinf o'quvchilari xulq-atvori o'z-o'zini rivojlantirish muammolari bilan to'qnashganda, o'z-o'zini tarbiyalash bilan bog'liq murakkab psixologik-pedagogik vaziyat vujudga keladi. Bu jarayonda ular ko'pdan ko'p muammolar va ziddiyatlar bilan to'qnashishlariga to'g'ri keladi. Bulardan biri bu yoshdagi bola-larning romantika va sarguzashtlarga intilishidir. Hozirgi zamon sharoitida bunday intilish ko'pincha hayotning iqtisodiy omillari sababli paydo bo'lgan pragmatik yo'nalish bilan to'qnash keladi.

Agar romantik ideal shaxsdan zo'hdlik va kamtarlikni talab qilsa, pragmatik dunyoqarash, aksincha, moddiy to'kin-sochinlik-

ka va mol-dunyoga intilishga olib keladi. Romantik yoʻnalganlik yolgʻizlikka intilishni qayd etsa, pragmatik yoʻnalganlik faol mu- loqotni nazarda tutadi. Birinchisiga taqdirga tan berish, boʻysu- nish xos boʻlsa, ikkinchisiga kurashish xosdir. Romantik dunyo- qarash real hayotda sof axloqiy xulqiy tomondan duch kelishi mumkin boʻlgan ziddiyatlarni davom ettirishi mumkin. Oʻz-oʻzini tarbiyalashda oʻspirinlar uchun asosiy qiyinchilik bu ikkala yoʻna- lishning biridan voz kechib ikkinchisini tanlash. Ammo bu ikki- sini birlashtirish mumkinmi, agar mumkin boʻlsa, qanday qilib?

Oʻspirinlik davridagi bolalar bilan tarbiyachining birinchi galdagi vazifasi shundan iboratki, ularga haqiqiy hayotda roman- tik va pragmatik yoʻnalishlar va boyliklar oʻzaro uygʻunlikda ke- chishini, birining foydasi uchun boshqasidan butkul voz kechishi shart emasligini, romantika va pragmatikani yuqori ruhiy va iqtisodiy insoniy boyliklar sifatida birlashtirish, uygʻunlashtirish mumkinligini tushuntirish lozim. Masalan, yetarli darajada prag- matik, kirishuvchan, ishbilarmon va hisob-kitobli inson boʻlish bilan birga xulq-atvor bobida toʻgʻri, yaxshilik qiluvchi, insonlar- ga, shu bilan birga oʻz raqobatdoshlariga ham hamdard boʻlishi mumkin. Biznes tarixi koʻrsatishicha, bunday sifatlar haqiqatdan ham eng yaxshi ishbilarmonlarga xosdir.

Hozirgi zamon oʻspirinlarini bunday tarbiyalash uchun ro- mantik, qahramonlik, sarguzasht singari yoʻnalishdagi adabiyot- lar bilan bir qatorda ishbilarmonlik, tadbirkorlik haqidagi adabi- yotlar, ayniqsa, bu sohada taniqli buyuk insonlar hayoti yoritilgan asarlar bilan tanishtirish lozim. Pragmatik tomonga yoʻnalgan oʻspirinlarga namunali xulqiy va romantik tomonlari yoritilgan va aksincha, romantiklar foydali ishbilarmonlik taraflari aks et- gan adabiyotlar bilan koʻproq tanishishlari lozim.

Xulq-atvor va odatni shakllantirish maʼlumki, odam ongi- ning yuksak belgilaridan biri uning oʻzini anglashidir. Odamning oʻzini anglashi oʻz navbatida shaxsning muhim belgisi hisobla- nadi. Odam oʻz tevarak-atrofidagi olamni biluvchi va shu olam- ga taʼsir etuvchi subyektdir. Odamning idrok etadigan, tasav-

vur qiladigan narsalari uning uchun obyektidir. Ana shu nuqtayi nazardan olganda, odamning o'zini anglashi subyektiv ravishda o'zini «men» deb his qilishida ifodalanadi.

Odam ijtimoiy zot bo'lganligidan unga o'zligini anglash qobiliyati xosdir. Faqat ijtimoiy hayotda, o'zga kishilar bilan qiladigan har turli munosabatlarda odamning o'zini anglashi, o'zini «men» deb bilishi vujudga keladi va taraqqiy etadi. Odam o'zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o'zining o'tmishi va kelajagini anglashi, o'z huquq va burchini anglashi va nihoyat o'zining fazilat hamda kamchiliklarini anglashi o'zini anglashiga kiradi.

Tarbiya uzluksiz ravishda ta'lim bilan birgalikda avvalo oilada, keyinchalik ta'lim-tarbiya muassasalarida berib boriladi. Shaxsning qaror topishini eng muhim vazifasi o'quvchida axloq talablariga javob beradigan e'tiqod va ideallarni tarkib toptirishdir. O'quvchi shaxsining shakllanishidagi jarayonda yuzaga kelgan axloqiy e'tiqod va ideallar sistemasi, ya'ni uning ma'naviy ongi hukmronlik qiluvchi, uning ijtimoiy faolligini belgilab beruvchi omilga aylanadi.

Shaxsning ijobiy yo'nalishini tarkib toptirish uchun maktab o'quvchilarini barcha vaziyat va holatlarda to'g'ri yo'l tutishini istashi hamda to'g'ri yo'ldan borishi uchun uning nima qilishini bilishi, o'zi ham to'g'ri xulq-atvorli bo'lishni mashq qilishi zarur.

O'quvchilarning ongiga singdirilgan qoidalarni yaxshilab asoslab berilishi, isbotlangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu hamma narsani tushunib olishga va buning asoslanganligiga ishonch hosil qilishga, oqilona isbotlarga rozi bo'lishga qodir bo'lgan o'smirlar va katta yoshdagi o'quvchilar uchun juda muhimdir.

O'quvchilarda maksimal faollikni yuzaga keltirish yoki jonli ravishda fikr almashish istagini uyg'otish, ularning fikrini avj oldirish va o'zlarini axloq masalalari ustida o'ylab ko'rishga majbur qilish zarur. O'quvchilarga tayyor haqiqatni zo'rlab qabul qildirish yaramaydi, axloq normalari haqidagi xulosalarni chiqartirish ularning faol ishtirokida amalga oshirilishi lozim. Buning

uchun suhbat jarayonida muhokamaga qo'yilishi kerak bo'lgan masalalarni oldindan tayyorlab qo'yish tavsiya etiladi.

O'quvchilarda chuqur va ta'sirchan emotsiyalarni uyg'otishga intilish lozim. Bunda o'qituvchi suhbatni befarq, shavq va zavqsiz emas, balki emotsional tarzda jonli qilib o'tkazilgandagina erishish mumkin. O'qituvchining ehtirosli e'tiqodi o'quvchilarga o'tishini unutmazlik darkor.

Yuqorida aytilgan fikrlardan o'qituvchilar va ota-onalar o'zlariga hamda o'z xulq-atvorlariga nisbatan juda qattiq talablar qo'yishi, o'nlab bolalarning sinovchan ko'zlari, ularning kuzatib turganliklarini hech qachon unutmazliklari kerak.

Konfutsiy: «Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi», — degan edi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida ham qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ma'rifat xalqimiz, millatimiz qonidadir. An'anaviy sharqona qarashga ko'ra, ma'rifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma'naviyat va go'zal axloq degani hamdir.

Bir ijtimoiy jamiyatning ikkinchisiga almashishi, shuningdek, milliy mustaqillik va uning ne'matlari, respublikamiz fuqarolarida tub o'zgarishlarni vujudga keltirmoqda. Milliy tuyg'u, qi-yofa, xarakter, ta'b, kuy, raqs, ma'naviyat, qadriyat hamda ruhiyat ta'siri ostida o'zining tub mohiyatini aks ettira boshladi. O'tmishning boy merosi, uning an'analari milliy istiqlol tufayli o'z egalariga qaytarib berildi. Fuqarolarning ijtimoiy ongi asta-sekin o'zgarib borishi natijasida etnopsixologik xususiyatlar tiklana boshladi, milliy, umumbashariylik xislatlari o'rtasida adolatlilik, teng huquqlilik aloqalari o'rnatilmoqda.

XXI asrda shaxs shakllanishida, uning tarbiyalanganlik darajasini ortishida dinning, xususan «Hadis» ilmining ahamiyati kattadir. Shaxslararo munosabatda tenglik, g'amxo'rlik, samimiylik, o'zaro yordam, simpatiya, antipatiya, hamdardlik, sevgi-mu-

habbat singari milliy xususiyatlarni tarkib toptirishda hadislar-ning roli yanada ortadi.

O‘zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni tarbiyaning kundalik rejasi, bolalarga ta’sir o‘tkazish vositasini tanlash va undan unumli foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega, chunki uning aso-sida xalq an’analari yotadi.

Yosh avlod tarbiyasida milliy ruhiyat, umuminsoniy, xalqchil milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar yetakchi o‘rin tutmog‘i lozim (tarbiyada etnopsixologik va etnopedagogik munosabat). Bular orqali yoshlarda quyidagi fazilatlarni tarbiyalash lozim:

-(a) yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirish;	J
■(b) xayrixohlik, odamlarga hurmat, mehr-shafqat;)
(d) kattalarni hurmat qilish, e‘zozlash;	J
(e) muloyimlik;)
(f) ishbilarmonlik, mohirlik, ishchanlik, iqtisodiy tafakkur;	J
(g) kichik yoshdan mehnatsevarlik;	J
(h) jismoniy baquvvatlik;)
(i) axloq-odoblilik;)
(j) oilaparvarlik;	J
(k) ayollarga hurmat;)
(l) o‘zaro hamkorlikka intiluvchanlik.	J

Ma’lumki, yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shug‘ullanadilar. Tarbiya jarayonida barcha ishtirokchilarning ba-hamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina, o‘zining ijobiy nati-jalarini berishi mumkin.

22.3. Shaxs shakllanishida oilaning ta'siri

Shaxs tarbiyasida muhim rol o'ynaydigan o'ziga xos mikroja-inoalardan biri oiladir. Ishonch va qo'rquv, xotirjamlik va xavotirlanish, muloqotdagi samimiylik va kirishimlilik yoki aksincha, kirisha olmaslik va sovuqlik — bu xislatlarning barini shaxs oilada egallaydi. Bu xislatlar bola maktabga chiqquncha shakllanadi va bolaning rivojlanishiga uzoq vaqt ta'sir etadi. Xavotirlanuvchan onalarda xavotirlanuvchan bolalar shakllanadi.

Rus psixologi R.S.Nemov oila a'zolari orasidagi munosabatlarni to'rtga ajratadi. Ular psixofiziologik, psixologik, ijtimoiy va madaniy¹. Psixofiziologik munosabatlarga — biologik qarindoshlik va jinsiy munosabatlar kiradi. Psixologik munosabatlar — ochiqlik, ishonch, bir-biri to'g'risida g'amxo'rlik qilish, o'zaro axloqiy va hissiy qo'llab-quvvatlash. Ijtimoiy munosabatlar, rollarning taqsimlanishi, oilaning moddiy tomondan bog'liqligi, shuningdek, mavqeli munosabatlarni — avtoritet, rahbar, bo'ysunishni o'z ichiga oladi. Madaniy munosabatlar — urf-odat va an'analar bilan bog'liq oila ichidagi bog'lanish va munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu murakkab munosabatlar tizimi farzandlarning oiladagi tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan oiladagi ijtimoiy-psixologik omillarga to'xtalib o'tamiz. Birgalikdagi hayot turmush o'rtoqlardan doimiy kelishuvga tayyorlikni talab etadi, bunda turmush o'rtog'ining qiziqishlari va ehtiyojlari bilan hisoblashish, bir-birini hurmat qilish, bir-biriga ishonish, bir-birini tushunishga harakat qilish lozim bo'ladi.

Bolani tarbiyalashga ta'sir etuvchi salbiy omillar qatoriga oila ichidagi munosabatlar odobining er-xotinlar tomonidan doimiy buzilishi, o'zaro ishonch, e'tibor, g'amxo'rlik, hurmat, psixologik qo'llab-quvvatlash va qo'llab-quvvatlashning mavjud emasligini ko'rsatish mumkin. Ko'pincha bunday salbiy anomaliyalarga er,

¹ HeMOB P.C. HcMxoaornH. KHnra 2. Hcnxojionm oOpaaBaHna. —M.: BJIA4OC. 2003. C.403.

xotin, beka, oila boshlig'i kabi oilaviy rollarning bir xil tushunilmasligi, er-xotinlarning bir-biriga yuqori talablar qo'yishi sabab bo'lishi mumkin.

Bola tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni amalda bartaraf etish uchun er-xotin orasidagi o'zaro munosabatlar quyidagi asosiy tamoyillar asosida qurilishi lozim:

1. Turmush o'rtog'ingizni o'zingizga yoqadigan qilib qayta o'zgartirish vazifasini qo'ymang. Uni shaxs sifatida tushunishga, voqelikka uning ko'zi bilan qarashga, odatiy bo'lmagan, o'rganilmagan, lekin bola tarbiyasida muhim bo'lmagan jihatlar bo'yicha aqlli kelishuvni amalga oshiring.

2. Fikrlarda, qarashlarda, ayniqsa tarbiya masalalari bo'yicha umumiylikni barcha iloji bor usullar bilan mustahkamlashga harakat qiling.

3. Oila qurgan insonlar shaxs sifatida shakllanib bo'lganligi uchun qarashlarda farqlar yuzaga kelganda nizolashishgacha olib bormaslik lozim.

4. O'z xatolaringizni ochiq tan olishga, haqligingizdan shubhalanishga uyalming.

5. Turmush o'rtog'ingizga tanqidiy munosabatda bo'lishdan oldin, o'zingizga ham tanqidiy munosabatda bo'ling. Buning uchun har doim ko'p asoslar topilishi mumkin.

6. Turmush o'rtog'ingizda ayrim kamchiliklar, masalan, salbiy xarakter xislatlari paydo bo'lsa, normal holat deb qabul qilish lozim. Barchada kamchilik bor, beayb parvardigor.

Oilada tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun ota-onalar turli tarbiya vositalaridan fodalanishadi: bolani rag'batlantirishadi, jazolashadi, uning uchun namuna bo'lishga harakat qilishadi. Do'stona munosabatda bildirilgan maqtov, befarq va sovuq ota-onalardan olingan maqtovga qaraganda ta'sirliroqdir. Jazolash va taqiqlashga nisbatan maqtovdan aql bilan foydalanish hisobiga bolani shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir qilish mumkin.

Bolani boshqa yo'l bilan amalda o'zgartirib bo'lmaganida jazolashdan ham foydalanish mumkin. Agar jazolash uchun ehti-

yoj tug'lsa, uning tarbiyaviy ta'sirini oshirish uchun iloji bori-cha qilgan xatti-harakati uchun jazolashga intilish kerak. Jazolash adolatli, lekin juda shafqatsiz bo'lmasligi lozim. Juda qattiq jazolash bolada qo'rquv paydo qilishi mumkin. Bolaning qilgan xatosi unga yaxshilab tushuntirilsa, jazolash samarali bo'ladi. Ko'proq jazolanadigan, baqiriladigan bolalar, ota-onadan uzoqlashadi, emotsional befarq bo'lib qoladi hamda yuqori agressivlikni namoyon etadi.

22.4. Shaxs tarbiyasida madaniyat

Yoshlarni hamjihat jamoa qilib jipslashtirishda avlod-ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz meros qilib qoldirgan bilimlarni egallash, san'atimizning, madaniyatimizning sirlarini o'rganish, o'zbek xalqining ajoyib an'analaridan foydalanish hamda ularni yoshlar ongiga singdirish katta ahamiyatga egadir.

O'smirlik davridan boshlab shaxs shakllanishiga ommaviy axborot vositalari va madaniyat ko'proq ta'sir ko'rsata boshlaydi. O'smirlik va ilk o'spirinlik davrida oila va maktab ta'siriga nisbatan ommaviy axborot vositalarining ta'sirini boshqarish qiyin. Lekin shunga qaramay tarbiyaviy ta'sirni maqsadli boshqarish uchun ma'lum imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlar ommaviy axborot vositalaridagi axborotlarni tanlashga yordamlashish, radio va teleko'rsatuvlar mazmuni va ularni sharhlash bilan bog'liqdir. O'smirlik davridan boshlab kattalar uchun mo'ljallangan gazeta va jurnallarga qiziq boshalaydi. Agar bu jarayon boshqarilmasa, doimiy emaslik, tasodifiylik ta'sirida o'qishga qiziqish so'nishi mumkin.

Bolalarga ta'sir etadigan ommaviy axborot vositalarini boshqarish haqida gapirganda zamonaviy axborot va madaniyat manbalari bilan munosabatga kirishishni sun'iy cheklash haqida so'z ketadi. Bunda bolalarda ijtimoiy qarashlar va madaniyat, ma'lum estetik didni shakllantirish lozim. Bolaning atrofidagi kattalar, ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari unga katta yordam ko'rsatishlari mumkin. Ularning har biri har kuni nimadir o'qiydi, eshitadi, ko'radi, o'smiringa nimadir o'qishni tavsiya etishi mumkin.

Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy voqealarni oilada va maktabda doimiy va o'zaro bo'lishi va buni kattalar bolalarga tushuntirishi zarur. Bu doimiylik va tizimlilik bilan nafaqat ota-onalar va o'qituvchilar, balki bolalarning o'zi ham shug'ullanishi lozim. Shundagina bolalarda ommaviy axborot vositalari va madaniyatga murojaat qilish ehtiyoji paydo bo'ladi, tushunishga tayyorlik (ustanovka), bilish, eshitganini, o'qiganini, ko'rganini eslab qolish, ma'lumotlarni idrok qilishda tanlovchanlik didi shakllanadi. Ota-onalar va o'qituvchilar bolaga nimanidir o'qishni tavsiya qilganida ommaviy axborot vositalarining shaxs rivojlanishiga tarbiyaviy ta'sirini doimo yodda tutish lozim.

Ommaviy madaniyat va moda ham bolalarga chuqur tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadigandek tuyuladi. Lekin bunday qiziqishlar vaqtinchalik va yuzaki bo'lib, vaqt o'tishi bilan o'tib ketadi. Lekin bunda bolalarning vaqtinchalik qiziqishlari emas, balki ularning uzoq vaqt ta'sir etuvchi oqibatlaridan xavotirlanish kerak, ya'ni o'smir va o'spirinlarni shaxsiy rivojlanishning jiddiy manbalaridan uzoq vaqt chalg'itishidan xavotirlanish zarur.

Ommaviy madaniyat va modaning vaqtinchaligi va o'tkinchiligidan ular o'smir va o'spirin shaxsi shakllanishiga umuman ta'sir qilmaydi, degan fikrdan yiroqmiz. Bunday ta'sir albatta mavjud, lekin bu ta'sir shunday qiziqishlari mavjud tengdoshlari bilan muloqot orqali amalga oshadi. Ommaviy madaniyatning bir turiga qiziqadigan, bir narsani moda deb taqlid qiladigan insonlarda umumiy qarashlar paydo bo'ladi. Bu esa o'smir va o'spirinlarda do'st tanlashda, muloqot sherigini tanlashda asos bo'ladi. O'smir va o'spirinlarda bir xil didning shakllanishi, tengdoshlarida ham bir xil shaxsiy muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Bu esa muloqotdagi tanlovchanlikni amalga oshiradi hamda o'z navbatida ma'lum insonlar guruhi bilan chegaralangan uchun tarbiyani ham yo'naltiradi.

Tarbiya metodlari va vositalarining psixologik mazmuni

Tarbiya vositalari sifatida tashkil etilgan va tashkil etilmagan ta'sirlar tushunilib, ular yordamida bir guruh insonlar —

tarbiyachilar boshqa guruh odamlariga — tarbiyalanuvchilarga inʼlum psixologik sifatlar va xulq-atvor hosil qilish maqsadida (aʼsir oʻtkazadilar. Aniq qilib aytganda, shaxsga psixologik taʼsir vositasida tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchining shaxsiyatini oʻzgartirish uchun qoʻllanilgan harakatlar tushuniladi. Ular qatoriga taʼlimning barcha turlarida ishontirish, majburlash, ijtimoiy talablar, tashqi taʼsirlarni va inson harakatlari shaklini oʻzgartirish bilan bogʻliq boʻlgan holatlar kiradi. Tarbiya vositalari sifatida oʻziga xos oʻrinni kompleks, global va har taraflama oʻtkaziladigan taʼsirlar egallaydi. Ular qatoriga, masalan, psixoterapiyani, ijtimoiy-psixologik treningni va boshqa psixokorreksiya turlarini koʻrsatish mumkin.

Tarbiya vositasi boʻlib, tarbiyachining shaxsiy namuna boʻlishi, atrofdagi odamlarning koʻrsatayotgan xulq-atvori, xatti-harakati, pedagogik, badiiy, ommaviy va boshqa adabiyotlarda keltirilgan va yuqori baholangan lavhalar ham hisoblanadi. Insonga taʼsir etib, uning psixologiyasi va xulq-atvorini oʻzgartirishi mumkin boʻlgan har qanday narsa tarbiyaviy taʼsir koʻrsata oladi.

Tarbiya vositalarini odamga taʼsir etish xarakteriga koʻra ikki guruhga: bevosita va bilvosita taʼsirlarga ajratish mumkin. Bulardan birinchisi bir odamning boshqasiga bevosita taʼsiri, yaʼni bir-biri bilan toʻgʻridan toʻgʻri muloqot qilishi hisoblansa, ikkinchisi, qandaydir vositalar orqali oʻtkaziladigan taʼsir, yaʼni bunda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi oʻzaro aloqa qilmaydi (masalan, kitob oʻqish va b.).

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchining anglashi nuqtayi nazari-dan kelib chiqilsa, tarbiya jarayonida uning vositalarini aniq va mavhum turlarga boʻlish mumkin.

Anglangan tarbiya vositasi qoʻllangan taqdirda tarbiyachi anglagan holda oʻz oldiga aniq, anglangan maqsad qoʻyadi, tarbiyalanuvchi u haqida biladi va uni qabul qiladi. Agar mavhum vositalar taʼsiri qoʻllanilganda sinovdagi tarbiya taʼsiri anglanmagan holda kechadi, tarbiyachi anglab nazorat olib bora olmaydi hamda oldindan oʻylangan yanglish taʼsir kelib chiqadi.

Tarbiya ta'siri qanday tarbiya obyektiga qaratilganligiga ko'ra uning vositalari quyidagicha bo'linadi: emotsional, kognitiv va xulqiy. Tajribada ko'proq ular kompleks tarzda uchraydi.

Har bir ko'rsatilgan tarbiya vositalari o'zining kuchli va o'jiz tomonlariga ega. Masalan, bir odamning ikkinchi bir odamga tarbiyaviy ta'sirining o'ziga xosligi va yutuqlari shundan iboratki, bunda

tarbiyaning quyidagi turlari ishlatiladi: uqtirish, taqlid qilish va maj-

burlash, o'z navbatida bu usullar asosida ta'limning effektiv mexanizmi yotadi. Bu usul qo'llanilganda tarbiyachi so'z vositalaridan foydalanmasligi ham mumkin, tarbiyalanuvchiga to'g'ri va kerakli xulq-atvorni namuna sifatida ko'rsatishi va o'rnatish bo'lishi lozim.

Tarbiyachi doimo o'zi istaganidek, barcha narsani so'z bilan ifodalab bera olmaydi. Shuning uchun ham to'g'ridan to'g'ri tarbiya ta'siri tarbiya imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, bu vosita bola rivojlanishining ilk bosqichida mumkin bo'lgan yagona usuldir, holbuki bola hali unga qarata aytilgan so'zlarni tushunmaydi. Bu holat bolalarning yoshidan qat'i nazar katta ahamiyatga egadir. Pedagogikada bu usul shaxsiy namuna deb nomlanadi. Ushbu tarbiya vositasining kamchiligi shaxsiy va vaqt bo'yicha qo'llanilishining chegaralanganligidir.

Tarbiyalovchi tarbiyalanuvchiga faqat o'zi ega bo'lgan bilimlarni bera olishi mumkin. Bundan tashqari tarbiyachi har doim ham tarbiyalanuvchi bilan muloqotda bo'la olmaydi.

To'g'ridan to'g'ri bo'lmagan yoki bilvosita tarbiya vositasida kitob orqali, ommaviy axborot vositalari va kodlashgan tizim orqali bir odamdan boshqa odamga axborot uzatiladi. Bunday axborotlarni saqlash va bir necha marotaba qo'llash mumkin. Bunday inson takror va takror material manbayiga murojaat eta oladi. Ammo bunday tarbiya odatda insonga xos bo'lgan jonli hayotiy kuchlardan mahrumdir. Bundan tashqari ushbu vosita ta'siri yosh bo'yicha ham chegaralangan. Ushbu usul so'zlab berilgan mavzuning axloqiy mazmunini anglatadigan bo'lishi lozim.

Quyidagi tarbiyaviy ta'sirning vositalari shundan iboratki, u

rish mumkin bo'lgan natijalar beradi. Bilvosita tarbiya jarayonida ko'rilgan, kuzatilgan kamchiliklar bunda ham mavjuddir. Mavhum anglanmagan tarbiya vositasi anglangan tarbiya vositalaridan ko'ra ko'proq uchraydi, lekin uning yutuqlari va kamchiliklarini amaliy jihatdan baholash qiyin. Bunga sabab uni ongli ravishda nazorat etib bo'lmastir.

Kognitiv tarbiya ta'siri kishining bilim tizimlariga yo'naltirilgan bo'lib, uni o'zgartirish, mukammallashtirishni maqsad qilib qo'yadi. Hozirgi zamon olimlarining fikriga ko'ra, insonning dunyo haqidagi bilimlari uni shaxs sifatida namoyon etib qolmay, balki uning xulq-atvoriga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya ta'sirining bu sohadagi yutuqlari sezilarli darajada ortib, hozirgi davrda bu soha asosiy o'rinni egallab bormoqda.

Emotsional tarbiya ta'siri tarbiyalanuvchida ma'lum affektiv holatni vujudga keltirishga va uni saqlab turishga mo'ljallangan bo'lib, ularning psixologik ta'sirlarni qabul qilishini yengillashtiradi yoki qiyinlashtiradi.

Ijoby emotsiyalar tarbiyalanuvchini tarbiya ta'siri subyektiga nisbatan ochiq nazorat hosil qiladi. Salbiy emotsiyalar esa aksincha, tarbiyalanuvchiga ko'rsatilayotgan tarbiya ta'sirini kamaytiradi.

Xulqiy-axloqiy tarbiya ta'siri bevosita odamning xulq-atvori, uning faoliyati va o'zini boshqara olishiga yo'naltirilgan. Uni turli ta'sirlar vositasida ma'lum bir yo'nalishda yo'naltirilsa, ular bilvosita shaxs holatiga, uning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatda tarbiyalanuvchi avval qandaydir ma'lum xatti-harakatni amalga oshiradi, so'ngra esa shu yo'lning foydali yoki zararliligini tushunadi. Berilgan ta'sir avval shaxsning ichki dunyosida o'zgarishni vujudga keltirsa, bu o'zgarish keyin uning xulq-atvorida namoyon bo'ladi.

Bilim, emotsiya va xulq-atvor o'zaro bog'liq ekan, ularning har biri orqali shaxsga ta'sir ko'rsatish mumkin. Bu holat tarbiyachining imkoniyatlari cheklanganda biror-bir tanlangan tarbiya ta'siriga urg'u berishda hamda kerakli natijaga erishishda yor-

dam beradi. Ammo mukammal tarbiyaviy ta'sirga ular birgalikda shaxsga har taraflama ta'sir ettirilgandagina erishiladi.

So'nggi paytlarda shaxsga psixoterapevtik va psixokorreksion ta'sir vositalari va uslublarini qo'llash keng tarqalmoqda. Odatda, psixoterapiya pedagogik psixologiyaning bir bo'limi emas, balki to'la psixogen tabiatga ega bo'lgan, insonning psixologik holatiga bog'liq kasalliklarni davolash yoki ularni oldini olish vositasi deb tushunilgan. Hozirgi paytda dunyoning qator mamlakatlari psixoterapiya ta'siri tibbiyot amaliyoti chegarasidan chiqib, psixokorreksion va psixoprofilaktik maqsadlar sohasida shaxsni tarbiyalashda, uni real ijtimoiy sharoitga moslashtirishda keng qo'llanilmoqda. Bunday uslublar qatoriga ijtimoiy psixologik treningni kiritish mumkin. U o'zida ko'pdan ko'p metodlarni jamlagan bo'lib, ularning ko'p qismi insondagi hayotiy muammolarni va ta'sirli voqealarni ziddiyatlarsiz, atrofdagi odamlar bilan qulay munosabatlar o'rnatgan holda hal qilishga o'rgatadi.

Psixokorreksion uslublarni qo'llash deb, psixolog-psixoterapevt va mijoz muloqotiga aytiladi. Bunday muloqot vaqtida mijoz mutaxassisga o'z muammolarini so'zlab beradi, psixolog yoki psixoterapevt ularni mushohada qilib, o'z vositalaridan foydalanib mijozga ushbu muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Hozirgi zamon tibbiyotida va tibbiyot psixologiyasida psixoterapiyaning ancha keng tarqalgan shakli psixoanalizdir. U Z. Freyd nazariyasiga asoslangan bo'lib, uning negizida inson shaxsi rivojlanish shartlari, turli muammolarning kelib chiqishi va ularni yechish usullari yotadi. Psixoterapevtning vazifasi shundan iboratki, u psixoanalitik uslubdan foydalanib, mijozning anglab yetilmagan mayllarini uning ongiga yetkazish orqali ular bilan bog'liq bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etishga ko'maklashadi. Bu oqim namoyandalarining ta'kidlashicha, faqatgina anglanmagan motiv va ichki ziddiyatlariga anglab yetiladi, natijada ularni aqlan idrok etish orqali muammolarni osongina hal qilish mumkin. Psixoanalitik tomonidan mijozdagi anglab yetilmagan ziddiyatlarni aniqlashda erkin assotsiatsiya metodi ham qo'llaniladi.

Bu metodning mohiyati shundan iboratki, psixolog o'zi egalagan barcha usullardan foydalanib, mijozni jo'shqin gapirishga undaydi, bu o'zini xavotirga solgan axborot tariqasida bo'ladi (odatda bu gipnoz holatida qilinadi yoki mijozning o'ta kirishuvchan holatida o'tkaziladi).

Shaxsga psixoterapevtik ta'sir vositalari va uslublari juda ham ko'p, ular bilan tanishish maxsus psixologiya kursining vazifasidir.

Shaxs odam ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar sistemasining ta'siri ostida va unda o'zi bajaradigan faoliyat ta'siri ostida tarkib topadi. Ijtimoiy muhitning, jamoaning shaxsga ta'siri to'g'risida gapirilar ekan, ijtimoiy psixologiya ishlab chiqayotgan referent guruh tushunchasiga asoslanish zarur. Gap shundaki, hamma odamlar ham, hatto eng yaqin tevarak-atrofdagi odamlar ham maktab o'quvchisining shaxsiga ta'sir qilavermaydi, ko'plarning fikrlariga u befarq qaraydi. Har bir odam uchun bo'lganidek, har bir maktab o'quvchisi uchun ham ayrim guruhlar (ba'zan bunday guruh bir kishidan tarkib topgan bo'lishi ham mumkin) mavjud bo'ladi, u shaxs sifatida bu guruhlarning fikrlari, o'zi uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan mulohazalari bilan hisoblashadi. Oila, sinf, sinfdagi ayrim o'quvchilar, ba'zi o'qituvchilar, hovlidagi ulfatlar, yaqin do'st va hokazolar muayyan maktab o'quvchisi uchun ana shunday referent guruhlar bo'lishi mumkin. Maktab o'quvchisining tez-tez uchrab turadigan tarbiyaviy ta'sirlariga befarq yoki hatto salbiy munosabatda bo'lish hollariga ko'pincha o'quvchining tarbiyachiga ma'lum bo'lmagan referent guruh pozitsiyasida turishi sabab bo'ladi. A.V.Petrovskiyning oqilona fikriga ko'ra, agar tarbiyachi, maktab o'quvchisiga hech narsa va hech kim ta'sir qila olmaydi, deb da'vo qiladigan bo'lsa, bu narsa odatda tarbiyachining maktab o'quvchisining axloqiy pozitsiyasini belgilab beradigan ta'sirli referent guruhlardan mutlaqo xabarsiz ekanligini bildiradi.

Bolalik va maktab yoshida shaxs tarbiyaning hal qiluvchi ta'siri ostida tarkib topadi. Tarbiya maxsus faoliyat sifatida muayyan dasturning, anglab olingan maqsadning mavjudligi bilan ta'sir

ko'rsatishning maxsus ishlab chiqilgan va asoslab berilgan vositalari, shakllari hamda metodlarining qo'llanilishi bilan tasodifiy va stixiyali ta'sirlardan ajralib turadi.

Maktab o'quvchisining muayyan qoidalar va normalarni bilishi ma'naviy xulq-atvorning zarur shartidir. Biroq axloq normalarini shu tariqa bilish o'z-o'zidan axloqiy xulq-atvorni tegishli darajaga erishtirmaydi. Buning ustiga, bilimlarni ma'naviy xulq-atvorni amaliyotsiz o'zlashtirib olish ma'naviy bilimlar bilan ma'naviy xulq-atvor o'rtasidagi ajralishda ifodalanadigan «axloqiy rasmiyatchilik» deb ataluvchi holatning yuzaga kelishiga olib boradi. Shuning uchun maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyalanuvchisi, maktab o'quvchisining hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ijodiy axloqiy, ijtimoiy xulq-atvor tajribasi uning shaxsini tarkib toptirishda asosiy narsa bo'lishi kerak. O'quvchida bu narsa tarbiyachi rahbarligida hosil bo'ladi. Bu narsa o'quvchilarda tabiiy, axloqiy va g'oyaviy-siyosiy bilimlar majmuasini (bu bilimlar muayyan darajada yetakchi rol o'ynagan paytda) tarkib toptirish bilan yuz berishi kerak.

Psixologlar (avvalo L.I.Bojovich va uning xodimlari) bola va maktab o'quvchisining shaxsini tarkib toptirishda uning faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, uning to'g'ri xulq-atvor tajribasini orttirishigina emas, balki uning xulq-atvorining (ma'lum harakatga undovchi fikrlari, his-tuyg'ulari, maqsadlari sistemasini) to'g'ri motivlarini tarbiyalash ham hal qiluvchi narsa ekanligini ko'rsatib beradilar.

Psixologlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, birgina faoliyatning o'zida (bu faoliyatning bola uchun nima sababdan yuz berishiga ham qarab) shaxsning har xil (va hatto bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan) sifatlari tarkib topishi mumkin. Masalan, biz tarbiyalanuvchilarni boshqalarni ochiqdan ochiq va dadil tanqid qilishga o'rgatamiz. Ana shunday qilish bilan bolada jasurlik, sof dillik, tanqidiy ko'z bilan qarash fazilatlarini tarkib topadi, deb hisoblaydilar. Ammo biz aytilganlarni hisobga olmasak, hami-sha ham o'zimiz ko'zlagan maqsadga erishavermaymiz. Chunki xulq-atvorning ana shu to'g'ri shakli negizida maktab o'quvchisi

amal qiladigan motivlar yotadi. Bu xulq-atvor shaxsan o'quvchi ning o'zi uchun qanday ma'noga ega bo'lishiga qarab, unda har xil sifatlar tarkib topishi mumkin. Agar o'quvchi o'z o'rtog'ini qat'iY motivlar asosida tanqid qiladigan bo'lsa, bu tanqid uning o'rtog'id^a xarakterning prinsipiellik, qafiylik, halollik singari sifatlarifl¹ tarkib toptirishga yordam beradi; bordi-yu, o'z aybini o'rtog'ining bo'yniga qo'yish istagi bilan tanqid qiladigan bo'lsa, bu xudbifl¹ lik, individualizmning tarkib topishiga yordam beradi. Agar shaX¹ siy g'araz bilan tanqid qilinadigan bo'lsa, unda shu asosda qasoskorlik, makkorlik, insofsizlik xislatlari tarkib topadi. Agar bundaY tanqid qilishga, nihoyat, o'qituvchidan qo'rqish va unga yoqish istagi yoki mag'rurlik istagi sabab bo'lsa, unda laganbardorlik, ikk> yuzlamachilik singari xislatlar tarkib topishi mumkin. Binobarin, to'g'ri xulq-atvor tajribasi bu xatti-harakat muayyan motivlar asosida amalga oshirilgan vaqtdagina ko'zlangan maqsadga olib kel&" di. Shuning uchun xulq-atvorning to'g'ri motivlarini tajribada ta^r" biyalash va mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab o'quvchilarida muayyan vaziyatlarda tarbiyaviy ta'sirlar vositasid^a yuzaga keladigan ijobiy motivlar ularning tajribasida mustahkah¹" lanishi va barcha boshlang'ich vaziyatlarga tarqalishi kerak.

Boshqacha qilib aytganda, shaxsning har bir sifat struktut^{an} sig'a, binobarin, maktab o'quvchisining tegishli xatti-harakatig^a ijobiy munosabatda bo'lishiga imkon beradigan motiv, ikkinchtⁿ dan, xatti-harakatlarning mustahkamlangan usuli kiradi. Shunday qilib, shaxsning xislati olimlar fikriga ko'ra, xatti-harak^{at} motivlari va bu motivlar tegishli shakllarining o'ziga xos birik¹ masidir. Xatti-harakat barqaror, hukmron (asosiy) motivlarniⁿ§ sistemasini ba'zi psixologlar shaxsning yo'nalishi deb ta'rifl^a ydilar. M.S.Neymark maktab o'quvchilarining yo'nalishini taddN qildi va bu yo'nalishning uchta asosiy turini — jamoa, shaX^{sl}V va ishchanlik yo'nalishlarini (ishga, faoliyat jarayoniga bo'lg^{an} yo'nalishni, ijodiy faoliyatga qiziqishni) alohida ajratib ko'rs^{atn} di. Yo'nalishning jamoa, shaxsiy turlari bir xil, to'g'ri xarak^{te}n ristikasiga ega bo'lmasligi kerak. Haqiqiy jamoa yo'nalishid^{an}

tashqari «xudbinlik guruhi» deb atalgan yoʻnalish - boshqa jamoalarning qiziqishlarini mutlaqo mensimagan holda faqat bitta jamoaning (guruh, sinf) qiziqishlarinigina eʼtirof etadigan yoʻnalish ham bor. Shaxsiy yoʻnalish shaxsiy yutuqlarga erishishga qaratilgan yoʻnalish sifatida hamma vaqt ham jamoa yoʻnalishiga qarama-qarshi boʻlavermaydi.

Psixologlar tarbiyaviy ish metodlarining psixologik asoslarini ishlab chiqayotganlarida, tarbiyaning har qanday metodiga abstrakt tarzda qarab va uni baholab boʻlmaydi, degan fikrga asoslanganlar. Bu metodlar qoʻllanilayotganda, birinchidan, tarbiyalanayotgan oʻquvchining yosh va individual xususiyatlarini, ikkinchidan, shu oʻquvchi aʼzo boʻlgan bolalar jamoasining xususiyatlarini, nihoyat, tarbiyaviy taʼsir koʻrsatiladigan muayyan konkret sharoitlarni hisobga olish zarur. Shaxsning ijobiy yoʻnalishini tarkib top-tirish uchun, maktab oʻquvchisining barcha vaziyat va holatlarida toʻgʻri yoʻl tutishi uchun uning nima qilishni bilishi, oʻzi hurmat qiladigan kishilarning nima qilayotganlarini koʻrishi va oʻzi ham toʻgʻri xulq-atvorli boʻlishni mashq qilishi zarur.

Bilimlar, axloqiy tasavvurlar va tushunchalarning muayyan sistemasini egallamasdan turib haqiqiy eʼtiqodlarni tarkib toptirib boʻlmaydi. Oʻz-oʻzidan bu bilimlar axloqiy xulq-atvorni belgilamasdan turib, unga muhim taʼsir koʻrsata olmaydi. Psixologik tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, axloqiy tushunchalarni oʻzlashtirish jarayoni juda murakkab jarayon boʻlib, unga maxsus rahbarlik qilishni talab etadi. Oʻquvchilarning tasodifiy hol-lar, koʻchadagilarning bemaʼni taʼsiri, kattalarning yaramas xatti-harakatlari taʼsirida tarkib topadigan axloqiy tushunchalari tarbiyachilar va jamoa tomonidan toʻgʻri gʻoyaviy rahbarlik qilin-masa, xato, notoʻgʻri, buzuc tushunchalarga aylanib qolishi mum-kin. Baʼzan oʻquvchi turmushdagi biror fakt yoki voqeani, adabiy asarlardagi mazmunni, kinokartinalarni oʻzi mustaqil tushuna olmay, notoʻgʻri xulosalarga kelib qoladi. Juda ogʻir sharoitlar-da oʻquvchida xato fikrlargina emas, balki maʼnaviy tamoyillar va ustanovkalar ruhiga koʻra bizga yot boʻlgan xatolar ham yuza-

ga kelishi mumkin. Ko'pchilik noto'g'ri xatti-harakatlarning yuz berishiga ana shular sabab bo'ladi.

Axloqiy ongning tarkib toptirishning eng muhim yo'li o'quvchilarning o'zlarida to'g'ri xulq-atvorni yuzaga keltirish bilan axloqiy tajribani boyitish va umumlashtirish yo'lidir, albatta. O'quvchilardagi axloqiy bilimning turli-tuman shakllari, ularning ongi va his-tuyg'ulariga jonli, yorqin, otashin so'zning (jamoalarda uyushtiriladigan suhbatlar, ma'ruzalar, munozaralar) ta'siri bu ishni ancha to'ldirishi mumkin.

Birinchi vazifa — o'quvchida o'zida shaxsning ijobiy xislatlarini taraqqiy ettirishga va o'z xulq-atvoridagi yomon tomonlardan xalos bodishga intilish istagini uyg'otish.

Ikkinchi vazifa — o'quvchiga o'z shaxsiga tanqidiy munosabatda bo'lishda, o'z xulq-atvoridagi xususiyatlarni diqqat bilan va odilona tushunib olishda, o'z kamchiliklarini yaqqol ko'rishda, o'z nuqsonlarini fahmlab olishda yordamlashish vazifasi kelib chiqadi.

Uchinchi vazifa — o'qituvchi tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalash dasturini tuzishda, shaxs xulq-atvori xislatlarining qaysi xususiyatlarini (masalan, o'zini ushlay bilish, qafiylik va shu singarilarni) taraqqiy ettirish, qaysilarga (masalan, o'jarlik, yalqovlik, qo'pollikka) barham berish kerakligini belgilab, hal qilib olishda o'quvchiga yordam beradilar. Xuddi shu yerda shaxs sifatlarini to'g'ri va obyektiv baholashda, ularni kelib chiqish sabablari hamda mazmuni jihatidan baholashda ham o'quvchilarga ko'maklashish muhimdir.

Nihoyat, to'rtinchi vazifa - o'qituvchi, tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalashning oqilona yo'llarini ko'rsatib beradilar, o'quvchini shaxsning ijobiy hislatlarini tarkib toptirish va kamchiliklarga barham berishga oid eng maqsadga muvofiq va samarali yo'llarini ko'rsatadilar.

O'smirlik yoshidan boshlab, tarbiyaning yangi omili — o'z-o'zini tarbiyalash vujudga keladi. O'quvchilar o'zlaridan ijtimoiy

ahamiyatga ega bo'lgan shaxs xislatlarini tarkib toptirish sohasida xulq-atvordagi kamchiliklarga salbiy xislat va sifatlarga barham berish sohasida ongli ravishda muntazam ishlay boshlaydilar. Odam yuksak darajada o'z-o'zini idora qiluvchi, o'z-o'zini kamol toptiruvchi birdan-bir sistemadir, - degan edi LPPavlov.

Agar o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan intilishni kattalar, jamoa yetarli darajada boshqarib va tashkil qilib turmasalar, unda o'quvchi o'z-o'zini tarbiyalash mazmunida (nimani tarbiyalashda) hamda uning shaklida (qanday tarbiyalashda) jiddiy xatolar qilishi mumkin.

O'qituvchi, tarbiyachi o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashiga rahbarlik qilishda 4 ta vazifani ko'zda tutishi kerak.

Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga va mashqqa degan edi ulug' olim Arastu. Ana shu g'oyalarga asoslangan holda tarbiyachilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

— tarbiyada ulg'ayayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir talaba, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqiy va erkinligining e'tiborga tutilishi:

— milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish, jahonmadaniyatining ilg'or tajribalariga asoslanish;

— talabalar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish,

— qiziqarli, to'laqonli talabalar yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy foydali, ijtimoiy ko'ngilochar va shunga o'xshash tadbirlar tashkil etish lozimki, natijada talabalar o'zlari xohlagan ishga qo'l ursinlar, muvaffaqiyat hissini tushunib o'zlariga ishonchlari ortsin, axloqan barqaror bo'lsin.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil jamiyatning baxt-saodati yo'lida halol mehnat qilish; jamiyat boyligini saqlash va ko'paytirish yo'lida har bir kishining tinmay g'amxo'rlik qilishi, ijtimoiy burchni yaxshi anglash; jamiyat hayotida va shaxsiy hayotda halollik va rostgo'ylik, axloqiy sofdillik, odamiylik va kamtarlik, milliy va irqiy adovatlarga aslo yo'l qo'ymaslik va doimo

o‘z-o‘zini tarbiyalab borish kabilar tarbiya jarayonining muhim xislatlaridir.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Tarbiya tushunchasini qanday ta’riflash mumkin?
2. Tarbiya vositalari deganda nimani tushunasiz va ularga misol keltiring.
3. Shaxs shakllanishida tarbiyaning o‘rni qanday?
4. O‘z-o‘zini tarbiyalash deganda nima tushuniladi?
5. O‘z-o‘zini tarbiyalash inson ontogenezing qaysi davridan boshlanadi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Quyidagi javoblardan qay birida tarbiya tushunchasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan?

a) Tarbiya — bu shaxsning ijtimoiy, ma’naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma’naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta’sir ko‘rsatish jarayonidir.

b) Tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchida barqaror axloqiy xislat va xulqiy fazilatlarni tarkib toptirish, shakllantirish maqsadida tarbiyalanuvchining ongiga aniq maqsad yo‘lida tarbiyaviy ta’sir etish jarayonidir.

c) Bolaning ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishni o‘rganishdan keyingi ikkinchi insonning hayotiy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishidir.

*d) a,b,c javoblar to‘g‘ri.

2. O‘quvchilar tomonidan ba’zi bir axloqiy tushunchalar va tasavvurlarning o‘zlashtirilishi va ularning bola shaxsiga bo‘lgan ta’siri kim tomonidan tadqiq etilgan?

*a) V.A.Krutetskiy;

b) RL Razmislov;

c) A.L. Shnirman;

d) A.S. Alyakrinskaya.

1) tashqi ijtimoiy muhit; 2) ta'lim-tarbiya; 3) irsiyat; 4) shaxsiy faollik.

a) 1,2;

*b) 1,2,3,4;

c) 3,4;

d) 1,2,3.

4. «Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga, mashqqa». Ushbu fikr muallifini aniqlang.

*a) Arastu;

b) Aflotun;

c) Geraklit;

d) Demokrit.

5. Quyidagi javoblardan qay birida tarbiya uslubi turlari to'g'ri tasniflangan?

a) to'g'ri va aylanma;

b) ongli va anglab bo'lmaydigan;

c) ta'sirchan va bo'ysundiruvchi;

*d) barcha javoblar to'g'ri.

Vaziyatli masala

5-sinfda o'qiydigan Sobir o'zi juda yaxshi bola. U darsni yaxshi o'zlashtiradi, o'qituvchi bergan vazifalarni o'z vaqtida bajarib kelishga intiladi. Ko'p gapirmaydi, shovqin ko'tarmaydi, tabiatan yuvosh bola. Bir kuni u darsga kechikibroq keldi. Qo'lida esa atirgul. Sobir gulni o'qituvchiga uzatdi. O'qituvchi gulni olib guldonga soldi va Sobirni joyiga o'tirishi mumkinligini aytdi. Dars davom eta boshladi. Birdan eshik ochilib, maktab bog'boni o'qituvchini chaqirdi. Bog'bon o'qituvchiga u hovlida o'stirayotgan gullardan birini bir bola uzib olib, chopib shu xonaga kirib ketganini aytdi va shu bolaga nisbatan jazo qo'llanilishini o'qituvchidan so'radi.

Savol:

1. Bu vaziyatda o'qituvchi qanday yo'l tutishi lozim?
2. Tarbiya usullari va vositalaridan qay birini qo'llash bu jaryonda samaraliroq natija beradi deb hisoblaysiz?

XXIII BOB. O‘QITUVCHI PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. Pedagog faoliyatida psixologiyaning o‘rni.
2. Pedagogik muloqot.
3. Pedagogik o‘zaro harakatlar psixologiyasi.
4. Pedagogik qobiliyatlar.
5. Pedagogik faoliyatning individual uslubi.
6. Pedagog bilan psixolog faoliyatining modeli.
7. Pedagogik jamoa psixologiyasi.

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Ta’limiy: Talabalarni ta’lim jarayonida o‘qituvchining shaxsiga, kasbiy bilimdonligiga qo‘yiladigan mezon va talablar bilan tanishtirish, ta’lim samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligining o‘rnini anglatish.

Tarbiyaviy: Pedagogik faoliyatda, shaxslararo munosabatlarda jarayonidagi muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik mahorat, pedagogik nazokat kabi sifat-larni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: Talabalarning pedagogik faoliyat subyekti bo‘lgan o‘qituvchi shaxsiga xos psixologik xususiyatlar, ta’lim jarayonining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risidagi bilimlarini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: kasbiy xislatlar, o‘qituvchi qobiliyatlari; perseptiv qobiliyatlar; akademik qobiliyatlar; avtoritar qobiliyatlar; gnostik malakalar.

23.1. Pedagog faoliyatida psixologiyaning o‘rni

Muhim davlat vazifasini — «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amalga oshirayotgan zamonaviy maktab o‘qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyati XXI asrda shakllanib, asosan amaliy ishda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o‘zib rivojlana boradi.

Pedagog faoliyatida psixologiyaning o‘rni beqiyosdir. Chunki har bir pedagog dars o‘tish jarayonida o‘quvchilarining individu-

al psixologik xususiyatlarini bilishi, yangi mavzuni tushuntirayotganda ham umumpsixologik qonuniyatlarni hisobga olgan holda darsni tashkil etishi ta'limning sifatiga ijobiy ta'sir etadi.

Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o'z malakasini oshirib borishi bir tomondan o'qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli bo'rayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi. Chunki bu kechiktirib bo'lmaz jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi.

Psixologik nuqtayi nazardan o'qituvchi doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirish bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog har doim odamlar orasida bo'larkan, u birinchidan, odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim. Albatta, o'qituvchidagi bu tariqa qarashlar ko'p yillar davomidagi mehnat va hayot faoliyati jarayonida shakllanadi; ikkinchidan, o'qituvchining o'zi axborotlar olish uchun o'quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt imkoniyatiga ega; uchinchidan, u o'ta tor doiradagi tengqurlari bilanгина muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib, ko'pincha o'z kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi.

Ta'limning barcha ko'rsatkichlari, Z.I.Kalmikovaning ta'kidlashicha, anglash tezligi, yangi vazifalar hal qilinishiga erishish mumkin bo'lgan aniq ma'lumotlar hajmi, uni bevosita hal qilishdagi bosqichlar soni, natijaga erishishga yordam beruvchi ma'lumotlar miqdori, shuningdek, masalani hal qilish uchun sarflangan vaqt miqdori, o'z-o'zining bilimni oshirish qobiliyati, ishchanlik va chiniqqanlik darajasiga bog'liq.

O'qituvchining mustaqil bilim egallashi deganda, uning o'z bilimlarini doimiy ravishda kasbiy va umummadaniy axborotlar bilan to'ldirib, o'zining individual ijtimoiy tajribasini keng miqyosda doimo yangilab borishi tushuniladi.

Odatda aksariyat o'qituvchilar mustaqil bilim egallash zarurligini

tushungan holda, undan muvaffaqiyatli foydalanadilar. Duning ma

tiylari odatda pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi oldida yuzaga keladigan muammolarni anglab olish natijasida shakllanadi.

Ko'p

hollarda bunday motivlar «o'qituvchilarni qanday o'qitib va qanday tarbiyalash kerak?» degan xohish-istaklar tariqasida, fanning oxirgi yutuqlari, o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish ehtiyoji tughlishi munosabati bilan shakllana boradi.

Shu bilan birga yaqqol ko'zga tashlanib turgan ayrim hollardan ko'z yuma olmaymiz. Masalan, o'qituvchilar ommasining ma'lum qismi mustaqil izlanishda bo'lib, o'z bilim saviyasini oshirish bilan faol shug'ullanmaydi, malakasini oshirishga intilmaydi, ba'zilar muayyan bilimlar sohasida taraqqiyotdan butunlay ortda qolmoqdalar. Bunday o'qituvchilar o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiya taraqqiyotiga jiddiy zarar keltiradilar.

Bu muammoni hal etishda asosiy vazifa malaka oshirish tizimi zimmasiga tushadi. Respublikamizda xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish institutlarining tarmoqlari joriy etilgan, bular Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Markaziy instituti, Toshkent shahar, viloyatlardagi xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish institutlaridir. Xalq ta'limidagi bu tizimning asosiy vazifasi doimiy ravishda o'qituvchi kadrlarning malakasini oshirish, o'qituvchi kadrlarni o'zlarining kasbiga xos bilim saviyasini, ko'nikma, malakalarini, ma'naviyat va ma'rifatini, shu bilan bir qatorda iqtisodiy, ekologik va huquqiy ma'lumotini oshirishga da'vat etuvchi ijtimoiy psixologik sohalarni rivojlantirib borishdan iboratdir.

O'qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirish pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda zaruriy shartlardandir.

Shu bilan birga o'qituvchi doimiy ravishda o'z malakasini oshirib, o'z ishining muvaffaqiyatini yuqori darajada ta'minlashga yordam beradigan shaxsiy xislatlarini tarbiyalab borishi zarur.

Bu borada hazrati Bahouddin Naqshband «Chaqmoq tosh qo'limizga berilgan, faqat harakat qilish kerak, toki natija hosil bo'lsin» deb ta'kidlaganlar. Bu fikr bilan ijtimoiy tarbiyaning

o‘rniga ishora qiladi, to‘g‘ri tarbiyaning mohiyatini, uning samarasini aniq o‘xshatishlar bilan asoslab beradi¹.

Hozirgi zamon ilm-fan taraqqiyotini buyuk allomalar yaratgan bir necha qimmatli asarlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu nodir asarlar bir necha asrlar ilgari yaratilgan bo‘lsa-da, o‘z qimmatini yo‘qotgan emas.

Pedagogik faoliyat boshqa faoliyat turlari kabi o‘z motivatsiyasi, maqsadi, predmeti, vositalari, usullari, mahsuli va natijasini aks ettiruvchi psixologik mazmunni ifodalaydi.

Pedagogik faoliyatning vositalari sifatida ilmiy (nazariy va empirik) bilimlarni ko‘rish mumkin. Yordamchi vositalarga esa texnik, kompyuter, grafik vositalarni kiritish mumkin.

Pedagogik faoliyat predmeti

shaxs rivojlanishining sharti va asosi bo‘lmish ijtimoiy madaniyatni singdirishga qaratilgan o‘quv faoliyatining manbayi hisoblanadi
--

O‘qituvchiga nisbatan o‘smirlarning talab va umidlari chet el psixologlari tomonidan tadqiq qilingan bo‘lib, A.Djersildning izlanishlariga binoan bolalar quyidagi xarakterga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni afzal hisoblar ekanlar:

1) mehribon, quvnoq, javobgarlikni his qiluvchi, barqaror insoniy sifati;

2) haqiqatgo‘y, batartib, halol, boshqalarni hurmatlovchi, tashkilotchilik sifatidagi;

3) boshqalar manfaatini o‘ylaydigan, xalqparvar, sinf ishlari-da o‘quvchilarga erkinlik huquqini beruvchi, qiziquvchan, ishtiyoqli va ishchan;

¹ Xolnazarova M.X. Naqshbandiya tariqatida psixologik qarashlar. Ps.f.n.... avtoref. - T.2012-24 b.

4) yoqimli ovozli, umumiy yoqimtoylik qiyofasidagi o'qituvchi.

V.Kessel tadqiqotlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga bog'liq holda o'qituvchilarning mashhurlik va mashhur emaslik molivlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchining mashhurligi ko'p jihatdan uning materiallarni ko'rgazmali, jonli va muammoli tarzda yetkaza olish qobiliyatiga bog'liq ekan. V.S.Abramova, S.M.Ilyusizova, V.A.Kan-Kalik va boshqalar «o'qituvchi-o'quvchi» munosabati bo'yicha izlanishlar olib borganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchining muloqotda do'st sifatida o'z o'rnini o'quvchilarning tengdoshlari va ularning ota-onalariga berganligi ko'rindi.

Ko'pchilik psixologlar, shu bilan birga o'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Rossiya psixologlaridan N.Kuzmina, VSlastenin, F. Gonobolin, o'zbekistonlik psixologlardan R.Gaynutdinov, M.Davletshin, Sh.Do'stmuxamedova, SJalilova, AJabborov, M.Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'qituvchilik kasbi va ta'lim jarayoniga doir muammolar keng (adqiq etilgan. Bunda o'qituvchilik kasbiga muvofiq yaratilgan professiogrammani ko'rish mumkin.

O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Psixologik tadqiqot ishlarini olib borgan M.Abdul-lajonova, Ye.Gladkova, A.Mashkurov, THamrokulov, E.Xidirov va boshqalarning ilmiy izlanishlari o'zbek maktablarida rus tili va maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari kabi qator mutaxassisliklar bo'yicha o'qituvchi professiogrammasining taxminiy modelini (namunasini) aniqlab olish imkoniyatini berdi.

O'qituvchining o'rni va uning vazifalari o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi bilan aniqlanadi.

« O'qituvchi... » dedi A.I. Erorov... tal fanga... shiradi

to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur*. U o'z fikrini davom ettirib: «O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, o'quvchilarga aytmog'chi bo'lgan fikrlarini chiroyli ifodalab berishni bilmog'i, shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi*, — deb ta'kidlaydi.

Abu Ali ibn Sinoning fikricha

«...O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kirolmog'i lozim».

Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy ham o'qituvchi mehnatini xolisona baholab: «Agar shogird podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi»,

«Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila,

Aylamak emas oson oning haqqin yuz ganj ila», — kabi satrlar bitgan.

Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi - sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars payti, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbayidan biridir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar.

Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Chunki u o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ijobiy munosabat-

larni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

Ma'lumki, pedagogik faoliyat — kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida, tevarak-atrofidagi kishilar, inaktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning otionalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim.

O'qituvchining o'z ishidan nimanidir kutayotganligini bilishining


o'ziyoq muhim ahamiyatga egadir, mana shu tariqa kutishlar, garchand jamiyat tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan talablarga mos kelsa-da, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin bu talablar hamma vaqt ham bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, xalq ta'limi bo'limlari va maktab direktorlari o'qituvchining ayrim xislatlari naqadar muhimligini har xil baholaydilar. Jumladan, xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchidan birinchi navbatda o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirishini talab qilsalar, maktab direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talablarni uchinchi o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va otionalari, maktab jamoasi bilan qanday muloqotda bo'lishni bilishini naqadar ahamiyatga ega ekanligiga unchalik e'tibor bermaydilar. Maktab direktorlari esa, bunday xislatlarni o'qituvchi shaxsiga

qo'yiladigan talablar ichida birinchi o'ringa qo'yadilar.

Bo'lajak pedagog shaxsiga bir qator jiddiy talablar qo'yiladi. Ularni asosiy, ya'ni uni egallamasdan turib, yuqori malakali o'qituvchi yoki tarbiyachi bo'lib yetishish mumkin bo'lmagan va ikkinchi darajali, ya'ni bevosita pedagogik faoliyati uchun emas, balki uning shaxs sifatida shakllanishi va shaxsga ta'lim-tarbiya berishida muhim bo'lgan talablarga ajratish mumkin.

Bosh, asosiy talablar singari, ikkinchi darajali talablar ham pedagogning faoliyati psixologiyasiga ya'ni, uning muloqoti, qobiliyati, bilimlari, malakalari va ko'nikmasi, meharati, bolalarni tar

dir. Asosiylari orasida ham, qo‘shimcha psixologik xossalar ichida ham o‘zgarimas, ya’ni har bir davrda, vaqt va xalqlarda doimo o‘qituvchi va tarbiyachilar uchun, malakali pedagoglar uchun zarur bo‘lgan hamda o‘zgaruvchan, ya’ni muayyan davr ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti talablaridan kelib chiqadigan, jamiyat qaror topgan sharoitda yashaydigan va pedagog ishlaydigan muhit talablaridir.



Pedagogga qo‘yiladigan asosiy, bosh va o‘zgarimas talablar bolalarga bo‘lgan mehr, pedagogik faoliyat, o‘zi ishlaydigan soha bo‘yicha maxsus bilim, keng fikrlay olish, pedagogik intuitsiya, yuqori saviyada rivojlangan tafakkurga, chuqur bilimga, madaniyat va yaxshi xulqqa ega bo‘lish, bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning turli uslublaridan mohirona foydalana olishni bilishdan iborat. Yuqorida keltirilgan xislatlarning birortasiz muvaffaqiyat bilan pedagogik ish olib borish mumkin emas. Pedagog uchun

qo'shimcha, lekin nisbatan turg'un talablar qatoriga kirishuvchanlik, artistlik, shodon xulq, yaxshi did-farosat va boshqalarni kiritish mumkin. Bu xususiyatlar eng asosiy o'rinda turmasa-da, ammo o'qituvchi faoliyati uchun katta yordam beradi.

Bu hamma xossalar tug'ma qobiliyat emas. Ular pedagogning muntazam mehnati, shuningdek, o'z ustida tinmay ishlashi natijasida egallanadi.

Bosh va ikkilamchi pedagogik xossalar jamlanib, pedagogning shaxsiyatini aniqlaydi, shu jihatlar kuchi bilan har bir o'qituvchi qaytarilmas va o'ziga xos shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlariga qaratilgan.

Jamiyatning o'qituvchilik kasbiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagichadir:

—shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o'z Vatani, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

—keng bilim saviyasiga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

—yosh, pedagogik-psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;

—o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;

— ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

— o'z ishiga ijodiy yondashishi;

—bola psixik taraqqiyotini, uning ichki dunyosini tushuna olishi;

—pedagogik texnikani (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;

— o‘qituvchining o‘z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o‘qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo‘lishga intilishi kerak.

O‘qituvchiga jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorligi muayyan o‘qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorligidan dalolat beradi. Jamiyatning muayyan tarixiy davrida, belgilangan vaqt va belgilangan ish joyiga xos bo‘lgan pedagogning asosiy va ikkinchi darajali o‘zgaruvchan xususiyatlari haqidagi masalani hal qilish birmuncha murakkabdir. Jamiyatda ro‘y berayotgan yangi shart-sharoitlar, ta‘lim va tarbiya sohasida yangi maqsad va vazifalarni qo‘yadi. Ular o‘z navbatida o‘qituvchi va tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan talablarni belgilab beradi. Bu talablarni o‘z vaqtida va aniqroq aniqlash uchun quyidagilarni bajarish lozim:

O‘quvchini hozirgi zamon talabiga javob beradigan, erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish uchun pedagogning o‘zi mustaqil fikrlovchi, yuqori saviyadagi bilimli, dunyoqarashi keng bo‘lmog‘i va o‘zida bu xususiyatlarni muntazam rivojlantirib bormog‘i lozim.

f Jamiyat rivojlanishining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy 'l
~ \ yo‘nalishlarini_to‘g‘ri_baholash.

J

z Jamiyat muntazam rivojlanib borishi uchun bu jami-
-----*- yatda inson qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak ekanligini
^aniqlab_olish.

y

O‘rta ta‘limni lamomlagan hozirgi zamon kishisi qan-'
-----► day xislatlarga ega bo‘lishi, qanday kamchiliklardan qutulishi_kerakligini_aniqlash._____y

Hozirgi zamon pedagogi qanday bo‘lishi lozimligi?
-----*- qanday qilib jamiyatga kerakli shaxsni shakllantira olishini
^aniqlash.

Ota-onalar o'qituvchining ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qat'i nazar undan farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar. O'quvchilar esa o'qituvchilarni uch xil xislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar. Jumladan, birinchidan, o'qituvchining odamgarchiligi, adolatliligi, sof vijdonliligi, bolalarni yaxshi ko'rish xislatlari; ikkinchidan, o'qituvchining sezgirligi, talabchanligi bilan bog'liq tashqi xislatlari va xulq-atvoriga qarab; uchinchidan, o'qituvchining o'z fanini bilishi, uni tushuntira olishi kabi ta'lim jarayoni bilan bog'liq xislatlariga qarab xarakterlab beradilar.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga, o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib bormoqda.

O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

23.2. Pedagogik muloqot

Maxsus pedagoglik qobiliyatlari ichida shundaylari ham bor-ki, ularni aniq o'qituvchilik yoki tarbiyachilik faoliyatiga mansub deb ajratib bo'lmaydi. Negaki, ular har ikkalasi uchun ham bir xilda zarurdir. Ushbu jihat — pedagogik muloqot, muomaladir. Psixolog olim V.A.Kan-Kalik bunday qobiliyatni tadqiq qilib shunday fikrlarni bergan edi. Pedagoglik ishi o'z tuzilishida ikki yuzdan ortiq tuzilmani tashkil qiladi. Muloqot uning eng murakkab tomonlaridan biridir, negaki u orqali pedagogik faoliyatning eng asosiy maqsadi — o'qituvchi shaxsining o'quvchi shaxsiga ta'siri amalga oshiriladi. Pedagogning muhim mahoratlaridan yana biri o'quvchilar bilan uzoq va samarali ta'sir o'tkazishni tashkil etishidir. Odatda, bu mahoratni pedagogning kommunikativ qobiliyati bilan bog'laydilar. Kasbiy pedagoglik muloqotiga ega bo'lish — shaxslararo muloqotga tegishli bo'lgan pedagog shaxsining muhim tomonidir


Aytib o'tish joizki, pedagogik muloqot chog'ida namoyon bo'ladigan kommunikativ qobiliyat — bu bolalar ta'lim va tarbiyasi bilan bog'liq pedagogik ta'sir doirasida o'ziga xos ravishda namoyon bo'luvchi muomala qobiliyatidir. Shulardan kelib chiqqan holda, shunday xulosa qilish mumkin:



Inson muloqotining ma'lum bir sohasidagi umumiy kommunikativ qobiliyatni muhokama qilmay turib, pedagogik muloqot qobiliyati haqida alohida fikr yuritish mumkin emas.



So'z pedagogik muloqot haqida borar ekan, bunda umumiy kommunikativ qobiliyatlar haqida gapirish bilan chegaralanib qolish mumkin emas.



Birinchidan, insonning barcha kommunikativ qobiliyatlari ham birdek namoyon bo'lavermaydi va pedagog uchun birdek zarur bo'lmaydi. Ikkinchidan, pedagog egallashi lozim bo'lgan bir qator kommunikativ malaka va ko'nikmalar borki, ular boshqa kasbdagi kishilar uchun muhim ahamiyatga ega emas. Jumladan, insonning boshqa kishilarni tushuna olishi, o'z-o'zini anglashi, muloqot jarayonini to'g'ri baholashi, to'g'ri qabul qilishi, boshqa odamlar bilan to'g'ri munosabatga kirisha olishi, o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lishidir.

Har bir ajratilgan kommunikativ qobiliyatlar guruhini batafsil ko'rib chiqib, shu bilan birga pedagogik muloqot davrida bu qobiliyatlarning yaxshi rivojlanmaganligi sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ko'rsatib o'tamiz.

Insonni inson tomonidan bilish insonni shaxs sifatida umumiy baholashdir. U odatda bir ko'rishda olingan taassurotlar natijasida jamlanib, uning shaxsini ayrim tomonlari, motivlari va kelgusi

rejalarini baholash; tashqi ko‘rinish va odamning ichki hissiyotlari o‘zaro bog‘liqligini ko‘ra olish; jestlari, imo-ishoralari, mimika va pantomimikalarni o‘qib bilishda namoyon bo‘ladi.

Odamni o‘z-o‘zini anglashi o‘z bilimlari, qobiliyatlari, xarakterini va boshqa shaxsning xususiyatlarini baholashi; sirdan qaranganda odam qanday qabul qilinadi va u boshqa odamlar ko‘zida qanday namoyon bo‘lishini bila olishidir.

Muloqot jarayonidagi holatni to‘g‘ri baholash — bu holatni kuzata bilish, undan foydali axborot belgilarini ajratib olish va ularga e‘tiborni qaratish, vujudga kelgan holatning ijtimoiy va psixologik mazmunini to‘g‘ri aniqlash va qabul qilish qobiliyatidir.

O‘qituvchilik faoliyatining pedagogik nuqtayi nazardan qiziqarli bo‘lgan, lekin kam o‘rganilgan va amaliyotda ko‘pdan ko‘p muammolar keltirib chiqaradigan turi pedagogik muloqotning noverbal shakli deb nomlanadi. Bu bilan bog‘liq kommunikativ qobiliyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi: notanish odamlar bilan muomalaga kirisha bilish, ziddiyatlarni oldini olish, yuzaga kelgan tushunmovchilik va ziddiyatlarni o‘z vaqtida yecha olish, boshqa odam tomonidan o‘zini to‘g‘ri tushunishni va qabul qilishni ta‘minlaydigan tarzda o‘zini tutish, boshqa odamga o‘zining qiziqishlari va hissiyotlarini bayon etishga imkon berish, muloqotdan o‘zi uchun yuqori darajada foyda ola bilish qobiliyati.

Insonning o‘z-o‘ziga nisbatan qilgan harakatlarida namoyon bo‘lgan qobiliyati, o‘zining xulq-atvoridagi faoliyatini boshqarishni bilishi, atrof-muhitdagi odamlar bilan o‘zaro muloqot qilganda zarur bo‘lgan qobiliyatdir. Bu narsa bizni boshqa odamlar tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishimiz va to‘g‘ri tushunishimizni ta‘minlaydi. Bunga yana insonni odatlaridan va kamchiliklaridan qutulishga bo‘lgan layoqati, ya‘ni muloqotga to‘siq bo‘ladigan, muloqot uchun zarur bo‘lgan foydali malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga bo‘lgan qobiliyatini ko‘rsatish mumkin.

Insonning kommunikativ qobiliyati rivojlantirish mumkin bo‘lgan jarayondir. Ularni shakllantirishda ijtimoiy-psixologik trening yaxshi natija beradi.

Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: «Shirin soʻz koʻngillar uchun bamisoli asaldir».

Shuning uchun ham pedagog har on nutq madaniyatiga kuchli eʼtibor berishi, oʻzining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlarni namuna holatda namoyon etishi muhim. Yuqsak tuygʻu madaniyatiga ega boʻlgan pedagog talabalarning kayfiyati, noxushligini darrov fahmlaydi.

Qoʻpol, odobsiz gaplarga oʻrin qoldirmaslik, talaba shaxsiga tegadigan qoʻpol muomala qilish pedagogning faoliyatiga putur yetkazadi. Talaba ahvolini tushunish, unga hamdard boʻlish, madad berish kerak. Pedagog oʻzining pedagogik faoliyatida awalo toʻgʻri soʻz boʻlishi, ishlarini adolat bilan olib borishi kerak. Bu xislat tarbiyachi bilan talaba oʻrtasida yaqinlikni oshiradi, chunki adolat insonlar xulqini baholovchi muhim mezondir. Zamonaviy pedagogga birgina umumiy madaniyatning oʻzi kifoya qilmaydi. Shuningdek, maxsus bilimlar va malakalar asosida talabalarni kuzatish, ularning oʻsishidagi muhim jihatlarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy ijtimoiy gʻoyalar bilan taqqoslash, taʼlim-tarbiya jarayonini rivojlantirish yoʻllari va usullarini aniqlash, turli vositalar bilan tarbiyaviy taʼsir koʻrsatish, tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish maqsadga muvofiqdir. Albatta, bunda pedagog talabchan, yaxshi, mehribon, sabrli, bosiq va oʻz kasbiga

nisbatan eʼtiqodli boʻlishi lozim. Talabani butun qalbi bilan sevadigan pedagog koʻproq tabassum qiladi, kamroq qovoq soladi. Talabalarga bilim berish bilan birgalikda ayni vaqtda ularga oʻz xarakterini oʻtkaza oladi, ularga odamiylik namunasi boʻlib koʻrinadi.

23.3. Pedagogik oʻzaro harakatlar psixologiyasi

Pedagogik muloqot maxsus jihatining namoyon boʻlishi pedagog tomonidan ragʻbatlantirish va jazolash usulining qoʻllanilishidir. Agar ragʻbatlantirish yoki jazolash xizmatga yarasha odilona boʻlsa, ular oʻquvchilarning yutuqlarini mustahkamlaydi, qoʻllaydi. Ragʻbatlantirish va jazolash usullarining mustahkamlash roli pedagogik adolatga bogʻliq boʻladi. Pedagogik muqavvi

nazardan olgan holda samarali va samarali bo‘lmagan rag‘batlantirish tavsifini keltiramiz.

Samarali rag‘batlantirish	Samarali rag‘batlantirish	bo‘lmagan rag‘batlantirish
1. Muntazam ravishda amalga oshiriladi.	1.	Vaqtı-vaqtı bilan amalga oshiriladi.
2. O‘quvchining qanday xatti-harakatlari rag‘batlantirishga loyiqqligi o‘qıtuvchi tomonidan tushuntirib beriladi.	2.	Umuman amalga oshiriladi, hech qanday izoh berilmaydi.
3. O‘quvchilar yutuqlaridan o‘qıtuvchining shaxsan manfaatdor ekanligi bilan bog‘liqligi.	3.	Rag‘batlantirish kerak bo‘lganligi uchungina amalga oshiriladi, o‘qıtuvchi o‘quvchilar yutuqlari bilan qiziqmaydi.
4. O‘quvchilarning ma‘lum yutuqqa erishganliklari kuzatilib boriladi.	4.	Ishda o‘quvchilarning ishtiroklariga umumiy qaraladi.
5. O‘quvchilar erishgan yutuqlarining ahamiyati to‘g‘risida axborot berib boriladi.	5.	O‘quvchiga uning natijalarigina aytiladi, uning ahamiyati to‘g‘risida gapirilmaydi.
6. O‘quvchilarni yuqori natijalarga erishish uchun o‘z ishlarini tashkil etishga o‘rgatish.	6.	O‘quvchilarga o‘z natijalarini boshqalarniki bilan taqqoslashga yo‘naltirish, ularni raqobatlashga undash.
7. O‘quvchilarning avvalgi va hozirgi yutuqlarini solishtirish.	7.	Bir o‘quvchining yutuqlarini boshqa o‘quvchi yutuqlari bilan solishtirish.
8. O‘quvchining sarf qilgan kuchi yutuqlarga mos keladi.	8.	O‘quvchining sarf qilgan kuchi yutuqlarga mos kelmaydi.
9. O‘quvchi erishgan natijalari bilan uni sarflaydigan kuchini solishtirish, xohishi bo‘lsa, o‘quvchi kelgusida ham yutuqlarga erishishi mumkinligini ko‘rsatish.	9.	O‘quvchi erishgan yutuqlarini uning qobiliyati bilan bog‘lash yoki bu natijaga faqat omad tufayligina erishganligini ko‘rsatish.

10.	O'quvchining motivatsiyasiga ta'sir etish, ichki stimullariga suyanish, qiziqish, o'z-o'zini rivojlantirish maqsadi, o'qishdan qoniqish va boshqalar.	10.	Tashqi stimullarga suyanish: maqtoov, musobaqada faqat g'alabani mo'ljallash, mukofot olish va boshqalar.
11.	O'quvchi e'tiborini uning yutuqlariga qaratib, bu uning qobiliyati va imkoniyati tufayli yuzaga kelganini ko'rsatish.	11.	O'quvchining e'tiborini uning o'qishdagi yutuqlariga qaratib, bu o'qituvchining yoki boshqa biror insonning sa'y-harakati ekanligini ta'kidlash.
12.	Avvalgi vazifalar bajarib bo'linganidan so'ng, o'quvchida yangi vazifalarni bajarishga qiziqish uyg'otish.	12.	O'quvchi avvalgi vazifalarni bajarmasdan turib, yana yangi vazifalarni yuklash, bu o'quvchi e'tiborining chalg'ishiga olib keladi.

O'qituvchi o'quvchilarning ko'pgina sa'y-harakatlariga e'tibor qaratib, ularni yaxshi ishlari uchun rag'batlantirib, qilgan xatolarini doimo eslatmasa, buning uchun jazolamasa, ijobiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Xulosa qilib shuni aytish joizki, o'qituvchining barcha ijobiy, umuminsoniy axloq me'yorlariga mos keluvchi xislatlari ta'lim faoliyatining samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

23.4. Pedagogik qobiliyatlar

Pedagogik faoliyatdagi muhim jihatlardan biri bu pedagogik qobiliyatdir.

Pedagogik qobiliyat — bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi.

Uzoq yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar pedagogik qobiliyatlar murakkab va ko'pqirrali psixologik bilimlardan iboratligini ko'rsatib berdi. Ana shu tadqiqot ma'lumotlaridan foydalanib, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida muhim o'rin egallaydigan qator komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin:



PEDAGOGIK QOBILIYATLAR

-
- *Didaktik qobiliyatlar.*
 - *Akademik qobiliyatlar.*
 - ' *Perseptiv qobiliyatlar.*
 - ' *Nutq qobiliyati*
 - ' *Tashkilotchilik qobiliyati*
 - ' *Avtoritar qobiliyat*
 - ' *Kommunikativ qobiliyatlar.*
 - ' *Pedagogikxayol.*
 - ' *Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati*
-



1. Didaktik qobiliyatlar. Bu bolaga o'quv materialini aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib yetkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg'otib, ularda mustaqil faol fikrlashni rivojlantira oladigan qobiliyatdir.

Didaktik qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi zarurat tug'ilganda qiyin o'quv materialini osonroq, murakkabrog'ini soddaroq, tushunish qiyin bo'lganini tushunarliroq qilib, o'quvchilarga moslashtirib yetkazib bera oladi.

Ana shunday pedagogik qobiliyatni aniqlash uchun psixolog N.Gonobolin juda qulay test tavsiya etadi. Bu testga ko'ra bilish xarakteridagi matnda o'qituvchining fikri bo'yicha ayrim sinf o'quvchilari uchun qiyin deb hisoblangan qismlarni alohida ko'rsatib, nima uchun bu qismlarning qiyinligini tushuntirib berish, shundan so'ng esa matnni o'quvchilarga yengil va ularning o'zlashtirishlari uchun qulay qilib qayta tuzish tavsiya etiladi.

Qobiliyatli o'qituvchi shu bilan bir qatorda materialni o'zlashtirish, o'quvchilarni diqqat-e'tiborini jalb qilishni ham nazarda tutadi. Bunday o'qituvchi zarur sharoit yaratilmaguncha darsni boshlamaydi. Haddan tashqari shiddat bilan boshlangan dars o'quvchilarda himoya qiluvchi tormozlanishni vujudga keltirib,

miya faoliyatini tormozlaydi va o'qituvchining so'zlari yetarlicha idrok qilinmaydi.

2. Akademik qobiliyatlar — o'qituvchining o'zi o'qitadigan fani, shuningdek, boshqa fanlar sohasiga xos bo'lgan chuqur va keng bilimlarga ega bo'lish qobiliyatidir.

Akademik qobiliyatli o'qituvchi faqat o'z fani doirasidagina emas, balki atroflicha keng, chuqur bilimlarga ega bo'lib, bu sohalarda erishilgan yutuqlar va kashfiyotlarni doimiy ravishda kuzata borib, ularni dars jarayonida o'quv materialini sifatida qo'llay oladi, hamda kichik tadqiqot ishlarini olib boradi. Ko'pchilik tajribali pedagoglarning aytishlaricha, o'qituvchi o'z fani bo'yicha bunday yuksak bilim saviyasiga erishishi, boshqalarni qoyil qilib hayratda qoldirishi, o'quvchilarda katta qiziqish uyg'ota olishi uchun yuksak madaniyatli, har tomonlama mazmunli keng dunyoqarashli odam bo'lmog'i lozim.

3. Perseptiv qobiliyatlar — bu psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsining individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, o'quvchining vaqtinchalik psixik holatlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir.

4. Nutq qobiliyati - o'qituvchining o'z his-tuyg'ularini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir. Bu o'qituvchilik kasbidagi muhim xislatlardan biri hisoblanadi. Chunki o'qituvchidan o'quvchilarga uzatiladigan axborot asosan ikkinchi signal tizimi — nutq orqali beriladi. Bunda mazmun jihatidan uning ichki va tashqi xususiyatlari nazarda tutiladi. O'qituvchi nutqi, uning talaffuzi aniq-ravshan, oddiy va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Beriladigan axborotlar shunday tuzilishi kerakki, bunda o'quvchilarning diqqat-e'tibori yuqori darajada faollashtirilishi lozim. Qobiliyatli o'qituvchining nutqi jonli, obrazli, intonatsiyali va ifodali, emotsiyaga boy bo'lib, bunda stilistik va grammatik xatolar mutlaqo bo'lmasligi lozim. Bir xil ohangdagi nutq o'quvchilarni juda tez toliqtiradi. Shu bilan birga bunday nutq I.P. Pavlovning fiziologik ta'limotiga ko'ra, do-

imiy ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchiga aylanib, bosh miya katta yarim sharlar po'stlog'ida tormozlanish jarayonini yuzaga keltiradi.

Nutq tezligi ko'p jihatdan o'qituvchining individual psixologik xususiyatlariga bog'liq.

Shoshqaloq nutq bilim o'zlashtirishga xalaqit berib, bolalarni tez toliqtiradi va muhofaza qiluvchi tormozlanishni yuzaga keltiradi. O'ta sekin nutq lanjlik va zerikishga sabab bo'ladi. Nutqning balandligi qattiq gapirish ham xuddi shu singari hollarga olib keladi. Haddan tashqari qattiq, keskin, baqirib gapirish o'quvchilarning asabiga tegib, ularni tez toliqtiradi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - bu dars jarayoni va darsdan tashqari faoliyatlarni tashkil eta bilish, o'quvchilar jamoasini uyushtira bilish va jipslashtira olish, shuningdek, o'z shaxsiy ishlarini to'g'ri tashkil qila olish qobiliyatidir.

O'qituvchining o'z ishini tashkil qila bilishi deganda, uning o'z ishini to'g'ri rejalashtirib, uni nazorat qila olishi nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtga nisbatan o'ziga xos sezuvchanlik — ishni vaqt bo'yicha to'g'ri taqsimlab, mo'ljallangan vaqtdan to'g'ri foydalana olish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Dars davomida, albatta, ko'p hollarda vaqtni behuda yo'qotish ham mumkin. Lekin bu yo'qolgan dars rejasini tuzatish zaruriyati tuzilgan hollarda bo'lishi mumkin. Tajribali o'qituvchilar vaqtni seza bilishni o'rganish uchun dars rejasini yoki matnda vaqtni nazorat qilish uchun belgilar olib borishni tavsiya etadilar. Jumladan: darsning 10, 20, 30 va boshqa daqiqalari davomida mabodo, ko'zda tutilmagan vaqt ortib qolgan taqdirda foydalanish uchun qanday qo'shimcha materiallarni tayyorlash yoki vaqt yetmay qolgan taqdirda qanday materialni keyingi darsga qoldirish mumkinligi haqida maslahat beradilar.

6. Avtoritar qobiliyati — bu o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sir etib, ular o'rtasida obro' orttira bilishdan iborat qobiliyatdir.

Avtoritar qobiliyat o'qituvchining rostgo'yligi, irodaviy ud-daburonligi, o'zini tuta bilishi, farosatligi, talabchanligi ka-

¹ Ir odaviy xislatlar hamda qator shaxsiy fazilatlariga, shu bilan o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida javobgarlikni his etish, e'tiqodi, o'quvchilarga ma'naviy va ma'rifiy e'tiqodni sing-^{1F} o'lish kabi xislatlarga ham bog'liqdir.

• Kommunikativ qobiliyati — bu bolalar bilan muloqotda lish^{1S} Sa, o'c¹ uvc^h il^{ar} g^a b^o c^{lg} an munosabatda to'g'ri yo'l topa bit Sa, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan maqsadga muvofiq o' Za ro aloqa bog'lashda pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan Qobiliyatdir.

^ pedagogik takt psixologiyasini o'rganishda psixolog I.V. Strax^{ov} benihoyat katta hissa qo'shgan. Uning fikricha, bunda mu- ... o'quvchilarga ta'sir etishning eng qulay usullarini topa .^{1Su}, tarbiyaviy ta'sirni qo'llashda maqsadga muvofiq pedagogik o'ralarga e'tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni hisobga Sn, o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari va uning im- ni Yatlari hamda mazkur pedagogik holatlarni hisobga olish za rurdur.

Pedagogik taktning yaqqol ifodalaridan biri — har qanday P^edagogik ta'sirga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlarni Oa^s batlantirish, jazolash, pand-nasihat) his eta bilishdan iborat- ~^{lr} Mahoratli o'qituvchi bolalarga e'tibor berib, ziyalik bilan Qaraydi, ularning individual psixologik xususiyatlari bilan hisoblashadi.

Pedagogik taktning yo'qligi ko'pincha og'ir oqibatlariga olib keiadi.

O'qituvchining pedagogik takti masalasi haqida so'z ket-^eanda shuni ham aytish joizki, qachon o'quvchilar o'qituvchining Uobiy xislatlari to'g'risida gapirar ekanlar, ular hamisha o'qituv-^hining adolatligi kabi xislatlarini birinchi o'ringa qo'yadilar.

8. Pedagogik xayol — bu kishining o'quvchilar shaxsini tar- Otyaviy tomondan loyihalashtirishda o'z ish-harakatlarining nat^{ij}asini oldindan ko'ra bilishda namoyon bo'ladigan qobiliyatdir. Bu qobiliyat o'qituvchi ma'lum o'quvchidan kelgusida kim chiqishini ko'z oldiga keltirishida, tarbiyalanuvchilarda u yoki hu xildagi xislatlarning rivojlanishini oldindan ko'ra bilishida

namoyon bo'ladi. Bu qobiliyat pedagogik optimizm, tarbiyaning kuchiga, o'quvchilarga bo'lgan ishonch bilan bog'liqdir.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati — bu qobiliyat bir vaqtning o'zida diqqatni bir qancha faoliyatga qarata olishda namoyon bo'lib, o'qituvchi ishida g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'z diqqat-e'tiborini o'quv materialining mazmuniga, uning qanday bayon etilishiga, o'quvchi fikriga qaratadi va shu bilan bir qatorda barcha o'quvchilarni kuzatib, ularning hissiy-emotsional holatlariga, e'tiborli yoki e'tiborsizligiga, darsni tushunish-tushunmasligiga ahamiyat berib, o'quvchilarning intizomini kuzatadi hamda oqibat natijada o'zining shaxsiy xulq-atvoriga ham (yurish-turishiga, o'zini tutishiga, mimika va pantomimikasiga) e'tibor beradi. Tajribasiz o'qituvchi, ko'pincha o'quv materialini bayon etishga berilib ketib, o'quvchilarning nima qilayotganliklarini sezmay qoladi va nazoratdan chiqarib qo'yadi, agar, bordi-yu, o'quvchilarni diqqat-e'tibor bilan kuzatishga harakat qilsa, bunday hollarda o'z bayonotining izchilligini yo'qotib qo'yadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qobiliyatlardan tashqari, o'qituvchi inson shaxsining maqsad sari intilishi, uddaburonlik, mehnat-sevarlik, kamtarlik kabi qator ijobiy xislatlariga ega bo'lishi lozim.

U o'quvchilarni tarbiyalar ekan, o'zining xulq-atvori, yurish-turishi, xullas, butun o'qituvchilik shaxsi bilan o'quvchilarga o'rnak bo'lishi kerak.

O'qituvchining o'zini qo'lga ola bilishi muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib, shuni aytish joizki, o'qituvchining barcha ijobiy, umuminsoniy axloq me'yorlariga mos keluvchi xislatlari o'quv-tarbiyaviy jarayonda katta ahamiyatga ega.

N.V.Kuzmina o'qituvchi faoliyatidagi ba'zi qobiliyatlarga muvofiq keluvchi asosiy tarkibiy qismlarga konstruktivlik (pedagogik maqsadga mos keluvchi materialni tanlay olish va uni namoyon etish vositalarida aks etadi), tashkillashtirish, kommunikativlik (tarbiyalanuvchilar bilan muloqot o'rnatish qobiliyati) va

gnostik (bilimlardan foydalanish va qo‘llay olish qobiliyati) qobiliyatlarini kiritadi. Bundan tashqari, NVKuzmina pedagogik qobiliyatlarga pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, pedagogik takt, diqqatning taqsimlanishi, talabchanlikni ham kiritadi.

O‘z ishini muvaffaqiyat bilan olib borishi uchun pedagog bir qator zarur bo‘lgan umumiy va maxsus qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak. Umumiy qobiliyat deganda, har qanday inson faoliyatida yuqori natijalarga erishish mumkin bo‘lgan, maxsus qobiliyat esa bolalarga ta‘lim va tarbiya berishda yutuqlarga erishish mumkin bo‘lgan pedagog faoliyati davomidagi kerakli qobiliyat tushuniladi. Umumiy qobiliyatlar faqatgina pedagogik faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib qolmaydi, maxsus qobiliyatlar esa pedagogik faoliyat samaradorligiga bevosita to‘liq ta‘sir ko‘rsatadi.

Bu barcha maxsus qobiliyatlar — ta‘lim berish, o‘qitish, o‘rgatish uchta o‘zaro boglangan bilim olish, malaka oshirish va ko‘nikma hosil qilishning jihatlaridir. Ular ontogenezda qachon va qanday shakllana boshlanishini, shuningdek, qanday qonuniyatlar bo‘yicha rivojlanishini aniq aytish qiyin. Ulardan qaysilaridir tug‘ma hisoblanib, zehn ko‘rinishida mavjud bo‘ladi, holbuki hozirgacha ilm-fan bu narsalar to‘g‘risida aniq ma‘lumot bera olmaydi. Boshqa qobiliyatlar kabi pedagogik qobiliyat ham tarbiyalanadi va ularni ongli ravishda bolalarda shakllantirish hamda rivojlantirish mumkin.

Maxsus pedagogik qobiliyatlar ichida bolalarni tarbiyalash qobiliyati o‘ziga xos sinfni tashkil etadi. Ular ichida asosiylari deb quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Boshqa odamning ichki kechinmalarini to‘g‘ri baholay olish, hamdardlik, hamfikrlik (empatiya) qobiliyati.

2. Bolalar uchun qilayotgan ishlarida namuna va o‘rnak bo‘la olish qobiliyati.

3. Bolalarda oliyjanoblik hissini, yaxshi inson bo‘lishga xohish va intilishni, yuqori axloqiy maqsadlarga erishishni shakllantirish qobiliyati.

4. Tarbiyalanuvchi bolaning o'ziga xos xususiyatlariga tarbiya la'sirlarini moslashtira olish qobiliyati.

5. Odamda ishonch hissini uyg'ota olish, uni tinchlantira olish, o'z-o'zini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash qobiliyati.

6. Har bir bola bilan muomala qilishning kerakli usulini topa bilishi, o'zaro tushunishga erisha olish qobiliyati.

7. Tarbiyalanuvchi tomonidan o'ziga nisbatan hurmat uyg'ota olish, bolalar orasida hurmat qozona olish qobiliyati.

Pedagogning tarbiyachi sifatidagi qobiliyati ham uning o'qituvchilik qobiliyatiga muvofiqdir. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, yaxshi o'qituvchi bo'lishdan ko'ra yaxshi tarbiyachi bo'lish bir-muncha murakkabroqdir.

Ba'zan yaxshi o'qituvchi bo'lib, nisbatan kuchsiz tarbiyachi bo'lish mumkin. Ba'zan esa yaxshi tarbiyachi bo'lib, yaxshi o'qituvchi bo'lish murakkablik qiladi. Bu holat ayrimlarda o'qituvchilik, ayrimlarda esa tarbiyachilik faoliyat doirasining asosiy ekanligini anglatadi.

23.5. Pedagogik faoliyatning individual uslubi

O'qituvchilik — inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq deb hisoblanib, e'zozlab kelingan kasbdir.

Nasiriddin Tusiy o'zining «O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida» degan asarida shunday deydi: «...O'qituvchi munozaralarni olib borishni, rad etib bo'lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim... O'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin...»

Qobiliyatli, ijodkor inson — u har doim o'ziga xos shaxsdir. Pedagogda individuallikning shakllanishi bolani ijodiy shaxs sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Har qanday katta odam ongli ravishda pedagoglik kasbini tanlar ekan, u tanlagan yo'lini amalga

oshirish chog'ida allaqachon shaxs bo'lib shakllanadi va shakshub-

hasiz individualdir. O'qituvchi va tarbiyachilar ichida turli-tuman shaxslar qancha ko'p bo'lsa, ular bolalarni o'qitib tarbiyalaganlarida bu bolalar ko'pdan ko'p, shu bilan birga foydali individual xususiyatga ega bo'lishlarining ehtimoli shuncha yuqoridir.

Yuqorida ko'rib o'tilgan, har bir o'qituvchi va tarbiyachi ega bo'lishi lozim bo'lgan pedagogik faoliyatning umumiy talablari, pedagogik qobiliyatning ko'pdan ko'p jihatlari bilan ularning individuallikka intilishlarini qanday bog'lash mumkin? Pedagogik faoliyatning individual uslublarini ko'rib o'tamiz. Ular quyidagicha namoyon bo'ladi:

1) temperamentda (vaqtda va reaksiya tezligida, kirishuvchanlikda;

2) pedagogik holatlarga bo'lgan reaksiya xarakterida;

3) o'qitish uslublarini tanlashda;

4) tarbiya vositalarini tanlashda;

5) pedagogik muloqot ko'rinishida;

6) bolalar xatti-harakatlariga bo'lgan munosabatda;

7) o'zini tuta bilish va yurish-turishida;

8) u yoki bu turdagi rag'batlantirish yoki jazolash usulini qo'llashda;

9) psixologik-pedagogik ta'sir vositalarini qo'llashda.

Pedagogik faoliyatning individual yo'nalishi haqida gapirganda, odatda shu nazarda tutiladiki, u yoki bu pedagogik ta'sir vositalari va o'zini tutish shakllarini tanlashda pedagog o'zining individual imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Har xil individuallikka ega bo'lgan pedagoglar ko'pdan ko'p o'quv va tarbiyaviy misollar ichidan aynan bir xilini tanlashi mumkin, lekin ulardan har xil foydalaniladi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bu yuqori pedagogik tajribani qabul qilinishi va uni keng tarqatilishiga taalluqlidir. Uni tahlil qila turib pedagog doimo shuni yodda tutishi lozimki, bunday tajriba, malaka amaliy jihatdan olib qaralganda uning muallifi shaxsidan ayrilmas bo'ladi va o'qituvchining individualligi ham

da umumahamiyatga ega bo'lgan pedagogik topilmalar birlashmasidan tashkil topadi.

Shu sababli pedagogik tajribalarni to'g'ridan to'g'ri boshqa o'qituvchilar yoki tarbiyachilar tomonidan ko'chirib olishning kelajagi yo'q hamda bu hol yomon natijalar beradi. Buning yuzaga kelish sababi shundaki, pedagogning psixologik individualligini aynan qaytarish qiyin, ularsiz natijalar o'z-o'zidan boshqacha bo'lib chiqadi. Bu holatdan chiqib ketish uchun pedagogik tajribaning muhim qismini ajratib olib, ongli ravishda muammo qo'yish va uni ijodiy individual qayta ishlab, hal etish lozim. Boshqacha qilib aytganda, har qanday pedagogik tajribani shundayligicha ko'chirib olmaslik kerak: undagi asosiy g'oyani aniqlab, doimo o'zligicha qolmog'i, ya'ni yorqin individual xislatlarga ega bo'lmog'i lozim. Bu holat bolalarni o'qitish va tarbiyalash samarasini kamaytirmaydi, balki sezilarli darajada oshiradi, unga yuqori pedagogik tajribani o'rganish orqali erishiladi.

O'qituvchi tomonidan tashkil etilgan o'quv jarayonida subyektning ta'lim olishi uning o'ziga xosligi va xarakterida namoyon bo'ladi, bu uning o'quv usuliga ta'sir ko'rsatadi. Shakllangan individual o'quv usullari sxematik ravishda ikki qutb bilan ko'rsatilishi mumkin: «ijobiy» — «salbiy». Quyida keltirilgan jadval o'quv jarayonida bunday usullarni ko'rsatib beradi. O'qituvchi dars jarayonida buni inobatga olgan holda yondashishi maqsadga muvofiqdir.

Yu.A.Samarin fikricha, o'quv faoliyati samaradorligining ko'rsatkichi o'quvchilarda tafakkurning tizimliliigi bilan dinamikligining kengayishidan iboratdir. Shunday ekan, pedagog doimo ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishda bu jihatlarni inobatga olishi kerak.

D.B.Elkonin boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini boshqarishga oid o'z nazariyasini ishlab chiqqan bo'lib, uning fikricha, o'quv faoliyatini boshqarish uchun quyidagi tarkibiy qismlarni o'quvchilar egallab olishlari zarur:

- 1) berilgan o'quv topshirig'ini yechish uchun vositalar tanlash;

- 2) topshiriqlarni yechish jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish;
- 3) o‘zlashtirilgan bilimlar, ko‘nikmalar sifatini baholash;
- 4) o‘z-o‘zini va topshiriq yechimini tekshirish;
- 5) o‘z oldiga maqsad qo‘ya olish;
- 6) simvollar (alamatlar, belgilar) bilan predmetning ichki munosabatlari mavjudligini tushunish kabilar.

N.D.Levitov mazkur muammo bilan bevosita shug‘ullanmagan bo‘lsa-da, lekin o‘qituvchi tomonidan o‘quv faoliyatini boshqarish imkoniyati va uning mezonlari to‘g‘risida muhim fikrlarni ilgari suradi. O‘quv faoliyatini idora qilish uchun quyidagi jabhalar ishtirok etishi shart:

- 1) tafakkurning mustaqilligi;
- 2) o‘quv materialining tez va puxta o‘zlashtirilishi;
- 3) o‘quvchilardagi aqliy topqirlik;
- 4) ta‘lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyat mohiyatiga chuqur kirib borish, ya‘ni muhim alomatni nomuhimdan ajrata bilish;
- 5) fikrlashda tanqidiylik, ijodiylik va boshqalar.

Bularning muayyan tizim shakliga kelganligi ta‘limni optimallashtirishning puxta negizini va shart-sharoitini yaratadi.

23.6. Pedagog bilan psixolog faoliyatining modeli

Bo‘lajak pedagoglarning oliy o‘quv yurtida olgan psixologik bilimlari unchalik yoqimli bo‘lmagan xossaga ega. Ular, birinchidan, pedagogga amaliyotda zarur bo‘lgan barcha bilimlarni o‘z ichiga qamrab olmagan, bunga sabab pedagogik oliy o‘quv yurtlarida psixologik fanlarni o‘qitish uchun ajratilgan dars soatlari hajmining chegaralanganligidir. Ikkinchidan, bu olingan bilimlar tezda eskirib qoladi va hech bo‘lmaganda besh yilda bir marta yangilab turishni talab etadi, buni o‘z-o‘ziga ta‘lim berish yoki malaka oshirishda amalga oshirsa bo‘ladi.

Pedagogning psixologik jihatdan o‘z ustida ishlashi deyilgan-da, uni muntazam ravishda psixologiya fanining turli yo‘nalishlaridagi eng yangi yutuqlar bilan tanishib borishini nazarda tuta-

di, ular tarbiya va ta'lim bilan bevosita va bilvosita bog'liqdir. Bu ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, differensial psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, shuningdek, boshqa fanlar chegarasidagi tibbiyot, patopsixologiya, psixofiziologiya va psixoterapiya.

Pedagogning amaliy faoliyatida psixologik ma'lumotlar olishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati yetarli darajada salmoqlidir. Holbuki, pedagogga muntazam ravishda ilmiy kitoblarni va jurnallarni o'qishga hojat yo'q, asosiy psixologik bilimlar jamlangan holda keltirilgan, pedagogik faoliyat uchun foydali bo'lgan bo'limlarga murojaat qilishning o'zi yetarlidir.

Pedagogning kasbiy faoliyati davomida juda zarur jiddiy jihat — bu o'z-o'zini boshqarishdir, ya'ni o'z psixik holati va xulq-atvorini boshqara olish qobiliyati, murakkab pedagogik holatlarda muqobil harakatlana olishidir. O'z-o'zini boshqarishning psixologik asoslari bilish jarayonini o'z ichiga oladi: sezgi, idrok, diqqat, xayol, tafakkur, xotira, nutq, shuningdek, shaxs xislatlari — xulq atvori, emotsional holati, vaziyatga munosabati. Yuqorida qayd etib o'tilgan psixik jarayonlarda o'z-o'zini boshqarish odam xususiyatlari va holatlari, uning irodasi va ichki tuyg'ulari bilan bog'liqdir. Ma'lumki, ichki tuyg'u barcha psixik holatlarni boshqarishda erkinlik asosi bo'lib xizmat qiladi, iroda bo'lsa xatti-harakatlar quvvati va yo'nalishlarini ta'minlaydi.

Qabul qilish o'z-o'zidan boshqaruvni aniq qabul qilish vazifalarini qo'yadi — obrazni tuzish, qo'yilgan savollarga — Nima ni kuzatish kerak? Nima uchun kuzatish? Qanday qilib kuzatish? — kabi aniq javob topish kerak. Kuzatuvni boshlashdan avval biz o'zimiz uchun bu savollarga javob berishimiz lozim bo'ladi.

Murakkab pedagogik sharoitlarda (vaziyatda) bunday savollarga aniq javob topishni iloji bo'lmaydi, bu vaziyatda aniq javob topish uchun birmuncha aqliy va jismoniy kuch sarf qilishga to'g'ri keladi. Bunday savollarni avvaldan o'ylab ko'rish va ularga amal qilishni talab qiladi, natijada o'z-o'zini boshqarishni nazarda tutadi.

Diqqat-e'tiborni boshqarish birmuncha boshqa narsalarga asoslanadi. Ixtiyoriy bo'lmagan diqqat-e'tiborni boshqarish ular bilan bog'liq bo'lgan holatlar, ya'ni organizmning psixofiziologik holatlarini boshqarish orqali bevosita amalga oshirish mumkin. Charchoq oqibatida ixtiyoriy bo'lmagan diqqat-e'tibor yomon boshqariladigan bo'lib qoladi. Xuddi shunday holat kasallik davrida, haddan tashqari emotsional junbushga kelgan holatda, affekt yoki stress holatlarida ro'y beradi. Birmuncha ta'sir qiladigan vositalar — dam olish, davolash, psixofizik autotrening bu tarzda diqqatni boshqarishda yaxshi samara beradi.

Ixtiyoriy diqqatni qiziqish uyg'otadigan so'z yordamida yoki qo'llab-quvvatlash orqali boshqarish mumkin. Odamning diqqatini biror narsaga qaratish uchun uning qiziqishini qo'llab-quvvatlash kifoya qiladi. So'z orqali o'z-o'zini yo'naltirish yoki verbal o'zi-o'zini boshqarish har doim to'g'ridan to'g'ri yoki bevosita qiziqishga asoslanadi. Ayrim hollarda o'zini majbur qilib qandaydir obyekt, holat yoki voqelikning qiziqarli tomonlariga e'tiborni qaratish, diqqatni uzoq bo'lmagan vaqt oralig'ida jalb qilish uchun yetarli bo'ladi. Qabul qilish orqali ham ularni ma'lum darajada boshqarish mumkin. Pedagog uchun eslash qobiliyatini boshqarish birmuncha qiyinroq va zarurroqdir. Uchtadan ikkita bizga ma'lum eslash jarayoni — eslab qolish va olingan axborotni qayta tiklashni — o'z-o'zini boshqarish bilan rivojlantirish mumkin. Eslab qolish jarayonining uchinchi — axborotni saqlab qolishni boshqarish mushkulroqdir, chunki u ong osti holati (shaxs tomonidan anglab olinmaydigan psixik holatlar yig'indisi) darajasida ishlaydi, holbuki yodlashni anglab tashkil etib, bevosita ularni ham boshqarish mumkin. Mnemik jarayonlarda o'z-o'zini boshqarish har xil usullarga asoslanadi, tasavvur assotsiatsiyalanib, bir butunga bog'lab, ongli ravishda ko'rib chiqiladi. Eslab qolish zarur bo'lgan narsalar ko'z orqali ko'rilsa, yoki biror narsa bog'lab tasavvur qilinsa yodda qolishi kuchayadi. Eslab qolishni tezlatish uchun sun'iy ravishda yodda bo'lgan perseptiv obrazlarni va tashqi narsalarni tafakkurda uyg'otib, ong orqali ularni yangi eslab qolishi

kerak bo‘lgan narsalar bilan bog‘lash lozim. Ongli ravishda fikr-lashni ham boshqarish, uni yanada samaraliroq qilish mumkin.

Tafakkurni o‘z-o‘zida boshqarishning asosiy usullari quyidagilardir:

— hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifa shartlarni diqqat bilan tahlil qilish;

— talab qilingan natijani berilgan shartlar bilan solishtirish, bunday maqsad kerakli natijani olish uchun yetishmagan narsani aniqlash;

— doimiy ravishda mashq o‘tkazib borib, tafakkurni chiniqtirish;

— tafakkurni aniq yo‘nalishdagi mashqlar bilan chiniqtirish, ya‘ni ketma-ket izlanish va yetarli darajada hal qilinishning alternativ yo‘llarini ko‘rib chiqish (bu — vosita anglash jarayoni «sikllanish» deb nomlanadi) vazifani hal qilishning yo‘llari bilan bog‘liq bo‘lgan aniq farazlarni o‘z ichida yoki ovoz chiqarib so‘zlash (gapirish).

— bajarib bo‘lingan xatti-harakatlar natijalarini va faraz (g‘oya) larni doimiy ravishda yozib borish;

— o‘z-o‘zini emotsional boshqarish organizmning muskul to‘qimalari tizimini boshqara bilish qobiliyatiga asoslangan emotsi-ogen holatlarni tahlil qilib, tafakkurni ongli ravishda faol jalb etish.

Hozirgi zamon maktabi muallimlik shaxsi va kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan sifat va fazilatlarini egallagan, yangicha fikr-laydigan, ijtimoiy faol pedagoglarni talab qilmoqda.

Ana shunday qator muammolarni oqilona hal qilishning eng muhim omillaridan biri o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishdir. Shunga binoan mam-lakatimiz ta‘limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ham kadrlar tayyorlash sifatini jahon talablari darajasiga yetkazishdir. Endilikda oliy ta‘lim muassasa-lari oldiga faqatgina o‘qimishli insonni emas, balki voqealarni oldindan ko‘ra biladigan, to‘g‘ri qaror qabul qila olish mahoratiga ega, o‘zini o‘zi rivojlantirish zaruriyatini tushunib yetadigan oqil va barkamol shaxsni tarbiyalash muammasi qo‘yilmogda.

O'qituvchining shaxsiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, o'quvchilar bilan ta'lim va tarbiyaviy munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'ya oladi. O'qituvchining shaxsiy namunasi va obro'-e'tibori ta'lim-tarbiya jarayonida bolada qat'iy nuqtayi nazar shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

23.7. Pedagogik jamoa psixologiyasi

Pedagogik jamoa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bog'liqlik, ta'limning tuzilishi, o'quvchilarning o'qish va bilish faoliyatini shakllantirish hamda tarbiya psixologiyasining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsini barkamol inson sifatida shakllantirish kabi muhim muammolarni tadqiq etadi. Pedagogik jamoada o'quv-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari, zamonaviy ta'lim-tarbiya nazariyasining vazifalarini tatbiq etish bilan shug'ullanadi.

Pedagogik faoliyat doimo o'qituvchilar jamoasi doirasida olib boriladi. Shu munosabat bilan rahbar pedagogik jamoaning ichki hayotiga oid o'ziga xos qonun, qoida va xususiyatlar haqidagi bilimlarga ega bo'lishi lozim. Maktab direktori yoki o'qituvchi qanchalik o'zini yolg'iz his qilmasin, baribir biron sinf yoki pedagogik jamoa manfaatlarini doirasida bo'ladi. Umuman har bir kishining mehnat faoliyati biron jamoa ichki qoidalari, normalari asosida boshqariladi. Hatto, yakka tartibda ishlaydigan mutaxassis ham, biron uyushma yoki jamiyat ichida qabul qilingan qadriyatlar va qoidalarga suyanib faoliyat yuritadi. Shu ma'noda alohida shaxsni boshqarish imkoniyati ko'p hollarda jamoani boshqarish uslublari bilan uyg'unlashadi.

Pedagogik jamoa — bu birgalikda mehnat qiladigan shaxslar guruhi bo'lib, unda kishilar bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar, har bir xodim hamkasbiga murojaat qiladi, ayni vaqtda uning ta'sirini ham his etadi.

Pedagogik jamoalar kichik va ko'p ming kishilik bo'lishi ham mumkin. Har qanday holda ham jamoa ayrim shaxsga nisbatan muayyan funksiyalarni bajaradi.

Pedagogik jamoa rahbarining ishida bolalarning ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga yo'naltirilgan kasbiy-pedagogik ishga undash, o'qituvchi va tarbiyachilar faoliyatini motivlashtirish muhim hisoblanadi. O'qituvchi faoliyati motivatsiyasini kuchaytirishning bir necha usullari mavjud.

A. O'qituvchilarning muhim moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun sharoit yaratish.

B. Muhim ijtimoiy ehtiyojlarni qondirilishini ta'minlash: muhoqot, e'tibor, tan olinish, muvaffaqiyatlarga erishish.

C. O'qituvchining takrorlanmas individuallik sifatida shaxsiy o'sishi, ijodi va o'z-o'zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratish.

Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa faoliyati natijasida jamoa a'zolari o'rtasida ishchanlik, bir-biri uchun g'amxo'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun javobgarlik hissi qaror topadi. Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas'uliyat hissini uyg'ota borib, jamoa a'zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, jamoaga hurmat hissini paydo bo'lishiga ko'maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini oshiradi, jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro ruhiy yaqinlik, hissiy birlik (bir-birini yoqtirish) yuzaga keladi. Ushbu munosabat ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun qo'l keladi. Ruhiy va hissiy birlik jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatining mazmuniga, ular orasidagi hosil bo'lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur tuzilma, bir tomondan, jamoa a'zolari qo'yilgan ishchanlik munosabatlarini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi tarbiyachilar hamda jamoa a'zolari o'rtasidagi mavjud boshqarish munosabatlari mazmunini ifoda etadi.

Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy, psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va

mikroguruhni tashkil etuvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. Tarbiyalanuvchi shaxsning jamoadagi o'rni uning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda jamoaning rasmiy yetakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko'zga tashlangan o'rinni egallagan holdagina u chinakam jamoa bo'la oladi. Shuningdek, norasmiy guruhlar (mikroguruhlar) umumjamoaa ijtimoiy manfaatlar uchun kurashuvchi guruhlar bo'lganda jamoa o'zining chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.

Yashash joylarida o'zaro birikkan bolalar guruhlar qanchalik ahil va inoq munosabat zaminida tashkil topgan bo'lmasin, haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a'zolari o'rtasida ijtimoiy ahamiyatli faoliyat, maqsad, ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarni o'rnata olishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unda pedagogik rahbarlikning bo'lishidir.

Shunday qilib, jamoa kishilarning shunday muayyan guruhi bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Ushbu guruh a'zolari o'zaro birlik, a'zolarining munosabatlar jarayonidagi tengligi asosida unga rahbarlik qilish va bir-biriga bo'ysunish, shuningdek, jamoa oldidagi javobgarligi asosida muayyan faoliyatni olib boradi.

Jamoa va uni shakllantirish pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Namuna ko'rsatish uni shakllantirish vositasi bo'lib, uning yordamida jamoaning barcha yoki har bir a'zosini tarbiyalash yaxshi samara beradi. Jamoaning yetakchi tarbiyaviy vazifasi shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni hosil qilish mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror top-tirishdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'lim hamda yangi turdagi ta'lim muassasalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatli vazifa sanaladi.

Har bir shaxsga ta'sir etishi tarbiyachining pedagogik mahorati va obro'siga bog'liqdir. Bunda:

talabning ijobiy xatti-harakatlariga to'sqinlik qilmasligi |

*

talablari aniq va tushunarli bo'lishi

qo'yilgan talab va vazifalarning natijasini bilishi

t

talab ochiq chehra, samimiy bir ohangda berilishi, iltimos, maslahat, yaxshi niyatga chorlashi

↑

talab talabalarining yoshi, bilimi, saviyasiga mos bo'lishi

talablarda kesatish, luqma, minnat qilish bo'lmasligi va boshqalarga e'tibor berish lozim

Pedagogning kasbga oid mahoratini shakllantirishda pedagogik-psixologik nazariyalarning ahamiyati kattadir, chunki ma'naviyatimizning shakllanishida o'z-o'ziga ega bo'lgan insonlar faoliyati, ularga qo'yilayotgan talablar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar to'g'risida nazariyalar pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy manbayi bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik tajribalarni takomillashtirishda ilmiy pedagogik ma'lumotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki, hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti pedagogning ijodkor bo'lishini fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini talabalarga yetkaza olishi va nihoyat talabalarni ham ijobiy fikrlash, tadqiqotchilik ishlarini o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun pedagog avvalo tadqiqotchilik ishlarini olib borishi va bu sohadagi malakalarni egallashi zarur. Pedagog ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishi davomida tajribalarni to'playdi,

tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U shu xulosalardan o‘zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon pedagogi uchun zarur bo‘lgan juda muhim bilimlarni egallaydi.

Pedagogik mahoratni takomillashtirishda shaxsiy pedagogik izlanishning ahamiyati kattadir. Pedagog ishidagi muvaffaqiyat kunlik faoliyatda kattalar va talabalar, ayrim guruh va yakka shaxslar bilan aloqaga kirisha olish qobiliyatini ta’minlaydi.

Faoliyatda duch keladigan turli xil voqealarga pedagogik qoidalar nuqtayi nazaridan qarab emas, balki sharoitni hisobga olgan holda ijobiy hal etish talab etiladi.

Keng ilmiy saviyaga ega bo‘lish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish, pedagogik mahoratni oshirishga intilish pedagogga xos xususiyatlardan hisoblanadi.

Ta’lim sifati davlat ta’lim standartlariga muvofiq bo‘lishi uchun amaliy va nazariy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Bu sohada ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshiriladi.

Shaxsiy izlanishlar va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish pedagogning pedagogik mahoratini takomillashtirishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, nazariy, milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlardan, dunyoviy, diniy ilmlardan ham xabardor ma’naviy barkamol inson bo‘lmog‘i lozim.

Ilmiy pedagogik izlanishlarni baholash mezonlari to‘g‘risida fikr yuritilganda, avvalo tadqiqotning zamonaviyligi, dolzarbligi, undan ko‘zlangan maqsad hamda natijalar nazarda tutiladi.

Pedagog shaxsining kasb sohasidagi xususiyatlari — bu talabalarni sevish, ular bilan ishlashga qiziqish, o‘z kasbiga muhabbat, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qafiylik va maqsadga intilish, vazminlik, o‘zini tuta bilish, kasbiy layoqatlilik va boshqalar.

Samarali pedagogik ta’sir ko‘rsatishni to‘g‘ri tashkil etish talabalar bilan muomala qilishda samimiy munosabatda bo‘lishga yordam beradi. Amaliy pedagogik faoliyatda ilmiy g‘oyalar va pedagogik tarbiyani qo‘llash pedagog mehnatiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Lekin bu mehnat natijalari darhol koinmaydi. Uning mahsulini ko'rish uchun yillab mehnat qilish kerak. Pedagog faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu faoliyat o'zining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ham turlicha bo'ladi. Haqiqiy fidoyi pedagoglar o'z faoliyatida eng yaxshi natijalarga erishadilar. Tajribali novator pedagoglar talabalarga samarali ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda pedagogika fanidan yangi yo'l ham ochmoqdalar.

Pedagogning ijodkorligi talabani ijodkorligini uyg'otadi. Ular o'z talabalarini vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan birga ularning qalbida oliyjanob fazilatlarni qaror toptiradilar.

Respublikamizda o'qituvchi kasbiga yo'llash, o'qituvchiga xos xislatlar, qobiliyatlarni, professiogrammasini o'rganish bo'yicha atoqli psixologlar M.G.Davletshin, R.Z.Gaynutdinov, E.G.G'oziyevlar rahbarligida ularning shogirdlari tomonidan bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng professor M.G.Davletshinning tashabbusi bilan 1991-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida ilmiy darajalar beruvchi Ixtisoslashgan Kengash o'z faoliyatini boshladi. Ana shu Kengashda birinchilardan himoya qilgan tadqiqotchi M.G.Davletshinning shogirdi N.M.Majidov bo'lgan. U «O'qituvchilik kasbiga yo'llashning psixologik jihatlari» mavzuida ilmiy tadqiqotini himoya qilgan. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, o'qituvchi quyidagi sifatlarga ega bo'lishi kerak: bolalarni sevish, bolalar bilan chiqishib ketish, ularni tushunish, mehnatsevarlik, insoniylik, prinsipiiallik, talabchanlik, axloqiy barqarorlik va b.¹

R.Z. Gaynutdinov tomonidan o'qituvchilik kasbiga yo'naltirishning psixologik jihatlari yoritilgan. Muallif keyinchalik ushbu muammoni o'rganishni shogirdlari bilan hamkorlikda davom ettirgan^{1 2}. Shogirdlaridan biri S.X.Jalilovanning «Pedagogika instituti

¹ Maxunob H.H. nChxojiornqecKwe acneKTbi nptjjiopieHTaiiiiHHoi pa6oT Ha npoiijecckHK) ynHTenH. ABTopetj). flHcc.K.n.H. — T.: TTHH, 1991.- 22 c.

² TaiiHyniHHOB P.3. HciixoAnarHOCTHKa B paSoie yHHTejia: MeTOAirecKiie peKOMennaHHH. — T.: YaHHHnK, 1987. -27 c.

labalarida shaxsiy sifatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari»

mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida talabalarda shaxsiy sifatlar shakllanishining dinamikasi aniqlangan¹. Pedagogika institutidagi ta'lim jarayonida talabalarni tizimli o'rganish shuni ko'rsatdiki, «retrospektiv», «real», «ideal» va «refleksiv — Men» ni bir-biri bilan

taqqoslash talabalarning shaxsiy ehtiyoj sohasiga hamda ularning shaxsiy professionallashuv jarayoniga ta'sir qiladi. Tadqiqotlardan olingan ma'lumotlar asosida pedagogika instituti talabalarini psixologik-pedagogik tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar

ishlab chiqilgan bo'lib, bu xususiyatlar milliy psixologiya va pedagogikaning eng yaxshi an'alarini hisobga olgan holda tuzilgan.

Shunday qilib, xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, pedagoglarning pedagogik mahoratida shaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhimdir. Hayot — kashfiyotlar olami. Tajriba, uslub, fikrlar rang-barang. U samarali mehnat natijasida isbot va dalillar orqali talabalar qalbiga ko'chadi. Ularning tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar, talabalar muallimning faxri, kelajagidir. Shu bois ularning niyati o'quvchilarni, talabalarni mustaqil yurt quruvchilari, muhandislari, ilmu ma'rifat fidoyilari safida ko'rishdir.

Har bir pedagogning o'z faoliyat tizimini ishlab chiqishi va unga qat'iy amal qilishi uning ta'lim sohasidagi muvaffaqiyatlarining muhim omillaridan biridir. Pedagog bir xil metodlarda dars o'tish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Aksincha, u o'qitish metodlarini takomillashtirish ustida tinimsiz ishlashi zarur.

Xalqimizning kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan pedagogga, uning saviyasiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

¹ .EbKajinjiOBa C.X. Ilcnxojioru'iecKue OCOGCHHOCTH JIHHOCTHOH npoiieccHOHajiHaauHH CTyneHTOB nejiarormecKoro Byaa: ABTope(j).jiHC... KaHji. ncHxojLHayK. — T.: TTIH, 1994.-18 c.

2. Zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qanday talablar qo'yiladi?
3. Pedagogik qobiliyatlarga nimalar kiradi?
4. Pedagogik faoliyatning individual uslubi nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Pedagogik jamoa psixologiyasi boshqa jamoalardan nima bilan farq qiladi?
6. O'qituvchi kasbiy moslashuv jarayonida qanday muammolarga duch keladi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. O'qituvchining shaxsiy xislatlariga nimalar kiradi?
 - a) o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi, pedagogik takt, nutqning emotsional ifodalanishi, o'zini yuqori baholash, empatiya;
 - *b) bolalarni yaxshi ko'rishi, mehnatsevarlik, mehribonlik, kamtarlik, odamiylik, uddaburonlik, jamoat ishlarida faollik;
 - c) bolalar jamoasini uyushtira bilishi, turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olish;
 - d) kuzatuvchanligi, diqqat-e'tiborini taqsimlay olishi.
2. O'qituvchining kasbiy xislatlariga nimalarni kiritish mumkin?
 - *a) o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi, pedagogik takt, nutqning emotsional ifodalanishi, pedagogik fantaziya (xayol) ning rivojlanishi;
 - b) bolalarni yaxshi ko'rishi, mehribonlik, kamtarlik, odamiylik, uddaburonlik, jamoat ishlarida faollik, kuzatuvchanligi, diqqat-e'tiborini taqsimlay olishi;
 - c) bolalar jamoasini uyushtira bilishi, turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olish;
 - d) jamoat ishlarida faollik, amaliy-psixologik aql, mehnatsevarlik.
3. O'qituvchining gnostik malakalari tarkibiga nimalar kiradi?
 - a) bolalarning asab psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi; o'quvchilarni to'g'ri tushunib, ularning xulq-atvori sabablarini tushuntirishni bilishi;

b) o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi;

c) boshqa o'qituvchilarning tajribalarni o'rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to'g'ri xulosa chiqara olishi;

*d) barcha javoblar to'g'ri.

4. Pedagogik qobiliyatlarga nimalar kiradi?

a) bolalarni yaxshi ko'rishi, mehnatsevarlik, mehribonlik, kamtarlik, odamiylik, uddaburonlik, jamoat ishlarida faollik;

b) o'qituvchining kuzatuvchanligi, o'z diqqat-e'tiborini taqsimlay olishi, o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi, pedagogik takt, nutqning emotsional ifodalanishi, kuzatuvchanligi, diqqat-e'tiborini taqsimlay olish qobiliyati;

*c) didaktik qobiliyatlar, akademik qobiliyatlar, perseptiv qobiliyatlar, nutq qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, avtoritar qobiliyati, kommunikativ qobiliyati, pedagogik xayol, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati;

d) bolalarning asab psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi; o'qituvchilarni to'g'ri tushunib, ularning xulq-atvori sabablarini tushuntirishni bilishi.

5. O'qituvchining o'qituvchini, tarbiyalanuvchini ichki dunyosi-ga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik qobiliyati qanday turdagi pedagogik qobiliyat hisoblanadi?

a) akademik qobiliyat;

b) shaxs bilan bog'liq qobiliyat;

c) didaktik qobiliyat;

*d) perseptiv qobiliyat.

XXIV BOB. PEDAGOGIK FAOLIYATNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Reja:

1. Pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlari.
2. Pedagog shaxsi va unga qo'yiladigan talablar.
3. Pedagogning o'zini-o'zi boshqarish muammosi.

Mavzuning o'quv maqsadi:

Ta'limiy: Talabalarni ta'lim jarayonida o'qituvchining shaxsiga, kasbiy bilimdonligiga qo'yiladigan mezon va talablar bilan tanishtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining o'rnini anglatish.

Tarbiyaviy: Pedagogik faoliyatda, shaxslararo munosabatlarda jarayonidagi muloqot ko'nikmalarini shakllantirish. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahorat, pedagogik nazokat kabi sifatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: Talabalarning pedagogik faoliyat subyekti bo'lgan o'qituvchi shaxsiga xos psixologik xususiyatlar, ta'lim jarayonining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi bilimlarini rivojlantirish.

24.1. Pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlari

Pedagogik faoliyat o'qituvchining o'quvchiga uni shaxs va intellektual jihatdan rivojlanishiga yordam beruvchi ta'limiy va tarbiyaviy ta'sirini o'z ichiga qamrab oladi.

Pedagogik faoliyat ham inson faoliyatining boshqa jabhalari kabi tavsiflanadi. Bu eng avvalo maqsadga yo'nalganlik, motivlashganlik, predmetlilikdir. N.V. Kuzmina ta'rifiga ko'ra, pedagogik faoliyatning muhim jihati — bu uning mahsuldorligidir. Pedagogik faoliyat mahsuldorligining 5 ta darajasi ajratib ko'rsatiladi:

I — (minimal) reproduktiv: pedagog o'zi bilgan narsalarni boshqalarga yetkazib bera oladi;

II — (quyi) moslashgan: pedagog o'z fikrlarini auditoriyaga o'ziga xos jihatlari bilan ma'lum qila oladi.

III — (oʻrta) lokal modellashtirilish: oʻqituvchi fanning maʼlum

bir boʻlimi boʻyicha oʻquvchilarda bilim, koʻnikma va malakalarining strategiyasini egallaydi.

IV — (yuqori) oʻquvchilar bilimni sistemali modellashtirish; oʻqituvchi oʻquvchilarda fan malakalarini shakllantirishning yoʻl-yoʻriqlarini biladi.

V — (eng yuqori) modellashtirilgan tizimli faoliyat va oʻquvchi-

lar xulq-atvori. Bunda pedagog oʻz fanini oʻrgatishdagi yoʻl-yoʻriqlarni shunday egallaydiki, natijada u oʻquvchi ehtiyojlarida oʻz-oʻzini tarbiyalash, oʻz-oʻziga taʼlim berish, oʻz-oʻzini rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyat borasida soʻz yuritilganda yuqori mahsuldorlik tushunchasi asosiy oʻrinni ifodalaydi.

Pedagogik faoliyat boshqa faoliyat turlari kabi oʻz motivatsiyasi, maqsadi, predmeti, vositalari, usullari, mahsuli va natijasini aks ettiruvchi psixologik mazmuni ifodalaydi.

Pedagogik faoliyatning predmeti boʻlib, shaxs rivojlanishining sharti va asosi boʻlmish ijtimoiy madaniyatni singdirishga qaratilgan oʻquv faoliyatining manbai hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning vositalari sifatida ilmiy (nazariy va empirik) bilimlarni

Pedagogik faoliyat predmeti

shaxs rivojlanishining sharti va asosi boʻlmish ijtimoiy madaniyatni singdirishga qaratilgan oʻquv faoliyatining manbai hisoblanadi


Pedagog faoliyatidagi ijtimoiy-madaniy malakani yetkazish bu tushuntirish, koʻrsatish (illyustratsiya), darslik mashqlarini tahsil oluvchilar bilan birga ishlash, tahsil oluvchini bevosita amaliyo-

ti (laboratoriya, amaldagi) va treningdan iborat. Pedagogik faoliyatning mahsuli bo'lib o'quvchining aksiologik, emotsional-mazmuniy, predmetli, baholash mezonlarini aks ettiruvchi individual malakasining shakllanganligi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning natijasi asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda o'quvchilarning shaxsiy, intellektual rivojlanishi, ularni o'quv faoliyatining subyekti va shaxs sifatida shakllanishi hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu motivatsiya hisoblanadi. Pedagogik faoliyatda ham o'quv faoliyatdagi kabi motivatsion soha ajratilib ko'rsatiladi. Bu tashqi va ichki motivlardir. Tashqi motiv sifatida biror-bir narsaga erishish istagini, ichki motiv sifatida esa o'z faoliyatining jarayoni va natijasiga e'tibor berishni misol qilish mumkin.

Pedagogik faoliyat pedagogik vaziyatdagi turli-tuman xatti-harakatlarning umumlashmasidan iborat: perseptiv, mnemik, kommunikativ, izlanuvchanlik, nazorat qish, baholash va h.k. Ushbu turli-tuman faoliyatlarning jamlanmasi bir qancha psixologo-pedagogik funksiyalarni belgilab beradi.

PFKapterev o'qituvchiga xos bo'lgan obyektiv va subyektiv xususiyatlarni ko'rsatib o'tadi. Umumiy ko'inishda u quyidagicha aks etadi:



O‘zaro munosabat doirasida o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi ta’sirlashuvning emotsional darajasini tadqiqot predmeti tarzida qo‘yilishi, xususan, tarbiyachilik faoliyatining yo‘nalishida kam uchraydi. Bu muammoga oid ishlar jumlasiga G.S.Abramova, A.A.Beknazarov, R.Berns, I.B.Shuvanov va boshqalarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Aynan ushbu muammoga aloqador o‘zbek o‘qituvchisiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar nihoyatda kamchilikni tashkil etadi. Bu sohada A.A.Beknazarov, F.S.Ismagilova, E.G‘.G‘oziyev va boshqalarning ishlarini namuna sifatida sanab o‘tish joiz.

L.Ya.Kolominskiy o‘z tadqiqotida o‘qituvchining o‘quvchilarga munosabati so‘zsiz muallim mehnati muvaffaqiyatlarida hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlagan edi. Uning fikricha, bu pedagogik mahoratning muhim tomoni bo‘lib, o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning o‘zaro munosabati ko‘p jihatdan aynan mana shu jarayonga bog‘liqdir. Muallifning ko‘rsatishicha, o‘zaro munosabatni o‘qituvchi shaxsining faolligi va jamoadagi ta’sirlashuv nuqtayi nazaridan yondashgan holda o‘rganish ham mumkin ekan.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda pedagogning bolalarga nisbatan munosabatidagi emotsional-qadriyatli yondashuvi uning munosabat uslubidagi motivatsion jihatlarini, shuningdek, bir vaqtning o‘zida uning o‘quvchilarga bo‘lgan munosabati jarayonida xulqiga ta’sir ko‘rsatuvchi operatsional jihat bilan belgilanishini qayd qilish mumkin.

Qator tadqiqotlarda esa o‘qituvchi va o‘quvchilarning pedagogik muomaladagi turli xil jihatlarini baholash holati ham o‘rganilgan.

O‘qituvchiga nisbatan o‘smirlarning talab va umidlari chet el psixologlari tomonidan tadqiq qilingan bo‘lib, A.Djersildning izlanishlariga binoan bolalar quyida qayd qilingan xarakterga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni afzal hisoblar ekanlar:

1) mehribon, quvnoq, javobgarlikni his qiluvchi, barqaror insoniy sifatli;

2) haqiqatgo‘y, batartib, halol, boshqalarni hurmatlovchi, tashkilotchilik sifatidagi;

3) boshqalar manfaatini o'ylaydigan, xalqparvar, sinf ish lari^ da o'quvchilarga erkinlik huquqini beruvchi, qiziquvchan, ishth yoqli va ishchan;

4) yoqimli ovoqli, umumiy yoqimtoylik qiyofasidagi o'qituvchi, VKessel tadqiqotlarida o'quvchilarning yosh xususiyatiga bog'liq

holda o'qituvchilarning mashhurlik va mashhur emaslik motivlarj oTganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchining mashhurlu gi ko'p jihatdan uning materiallarni koTgazmali, jonli va muarm moli tarzda yetkaza olish qobiliyatiga bog'liq ekan. V.S.Abramova, S.M.Ilyusizova, V.A.Kan-Kalik va boshqalar «o'qituvchi-o'quvchi»

munosabati bo'yicha tadqiqotlar o'tkazganlar. Tadqiqot natijalariga koTa, o'qituvchining muloqotda do'st sifatida o'z oTnini o'quvchi- larning tengdoshlari va ularning ota-onalariga berganligi koTindi.

Ko'pchilik psixologlar, shu bilan birga o'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar

uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Rossiya psixologlaridan NV Kuzmina, V. Slastenin, F.N. Gonobolin, o'zbekistonlik psixologlardan R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.

Jalilova, A. Jabborov, M. Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'qituvchilik kasbi va ta'lim jarayoniga doir muammolar keng tadqiq etilgan. Bunda o'qituvchi-lik kasbiga muvofiq yaratilgan professiogrammani koTish mumkin.

O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituv- chiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilish va shu asnoda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qi- lish uchun pedagogik oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchi professiogrammasining ishlab chiqilishi zarurdir.

Psixologik tadqiqot ishlarini olib bergan M Abdullaionova

Professiogrammada muhim xislatlarning borgan sari birmuncha ortib borishini hisobga olgan holda o'qituvchining quyidagi xislatlari ko'rsatib berilishi lozim:

1. O'qituvchining shaxsiy xislatlari: bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevish; aql-farosatlilik; mehnatsevarlik; jamoat ishlari-da faollik; kamtarinlik; odamiylik, dilkashlik; uddaburonlik; o'z bilimini oshirishga intilish.

2. Kasbiga xos bilimi: ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi; psixologiya asoslarini, ayniqsa yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi, etnopsixologik bilimlarni egallashi; hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi; hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallaganligi; maktab yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi; o'z fanini o'qitish metodikasini bilishi; o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi; ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi.

3. O'z kasbiga xos xislatlari: o'qituvchining kuzatuvchanligi; o'z diqqat-e'tiborini taqsimlay olishi; pedagogik fantaziya (xayolning rivojlanishi; o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi; o'zini qo'lga ola bilishi, o'zini tuta olishi; pedagogik takt; nutqning emotsional ifodalanishi;

4. Shaxsiy pedagogik uddaburonligi: dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi; o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi; a'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning bilimi o'sishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi; pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtira olish; bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o'z faoliyatini rejalashtirishni bilishi; o'quv maqsadlarini rejalashtira olishi; o'zining ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

5. Tashkilotchilik malakalari: bolalar jamoasini uyushtira bilishi; turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi; bolalarni nimalar bilandir qiziqtirib, ularni faollashtira

olishi; amaliy masalalarni hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo'llay olishi.

6. Kommunikativ malakalari: bolalarni o'ziga jalb etishni bilishi; bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi; bolalarning jamoalararo va jamoa ichidagi o'zaro munosabatlarini tartibga solishni bilishi; bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi.

7. Gnostik malakalari: bolalarning asab psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi; o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi; boshqa o'qituvchilarning tajribalarni o'rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to'g'ri xulosa chiqara olishi; psixologik-pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi; o'quvchilarni to'g'ri tushunib, ularning xulq-atvori sabablarini tushuntirishni bilishi.

8. Ijodiy xislatlari: pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilishi; o'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshira olish qobiliyati; o'zini o'quvchi o'rniga qo'yib, bo'lib o'tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi; avvalgi voqealar, hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati; o'zining o'quvchiga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra bilishga intilishi.

Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan modelning asosiy tuzilishi tariqasida quyidagilar keltiriladi: shaxsning jamoatchilik va kasbiy yo'nalishi; pedagogik mahorat va qobiliyati; xarakterining psixologik xususiyatlari; bilish faoliyati; o'qituvchi shaxsining bolalarni kasbga tayyorlash ishlari darajasidagi umumiy taraqqiyoti.

Professiogramma yoshlarga o'zlarining kelgusida o'qituvchilik kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab olishlariga yordam beradi.

Professiogrammani kasbga xos ravishda o'qitishni tashkil qilishda ta'limning samaradorligi va uning muvaffaqiyati qanday bilim va ko'nikmalarga, ayniqsa, shaxsning qanday qobiliyati va shaxsiy xislatlariga bog'liq ekanligini albatta ko'rsatish zarurdir.

Pedagogik faoliyat tezligi va muvaffaqiyati asosida N.V.Kuzmina o'qituvchilarni uch guruhga bo'ladi:

1. Kasbiy malakalarni tez o'zlashtiradi, o'z faoliyatida tezda muvaffaqiyatga erishadi, dars qoldirmaydi.

2. Kasbiy sifatlarni sekin o'zlashtiradi, ba'zan dars qoldiradi, am-

mo pedagogik xususiyatlarni sekin-asta bo'lsa-da o'zlashtirib oladi.

3. Ko'p yillik faoliyati davomida ham o'qituvchilik qobiliyatini egallamaydi.

NVKuzmina pedagogik faoliyatga murakkab dinamik sistema sifatida qaraydi.

A.I.Sherbakov ishlarida esa pedagogik ta'lim muammolari ko'zga tashlanadi. O'qituvchi shaxsi yo'nalganligining shakllanishi masalasida to'xtalar ekan, muallif o'qituvchilarni tayyorlash va o'qitish jarayonida e'tiborga olish zarur bo'lgan vaziyatlar xususida o'z tavsiyalarini beradi. Ayniqsa, olim bo'lajak o'qituvchi xulq-atvor xususiyatlarining shakllanishiga asosiy e'tiborni qaratadi.

24.2. Pedagog shaxsi va unga qo'yiladigan talablar

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishida jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boraveradi.

Pedagog uchun qo'shimcha, lekin nisbatan turg'un talablar qatoriga kirishuvchanlik, artistlik, shodon xulq, yaxshi did-farosat va boshqalarni kiritish mumkin. Bu xususiyatlar eng asosiy o'rinda turmasa-da, ammo o'qituvchi faoliyati uchun katta yordam beradi.

Bosh va ikkilamchi pedagogik xossalar jamlanib, pedagogning shaxsiyatini aniqlaydi, shu jihatlar kuchi bilan har bir o'qituvchi ajoyib va o'ziga xos shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'lik xislatlariga qaratilgan.

24.3. Pedagogning o'zini-o'zi boshqarish muammosi

Bo'lajak pedagoglarning oliy o'quv yurtida olgan psixologik bilimlari ikki unchalik muhim bo'lmagan xossaga ega. Ular hi-

o‘z ichiga qamrab olmagan, bunga sabab pedagogik oliy o‘quv yurtlarida psixologik fanlarni o‘qitish uchun ajratilgan dars soatlari hajmining chegaralanganligidir. Ikkinchidan, bu olingan bilimlar tezda eskirib qoladi va hech bo‘lmaganda besh yilda bir marta yangilab turishni talab etadi, buni o‘z-o‘ziga ta‘lim berish yoki malaka oshirishda amalga oshirsa bo‘ladi.

Pedagogning psixologik jihatdan o‘z ustida ishlash deyilganda, uni muntazam ravishda psixologiya fanining turli yo‘nalishlaridagi eng yangi yutuqlar bilan tanishib borishini nazarda tutadi, ular tarbiya va ta‘lim bilan bevosita va bilvosita bog‘liqdir. Bu ta‘lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, differensial psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi shuningdek, psixologiya va boshqa fanlar chegarasidagi tibbiyot, patopsixologiya, psixofiziologiya va psixoterapiya.

Pedagogning amaliy faoliyatida psixologik ma'lumotlar olishi mumkin bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati yetarli darajada salmoqlidir. Holbuki, pedagogga muntazam ravishda ilmiy kitoblarni va jurnallarni o‘qishga hojat yo‘q, asosiy psixologik bilimlar jamlangan holda keltirilgan, pedagogik faoliyat uchun foydali bo‘lgan bo‘limlarga murojaat qilishning o‘zi yetarlidir.

Pedagogning kasbiy faoliyati davomida juda zarur jiddiy jihat — bu o‘z-o‘zini boshqarishdir, ya’ni o‘z psixik holati va xulq-atvorini boshqara olish qobiliyati, murakkab pedagogik holatlarda muqobil harakatlana olishidir.

O‘z-o‘zini boshqarishning psixologik asoslari bilish jarayonini o‘z ichiga oladi: Sezgi, idrok, diqqat, xayol, tafakkur, xotira, nutq shuningdek shaxs xislatlari — xulq atvori, emotsional holati, vaziyatga munosabati. Yuqorida qayd etib o‘tilgan psixik jarayonlarda o‘z-o‘zini boshqarish odam xususiyatlari va holatlari, uning irodasi va ichki tuyg‘ulari bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, ichki tuyg‘u barcha psixik holatlarni boshqarishda erkinlik asosi bo‘lib xizmat qiladi, iroda bo‘lsa xatti-harakatlar quvvati va yo‘nalishlarini ta’minlaydi.

Ongli ravishda fikrlashni ham boshqarish, uni yanada samaraliroq qilish mumkin.

Tafakkurni o'z-o'zida boshqarishning asosiy usullari quyidagilardir.

— hal qilinishi kerak bo'lgan vazifa shartlarni diqqat bilan tahlil qilish;

— talab qilingan natijani berilgan shartlar bilan solishtirish, bunday maqsad kerakli natijani olish uchun yetishmagan narsani aniqlash;

— doimiy ravishda mashq o'tkazib borib, tafakkurni chiniqtirish;

— tafakkurni aniq yo'nalishdagi mashqlar bilan chiniqtirish, ya'ni ketma-ket izlanish va yetarli darajada hal qilinishning alternativ yo'llarni ko'rib chiqish (bu — vosita anglash jarayoni «sikllanish» deb nomlanadi);

— vazifani hal qilishning yo'llari bilan bog'liq bo'lgan aniq farazlarni o'z ichida yoki ovoz chiqarib so'zlash (gapirish);

— bajarib bo'lingan xatti-harakatlar natijalarini va faraz (g'oya) larni doimiy ravishda yozib borish;

— o'z-o'zini emotsional boshqarish organizmning muskul to'qimalari tizimi boshqara bilish qobiliyatiga asoslangan, emotsiogen holatlardan tahlil qilib tafakkurni ongli ravishda faol jalb etish.

Hozirgi zamon maktabi muallimlik shaxsi va kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan sifat va fazilatlarini egallagan, yangicha fikrlaydigan, ijtimoiy faol pedagoglarni talab qilmoqda.

Ana shunday qator muammolarni oqilona hal qilishning eng muhim omillaridan biri o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishdir. Shunga binoan mamlakatimiz ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri ham kadrlar tayyorlash sifatini jahon talablari darajasiga yetkazishdir. Endilikda oliy ta'lim muassasalari oldiga faqatgina o'qimishli insonni emas, balki voqealarni oldindan ko'ra biladigan, to'g'ri qaror qabul qila olish mahoratiga ega, o'zini-o'zi rivojlantirish zaruriyatini tushunib yetadigan oqil va barkamol shaxsni tarbiyalash muammosi qo'yilmoqda.

O'qituvchining shaxsiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, o'quvchilar bilan ta'lim va tarbiyaviy munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'ya oladi. O'qituvchining shaxsiy namunasi va obro'-e'tibori ta'lim-tarbiya jarayonida bolada qat'iy nuqtayi nazarning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

Kanadalik psixolog olim Djeyms Marsha yigit-qizlarning kasbiy tayyorgarlik davrini to'rt bosqichga ajratadi:

1. Yoshlarda kasb haqidagi tasavvur va bilimlarning kamligi, hali noaniqligi bosqichi. Bu bosqich hali shaxsning e'tiqodlari aniq emasligi, kasbni tanlamaganligi, kim bo'lishi noaniqligi bilan tavsiflanadi.

2. Muddatidan oldin aynan o'xshashligini topish bosqichi. Shaxs o'z kuchi, xohishi bilan emas, boshqaning fikri bilan, boshqa kishiga ergashib, tegishli munosabatlar tizimiga qo'shili-shi bilan xarakterlanadi.

3. Moratoriya bosqichi — shaxs o'zligini aniqlashning krizisi jarayonidaligi bilan, rivojlanishning ko'p variantlari orasidan o'zi uchun eng maqbulini tanlashi bilan tavsiflanadi.

4. Erishilgan yutuqning aynanligi bosqichi. Tanlash mojarosi hal etilganligi, shaxs o'zligini namoyon etishga amalda kirishganligi bilan belgilanadi. O'qituvchi eng avvalo o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar faolligini oshirishni esdan chiqarmasligi, yuzaga kelgan muammolarni mustaqil yechishga o'rgatishi, o'quvchi tashabbuskorligi va ijodkorligi asosida o'zining kimligini namoyish etishiga yordamlashishi zarur. Buning uchun o'qituvchi shaxsiy hamda kasbiy sifat va fazilatlarini to'liq egalagan bo'lishi lozim, bunday o'qituvchilar o'quvchilar bilan ko'proq do'stona muloqotda bo'ladilar, o'zaro fikr almashadilar, mavzuga doir muammoni tahlil qiladilar va bir qarorga keladilar. O'qituvchi bu o'rinda butun e'tiborini mavzu mohiyatini o'quvchilarga singdirishga qaratib, o'quvchilar e'tiborini kechinmalarini va o'zlashtirish imkoniyatlarini alohida e'tiborga oladi. O'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan bilimdonlik, ijodkorlik, mustaqillik hamda pedagogik faoliyati uchun mas'uliyat va javobgar-

likni chuqur his etish o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashning eng muhim omillaridir.

Talabalarda kasbni egallashning shakllanishi ularda majburiyat va javobgarlik hissining tarkib topishi bilan bog'liqdir. Ularda ana shunday sifat va kechinmalar to'la shakllangan bo'lsa, bilimlarni egallash yoki kasbiy kamoloti uchun hech narsa to'siq bo'la olmaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Andragogika...

*a) o'qitish nazariyasining bir qismi bo'lib, o'quv faoliyatining katta odam sifatidagi subyektini yangi bilim va ko'nikmalarni egallashining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishi bilan birga, bu yangiliklardan o'z kasbiy faoliyatlarida foydalanish yo'llari bilan ham qurollantiradi;

b) doimiy ravishda hamkasblari, ota-onalar bilan hamkorlikda faoliyat olib borgan, zarur bo'lgan damlarda ularni ma'lum bir bilimlar bilan qurollantira olgan, ularda pedagogik-psixologik bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyojni vujudga keltira olgan pedagog va rahbarnigina faoliyatini o'rganadi;

c) o'qituvchilar ommasining ma'lum qismi mustaqil izlanishda bo'lib, o'z bilim saviyasini oshirish bilan faol shug'ullanmaydi, malakasini oshirishga intilmaydi, ba'zilar muayyan bilimlar sohasida taraqqiyotdan butunlay ortda qolmoqdalar;

d) har bir pedagogning o'z faoliyat tizimini ishlab chiqish va unga qafiy amal qilish uning ta'lim sohasidagi muvaffaqiyatlarining muhim omillaridan biridir.

2. Andragogika tushunchasi qachon kim tomonidan fanga kiritilgan?

a) 1833-yilda nemis mutaxassisi A.Kann tomonidan fanga kiritilgan;

b) 1866-yilda ingliz olimi J.Piaje tomonidan fanga kiritilgan;

c) 1977-yilda yapon olimi K.Levin tomonidan fanga kiritilgan;

d) 1922-yilda amerikalik olim Raven tomonidan fanga kiritilgan

3. Kattalar ta'limning asosiy mazmuni...

*a) siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida o'z oldiga mustaqil ravishda ta'lim maqsadlarini qo'ya oladigan, unga erisha oladigan faoliyat subyektini shakllantirishdir;

b) o'qituvchidagi bu tariqa qarashlar ko'p yillar davomidagi mehnat va hayot faoliyati jarayonida shakllanadi; ikkinchidan, o'qituvchining o'zi axborotlar olish uchun o'quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt imkoniyatiga ega; uchinchidan, u o'ta tor doiradagi tengqurlari bilangina muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib, ko'pincha o'z kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi;

c) anglash tezligiga, yangi vazifalar hal qilinishiga erishish mumkin bo'lgan aniq ma'lumotlar hajmiga, uni bevosita hal qilishdagi bosqichlar soniga natijaga erishishga yordam beruvchi ma'lumotlar miqdori, shuningdek, masalani hal qilish uchun sarflangan vaqt miqdori, o'z-o'zining bilimini oshirish qobiliyati, ishchanlik va chiniqqanlik darajasiga bog'liq;

d) o'qituvchidagi bu tariqa qarashlar ko'p yillar davomidagi mehnat va hayot faoliyati jarayonida shakllanadi.

4. Kattalar ta'limining asosiy funksiyalari...

*a) rivojlantiruvchi, kompensatsiyalovchi, adaptatsiya moslashuv, qayta ijtimoiylashuv;

b) rivojlantiruvchi, kompensatsiyalovchi, akkamodatsiyalovchi, undovchi;

c) rivojlantiruvchi, kompensatsiyalovchi, adaptatsiya moslashuv, fikrlovchi, tanqid qiluvchi;

d) rivojlantiruvchi, kompensatsiyalovchi, adaptatsiya moslashuv, kuzatuvchi, uzatuvchi.

5. Kattalar ta'limining prinsiplariga kirmaydigan javobni toping:

*a) determinizm prinsipi;

b) mustaqil ta'limning ustuvor bo'lishi;

c) hamkorlik faoliyati prinsipi;

d) katta o'quvchining o'z tajribasiga tayanish prinsipi.

GLOSSARIY

Avtoritarizm — buyruq asosidagi talablarga o‘ylamasdan ko‘r-ko‘rona bo‘ysunish.

Akseleratsiya — bolalar va o‘smirlarda oldingi avlodga nisbatan bo‘y nisbati va jinsiy taraqqiyotning tezlanishi, jadallashishi.

Andragogika — kattalar ta‘limini tashkil etish masalalari bilan shug‘ullanadi.

Asab tizimi — hayvon va odam organizmining barcha funksiyalarini o‘zaro hamda tashqi muhit bilan to‘g‘rilab, uyg‘unlashtirib turuvchi a‘zolar tizimi. U organizmning ichki muhitida ro‘y beradigan o‘zgarishlar va tashqi muhit ta‘sirida qo‘zg‘alib, turli a‘zolariga ta‘sir etgan holda ularning faoliyatini kuchaytirib yoki susaytirib turadi.

Aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasi

— rus psixologi P.Ya.Galperin tomonidan ishlab chiqilgan va uning shogirdlari tomonidan rivojlantirilgan ta‘limot bo‘lib, bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanishining umumiy psixologik asoslari bosqichma-bosqich ma‘lum dastur asosida rivojlanadi.

Axloq — shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me‘yorlar tizimi, ma‘naviy xulq qoidalari.

Bilish — psixik aks ettirish jarayoni, bilimlarni egallash va uni o‘zgartirishni ta‘minlaydi.

Bine — Simon testi — bolalar aqliy rivojlanish usuli. Fransuz psixologlari Bine va Simon tomonidan ishlab chiqilgan. Ular ilk bor eksperimental psixologiyaga asos solishgan.

Biografik metod — odamni uning tarjimai holi bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar orqali o‘rganish usuli.

Birinchi signal tizimi — narsa va hodisalarning sezgi a‘zolariga bevosita ta‘sir etishi natijasida bosh miya yarim sharlari qobig‘ida hosil bo‘ladigan shartli muvaqqat nerv bog‘lanishlari. U sezgi va idrok turarida namoyon bo‘ladi.

Borliq — obyektiv olamning ongdan xoli bo‘lgan holda mavjudligini bildiruvchi falsafiy tushuncha.

Bosh miya — markaziy nerv tizimining old qismi bo‘lib, u bosh miya qobig‘ida joylashgan oliy nerv tizimining moddiy asosi. Bosh miyaning o‘rtacha og‘irligi 1470 g.

Bosh miya ketta yarim sharlari — bosh miyaning ichki qobig‘i

Bosh miya katta yarim shar orqa, old, yon, orolcha, orqa umurtqalarga boʻlinadi. Miya nerv kataklari neyronlardan iborat boʻlib, ikki katta yarim sharlar poʻstlogʻini tashkil etadi. Miyadagi oq suyuqlik neyron oʻsimtalaridan tarkib topib, miya yoʻllarini koʻrsatib turadi.

Boshqarish - tabiatning turlicha boʻlgan (biologik, ijtimoiy va texnik, tizimlari) funksiyalarini, ularning ishini tashkil qilish, maqsad va dasturlarini amalga oshirishga qaratilgan jarayon.

Verbal oʻrganish — insonning yangi tajribani til orqali oʻzlashtirishidir. Bunday oʻrganish natijasida inson nutqni egallagan boshqa odamlarga, bilim, koʻnikma va malakalarni uzatishi mumkin.

Vikar oʻrganish — boshqa odamlar xulq-atvorini toʻgʻridan toʻgʻri ku-

zatish orqali oʻrganish boʻlib, unda inson kuzatilayotgan xulq-atvor shakllarini oʻzlashtiradi. Vegetativ nerv tizimi — nerv tizimining organizm ichki

aʼzolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi. Vegetativ nerv tizimi markaziy nerv tizimi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, bu bosh miya qobigʻi tomonidan boshqariladi. Vegetativ nerv tizimi simpatik va parasimpatik nervlar deb ataluvchi ikki qismga boʻlinadi.

Genezis — biror-bir hodisa yoki narsa rivojlanishi jarayonining qonuniyatlarini aks ettiruvchi tushuncha.

Genetik metod — psixik holatlarning paydo boʻlishi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanishi jarayonini oʻrganish usullari.

Genotip — ota-onadan farzandga oʻtadigan genlar majmuyi, irsiy asosi.

Gerontopsixologiya — psixologiya tarmogʻi, qarilik davri psixologiyasini oʻrganadi.

Geshtaltpsixologiya - hozirgi zamon chet el psixologiya maktablaridan

biri boʻlib, XX asrning 30-yillarida Olmoniyada bunyodga kelgan. Bular murakkab psixik voqelikni tushuntirish uchun hodisalarning bir butunligini asos qilib oladilar. Asoschilar MVertxeymer, VKyoler, N. Koffka.

Yetakchi faoliyat - faoliyat turlaridan biri boʻlib, bunda maʼlum davr ichida shaxs sifat jihatidan oʻzgarib shakllanadi. Masalan, bogʻcha yoshi davridagi oʻyin faoliyati.

Zehn — nerv tizimining baʼzi genetik nazariyalari anatomik-fiziologik xususiyati boʻlib, u kishida qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki individual tufayli tabiiy zaminidir

Ijtimoiy o'rganish nazariyasi — inson tomonidan hayotiy tajribani egallash jarayoni ijtimoiy ta'sirlar va ular bilan bog'liq mustahkamlash va jazolash asosida amalga oshadi deb tushuntiruvchi ijtimoiy psixologik nazariya.

Imprinting — qandaydir xulq-atvor shaklini maxsus o'rgatilmasdan, tug'ilishi bilanoq o'zlashtirish.

Interferensiya — malakalardagi salbiy ta'sir bo'lib, bunda eski malaka yangisining shakllanishiga xalaqit beradi.

Iste'dod — shaxs qobiliyati rivojining yuqori darajasi.

Identifikatsiya — shaxsning o'zini o'zga odam bilan emotsional va boshqa tomondan tenglashtirishi.

Konformlik — individning guruh fikrlariga tashqi tomondangina qo'shilib, ichki tomondan esa qo'shilmay o'z fikrida qolishi, guruhga ongli ravishda moslashishi.

Kuzatish — psixik xususiyatlarni uzoq vaqt davomida, planli, biror maqsad asosida o'rganish.

Kuzatuvchanlik — shaxs xususiyatlaridan biri, u kishining idrok qilish jarayonida narsalarni kamdan kam uchraydigan, ammo muhim tomonlarini payqay olishida namoyon bo'ladi.

Ko'nikma — oldinga qo'yilgan maqsad va xatti-harakat sharoitidan kelib chiqadigan muvaffaqiyatli harakatlar usullarini tanlash va amalga oshirish uchun mavjud bilimlar va malakalardan foydalanishdir. Ko'nikma eksteriorizatsiya qilishni — bilimlarning jismoniy harakatga mujassamlashuvini taqozo etadi.

Layoqat — nerv tizimining ba'zi irsiy determinlashgan anatomik-fiziologik xususiyati. Odamda qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki yakka, tug'ma, tabiiy zaminidir.

Longityud tadqiqot — tekshiriluvchilarni uzoq muddat va doimiy ravishda o'rganish. Longityud tadqiqot odamdagi individual va yosh davrlardagi o'zgarishlarni qayd qiladi.

Malaka - mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarishning avtomatlashgan usullari.

Majburiyat yoki javobgarlikni his qilish - erkinlikning qarama-qarshi jihati bo'lib, bu shaxsning manfaatlariga xizmat qiladi.

Mayl — shaxs qiziqishlari va fikrlarining biror faoliyat bilan shug'ullanishiga jalb etilganligi. Mayl shaxsda kuchli istak, xohish tarzida namoyon bo'lib, bajo keltirilganda odamga mamnuniyat baxsh etadi.

Mahorat madaniyati — har bir tadbirni zo‘r quvonchli qalbdan tashkil qilish.

Ma‘naviy madaniyat — talabalarning ijodiy, ma‘naviy, badiiy faoliyatini tashkil qilishdir.

Metod — bilishning nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisi.

Miqdoriy tahlil — moddalar xususiyatining tuzilishini miqdoriy jihatdan aniqlash metodlarining yig‘indisi.

Motiv — inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi kuch, sababdir.

Motivatsiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni, motivlar yig‘indisi bo‘lib, unga tashabbus, yo‘nalganlik, tashkilotchilik, qo‘llab-quvvatlash kiradi.

Muammoli vaziyat — bilish ehtiyojini qondirishda tafakkur qilish sharti bo‘lgan psixologik vaziyat.

Muammoli ta‘lim — o‘quvchining faolligini oshirishga qaratilgan va o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan o‘qitish usuli.

Muhit — organizm tug‘ilgan, rivojlanadigan va yashaydigan tashqi omillar, sharoitlar va obyektlar majmuasi.

Negativizm — bolalar psixologiyasida atrofdagi kishilarga nisbatan bolaning sababsiz qarshilik ko‘rsatishi. Negativizm ikki xil bo‘lib, passiv — taklif qilingan faoliyatning bola tomonidan bajarilmasligi. Faol — shaxsiy negativizm — bolalarning qarama-qarshi xarakterga ega bo‘lgan faoliyatni bajarishi.

Nutq — odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishining tarixan tarkib topgan shakli.

Odatlar — bu kundalik faoliyatda ko‘p takrorlanishi natijasida avtomatlashgan va bajarilishi shaxsning funksional ehtiyojiga aylanib ketgan harakatlardan iborat individual xislat.

Ong va faoliyat birligi — psixologiyaning ong bilan faoliyatning birligi, uning o‘zaro bog‘liqligini e‘tirof etuvchi g‘oya.

Ontogenez — organizmning individual rivojlanishi. Tirik mavjudotning paydo bo‘lgan davridan to oxirigacha bo‘lgan davrdagi o‘zgarishlar majmuyi.

Operant o‘rganish — bilim, ko‘nikma va malakalar sinab ko‘rish va xato qilish metodi orqali o‘rganiladi. Individ duch keladigan vaziyat-

di. Organizm ketma-ket amalda masalani yechish uchun har birini sinab ko'radi va bunda avtomatik ravishda erishilgan natijani baholaydi.

Pedagogik psixologiya — ta'lim va tarbiya jarayonlarining psixologik

qonuniyatlari hamda pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlarini o'rganuvchi psixologiya fani sohalaridan biridir.

Psixik taraqqiyot qonuniyatlari — bir yosh davridan boshqa davrga o'tishda inson psixikasi va xulq-atvorida yuzaga keluvchi o'zgarishlar va ularning sabablarini tavsiflab beruvchi qonundir.

Psixik rivojlanishning revolutsion o'zgarishlari — bir yosh davridan

ikkinchi yosh davriga o'tishda inson xulq-atvori va psixikasida yuzaga keluvchi jadal hamda chuqur qayta qurishdir.

Psixik rivojlanishning situativ o'zgarishlari — inson xulq-atvori va psi-

xikasida tashkil etilgan yoki maxsus tashkil etilmagan ta'lim-tarbiya ta'siri ostida yuzaga keluvchi, ya'ni vaziyat bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar.

Psixik rivojlanishning evolutsion o'zgarishlari — bir yosh davridan ik-

kinchi yosh davriga o'tishda inson xulq-atvori va psixikasida sekinlik bilan amalga oshadigan, barqaror o'zgarishlar.

Reprezentativlik — tanlov guruhining o'rganilayotgan sifatlar majmuyini ishonchliligini va to'g'riligini ifodalovchi mezon.

Rivojlanishning sensitiv davri — bir yosh davrida psixikaning muayyan

tomonlari samarali rivojlanishi uchun optimal imkoniyatlar davri.

Rivojlanishning omillari — bolaning psixikasi va xulq-atvori rivojla-

nishini belgilovchi omillar tizimi.

Rivojlanish sharoitlari — shaxsning shakllanishi bog'liq bo'lgan omillar. Rivojlanish sharoitlariga inson atrofidagi kishilar, ular orasidagi shaxslararo munosabat, moddiy va madaniy madaniyat predmetlari va boshqalar kiradi.

Rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari — insonda yuzaga keluv-

chi yangi ehtiyojlar bilan uni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyat.

Senzitiv yosh davrlari — yoshning o‘shish davrlari. Bunda ma’lum yosh davriga xos psixik xususiyat va jarayonlar, yuqori darajada yaxshi rivojlangan. Oldindan yoki kechikib kelgan senzitiv yosh davri ta’lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta’sir etadi.

Suhbat — psixologiya metodlaridan biri, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bivosita ma’lumot olinadi.

Siyosiy madaniyat — davr talabiga mos iqtisodiy, ijtimoiy bilimga ega bo‘lish.

Tabiiy eksperiment — tekshiriluvchini o‘ziga bildirmagan holda uni o‘yin, o‘qish yoki mehnat faoliyatida o‘rganishdan iborat psixologik tajriba.

Tarbiya — tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchida barqaror axloqiy xislat va xulqiy fazilatlarni tarkib toptirish, shakllantirish maqsadida tarbiyalanuvchining ongiga aniq maqsad yo‘lida tarbiyaviy ta’sir etish jarayonidir.

Ta’lim — u o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi o‘quv faoliyatidan iborat bo‘lib, bilim, ko‘nikma va malakalarni uzatish jarayonidir, hayotiy tajribani o‘qituvchidan o‘quvchiga uzatishdir.

Taraqqiyot omillari — bolaning psixik va xulq-atvor rivojlanishini belgilaydigan omillar tizimi. Taraqqiyot omillari, ta’lim va tarbiya mazmunini, o‘qituvchi va tarbiyachilarning pedagogik tayyorgarligini, ta’lim va tarbiyaning usul, vositalari va boshqa ko‘pgina bolaning psixologik taraqqiyotiga bog‘liq narsalarni o‘z ichiga oladi.

Taqlidchanlik — namuna bo‘lib hisoblanadigan obyekt xulq-atvoridan tezda nusxa olish natijasida ro‘y beradigan o‘rganish turi.

Test — inson psixologiyasi va xulq-atvorini miqdor hamda sifat jihatdan baholashga mo‘ljallangan psixologik tadqiqotning standartlashtirilgan metodi.

Shaxs — ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi betakror odam.

Shartli reflektor o‘rganish — shartli refleks mexanizmi bo‘yicha yangi qo‘zg‘atuvchilarga reaksiyalarni o‘zlashtirish.

O‘zlashtirish - bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash.

O‘z-o‘zini tuta bilish — shaxsning muayyan sharoitlarda ortiqcha fikr, his-tuyg‘u, xatti-harakatlarni ongli ravishda tiyib turish, o‘z fikr,

O'rganish — insonning o'quv faoliyati natijasida yangi psixologik sifat va xususiyatlarni o'zlashtirganligini bildiradi.

O'qish — bilim, ko'nikma va malakalarni egallash uchun qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan o'quvchi tomonidan amalga oshiriladigan o'quv harakatlaridir.

O'quv faoliyati natijasida inson yangi bilim, ko'nikma va malakalar egallaydi, yoki mavjudlarini o'zgartiradi, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradigan, takomillashtiradigan jarayondir.

Qobiliyatlar — shaxsga ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish, bilimlarni tez va osonlik bilan o'zlashtirishga yordam beruvchi individual psixologik xususiyat.

G'oyaviy e'tiqod — bu bilimning, o'sha shaxsga xos bo'lgan intellektual, emotsional va iroda sifatlarining sintezi, g'oyalar va xatti-harakatlar bir butunligining negizidir.

Harakatning oriyentirlash asosi - aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich rivojlanish nazariyasida kiritilgan tushuncha. Harakatning oriyentirlash asosi bolaning shakllantirilayotgan harakat va uni to'g'ri, muvaffaqiyatli bajarish sharoitlari va sifatleri bilan dastlabki tanishish jarayoni va natijasidir.

Yosh — individning ma'lum aniq vaqtda belgilangan psixik taraqqiyotining bosqichi. Ushbu bosqichda uning shaxs sifatidagi fiziologik va psixologik o'zgarishlari kuzatiladi.

Yosh davri nizolari — o'ziga xos, uncha uzoqqa cho'zilmaydigan ontogenez davrlari bo'lib, bu vaqtda keskin psixik o'zgarishlar ro'y beradi.

Yosh psixologiyasi — inson psixikasining yosh jihatdan taraqqiyoti, psixik jarayonlar hamda inson shaxsi xislatlarining ontogenezini o'rganuvchi fan.

Empatiya — insonning boshqalarga hamdard bo'lishi, ularning holatini tushunishi, ularga beg'araz yordam ko'rsatishga tayyorligi.

Eksperiment — tajriba — psixologiyaning asosiy metodlaridan,

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. AMOHaniBHJiH III.A. ObyHeHHe. OijeHKa. OTMeTKa. — M., 1980.
2. AHaHi>eB ET. UsOpaHHbie ncHxojiorH«ieckHe Tpyzbi. B 2 T. - M., 1980. T 2.
3. EepHC P.B. Pa3BHTHe R — KOHijenuHH H BOcnHTaHHe. — M., 1986. (M KOHueniiHn ynHTejia). C. 169—224. C.302—332.
4. EpaTycb E.C. HcHxojiorHuecKHe acneKTbi HpaBCTBeHHoro pa3BHTHM JIHHOCTH. — M., 1977. C.21—64.
5. BHTOTCKHH JI.C. nejjarorHMecKaa ncHxojiorHM. — M., 1991. (IcHxojiorHii H ynHTejib: C.358—372).
6. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya*. — T.: TDPU. 2009.
7. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. «Pedagogika va psixologiya* (ilmiy ommabop seriya). — T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999/1.
8. ЗHMHM H.A. neuarornuecKaM HCHXOJIOTHM: YuebHHK HJIM By3OB. H3fl. BTopoe, jjon., ncnp. H neperaG. — M.: Jloroc, 2002. — 384 c.
9. KaH-KajiHK B.A. YHHTejno o ne/tarorHHeckOM OIIIHHH. - M., 1987. C.155—176.
10. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. - T.: Sharq. 2000. - 111 b.
11. KOH H.C. nCHXOJIOTHM paHHeii IOHOCTH. — M., 1989.
12. KOH H.C. ncHxojiorHM iQHonicKoro BO3pacTa. — M., nncBemeHHe 1979 —173 c

16. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
17. Nishanova Z.T., Dismuxamedova Sh.A. va b. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya». — T: Fan va texnologiyalar nashriyotining bosmaxonasi. 2013. —344 b.
18. Pa3Bnrne JinnHOCTn pebeHKa. — M., 1987. C.231—266.
19. CaMapHH IO.A. OuepKH HCHXOЛOTHH yMa. — M.: H3fl-BO AИH PCCbCP, 1962.
20. CyHHaTOBa P.H. CaMoperyjisHHa MbicjiHTejibHOH jjen-TejibHOCTH. — T.: IHapK., 1998. — 83 6.
21. Cbpenn 3. BseAeHHe B нeHxoаHajiH3. JICKHHH. — M., 1991.
22. Cbpeiifl 3. ИcHxojiopHa H saipHTHbie MexaHH3Mbi. — M., 1993.
23. CbpoMM 3. HejioBeueKac CHTyaHHH. — M., 1995.
24. CbpnflMaH JI.M., KyjiarHHa H.K). ИcHxojiopHHecKHH cnpaBOHHHK yHTejia. — M.: HrocBemeHHe, 1991.
25. XajmepH JJ. ИcHxojiopHa KpHTHuecKopo MbmuieHHa. HnTep. 2000. —512 c.
26. SjibKOHHH U.E., JJaBbiuoB B.B. BoapacTHbie BOBMOKHOCTH

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. YOSH PSIXOLOGIYASINING PREDMETI, VAZIFALARI	4
1.1. Yosh psixologiyasining predmeti.....	4
1.2. Yosh psixologiyasining nazariy va amaliy vazifalari	9
1.3. Psixik rivojlanish determinatsiyasi muammosi	13
1.4. Yosh psixologiyasining asosiy tushunchalari.....	16
II BOB. YOSH PSIXOLOGIYASINING TADQIQOT METODLARI	21
2.1. Kuzatish va eksperiment yosh psixologiyasining asosiy metodi sifatida	21
2.2. Tasdiqlovchi va shakllantiruvchi tadqiqot strategiyalari	26
2.3. Tadqiqotning yordamchi metodlari	27
2.4. Empirik tadqiqotlarni tashkil qilish sxemasi.....	48
III BOB. YOSH PSIXOLOGIYASINING SHAKLLANISH TARIXI	52
3.1. Psixologiya fanlarining mustaqil sohasi sifatida yosh psixologiyasining shakllanishi.....	52
3.2. Bolalar psixologiyasini tizimli o‘rganishning boshlanishi.....	55
3.3. XIX asr o‘rtalari va XX asr boshlarida Rossiyada yosh psixologiyasining shakllanish tarixi	57
IV BOB. XX ASRNING BOSHLARIDA BOLA RIVOJLANISH NAZARIYALARI	69
4.1. Psixik rivojlanish omillari muammolarining qo‘yilishi.....	69
4.2. Bolalar psixologiyasi predmeti	72
4.3. Bola psixik rivojlanishining ijtimoiy va biologik omillari	79
V BOB. SHAXS RIVOJLANISHI SIFATIDA PSIXIK RIVOJLANISHNING PSIXOANALITIK YO‘NALISHI	88
5.1. Z.Freydning klassik psixoanalizida psixik rivojlanish masalasi.....	88
5.2. Bolalik psixoanalizi	99
5.3. Hozirgi zamon psixoanalitikasi bolalarni tarbiyalash va rivojlanishi haqida.....	100
VI BOB. ERIKSONNING SHAXS RIVOJLANISHINI PSIXOIJTIMOIY NAZARIYASI	103
6.1. Eriksonning ego-psixologiyasi	103
6.2. Erikson ishlarida tadqiqot metodlari	105
6.3. Erikson nazariyasining asosiy tushunchalari	107

6.4. Shaxs rivojlanishining psixoijtimoiy bosqichlari	108
VII BOB. BOLANING PSIXIK RIVOJLANISHI	
XULQ-ATVOR QOIDALARINI O'RGANISH MUAMMOSI	
SIFATIDA: BIXEVORIZM.....	128
7.1. Dj.Uotsonning bixevioristik nazariyasi	128
7.2. Operant o'rganish.....	131
7.3. B.Skinnerning radikal bixeviorizmi.....	133
VIII BOB. IJTIMOIYLASHUV MUAMMOSI SIFATIDA	
BOLA PSIXIK RIVOJLANISHINING IJTIMOIV	
O'RGANISH NAZARIYASI	139
8.1. Ijtimoiy o'rganish ta'limotining markaziy muammosi	
sifatida ijtimoiylashuv	139
8.2. Ijtimoiy o'qitish nazariyasining evolutsiyasi	140
8.3. Kuzatish, taqlid qilish orqali o'rgatish fenomeni	141
8.4. Bolalar rivojlanish taraqqiyotini o'rganishning	
diadik tamoyili	146
IX BOB. PSIXIK RIVOJLANISH INTELLEKT	
SHAKLLANISHI SIFATIDA: J.PIAJE KONSEPSIYASI	153
9.1. J.Piajening bola intellektual rivojlanishini tadqiq qilishning	
asosiy yo'nalishlari	153
9.2. J.Piajening intellekt operatsional ta'limoti	161
9.3. J.Piaje nazariyasining asosiy fikrlari tanqidi	169
X BOB. PSIXIK RIVOJLANISHNI TUSHUNISHNING	
MADANIY-TARIXIY KONSEPSIYASI. L.S.VIGOTSKIY	
VA UNING MAKTABI	172
10.1. Oliy psixik funksiyalarning yuzaga kelishi va	
rivojlanishi	172
10.2. Inson psixik rivojlanishining o'ziga xos muammolari	177
10.3. Insdn psixik rivojlanishini o'rganish metodlari	
muammosi	179
10.4. Ta'lim va rivojlanish muammolari	180
10.5. L.S.Vigotskiyning psixik taraqqiyotni	
madaniy-tarixiy nazariyasi	183
10.6. Psixik rivojlanish taraqqiyotini o'rganishdagi	
ikkita paradigmalari	185
XI BOB. INSON PSIXIK RIVOJLANISHINING	
BOSQICHLARI: ONTOGENEZDA RIVOJLANISHNI	
DAVRLASHTIRISH MUAMMOSI.....	188
11.1. Yoshga oid davrlarning tarixiy kelib chiqish muammosi....	188

11.2. «Psixologik yosh» kategoriyasi va L.S. Vigotskiy ishlarida bolalar rivojlanishini davrlashtirish muammosi.....	193
11.3. D.B.Elkoninning rivojlanishini davrlashtirish va yoshga oid dinamikasi haqidagi tasavvurlari	196
11.4. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosini hal etishdagi zamonaviy yondashuvlar	201
XII BOB. GO‘DAKLIK DAVRI	206
12.1. Prenatal va chaqaloqlik davridagi psixofiziologik xususiyatlar	206
12.2. Inqirozli davr sifatida go‘daklik davri	219
12.3. Hayotining birinchi yilida psixik rivojlanish.....	221
12.4. Go‘daklik davrining psixologik yangiligi.	
Bir yoshdagi inqiroz.....	223
XIII BOB. ILK BOLALIK DAVRI	226
13.1. Ilk bolalik davrida fiziologik va jismoniy rivojlanish, harakat malakalari, kognitiv rivojlanishi	226
13.2. Bola tafakkurida egotsentirizmning yuzaga kelishi predmetli harakat faoliyatlarining rivojlanishi	231
13.3. Ilk bolalik davrida nutqning o‘sishi	234
13.4. Aqliy rivojlanish, predmetli faoliyat ilk bolalik davrida yetakchi faoliyat sifatida	239
13.5. Ilk bolalik davrida o‘z-o‘zini anglash	242
XIV BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHI.....	247
1.1. Maktabgacha tarbiya yoshida rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari	247
1.2. O‘yin maktabgacha tarbiya yoshida yetakchi faoliyat sifatida	250
14.3. Bilish jarayonlarining rivojlanishi	259
14.4. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot	262
14.5. Asosiy psixologik yangilik	264
14.6. Maktabgacha tarbiya yoshidagi inqirozning tavsifnomasi.....	268
XV BOB. KICHIK MAKTAB YOSHI.....	272
15.1. Maktab ta’limiga psixologik tayyorgarlik va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari	272
15.2. Maktabga moslashish.....	280
15.3. Kichik maktab yoshida yetakchi faoliyat	294
15.4. Kichik maktab yoshida asosiy psixologik yangilik	300
15.5. O‘smirlik davriga o‘tishdagi inqiroz.....	317

XVI BOB. O‘SMIRLIK DAVRI.....	322
1.1. O‘smirlik yoshida rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari	322
16.2. O‘smirlik davrida yetakchi faoliyat	330
16.3. O‘smir psixikasi va xulq-atvorining o‘ziga xos xususiyatlari.....	333
16.4. Kattalar bilan muloqotning xususiyatlari	343
16.5. O‘smirlik davrida psixologik yangilik	346
16.6. Shaxs rivojlanishi va o‘spirinlik davriga o‘tishdagi inqiroz	354
XVII BOB. O‘SPIRINLIK DAVRI	368
17.1. O‘spirinlik psixologik yosh sifatida rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari	368
17.2. O‘spirinlik davrida yetakchi faoliyat	380
17.3. O‘spirinlik davrida intellektual rivojlanish	386
17.4. Shaxs rivojlanishi	397
17.5. O‘spirinlik davrida muloqot.....	404
XVIII BOB. YETUKLIK.....	412
18.1. Yetuklik psixologik bosqich sifatida	412
18.2. Yetuklikni davrlashtirish muammosi	414
18.3. Yetuklik davrining yetakchi faoliyati va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari	416
18.4. Yetuklik davrida shaxs rivojlanishi.....	416
18.5. Yetuklik davrining inqirozlari	418
18.6. Yetuklik davrida psixofiziologik va bilish jarayonlarining rivojlanishi	422
XIX BOB. KEKSAYISH VA KEKSALIK.....	426
19.1. Keksalik bioijtimoiy hodisa sifatida	426
19.2. Gerontopsixologiya muammolariga doir dolzarb tadqiqotlar	428
19.3. Keksalik va keksayish nazariyalari	430
19.4. Keksalikning yosh chegaralari muammosi	432
19.5. Keksalik davrida shaxsiy inqiroz va yoshning psixologik vazifalari	433
19.6. Keksalik davrida yetakchi faoliyat va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari	436
19.7. Keksalik davrining shaxsiy xususiyatlari	440
19.8. Keksayish davrida bilish jarayonlari	442

XX BOB. PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA FANINING, MAQSAD VAVAZIFALARI.....	448
20.1. Pedagogik psixologiya fanining vazifalari, inuammolari.....	448
20.2. Pedagogik psixologiyaning rivojlanish tarixi.....	451
20.3. Pedagogik psixologiya fanining tamoyillari	461
20.4. Pedagogik psixologiya fanining metodlari.....	463
20.5. Pedagogik jarayon konsepsiyalari va uning psixologik asoslari.....	464
20.6. Hozirgi zamon ta'limi: kognitiv-oriyentirovkadan shaxsiy oriyentirovkali ta'lim paradigmalari	466
XXI BOB. TA'LIM PSIXOLOGIYASI	471
21.1. O'quv faoliyati.....	471
21.2. O'quv motivlari	477
21.3. Rivojlantiruvchi ta'limning psixologik asoslari	479
21.4. Dars jarayonida o'quvchilarni boshqarish texnikasi va usullari	480
21.5. Kompyuterlashtirilgan ta'limning psixologik jihatlar	483
XXII BOB. TARBIYA PSIXOLOGIYASI	496
22.1. Tarbiyaviy texnologiyalarning psixologik jihatlari	496
22.2. Turli yosh bosqichlarida tarbiya xususiyatlari	508
22.3. Shaxs shakllanishida oilaning ta'siri	519
22.4. Shaxs tarbiyasida madaniyat.....	521
XXIII BOB. O'QITUVCHI PSIXOLOGIYASI.....	535
23.1. Pedagog faoliyatida psixologiyaning o'rni.....	535
23.2. Pedagogik muloqot	545
23.3. Pedagogik o'zaro harakatlarsixologiyasi	548
23.4. Pedagogik qobiliyatlar	550
23.5. Pedagogik faoliyatningindividual uslubi.....	557
23.6. Pedagog bilan psixolog faoliyatining modeli.....	560
23.7. Pedagogik jamoa psixologiyasi	564
XXIV BOB. PEDAGOGIK FAOLIYATNING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....	573
24.1. Pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlari.....	573
24.2. Pedagog shaxsi va unga qo'yiladigan talablar	580
24.3. Pedagogning o'zini-o'zi boshqarish muammosi	580
GLOSSARIY.....	586
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	593

Nishanova Zamira Taskarayevna,
Kamilova Nadira Gayratovna,
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna,
Xolnazarova Matlyuba Xolbutayevna

RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASL PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA

darslik

Muharrir *M. Tursunova*
Musahhah *H. Zakirova*
Dizayner *D. Ermatova*

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy.
Tel./faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI N»216, 03.08.2012.
Bosishga ruxsat etildi 10.10.2018. «Uz-Times» garniturası. Of-
set usulida chop etildi. Qog‘oz bichimi 60x84 V₁₆. Shartli bos-
ma tabog‘i 37,0. Nashriyot bosma tabog‘i 37,5. Adadi 300 nusxa.
Buyurtma N° 21

«AVTO-NASHR» XK bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko‘chasi, 57-uy.